

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URALOV AZAMAT
QAMBAROV MA’RUF**

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISH
METODIKASI
(o‘quv qo‘llanma)**

Toshkent – 2023

UO‘K:

KBK:

U:

Uralov Azamat, Qambarov Ma’ruf.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi: Uralov Azamat, Qambarov Ma’ruf – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 374 b.

ISBN:

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanma Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil 25-maydagi 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogikai universiteti O‘zbek tili va adabiyoti o‘quv-uslubiy birlashma yig‘ilishining 2023-yil – _____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:

S.Normamatov,
filologiya fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

T.Mirzaqulov,
filologiya fanlari doktori, professor
F.Sharipov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, yangi o'zbek diyorida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishning yangi davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz xalqaro andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining tamal toshi ham, mamlakatimizni qudratli, millatni buyuk siladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim-tarbiyadir. Yurtimizda o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'yaviy va vadaniy salohiyatini salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlatimiz o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amhurlik qiladi.

Xalqni – xalq, millatni – millat, farzandlar kelajagini ta'minlaydigan, insonni inson sifatida shakllantira oladigan asosiy kuch bu – ta'lim va sohadagi islohotlar ekanligi hammamizga kundek ravshan. Sababi, ilm-ma'rifat va ta'limsiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan taraqqiyoti bilan yetib boriladi. Shu sababli, davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yuksak madaniyatli yangi avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, 2016-yildan boshlab umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ishlari, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatini oshirish, yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratishga eng ustuvor vazifa sifatida qarala boshlandi. Albatta, bu bejiz emas. Zero, ta'lim sifati rivojlansa, hamma sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi.

Ona tilini o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX-XV asrlarda ijtimoiy – madaniy hayotda yuksalish, ilm – fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan, qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo'yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma'rifati, ilmu fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoniy, Marg'inoniy, Zamahshariy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o'z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta'lim va tarbiya bobida ham o'chmas iz qoldirdilar.

Chunonchi, Al Xorazmiy “Sezgi orqali bilish bu - qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir”, – deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Sharqda “Ikkinchi muallim” deb tan olingan Abu Nasr Forobiyning “Ta'lim-tarbiya berish usullari” asaridagi “Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan

bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirishi lozim", – degan fikri "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da ham asosiy, bosh mezon vazifasini bajaradi.

Abu Rayhon Beruniy har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga alohida e'tibor beradi: "Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo'ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Har bir yangi narsa o'rganuvchiga rohat bag'ishlaydi", – deydi buyuk alloma. Bu xulosa til hodisalarini o'rganishda, lisoniy materiallarni joylashtirish va o'qitishda dasturulamal bo'lishi shubhasizdir.

Yusuf Xos Hojibning Sharqdagi so'z va undan foydalanishga qo'yiladigan talablarga misol tariqasida qo'yidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Ko'p so'zlik foydasiz mashg'ulotdir. Tuman so'z tugunini bir so'zda yozish mumkin". Zero, kishi so'z tufayli qadr topishi yoki aksincha, boshi egik bo'lishi mumkin. Demak, so'z ma'nolarini ilg'ash so'z ishlatish uchun ham bilimdonlik talab etadi.

Alisher Navoiy o'zbek tili ravnaq uchun astoydil kuyindi. Turkiy tilning ravnaqi uchun qat'iy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, o'zbek tilining leksik-grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasi. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning adabiy tilga muvofiq ijod etganini alohidas ta'kidlaydi: "Andijon elining lafzi qalam bila rostdur, oni uchun kim Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, undan nash'u namo topibtur, bu til biladur".

XVI-XIX asr oralig'ida ham metodika fanining o'ziga xos tarzdagi taraqqiyoti kuzatiladi. Munis, Ogahiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy singari mutafakkir adiblarning ta'lim-tarbiya masalalariga ham alohida e'tibor bilan qaraganlari ma'lum.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit Turkistonda didaktik g'oyalarning tarqalishi va rivojlanishi, ta'lim prinsiplari hamda ta'lim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo'llanma va maqolalarning dunyoga kelishiga, pedagogika, qisman metodika fanining rivojlanishi va taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bunga misol sifatida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq" asarini keltirish mumkin. U mazkur kitobida: "Muallim shogirdlariga bergan darslarini amal ila chog'ishtirib o'rgatmaklari lozimdir, ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmli, odobli bo'ladilar", – deb yozadi.

XX asr boshlarida an'anaviy o'qitish usullari yoniga yangi – Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shila boshlaydi.

Dastur va qo'llanmalarni yaratishda mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Halil Qayumov, Majid Qodiriy va boshqalar faol ishtirok etadilar.

1940-yillarda O‘zbekistonda S. A. Fessalonitskiyning “Ona tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasi nashr qilindi. Bu o‘z davri uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Qo‘llanmaning ko‘p qismi nutq o‘stirish va insho masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, morfologiya va sintaksis o‘qitish metodikasiga alohida e‘tibor qaratilmaydi.

1960-80-yillar davomida ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lami yanada kengaydi. Bu sohada tilshunos olimlarimiz qo‘lga kiritgan yutuqlarining amaliyotga tadbiri bir qadar tig‘izlashgani bilan ko‘zga tashlanadi. Ona tili o‘qituvchilarning talab va ehtiyojlari hisobga olinib, “O‘qituvchilar gazetasi” (hozirgi “Ma‘rifat”) da ilg‘or ish tajribalar, metodik tavsiyalar izchil yoritila boshlandi. Endilikda “Til va adabiyot ta‘limi”, “Xalq ta‘limi”, “Uzluksiz ta‘lim”, “Kasb-hunar ta‘limi”, “Ta‘lim texnologiyalari” singari maxsus ilmiy-metodik jurnallar ham serqrra ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekistonning o‘z istiqlolini qo‘lga kiritishi milliy g‘oyaning tug‘ilishiga va shakllanishiga olib keldi. Ta‘lim tizimini umumjahon andozalariga moslash, darsga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zaruriyati tug‘ildi. Yangi taraqqiyot bosqchiga ko‘tarilayotgan o‘zbek tilshunosligida tilni tizimiy o‘rganish masalalarini taniqli tilshunos va metodist olimlar H. G‘. Ne‘matov, A. Nurmonov, N. M. Mahmudov, A. Q. G‘ulomov, R. Safarovalar boshlab berishdi.

Ta‘lim mazmunining yangilangani ta‘lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlar, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi davr taqozosi bilan bog‘langanligi o‘z-o‘zidan ma‘lum. Ta‘lim va tarbiyaning asosi maktab bo‘lsa, maktabni maktab qiladigan kuch esa pedagog xodimlar hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda 10289 ta umumta‘lim maktablari mavjud bo‘lib, ularda 6,3 million o‘quvchiga 542687 nafar pedagoglar ta‘lim-tarbiya berishmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berila boshlandi. Ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan Davlat ta‘lim standartlari va “Milliy ta‘lim dasturi”ning zamonaviy ruhda yaratilganligi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

Milliy dastur asosida 296 nomdagi yangi avlod darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari, jumladan, 189 ta darslik, 50 ta mashq daftari, 57 ta metodik qo‘llanmalar va darsliklarning mobil ilovalari yaratildi. Xalq ta‘limi tizimidagi malakali pedagog xodimlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-avgustdagi 425-sonli qarori bilan Vazir jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘ZBEK TILI TA’LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ME’YORIY ASOSLARI. O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

Ko‘riladigan masalalar:

1. *“Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Davlat tili haqida”gi va “Lotin alifbasiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunlari o‘zbek tilini o‘qitishda huquqiy-me’yoriy asos ekanligi.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining til haqidagi farmonlarining mazmun-mohiyati va uning ona tili ta’limi oldiga qo‘ygan vazifalari hususida.*
3. *“O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” fanining maqsad va vazifalari, o‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati.*
4. *O‘zbek tili o‘qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, o‘zbek tili o‘qitish metodikasining o‘rganilishi.*

1 §. “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Davlat tili haqida”gi va “Lotin alifbasiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunlar o‘zbek tilini o‘qitishda huquqiy-me’yoriy asos ekanligi

Ta’lim va tarbiyaning asosi maktab bo‘lsa, maktabni maktab qiladigan kuch esa pedagog xodimlar hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda 10289 ta umumta’lim maktablari mavjud bo‘lib, ularda 6, 3 million o‘quvchiga 542687 nafar pedagoglar ta’lim-tarbiya berishmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi. Ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan Davlat ta’lim standartlari va Milliy ta’lim dasturining zamonaviy ruhda yaratilganligi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish ishlarini kengaytirish va ota-onalarning ortiqcha ovvoragarchiligi, korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi 25 ta tuman (shahar) larda 1-sinfga qabul jarayonlari elektron dastur orqali (my.maktab.uz) amalga oshirilmogda. Shuningdek, yangi o‘quv yilida mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirokida yaratilgan Milliy o‘quv dasturi joriy qilindi. Ushbu dasturni yaratishda 20 ta zarur ko‘nikmalar asos qilib olingan. Dastur asosida yangi avlod darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-avgustdagi 425-sonli qarori bilan Vazir jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Unga asosan, malakali pedagog kadrlarga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5,5 baravar miqdorida 9 oy davomida har oylik ustama to‘lanadi. Asosiysi, yangi o‘quv yilidan boshlab tizimdagi maktab kutubxonalarini va “Bolalar kutubxonalarini” xodimlarining lavozim maoshi miqdori 1,2 baravarga oshiriladi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lamini oshirish ham maqsad qilingan. Xususan, 1-iyuldan attestat dublikatini olish uchun bevosita onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratildi va dublikat olish muddati 7 kun deb belgilandi. Ayni vaqtgacha yangi tartib bo‘yicha 3131 nafar fuqaro hujjat dublikatini ortiqcha ovvoragarchiliksiz olishga erishdi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bolalarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish uchun

arizalarni elektron dastur (my.maktab.uz) hamda Yagona interaktiv xizmatlari (interaktiv.oak.uz) portali orqali topshirmoqda. Xorijiy davlatlarda umumiy oʻrta va oʻrta taʼlim olganlik toʻgʻrisidagi hujjatlarni tan olish (nostirifikatsiya) boʻyicha davlat xizmati koʻrsatish ham davlat xizmatlari markazi yoki my.gov.uz elektron portali orqali amalga oshirish yoʻlga qoʻyildi. Bunda, 2 ta hujjatni elektron shaklda topshirib, 4 kun ichida oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 – 2026-yillarda xalq taʼlimini rivojlantirish boʻyicha milliy dastur”ini tasdiqlash haqidagi PF–134-son Farmonida tizimni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. Unga koʻra, 2022-2026-yillarda xalq taʼlimini rivojlantirish boʻyicha milliy dasturni tasdiqlash toʻgʻrisida maktab oʻquvchilarining bilimi va koʻnikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, oʻqituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va oʻquv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq taʼlimi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 – 2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “2023-yil - Inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022 – 2026-yillarda xalq taʼlimini rivojlantirish boʻyicha Milliy dastur tasdiqlandi. Dasturning asosiy yoʻnalishlari:

- maktab taʼlimiga ilgʻor xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan milliy oʻquv dasturini toʻlaqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

- jamiyatda oʻqituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib ragʻbatlantirish;

- oʻqituvchilarning yoshlarga taʼlim va tarbiya berishdagi masʼuliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

- umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilgʻor maktab direktori va namunali oʻqituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

- umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yoʻnalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish, bola taʼlim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning oʻrnini oshirish;

- oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirish;

- alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning xalq taʼlimi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv taʼlim jarayonlarini jadallashtirish;

- umumiy oʻrta taʼlimda barcha maʼlumot almashinuvi jarayonlarini xalq taʼlimi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari koʻlamini kengaytirish;

- umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining navbatlilik koeffitsiyentini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar boʻyicha maktablarni qurish,

rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda zarur jihozlar bilan ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Qonun 11 bob, 75 moddadan iborat.

Qonunning asosiy maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, davlat akkreditatsiyasi, davlat ta'lim muassasasi, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, shuningdek, malaka darajasi, mutaxassislik, tarbiya va ta'lim jarayoni, ta'lim kampusi (ta'lim-tarbiya muhiti), ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, davlat nazoratining asosiy shakli bo'lgan ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi kabi jihatlariga izoh berilgan.

Qonunda ta'limning asosiy tamoyillar bo'lgan, yani ta'lim ustuvorligining tan olinishi, mta'lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi, ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik kabi jihatlar ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunda ta'lim tizimi (6-modda), ta'lim turlari (7-modda), ta'lim olish shakllari (15-modda), ta'lim berish tili (33-modda), davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari (34-modda), pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi (44-modda), pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari (45-modda), pedagog xodimlarning majburiyatlari (46-modda), ta'lim oluvchilarning huquqlari (47-modda) kabi moddalar mazmun-mohiyatan o'z aksini topgan.

Yangi tahrirdagi "Davlat tili haqida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrda 168-I-sonli qarori asosida tasdiqlandi. Qonunning 2-bandiga muvofiq mazkur Qonunning 9 va 10-moddalari 2005-yilning 1-sentabridan e'tiboran kuchga kirdi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmasligi, O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda

bo'lish ta'minlanishi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratilishi, fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshirilishi alohida ta'kidlangan.

“Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarorida “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilishi, respublika davlat komissiyasiga uch oylik muddat ichida maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida, maktablarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalarida Yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tishning davlat dasturi va tartibini ishlab chiqish va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga taqdim etishi, 1995-yil davomida o'zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga taqdim etish, 1996-yil 1-sentabrdan e'tiboran maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida va umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida yangi alifbo bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishni, qolgan sinflarida esa fakultativ mashg'ulotlar tashkil etishni ta'minlash, viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlari Respublika davlat komissiyasi bilan kelishgan holda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishga doir dasturni amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tuzish, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, jamoat birlashmalarining respublika organlari, shu jumladan tasarruflaridagi korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda ham xodimlarga yangi alifboni o'rgatishni tashkil etish hamda buning uchun kerakli darsliklar, o'quv qo'llanmalari va texnika vositalari bilan ta'minlash yuzasidan maxsus ishchi guruhlarini tuzish kabi vazifalar belgilangan.

2 §. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining til haqidagi farmonlarining mazmun mohiyati va uning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari hususida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” haqidagi PF-60-sonli farmonida erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi yo'nalishlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF – 5850-sonli farmonida bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash

va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiyligi, o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, o‘nib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash asosiy maqsadimiz ekanligi ta’kidlangan holda, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etish, 2020-yil 1-iyunga qadar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini ishlab chiqish, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarda, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish, davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam va har tomonlama o‘rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rniva nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarni belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish, yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish va geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi vazifalari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish, til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF – 6084-sonli farmoni:

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi nufuzini tubdan oshirish, o‘nib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilining to‘liq joriy etilishini ta’minlash; mamlakatimizda O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini asrab-avaylash va rivojlantirish, o‘zbek tilini davlat tili sifatida qo‘llash, o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoit yaratish, uning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari hamda istiqbolini belgilash maqsadida 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi (Dastur) asosida:

- mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish;
- ta'lim muassasalarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;
- davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitish va aholining nutq madaniyatini yuksaltirish;
- davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash;
- davlat tilining xalqaro miqyosdagi mavqei va nufuzini oshirish, bu borada tashqi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, ularning davlat tilini o'rganishi uchun keng va teng imkoniyatlar hamda qulay shart-sharoitlar yaratish;
- 2025 yilgacha davlat maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud maktabgacha ta'lim muassasalari yoki yangi qurilayotgan muassasalar hududlarini kengaytirish hisobiga o'zbek tilida so'zlashuvchi guruhlar bilan qamrab olishni 72 foizga, 2030 yilgacha esa 80 foizga yetkazish;
- 2030-yilgacha umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun asosiy o'quv rejalarida o'zbek tili fanini o'qitish hajmini amaldagi 84 soatdan haftasiga 110 soatgacha oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025 yilgacha 120 taga, 2030 yilgacha esa 140 taga yetkazish;
- "O'zbekiston milliy lug'ati"ni lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosida nashr etishni bosqichma-bosqich oshirish;
- 2025-yilgacha davlat tilida ish yurituvchi hujjatlarning yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha 14 ta onlayn-dasturlarni ishlab chiqish va bu ko'rsatkichni 2030 yilgacha 25 taga yetkazish;
- dasturiy mahsulotlar va elektron lug'at dasturlarining o'zbekcha qo'shimchalarini yaratish;
- chet elliklar uchun o'zbek tilini o'rgatish dasturlarini yaratish;
- 2030 yilgacha xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini hozirgi 17 tadan 60 taga yetkazish;
- “O'zbek tili do'stlari” to'garaklari sonini 2025 yilgacha 30 taga, 2030 yilgacha esa 40 taga yetkazish;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalaridagi o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sonini ko'paytirish vazifalarini bajarish lozimligi ta'kidlangan.

3 §. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” fanining maqsad va vazifalari, shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati

Til o'qitish metodikasining asosiy maqsadi:

- *amaliy maqsad*: til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

– *ta’limiy maqsad*: talabalarda ijodiylik, Mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini egallash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish;

– *tarbiyaviy maqsad*: ma’naviy, g‘oyaviy – estetik tarbiya berish;

– *rivojlantiruvchi maqsad*: talaba shaxsini aqliy jihatdan rivojlantirish.

– *yo‘naltiruvchi maqsad*: talaba tafakkurini maqsadli yo‘naltirish.

(*Muammoli ta’lim, muammoli masala, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat*)

Til metodikasini o‘qitishning asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda, adabiy til me‘yorlari asosida to‘g‘ri ifodalay oladigan, bir ma‘noni turli holatlarda bera bilish ko‘nikmasi shakllangan, adabiy nutq me‘yorlarini egallagan, yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasini o‘rganish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

– o‘quv mashg‘ulotlarini til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, talabani Mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

– o‘quvchi faoliyatini so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan o‘quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so‘z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni (og‘zaki va yozma matn yaratish) shakllantirish;

– o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo‘l vosita va usullarini o‘rganish.

Demak, o‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabani ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, so‘z tanlash, gapda so‘zni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash o‘z fikrini aniq, ixcham, ravon ifodalashga o‘rgatish til o‘qitish metodikasining birlamchi vazifasi bo‘lsa, “talaba – talaba”, “talaba – o‘qituvchi” tizimida o‘zaro muloqotni, bahsu munozarani to‘g‘ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqlona bosh-qarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o‘rganish, talabalarni o‘qituvchilik mahorati va ilg‘or texnologiya bilan tanishtirib borish metodika fanining ikkinchi va bag‘oyat muhim vazifasi hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani hozirgi kungacha boy tajriba to‘pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta’limining izchil tizimini ishlab chiqsh, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o‘rganishning interfaol metodlarini o‘zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog‘liqdir. Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning

asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasiga ortilgan vazifalar nihoyatda ko‘p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir. Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat, muomalani ta‘minlashi bilan bog‘liq. Bunda axborotlarni boshqalarga yetkazish, o‘zaro fikr almashish amalga oshadi. Uning vositalari esa turli ko‘rinishlarga ega. Xususan, og‘zaki, yozma, shuningdek, tilshunoslikda paralingvistik deb nom olgan vositalar bo‘lishi mumkin. Oxirgi turkumga har xil imo-ishoralar, mimikalar kiradi. Bunda bevosita nutqning o‘zi ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin.

Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki notugalligi ham har xil bo‘lishi tabiiy.

Nutqning yana bir vazifasi uning tafakkur quroli ekanligidir. So‘z bilan “o‘lukni tiriltirish va aksincha, tirikni o‘ldirish mumkin” (Navoiy). So‘zning inson tafakkuriga, ruhiyatiga, kayfiyatiga kuchli ta‘siri ochiq haqqatdir. Busiz badiiy adabiyotning bo‘lishi mumkin emas edi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani ta‘limning turli bosqchlarida tilning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili o‘qitishga tegishli grammatik atamalar tizimining allaqachon shakllanganligi va ularning ta‘lim amaliyotida faol iste‘molda ekanligini ta‘kidlash joiz. Shunga qaramay, bu sohada hali anchagina notugalliklar, har xilliklar, hatto ichki ziddiyatlar mavjudligini e‘tirof etishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining boshqa bir qator nazariy hamda amaliy predmetlar bilan aloqadorligidan kelib chiqadigan atama va tushunchalar ham mavjud. Bunda ayniqsa, didaktika – pand-nasihad, tarbiya nazariyasi, pedagogik psixologiya fanlaridan o‘tgan atama va tushunchalar, bevosita fanning predmeti va unga yondosh sohalardan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan o‘tgan atama va tushunchalar ham asosiy mavqega egadir. Nihoyat, bularning eng katta qismini bevosita til o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga oid sof metodik tushuncha va atamalar tashkil etishini eslash mumkin. Mazkur qo‘llanmada o‘rn-o‘rnibilan mana shunday atama va tushunchalarning ta‘riflari, tavsif va izohlari ham berildi.

Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgarar nutqni tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, “talaba – ta‘lim – o‘qituvchi” munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish – ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo‘naltirilganligida. U ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning lisoniy-ta‘limiy asoslarini o‘rganadi.

Ijodiy tafakkur sohibini, o‘sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo‘lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta’limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta’limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish davr talabidir. Aynan shu nuqtayi nazardan olganda, hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqnlari ham, lug‘aviy – grammatik munosabatlar tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Shu sabab, pedagogika institutlari hamda universitetlarini bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgarliksiz, ona tili mashg‘ulotlarini talab darajasida o‘tkazishga qynaladilar. Mazkur kitobda ona tili o‘qitishning yangilangan mazmuni, texnologiyasini – ongli – verbal kognitiv ta’lim tizimiga tayanilgan holda izohlab berishga, bu haqida qisqacha tushuncha berishga harakat qilindi.

Uzluksiz raqobatchilikka tayangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko‘ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish vositalarini jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun G‘arb davlatlarida tarbiya tizimida bixevioristik yondoshuvdan kognitiv yondoshuvga qarab siljish sezilarli bo‘ldi. Inson faoliyatini baholashda ta’limiy, o‘rganilgan, o‘zlashtirilgan – kognitiv o‘tgan asrning 60-yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo‘lgan bixevioristik yondoshuvdan quyidagicha farqlanadi:

a) bixevioristik yondoshuvda inson xatti harakatlari tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadigan, ko‘p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

b) kognitiv yondoshuvda bu xatti harakatlarda onglilik – ta’lim asosida hosil qilingan malaka va ko‘nikmalar ustunligi tan olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, bixevioristik yondoshuvda inson va tarbiya sust, kognitiv yondoshuvda esa ular faoldir. Ma’lumki, bozor iqtisodiyotida yashash sharti insoniy faollikdir. Shuning uchun AQSh va g‘arbda asrimizning 60-yillaridayoq kognitivizm zudlik bilan pedagogika, didaktika tizimlariga kirib kela boshladi. Bu oqim o‘sha davrda ancha ommalashgan ta’limning verbal (ya’ni kommunikativ muloqotda ta’lim oluvchining faolligi va o‘zligini namoyon qilishga intilishi) usullari bilan birlashib, ongli verbal – kognitiv ta’lim yo‘nalishini shakllantiradi. Mashhur pedagog – metodist D. Ozbekel bu yo‘nalishga asos solib, ta’lim jarayonida yetakchi usul – kashfiyot (ing. discovery) ekanligini alohida ta’kidladi. Kashfiyot ta’lim usulining mohiyati shundaki, ta’lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi materiallarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida onglilik yetakchilik qiladi.

Sho‘ro pedagogikasi ijodkor shaxsni emas, balki bilimdon ijrochini tarbiyalashga qaratilganligi sababli, ongli verbal – kognitiv ta’lim usuli tarbiya tizimida ommalashtirilmadi. Istiqlool sharofati bilan bunday to‘siqlar barham topdi va O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida

...ijodkor shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining bosh vazifasi... – deb belgilandi. Jumladan, muhtaram Birinchi Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi chaqriq IX sessiyasida so'zlagan nutqda shunday ta'kidlagan edilar: “O'qituvchining bosh vazifasi – o'quvchilarda Mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zini oqlagan va yuqorida sanab o'tilgan psixologik omillar bizning ta'lim tizimimizga ham shahdam kirib kelmoqda”.

Ta'lim jarayonida tafakkur mahsulini voqelantirishning bunday pedagogik-psixologik omillari, usul va vositalari juda ko'p va rang-barangdir. Ulardan asosiylari sifatida, quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

– talaba, har bir mashg'ulotda darslik talabi asosida unga berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlash bilan emas, balki uning yo'llanmasi bilan yangi bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiya hosil qilishi, o'zi uchun biror yangilikni kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.

– talaba passiv tinglovchi (ko'chiruvchi, takrorlovchi, bajaruvchi) emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi, kreativ fikrlovchi bo'lishi kerak. Shuning uchun uning og'zidan (qalami ostidan) chiqqan har bir so'z, fikr, hukm, bayon uning o'ziniki (aytilgan, berilgan, eshitilganning takrori emas!) bo'lmog'i lozim. Albatta, talabadan tug'ilgan bu fikr olamshumul kashfiyot yoki biror chigal muammoning yechimi bo'lmasligi mumkin, lekin o'qituvchi (darslik) bergan axborotning soddagina takrori ham emas. Bunday ta'lim usuli (verballik) talabada Mustaqillik, mas'uliyat, o'z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda talaba bilan tinglovchilar (jumladan, o'qituvchi) orasidagi aloqa-munosabat (fikr almashtirish) juda ko'p hollarda jonli og'zaki munozara, qolaversa, bahs tusini oladi.

– o'qituvchi (darslik) ning ta'lim oluvchiga beradigan yo'llanmasi shunday tuzilmog'i lozimki, talabalarning izlanish va ijod mazmuni mohiyatan bir yo'nalishda, lekin ular shaklan va mazmunan rang-barang bo'lmog'i kerak. Shundagina har bir ta'lim oluvchi o'zligini, ilmiy iqtidorini mumkin qadar erkinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Darsda musobaqa, bellashuv ruhi hukmronlik qiladi.

– talaba, dars jarayoni (uy vazifasini bajarish va uni tahlil etish)da o'qituvchi yo'llanmasi (darslik topshirig'i) asosida izlanar, fikr qilar, muammoni topar, biror hukmga kelar ekan, o'z fikrini asoslash, isbotlash va himoya qilishga intilmog'i lozim. Mashg'ulotning tashkil etilishi va o'quv materiali bunga keng yo'l ochib bermog'i, o'rganuvchining yosh psixologiyasi va aqliy fiziologik qobiliyatiga mos tarzda bo'lmog'i zarur. Ta'limning *onglilik* omili mana shularda namoyon bo'ladi. Endilikda amaliyotga joriy etilgan Davlat ta'lim standartlari asosida boshqa fanlar qatorida “Ona tili” o'quv dasturi va shu dastur asosida yangi ona tili darsliklarining tuzilishi, ko'rinishi, shakli, o'quv topshiriqlari va materiallarini yuqorida sanab o'tilgan omillar nuqtayi nazaridan psixolog va didakt sifatida ko'zdan kechirish, yangi avlod darsliklarida, asosan,

ongli verbal – kognitiv ta’lim tamoyili ustivor bo’lib borayotganligini ko’rsatmoqda.

Bunday omillar asosida ma’lum bir o’quv predmetini to’laligicha tizimli yo’lga qo’yish til o’qitish metodikasi uchun yangilikdir. Zeroki, oldingi davrlarda bunday ta’lim usulining elementlari muammoli ta’lim sifatida ayrim mavzularni o’rganish jarayonidagina qo’llanilardi. Hozirgi zamonaviy darsliklar esa ko’proq shunday ta’lim usuliga tayanadi. O’z-o’zidan tushunarliki, bunday yondashuv til o’qitish metodikasi oldiga qator yangi vazifalarni qo’yadi.

Ma’lumki, so’z va tasavvurlar asosida mantiqiy fikrlash qobiliyati bolalarning 11-12, 15-16 yoshlarida ko’proq rivojlanadi. Bu davr V-IX sinflarga to’g’ri keladi. O’quv material va topshiriqlarning berilishida bosqichli ketma-ketlik hamda har bir mavzuni o’rganish jarayonida talabani ko’p turdagi aqliy faoliyatini rivojlantirish, amaliyotning mavzudan mavzuga, sinfdan sinfga murakkablasha borish yo’llari ham, o’rganish jarayonining faol kuzatishdan boshlanib, amaliy qo’llash bilan yakunlanishi ham ongli verbal kognitiv – psixodidaktik asoslarga to’la mosdir. Bunday ta’lim usulini amaliyotda izchil qo’llash, bunday yo’nalishdagi ilk tajribalar bo’yicha ayrim mulohazalarni bayon etish mumkin:

I. Darsliklarda berilgan ma’rifiy materiallardagi uslubiy nuqsonlar, tahririy kamchiliklarni, topshiriqlar, matnlar, mashqlar shartidagi g’alizliklarni zudlik bilan bartaraf etish;

II. “Ona tili” mashg’ulotlarida ongli verbal – kognitiv ta’lim – (OVKT) usulini qo’llashni o’rganish va rivojlantirish. Buning uchun birinchi galdagi vazifalarimiz sifatida quyidagilarni sanab o’tishimiz lozim.

1. OVKT usuli (bugungi kunda ona tili ta’limining yangi pedagogik texnologiyasi)ni o’qituvchilar orasida ommalashtirish eng muhim vazifalarimizdan biri sanalishi lozim. O’qituvchilarimiz zamonaviy kompyuter o’quv dasturlarini, interaktiv faoliyatni, kashfiyotga asoslangan ta’lim usulidan amaliy foydalanishni o’rganib olmas ekanlar, ta’lim natijalarida katta samaradorlikka erisha olmaydilar.

2. Yangi avlod darsliklari va OVKT usuli bilan o’tkaziladigan mashg’ulotlarning samaradorligini oshirish uchun talaba (o’quvchilar) qo’shimcha axborot (izlanish, topish va saralash) manbalari bilan ta’minlangan bo’lishlari shart: hozircha bu manbalar darslikning o’zi, talabani xotirasidagi, kundalik turmush, boshqa o’quv fanlaridan, atrofdagilardan so’rab-surishtirib olinadigan ma’lumotlardan iborat. Bu, albatta, yetarli emas. O’qituvchilar ona tili boyliklarini talabalarga yetkaza oladigan qomusiy ma’lumotnoma (axborotnomalar), turli xildagi (izohli, uyadosh so’zlar, ma’nodosh so’zlar, zid ma’noli so’zlar, tarixiy so’zlar, yangi so’zlar, tasviriy ifodalar, iboralar, turg’un birikmalar, so’zlarda ma’noviy darajalanish, olinma so’zlar, ters lug’atlar, o’zakdosh so’zlar lug’ati, ohangdosh so’zlar lug’ati, qo’shimchadosh so’zlar lug’ati, shakldosh so’zlar lug’ati v. h) lug’atlar bilan ta’minlangan bo’lishlari (ular kitob shaklida hamda disket shaklida berilishi mumkin) shart. Shunda darsliklarning hozirgi hajmi hamda moddiy xarajatlar keskin qisqarib, ular

asosan, har bir mavzuni o'rganish (har bir mavzu doirasida maqsadli va ijodiy fikrlash, hamda matn yaratish topshiriqlari) algoritmidan iborat bo'lar edi. Albatta, bu juda katta ish. Uzluksiz ta'limda ongli verbal – kognitiv ta'lim usuliga qadam qo'yish, *ijodkorshaxs* tarbiyasini bosh maqsad qilib qo'yish demak.

4 §. O'zbek tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganilishi

Ona tilini o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX-XV asrlarda ijtimoiy – madaniy hayotda yuksalish, ilm – fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan, qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo'yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma'rifati, ilmu fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Marg'inoniy, Zamahshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o'z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta'lim va tarbiya bobida ham o'chmas iz qoldirdilar.

Chunonchi, buyuk mutafakkir Al Xorazmiy “Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir”, – deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Sharqda “ikkinchi Muallim” deb tan olingan (Arastudan keyin) Abu Nasr Forobiyning “Ta'lim-tarbiya berish usullari” asaridagi “Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirishi lozim”, – degan fikri “O'zbek tili o'qitish metodikasi”da ham asosiy, bosh mezon vazifasini o'taydi.

Abu Rayhon Beruniy har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga alohida e'tibor beradi: “Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo'ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Har bir yangi narsa o'rganuvchiga rohat bag'ishlaydi”, – deydi buyuk alloma. Bu xulosa til hodisalarini o'rganishda, lisoniy materiallarni joylashtirish va o'qitishda dasturulamal bo'lishi shubhasizdir.

Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim, tib ilmining sultoni, ulug' mutafakkir, fanning ko'plab sohalari qatori tilshunoslik bilan ham maxsus shug'ullandi, “Lison ul-arab” (Arab tili) nomli kitob ham yozdi.

Abu Ali ibn Sino yozadi: “sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting so'zlaringga va nasihatingga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir”.

Mahmud Qoshg'ariy XI asrdagi buyuk tilshunos olimdir. Garchi uning asari “Devonu lug'otit turk” (“Turkiy so'zlar devoni”) o'z davridagi turkiy so'zlarni izohlashga bag'ishlangan bo'lsa-da, u so'z va uning ma'nolarini

aniqlash, soʻzdan nutqiy amaliyotda foydalanish, nutq madaniyati borasida ham koʻplab ilmiy mulohazalar bildiradi, ilmiy xulosalar aytadi.

Mahmud Qoshgʻariy turkiy tildagi fonetik, morfologik qonuniyatlarni, leksik-sintaktik xususiyatlarni, uslubiy oʻziga xosliklarni nozik did bilan qiyoslaydi va tahlil qilib beradi.

Muhimi, buyuk alloma XI asrda xalq tilida isteʼmolda boʻlgan soʻzlarning asl manbasi, ularning “yashash joyi” boʻlgan badiiy matnlar bilan birgalikda saqlanib qolishiga erishdi. Keyingi avlod vakillarining qadimgi adabiy til va ogʻzaki nutq namunalari bilan tanishish imkoniyatidan bahramand qildi.

Alloma koʻplab xalq qoʻshiqlari, ertak va afsonalari, maqol va hikmatli soʻzlarini ham yozib olgan. Ular orasida bevosita til va nutq jarayonlariga oidlari ham mavjud;

Ardam bashi til. – Til (barcha) sanʼat-hunarning boshidir.

Soʻzga suguncha bulun barir. – Odam soʻzning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir boʻlib ketadi.

Mahmud Qoshgʻariy maqollarning qoʻllanish oʻrinlarini ham koʻrsatadi. “Suf koʻrmaguncha etuk tartma” – “Suv koʻrmasdan oldin etik yechma”. Bu maqol ishlarda mulohazali boʻlishga undalgan kishilarga nisbatan qoʻllaniladi.

“Keng toʻn oʻbramas, kengashlig bilig artamas” – “Keng toʻn toʻzimaydi, kengashli ish buzilmaydi”. Bu maqol bir ish boshlashdan oldin boshqalar bilan kengashish, oʻzboshimchalik qilmaslikka undab aytiladi.

Yusuf Xos Hojib. Sharqdagi soʻz va undan foydalanishga qoʻyiladigan talablarga misol tariqasida Yusuf Xos Hojibning qoʻyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Koʻp soʻzlik foydasiz mashgʻulotdir. Tuman soʻz tugunini bir soʻzda yozish mumkin. Zero, kishi soʻz tufayli qadr topishi yoki aksincha, boshi egik boʻlishi mumkin”. Demak, soʻz maʼnolarini ilgʻash soʻz ishlatish uchun ham bilimdonlik talab etiladi.

Alisher Navoiy oʻzbek tili ravnaq uchun astoydil kuyindi... Turkiy til ravnaq uchun qatʼiy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, oʻzbek tilining leksik – grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasidir. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning adabiy tilga muvofiq ijod etganini maxsus taʼkidlaydi: “Andijon elining lafzi qalam bila rostdur, oni uchun kim Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, undan nashʼu namo topibtur, bu til biladur”.

Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligini taʼkidlaydi, uni “guhari sharif” deya taʼriflaydi. Soʻz insonni hayvondan ajratgan ulugʻ neʼmat deya ulugʻlaydi:

“Tengriki, insonni qilib ganji roz,
Soʻz bila hayvondin anga imtiyoz”.

Navoiy har doim shaklning mazmunga uygʻun boʻlishini talab etadi:

Nazmki maʼni anga margʻub emas,
Ahli maʼoniy qoshida xoʻb emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida maʼni dogʻi dilkash anga.

Umar az – Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Hoja Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning ma'rifiy fikrlari, axloqiy – ta'limiy qarashlari ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

XVI XIX asr oralig'ida ham metodika fanining o'ziga xos tarzdagi taraqqiyoti kuzatiladi. Munis, Ogahiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy singari mutafakkir adiblarning ta'lim-tarbiya masalalariga ham alohida e'tibor bilan qaraganlari yaxshi ma'lum.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit Turkistonda didaktik g'oyalarning tarqalishi va rivojlanishi, ta'lim prinsiplari hamda ta'lim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo'llanma va maqolalarning dunyoga kelishiga, pedagogika, qisman metodika fanining rivojlanishi va taraqqiyot etishiga zamin yaratdi. Bunga misol sifatida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq" asarini keltirish mumkin. U mazkur kitobida: "Muallim shogirdlariga bergan darslarini amal ila chog'ishtirib o'rgatmaklari lozimdir, ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmiy, odobli bo'ladilar", – deb yozadi.

XX asr boshlarida an'anaviy o'qitish usullari yoniga yangi – Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shila boshlaydi.

Dastur va qo'llanmalarni yaratishda mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Halil Qayumov, Majid Qodiriy va boshqalar faol ishtirok etadilar.

1940-yillarda O'zbekistonda S. A. Fessalonitskiyning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi. Bu o'z davri uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Qo'llanmaning ko'p qismi nutq o'stirish va insho masalalariga bag'ishlangan bo'lib, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor qaratilmaydi.

1944-yilda Murod Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K. Xayrullayev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Keyinroq, 1950-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi (Murod Shams), 1952-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ga oid darslikning 1-qismi (Faxri Kamol tahriri ostida) bosmadan chiqdi. Mazkur qo'llanma va kitoblarda ona tili darslarini uyushtirish va o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar, ona tili o'qitishni yaxshilash bo'yicha maslahatlar, mashg'ulotlarda nutq o'stirishning usul va vositalari, jadvallar majmuasi, dars ishlanmalari berilgan. Lekin orfografiya va punktuatsiyaga, matn ustida ishlashga oid masalalarga to'xtalinmagan.

1960-yilda "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi" (H.Rustamov), 1969-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (N.Abdurahmonov) kitoblari nashr etildi. Ular o'z davridagi ona tili o'qitish metodikasiga qo'shilgan tegishli hissa sifatida baholanishi mumkin. Lekin bu qo'llanmalarda nutq o'stirish va uslubiy mashqlar, insho yozish mazmuni va metodikasiga yetarli o'rin berilmaganligini aytish joiz.

1975-yili “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” faniga oid nisbatan yangi tipdagi o‘quv qo‘llanmasi (Y.G‘ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov) chop etildi.

1960-80-yillar davomida ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lami yanada kengaydi. Bu sohada tilshunos olimlarimiz qo‘lga kiritgan yutuqlarning amaliyotga tatbiq bir qadar tig‘izlashgani ko‘zga tashlanadi. Ona tili o‘qituvchilarining talab va ehtiyojlari hisobga olinib, “O‘qituvchilar gazetasi” (hozir “Ma‘rifat”) da ilg‘or ish tajribalari, metodik tavsiyalar izchil yoritila boshlandi. Endilikda “Til va adabiyot ta‘limi”, “Xalq ta‘limi”, “Uzluksiz ta‘lim”, “Kasb-hunar ta‘limi” singari maxsus ilmiy-metodik jurnallar ham serqrra ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqdalar.

O‘zbekistonning o‘z istiqlolini qo‘lga kiritishi milliy g‘oyaning tug‘ilishiga va shakllanishiga olib keldi. Ta‘lim tizimini umumjahon andozalariga moslash, darsga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zaruriyati tug‘ildi.

O‘quv dasturi va darsliklar ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga muvofiq takomillashtirildi va yangilandi. Milliy dastur va DTS talablarini ta‘lim mazmuniga joriy etish, uni tobora takomillashtirib borish shu kunning dolzarb masalasi bo‘lib qoldi.

Yangi taraqqiyot bosqchiga ko‘tarilayotgan o‘zbek tilshunosligida tilni tizimiy o‘rganish masalalarini taniqli tilshunos va metodist olimlar H.G‘.Ne‘matov, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, va A.Q.G‘ulomov, R.Safarovalar boshlab berishdi.

1989-yilda tilimizga “Davlat tili” maqomi berilgach, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan O‘zbek tili doimiy anjumani ta‘sis etilishi til va adabiyot ta‘limining mazmuninigina emas, balki uni o‘qitishni ham yangi yo‘nalishlarda davom etishiga imkon yaratdi. Anjuman ta‘sis etilgandan buyon uning har bir yig‘ilishida ta‘lim oluvchi so‘z boyligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, milliy ma‘naviyat, nutq madaniyati me‘yorlarini singdirish, matn yaratish malakasini shakllantirish kabi nihoyatda dolzarb masalalar muhokama etilmoqda.

Endilikda “Ona tili o‘qitish kontsepsiyasi”, “Davlat ta‘lim standartlari”, til o‘qitishning namunaviy dasturlari yaratildi, umumta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘limning bakalavriat va magistratura bosqchlari uchun darsliklarning yangi avlodi chop qilindi va ular tajriba – sinovlardan o‘tkazilmoqda. Ta‘lim mazmunining yangilangani ta‘lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishini taqozo etishi o‘z-o‘zidan ma‘lum.

Hozirgi o‘zbek yozuvining shakllanishi. Har bir millatning o‘z tili, o‘z yozuvi bo‘ladi. Yozuv tilning zohiriy ifodasi, avlodlarning munosabat vositasidir. Ajdodlarimiz qadimiy obidalarimiz, buyuk mutafakkirlarimizning ulkan merosi, nodir qo‘lyozma asarlar orqaligina bizgacha yetib kelgan. Yozuv avlodlarni, davrlarni bir-biri bilan bog‘laydi, nutqni uzoq saqlaydi, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar abadiyligini ta‘minlaydi.

Bizning davrimizga kelib, insoniyat 200 xil yozuvga ega. Ulardan eng ko‘p va keng tarqalgani lotin yozuvi bo‘lib, bu yozuvdan yer yuzi aholisining 30 foizdan ziyodi foydalanadi.

O‘zbek tili fanini o‘qitish mazmuni. Ta’lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida “nimani o‘qitish kerak?” degan savolga javob izlash bilan shug‘ullandilar va hali hamon bu savolga to‘liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo‘q. Ta’lim mazmuni bo‘yicha berilgan va berilayotgan barcha ma’lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto‘xtov ilgarilab boradi.

Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Ta’lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi:

I. Talabalar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riflar tizimi);

II. Tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi;

Ko‘nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, malaka esa muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir.

III. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish; faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy – ijodiy darajada bo‘lishi mumkin;

Qayta xotirlash faoliyati – o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir bu esa o‘rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida talaba yo‘naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma’lum sharoitlarda qo‘llashi lozim.

Ilmiy-ijodiy faoliyatda talaba (o‘quvchi) hech qanday tashqi yordamisiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo‘llay olishi, faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqazosiga ko‘ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi. Talabaning ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko‘p asoslansak, ta’limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riflar tizimi

Faoliyat:

1. *Qayta xotirlash;*
2. *Qisman izlanuvchanlik;*
3. *Ilmiy-ijodiy faoliyat.*

Ko'nikma: Egallangan tajribalar asosida muayan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Ongli verbal – kongnitiv ta'lim (OVKT) tizimi. Hakorlik tizimi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning amaliy tatbiqi.

Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va to'rtinchi qismlarni, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko'nikmalarni tashkil etadi.

Ona tili o'qitish mazmuni – fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

“Talaba – ta'lim – o'qituvchi” tizimi yangilangan ta'lim mazmunida yetakchi omildir. Bo'lajak ona tili o'qituvchisi metodika fanini chuqur o'rganishi, kommunikativ savodxonlik me'yorlari bo'yicha DTS talablarini yaxshi bilishi darkor. Shuningdek, o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rganishi, egallangan nutqiy ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun haqida nimalarni bilasiz?
2. “Davlat tili haqida”gi Qonun nimaga qaratilgan?
3. “Lotin alifbasiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi Qonunda ko'tarilgan asosiy masala nima?
4. O'zbek tilini o'qitishda huquqiy-me'yoriy asosiy hujjatlar qaysilar?.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining til haqidagi farmonlarining mazmun mohiyati haqida nimalar deya olasiz?
6. Tilga tegishli qaror va farmonlarning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari nimalardan iborat?
7. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” fanining maqsad va vazifalarini bilasizmi?
8. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati.
9. O'zbek tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Tayanch so'z va iboralar:

Ta'lim va tarbiya, dastur, Ta'lim to'g'risidagi qonun, malaka, ta'lim kampusi, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi, davlat akkreditatsiyasi, davlat ta'lim muassasasi, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, mutaxassislik, dual ta'lim, oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish, inklyuziv ta'lim, eksternat tartibidagi ta'lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza

qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash, yangi alifbo, amaliy maqsad, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, ma'naviy, g'oyaviy – estetik tarbiya berish, rivojlantiruvchi maqsad, yo'naltiruvchi maqsad, ko'nikma, qayta xotirlash faoliyati, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy faoliyat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Davlat tili haqida”gi Qonun.
2. “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi Qonun.
3. “O'zbek tilining imlo lug'ati” (E. Panasenko, E. Umarov. Toshkent-1998.
4. “O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga sharhlar”. – T.: O'zbekiston, 1999.
5. “Qalqon” jurnali, 2004-yil, 7-son
6. “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonun. “Ma'rifat”, 2020.
7. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
8. Bobokalonov R, Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. – T.: 1998.
9. Davlat ta'lim standartlari. T., 2016-yil.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» – T.: «O'qituvchi», 1995.
11. Mahmudov N., To'xliyev B. «O'zbek tilini o'rganamiz» rasmliy lug'ati.
12. Milliy dastur. T., 2022-2026-yillar.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2022.
14. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
15. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari
16. O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonun, 1989.
17. Rafiyev A. “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi”. O'quv qo'llanma, Toshkent-2003.
18. Rahmatullaev Sh. “O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi” – T.: «Universitet», 1999.
19. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
20. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent -2021.
21. Ziyodova T.U. “O'qituvchi kitobi”. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2002.

Elektron ta'lim resurslari

22. www.edu.uz– O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti
23. www.edunet.uz– maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti

24. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o‘rta dasturlarini rivojlantirish markazi

25. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali

26. www.uzedu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

O‘ZBEK TILI O‘QITISHNING UMUMDIDAKTIK VA O‘ZIGA XOS TAMOYILLARI. FAN O‘QITUVCHISIGA QO‘YILADIGAN KASBIY TALABLAR

Ko‘riladigan masalalar:

1. *Pedagogik mahorat va ona tili ta’limida kommunikativ yondashuv.*

2. *Tamoyil va amaliyot: nimani o‘itish va qanday o‘qitish kerak?*

Umumkasbiy talablar.

3. *Ona tili o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar. Ona tili o‘qituvchisining burch va mas’uliyati*

5 §. Pedagogik mahorat va ona tili ta’limida kommunikativ yondashuv

Mahorat (arab. “*mohirlik*”, “*ustalik*”, “*epchillik*”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo‘lib, muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar yig‘indisidan iborat.

Pedagogik mahorat:

1) kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi;

2) shaxsning kasbiy sifatleri, layoqat qobiliyatlari majmui;

3) san’at darajasidagi mahorat;

4) pedagogik mohirlik, san’at va bilimdonlikni ifodalovchi atama. (*Pedagogik entsiklopediya 2017- y. 3-jild.*)

Pedagogik mahorat quyidagi muayyan shakllarning yo‘nalishlariga ega:

1. *O‘quv pedagogik faoliyat yo‘nalishi.* Bunda o‘qituvchi o‘zi dars berayotgan o‘quv predmeti, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishi zarurligini nazarda tutadi.

2. *Shaxsiy faoliyat yo‘nalishi.* Bu yo‘nalishda o‘qituvchi o‘zi, o‘z ishi, hamkasblari, o‘quvchilari, ularning ota-onalariga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Bu o‘qituvchining o‘z mavqeyini tushunishi, o‘z-o‘ziga baho berishi, o‘z-o‘zini anglashi, mustaqil bilim olishga intilishi, kasbiy rivojlanishi, o‘z

kasbiy faoliyatini rivojlaitirishi, bunyodkorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik layoqati, yangilikka muntazam intilishida namoyon bo‘ladi.

3. *Ijtimoiy pedagogik faoliyat yo‘nalishi.* U o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilar jamoasini his eta olishi, ularning tuyg‘ularini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, duch keladigan qiyinchiliklarini bilib olishi;

- har bir ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini ilg‘ay olishi;

- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi;

- turli ijtimoiy foydali ishlarga o‘quvchilarni jalb eta olishi;

- fan, hayot, san‘at, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqish uyg‘ota olishini ifodalaydi.

4. *Axborot-kommunikativ faoliyat yo‘nalishi.* U o‘qituvchining ma’lumot axborotga ega ekanligi; voqelik, pedagogik jarayondagi voqea-hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan qurollanganligi, axborot va kommunikativ texnikadan ma’lumotlar ola bilishi, ular ustida qayta fikrlashi, hamkasblari va o‘quvchilarga yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Qayd etib o‘tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkur yo‘nalishlari o‘qituvchi faoliyatining asosini tashkil qiladi (*Pedagogik ensiklopediya 2017- y. 3- jild.*)

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- pedagog shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo‘naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo‘lishi;

- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash);

- pedagogik texnikani egallashi, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olishi, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi-ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, ayrim masalalarni o‘zini ta’lim oluvchi o‘rnida sezib hal etishi, adolatli bo‘lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga – barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirishda ifodalanadi. Buyuk mutafakkirimiz Ibn Sino ham o‘qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, odamgarchilik kabi hislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo‘lish mahoratli pedagog faoliyatining bir qancha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Insonparvarlik deganimizda, ta’lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo‘lishni tushunamiz. Har bir ta’lim oluvchiga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondoshishimiz darkor. Bolalarni seva olish, ularga o‘z ota-onalaridek mehribonlik ko‘rsata bilish mohir

pedagogning muhim insonparvarlik fazilatlaridan biridir. Pedagog har doim, hamma vaqt ta'lim oluvchilarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z ta'lim oluvchisi to'g'risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. Ta'lim oluvchilar orasida uning "sevimli" yoki "yomon" ko'radigan tarbiyalanuvchilarni bo'lishi ta'lim oluvchida pedagogga bo'lgan hurmatni so'ndiradi. Har qanday bo'sh va past o'zlashtiradigan, "tarbiyasi qiyin" ta'lim oluvchi bilan ishlaganda pedagogning vazifasi shundan iboratki, ta'lim oluvchidagi ana shu bilinear-bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib ta'lim oluvchi mulkidagi, o'tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog'i lozim. Pedagog shaxsiy fazilatlarini tizimida pedagoglik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo'nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol o'ynaydi. Bunday professional xususiyatlarni olimlarimiz S.Baranov va boshqalar shunday izohlaydilar:

"Pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj professional mahoratdagi pedagog shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli bahodir, u o'zida: "...bolalarga qiziqish va muhabbatni; pedagogni ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyaraklik va kuzatuvchanligini mujassamlashtiradi".

Pedagogning ta'lim oluvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik ta'lim oluvchilarni intizomga chaqiradi, o'z hulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yishga da'vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun pedagog talabning me'yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo'lib, bolaning kelajak hayoti, faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni quvonchga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo'naltirilgan bo'lsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, pedagogning o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqodi bo'la olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash ta'lim oluvchilarda bobolar avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, pedagog shaxsiy fazilatining muhim omili o'tmish merosini mukammal bilish, qadriyatlar, urf-odatlar mazmunini anglash ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish orqali ilmiy dunyoqarashni o'zida tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Kasbiy bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashkil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to'g'risidagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o'zlashtirayotgan ta'lim oluvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'zi dars berayotgan fanni, o'ni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo'lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li mohiyati, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash,

chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlarini, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazo.

Kasbiy bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur.

70-80 yillarda ta'lim beruvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda ta'lim beruvchilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganildi. Tadqiqotchi A.I. Sherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat- bu ta'lim beruvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat ta'lim beruvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqazo qiladi. I.A.Sherbakov ta'lim beruvchi shaxsi 6 ta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo'nalishning aniq ifodalanganligi.
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat'iy va silliq xarakter.

6. Pedagogik qobiliyatlar.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, ta'lim beruvchining pedagogik qobiliyatlarini qo'yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. ***Didaktiv qobiliyat*** – bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olish. Bunda ta'lim beruvchining o'quv materialini tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. Ta'lim beruvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

2. ***Akademik qobiliyat*** – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan ta'lim beruvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. Tarbiyalanuvchilarda ma'lum fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

3. ***Pertseptiv qobiliyat*** – qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday ta'lim beruvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida tarbiyalanuvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. ***Nutqiy qobiliyat*** – ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, ta'lim beruvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli ta'lim beruvchining nutqi mashg'ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim beruvchi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi tarbiyalanuvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. ***Tashkilotchilik qobiliyati*** – o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik tarbiyalanuvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan tarbiyalanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z faoliyatini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. ***Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati*** – o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi-avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo'lish ta'lim beruvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilliligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va h.k) Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni tarbiyalanuvchilarga ham y etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. ***Kommunikativ qobiliyat*** – muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. ***Diqqatni taqsimlash qobiliyati*** – bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Ta'lim beruvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali ta'lim beruvchi o'z fikrini (yoki tarbiyalanuvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

9. ***Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati*** – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda,

tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

10. **Konstruktiv qobiliyat** – o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi. Uningdek zamonaviy ta'lim beruvchi o'zida aqli donishlik qobiliyati, iymon-e'tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlari bo'lishi zarurligi ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim kontseptsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: *“Mutaxassis o'z faoliyati, sohasidan qat'i nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo'jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak”*. Ushbu fikrlar o'qituvchilarga ham bevosita ta'aluqli. Chunki jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar,

Bozor munosabatlariga kirib borishimiz o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo'lishni hamda bunday yangiliklarni o'zining pedagogik faoliyatiga bolalarni har tomonlama kamol toptirishga doir ijodkorona (kreativ) foydalana bilishni taqozo qilmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchisi xususida alohida to'xtalmoq zarur. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinf bolalarining yosh, individual hamda psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'zlarining pedagogik faoliyatlarini olib borishi talab etiladi. Vaholanki, bola shaxsning shakllanishida pedagogik hamda psixologik mexanizmlar faol ishtirok etadi. Ya'ni shaxsning shakllanishida irsiyat, muhit, tarbiya, faoliyat bilan bir qatorda insonning ichki kechinmalari, tushunchalari, ruhiyati, havotirlari va qiziqishlari kabi ko'plab psixologik hususiyatlar, holatlar va jarayonlar ham asosiy o'rinni egallaydi. Shu nuqtay nazardan aytish joizki, bola shaxsiga ta'sir etayotgan turli xil omillar, albatta, insonning ruhiyati, sezgilari, his-hayajonlari, fikr-mulohazalari chizgisida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishda ko'zga tashlanadi. Har bir fanning o'z ob'ekti, o'rganadigan sohasi mavjud. Masalan, zoologiya hayvonlar, ular organizmining to'zilishi, yashash sharaitini o'rgansa, astronomiya osmon jismilari, ularning xususiyatlarini o'rganadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar

Hozirgi kunda o'qituvchi va tarbiyachilarga qo'yiladigan muhim talablardan biri pedagogik innovatsiyalarni chuqur tushunib yetish va ulardan

ta'lim-tarbiya ishlarida samarali foydalanishning yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda filologiya fanlari doktori M.Ayimbetov ham o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga doir o'z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to'xtab o'tgan. Olim "kreativlik" yoki "ijodkor" tushunchalarini bevosita qo'llanmagan bo'lsalar ham ijodkor o'qituvchining sifat ko'rsatkichlarini yoritib berishga doir fikrlarini bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o'qituvchining strukturaviy komponentlarini ko'rsatib bergan. Shu bilan bir qatorda olim bunday pedagoglarning oltita belgisini alohida e'tirof etgan. Bular:

1. Pedagogik jamoada katta obro'ga ega bo'lishi.
2. O'zlarini juda jiddiy tutishi va pedagogik taktga ega bo'lishi.
3. Darslarini oliy darajada tashkil etishi.
4. O'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lish.
5. Murakkab vaziyatlarda o'zlarini tuta bilishi va pedagogik faoliyatini bir maromda olib borishi.

6. Pedagogik jamoada hamda maxallada katta ta'sir ko'chiga ega bo'lishi.

Sanab o'tilgan sifatlarga biz o'qituvchining kreativlik faoliyatini ham qo'shicha qilgan bo'lar edik. Negaki, o'qituvchilarning oliy darajada darslarni tashkil etishi o'z-o'zidan bo'ladigan holat emas, balki o'qituvchining izlanishlari, o'z sohasidagi yangiliklarni tajribalarida qo'llay olishi, o'quvchilarni "o'qitish" emas "o'qishga" o'ragatishiga doir qator faoliyatlar tizimi bilan bog'liqdir.

O'qituvchining kreativ faoliyati pedagogik mahoratning mazmunida aks etar ekan, pedagogika fanida o'qituvchining pedagogik mahoratining modeli ishlab chiqilgan.

O'qituvchi mahorati:

1. Bilish qobiliyatini boshqarish;
2. O'quvchilarda ichki his-tuyg'u va qiziqishni, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish;
3. O'quv jarayonini tashkil eta olish;
4. Texnologik mahorat;
5. Ishonchga kirish, ishontira olish;
6. Nutq mahorati;
7. Ergashtira olish;
8. Muloqotga kira olish;
9. Qalbga yo'l topa olish;
10. O'quvchining yoshi;

11. Ichki imkoniyatiga moslashish;
12. Do'stona va samiyiy munosabat.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, kreativlik pedagogik nuqtayi nazardan quyidagi komponentlarni tashkil etadi:

1. Shaxsning o'ziga xos xususiyatidir;
2. Ijodiy imkoniyat;
3. Shaxsning intellektual va individual xususiyati;
4. Ijodiy fikrlash;
5. Ijodiy tafakkur;
6. Yechim toppish;
7. Bilimlilik;
8. Tashkilotchilik;
9. Bilim, faoliyat, istak;
10. Pedagogik mahorat;
11. Shaxsiy sifatlarning integratsiyasi;
12. Muammolarni mustaqil yechish.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatini baholash va o'ziga-o'zi baho berish pedagogik karta Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga o'qituvchi mutaxassislik qobiliyatini baholash O'qituvchi shaxsining individual xususiyatlari:

- Shaxsning asoslangan – ijodiy yo'nalishi;
- Shaxsning ijodiy faoliyat metodologiyasini egallab olish qobiliyati;
- Ijodiy faoliyat surati;
- Qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish pedagogik tadqiqot metodlarini bilishi;
- Ijodiy faoliyatdaxshsiy ish olib borish imkoniyati;
- Ijodiy yutuqlarga intilish faoliyat texnologiyasini, mualliflik kontseptsiyasini yaratish qobiliyati;
- Dadillik va o'ziga ishonch Ilgorlikka intilish Tajriba ishlarini rejalashtirish qobiliyati;
- Ma'suliyatlilik;
- Rahbarlarning ijodiy faoliyati uchun yaxshi baho berishlariga intilish;
- Maktabda pedagogik tajriba tashkil etish qobiliyati;
- O'qituvchining ijodiy faoliyatining ijtimoiy muximligiga ishonish;
- Ijodiy faoliyatining shaxsiy ahamiyati;
- Faoliyatni tuzatish, qayta tashkil eta bilish qobiliyati;
- Halollik va to'g'rilik o'z-o'zini mukammallashtirishga intilish;
- Boshqa o'qituvchilar ijodiy faoliyat tajribalaridan foydalanish va taqqoslash, jamlash qobiliyati;
- O'zi tashkil eta olish qobiliyati;
- O'qituvchining kreativligi;
- Ijodiy faoliyatda hamkorlik va ozaro yordam qobiliyati;
- Ko'p sonli yechimlarni amalga qo'llash;
- Muloxazalarning mustaqilligi (O'z fikrini aytishdan uyalmaslik);

- Tasavvur etish, ijodiy hayol. (g'oyalarni o'rganishda intellektul' akliy erkinlik);

- Pedagogik faoliyatda bir xilliklardan voz kecha olish, fikrlar harakatsizlikni yenga olish;

- Pedagogik faoliyat muammolariga ta'sirchanlik;

- Tanqidiy fikrlash, muloxazalarga qobiliyati;

- O'z ishlarini tahlil qila olish qobiliyati.

6 §. Tamoyil va amaliyot: nimani o'qitish va qanday o'qitish kerak?

Umumkasbiy talablar va tamoyillar (prinsiplar)

Tilshunoslik fanida o'rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi. Tilda nimani, qanday, qancha, o'rganish, o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug'ullanadi.

Demak, til o'qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Ijodiy tafakkur ijodiy izlanish, Mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi. Natijada:

– o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;

– egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta'minlanadi;

– til materiallarini bilishga qiziqish ortadi. Ijobiy o'quv motivlari shakllanadi.

Demak, tafakkurni o'stirish – til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, o'xshash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy urg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovush, bo'g'in, so'z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko'ra darak, so'roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Masalan: "Fonetika"ni o'rganishda so'zdagi ma'lum bir tovushni o'zgartirib, tovushdosh, so'zlar hosil qilish, shuningdek, o'zakdosh, qo'shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so'zlar yasash, ularning lug'aviy ma'nolari hamda ma'no guruhlari ustida ishlash o'quvchi so'z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

1-topshiriq. Berilgan so'zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so'zlar yasang. Har bir so'z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.

O L

O L A

O L A M

OLIM

OLIMA

OLINMA

1. 2. Hosil qilingan soʻz maʼnosini sharhlang.

1. 3. Ulardan soʻz birikmalari hosil qiling.

1. 4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

Oʻzbek tili oʻqitishning oʻziga xos tamoyillari

Tilshunoslik fanida oʻrganiladigan bilimlarning asoslari, ularning oʻziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi. Tilda nimani, qanday, qancha, oʻrganish, oʻzlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shugʻullanadi.

Demak, til oʻqitishning metodik printsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra belgilanadi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Ijodiy tafakkur ijodiy izlanish, Mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi. Natijada:

– oʻquvchidagi nomaʼlum boʻlgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;

– egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi taʼminlanadi;

– til materiallarini bilishga qiziqish ortadi. Ijobiy oʻquv motivlari shakllanadi.

Demak, tafakkurni oʻstirish – til mashgʻulotlarida til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, oʻxshash vositalardan eng qulayini toʻgʻri tanlay olish koʻnikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til oʻqitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va taʼsirchanligini (soʻz urgʻusi va mantiqiy urgʻu, pauza va ovoz tembri, nutq surʼati, tovush, boʻgʻin, soʻz, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga koʻra darak, soʻroq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) taʼminlashga xizmat qiluvchi koʻnikma va malakalar ham ona tili mashgʻulotlarida shakllanadi.

«Leksikologiya»ni oʻrganishda soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosini farqlash, koʻp maʼnoli, maʼnodosh, uyadosh, shakldosh zid maʼnoli, paronim soʻzlar ustida ishlash – oʻquvchi soʻz boyligini oshirish va boyitishga, nutqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida oʻz ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Namuna:

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni oʻqng. Bosh soʻzi qaysi maʼnoda ekanligini aniqlang va sharhlang.

1.1. Oybekning boshi ogʻridi. 1.2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 1.3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 1.4. Fermerga oʻn bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni oʻqng. Qaysi gap oʻz maʼnosida, qaysisi koʻchma maʼnoda ishlatilganini ayting.

Navoiy asarlarini oʻqyman – Navoiyni oʻqyman.

Abdulla Oripov sheʼrlaridan yod oldim – Abdulla Oripovni yod oldim.

Samovardagi suv qaynadi – Samovarda o‘tirdik, choyxo‘rlik qldik.

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, talabalarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni o‘stiradi, Mustaqil va ijodiy izlanishga o‘rgatadi.

Til o‘qitish printsiplari ta'lim-tarbiya jarayoniga asos bo‘ladigan ta'limiy qonun-qoida singari ma'nolarni o‘z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim printsiplaridir. Mazkur printsiplar har bir o‘quv predmetida o‘ziga xos tatbiq etiladi.

Ta'limning tarbiyaviyligi printsipti. Ta'limning tarbiyaviyligi printsipti yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetkazishni nazarda tutadi. Ona tili o‘rganish jarayonida talabalarga milliy g‘oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo‘lish, yuksak insoniy fazilatlar egasi bo‘lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni ta'limiy tarbiyalash yo‘llari benihoya ko‘p:

– har bir mavzu va bo‘limning ta'limiy imkoniyatlarini to‘la ishga solish;
– tanlangan matnlarni o‘rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yo‘nalishlariga mos bo‘lishini ta'minlash;

– darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlardan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qo‘shimcha matnlardan foydalanish shular jumlasidandir.

Darsliklarda keltirilgan topshiriqlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlaydi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba kuzatish, qiyoslash, ijodiy tafakkurni ishga solish, muammolar yechimini izlash, topish va xulosalash majburiyati bilan yuzma-yuz keladi. O‘zi topgan yechimni (fikrni) ifodalash (ko‘chirma gap hoida), zaruriyatini, isbotlash mashaqqatini tuyadi, g‘oliblik lazzatidan bahramand bo‘ladi. Bu esa ta'limda tarbiyaviylik printsiptini amaliy samarasi, natijasidir.

«Gapning uyushiq bo‘laklari» mavzusini o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridan keltirilgan matndan foydalanish mumkin: «Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, yag‘molar, qrg‘izlarning shaharlarini, qshloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik fikrni ham aniqlash uchun qldim.. Ularga shunchalik diqqat qldimki, bu tillar butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim».

Topshiriq.

1. Matnni diqqat bilan o‘qng va sarlavha toping.
2. «Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qldim», – degan gapni uyushiq bo‘lakli gapga aylantiring. So‘ngra mazmunini sharhlang.

3. Matndagi uyushiq bo‘laklarni ma'nosiga ko‘ra guruhlab, bir nechta uyushiq bo‘lakli gaplarga aylantiring.

4. Ularni ko‘chirma gapga aylantiring.

5. Gap shakllarini o'zgartirib, o'zlashtirma gaplar hosil qiling... v.h.

Ona tili darsligi uchun tanlangan matnlar ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishda, rang-barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili sodda va ravon, o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiylik va tushunarlilik printsiplari. Metodikada ilmiylik printsiipi – o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etsa, tushunarlilik printsiipi o'quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya'ni oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyga borishni taqozo qiladi.

Ona tili o'qitish metodikasida ilmiylik va tushunarlilik printsiplariga bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan yagona omil sifatida qaraladi. Bu ikki printsiipni parallel ravishda amalga oshirishda:

– til fanidagi tushuncha va atamalarning ma'nosini sharhlash, atroflicha tahlil qilish, puxta o'zlashtirishni ta'minlash;

– til sathlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish;

– til va nutqni farqlab o'rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo'llash;

– talabalarning yosh imkoniyatlarini, zehnu iqtidorlarini hisobga olish, Mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, sodda, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'yin – topshiriqlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Masalan: kecha va ko'cha so'zlarining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

1. O'xshashligi:

– harflar sonining tengligi, ikki bo'g'indan iboratligi;

– bir xil undosh bilan boshlanishi, bir xil unli bilan tugashi;

– talaffuz va ohang uyg'unligi; oxirgi bo'g'inning –cha bilan tugallanishiga ko'ra bir-biriga yaqin talaffuz qlinishi, qofiyadoshligi.

1. Farq: – birinchi bo'g'indagi unlining ikki xilligi;

– tovushdagi farqning ma'noga ta'siri;

– lug'aviy ma'nosi: kecha-tun, oqshom; kecha – bir kun avval; ko'cha – aholi va transport qatnovi uchun moslashtirilgan joy, yo'l.

Tizimlilik, izchillik printsiipi. Ta'lim izchilligi uchun tizimlilik o'lchov hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy bu haqida shunday deydi: «Mashg'ulotlarni shunday o'tkazish kerakki, unda keyin o'rnaniladigan hodisa oldingi o'rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarni o'rganishda mustahkamlansin».

Haqiqatan ham, o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qlgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan va

o'rganiladigan bilimlar o'rtasida aloqadorlikni ta'minlashga izchillik printsipli orqaligina erishiladi.

Masalan: «Ot», uning ma'nosi, so'roqlari, birlik va ko'plikda, kelishik, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi kabi boshlang'ich ma'lumotlarga tayangan holda, o'quvchilarning ot so'z turkumiga qarashli so'zlar vositasida so'z birikmalari va gaplar tuzishni o'rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

Mustaqillik va faollik printsipli. Mustaqil lik va faollik orqaligina talaba ta'limning faol sub'ektiga aylanadi. Mustaqil lik faollik uchun sharoit yaratasa, faollik Mustaqil likni tarbiyalashga asos bo'ladi. «Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik», – deb ta'kidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov.

Kishining Mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi Mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. Mashxur metodist-pedagog A.Disterverg aytganidek: «Mustaqil faoliyatga yetaklovchi ta'lim haqqatga, go'zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchni tarbiyalaydi».

Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish, yosh avlodda Mustaqil lik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

– o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi;

– talabada o'z kuchiga, o'z bilim va imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;

– bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta'rifu tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimidagi ona tili mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini Mustaqil va izchil bayon etishga, so'z boyligini oshirish va matn yaratish ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratilishi lozim.

O'quvchi har bir mashg'ulotda Mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirishi, so'zning ma'nosi, urg'usi, mohiyatiga qarab o'z nutqda qo'llashi, ravon va aniq so'zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan fonetika bo'limini o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirishga qaratilgan Mustaqil ishlardan namunalar keltiramiz:

1-topshiriq. ...il,...ul,...ol so'zlari oldiga bir undosh qo'shib, yangi so'zlar yasang.

Bil, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

Bul, gul, kul, pul, tul, shul, qul...

Bol, lol, mol, tol, fol, pol, hol, qol xol....

2-topshiriq. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nodosh va uyadoshlarini toping va ular ma'nosining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini sharhlang.

Namuna: bil – o‘rgan, izlan, top..; bul – shul, o‘shal; bol – asal, hol – holat, ahvol, kayfiyat...v.h.

So‘zlarning ma'nolarini sharhlash – o‘quvchi nutqiy malakasining mustahkamlanishi va intensiv suratda rivojlanishiga olib keladi.

3-topshiriq. Talabalar o‘zlari topgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiladilar, gap tuzadilar, matn yaratadilar (Qarang, 4- jadval, MYaBT-4).

Til mashg‘ulotlarida bunday o‘yin – topshiriqlardan foydalanish yoshlarni Mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undasa, o‘qituvchiga o‘quv jarayoniga musobaqa ruhini kiritishda ko‘makchi bo‘ladi.

Mustaqil lik va faollik printsiplarini amalda qo‘llash ta'lim tizimini takomillashtirish, talabalarning bilish faoliyatini, ijodiy Mustaqil ligini tarbiyalashda yaxshi natija beradi.

Ko‘rsatmalilik printsipti. Ta'limda ko‘rsatmalilikdan foydalanish – o‘tiladigan mavzuni zohiriy ifodalash , egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘yinchoqlar, rasmlar, narsa-buyumlarni bevosita kuzatish, ushlab ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, xizmat qilsa, ko‘rilganlarni og‘zaki ifodalash ehtiyoji esa o‘quvchida botiniy, Mustaqil mushohada ko‘nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy tadbirkorlik malakalarining hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda, xususan, akademik litsey va kasb – hunar kollejlarda ko‘rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingofon, magnitofon, diktofon, radio va televideniye ko‘rsatuvlari, o‘quv – o‘rgatuv texnikasining so‘nggi yutuqlari: kompyuter, multimedia, kodoskop, videoko singarilardan unumli va samarali foydalanish talabanning ijodiy va nutqiy barkamolligini ta'minlash, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart- sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalari takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yo‘naltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

Talaba shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san'ati kurtaklarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e'tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o‘rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko‘rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘ladi:

1. Leksik jadvallar;
2. Fonetik jadvallar;
3. Grammatik jadvallar;
4. Imloviy (orfografik) jadvallar;
5. Stilistik-uslubiy jadvallar;

6. Aralash jadvallar (imlo va soʻz yasalishi, fonetika va soʻz tarkibi).

Jadvallar yasalgan materialiga koʻra ikki xil koʻrinishda boʻladi.

1. Bosma (grafik) jadvallar har xil hajmli oq qogʻoz yoki materialga ishlanadi.

2. Slayd-jadvallar (rangsiz plyonkaga rangli tasvirda tushiriladi).

Bundan tashqari, hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda zamonaviy texnika vositalari boʻlmish:

1. Lingofondan foydalanish, yaʼni eshituv aʼzolari orqali toʻgʻri talaffuzni, qiroat sanʼatini oʻrganish;

2. Video kurs: oʻzbek tilining talaffuz meʼyorlarini egallash uchun audio-video muloqotini oʻrganish.

3. Kommunikativ savodxonlikni taʼminlashga qaratilgan kompyuter oʻquv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Bulardan:

– Imlo savodi (bunda oʻquvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan oʻquv mashqlari disketlarga joylanadi);

– «Fonetik hodisalar» kompyuter oʻquv dasturi (bunda fonetika boʻyicha oʻquv mashqlari disketlarda beriladi); – «Leksikologiya» oʻquv dasturi.

– «Grammatika» elektron oʻquv dasturi (morfologiya va sintaksis yuzasidan oʻquv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

– «Stilistika» (uslubiyat) elektron oʻquv dasturi. Bunda oʻquvchining uslubiyat boʻyicha egallagan bilim va koʻnikmalarini shakllantirish, soʻz tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (4-jadval, MYaBT-4) ustida ishlash uchun moʻljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, maʼrifiy matnlar hamda topshiriqli rasmlar (Mustaqil matn yaratish uchun) beriladi;

– Audio-video oʻquv dasturlari. Ularda muayyan bir sharoitda boʻlib oʻtgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, toʻy, kelin salom, beshik toʻyi); bayramlar – Mustaqil lik kuni, Navroʻz taronalari, Yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan oʻquv dasturlaridan birinchi, ikkinchi va uchinchi soʻz boyligini oshirish, fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, morfologiya va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va koʻnikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan boʻlsa, 4 va 5 dasturlar oʻquvchining yozma va ogʻzaki nutqni shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun moʻljallangan.

Bundan tashqari, hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganish jarayonining kodoskop, multimedia, «Videoko» kabi zamonaviy va zaruriy oʻquv texnikasi bilan taʼminlanishi, ularning oʻquv muassasalarida mavjud boʻlishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda oʻzbek tili oʻqitish metodikasi fani yangi yutuqlar bilan boyitilmoqda, yangi avlod darsliklari va oʻquv qoʻllanmalari yaratilmoqda.

Uzluksiz taʼlim muassasalarida, ona tili darslarida kompyuter, kodoskop va videoglaz singari oʻquv texnikasidan samarali foydalanish mumkin.

Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo‘lsa, videoglaz barcha tasviru yozuvlarni, ko‘zga ko‘rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha tele(mul‘ti) ekranga chiqarib berishi mumkin. «Videoglaz»ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog‘ozdagi tasvir kodoskopda ko‘rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo‘lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varaqchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni plyonkada bajarib kelgan o‘quvchi o‘z ijodiy ishini ekranga tushirib, o‘rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o‘z fikri va yaratgan yangiligini himoya qilishi, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida (talabalar va o‘qituvchi yordamida) aniq bir xulosa va yechimga kelishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasida «portlash» effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu – Videoko. Uning ishlatilish ko‘lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bo‘lib, o‘qituvchidan fidoyilik, katta ijodiy tajriba va pedagogik mahorat talab qiladi.

«Videoko»ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga o‘xshash ko‘z vazifasini o‘taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko‘chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Hatto o‘zi tuzgan test topshirig‘ini sharhlab berayotgan talaba o‘z nutqdagi kamchiliklarni bevosita monitor (televizor) ekranida ko‘rishi va o‘zi bartaraf etishi mumkin. Bu o‘quv texnik vosita ona tili ta'limi jarayonini tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qrralarini ochib beruvchi, bolaga o‘z nutqiy madaniyati, suxandonlik iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi muhim sinov maydoniga aylantiradi.

Onglilik printsipti. Onglilik bilimlarni ongli o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan printsiptir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta'limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriyligini anglash;
- daliliy materiallarni ongli egallash va o‘zaro farqlay olish;
- bilimlarni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlash; egallangan va o‘zi erishgan natijalarni baholay bilish xususiyatlarini tarbiyalaydi.

Demak, ona tili o‘qitish metodikasida onglilik printsiptiga asoslanish ma'no va mazmunni anglab, tushunib o‘rganish, amaliy vazifalar – so‘rash, tinglash, o‘qish, yozish kabilarni bajarishda ongli o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalarga suyanish, ijodiy tashabbuskorlik, Mustaqil faoliyatni maqsadli rejalashtirishga imkon beradi.

Ona tili ta'limining onglilik printsipti quyidagilarni nazarda tutadi:

1. O‘rganilishi ko‘zda tutiladigan til materiali va ta'lim oluvchi-larning yosh psixologiyasi mutanosibliigi;
2. Nutqiy malakalarni mustahkamlash va til sezgirligi (uslub)ni oshirish;
3. Fikr bildirishda mantiqiy izchillik, uslubiy me'yorga ahamiyat berish;
4. Pedagogikada eng yangi yo‘nalish – ongli verbal-kognitiv ta'lim – ya'ni, kashfiyot ta'lim tizimiga asoslanish;

5. Ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash:

- Tilning ifoda imkoniyatlaridan to‘g‘ri va o‘rinli, nutqiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish;
- Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish;
- Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan til o‘rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish;
- Lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga joriy etish, o‘quvchi ongida Mustaqil mushohada yuritish, so‘z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

7 §. Ona tili o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar. Ona tili o‘qituvchisining burch va mas’uliyati

Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o‘quvchilarda o‘quv predmetlari bo‘yicha faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Bu quyidagi holatlarda namoyon bo‘lmoqda:

- ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan ayrim o‘quvchilar, hayotda ko‘p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi;
- oliy ta’lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada olgan bo‘lsa-da, ish joyiga ko‘nikishi uzoq vaqt davom etadi;
- ko‘pincha maktab yoki litseyda olingan bilim va ko‘nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo‘lmaydi.

Shunga ko‘ra ta’lim jarayoniga o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi.

“Competence” so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, **kompetentlilik** o‘ta murakkab, ko‘p qismli, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko‘ra, ham ma’no, mantiq mundariyasi jihatidan turli tuman. Atamaning mohiyati shuningdek “*samaradorlik*”, “*moslashuvchanlik*”, “*yutuqlilik*”, “*muvaffaqiyatlilik*”, “*tushunuvchanlik*”, “*natijalilik*”, “*uquvlilik*”, “*xocca*”, “*xususiyat*”, “*sifat*”, “*miqdor*” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda. Shunga ko‘ra ta’lim kompetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta’rif bo‘yicha qabul qilamiz.

Bilim – o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

Ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

Malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

Kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Kompetensiyaviy yondashuv va uning xorijiy tajribada qo‘llanilishi

Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o‘rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik.

Birinchi bosqich – 1960 – 1970-yillar. Tilni o‘rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda *D. Xayms* tomonidan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi.

Ikkinchi bosqich – 1970 – 1990-yillar. Kompetensiya/ kompetentlik kategoriyalaridan tilni, ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o‘rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o‘rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda “ijtimoiy kompetensiya/ kompetentlik” tushunchasining mazmuni ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich – 1990 va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta’limga, umumta’lim fanlariga va boshqa yo‘nalishlarda qo‘llanila boshlandi.

O‘zbekistonda dastlab **2012-yilda** chet tillarni o‘qitishni takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013-2014-o‘quv yilidan bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi.

Kompetensiya bo‘lishi uchun uning strukturasi qanday bo‘lishi kerak?

Kompetensiyaning struktura komponentlari quyidagilar:

- kompetensiyaning nomi;
- kompetensiya tipi va uning umumiy ketma-ketligidagi o‘rni(tayanch, fanlararo, fanga oid);
- kompetensiyalar kiritiladigan, real faoliyat ko‘rsatadigan ob’ektlar doirasi;
- kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy bog‘liqligi va ahamiyati (u jamiyat uchun nima sababdan kerak?);
- kompetensiyaning shaxsga nisbatan ahamiyati (nima sababdan o‘quvchi kompetent bo‘lishi kerak?);
- real ob’ektlar doirasiga oid bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari;
- mazkur kompetensiya doirasida o‘quvchining faoliyat ko‘rsatishi uchun kerak bo‘ladigan minimal tajribasi (o‘qitish bosqichlari bo‘yicha);
- indikatorlar – o‘quvchi kompetentligi (o‘qitish bosqichlari bo‘yicha) darajasini aniqlash uchun o‘quv va nazorat-baholash topshiriqlari namunalari, misollari.

Qanday kompetensiyalarni tayanch kompetensiyalar deb olish kerak?

Kompetensiyalardan, ta'lim kompetensiyalarni farqlash lozim. Ta'lim kompetensiyasi o'quvchining kelajakdagi to'laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga etgunga qadar ayrim kompetensiyalarni haytiga tatbiq eta olmaydi. Lekin bu ularni o'quvchida shakllantirish shartmas degani emas. Masalan, o'quvchi maktabda fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtirsa-da, uni hayotda maktabni bitirganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kompetensiyalar o'qish davrida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona qabul qilingan ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki hududning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati muayyan mamlakatdagi yoki hududdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan, Shveysariya va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash" nomli loyihasida ham tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

Shunga ko'ra kompetensiyalarning Evropa va Rossiya variantlarini ko'rib chiqaylik.

Evropa kengashi simpoziumida "Evropa uchun tayanch kompetensiyalar" belgilab olingan. Unga ko'ra o'quvchi quyidagilarni o'rganishi kerak:

- tajribadan foydali xulosa yoki natija chiqarib olishi;
- turli fanlarga va sohalarga oid bilimlarini o'zaro bog'lay olishi va ularni tizimlashtirishni;

- o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish (o'rnatish)ni;
- muammolarni mustaqil yecha olishni.

Izlash:

- mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;
- turli ma'lumotlar bazasini qidirish;
- tevarak-atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;
- axborot olish;
- hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

O'ylash:

- o'tgan va kechayotgan voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topish;
- jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashishi;
- murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turish;
- bahs-munozara chog'ida o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtayi nazarini himoya qilish;

- o'qish yoki ish joyidagi siyosiy-iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;

- sog'lom turmush tarzini, iste'molchilik madaniyatini egallash, tasviriy san'at va adabiy asarlarini baholay bilish.

Hamkorlik qilish:

- guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish – anglashilmovchilik va mojarolarni bartaraf etish;
- kelisha olish;
- shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Ishga kirishish:

- loyihada qatnashish;
- javobgarlikni olish;
- guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- hamkor ekanligini isbotlash;
- o'z ishini tashkil qila bilish;
- hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish;
- ko'nikish;
- yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- yangi yechimlarni topa bilish.

Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti

- qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi
- umummadaniy kompetensiyalar
- o'quv-o'rganish kompetensiyasi
- axborot kompetensiyasi
- kommunikativ kompetensiya
- ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi
- shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi

Kompetentlik – kompetensiyalarni qo'llay olishda inson ega bo'lishi kerak bo'lgan minimal tajribaga ega bo'lish. Buni o'quvchining tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni shakllantirishda, o'quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

Ta'limda kompetensiyalarning asosiy funksiyalari quyidagilar:

- yosh avlodni kundalik hayotga tayyorlash bo'yicha ijtimoiy talabning aks etishi;
- bilim, ko'nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llashi uchun atrof-muhitdan real ob'ektlarni ko'rsatishi;
- turli o'quv predmetlari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi;
- konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog'lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak?

Ba'zi kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi. Shunga ko'ra ularni uchta darajaga bo'lish mumkin:

1) *tayanch kompetensiyalar* – ta'lim mazmunining umumiy qismiga tegishli;

2) *umumpredmet kompetensiyalari* – ma’lum doiraga kiruvchi o‘quv predmetlari va ta’lim sohalariga tegishli;

3) *predmetga oid kompetensiyalar* – oldingi ikki kompetensiyalarga nisbatan xususiy hisoblanib, o‘quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va belgilangan o‘quv predmeti uchun aniqlashtiriladi. Ular to‘plam, me’yoriy hujjatlar, o‘quv va metodik adabiyotlar, shuningdek, o‘quvchilarning tayyorgarligini, shu bilan birga, ularning ijodiy tayyorgarligi darajasini baholaydigan hujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to‘plamni belgilaydi.

O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlashtirilgandan keyin xalq ta’limi oldiga respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo‘yildi.

Ona tili mashg‘ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g‘oya va ajdodlarimiz an’analarini e’zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o‘qituvchisining mas’uliyati katta. Darsga tayyorlanish jarayoni o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishida muhim o‘rin tutadi va bu o‘rin jamiyat taraqqiyoti uchun juda muhim.

Darsga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:

– darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash;

– talabalarga milliy mafkura va istiqlol g‘oyalarini singdirish;

– dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o‘quv-texnika vositalaridan unumli foydalanish;

Talabani til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo‘naltiradigan kompyuter dasturlari, multimedia, kodoskop va “videoko” xizmatidan foydalanishga o‘rgatish:

“O‘quvchi – ta’lim – o‘qituvchi” tizimida o‘zaro hamkorlik munosabatlari.

Kashfiyot ta’lim tizimi:

– har bir topshiriqni bajarish jarayoni sub’ekt uchun yangi muammolarni yechish yoki nimadir (matn, she’r, bayon, insho v. h.) yaratish (o‘zida mavjud bilim, malaka va iqtidordan ongli ravishda ijodiy foydalanish) bilan yakunlanadi.

– talabani erkin, mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratib berish;

– o‘quv dasturlari, DTS talablarini to‘liq va mukammal amalga oshirish;

– egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini muntazam kuzatib borish va talabani ob’ektiv baholash;

– o‘rganilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirishga mo‘ljallangan kommunikativ jadvallardan muntazam foydalanish;

– har bir mashg‘ulot so‘ngida talaba imkoniyatiga qarab, uy vazifasi berish va uning to‘g‘ri bajarilganligini nazorat qilish;

- talaba nutqni yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bilan boyitish;
- nutqiy madaniyat me‘yorlarini singdirish;
- talabalarning qiyosiy tasnif, alohidalash va guruhlash ko‘nikmalarini shakllantirish, matn tahlili va matn yaratish bilan muntazam shug‘ullantirish;
- muomala – muloqotning sharqona odob va ahloqqa asoslangan an’anaviy usullaridan samarali foydalanish.

Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar ijodkor, izlanuvchan murabbiylar tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etishda faqat taqlid qilmasdan, o‘z o‘quvchilarining yoshi, o‘zlashtirish darajasi, sinf jamoasining tayyorgarligiga qarab darsni tashkil etishi; o‘qitish prinsiplari va vositalariga to‘g‘ri amal qilishi; ona tilidan bilimlar tizimining bosqichli ketma-ketlikda va bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishda bo‘lishiga e‘tibor berishlari zarur.

Binar ma’ruza. “Binar”so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “qo‘sh”, “ikki” degan ma’noda qo‘llaniladi. Bunday mashg‘ulotning olib borilishi ikki vakil: o‘qituvchi va metodist; o‘qituvchi va o‘quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o‘qituvchi; o‘qituvchi va tyutor (maslahatchi) o‘rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi.

Trening. Trening zamonaviy ta’lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg‘ulotlarni amalga oshirishning o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Har qanday pedagogik treningni tashkil etish quyidagi 4 bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig‘ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang‘ich bosqich: guruh me‘yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg‘ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o‘tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (reflektsiya).

Nazorat uchun savollar:

1. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zarurati nimada?
2. Trening nima?
3. Kompetensiyaga qanday ta’rif bera olasiz?
4. Bilim, ko‘nikma va malakaning farqlarini qanday izohlaysiz?
5. Pedagogik mahorat va ona tili ta’limida kommunikativ yondashuvi nimalardan iborat?
6. Tamoyil va amaliyot: nimani o‘itish va qanday o‘qitish kerak?
7. Ona tili o‘qituvchisining bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablarni aytib ko‘ring.
8. Ona tili o‘qituvchisining burch va mas’uliyati haqida nimalarni bilasiz?
9. Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o‘rganishdan maqsad nima?
10. Kompetensiyaning qanday bosqichlari bor?
11. Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti qanday edi?

Tayanch so‘z va iboralar:

Mahorat, pedagogik mahorat, didaktiv qobiliyat, akademik qobiliyat, pertseptiv qobiliyat, nutqiy qobiliyat, tashkilotchilik qobilliyati, obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, diqqatni taqsimlash qobiliyati, kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati, konsruktiv qobiliyat, kreativlik, ijodko, r texnologik mahorat, nutq mahorati, ergashtira olish, muloqotga kira olish, ijodiy fikrlash, ijodiy tafakkur, ta’limning tarbiyaviyligi prinsipi, ilmiylik va tushunarlilik prinsiplari, metodikada ilmiylik prinsipi, tizimlilik, izchillik prinsipi, mustaqillik va faollik prinsipi, ko‘rsatmalilik prinsipi, matn yaratish faoliyati, onglilik prinsipi, binar ma’ruza, trening, kompetensiya, kompetentlilik, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xocca”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor”, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 631 b. Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san’at. – T.: Fan, 2006.
4. Azizxo‘jayeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.–T.: TDPU, 2000.
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
6. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. – 5-son, 3-16-betlar.
7. Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedov A., Solixo‘jayeva. «O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi». – T.: «Fan», 1992.
8. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
9. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
10. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
11. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil.
12. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
14. Ziyodova T.U. “Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish”. O‘quv-metodik qo‘llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.

15. Ziyodova T.U. “O‘qituvchi kitobi”. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: 2002.

Elektron ta’lim resurslari

16. www.edu.uz– O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti

17. www.edunet.uz– maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti

18. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o‘rta dasturlarini rivojlantirish markazi

19. www.natib.uz– Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti

20. www.uzedu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

ONA TILI FANI BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN DTS VA O‘QUV DASTURLAR MAZMUNI

Ko‘riladigan masalalar:

1. *Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan DTS mazmuni.*

2. *O‘quv dastur. O‘quv dasturning tarkibi va mazmuni.*

8 §. Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan DTS mazmuni

Odatda, ta’lim qaysidir talabga asosan me‘yorlashtiriladi. Bu talab davlat vakillari tomonidan qo‘yilib, uning bajarilishi nazorat qilinadi. Standart, standartlashtirish me‘yorlari tushunchalari DTS ta’lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Shu sababli ta’lim mazmunini o‘zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, nizomlar, o‘quv rejasi va boshqa meyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. DTSni, uning talablarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysinishdan qat’iy nazar barcha ta’lim muassasalari uchun **majburiydir**. DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o‘rta (kasb – hunar va oliy) ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o‘quv reja ta’lim sohalarini meyorlash hamda ta’lim muassasalarini moliyaviy taminotini ta’minlashga asos bo‘luvchi davlat muassasalarini moliyaviy taminotini ta’minlashga asos bo‘luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmeti bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini ta’lim oluvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi quyidagi *maqsadlar* amalga oshirilishini nazarda tutadi:

– ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

– mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

– ta'limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

– sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

– kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

– ta'lim jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash;

– mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

– ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

– ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqt/ vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish;

– xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

– ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

– o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkredetatsiya qilishni joriy qilish;

– kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

– milliy standartlar talabini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari Davlat ta'lim standarti (DTS) – 1) bu davlatning ta'lim darajasiga qo'ygan meyori sifatida qabul qilinadigan asosiy parametrlar tizimi bo'lib, muayyan shaxsning ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni anglatadi; 2) ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir.

Standart qanday ma'noni anglatadi? – muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

Ta'limni standartlashtirishning obektlari quyidagilar:

– ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati;

– talablar, meyorlar, qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vostalari, shuningdek, ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar, kategoriyalar;

– ta'lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash.

Shuni unutmash kerakki, ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim, oliy ta'lim uchun DTS belgilanadi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. **Klassifikator** – bu oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati. U 8 ta bilim sohasidan iborat (ta'lim, gumanitar fanlar va san'at, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, fan, muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, xizmatlar). Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tayyorlanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari ta'lim tizimining eng zarur va yetarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti vositasida mamlakat hududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. O'quv yuklamalari meyoriga keltiriladi, ta'lim oluvchilar bilimni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Ta'lim oluvchi davlat belgilagan ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda, ya'ni kengroq, chuqurroq bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega.

Natijada, qiyin yoki ta'lim oluvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unga standartda belgilangan meyor bilan cheklanishga imkon

beriladi. Bunda ta'lim oluvchi o'zining qiziqishi, xohishi, qobiliyatini va intilishlarini ro'yobga chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, oliy va o'rta maxsus ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmi va so'nggi maqsadlarini, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi meyoriy hujjatdir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani hozirgi kungacha boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, darslarni tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rganishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir.

O'zbek tili o'qitishga tegishli grammatik atamalar tizimining allaqachon shakllanganligi va ularning ta'lim amaliyotida faol iste'molda ekanligini ta'kidlash joiz. Shunga qaramay, bu sohada hali anchagina notugalliklar, har xilliklar, hatto ichki ziddiyatlar mavjudligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining boshqa bir qator nazariy hamda amaliy predmetlar bilan aloqadorligidan kelib chiqadigan atama va tushunchalar ham mavjud. Bunda, ayniqsa, didaktika, tarbiya nazariyasi, pedagogik psixologiya fanlaridan o'tgan atama va tushunchalar, bevosita fanning predmeti va unga yondosh sohalardan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan o'tgan atama va tushunchalar ham asosiy mavqega ega. Nihoyat, bularning eng katta qismini bevosita til o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid sof metodik tushuncha va atamalar tashkil etishini eslash mumkin bo'ladi. Mazkur qo'llanmada o'rni bilan mana shunday atama va tushunchalarning ta'riflari, tavsif va izohlari ham berib ketildi.

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgarlar nutqni tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, "talaba – ta'lim – o'qituvchi" munosabatlarini to'g'ri tashkil etish – ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy qilish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. U ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning lingvodidaktik (lisoniy-ta'limiy) asoslarini o'rganadi.

Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish metodikasi ijodkor, komil-u fozil shaxsni tarbiyalash sohasida hamkorlik pedagogikasiga hamda ongli verbal – kognitiv ta'lim tizimiga tayanadigan yo'lni tanladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimalarni? qancha? qanday? o'rgatishi kerak, degan savollarga javob beradi. To'g'ri tanlangan mazmun esa maqsadga erishishga yordamlashadi. Til o'qitish metodikasini o'rganish – turli ta'lim bosqchlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. U ilg'or tajribalarni umumlashtirish, o'qitishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish va undan samarali foydalanishga asoslanadi.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy – ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fashohat ilmi bilan) boyitishdan iborat.

Standart – konsensus asosida ishlab chiqilgan va faoliyatning har xil turlariga, ularning natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror foydalaniladigan qoidalar, umumiy prinsiplariga, tavsiflari belgilangan va ma'lum sohada eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan hujjat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sohalarini me'yorlashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv fani bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining eng kam hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfdan muayyan o'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Ona tilini o'qitishga qo'yilgan minimal davlat talablari

O'quvchilar ona tilidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) grammatikaga oid o'zlashtiriladigan me'yorlar:

– fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bog'lanishli nutq, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar, ularning muhim belgilarini bilib olishlari, izohlay bilishlari va shu tushunchalar bilan bog'liq grammatik atamalarni o'zlashtirish;

– o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlarini bilish;

- nutq uslublarining chegara va imkoniyalarini bilish;
- og‘zaki va yozma nutqda so‘z o‘zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar, grammatik ma’no ifodalovchi vositalarni tanlay olish;
- sinonimik va uslubiy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olish;
- gapda so‘z tartibiga rioya qilish, gap bo‘laklarini turli turkumga oid so‘zlar, otlashgan so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar vositasida ifodalay olish;
- gap turlaridan, undalmali, kirish so‘zli va birikmali, uyushiq bo‘lakli, ajratilgan izoh bo‘lakli gaplardan, qo‘shma gap turlaridan, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish;

b) amaliy ko‘nikma va malakalar:

– o‘qish texnikasi bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich – 1 daqiqada 120 – 130 so‘z.

– sifat ko‘rsatkichlar – murakkab tipdagi ilmiy atamalarni, ramzlarni, mumtoz adabiyot namunalarini, so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qish;

– o‘zgaralar fikri va matn mazmunini anglash malakasi bo‘yicha:

Miqdoriy ko‘rsatkich – 10 daqiqada 5-6 sahifa. Sifat ko‘rsatkichlar – og‘zaki nutqning aniqligi, matn mazmunining mos bo‘lishi, to‘g‘ri, ravon va ta’sirchan bo‘lishi.

– fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha:

Miqdoriy ko‘rsatkich – 12 – 14 gapdan iborat bo‘lgan tugal matn yaratish. Sifat ko‘rsatkichlar – matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, matndagi xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta’minlash, o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog‘ozlarini yoza olish.

9 §. O‘quv dastur. O‘quv dasturning tarkibi va mazmuni

O‘quv dasturi tegishli DTS hamda o‘quv rejasiga tayanib yuzaga keladigan muhim davlat hujjatidir. U DTSni amalga oshirishda tayanch manba hisoblanadi. Butun o‘quv jarayoni ana shu davlat hujjatiga tayangan holda tashkil etiladi. Dastur o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, og‘zaki va yozma nutq malakalarining egallanishi lozim bo‘lgan darajasini belgilab beradi. U ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari va mazmunini muayyanlashtiradi.

Eski darslik va dasturlar, o‘quvchining tafakkur ko‘lamini kengaytirish, fikr ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish masalasi chetda qolib, tilshunoslikning ilmiy talqinlarini o‘rganishga bag‘ishlandi.

An’anaviy darsliklarda asosiy e’tibor imlo savodxonligini ta’minlashga qaratildi, shakl va mazmun uyg‘unligiga kam e’tibor berildi.

Ona tili darslarida o‘quvchi mustaqil izlanib, mustaqil hukm va xulosalar chiqarmas ekan, yodlab hosil qilingan bilimlar amaliyotga tatbiq etilmay qolaveradi. Aksincha, xususiylikdan umumiylikka qarab borilganda esa

umumiylikning xususiy voqelanishi cheksiz bo'lganligi sababli, bunday faoliyat o'quvchini doimiy izlanishga, qiyoslash, ajratish va farqlashga undaydi.

1960-80-yillarda jahon tilshunosligi fani, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida "til – me'yor – nutq" munosabatlari o'rnatilib, til va nutqni farqlab o'rganadigan, tizimiy tilshunoslikka asoslangan yangi metodikaga asos solindi. Til metodikasidagi tizimiy yaxlitlik ta'lim mazmunini yangilashga qulaylik tug'dirdi. Til, uning bo'limlari – fonetika, leksikologiya, grammatikaning tizimiy yaxlitlikda amaliy qo'llanishi, bilim, ko'nikma, malakalarni yaxlit holda shakllantirish bilan birga olib borilishi, til o'qitish metodikasi fanida muhim rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etdi.

Tilshunoslik fani yutuqlari darsliklarga bevosita kiritilmasdan, amaliyot nuqtayi nazaridan olimlar, metodistlar va o'qituvchilar sinovidan o'tkazilib, eng foydali deb topilgan usullargina maktab ta'limiga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd qilindi. Tizimiy tilshunoslikka asoslangan metodikada asosiy e'tibor shakl va mazmun uyg'unligiga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni oshirishga qaratildi.

An'anaviy ta'limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi quyidagi uch maqsadga xizmat qildi:

- *savodxonlik;*
- *to'g'ri va chiroyli yozish;*
- *yozma nutqni rivojlantirish.*

Yangilangan ona tili ta'limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy ona tili o'qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- *so'z boyligini oshirish va boyitish;*
- *mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish;*
- *nutqiy mahoratni shakllantirish;*
- *mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish.*

Ta'lim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlash, umumlashtirish, ular orasidan nutqiy vaziyatga mosini tanlash va o'z nutqda qo'llash kabi aqliy faoliyat usullari o'quvchidagi diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi ruhiy xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, uni mustaqil bartaraf etish, madaniy muloqot kabi ijobiy xislatlarning paydo bo'lishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etildi.

Ona tili ta'limi mazmunining yangilanishi, til o'qitish metodikasining oldiga ham dolzarb masalalarni qo'ydi.

Shu asnoda, Milliy o'quv dasturning aynan bir qismini keltiramiz:

Ona til fani tavsifi va integratsiyasi. Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, tojik, turkman), rus tili (ta'lim rus va o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va

ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so'z san'atidir, shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea-hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili, adabiyot hamda o'zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda o'qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'zni bilan bog'laydi va o'quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o'rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ularni o'zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an'ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi. Bu jarayonda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni

qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'limning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ushbu fan ta'limi mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan, bu o'quvchining o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta'minlash asosida amalga oshiriladi. O'quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko'zda tutadi.

Adabiyot fani milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o'quvchining ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchining ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitob o'quvchidan

chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o'stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchining fikrlashini o'stirish ko'zda tutiladi. O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asa matn ustid ishlas bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Til va adabiyot fanlari blokidagi fanlar o'zaro ijtimoiy va aniq fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitiladi. Agar o'quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki ijodiy yondasha olmasligi o'qish savodxonligida qusur borligidan dalolat.

Matematika faniga doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalanadi. Gap qurilishini esa, shubhasiz, ona tili fani o'rgatadi. Fanga oid matnlarn tingla tushunish, mantiqi fikrlas orqal matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechimni topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

Fizika va astronomiya faniga doir masala, formula, matnlarni o'qib tushunish ushbu fan tushuncha va hodisalarini – bu fan ramzlari va amaliyotlarini to'g'ri yozish va o'qish orqali qanchalik to'g'ri va ongli uqqanligi yoki uqmaganligini ham ko'rsatib turadi. Fanga oid matnlarni o'qish jarayonida o'quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kimyo faniga oid matnlarni, terminlarni, atamalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Fanga oid matnlarni to'g'ri o'qish va tinglab tushunish orqali o'quvchi moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarni biladi. Kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Kimyoviy moddalar hamda maishiy

kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmasi rivojlanadi.

Biologiya faniga o'quvchi oid matnlarni to'g'ri o'qish, tushunish orqali terminlar, atamalarni o'zlashtirish, jonli tabiatni tizim sifatida bilish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni his etish, jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, ijtimoiylashuvi rivojlanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikka asoslangan mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Tabiat va geografiya faniga oid matnlarni tinglab tushunish, o'qish orqali o'quvchida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalar hosil bo'ladi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo'llash malakalari shakllanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid matnlarni tushunish, o'qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari rivojlanadi.

Tarix fani orqali adabiy va tarixiy dalillarni bir-biriga qiyoslash, dalillar haqida fikr yuritish va to'g'ri xulosalar chiqarish bilimni puxta o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot va tarix fani o'zaro yaqin turadi. Adabiyot darslarida o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda ularning tarix fanidan olgan bilimlari bilan birga, hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarni o'rganishlaridan ham foydalaniladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi yorqin tarixiy shaxslar obrazlari ham o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadi, jamiyatning moddiy boyligi va ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shish tuyg'usini o'stiradi. Shu yo'l bilan o'quvchida ijtimoiy hayot voqealari hamda adabiyot va san'at asarlarini mustaqil anglash malakasi, izchil dunyoqarash shakllantiriladi.

Maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo'yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar (umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar)

Til va adabiyot fanlari orqali o'quvchida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchida fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Til va adabiyot fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni

shakllantirishda davlat tili hamda xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchini fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjet) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunishdan, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

Og'zaki nutq malakasi

o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so'zlay olish

mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g'oyalarni taqdimot ko'inishida namoyish qilish

munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildirish

badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to'xtam (pauza) dan o'rinli foydalana olish

Yozma nutq malakasi

o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish

turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa/hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish

materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish

yoza nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish

matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish

imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.

Anglash malakasi o'qish va tushunish

matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qiy olish;

matnda til qanday qo'llanganini, xususan, har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nega aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;

ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish

matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish

matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish

xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish

matnning yozilishidan qanday maqsad ko'zlanganini, qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo'llay olish.

Tinglab tushunish

monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish

jonli nutq va audiomatn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;

berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish

so‘roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish;

audiomatnda berilgan ma’lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko‘rinishida ifodalay olish

audiomatni og‘zaki aytib bera olish va matn ko‘rinishida yozib bera olish

tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish

dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish;

Lingvistik malaka

(fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)

Fonetika

nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini anglash va izohlay olish

fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olish

ohang va urg‘uni bilish va qo‘llay olish

Imlo me’yorlari

harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish

asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish

so‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalariga amal qilish

Leksikologiya

sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to'g'ri qo'llay olish

omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish

so'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolarni farqlash, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Morfologiya

so'zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo'shimchani, tub va yasama so'zlarni farqlash; qo'shimchalarning shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noliligini bilish, nutqida qo'llay olish

mustaqil so'z turkumlari (fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning ma'no turlarini o'zaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda to'g'ri qo'llay olish

yordamchi so'z turkumlari (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama)ni o'zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to'g'ri qo'llash

alohida so'z turkumlari (modal, taqlid va undov so'zlar) ni o'zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to'g'ri qo'llash

tinish belgilarini to'g'ri qo'llash

Sintaksis

so'z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to'g'ri qo'llash

gap bo'laklarining o'zaro bog'liqligini, tartibini tushunish va nutqda to'g'ri qo'llay olish

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchiga ona tili fanidan qo'yiladigan talablar (VI sinf).

Nutqiy kompetensiya (og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish)).

Og'zaki nutq.

Adabiy talaffuz me'yorlari asosida nutqqa mos keluvchi iqtiboslar tanlagan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish;

Turli mavzular yuzasidan fikrni mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalay olish;

Mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qila olish;

Badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni anglash, ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish;

Berilgan mavzu muhokamasida o'zining shaxsiy qarashlarini himoya qila olish;

Yozma nutq.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12–14ta gapdan iborat matn yoza olish;

Materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;

Husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 100–120ta so'zdan iborat diktant yoza olish;

Hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni yaratishda so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash;

Grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;

Ish qog'ozlari (shaxsiy xat, e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol)ni to'g'ri yoza olish;

Anglash.

O'qish va tushunish.

Turli uslubdagi matnlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib ravon va ifodali o'qish;

Matni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani) ni farqlay olish;

Maqol va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;

Matnga sarlavha/sarlavhalarni topa olish;

Matni qismlarga ajrata olish; xatboshilarni aniqlay olish;

Matndan ko‘zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini anglay olish;

Tinglab tushunish.

Monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish; mavzuni aniqlash va nomlay bilish; munosabat bildirira olish;

Jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;

Berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish; savol bera olish; maqsadga ko‘ra mantiqiy urg‘u qo‘ya bilish;

Audiomaterialda berilgan ma‘lumotni yozma, grafik va rasm ko‘rinishida ifodalay olish;

Eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;

Lingvistik kompetensiya.

So‘z yasalishi.

So‘zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo‘shimchani farqlagan holda to‘g‘ri yoza olish;

Tub va yasama so‘zlarni farqlay olish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Asosga qo‘shilib, so‘zga yangi va qo‘shimcha ma‘no yuklovchi yoki o‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimchalarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Qo‘shimchalarning shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noliligini bilish, nutqda qo‘llay olish.

Imlo me‘yorlari.

Unli va undosh harflar imlosi, qo‘sh va qator kelgan unli va undoshlar talaffuzi va imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

So‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida, shuningdek, ayrim so‘zlar talaffuzi bilan bog‘liq sodir bo‘ladigan tovush hodisalari imlosini bilish va yozma nutqda qo‘llay olish;

So‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalari, atoqli otlar imlosiga rioya qila olish;

Morfologiya.

So‘z turkumlarini o‘zaro farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Nom bildiruvchi so‘zlarning o‘ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Belgi bildiruvchi so‘zlarning o‘ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Narsalarning miqdori va tartibini bildiruvchi so‘zlarning o‘ziga xos belgilarini bilish, nutqda ulardan to‘g‘ri foydalana olish;

Harakat va holatning belgisini bildiruvchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, nutqda ulardan to‘g‘ri foydalana olish;

Harakat va holatni ifodalovchi so‘zlarning o‘ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda ulardan to‘g‘ri foydalana olish.

Leksikologiya.

Tasviriy ifodalarni bilish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
Iboralarni farqlash va ulardan nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri foydalana olish;

Lug‘at turlarini farqlash va ulardan foydalana olish (imlo, izohli va tarjima lug‘atlari).

Sintaksis.

Sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;

Matn va uning turlari (hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni)ni farqlash; kichik hajmli matnlarni yarata olish;

Tinish belgilari (nuqta, so‘roq, tire, qo‘shtirnoq va undov)ni to‘g‘ri qo‘llash;

Umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchiiga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar (X sinf).

Nutqiy kompetensiya (og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash (o‘qish va tushunish, tinglab tushunish).

Og‘zaki nutq.

O‘zbek tilining adabiy me‘yorlariga rioya qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta‘sirchan va ravon so‘zlay olish;

Nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og‘zaki muloqotga kirisha olish;

Har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g‘oyalarni taqdimot ko‘rinishida ifodalay olish;

Murakkab grafik chizma hamda diagrammalarni og‘zaki ifodalab bera olish;

She‘rlarni yoddan ifodali o‘qish, dramatik asarlardan parchalar ijro eta olish, bunda til vositalarining mazmunini anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to‘xtam(pauza)dan o‘rinli foydalana olish;

Munozaralarda ishtirok etish, aytilganlarni umumlashtirish va xulosalay olish.

Yozma nutq.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 20–25ta gapdan iborat matn yoza olish;

Turli maqsad va turli auditoriyaga mo‘ljallangan turli uslubdagi matnlarni yoza olish, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma‘lum narsa yoki hodisa haqida ma‘lumot yetkazish uchun yoza olish;

Materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yoza olish;

Yozma nutqining ta‘sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositlarini qo‘llay olish;

Matnning izchilligini ta‘minlash uchun so‘zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to‘g‘ri qo‘llay olish;

Husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 160– 170ta soʻzdan iborat diktant yoza olish;

Yozma nutqda grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;

Ish qogʻozlari (eʼlon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma, yoʻriqnoma, shartnoma, buyruq, buyruqdan koʻchirma)ni toʻgʻri yoza olish.

Anglash.

Oʻqish va tushunish.

Matning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali oʻqish;

Badiiy matn turlari(hikoya, sheʼr, drabl, drama)ning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini farqlash, matn tuzilishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalarning vazifasini tushunish;

Oʻzbek tiliga xos boʻlgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qoʻshadigan hissasini aniqlay olish; muallifning soʻz qoʻllash mahoratiga unosabat bildira olish;

Axborot matnlari(ilmiiy va ommabop maqola, yoʻriqnoma, grafik tasvir va jadvallar, tahliliy va tanqidiy matnlar, qiyoslash matnlari)ning muhim va nomuhim jihatlarini ajratish, xatboshilarni aniqlay olish;

Oʻqish strategiyalari (eski bilimlarni qoʻllash, bashorat qilish, asosiy gʻoyani aniqlab olish, soʻroqlash, xulosalar chiqarish, tasavvur qilish, hamkorlikda oʻqish)dan amalda foydalana olish;

Xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bogʻlay olish.

Tinglab tushunish.

Badiiy matnlarning yozma va audio shakllarini taqqoslagan holda maʼnodagi oʻzgarishlar haqida fikr yurita olish;

Audiomaterialni ogʻzaki aytib bera olish va matn koʻrinishida yozib bera olish;

Audio yoki videomaterialda berilgan maʼlumotni yozma, grafik va rasm koʻrinishida ifodalay olish;

Gap ohangidagi uslubiy boʻyoqdor vositalarni ajratish va tahlil qila olish;

Eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;

Tinglash jarayonida mazmunni tushunishdagi toʻsiqlarni anglash va bartaraf eta olish;

Lingvistik kompetensiya.

Tilning ifoda imkoniyatlari.

Fonetik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda ulardan toʻgʻri foydalana olish;

Soʻzning maʼno va shakl munosabatlarini farqlash, nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;

Soʻzning maʼno nozikliklarini farqlash, nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;

Ona tilining boyish manbalarini, tarixiy, eskirgan, arxaik va yangi soʻzlarni farqlash, nutqda ulardan toʻgʻri foydalana olish;

Nutqda qoʻllangan barqaror birikmalarning estetik vazifasini aniqlay olish;

Maʼno koʻchish yoʻllarini farqlash, matndagi oʻrnini tahlil qila olish;

Morfologik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda to‘g‘ri foydalana olish;

Nazorat uchun savollar:

1. Standart, standartlashtirish me‘yorlari tushunchalarini izohlang.
2. DTS ta‘lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydimi?
3. Davlat ta‘lim standartlarining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Davlat ta‘lim standartlarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Standart qanday ma‘noni anglatadi?
6. Ta‘limni standartlashtirishning obektlarini tushintirib bera olasizmi?
7. Ona tili o‘qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimalarni? qancha? qanday? o‘rgatishi kerak?
8. Ona tilini o‘qitishga qo‘yilgan minimal davlat talablari nima?
9. O‘quv dastur nima?
10. O‘quv dasturning tarkibi va mazmunini izohlang.
11. Ona til fani tavsifi va integratsiyasi nimalarda ko‘rinadi?

Tayanch so‘z va iboralar:

Milliy o‘quv dasturi, malaka, DTS, davlat ta‘lim standartlarining vazifalari, ta‘limni standartlashtirishning obektlari, klassifikator, ijodiy tafakkur, verbal – kognitiv ta‘lim, standart, davlat talablari, o‘quv dastur, savodxonlik, ona til fani tavsifi va integratsiyasi, ona tili, o‘zbek tili, adabiyot, o‘qish, kompetensiyalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.-230 b.
2. “Ta‘lim to‘g‘risidagi”gi Qonun. “Ma‘rifat”, 2020.
3. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta‘lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
4. Davlat ta‘lim standartlari. T., 2016-yil.
5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. – 5-son, 3-16-betlar.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. “Ona tili” 5-11-sinflar. – T.: Ma‘naviyat, 2022-2023.
7. Mahmudov N., To‘xliyev B. “O‘zbek tilini o‘rganamiz” rasmi lug‘ati.
8. Milliy dastur. T., 2022-2026-yillar.
9. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
10. Nazarova S. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston Xalq ta‘limi vazirligi talabalar uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etgan). “O‘qituvchi”, 1992.
11. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil.

12. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

Elektron ta‘lim resurslari

14. www.bimm.uz– O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz

15. www.edu.uz– O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti

16. www.uzedu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi

ONA TILI TA‘LIMI ORQALI O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK VA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Ko‘riladigan masalalar:

1. *Nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish)ni shakllantirish usullari.*

2. *Lingvistik kompetensiyalar (fonetik, leksik va grammatik)ni shakllantirish yo‘llari.*

10 §. Nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish)ni shakllantirish usullari

Dars – o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligida, dastur va darsliklar asosida, izchil tartib va oldindan belgilangan yo‘sinda, doimiy o‘quvchilar jamoasi bilan o‘tkaziladigan, ta‘limning yetakchi shakli sanaladi. Qisqa qilib aytganda, dars inson tafakkuri, mahsuli – bilimni yoshlarga singdirishning asosiy shaklidir.

Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi bilan bog‘liq taraqqiyot va istiqbolimiz, islohot va rejalarimiz taqdiri hamda zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis tayyorlashda dars mashg‘uloti muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, unga qo‘yiladigan talab ham ijtimoiy taraqqiyotga mos ravishda doim o‘sib boradi. Darslarda o‘rganiladigan bilimlar tizimi fanning so‘nggi yutuqlariga asoslanib, tanlangan kompyuter dasturlariga kiritilgan bo‘lishi zarur. Aks holda, ta‘lim sub’ektlarida o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqish juda susayadi.

Ona tili o‘qitish metodikasida o‘quv rejalari loyihasini qanday tuzish masalasi doimiy dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda kompleks loyihalarga asoslangan o‘quv rejalari tuzilib, unda hayotning turli sohalariga oid bilimlar – o‘quv mavzulari va o‘quv predmetlari bir kompleksga birlashtiriladi, yaxlitlanadi.

Ona tilini o‘rganishda yillik reja, mavzuiy reja va kundalik dars rejasidan foydalaniladi.

Yillik reja dastur va darslik asosida tuzilib, malaka oshirish institutlari orqali tarqatiladi. Mazkur reja asosida yarim yillik va choraklik rejalar o‘qituvchilar metod birlashmasi tomonidan yoki alohida o‘qituvchi tomonidan

tuziladi. Ushbu rejalarga, til materiallaridan ba'zilarini olib tashlash yoki qo'shishdan tashqari, ijodiy metodik o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Bir soatlik dars rejasini har bir o'qituvchi o'quvchilarning ichki va tashqi imkoniyatlari, nutqiy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini hisobga olgan holda tuzishi lozim. Dars rejasida ona tili mashg'ulotiga qo'yiladigan DTS talablari hisobga olinadi.

1995-yilda Asqar G'ulomov va Hamid Ne'matovlarning "Ona tili ta'limi mazmuni" nomli metodik qo'llanmasi nashr etildi. Ushbu qo'llanma ta'lim mazmunini yangilashda asosiy mezon vazifasini o'tadi. Qo'llanma talabiga ko'ra:

- til sathlarini (bo'limlarini) o'zaro bog'liqlikda o'rganish;
- fonetika, leksika, grammatikani o'rganishda xususiylikdan umumiylikka, oddiydan murakkabga, tahlildan qoidaga tomon borish;
- leksikologiyaning boshqa til bo'limlarini o'rganishda asosiy, rivojlantiruvchi vazifani bajarishini ta'kidlash;
- leksikologiya til o'qitish metodikasining tarkibiy qismi ekanligini amaliyotda isbotlash;
- shu bilimlarga oid ko'nikma va malakalarni ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan holda mustahkamlash hamda amaliyotga joriy etish yaxshi samara beradi.

Bundan xulosa shuki, o'quv rejalari, til sathlarining uzviy aloqadorlikda o'rganilishini ta'minlashi, bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichli, o'zaro ketma-ketlikda va bo'limlararo bog'lanishda rivojlantirilishini hisobga olishi zarur.

O'quv rejasi va dars bayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchilar bajaradigan amaliyotlar, mashqlar va boshqa mustaqil ishlarning hajmi belgilanadi. Tayanch tushunchalar, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar nomi va vazifasi ko'rsatib o'tiladi. O'quvchilarning yoshi, qiziqshi, qobiliyati, tayyorgarlik darajasi, tinglash, anglash va fikr ifodalash imkoniyatlari hisobga olinadi.

O'quv bo'limlari va mavzulariga ajratilgan o'quv soatlari dars mashg'ulotlarini tashkil etish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va nazorat qilishda me'yoriy hujjat sanaladi.

Ta'lim jarayonida "o'quvchi o'qituvchi" faoliyati. DTS talabiga ko'ra, o'quvchi ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida o'zi izlanishi, til hodisalarini kuzatishi, farqlashi, tahlil va tasnif qilishi, xulosalashi lozim. Shunday usullar bilan ishlash orqaligina biz ularida mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz mumkin.

Yangilangan ta'limning ongliklik prinsipiga asoslangan mazmun-mohiyati quyidagicha belgilandi:

- dars jarayoniga kuzatish, anglash, bilish, amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan til vositalari, imkoniyat va me'yorlarning izchil tizimini tatbiq etish;
- nutqiy faoliyatni jadal va to'g'ri shakllantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar erishgan yutuqlarga tayanish;

– uzluksiz ta’limda kompyuterlashtirilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlari: elektron darslik va ma’ruza matnlari, multimediali o‘quv dasturlari, elektron o‘quv qo‘llanmalardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

– nutqiy salohiyatni shakllantirishda og‘zaki va yozma nutq me’yorlariga amal qilish. Shundagina o‘quvchi fikr bildirishga shoshmaslikka, mustaqil mushohada yuritishga, so‘zlashdan oldin har bir so‘zni o‘ylab ko‘rishga, sharoitga mos so‘z tanlash va o‘z nutqda o‘rinli ishlatishga o‘rganadi.

Unda so‘zga mas’ullik hissi paydo bo‘ladi, ixcham, ravon va raso so‘zlashga odatlanadi. Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Shunday ekan, avvalo, o‘qituvchiga fanning so‘nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumoti va malakasini oshirishda bir qolipdagi ta’lim – tarbiya tizimiga xos sarqtlardan qutulish zarur. Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini chegaralamaydigan, uni faol ijrochiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot ta’lim usuli bilan ishlash, o‘quvchi o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadigan samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish demak.

Shu o‘rinda, ona tili va adabiyot fanlarini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda tashkil etish masalasini ham ta’kidlash joiz. Ona tili va adabiyot faniga oid tayanch va fanga oid kompetensiyalar tasdiqlangunigacha bo‘lgan davrda (tajriba Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan) ularning miqdori ko‘proq edi.

Tajriba-sinov natijalari va izlanishlar asosida ona tili va adabiyot fanidan quyidagi tayanch kompetensiyalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi.

A2 mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish.

A2+ mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi A2

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o'z xatti harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera olish.

A2+ badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'at va boshqalarga doir kitoblarni muntazam o'qish, o'rganish, va xulosa chiqarish, tegishli holatlarda ulardan o'z fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi A2

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h. k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma'naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o'ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

A2+ badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga etkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya A2

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

A2+ badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay olish hamda tushuntirib bera olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

A2 aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish;

A2+ inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'la olish hamda ulardan foydalana olish.

Shunga o'xshash har bir fandan ushbu fanga oid kompetensiyalarning loyihalari ishlab chiqildi va tajriba sinovdan o'tkazildi.

Ona tilidan fanga oid kompetensiyalar (dastlabki loyihada)

✓ Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi;

✓ Nutqiy (lingvistik) kompetensiya;

✓ Sotsiolingvistik kompetensiya;

✓ Pragmatik kompetensiya;

Ona tilidan fanga oid kompetensiyalar (tasdiqlangan variantda)

* Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*);

* Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*).

Tayanch kompetensiyalarni qachon, qanday shakllantirish mumkin?

Tayanch kompetensiyalari tarkibiga kirgan kommunikativ kompetensiyani joriy nazoratlar davrida ogʻzaki soʻrov, uy vazifalarni bajarganligi, sinfdoshlarining tushuntirishlarini anglay olishi, bahsga kirishish kabilar orqali shakllantirilsa, axborot bilan ishlash kompetensiyasini darslik hamda oʻquv qoʻllanmalar bilan ishlash, badiiy adabiyot, kinofilmlardan jarayon, hodisa, qonun hamda qoidalar qoʻllanilgan vaziyatlar toʻgʻrisida axborotlarni izlab topish, ularni tushuntirish orqali shakllantirish mumkin. Shu bilan shaxs sifatida oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetensiyasi ham shakllantirilib boriladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga oid koʻnikmalarni dars jarayonida guruhlarda ishlash, rolli oʻyinlar kabi usullarni qoʻllab darslarni tashkil etishda hosil qilish mumkin. Umummadaniy kompetensiyalarni oʻquvchilarda shakllantirish uchun fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishi bilan insoniyatning umummadaniyati ham yuksala borishini koʻrsatish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yechimini kutayotgan muammolar:

1. Oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini belgilaydigan mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Bu mezonlar oʻquvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak.

2. Pedagog tomonidan tashkil qilinadigan dars ham kompetent dars boʻlishi kerak. Buning uchun uning strukturasi va ekspertiza qilish mezonlari ishlab chiqilishi kerak.

Nutqiy kompetensiya elementlarini ona tili darslarida shakllantirish

Tinglab tushunish. Ona tili darslarida tinglab tushunish koʻnikmasini oʻquvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu jarayon orqali oʻquvchi diqqatini uzoq vaqt ushlash malakasi, oʻquvchilarning ogʻzaki bayon qilinayotgan oʻzgaralar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish koʻnikmasi shakllantiriladi. Oʻquvchi eshitgan har bir maʼlumotni ongida tahlil qila olishi kerak. Oʻquvchilar sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning toʻgʻriligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va taʼsirchanligini anglashi, barqaror atamalar, kasb-hunar soʻzlarining maʼno xususiyatlarini farqlashi hamda tushunishi lozim.

Gapirish. Ona tili darslarida oʻquvchining ogʻzaki nutqi berilgan matnlarni oʻrganishi, mazmunini esa ogʻzaki bayon qilishi bilan shakllanib

boradi. O'quvchining gapirish ko'nikmasi o'rganilgan mavzuni og'zaki ifodalashida yaqqol ko'zga tashlanishi bilan ajralib turadi. Ayrim hollarda o'quvchilarning gapirish ko'nikmasi yaxshi shakllanmaganligini guvohi bo'lamiz. O'rganilgan mavzuni yoki matnni og'zaki bayon qilayotganida fikrlarini o'z ona tilida xatosiz, to'g'ri ifodalashi, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanib, mavzudan chetga chiqmay mazmunni yoritishi, bog'lanishli nutqi asosida gapira olishi, undan xulosa chiqarishi zarur. Bu ko'nikmalar dars jarayonida takomillashtirilib borilishi kerak. Nutqini adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda ifodali, ravon, ta'sirchan va mazmunli ifoda eta olishi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qilishi lozim.

O'qish. O'qish ko'nikmasi orqali o'quvchining tanish va notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish darajasi aniqlanadi. Bunda turli janrdagi matnlarni ifodali va ta'sirchan o'qiy olishi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda hamda qo'shma gaplar ohangiga rioya qilib o'qishi, berilgan grammatik tamoyil va ma'lumotlarni o'qib tushunishi, turli janrdagi matnlarni o'qib o'zi tushungan mazmunni tinglovchilarga gapirib bera olishi, gazeta va jurnallarni, yozilgan reklama va e'lon, turli mavzulardagi kichik hajmdagi kitoblarni, internet materiallarini, badiiy, ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o'qib tushunishi aniqlanadi. Sinfdan sinfga o'tish davrida berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Yozish. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. O'quvchilar fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qilishlari, unda kirish va kiritmalar, ko'chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishlari kerak. Ijodiy matnlar yarata olishi hamda imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qilgan holda yozishlari, rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlab yozishlari kerak. Sinfdan sinfga o'tish davrida berilgan matnni yozishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ko'payib boradi.

Ona tili fani bo'yicha o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma, malakalar quyidagi ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

- ✓ fanga doir nazariy bilimlarning qay darajada shakllanganligi;
- ✓ o'zgalar fikrini, matn mazmunini anglash va so'zlash malakasi;
- ✓ fikrni yozma shaklda to'g'ri va aniq, ravon bayon etish malakasi.

O'quvchilarda ushbu ko'rsatkichlar asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi kerak. Fanni o'qitishning bir qator vazifalari mavjud.

Ular:

- ✓ o'quvchilarni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- ✓ fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish;
- ✓ so'zlardan o'rinli foydalanish;
- ✓ fanning ahamiyatini singdirish.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni

mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli dunyoqarashni keltirib chiqaradi.

Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlari integratsiyasiga moyillik yuqori turadi. Maktab umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmaligi o'quvchilar bilimini to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi. Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differentsiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu uzviylik o'quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlari sistemasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi. **Integratsiya** – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligi. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi hamda ilmiy pedagogikaga asoslangan. **Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir.** Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini umumiy o'quv predmetlari mazmuni va maqsadlarini ma'lum uzviylikda va o'zaro mantiqiy bog'langan holda tashkil qilish ta'limni sifat va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarni dunyoqarashini kengaytirib, ularni fikrlash olamini yorqin obrazlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmuni va ko'lamini optimallashtirish, o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, ta'lim mazmunini o'quvchi yoshlar ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalantirishda ham predmetlararo aloqaning imkoniyatlari cheksiz. Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil etish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Axborotlar ko'lamining kengayishi, o'quvchilar bilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining oshishi, integratsion jarayonlarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, o'qituvchidan tinimsiz ravishda o'z ustida ishlash va intellektual salohiyatni talab qiladi. Ona tili fanini o'qitishda integratsiya o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog'lanishni mustahkamlab, ularni umumlashtirib, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qanday usul va vositalardan samarali foydalanishiga bog'liq. Shu o'rinda birinchi galda DTS va o'quv dasturlarini predmetlararo bog'lanish imkoniyatlarini aniqlay olishga e'tibor qaratish lozim.

Taqvim mavzu rejalar tuzish jarayonida har bir mavzu mazmunidan kelib chiqib, bog'lanish mumkin bo'lgan fanlarni aniqlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili fanini o'zaro aloqadorlikda o'rganishda o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, yangi o'quv-metodik majmualar mazmuni va zaruriy bog'lanishlarni o'rgatish kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish bu borada samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san'at, tarix, musiqa, adabiyotning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi. Jumladan, o'qituvchi darsga kirib, o'quvchilarni munozaraga chorlaydi.

Adabiyot fanidan berilgan she'rlarni til o'qitish darslarida modullashtirish mumkin. Biz modul darslarini integratsiya asosida qanday olib borish kerakligi yuzasidan fikr-mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashdik. Integratsiyali darslarni tashkil qilish uchun o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarda faollikni oshirish yo'llarini, mavzuni o'tish modellarini, mashg'ulot jarayonida foydalanish lozim bo'lgan vositalarni, usullarni aniqlab oladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mavzuga oid izchil talablar qo'yilishi lozim. Buning uchun o'qituvchi darsning kengaytirilgan rejasini tuzib, shu reja asosida ish olib boradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash orqali individual ravishda izlanadilar, natijada tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi.

Integratsiya tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya-o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi. Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi. Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin.

Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini

o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'zo'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim.

Integratsiyali darslarni tashkil qilish yuzasidan yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, ya'ni mavzulararo uyg'unlikni ta'minlash. Tarix va adabiyot, milliy istiqloq g'oyasi, botanika faniga oid mavzu va matnlarni ona tili darslarida berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Modullashgan integratsiyada turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda beriladi.

3. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o'quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo'lgan o'quv materiallari bilan uyg'unlashtiriladi.

Ta'lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha ushbu ta'riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o'zining rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Ta'limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi);

2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi);

3. Rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida;

4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida.

Ona tiliga doir nazariy bilimlar qanday o'qitilishi kerak?

Dars jarayonida turli usullardan foydalanish ta'lim oluvchining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilarni ona tili darslarida mustaqil, kreativ fikrlashga o'rgatish uchun dars jarayoni qiziqarli, turli usullardan foydalangan holda tashkil etilishi zarur. Berilgan darsliklardagi grammatik qoidalarni chuqur egallash maqsadida ijodiy fikrlashni shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darslarini tashkil etishda "Fikrlarning tarmoqlanishi", "BBB", "FSMU", "VENN diagrammasi", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Raqmlar so'zlaganda", "Baliq skleti", "Yelpig'ich", "Bumerang", "Zakovat", "Ha yoki yo'q", "Zinama-zina", "Sinkveyn", "SWOT" tahlili kabi innovatsion,

noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin.

O'qituvchi dars jarayonlarida turli ta'limiy o'yinlardan oqilona foydalanadi. Bu jarayon dars samarasini oshiradi. O'quvchilar qiziqishini orttiradi. Umumiy qilib aytganda, bunday o'yinlar mavzularni o'quvchilarga oson va tushunarli berishning yo'llaridan biri hisoblanib, o'qituvchining yangi yangi ta'limiy o'yinlarni darslarida qo'llashi, hatto o'zi ham shunday o'yinlarni o'ylab topishi mumkin. Zero biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro munosabatda bo'lgan sohalar ekanligini tushuntirish lozim. Gap turlari: darak, so'roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan, kesimlarning qanday so'z turkumi orqali ifodalanishiga bog'liqligi o'rgatiladi. Masalan, "Kim birinchi?" o'yini berilgan topshiriqni tez va to'g'ri topish ko'nikmasini rivojlantirish orqali nazariy ma'lumotni yodda saqlab qolish imkonini beradi. Masalan, "Sintaksis"ni o'quvchilarga o'rgatishda, birinchi navbatda, "kesim – gapning markazi" ekanligini bildirishdir. Mavzuni tushuntirishni kesimga xos *yozdi, uxladik, boryapmiz, tekshiramiz* kabi so'zlarni shaxs-sonda tuslab, shaxsga ishora qiluvchi qo'shimchalarni topishdan boshlash muhim.

11 §. Lingvistik kompetensiyalar (fonetik, leksik va grammatik)ni shakllantirish yo'llari

Fonetika. Grafika.

-unli va undosh harflarni biladi va so'zlarda to'g'ri foydalanadi.

-tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalarni biladi, yozuvda to'g'ri aks ettiradi;

-bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qiladi;

-nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlaydi;

-lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini biladi;

Talaffuz va imlo me'yorlari

-A va O unlilarining talaffuzi va imlosini, I va E unlilarining talaffuzi va imlosini, U va O' unlilarining talaffuzi va imlosini, yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosini izohlaydi;

-ayrim undoshlarning talaffuzi va imlosini, Sh, Ch, Ng harflar birikmasining talaffuzi va imlosini, qo'sh va qator kelgan undoshlar talaffuzi va imlo me'yorlarini biladi;

-bosh xarflar imlosini, so'zlarni qo'shib yozish va ajratib yozish imlosini biladi;

asos va qo'shimchalarning talaffuzi va imlosini izohlaydi.

Leksikologiya

-so'z va uning ma'nolarini anglaydi, matnda so'zlardan o'rinli foydalanadi;

-sinonimlar, antonimlar, omonimlarni biladi, ogʻzaki va yozma nutqida ulardan foydalanadi;

-oʻzbek tili leksikasining boyish manbalarini biladi;

-yangi paydo boʻlgan soʻzlarni biladi, tarixiy va arxaik soʻzlarni bir biridan farqlaydi;

-terminlarni, kasbiy terminlarni, internet va iqtisodga oid terminlarni, fanga oid terminlarni izohlaydi;

-lugʻat va uning turlarini farqlaydi.

Punktuatsiya

-gaplarda tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllaydi;

-gap va matn tuzishda nuqta, vergul, soʻroq, undov, qoʻshirnoqdan oʻrinli foydalanadi.

Ish qogʻozlari

-ish qogʻozlari (xat, tabriknoma, taklifnoma, eʼlon) ni yozadi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda taʼlim muassasasida ilmiy-metodik, axborot bazasini shakllantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash, ishlab turgan pedagoglarimizda yangicha fikrlashni shakllantirish lozim. Bundan tashqari: oʻqituvchilarni taʼlimdagi kompetensiyaviy yondashuv bilan tanishtirish; tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni taʼminlaydigan texnologiyalarni egallash; oʻqituvchilarni kompetensiyalarga yoʻnaltirilgan topshiriqlarni tuza olish va darsda hamda darsdan tashqari faoliyatda qoʻllay olishga oʻrgatish; oʻqituvchilarni berilgan topshiriqlarni oʻquvchilar tomonidan qanday bajarilganligini tahlil qilish va baholashga oʻrgatish kerak. Har bir oʻqituvchi esa monitoring oʻtkaza olish, oʻz pedagogik faoliyatiga zarur tuzatishlar kirita olish kerak.

Nostandart test

Bilimingizni berilgan nostandart test orqali sinab koʻring. 4-ustundagi tushunchalar qaysi mavzuga oid ekanligini raqamlar orqali belgilang.

<i>T/r</i>	<i>Mavzu</i>	<i>Javob</i>	<i>Mavzuga oid tushunchalar</i>
1.	Morfologiya.		Hisob soʻz, numerativ
2.	Soʻz turkumlari.		Oʻtimli-oʻtimsizlik, sifatdash
3.	Grammatik kategoriyalar.		Oʻzgarmas soʻz, darajalanish
4.	Ot soʻz turkumi.		“Ichi boʻsh soʻz”, ishora soʻzlar
5.	Sifat soʻz turkumi.		Undov, modal, taqlid
6.	Son soʻz turkumi.		Vosita, atalganlik
7.	Feʼl soʻz turkumi.		Ayiruv, taʼkid
8.	Ravish soʻz turkumi.		Antroponim, zoonim
9.	Olmosh soʻz turkumi.		Zidlov, biriktiruv
10.	Koʻmakchi.		Grammatik shakl, grammatik maʼno
11.	Bogʻlovchi.		Oʻzgalovchi kategoriya, nisbat kategoriyasi

12.	Yuklama.		Mustaqil, yordamchi
13.	Alohida soʻzlar turkumi.		Asliy, nisbiy

Feʼl soʻz turkumi

“Feʼl” soʻz turkumini oʻrganishda feʼllardan boʻlishsiz (va aksincha) feʼllar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan feʼllarning zamonini almashtirib qoʻllash, kesimlarga shaxs-son va zamon qoʻshimchalari qoʻshish ishlari oʻrganilganlarni oʻquvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

Quyida sinflarda feʼllarning lugʻaviy shakllari va maʼno guruhlari oʻrganiladi. “Feʼllarning umumiy xususiyatlari”, “Feʼl nisbatlari”, “Feʼlning vazifa shakllari”, “Feʼllarning tuzilishiga koʻra turlari”, “Feʼlning maʼnoviy guruhlari”, “Koʻmakchi feʼllar”, “Feʼllarning munosabat shakllari”, “Feʼllarning zamon shakllari”, “Mayl shakllari”, “Shaxs-son shakllari” singari mavzularni oʻrganishda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning soʻz boyligini feʼllar bilan oshirish, ogʻzaki va yozma nutqda ulardan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi. Oʻquvchilarning feʼllarga xos boʻlgan xususiyatlarni toʻliq oʻzlashtirishlari uchun feʼlning sinonimlari ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Berilgan feʼllarga sinonimlar topish (masalan, chopmoq, yugurmoq, gʻizillamoq, uchmoq), maʼnosi tushunarli boʻlmagan sinonim soʻzlarning maʼnosini izohlash, har bir soʻz yordamida gaplar tuzish maqsadga muvofiq.

Masalan: Bobur otasi tomon *chopdi*. Qizcha onasiga qarab quchoq ochib *yugurdi*. Berilgan matnni tahrir qilishda, takrorlangan feʼllar oʻrniga ularning sinonimlarini qoʻllash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishda oʻta muhim sanaladi. Mavzuni oʻrganishda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning soʻz boyligini feʼllar bilan oshirish, ogʻzaki va yozma nutqda ulardan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi. Oʻquvchilarning feʼllardan oʻrinli foydalana olish koʻnikmasini oʻstirish uchun berilgan qoʻshimchalar yordamida feʼllar hosil qilish, koʻmakchi feʼllar berib, ular ishtirokidagi yetakchi+koʻmakchi feʼllar tuzish, toʻliqsiz feʼllarni shaxslar doirasida oʻzgartirishga oid namunalar topish yuzasidan guruhlarda bellashuvlar tashkil etish mumkin.

“Ertak” oʻyini. Bu oʻyinda sinf ikki guruhga ajratiladi va 1-guruhga toʻliqsiz feʼllarni shaxslar boʻyicha oʻzgartirish, 2-guruhga esa ularing boshqa soʻzlar bilan birikishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Keyin topshiriq turi guruhlaro almashtiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni toʻgʻri bajargan guruh ertak aytish huquqini (yoki oʻqituvchidan eshitishni) qoʻlga kiritadi. Chunki oʻyinning nomi shunga muvofiq qoʻyilgan va ertak eshitiladi (imkoniyat darajasida). Shu matndagi toʻliqsiz feʼllar topiladi va izohlanadi.

Ot soʻz turkumi

Oʻquvchilar uchun oʻzlashtirilishi qiyin boʻlgan nazariy bilimlardan biri qoʻshma otlar va ularning imlosi sanaladi.

Mavzuni oʻrganishda mavjud soʻz birikmalaridan joy nomlari tuzish, masalan, yetti suv – Yettisuv, yangi bogʻ – Yangibogʻ, uch tepa – Uchtepa,

qo'shma so'zlarni so'z birikmalariga aylantirish – paxtagul – paxta guli, otbozor – ot bozori, molbozor – mol bozori; berilgan qo'shma so'zlar lug'atini tuzish – gulbeor, Ko'ksaroy kabi ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish ushbu mavzuning yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning juft otlarni o'rganishlarida ham anchagina qiyinchilik tug'diradigan masalalar bor. Ulardan biri juft so'zlarni ular orasidagi ma'no munosabatlariga ko'ra uyadosh so'zlar: aka-uka, aka-uka, ota-ona, ko'z-quloq kabi ma'nodosh so'zlar: uy-joy, kuch-quvvat, baxt- saodat, qarama-qarshi ma'noli so'zlar: do'st-dushman, kecha-kunduz singari guruhlarga ajratish, faqat bitta tovushning o'zgarishi bilan takrorlanadigan bug'doy-mug'doy, choy-poy, osh-posh kabi so'zlarning ma'nosini sharhlash singari topshiriqlardan foydalansa bo'ladi.

Kutiladigan natija shundan iboratki, ta'lim oluvchi ushbu ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish asnosida mavzuni to'liq o'zlashtiradi.

Sifat so'z turkumi

Sifat so'z turkumini o'qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma'lumotlarni o'rganish va sifat yasovchi qo'shimchalarni bilish o'quvchi nutqini kengaytiradi. Qo'shimchalar yordamida sifatlarning yasalishini o'rganish va uni nutqda qo'llay olish o'quvchining chiroyli so'zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

Sifat so'z turkumini o'qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma'lumotlarni o'rganish va sifat yasovchi qo'shimchalarni bilish o'quvchi nutqini kengaytiradi.

Namuna uchun berilgan so'zlar:

chop
ertalab
ich
yoz
kuz
bahor
sez
ol

Shu so'zlardan hosil qilingan sifatlar:

chopqir
ertalabki
ichki
yozgi
kuzgi
bahorgi
sezgir
olg'ir

Qo‘shimchalar yordamida bu kabi sifatlarning yasashini o‘rganish va uni nutqda qo‘llay olish o‘quvchining chiroyli so‘zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

Leksikologiya

“Leksikologiya” bo‘limini o‘qitish juda katta ta‘limiy ahamiyatga ega. Mazkur bo‘limni o‘qitishning muhimligi shundaki, o‘quvchilarning asosiy birligi - so‘z haqidagi ta‘limot bilan tanishishdilar.

O‘quvchilarning keladigan dastlabki muammo so‘zning **o‘z** va **ko‘chma** ma‘nolaridir.

Oltin uzuk
Temir yo‘l
Yengil eshik

Oltin bosh
Temir intizom
Yengil ta‘zim

- ✓ So‘zlarni o‘z va ko‘chma ma‘nosiga ko‘ra guruhlariga ajratish;
- ✓ so‘zlarni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolariga ta‘rif berish;
- ✓ berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llab gaplartuzish;
- ✓ badiiy matnlarni tahlil qilish;
- ✓ so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llab matn yaratish singari ijodiy- amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Multimediadan foydalanish

Elektron taqdimot darslarida slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi.

O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida berilishi nazariy ma‘lumotlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi.

Multimediadan foydalanish nima beradi?

- ona tili darslarida multimediadan foydalanish eski texnologiyalardan foydalanishda mavjud bo‘lmagan yangi imkoniyatlarni ochadi;
- ta‘lim oluvchiga o‘quv materialini yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi;
- interfaol ish tartibi o‘quvchiga o‘quv tezligiga ta‘sir qilishi, materialni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va darsning tushunarsiz qismlarini takrorlashga qaytish imkonini beradi.

Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarining munosabatlarini bildirib, ularni nazariy tomondan tahlil qilishishadi.

Dars jarayonida multimediadan foydalanish qanday malakalarni shakllantiradi?

- ✓ Grafik, diagramma, jadval shaklidagi axborotlarni matn ko‘rinishiga keltirish.
- ✓ O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qarash va savollarni shakllantirish.
- ✓ Ta‘lim oluvchining bilish faoliyatini rejalashtirish.

Fanda zamonaviy axborot vositalarining o‘rni

Multimedia axborotlarni har xil ko‘rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarni yaratish, uni ko‘rish hamda eshitish organlari orqali qabul qilish, tasavvur etish imkoniyatlarini hosil qiladi.

Axborot texnologiyalari ta‘lim jarayonida quyidagi vazifalarni yechish imkonini beradi:

- ✓ internetda keltirilgan nazariy ma‘lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- ✓ didaktik-kompyuter dasturlaridan ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish;
- ✓ uslubiy-mavzuni tushuntirish va dars natijalarini tahlil etishda kompyuter ishlatish usullarini belgilash;
- ✓ tashkiliy-ta‘lim jarayonini qisqa vaqt ichida samarali uyushtirish;
- ✓ o‘tilgan mavzuni mustahkamlash;
- ✓ o‘quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ta‘lim maskanlarida yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma‘naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jamiyat ilmiy darajasining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o‘z biluv imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning savodxonlik ruhini uyg‘otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi.

O‘quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ona tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘rifoydalanishga oid masalalar bo‘yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma‘lumotlar yagona uslubiyotga bo‘ysundirilgan tarzda ta‘lim oluvchining ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Har bir xalqning ona tili o‘zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vosita sanaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dars nima?
2. “Ona tili ta‘limi mazmuni” nomli metodik qo‘llanma qachon nashr etildi?
3. Ta‘lim jarayonida “o‘quvchi o‘qituvchi” faoliyati nimalarda ko‘rinadi?
4. Ona tilidan fanga oid kompetensiyalar qaysilar?
5. Nutqiy kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
6. Integratsiya – bu ...
7. Ta‘lim integratsiyasi nima?
8. Ona tiliga doir nazariy bilimlar qanday o‘qitilishi kerak?
9. Lingvistik kompetensiyalarni izohlang.

10. Nostandart test deganda nimani tushundingiz?
11. Multimediyadan foydalanish nima beradi?
12. Fanda zamonaviy axborot vositalarining o'zni haqida fikringiz qanday?

Tayanch so'z va iboralar:

Dars, bilim, DTS, ta'lim jarayonida, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish, matn, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, ta'lim sistemasi, integratsiya, ta'lim integratsiyasi, nostandart test, "Ertak" o'yini, multimediyadan foydalanish, elektron taqdimot, fanda zamonaviy axborot vositalar, ta'lim maskanlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun. "Ma'rifat", 2020.
3. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
4. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
5. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
6. Davlat ta'lim standartlari. T., 2016-yil.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" – T.: O'qituvchi, 1995.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. "Ona tili" 5-11-sinflar. – T.: Ma'naviyat, 2022-2023.
9. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
10. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
11. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
12. To'xtaxo'jayeva M. "Pedagogika" – T.: O'qituvchi 2010.
13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPURizografi, 2014.

Elektron ta'lim resurslari

14. www.ziyo.uz – Ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi materiallar sayti
15. www.ziynet.uz – Ijtimoiy axborot ta'lim portali
16. www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
17. <https://lex.uz/docs/-5013007>

ONA TILI TA'LIMI VOSITALARI VA AN'ANAVIY METODLARI

Ko'riladigan masalalar:

1. *Ona tili darsligi o'qitishning asosoy vositasi sifatida. An'anaviy metodlar.*

2. *Ona tili ta'limida axborot-kommunikatsiya vositalari ilmiy va ommabop nashrlardan foydalanish.*

3. *Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari*

12 §. Ona tili darsligi o'qitishning asosoy vositasi sifatida

Ta'lim oluvchilarni ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

– ta'lim metodlari va ularning turlari hamda ularni o'zlashtirishga bo'lgan turlicha yondashuvlarni bayon qilish;

– Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning o'qitish metodlari haqidagi qarashlarini o'rganish;

– ta'lim metodlarini joriy qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish tamoyillarini bayon qilish;

– ta'lim metodlarini takomillashtirishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar egallash;

– mustaqil ta'lim va uning vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qoilanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

“**Metod**” – yunoncha “*metodos*” – “yo'l” degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'li hisoblanadi.

Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liq, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasi

sanaladi. Ta'lim materialini ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariyalar qanchalik kam ifodalangan bolsa, ta'lim metodlari bu nazariyalarga shuncha kamroq bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan Ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talablarning tushunarli bo'lishi.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rgazmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'ziashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari – og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari – ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchunchi guruh metodlari – o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini turli ko'rinishda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim metodlari tarkibi. Ta'lim metodlari tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qituvchi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; o'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. Bilimlarni og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o'qitish metodlari bo'lib, ular vositasida didaktik vazifalar (bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash va sh. k) hal etiladi. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi.

Masalan, ma'ruza metodi tarkiban o'qituvshining o'rganilayotgan mavzuni mantiqiy izchillikka, Og'zaki bayon qilishi, o'quvchilarning esa o'quv materiallarini izchil tinglashi kabi metodlardan iborat. Ma'ruza metodidan shu yo'sinda foydalanish o'qituvchining, o'quvchining ham faolligi talablariga, binobarin, ta'limning samaradorligini oshirish ehtiyojlariqa mos kelmaydi. Zero, ma'ruzaning yuqoridagi ko'rinishi faqat bolalar xotirasiga mo'ljallangan. Ma'ruza ham bolalar xotirasiga, ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi. tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

1-variant. Ma'ruzada oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish. Muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish. Ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylanadi. 1-variantda ma'ruza quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *O'qitish-metodlari. O'qish metodlari.*

Mavzuga oid muammoni tanlash-muammoni qabul qilish va qo'yish; tahlil qilish; muammoning bajarilishini muammoni bajarishga oid tahlil qilish; tahlilda faol qatnashish; muammoning bajarilishi asosida o'qituvchi tushuntirishlarini o'quv materialini izchil bayon etish.

2-variant. Ma'ruzadan oldin bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, odatdagi muloqot yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni tahlil etish. Bu variantda ma'ruza bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

3-variant. Oldin o'rganilgan bilimlar bilan bugungi, yangi o'quv materialini o'zaro daxldor bo'lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat yo'li bilan o'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasida tabiiy bog'lanish hosil qilinadi. Ma'ruza shu bog'lanishning davomi sifatida o'tkaziladi.

O'quvchi faoliyati ko'rgazma qurolni tahlil etish; qo'yilgan muammo to'g'risida o'ylash; o'qituvchi tushuntirishlarini tinglash; xulosalarni esda olib qolish; bilimlarni o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq qilish.

4-variant. Ko'rgazma qurollarda berilgan omillarni tahlil qilish asosida ma'ruza tashkil etilganda, quyidagicha ko'rinishni oladi: o'qituvchi faoliyati ko'rgazma qurolni tahlil ettirish; bolalar oldiga muammolar qo'yish; qo'yilgan muammo asosida bilimlarni izchil bayon etish; xulosalar chiqarish; bilimlarni o'quv sharoitlariga tatbiq qilishni tashkil etish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'limda hech bir metod sof holda qo'llanilmaydi. Har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qitish va o'qish metodlarining bir-biriga mosligi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida didaktik ta'sirning o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sirining samarali amal qilishiga olib keladi. O'qitish metodlari va o'qish metodlarining bir-biriga muvofiqlashuvi ta'limning ijtimoiy instinktning alohida turi o'qitish

va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishni ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib, ta'lim metodlarini ikki guruhga ajratamiz; o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari.

Ta'lim metodlarining har bir guruhida o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri qatnashadi. O'zaro ta'sir ishtirok etmaydigan metod ta'lim metodi sanalmaydi. Masalan, o'qituvchi evristik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o'rtaga tashlay olish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari ta'limda faol ishtirok etishadi. O'qituvchi faolligi o'quvchi faolligini va, o'z navbatida, o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi.

Og'zaki bayon metodlari. Hikoya, tasvir, suhbat, ma'ruza ta'limning bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o'quvchilarning xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. hurilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Hikoya. Ta'limning turli bo'g'inlarida qo'llaniladigan universal metodlardan biri hikoyadir. Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, Yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya –yangi o'quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materialini mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoyada undan darsning oxirida o'rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, texnikum va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materialini hajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan omillar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida ko'rgazma qurolidagi omillarni tahlil etishga bolalar diqqatini tortish, o'qituvchi aytgan qoida, ta'rif, aniqliklarni dars materiallariga chog'ishtirish yo'llari bilan bolalar faolligi oshiriladi. Shuningdek, o'quv materialiga oid terminlarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarador amal qilishini ta'minlaydi.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri diolog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: **evristik suhbat; katomezistik suhbat.** Evristik suhbat o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Sokrat mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda "izlanish suhbatini" ham deb yuritaladi. **Evristik suhbatning** qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi. Bu metodning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya vaqtni tejash nuqtayi nazaridan eng masalador metodlar sanalsa, vaqtni ko'p olishi, evristik suhbatning kamchiligidir.

Evristik suhbatning o'ziga xos tashkiliy qurilishi mavjud. Buni "Ko'chirma gap" mavzusi misolida oydinlashtiramiz:

Darsning mavzusi, maqsadini e'lon qilish (bolalar, hozir siz darak, so'roq, buyruq gaplarning ta'rifini aytib berdingiz. Bugun "ko'chirma gap"ni o'rganamiz. Agar mening savollarimni diqqat bilan tinglab, javob qaytara olsangiz, bugungi mavzuni mustaqil o'rganasiz). Kuzatish uchun omillar (o'qituvchi bolalarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi; bugun qanday gapni o'rganamiz? O'rtog'ingizning men bergan savolga javobini yozing).

Yozuv taxtasiga o'quvchilardan biri "Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz" jumlasini yozadi. O'qituvchi "Katta bo'lganda kim bo'lmoqchisiz?" savolni o'rtaga tashlaydi. "Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman" gapi ham yozuv taxtasiga yoziladi. Kuzatish uchun

Nutqdan quyidagicha gaplar tanlab olinadi:

- Biz bugun ko'chirma gapni o'rganamiz (dedi Odil).
- Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman (dedi Anvar).

Mustaqil xulosalar chiqarish uchun savollar: Kimlarning gapi o'zgarishsiz ishlatiladi, daftarlarga (doskaga) yoziladi? qanday gap deyiladi?

-Odil, Anvarning gaplari o'zgarishsiz yoziladi. O'zgarishsiz ishlatilgan gaplarga ko'chirma gap deyiladi.

O'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosani to'ldiradi, ko'chirma va muallif gaplarining farqlarini, ularning o'rinlari, ishlatiladigan tinish belgilarini izohlaydi. Doskaga yozilgan gaplarni quyidagi shaklga keltiradi:

"Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz", – dedi Odil.

"Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman", – dedi Anvar.

Chiqarilgan xulosalarni turli o'quv-sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan bilimlar mustahkamlanadi.

Katoxezistik suhbat o‘quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo‘ljallab o‘tkaziladi. O‘tkazish maqsadiga ko‘ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

Yakunlash suhbat. Bunday suhbatda mashg‘ulotda qilingan ishlar bo‘yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash suhbat. Yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o‘tkaziladi, so‘ngra yangi mavzu intellektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

Takrorlash suhbat. Ikki yoki undan ortiq mavzu bo‘yicha o‘tkaziladi. Takrorlash yo‘li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat-katta bo‘lim o‘tilgandan so‘ng, o‘quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

Kirish suhbat. Yangi mavzuni o‘rganishdan oldin o‘tkaziladi. Nazorat suhbat – bilimlarni sinab ko‘rish maqsadida tashkil etiladi.

Bilimlarni og‘zaki bayon etish metodlari, evristik suhbatni hisobga olganda, asosan, xotiraga, binobarin, o‘quvchilarning qayta eslash faoliyatiga mo‘ljallab tashkil etiladi. Hikoya, tasvir, ma‘ruza, suhbat metodlarining zaif tomoni ham shunda. Ularning zaif tomonlarini bartaraf etish, o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol sub‘ektiga aylantirish uchun quyidagi rag‘batlantiruvchi metodlardan foydalaniladi:

1. Qiziqarli o‘quv holatlari yaratish – qiziqarli o‘quv holatlari bolalarda turli emotsiyalarni uyg‘otadi. Fizikadan “Fizika va hayot”, “Ertaklarda fizika”, kimyoda “Mo‘jizasiz mo‘jizalar”, matematikadan “Qiziqarli matematika”, “Ajoyib raqamlar”, “Sirli raqamlar”ga oid omillarni, hodisalarni ta‘limga olib kirish bolalarda bilimlarning qiziqishlarini oshiradi.

2. Badiiy, ilmiy-ommabop, tarixiy asarlardan olingan omillarni keltirish, ularni tahlil etish ham ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

3. Ma‘ruza, hikoya, tasvir, suhbat jarayonida analogiya metodidan foydalanish. Masalan, fizikadan ultra binafsha nurlar (quyosh nurining yetti xil elementdan iboratligi), lokatsiya hodisasini ko‘rshapalak misolida izohlash, bolalarda o‘quv faniga, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

4. Fan tarixida ekskursiya ham bolalarning o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sanaladi. Ona tilidan **utyug, karandash** kabi so‘zlarning o‘zbek tilidan rus tiliga olinganligi, **tomosha** (tomdan oshib qarash), **kengash** (katta osh) so‘zlarining ma‘nosini izohlash, bolalar faolligini oshiradi.

5. Kundalik turmushda ishtirok etish yo‘li bilan hosil qilingan tajriba va ilmiy bilimlarni o‘zaro taqqoslash ham bolalarda o‘quv biluv faoliyatiga havasni oshiradi. Shunday qilib, bilimlarni og‘zaki bayon qilish, metodlari bilan rag‘batlantiruvchi metodardan parallel foydalanish o‘quv tarbiya ishlarining samaradorligini oshiradi.

Ko‘rgazmali metodlar. Ko‘rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo‘lib, uning yordamida ko‘rish, o‘qush va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashadi. Ko‘rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illyustratsiya metodi Og‘zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatini tortish.

Demonstratsiya metodi kinoapparat, LITE (layt) kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor eshittirishlaridan, videotasvirdardan foydalanib, kinolentalarni, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar – narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rish o'quvlarini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni Og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanshp ta'limning samaradorligini oshiradi.

Muammoli izlanish metodlari. Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.

O'quvchi faoliyati

- turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;
- muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
- farazlarni aytishni taklif etish;
- muammoni hal etishga oid farazlarni aytish;
- farazlardan tanlangan muammoni mosini bajarishga tatbiq etishni so'rash;
- tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish;
- xulosalar chiqarishga ko'maklashish;
- xulosalar chiqarish;
- chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish;
- xulosalarni amaliyotga tatbiq etish.

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazma qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya – o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'li.

Muammoli ma'ruza – ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishish. O'quv materialining asosiy qismini ma'ruza vositasida, nisbatan oson qismini topshiriqlarni bajarish, muammolarni qo'yish yo'li bilan ham o'rgansa bo'ladi.

Keyingi paytlarda maktablarda muammoli amaliy ishlar, masalan, optikadan laboratoriya ishi, ilmiy tadqiqot ishlari (tarixiy materiallarni tasnif etish, u yoki bu geografik tumanga tabiiy va iqtisodiy geografiya nuqtayi nazaridan tasnif yozish) keng o'rin olmoqda. Bular bolalarbop eksperimental (sinov) tadqiqot metodlaridir. Ko'rinadiki, muammoli izlanish metodlari

bilimlarni ogʻzaki bayon etish, koʻrgazmali metodlar bilan birga qoʻshib olib borilganda oʻquv-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Mustaqil ishlash metodlari. Mustaqilishlar taʼlimning turli guruhlari, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida oʻtkaziladigan, oʻqituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning koʻrsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. hozirgi paytda mustaqilishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi qoidalar va taʼriflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va taʼrifni oʻqish va ularga oid omillarni ajratish; oʻqituvchi bergan, oʻqituvchi topshiriqiga koʻra toʻplagan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim betlarini tanlab oʻqish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yoʻllari toʻgʻrisida qisqacha hisobot tayyorlash; qoida, taʼriflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga izoh yozish; darslik, oʻquv qoʻllanmalarni va qoʻshimcha adabiyotlardan oʻrganilgan mavzu doirasida omil toʻplash; maʼruza, hikoya, suhbat paytida oʻqituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, taʼrif aniqliklariga solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlar asosida musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diogramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashgʻulotlarini oʻtkazish rejasini tuzish.

Mashgʻulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; oʻquvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli boʻlishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik oʻyinlar metodi. Keyingi yillarda ilgʻor oʻqituvchilar tajribasida didaktik oʻyinlardan taʼlim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik oʻyinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida oʻquv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni ogʻzaki bayon etish, koʻrgazmali, amaliy metodlarning elementlari qoʻllaniladi. Shu xususiyatlariga koʻra didaktik oʻyinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Stimulyativ oʻyin-taʼlimni hayotda boʻlib oʻtgani ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularga muqoyasa qilib tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu oʻyindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir oʻqituvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar roliga ishtirok etadi, shu yoʻl bilan taʼlim boʻlib oʻtgan tarixiy voqeaga muqoyasa qilib tashkil etiladi.

Stimulyativ oʻyinlarning bir koʻrinishi instsenirovka (rollarga ajratib oʻqish) metodidir. Boshlangʻich sinflarda badiiy mantlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib oʻqtish anʼanasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot oʻqituvchilari “Tuya bilan boʻtaloq” asarini oʻqitganda bir oʻquvchi yozuvchi ikkinchi oʻquvchi tuya, uchinchi esa boʻtaloq soʻzlarini oʻqib taʼlimda ishtirok etishadi.

Stimulyativ o‘yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o‘z o‘rnini olib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta’limni tashkil etish va boshqarish situativ o‘yinlar sirasiga kiradi.

Amaliy metodlar. Ta’limning amaliy metodlarida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri bolalar oldiga qo‘yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Laboratoriya tajribasi amaliy metod bo‘lib, ular turli ko‘rinishlarga ega: kimyodan va boshqa tabiiy o‘quv fanlaridan yoppasiga laboratoriya mashg‘uloti, fizikadan o‘quv praktikumi, yoppasiga kuzatish kabi ish turlari mashg‘ulotning bir qismini oladi, ba’zan ularga bir necha o‘quv soatlari ajratiladi.

O‘quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o‘quv-ishlab chiqarish sexida, o‘quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O‘quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg‘ich, sirkul va sh.k. dan foydalanib qirqish, o‘lchash kabi ishlarni bajaradi.

Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o‘quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari sanaladi.

Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq – o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘li. Mashq vositasida turli malakalar: inteluktual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo‘yicha) va umumiy (masalan, barcha o‘quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

Mashq o‘quv topshiriqlari asosida o‘tkaziladi. Uni bajarishda quyidagicha bosqichlarga rioya qilinadi.

1-bosqich: mashqni bajarishda foydalaniladigan bilim, faoliyat metodlarini esga tushirish. Bilimlarni esga tushirish bu xotiraning oddiygina ishi emas. Bu jarayon topshiriqni bajarishga oid bilimni esga tushirish, uni bilimlar orasidan ajratib olish, ajratilgan bilimni tahlil etish, uni o‘quv sharoitiga tatbiq etishni tasavvur qilish kabi aqliy ishlarni taqazo etadi.

2-bosqich: Ajratilgan bilimni, faoliyat metodini mashqda berilgan holatga tatbiq etish. Bilimni, faoliyat metodini tatbiq etish jarayonida o‘rganilgan bilimlar ongda mustahkamlanadi, malakalar takomillashadi.

3-bosqich: Bu bosqichda topshiriqning bajarilishi tekshiriladi, mashq qilish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar baholanadi, mashq qilish asosida xulosalar chiqariladi.

O‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma’lumotlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko‘ra ta’limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Ta’limning ko‘rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foydalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko‘rishda ta’lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilim-larni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tav-sifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O'qitishning asosiy vositalari bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari. O'qitishning qo'shimcha vositalari bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalari; tarqatma materiallar, ko'rsatma va ko'rgazma vositalari, disketlar, EHM va boshqalar. O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta'lim metodlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari, amal qilgan ta'lim yo'nalishlarida yaqqol sezish mumkin. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'zigacha bo'lgan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Barcha mutafakkirlar kabi u ham ko'rgazma – tajriba metodlari, savol-javob metodlari, malaka va ko'nikmalarai shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalanilgan. Al-Xorazmiy matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara oldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri "0" (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qitiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshi rishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika

kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, *ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:*

ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak;
uzviylik va izchillik;
tahlil qilish va taqqoslash;
takrorlash;
materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'ymaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin-u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinishdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bolgan.

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual – ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantig'iga, balki shaxsning rivojlanishi mantig'iga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi. Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qoidaga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi.

Faol ta'lim – bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-rnunuzara; fikrlashga jalb qilish; yozuv

taxtasida mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni amaliyotga joriy etish va hokazo. Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h. k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h. k.), o'rganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi;

Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish, faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar hisobga olinadi;

Ta'limda ematsion sohani rivojlantirish qonuni. Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi;

Ta'limni axborotlashtirish qonuni. Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;

ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar orttiriladi;

ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi;

ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish;

axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishini hisobga olish;

zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning muntazam ravishda ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa, bashoratli, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;

beshta muhim masalalarni hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish asosida ta'lim olishni engillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash; mamlakatning iqtisodiy

imkoniyati (quvvati) o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Ta'limda mustaqillik qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish asosida ularda ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlarini ishlab chiqiladi. Professorlar R.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unovlarning qayd etishicha *mustaqil ta'lim* – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatadi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

Pedagogik mahorat – ta'lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;

o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;

o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va zarur bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rniva roli haqida tushuncha bera olishi kerak;

dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;

o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Bunga sabab ta'limda mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri va ta'lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta'lim jarayonning holatiga mos ular uyg'unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi:

Ta'lim tamoyillari. Bu o'qish va o'qitish jarayonida obyektiv mavjud bo'lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan vata'lim jarayonida amal qilishga tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir. Pedagogik yondashuv bu ta'lim-tarbiyadagi o'zaro bog'liqlik. Tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi pedagogik faoliyatdir. Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo'llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo'ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyada keng qo'llanilishi bilan texnologik yondashuvga e'tibor kuchaymoqda.

Texnologik yondashuv – bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayon. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash; o'quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta'lim oluvchilarni ularning xatt/ harakatlari asosida o'qitish; teskari (qaytma) aloqa; bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlash; o'qitishning samaradorligiga erishish.

Pedagogik qobiliyat – bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan daraja.

13 §. Ona tili ta'limida axborot-kommunikatsiya vositalari, ilmiy va ommabop nashrlardan foydalanish

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o'rnatishi, o'zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspektikommunikatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o'zi yasagan predmetda o'zini "translyatsiya" qiladi, ya'ni o'zini boshqalarda davom ettiradi. Hosil qilingan predmet (ko'rilgan bino, yozilgan qatorlar, o'tkazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o'zini ko'rsatadigan vositadir. Chunki bu boshqa kishilar uchun hosil

qilingan. Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashqil etadi.

Muloqotning verbal va nonverbal vositalari. Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo'lishi kerak. Til so'z belgilari yig'indisidan iboratdir. So'zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini alohida odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi. *Birinchidan*, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasi belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilab olmaydi, u ota-onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu erda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi. *Ikkinchidan*, har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyati ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu erda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki olamning xatti harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir. *Uchinchidan*, har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" tajribasi, o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli ularoq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishdan va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilaritizimi sifatida tildannutqfaoliyatida foydalaniladi. Nutq faoliyat/ odam tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til aloqa vositasi yoxud quroldir, nutq faoliyati yoki nutq esa aloqa jarayonining o'zidir. Nutq faoliyatining faol va passiv turlari farqlanadi: So'zlovchining nutqi faol

nutq, tinglovchining nutqi esa passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi. Tashqi nutq yozma va og‘zaki nutqqa, og‘zaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo‘linadi. Monolog-bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o‘qituvchining bayoni, o‘quvchining to‘laroq javobi, ma’ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma’lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarining saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e’tibor berish kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o‘qituvchilar o‘quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko‘p jihatdan undan oldingi fikrga bog‘liq bo‘ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma’lum bo‘lgan ayrim so‘zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya’ni odatlanib qolingani so‘z birikmasi ko‘p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi). Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biz so‘zni chala-yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og‘zaki nutq aktlaridan ilgariroq, xuso‘san ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo‘lgan og‘zaki nutqdan ilgariroq sodir bo‘lishi mumkin. Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo‘lib yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir.

Noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko‘z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya-so‘zni to‘ldiradi, kuchaytiradi va ba’zan uning o‘rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo‘q degani, ruslarniki teskarisi bo‘ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo‘ladi. Masalan, bolalar ko‘pincha kattalarga ta’sir etish, ularga o‘z xohish va kayfiyatlarini o‘tkazishda yig‘idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so‘z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir. Bu ayniqsa pedagog uchun g‘oyat muhimdir.

Muloqot kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir etish. Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o‘z oldiga boshqalarga ta’sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo‘yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o‘zaro ta’sir sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo‘luvchi aloqa va o‘zaro ta’sirlar yig‘indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro‘y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko‘lami nihoyat keng-mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy nazariya muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning “repertuar”iga mos holda namoyon bo‘ladi. Psixologiyada

“rol” deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan, normativ tomonidan ma’qullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi. (yosh, mansab, jins va oiladagi, o’qituvchi va o’quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rovida namoyon bo’lishi mumkin). O’z navbatida har bir rol’ o’ziga mos talablarga javob berishi kerak. Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo’lsa shifokor ko’rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo’st oila boshlig’i bo’ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o’zaro munosabati rolli kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo’qmi atrofdagilar undan ma’lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa ijtimoiy-nazorat tomonidan baholanadi, ozmi ko’pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o’zaro ta’sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo’llanishidir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko’rishga tayyor ekanligini to’g’ri, aniq, xatosiz ko’chira olish qobiliyati takt deb ataladi. O’qituvchi o’quvchilar jamoasi kishilardan tashqil topganligini unutmazligi har bir o’quvchi shaxsini e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O’quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo’lsada yo’qolishi, og’ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

Muloqot kishilarning bir-birini tushunish. Muloqotning pertseptiv tomoni kishining kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suhbatdosh bilan bo’ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi. Kishini kishi tomonidan idrok qilish mexanizmi. Muomala jarayonida kamida ikki kishi ishtiroq etadi. Kishining qiyofasi, xatti harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g’oyat muhimdir:

- a) identifikatsiya;
- b) refleksiya;
- v) stereotipizatsiya.

Identifikatsiya (lotincha tenglashtirish) tasnifini u kishiga tenglashtirish, baravarlash.

Refleksiya – (lotincha aks ettirish) o’z fikr va kechinmalarini tahlil qilish va mulohaza yuritish, ya’ni muloqotga kirishuvchining suhbatdosh uni qanday idrok etayotganligini anglash. Kishini kishi tomonidan idrok qilishini ikqilangan oynadagi aks ettirishga o’xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o’zini ham aks ettiradi, agar kishi o’zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to’liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo’lsa, ular bilan bexato aniqlikda o’zaro ta’sir o’rnatishi mumkin. Biroq sub’ekt hamma vaqt bunday aniq ma’lumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti harakatining sabablarini o’ylab chiqishga majbur bo’ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg’ular, intilish va fikrlashning o’ylab chiqarilishi kauzal atributsiya deb ataladi. O’qituvchilar

tomonidan bola harakatlarining shunday sababini talqin qilinishi maktabdagi pedagogik muomalani qiyinlashtiradi.

Stereotipizatsiya – grekcha o'zgarishsiz, takrorlanish degan ma'noni bildiradi. Stereotipizatsiya mos ma'lum yoki taxminan ma'lum bo'lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo'li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash demakdir. Ba'zan muomala jarayonida noto'g'ri stereotip vujudga keladi. Masalan, A. A. Bodalev tomonidan o'tkazilgan suhbatga ko'ra kishining tashqi qiyofasi va uning характери haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviylashib ketganligi tasdiqlandi. So'ralgan 72 kishining 9 tasi kvadrat ko'rinishiga ega bo'lganlar kuchli, irodali, 17 kishi peshonasi katta kishi aqlli, 3 kishi sochi tikka kishilar engilmas, bo'ysunmas harakterga ega. 5 kishi bo'yi o'rtachadan past kishilar boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, buyruq berishga intiluvchi kishilar, 5 kishi chiroyli kishilar yo axmoq yoki o'zini sevuvchi kishilar bo'ladi, deb tasdiqlagan. Begona kishini idrok qilishda birinchi axborot, dastlabki tasavvur katta ahamiyatga ega. Kishilar tashqi qiyofasi muhim o'rin tutadi. Amerikalik psihologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot bunga misol bo'la oladi. 400 ta o'qituvchilarga baholash uchun tarqatilgan ishlarni ular 200 tasi ijobiy, chiroyli, 200 tasi salbiy xunuk, yoqimsiz deb berganlar. ekspertlardan tashqi qiyofasini emas, balki harakterini ta'riflash so'ralgan edi. Afsuski baholarning sub'ektivligi kishining tashqi qiyofasini baholash bilan bog'liqdir.

Muloqotda qayta axborot. Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi sub'ekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni retsipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarni uni qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa pedagogik munosabat yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir. Muloqot treningi. Trening – inglizcha maxsus rejim, trenirovka degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Masalan, o'quvchilar to'liq javob berishga, o'zidan kattaga munosabat qilganda o'rnidan turishga o'rganib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim metodlarini va usullarini zamonaviylashtirish haqidagi fikrlaringiz bo'yicha referat tayyorlang.

2. "Didaktika"ni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida takomillashtirish qanday hal etiladi?

3. Zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishdagi ta'limiy afzalliklarni sanab bering.

4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlarining qaysilaridan hozirda ham samarali foydalanilganligini asoslab berishga harakat qiling.

5. Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga nima uchun e'tibor beramiz va bu ularning intellektual salohiyatini yuksalib borishidagi ahamiyati bormi?

6. Agar bo'lsa, aniq dalillar asosida bayon qilib bering.

Tayanch so'z va iboralar:

Metod, didaktik asos, pedagogik mahorat, muammoli izlanish, ta'lim metodlari, usullar, bilish faoliyati usullari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ilmfan, texnika-texnologiya, o'quv material, didaktik xarakter, pedagogik nazariya, samarali, zamonaviy, pedagogik qarashlar, irodaviy sifatlar, ilmiy dalillar, sezgi organlari, bilimlarni o'zlashtirish, so'z orqali, ko'rgazmali uzatish, amaliy mehnat, ta'lim metodlari, mashq qildirish metodi, topshiriq berish, didaktik asos, laboratoriya metodi, ta'lim vositalari, o'qitishning asosiy va qo'shimcha vositalari, o'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Beruniy, ibn Sino, Forobiy ta'lim metodlarini faollashtirish haqida, mustaqil ta'lim, faol ta'lim, o'zaro bog'liqlik qonuni, mashq qonuni, intensivlik qonuni, assimlyatsiya qonuni, ta'limni axborotlashtirish qonuni, pedagogik mahorat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 631 b. Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san'at. – T.: Fan, 2006.
4. Asqarova O'., M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008-y
5. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.– T.: TDPU, 2000.
6. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. -T.: O'qituvchi. 1995. -56 b.
7. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2006.
8. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.
9. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
10. Mavlonova R. "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
11. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
12. Nazarova S. "O'zbek tili o'qitish metodikasi". –T.: O'qituvchi, 1992.
13. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
14. To'xtaxo'jayeva M. "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010.

15. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

Elektron ta’lim resurslari

16. www.ziyo.uz – Ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi materiallar sayti
17. www.ziynet.uz – Ijtimoiy axborot ta’lim portali
18. www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODLARI. ONA TILI TA’LIMIDA RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. ONA TILI DARSLARINI REJALASHTIRISH

Ko‘riladigan masalalar:

1. *O‘zbek tili o‘qitish metodlar tasnifi. Metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati.*
2. *Rivojlangan xorijiy davlatlar (Finlandiya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Farnsiya, Germaniya) ta’lim tizimida ona tili o‘qitish metodlari tasnifi va qo‘llanishi. Muloqot, nutq hamda kommunikatsiya.*
3. *Ona tili darslarining tuzilishi, unda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning aks etishi, yozma ishlar o‘tkazish metodikasi.*

14 §. O‘zbek tili o‘qitish metodlar tasnifi. Metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati

Fan-texnika asri va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev quyidagilarni qayd etgan edi: “O‘qituvchi kasbi dunyodagi eng ulug‘ va sharaflig kasb”. Yuqorida qayd etilgan fikrdan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur?

O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.
3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rnibo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar) dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishini o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan talablar. Ta'lim sohasidagi dolzarb vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila

olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o'quv materialiga aylantira olish, ma'lum murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasini shakllantirib borishi lozim. O'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o'quvchilar bilan muomalada ma'lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur.

Pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o'quvchining qadrqimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonch, o'quvchining bilimi va xulqini baholashda talabchan, adolatli bo'lish, bolalarda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o'stirish, mehribon, g'amho'r bo'lishi, mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko'maklashish, nizolarni ahloqiy mezonlar asosida hal etishi, jamoaning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish, pedagogik takti saqlash muhim hisoblanadi. Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek his etishsa, mazkur metod samarali bo'ladi. Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi. O'qituvchi pedagogik faoliyati davomida ko'pgina omillarni to'playdi, tahlil qiladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o'qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o'ynaydi. Qiziqish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo'lmasin, hatto muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishiga katta ichki qoniqish, mamnuniyatlik baxsh etadi. O'qituvchining bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, unda o'quvchilarga shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo'r bo'ladi. Bunday o'qituvchi eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko'pchiligi o'z fanining ustalari, metodistlari bo'lib qoladi. Pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o'z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o'zlashtirishi va ularni muntazam to'ldirib borishi lozim. Ilg'or pedagogik texnologiyaning markazida ta'lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi.

Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi kerak. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga quyilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni

bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonida o'quvchi darsning markaziy figurasi ekanligi tan olinmoqda. Qolgan barcha harakatlar uning atrofida kechadi. Haqiqatdan ham yangi ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida ta'lim maqsadiga erishish uchun o'qitishning zamonaviy usullariga murojaat qilamiz. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda turli noan'anaviy metodlardan foydalaniladi. Ular orasida didaktik o'yinlar o'quvchining shaxs sifatida ham psixologik, ham bilim jihatidan muhim qirralarini kashf etishga xizmat qiladi. Shu o'rinda "Didaktika" so'zi haqida to'xtalib o'tsak. Didaktika (*yunoncha "didaktikos" – o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi*) pedagogikaning tarmog'i. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Diaktikaning bugungi kundagi maqsadi o'qitishning eng samaradorusul va yo'llarini topish.

Didaktik o'yinlar esa ta'limiy o'yinlardir. U o'qituvchi tomonidan tuzilib, o'yin maqsadi va qoidalaridan tashkil topadi. O'quvchi ushbu o'yinlarda ham yangi bilim oladi ham tengdoshlari bilan to'laqonli muomalaga kirishadi. O'yin har doim o'quvchining hissiyotlari bilan kechadi: hayajon, javobgarlik, g'alaba shukuhi, qayg'u va boshqalar. Shunday ekan bir soat darsda u nafaqat ta'lim oladi, balki his-tuyg'ularini ham tarbiyalaydi. "O'yin – bolalar yashayotgan va o'zgartirishlari kerak bo'lgan dunyo sari yo'l", – degan edi Maksim Gorkiy.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda ham didaktik o'yinlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan "Kim birinchi?", "Kim chaqqon?" kabi o'yinlarularda bo'lgan o'ziga ishonch, boshqalardan kam bo'lmaslik hislarini shakllantiradi.

Didaktik o'yinlar darsning talimiy-tarbiyaviy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Yana bir muhim jihati tanlangan o'yin o'quvchining yoshiga ham mos kelishi lozim. Har qanday yoshda oila o'quvchi uchun muhim maskan sanaladi. O'yinlar orqali kollektiv ham bolaning oilasi ekanligini va u ushbu oilaning ajralmas qismi, faol a'zosiligini singdirish lozim. Zero, har bir pedagogning oliy maqsadi jamiyat uchun zarur bo'lgan ongli shaxsni tarbiyalashdir!

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini

amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o‘ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim – tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borishiga asos bo‘ldi. Natijada XX asrning 60-yillari boshida AQSH so‘ngra boshqa G‘arb mamlakatlarida ishchanlik o‘yinlari qo‘llanila boshlandi. Ishchanlik o‘yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta’lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o‘yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F. Osborn qo‘llagan. Bu usulni g‘oyalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi.

- ✓ muammoli vaziyat yaratish
- ✓ g‘oyalarni shakllantirish
- ✓ eng yaxshi g‘oyalarni tekshirish va baholash va tanlash

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum ro‘llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars

bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta'lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi.

Bunday darslar o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to'liq idrok etrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mo'jizalar maydoni darsi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yinlar bo'lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab syujetli-ro'lli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yinli, konfrensiyalar o'yin mashqlariga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi) so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqandan so'ng esa ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bolishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi;

4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

5. Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyidagi kasb pedagogikasi fanini o'qitishda tashkil etish va o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarining tavsilotlari keltiriladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida konfrensiya mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi. Konfrensiya mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabob adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarni ortirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfrensiya mashg'ulotlarini talabalarning bilish faoliyatni faollashtirishda ilmiy dunyoqarashini mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarni ortirish kengaytirishda, ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konfrensiya mashg'ulotini o'tishdan oldin mashg'ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda "Olimlar" ro'lini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, maruza tayyorlash o'quvchining ixtiyorida bo'ladi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi.

1. Didaktik o'yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi.

3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri. U o'quvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan: doiraviy misollar o'yinida ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning ta'lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. o'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi.

1. O'yin qoidalari. O'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o'yin maqsadidagi mos holda o'quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo'ladi.

2. O'yin mazmuni o'quvchilarning bajarishi kerak bo'lgan harakatlari bilan aniqlanadi, kimyo darsida bu harakatlar ko'proq misol va tajriba masalalar yechishdan iborat bo'ladi. O'yin jihozi o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan predmet – modellar real va shartli predmetlar, kartochka va ko'rgazmalardan iborat.

3. O'yin natijasi. Qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o'quvchilarni qoniqtirishi kerak.

15 §. Rivojlangan xorijiy davlatlar (Finlandiya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya) ta'lim tizimida til o'qitish metodlari tasnifi va qo'llanishi. Muloqot, nutq hamda kommunikatsiya

Finlandiya ta'lim tizimi. Finlyandiyada o'rtacha majburiy umumta'lim tizimi ikki bosqichli maktabni o'z ichiga oladi: — quyi (alakoulu), 1-6 sinf; — yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf. Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilar o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi.

Finlyandiya ta'limi "o'rta" bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik

– **Maktablar.** Mamlakatda na elita va na "bo'shroq" maktablar bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o'quvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos "pedagogik" laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi. Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlargacha. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin. Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

– **Barcha fanlar.** Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

– **Ota-onalar.** O'qituvchi o'quvchisining ota-onasi kim bo'lib ishlashini oxirgi navbatda, zarurart tug'ilgandagina biladi. O'qituvchilarga ota-onalarning ish joyiga doir savollar berish taqiqlangan.

– **O'quvchilar.** Finlar o'quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi. Shuningdek, "yaxshi" va "yomon" o'quvchilar ham yo'q. O'quvchilarni bir-biriga taqqoslash taqiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos" hisoblanib, barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy maktabda ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya

qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh o'quvchilar orasidagi farq - juda kichik.

– **O'qituvchilar.** O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, "sevimgilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnoma buzilishiga olib keladi. Fin o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar - fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng.

– **Katta yoshli kishilar (o'qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi.** Finlar bu tamoyilni "o'quvchiga hurmat" deb atashadi. Bolalarga 1-sinf dan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu finlyandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so'z bilan ham, "qamchi" bilan ham ozor yetkazib bo'lmasligini tushunishga rag'batlantiradi. Finlyandiya mehnat qonunchiligiga ko'ra, pedagog o'z kasbidan kelib chiqib o'quvchini taxqirlashga haqqi yo'q. Barcha o'qituvchilar faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to'xtatish ham mumkin. O'qituvchilarga juda yaxshi maosh to'lanadi: fan o'qituvchisi - 5000 yevrogacha, yordamchi - 2500 yevrogacha.

2. Bepul. O'qishning o'zidan tashqari quyidagilar bepul:

- tushlik;
- ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;
- bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometr dan uzoqda bo'lsa;
- o'quv darsliklari, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig'ish taqiqlanadi.

3. Individuallik. Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o'quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli. Bir sinfning o'zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqa olmasa, hechqisi yo'q, yana oddiy mashq beriladi. Finlyandiya maktablarida oddiy ta'lim bilan bir qatorda ta'lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

"Bo'shroq" o'quvchilar ta'limini qo'llab-quvvatlovchi — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiya da repetitorlik keng tarqalgan ta'lim usuli hisoblanmaydi, maktab o'quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatishadi.

Korreksion ta'lim — materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Masalan, bu ta'lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba'zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korreksion ta'lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladi.

4. Amaliyot. "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg'urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi: boriga baraka. Finlyandiya maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va h.k.

5. Ishonch. Birinchidan, maktab xodimlari va o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q, o'quvchilarga ta'lim berishga doir turli uslublarni o'rgatuvchilar ham yo'q. Mamlakatda ta'lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi. Ikkinchidan, bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda o'quvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu o'quvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. O'quvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi.

6. Istak-xohish. O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir! Bunga ham o'rta maktabda chora ko'riladi - muayyan o'smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarlimi, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta'kidlash joizki, bu ikki yo'l ham mamlakatda birdek qadrlanadi. Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo'li orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, Finlyandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf o'quvchisi uchun o'z jadvalidan "bo'sh soat"ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o'tiradi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. O'qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o'tmaydi. Finlyandiyada bir sinfda ikkinchi yilga qolish uyat hisoblanmaydi,

ayniqsa 9-sinf dan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo'shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.

7. Mustaqillik. Finlyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi mavzularni so'zlab o'tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma'lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim. Shuningdek, maktabdagi pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlari uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkoni beriladi. Finlyandiya maktablari bir xil bo'lsa-da, ulardagi o'quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan.

Qachon va qancha vaqt o'qiladi? Finlyandiyada o'quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8 avgustdan 16 avgustgacha, yagona kun yo'q. O'quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang'i" ta'tilini ham o'z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko'ra, oilaviy chang'i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor. Ta'lim - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o'rganiladi? 1–2 sinf: Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin.

3–6 sinflar: Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarida o'ynashni mashq qilib ko'rishadi. 5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo'shiladi. 1-sinf dan 6-sinf gacha deyarli barcha fanlardan bir o'qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o'yini shaklida o'tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o'qitilmaydi, bu ko'proq shunchaki o'qishni eslatadi. Fan o'qituvchilari faqat 7-sinf dan kira boshlaydi

7–9 sinflar: Fin tili va adabiyoti (o'qish, o'lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o'g'il va qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho'ruva tayyorlashni va aralashni o'rganadi. 9-sinf da ikki hafta davomida "mehnat hayoti" bilan tanishiladi. Bolalar o'zlari uchun istagan "ishchi o'rni"ni topib, katta ishtiyoq bilan "ishga" borishadi.

Baho kimga kerak? Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat soʻzda baho qoʻyiladi: oʻrtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday koʻrinishdagi baholar yoʻq. Finlyandiyada barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qoʻyib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak oʻqituvchisi", feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi. Fin maktablarida baholar xavotir uygʻotmaydi, ular faqat oʻquvchining oʻzi uchun kerak, qoʻyilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va oʻzini tekshirish uchun qoʻllaniladi. Baholar oʻqituvchi, maktab nufuziga ta'sir koʻrsatmaydi va hech qanday koʻrsatkichlarini buzmaydi.

Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar. Maktablar hududi oʻralmagan, kiraverishda qoʻriqchilar yoʻq. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin. Darsda bolalar parta va stolda oʻtirishi shart emas, polda (gilamda) oʻtirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan. Forma yoʻq, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yoʻq, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qoʻshimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va oʻrta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul koʻrishadi. Iliq havoda darslar koʻpincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda oʻtkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab oʻquvchilari albatta koʻchaga olib chiqiladi. Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning oʻrniga pedagoglar muzey, oʻrmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi. "Doska oldida" oʻqitish usuli qoʻllanmaydi, bolalar materialni soʻzlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. Oʻqituvchi darsga umumiy tus beradi, soʻngra oʻquvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. Oʻqituvchining yordamchisi (fin maktablarida oʻqituvchi yordamchilari ham boʻladi) ham xuddi shu ish bilan band boʻladi. Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha oʻchirish mumkin. Oʻqituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin. Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir notoʻgʻridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar boʻlishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi oʻzgarishlarga qanchalik toʻgʻri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi. Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zoʻriqishdan uygʻonmaydi, tezroq katta boʻlishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yoʻq, oʻquvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, oʻzlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar koʻrishadi, kompyuter oʻyinlari oʻynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari

yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi. Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan: 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida. *Boshlang'ich maktab.* Bu bosqich 1–5-sinflarni o'z ichiga oladi. *To'liq bo'lmagan o'rta maktab.* Bu bosqich 6–8-sinflardan iborat. *Yuqori maktab.* Bu bosqich 9–11-sinflar bo'ladi. Mazkur Yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralashalmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-singacha asosiy e'tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar bo'lmaydi. O'quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Amerika maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor. Amerika maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablag'i bilan ta'minlanadi. Lekin shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o'ziga to'q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Davlat maktablarida tekin, shaxsiy maktablar esa – pullik o'qitiladi. Vashington shahridagi shaxsiy maktabda bolani o'qitish uchun bir yilga taxminan o'n ming dollar to'lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta'lim oladilar. Shaxsiy maktablarning har biri o'zi xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus o'qituvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o'qiydigan o'quvchilar soni kam bo'ldai. Shaxsiy maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san'atga alohida e'tibor beriladi.

Amerika oliy o'quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo'ladi: SAT (Sxolastik aptityud test); AKT (Amerikan kollej test) sinovlari. SAT sinovlari murakkabroq bo'ladi. Mashhur universitetlarga kirish uchun SAT sinovlarini topshirish shart bo'ladi. Bulardan tashqari Murakkablashtirilgan sinov ham bor. Bu sinovni oliy maktablarga kirayotgan barcha talabalar ham topshirishlari shart emas. Mabodo biror talaba shu murakkablashtirilgan sinovlarni topshirib universitetga kirsas, u talabaga maxsus stipendiya beriladi. Amerikaning eng katta boyligi – bu aql. Aql bu mamlakatda qadrlanadi, aqlli talabalar alohida taqdirlanadi. Aqlli, a'lochi talabalar o'quv yurtlarining faxri sanalgani sababli ham, ularga turli yo'llar bilan yordam berish, stipendiyalar tayinlash orqali ularni o'quv yurtlarida saqlashga harakat qiladilar. O'zi tanlagan sohada yutuqlarga erishayotgan talabalar ro'yxati har yili alohida kitobda nashr etilib turiladi. Bundan maqsad mazkur soha bilan qiziquvchi kompaniyalarning e'tiborini bo'lajak olimlarga qaratishdir.

Yaponiyada ta'lim tizimi – *majburiy ta'lim.* Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muxtoj oilalarning bolalari bepul

nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktab 10-, 11-, 12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar. Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSH 180). O'quv yili 1-apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar. Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi – klaster). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar: 1-kichik kollej; 2-texnik kollej; 3-maxsus kollejlarga bo'linadi. Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Janubiy Koreyada ta'lim tizimi mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab-ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982-yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. *Davlat (Koreys) tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi.* Bundan

tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7- sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni – klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Fransiyada ta'lim tizimi. Fransiya ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda "Ta'lim haqida"gi Qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan "Ta'lim haqida"gi Qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda: Davlat maktablari; Xususiy maktablar; Oraliq maktablari mavjud.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda.

Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi: Tayyorlov bosqichi; Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi); Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. 1990-yildagi hukumat qarorida bolalarni

bilimiga, qobiliyatiga qarab dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi. Oliy ta'lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi. Birinchi turkum: Ikkinchi turkum: Uchinchi turkum: umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil davom etadi. O'qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi. O'qish 1-2 yil davom etadi.

Germaniyada ta'lim tizimi. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta'limning isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz. Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989-yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5, 5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5, 5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ish topishlari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta'minlanadi. Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Yevangel cherkovi o'zining 15 akademiyasida dolzarb mavzular bo'yicha konferentsiyalar tashkil etadi.

Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar. Oliy o‘quv yurtlarida tadqiqot bilan shug‘ullanish ularning qadimiy an‘analaridan biri. O‘tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt Pruss universitetlarini isloh qildi, o‘shandan beri “Tadqiqot va o‘qitish birligi” ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o‘quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishi – fundamental amaliy tadqiqot bo‘lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta’lim tizimini isloh etish yo‘lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Muloqot, nutq hamda kommunikatsiya

Bugungi kunda mavhumlik, iqtisodiy inqirozlar, beqarorlik, o‘zaro nizolar hukmronlik qilar ekan, jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatidemakdir.

O‘qish va o‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, madaniyat, iqtisodiyot, texnologiya kabi turli sohalarda o‘z aksini topib kelmoqda.

O‘qish savodxonligi quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ aqliy faoliyat;
- ✓ til kompetensiyalari;
- ✓ oddiy o‘qishdan to so‘zning asl ma’nosini tushunishga qadar bo‘lgan jarayon;
- ✓ tushunish uchun zarur bo‘lgan grammatika va tilshunoslikning kengroq sohasiga xos shakllari;
- ✓ kishining olam haqidagi bilim bilan ma’no bog‘liqliklari.

O‘qish savodxonligi nafaqat ta’lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi.

“*Tushunish*” so‘zi “o‘qib tushunish” atamasining ommaviy tasdiqlangan tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qish orqali o‘quvchining avvaldan mavjud bilimi bilan matndan olingan ma’lumotni ma’lum darajada integratsiyasini talab etadi.

“*Foydalanish*” so‘zi vazifasi va amalda qo‘llanishiga ko‘ra ma’lum bir o‘qigan narsamizdan biror maqsadda foydalanishni anglatadi.

“*Mulohaza yuritish*” shuni anglatadiki, bunda o‘quvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtda o‘zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanishadi. Har bir o‘qish harakati mulohazani talab qiladi: o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni tashqi ma’lumotlar bilan bo‘g‘laydi va tahlil qiladi.

“*Munosabat bildirish*” shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, maqsadiga erishish yo‘lida matnni tushunish,


matndagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

Shaxs funksional savodxonligining muhim tarkibiy qismlari:

- ✓ doimiy ravishda o'rganish va rivojlanish;
- ✓ hayoti davomida olgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay olish;
- ✓ faol ijodiy fikrlash;
- ✓ belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish;
- ✓ o'zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo'l hamda hayotiy ko'rsatmalarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lish.

PISA bo'yicha o'qish ko'nikmalari. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA bo'yicha o'qish ko'nikmalari quyidagicha tavsiflanadi.



Kreativ fikrlash insonga XXI asr jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun kerakli bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir. "XXI asr ko'nikmalari" yoki "XXI asr kompetensiyalari" deb ataladigan bu kompetensiyalar muttasil o'zgarib borayotgan, biz bilgan kasblar yo'qolib, yangi mutaxassisliklar paydo bo'layotgan, globallashtirilgan, mavjud ma'lumot hajmi har soniyada bir necha barobarga oshib borayotgan, raqamlashgan jamiyatda moslasha olish va o'z o'rnini topish uchun juda muhimdir. Bu kompetensiyalar kognitiv ko'nikmalarning yuqori darajada rivojlangan bo'lishini, jumladan, mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil va sintez, muammolarga yakka tartibda va jamoa bo'lib nostandart yechimlar topa olish qobiliyatlarini taqozo qiladi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish esa, o'z navbatida, an'anaviy kontentga asoslangan pedagogika va baholash usullaridan chekinib, kompetensiyaga asoslangan o'qitish va baholashni joriy qilishni talab qiladi.

Kreativlik. Kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishi.

Ijodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san’atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko‘nikma va qobiliyatlar ham zarur bo‘ladi. Masalan, san’at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog‘liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e‘tirof ham talab etiladi.

“Kreativ ifodalash” deganda shaxsning ichki dunyosini (kechinmalarini) o‘zgalarga yetkazib berish hollari tushuniladi. Ushbu mavzu mazmun sohasi, o‘z navbatida, “yozma ifodalash” va “vizual ifodalash” sohalariga (domenlari ga) bo‘linadi.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning verbal va noverbal usullari. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quv modulini o‘qitishda zamonaviy ta‘lim, ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat. O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning verbal va noverbal usullari: fikr bildirish, tuzatishlar kiritish, olqishlash, savollar berish kasbiy-shaxsiy fazilat sifatida yuzaga chiqadi.

Boshqalar fikrini hurmat qilish. O‘zgalar fikriga ta‘sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrni qarama-qarish qo‘yish) muloqot maneralari va ulardan samarali foydalanish, Og‘zaki nutq avvalgidek kommunikatsiya (muloqot)ning eng ko‘p ommalashgan shakli bo‘lib qolmoqda.

“Muloqot” atamasi ko‘p holarda verbal, ya‘ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har-xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish va bir-birining ta‘siriga ko‘ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Pedagogik va boshqaruv muloqati. Pedagogik muloqot –pedagogik ta‘sirning ajralmas sifati. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta‘lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo‘lib, unda ma‘lumot almashinadi va o‘quvchilarga o‘quv-tarbiyaviy ta‘sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta‘sirning samarali yo‘li bo‘lib, tajribali pedagoglar bolani o‘z-o‘zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o‘ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular: **makro (katta) darajada** – insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o‘rta)-muloqot ma‘lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada

ma'lum mavzudan chekinmaslik). *Mikro daraja (kichik)* – muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruhiy (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, internet, ro'znomalar va jurnallar) kabi turlari mavjud.

Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi lozim. ya'ni nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

– bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini, o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini aniqlash;

– o'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o'quv-tarbiyaviy muammolarni yechishini aniqlash;

– o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi;

– tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;

– o'zining darsidagi muhiti bilan boshqa tajribali o'qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish.

Kasbiy-pedagogik muloqot – murakkab hodisa. Shaxs kasbiy-pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, maqsad qo'yadi, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim *bosqichi* – bu modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim-tarbiya usullari tanlanadi. To'rtinchidan, bolani aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – bu bevosita muloqot bosqichi. Buni – kommunikativ hujum deb atash mumkin. Chunki o'qituvchi to'liq tashabbusni o'z qo'lga olib dars boshlaydi.

Uchinchi bosqich esa bu muloqotni boshqarish bosqichi bo'lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi-texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo'lmasa ko'ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O'qituvchi o'zi uchun boshqalar bilan bo'ladigan muloqotni yaxlit portretini tuzib olishi kerak. Bu auditoriya bilan bo'ladigan munosabatlarni tashkil qilishiga yordam beradi. Pedagogik muloqot-o'quv jarayonining muhim qismi. O'qituvchi, tarbiyachi va pedagog kommunikativ faoliyati pedagogik faoliyatdagi muloqotda muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ ko'nikma quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Kishilar bilan muloqotda bo'lish ko'nikmasi;
2. O'quvchilar bilan birgalikdagi ijodiy faoliyatni tashkillashtirish ko'nikmasi;
3. Maqsadga yo'naltirilgan muloqotni tashkillashtirish va boshqara olish ko'nikmasi (uquvi).

Kommunikativ qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismi muloqotchanlikning turlicha namoyon bo'lishidir. Biz bilamizki, muloqotmand kishilar oson, tez, zudlik (operativ) bilan muloqotni tashkillashtiradilar. Bunday kishilar har doim kommunikativlikning eng markazida turadi. Pedagogik faoliyatdagi muloqotchanlik shaxsiy fazilat sifatidagina emas, balki kasbiy-shaxsiy fazilat sifatida yuzaga chiqadi.

Pedagogning kommunikativ faoliyatiga uning qobiliyatlari ham kiradi. Jumladan, didaktik (mavzuni tushunarli, sodda tilda bayon qilib bera olish), hissiy - irodaviy ta'sir eta olish, perseptiv - pedagogik kuzatuvchanlik asosida o'quvchi ruxiyotiga ta'sir qilish, ekspressiv - nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikrni tushuntirish, kommunikativ - o'quvchilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, pedagogik takt, talabchanlik kabilar. Ko'rinib turibdiki, barcha pedagogik qobiliyatlar kommunikativ qobiliyatlar bilan bog'liq.

Pedagog faoliyatda muloqotning turli bosqichlarida hissiy jihatdan o'zini his qilish muhim rol o'ynaydi. U faoliyatga tayyorlanish jarayonida auditoriyadagi muloqotdan so'ng uni tadbiq qilishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kommunikativ ruxlantirishning vujudga kelishi va uni tadbiq qilish murakkab jarayondir. Bevosita muloqot jarayonida pedagogda kommunikativ ruxlanish holati yuzaga chiqadi. Tabiiyki, kommunikativ o'zini his qilish pedagogning umumiy va kommunikativ madaniyati darajasiga, eng muhimi-pedagog shaxsining kasbiy-pedagogik darajasiga, bolalar bilan ishlash xohish-istagiga bog'liq.

Pedagogik faoliyat jarayonidagi muloqotning quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Hamqorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2. Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3. Masofadan turib muloqotga kirishish.
4. Qo'rqitish(qo'rquv) asosidagi muloqot.
5. Yolg'on obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot.

Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O.Knebel, I.P.Volkov, V.F. Shatalov kabilar o'z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo'ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi.

Ikkinchi uslub - asosan do'stona munosabatlar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o'rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo'lishi lozim.

Uchinchi uslub - ya'ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o'quvchi o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik ko'chayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa, obro'-e'tibori ortadi.

To'rtinchi uslub - qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba'zi pedagoglar o'quvchilarni qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladi. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Ayniqsa katta auditoriyada ma'ruza o'qiydigan ma'ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo'rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi.

Beshinchi uslub - yolg'on obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchi bilan tezroq muloqotda bo'lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo'llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, pedagoglarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Kasbiy-pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bular quyidagilardir:

1. Muloqot jarayonida *oriyentirovka* (mo'ljal olish) qilish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihati e'tiborni o'ziga tortish bo'lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo'lishi kerak.

3. Obyektning (kishi) qalbini zabt etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o'ziga xos izlash bosqichidir. Masalan, yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. O'qituvchining o'quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya'ni o'qituvchining yangi materialni o'quvchilarga og'zaki bayon qilib berishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so'zi obrazlar qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi.

5. Pedagog bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro harakatda hayajonlanishni uzatishning kommunikativ vositalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo'lishi kerak. Shunda tinglovchilarning idroki to'liq, obrazli bo'ladi.

Verbal muloqot malakasini shakllantirish

Ogʻzaki nutq avvalgidek kommunikatsiya (muloqot)ning eng koʻp ommalashgan shakli boʻlib qolmoqda.

Soʻzlovchini tushunishlari uchun faqat yaxshi diksiyaga ega boʻlishning oʻzi kamlik qiladi. Soʻzlovchi nima demoqchi ekanligini oʻzi yaxshi tushunishi zarur. Bundan tashqari shunday soʻzlarni tanlash kerakki, soʻzlovchining fikri aniq va tushunarli boʻlishi lozim. Agar inson katta auditoriya oldida nutq soʻzlashi kerak boʻlsa, u oʻzi uchun maʼruza matnini shakllantiradi. Lekin kundalik turmushda ogʻzaki nutq oddiylikni talab qiladi va bu holat insonlarda xavotir, ishonchsizlik, baʼzan esa qoʻrquv paydo qiladi. Ogʻzaki nutq ustida ishlashni lugʻat boyligini kengaytirishdan boshlash mumkin. Martin Iden D.Londonni eslang. U yozuvchi boʻlishga qaror qilib, har kuni belgilangan miqdorda yangi soʻzlarni oʻrganishni boshlagan. Bu unga yordam bergan. Hozir, odatda xorijiy tillarni oʻrganish uchun yangi soʻzlar oʻrganiladi. Ammo lugʻat boyligini nafaqat soʻz boyligi kam boʻlgan insonlar, balki kimning kasbi (yozuvchi, notiq, tarjimon, siyosatchi va h.k.) buni taqozo qilsa, ular ham kengaytirib borishlari kerak. Agar siz aynan nima demoqchiligingizni bilsangiz (tushunsangiz)va sizning lugʻat boyligingiz yetarlicha boy boʻlsa, siz oʻz fikringizni aniq ayta olasiz va bu bilan yuz berishi mumkin boʻlgan anglashilmovchiliklarga barham berishingiz mumkin. Va, aksincha, fikrida ham, soʻzlarida ham chalkashlik (sumbur) boʻlgan insonlar har doim pand yeyishdan xavotirlanishadi. Koʻpincha odamlar bilim darajasini koʻz-koʻz qilmaslik va takabbur koʻrinmaslik maqsadida oʻzlarining boy lugʻatlaridan foydalanishga uyalishadi yoki iymanishadi. Tinglovchilar diqqatini ushlab turish qobiliyati juda muhim hisoblanadi. Agar siz maʼruza qilayotganda biror-bir tinglovchining koʻziga tik qarab turib gapirsangiz, javob eʼtibori albatta kafolatlanadi. Va aksincha, agar siz oʻz fikrlaringizni bir ohangda, zerikarli tarzda avvaldan tayyorlangan matnga tikilib bayon etsangiz, koʻp oʻtmay auditoriya sizni tinglamayotganligini anglaysiz. Nigoh bilan aloqa munosabat yana shunisi bilan ham samaraliki, maʼruzachiga tinglovchilarning taʼsirlanishini ham baholash imkonini beradi. Ikki kishi ishtirokidagi shaxsiy muloqot, yaʼni kommunikatsiya, eng samarali hisoblanadi. Saylovchilar bilan shaxsan soʻzlashish nomzodning saylov kompaniyasida samarali imkoniyati katta boʻlishi siyosatda allaqachonlar maʼlum.

Yozma nutq koʻnikmalarini takomillashtirish. Insonlar yozma nutqni ogʻzaki nutqqa nisbatan kam ishlatishadi. Ammo elektron pochtaning hayotimizga kirib kelishi bilan yozma muloqotning ahamiyati juda oshdi.

Ish beruvchilar boʻsh ish oʻrinlariga tanlab olinayotgan nomzodlarning oʻz fikrlarini qogʻozda bayon etish savodxonligiga katta eʼtibor berishmoqda. Agar ishga kirayotganingizda sizga anketa toʻldirishni iltimos qilishsa, bu ish beruvchi sizning savodxonligingizni tekshirib koʻrmoqchi ekanligini bildiradi.

Har qanday yozma maʼlumot yoki xabar ogʻzaki maʼlumot yoki xabardan bir karra afzalligi shubhasizdir. Uni yozayotgan vaqtda oʻylab yozish imkoniyati boʻlib, oʻz fikrlaringizni tartibga keltirib olish va zarurat tugʻilganda qayta koʻchirish imkoniyatiga ega boʻlasiz. Ammo yozma muloqotning ikkita nuqsoni

(aybi, kamchiligi) borligini ham e'tirof etish kerak. Birinchidan, yozma xabarda siz o'z xis-tuyg'ularingizni intonatsiya va turli xatti-harakat(jest)lar orqali ifoda eta olmaysiz. Ikkinchidan esa, siz xabaringizni o'qiyotgan odam bilan oniy (bir lahzali) aloqadan mahrum bo'lasiz. Birinchi nuqsonga barham berish uchun siz o'z xabaringizga emotsional buyoq berishingizning o'zi kifoya. Bu borada sizga og'zaki muloqotda bo'lgani kabi so'z boyligi yaxshi yordam beradi. Ikkinchi muammo esa siz murojaat qilayotgan shaxsning ma'lumot darajasi, qiziqishi va so'z boyligi ma'lum bo'lsa, oson xal bo'ladi. Qisqa, oddiy til bilan yozilgan xabar, odatda, oson tushunarli bo'ladi.

Denotat va konnotatlar. **Denotat** deb so'z yoki so'z aniqlovchisining predmetlik ma'nosiga aytiladi. Masalan, izohli lug'atda – daraxt tushunchasi o'simlik sifatida tushuniladi yoki – sotsiologiya tushunchasi – ijtimoiy tilshunoslik deb tushuniladi va bu tushunchalar mazkur so'zlarning denotati hisoblanadi. Lekin, bundan tashqari, keltirilgan misollar emotsional buyoqqa ham ega, ya'ni o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, ularni lug'aviy ta'rif bilan to'liq ochib berib bo'lmaydi. So'zning denotativ va konnotativ ma'nosini ochib berishda ayrim muammolarga duch kelish mumkin. Ayrim so'zlar bir qancha ma'nolarga ega bo'lsa, ayrimlari nutq jarayonida yangi ma'nolar kasb etadi. Aksar hollarda so'zning ma'nosini faqat kontekst orqali qanday ma'no bildirganini bilish mumkin bo'ladi. Masalan, sizga: – Menda zo'r dorilar bor, – deyishsa, siz noqulay ahvolda qolmasligingiz uchun so'zlovchining qanday dori haqida gapirayotganini bilishingiz kerak. Agar bu gapni aytgan odam ziyoli, ma'lum bir kasbning egasi (shifokor, aptekachi, laborant...) bo'lsa, unda u qandaydir dardni davolovchi dori (medikament, malham) haqida gapirayotgan bo'ladi va sizning dardingizga darmon bo'luvchi dorilarini tavsiya qilmoqchi. Ammo so'zlovchining ko'zlari bejo, g'alati harakatlar qiluvchi va tushunarsiz gapiruvchi bo'lsa, unda bu so'zning boshqa ma'nolari haqida o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

Ish beruvchilarga so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi farq yaxshi ma'lum. Shunchaki birorta lavozim yoki vazifaning nomini o'zgartiribgina uni o'z mazmunini saqlab qolsada, yanada obro'liroq, jozibaliroq qilib ko'rsatish mumkin. Tasavvur qilamz, uyning ozodaligiga javob beruvchi: supurib tozalash, taomlar tayyorlash, oshxona ishlari, kir yuvish, dazmollash kaba ishlarni bajaruvchi shaxs ishga olinishi yekrak. Matbuotga, – farrosh yoki xizmatkor kerak, deb yoki – keng doiradagi majburiyatlarni bajaruvchi texnik xodim kerak deb e'lon berishin mumkin. Ma'lumki, ikkinchi nom ancha ish imkoniyatlariga ega bo'lgan ishchiga yuqoriroq ijtimoiy status beradi va uning mehnatini yanada obro'yini oshiradi. Boshqacha aytganda – texnik xodim ijobiy konnotativ ma'noga ega bo'ladi hamda yoqimliroq eshitiladi. – Kotib, kotiba, sekretar kabi so'zlarning o'rniga – referent-kotiba, – ish yurituvchi, – direktor yordamchisi kabi yoqimli va ohangdor nomlardan foydalanilsa, atrofdagi odamlarning munosabati kotibalik mehnatiga nisbatan qanchalik o'zgaradi.

Nutqning eng umumiy kommunikativ xususiyatlariga to'xtalamiz. Kommunikatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan nutq umumiy kommunikatsion aktga kiradi va quyidagi tarkibda namoyon bo'ladi:

– nutq – kommunikatsion madaniyat va umuman madaniyatning bir qismi hisoblanadi;

– nutq – kommunikantning ijtimoiy rolini (social identity) shakllanishida imkon tug'diradi;

– nutq yordamida kommunikantning o'zaro ijtimoiy e'tirofi amalga oshadi;

– nutqiy kommunikatsiyada ijtimoiy mazmun, mohiyat va ma'nolar hosil bo'ladi.

Har qanday faoliyat o'zining amaliy qimmati bilan ahamiyatlidir. Nutqiy faoliyat bo'lganligi uchun muloqot nutqi sarasi ham nutqning ta'sirchanligi bilan belgilanadi. Nutq ta'sirchanligi deganda nimani tushunish lozim? Mumtozlarimiz azal-azaldan nutq so'zlovchini tinglovchilarga tanishtiruvchi asosiy omil ekanligini aytib o'tganlar. Turkiy qomusiy asarlardan birida, jumladan, Yusuf Xos Xojib asarining "So'zlash avomi gapirishmi" deb nomlangan maxsus bobida: "Kishi so'zlamasa, uning o'zligini hech kim ham taniyolmas edi" degan g'oyani ilgari suradi, shuning uchun muloqot jarayonida so'zlovchi (diskurs nazariyasida bu kommunikator deb ataladi) tinglovchiga (adresat) o'z nutqi yoki muloqot jarayoni orqali o'zini tanitadi. Muloqot jarayonidan, albatta, ular ma'lum maqsadni ko'zlaydilar. So'zlovchi va tinglovchilarning (kommunikantlar) bir-birlariga o'zlarini tanitishlari, maqsadlarini yuzaga chiqarishlari darajasi muloqot jarayonining amaliy samarasidir. Uning samaradorligi amaliy, pragmatik qiymati esa ahamiyatli sanalishini unutmasligimiz lozim.

Verbal va noverbal suhbatda turli vositalardan foydalanish ma'lum ijtimoiy holatni shakllantirish va tushunish uchun imkoniyat beradi. Ayollarga qilinadigan iltifot har doim ham uning rostdan ham go'zal yoki yoqimli ekanligini ifodalamaydi. Bu – kommunikativ jarayon kommunikantlar o'rtasida turli ijtimoiy holatdarni belgilab beradi. Aralash davralarda esa turli qupol, birovlarining oriyatiga tegadigan so'zlardan ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Suhbatlar davomida davraning sotsialmadaniy saviyasi, davra a'zolarining yoshi va jarayon sodir etilayotgan joy inobatga olinadi.

Kommunikativ mahorat va kommunikatsiya muvaffaqiyatlari. Muloqot jarayonida kommunikantlarning holatida ma'lum maqsad kuzatiladi. Kommunikativ maqsadlarga erishish uchun biz kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, kommunikativ muvaffaqiyat singari usullardan foydalanamiz. Kommunikativ maqsad deb kommunikativ akt yo'naltirilgan strategik natijaga aytiladi.

Kommunikativ muhitda ma'lum bir vaqtda boshqarilayotgan jamiyat tomonidan kommunikativ konvensiyalar belgilanadi. Masalan, Oliy Majlis, Qonun chiqaruvchi organlar yoki Prezident qarorlari shular jumlasidandir.

Sud yoki ilmiy nutq – millatlar aro kommunikativ madaniyatni farqlovchi konvensiyalardan biri.

Kommunikativ strategiya – bu turli xil verbal va noverbal vositalar maʼlum kommunikativ maqsadga erishish uchun hamkorlikning bir boʻlagidir.

Strategiya – umumiy qolip, tartib-intizom. Sotuvchilarni, baʼzan, oʻz mollarini sotish strategiyasini xaridor bilan kommunikatsiya orqali olib borishga oʻrgatishadi. Baʼzida sotuvchi u yoki bu tovarning yaxshi yoki yomonligini beʼmalol aytishi mumkin. Lekin shu bilan birgalikda u boshqa bir tovarning yashirin holda reklamasini qiladi! Sotuvchi noverbal usulni qoʻllashi mumkin (buyumlarga daxldor turli illyustratsiyali kitobcha yoki jurnallarni birgalikda koʻrishni taklif qilish – xaridorning shaxsiy potensial boʻshligʻiga kirib borish). Biz har kuni turli insonlar uchun va turli kommunikatsion maqsadlar uchun salomlashishning maʼlum strategiyalarini qoʻllaymiz.

Noverbal kommunikatsiya. Noverbal muloqot soʻzlarga tayanmaydigan harakat va jestlardan iborat boʻlgan barcha shakllarni oʻzida mujassam etgan til sifatida mashhur. Psixologlarning eʼtirof etishicha, noverbal signallarni oʻqish samarali muloqotning muhim shartidir. Nima uchun noverbal signallar muloqotda shunchalik muhim?

Kommunikativ tajriba kommunikativ shaxsning shakllanishida bevosita aloqador. Soʻzlarning maʼnosi xotiramizda oʻtmishdagi kontekstlar va ularda ishlatilganlarning natijalari sifatida saqlanadi. Xuddi shunday kommunikativ tajriba omadli va omadsiz kommunikativ taktikalarning majmui sifatida tushuniladi.

Suhbatdoshga munosabatimiz koʻpincha birinchi taassurot orqali shakllanadi. Bu, oʻz navbatida, noverbal faktorlarning taʼsiri natijasidir – yurish-turish, yuz tuzilishi, qarash, oʻzni tutish, kiynish va h.k.

Ekstralingvistik yoki nutqdan tashqari, nutqning tempi; pauza; kulgu va h.k.

Buning ostida kommunikatsiya ishtirokchilari atrofidagi obyekt tushuniladi.

- suhbatdoshning tashqi
- koʻrinishi;
- mimika (yuz ifodasi);
- pantomimika (imo-ishoralar)
- Paralingvistik yoki nutqqa yaqin tasnif:
- ovozning vokal sifati;
- uning diapozoni;

Noverbal maʼlumot bilan almashinish. Verbal simvollar (soʻzlar) bizning gʻoyalarimizni kodlash uchun ishlatiladigan asosiy vositamiz boʻlsa-da, biz noverbal simvollarini maʼlumotlarni translyatsiya qilish uchun ishlatamiz. Noverbal kommunikatsiyada soʻzdan tashqari istalgan simvolni qoʻllashimiz mumkin. Koʻpincha noverbal muloqot bir vaqtda verbal muloqot bilan birga boʻlishi mumkin va bu soʻzning maʼnosini kuchaytirishi yoki oʻzgartirishi mumkin. Nigohlar orqali ishora, yuz ifodasi, masalan, tarjayish va norozilik,

xayronlikdan qoshlarning ko'tarilishi, jonli yoki qotib qolgan nigoh, rozilik va norozilikni ifodalagan qarash – bularning barchasi noverbal kommunikatsiya. Qo'l barmoqlarining ko'rsatishni ifodalashi, og'zni qo'l bilan yopish (hayrat, qo'rqish, tasodifiy mumkin bo'lmagan gapni aytib yuborganda, sirni oshkor qilib qo'yganda), bo'shashib turish, qo'llarni belga, boshga, orqaga, ko'krak ustiga qo'yib turish ham fikrni noverbal uzatishdir.

Vaziyat va distansiya. O'quvchilar bilan yuzma-yuz holatda muloqotga kirishish – bu odatda amalda qo'llaniladigan, garchi o'qituvchi va o'quvchining bir-biriga nisbatan joylashishning yagona usuli bo'lmasada, bevosita muloqotga kirishishning yaxshi holatidir. O'qituvchi va o'quvchining bir-biriga yuzma-yuz o'tirishi: – Men sizning oldingizdaman; siz bilan birgaman; muloqotga kirisha olaman; mazmunidagi xabar yoki ma'lumotni beradi. Bunday vaziyat o'qituvchining muloqotga kirishishga tayyorligidan xabar beradi. Ba'zida o'qituvchi va o'quvchilarning yuzma-yuz o'tirishi noqulaylik tug'dirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda sinf (auditoriya)dagi stol va stullarni boshqacha shaklda tartib bilan qo'yish mumkin. Lekin muloqotga kirish uchun barcha ko'rinib turishi va o'qituvchini ham o'tirganlar yaxshi ko'rib turishlari lozim. O'qituvchi dars o'tish uchun o'ziga mos vaziyat yaratishi ba'zi hollarda o'tiladigan mavzuning mohiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Nima bo'lgan holda ham, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi distansiya uzoqlashib ketmasligi va kerakli masofani saqlab qolishi zarur.

O'quvchilarning noverbal belgi va harakatlari uning kayfiyatini, darsni tinglayotgani yoki aksini, mavzuni o'zlashtirayotgani, butun fikri darsda yoki boshqa joyda ekanligini va h.k.larni ifodalashi mumkin. Masalan, o'quvchi o'zini orqaga tashlab, stulga bor gavdasi bilan suyanib o'tirsa, bu: – Men hech narsani tushunmayapman; men umuman boshqa narsalar haqida o'ylayapman; menga bu mutlaqo qiziqarli emas; mavzuni o'zim qaytadan o'qib tushunib olaman-kabi ma'nolarni anglatishi mumkin. O'quvchini darsga jalb qilish uchun esa o'qituvchi verbal va noverbal muloqotni ustalik bilan barobar olib borishi kerak. Masalan, badiiy asarni tushuntirayotganda ma'lum bir gavda harakatlari so'zlayotgan nutqi bilan mos tushishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga jalb qilish uchun noverbal harakatlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchining ko'ziga qarab gapirayotganda uning mavzuni o'zlashtirayotganligi yoki o'zlashtirmayotganligini o'qituvchi anglay olishi kerak. Mavzuni o'rindan qimirlamasdan, o'tirib tushuntirish auditoriyadagilarning diqqatini o'ziga jalb qila olmaslik, buning natijasida boshqalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatish holatlari ko'p kuzatiladi. O'qituvchi kerakli joyda ovozni ko'tarishi, pasaytirishi, qo'llarni harakatga keltirishi, boshni qimirlatishi, nutq orasida logik urg'u, pauza, intonatsiyalardan unumli foydalanishi, sinfda u yoqdan bu yoqqa yurib har bir o'quvchini nazorati ostida mavzuni tushuntirishi – noverbal muloqotning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Dars o'tish jarayonida o'zini va o'zgalarni hurmat qiladigan har qanday pedagog: – Men o'zimni to'g'ri tutayapmanmi? Ortiqcha harakatlar

qilmayapmanmi? Qaysi holatim yoki odatim tinglovchilarga xush kelmayapti? – deb o‘ziga savol berib turishi kerak.

O‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi distansiyada psixologik yaqinlik talab qilinadi. O‘qituvchi oradagi masofaga e’tiborli bo‘lishi, o‘quvchidan qaytayotgan reaksiyaga o‘zaro aloqa sifatida qarashi kerak. O‘rtadagi yaqinlik suhbatning optimallashtirishiga, ta’sirli bo‘lishiga va vaziyatga ta’sir qilish darajalariga ko‘ra o‘rganilishi lozim.

Pauza va sukut. Pauzaga chidam o‘qituvchining professional mahoratlardan biri hisoblanadi. Pauzaga rioya qilib o‘qituvchi o‘quvchiga ham gapirish imkonini beradi va dialogga tortadi. Pauzaning miqdori suhbat jarayonida shoshilmaslik, fikrni mulohaza qilib nutqqa chiqarish imkonini beradi. Shuning uchun savollar berish yoki o‘quvchi bildirayotgan fikrlarni izohlashga shoshilmaslik lozim. Pauza oldinroq aytilgan fikrlarga nimadir qo‘shish, to‘g‘irlash, ma’lumotni oydinlashtirish imkoniyatini beradi. Pauza – fikrni mulohaza qilib olish, tushunish imkoniyatining ahamiyatini ta’kidlaydi. Sukut saqlab turish tinglovchiga suhbatga aralashish imkonini beradi va shuning uchun ham so‘zlovchi o‘z navbatida uni diqqat bilan tinglayotganligini, o‘z navbatida gapirishi mumkinligini anglash mumkin.

Pauzaning davom etish vaqti suhbat jarayonida o‘zgacha qabul qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki, uzoq pauza xavotiruyg‘otadi va agressiyani chaqiradi. Ba’zan bir daqiqalik pauza ham uzoq vaqt davom etgandek tuyuladi. Suhbat jarayonida pauzaning ko‘p yoki kamligi dars vaqtida o‘tilayotgan mavzu, uaditoriyaning qabul qilish saviyasiga, o‘quvchi yoki talabalarning ruhiy holatiga ham bog‘liq. Umuman, o‘qituvchi o‘quvchining javob berish jarayonidagi pauzasiga sabr bilan qaramog‘i kerak. Chunki o‘quvchi (ruhiy holatiga bog‘liq ravishda) kuchli hayajon, qo‘rquv, uyalish, tortinish, ikkilanish holatini kechirishi natijasida qikrlarini tez-tez, ravon gapirib bera olmasligi mumkin. To‘g‘ri, darsda ma’lum belgilangan reglament (40-45 daqiqa) ichida o‘qituvchi hamma narsaga (o‘tilgan mavzuni so‘rash, yangi mavzuni tushuntirish va h.k.) ulgurishi kerak, lekin o‘quvchining ham ma’lum potensialini ham hisobga olish talab etiladi.

16 §. Ona tili darslarining tuzilishi, unda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning aks etishi, yozma ishlar o‘tkazish metodikasi

Ma’lumki, bilim berish, o‘qitish “ta’lim jarayoni” deb, ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fan esa “metodika” deb yuritiladi. Ta’lim jarayonida maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usullari esa metod demakdir.

“Metod” yunoncha so‘z bo‘lib, “yo‘l” ma’nosini ifodalaydi va ob’ektiv borliqdagi predmet, hodisalarni, ya’ni tadqiqot manbaini ilmiy tahlil qilish, o‘rganish orqali uning mohiyatini, tabiati, tarkibiy qismlarini, muayyan o‘ziga xos xususiyatlarini topish, ochish, ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarish usulini anglatadi.

Ta'lim usuli o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari bo'lib, u o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini anglatadi. Shunisi ravshanki, ko'proq hamkorlikda ishlash uslublari eng samarali uslublar hisoblanadi.

O'quvchilar ham samarali o'zlashtirishlari uchun ham shaxsiy, ham jamoaviy bo'lib ishlash qobiliyatlarini shakllantirishlari lozimdir. Individual o'rganish uslublari ko'p bo'lishi bilan bir qatorda ba'zi individual shaxslar ustunligi muayyan bir uslubda o'z aksini topadi. Bunga misol qilib quyidagilarni havola qilamiz:

- Vizual
- Eshitish
- Kinestetik

Vizual uslubda o'rganuvchilar ma'lumotlarni ko'rish orqali, eshitish uslubida o'rganuvchilar eshitish orqali, kinestetik o'rganuvchilar esa ba'zi jismoniy harakatlar (predmetlarni ushlab ko'rish, biror ish harakatni bajarish yoki his qilish) orqali o'rganishni afzal ko'rishadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday kechishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o'qituvchisi har bir mashg'ulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni o'tishdan qaysi metodlardan foydalanish samarali bo'ladi degan savol turadi.

Darsda ko'zda tutilgan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o'qituvchining o'z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o'zi etarli emas.

O'qituvchi, shuningdek, o'z tajribasi, o'z g'alar tajribasiga suyanan holda dars o'tish metodlari ustida ham jiddiy bosh qotirishi kerak. Demak, o'quv faoliyati mazmunining to'laqonli yoritilishida ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim va ko'nikma va malakalarini ko'rsatib berish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metodi va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun turtki bo'ladi. Bunda, albatta, o'qituvchining o'rni nihoyatda katta, chunki, u DTS, o'quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo'llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o'ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishdan kelib chiqib, ta'lim metodlari va dars shakllarini o'zi tanlaydi.

Bunda o'qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay olishi hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati muhim o'rin tutadi. Demak, metodlar o'zining ob'ektiv va sub'ektiv jihatlariga bo'lib, uning ob'ektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar va

qonuniyatlar, tamoyil va ta'riflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlar aks esa, sub'ektiv jihatlariga pedagog shaxsi va ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlari konkret shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Metodologiya esa tadqiqot manbaini qanday tushunish, uni o'rganishga qanday yondashish, qaysi usullarni qo'llash, tadqiqot ob'ekti yuzasidan umumiy nazariy, amaliy, mantiqiy yoki tavsifiy bilimlar hosil qilish haqidagi ta'limot. Boshlang'ich maktab o'quv rejasida oltita asosiy metodologiya mavjud:

1. **Suhbat va munozara.** Bu metodologiya har qanday karrikula uchun asosiy hisoblanadi. Bu metodologiya orqali o'rganish asosan tajriba va muloqot orqali amalga oshadi.

2. **Faol o'rganish.** O'quvchi o'z o'rganish programmasida faol bo'lib qolishi kerak. Bu metodologiyada keng ko'lamdagi o'rganish amaliyotida faol qatnashish imkonini beradi. O'quvchilar muayyan topshiriq va o'qitish strategiyalariga nisbatan turlicha munosabat bildirishga chaqiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilim olish jarayonidagi rivojlanishning ma'lum bir bosqichini tanlay olishi kerak va o'quvchilarning bilim olishi samarali kechishi uchun shunga mos faoliyatlar ketma-ketligini ta'minlash kerak.

3. **Hamkorlikda o'rganish.** O'quvchilar bu metodologiyada boshqalarning fikr va g'oyalarni tinglab, keyin shularga nisbatan munosabatini bildirishdir. Hamkorlikda o'rganish orqali o'quvchilar boshqalarning muammolari va tushunchalari bilan tanishtiriladi. Hamkorlikda ishlash bu o'quvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Hamkorlik metodologiyning asosiy tarkibiy innovatsion qismlari:

- Tematik integrallashgan karrikula
- Tilni o'qitish
- Tanqidiy fikrlash
- Faol o'qish ko'nikmasi
- Yozish jarayoni
- Ashyoviy bazaga asoslangan matematika (muammoni bartaraf qilish)
- Bilim oluvchi guruxlar
- Haqqoniy, bajarilgan ishga qarab baholanadigan asisment

Muammoni bartaraf etish. Yuqori sa'viyani talab qiluvchi fikrlash turlari yani jamlash, tahlil qilish, tuzatishlar kiritish bu muammoni bartaraf qilish metodologiyasi orqali rivojlantiriladi. Kuzatish, dalil asoslarni taqqoslash va baholash, muhim ma'lumotni ang'lay olish kabi topshiriq va mashqlar o'quvchilarda asosli qarorlar chiqarishga yordam beradi.

Mahorat (turli vaziyatlararo). O'rganilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash har qanday karrikulaning asosiy maqsadlaridan biridir. Har bir karrikula o'quvchilarda o'zlariga notanish bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini o'rgatadi. Agar o'quvchi o'zi o'rgangan bilim va ko'nikmalarni turli xil vaziyatlarda qo'llay olsa bu o'qitishning samaraliligini bildiradi.

Atrof muhitdan foydalanish. O'quvchilar o'zlari yashaydigan muhit va bu muhitda yashaydigan kishilar bilim olishning eng samarali asoslari hisoblandi.

Bu holat uydan boshlanib kengayishda davom etadi ya'ni bola ulg'ayib borishi bilan maktaban kollejga, kollejdani universitetga o'tish jarayoni hisoblandi.

Integratsiya. Integratsiya bu karrikulalararo o'rganish demakdir. Bunda har xil karrikuladagi fanlar bir-biriga mos kelmasligi ahamiyasiz. Bundan asosiy maqsad o'quvchi turli karrikulalardagi fanlar o'rtasida bog'liklikni belgilaydi. Bu turdagi amaliyot o'quvchiga keng ko'lamdagi bilimlar olishga o'z hissasini qo'shadi.

Differensiyalash. Bu termin o'qituvchilar tomonidan foydalaniladigan strategiyalarni izohlaydi hamda o'qitish maqsadiga ko'ra farqlarini ko'rsatib beradi. Differentiyalash har hil qobiliyatli guruh o'quvchilariga nisbatan qo'llaniladigan o'qitish uslublarini moslashtirishga ham xizmat qiladi. O'qituvchilar foydalanadigan differensiyalash turlari quyidagicha:

- O'qitish sur'ati bo'yicha
- O'qitish uslublari bo'yicha
- Ko'maklashish bo'yicha: guruhdagi ayrim o'quvchilar bilan qo'shimcha ko'proq ishlash
- Manbalar bo'yicha
- Topshiriqlar bo'yicha: turli qobiliyatli o'quvchilarga turli topshiriqlar belgilash
- Natijalar bo'yicha: erkin hulosaga ega bo'lishi mumkin topshiriqlar belgilash, o'quvchilarga turli darajada munosabat bildirishga imkor berish
- Guruhlarga ajratish bo'yicha

Samarali differensiyalash bu har bir o'quvchining individual xarakterini hisobga olgan holda amalga oshadi hamda o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini orttirish, ularning qilayotgan harakatlarining ham ma'nosi borligini ularga anglatish ham demakdir.

Shu bois, har bir fanning rivoji uni o'qitish, yosh avlodga singdirishning samarali usul vositalarini ishlab chiqishga ham bog'liqdir. O'qitish metodlarining eng asosiylari quyidagilar:

1. *An'anaviy metodlar.* Bu metodlarga amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar kiradi

2. *Maqsadiga ko'ra metodlar* quyidagi turlarga bo'linadi:

- * bilimlarni egallash;
- * malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- * bilimlarni qo'llash;
- * ijodiy faoliyat;
- * mustahkamlash metodlari;
- * bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari kiradi

3. *Idrok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar* quyidagicha tavsiflanadi:

✓ retseptiv tushuntirish illyustrativ (axborot) metodi. Bunda bilimlar "tayyor holda" tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

✓ reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi, ularni tushunish va eslab qolinishiga erishiladi hamda tez-tez takrorlash yo'li bilan bilimlar mustahkamlanadi;

✓ muammoli bayon qilish metodi;

✓ qisman ijodiy (evristik) metod: bilimlar mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;

✓ tadqiqiy metod: muammo belgilab olinadi, bilim tadqiqot jarayonida egallanadi. Ta'lim jarayonida o'qitish metodlari markaziy o'rin egallaydi.

Ta'lim shakli, vositalari, metodlari sinfdan sinfga, bosqichdan bosqichga o'tgan sari oddiydan murakkabga qarab o'stirib borilgan holda qo'llanilishi kerak. Chunonchi, ta'limning quyi bosqichlarida ko'proq rasmlar, narsabuyumlarning o'zidan foydalanilsa, o'rta va yuqori sinflarda turli jadvallar, chizmalardan, video va video lavhalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, o'rta muxsus va oliy ta'limda esa ta'lim jarayonida kodoskop, slayd, kompyuter, internet kabi zamonaviy axborot vositalarini yanada kengroq qo'llash tavsiya etiladi.

Dars jarayonida bir emas, bir necha metodlardan foydalanish mumkin, ushbu metodlarning to'g'ri qo'llanishi mashg'ulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, o'quvchi-o'quvchilarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchilarning faoliyati fikrlarining o'zgarib, avlmashinib turishi, albatta, dars metodlarining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Bu pirovard natijada har bir darsning boshqalariga o'xshamagan shaklda, o'ziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va o'quvchi-o'quvchilarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg'ab olishga intilish hissini uyg'otishga olib keladi.

Ayniqsa oliy ta'lim bosqichida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – intellektual metodlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga, etuk mutaxassis bo'lish uchun kerakli kasbiy fazilatlariga ega bo'lishga olib keladi. Kadrlarni shu tarzda tayyorlab borish ta'limning quyi bosqichlari uchun yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarni, o'z sohasining bilimdon kadrlari bilan ta'minlanishiga yordam beradi va bu o'z-o'zidan ta'lim sifatining yaxshilanishiga, samaradorlikning o'sishiga olib keladi.

Chunki maktabda fan asoslari o'rganilsa, ya'ni umumiy ta'lim berilsa, oliy ta'limda o'quvchi zamonaviy fanni o'rganadi va ixtisoslik bo'yicha ta'lim oladi. Shuning uchun ham oliy maktabdagi metodlari bilimlarni yetkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Aytilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa

muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

Yozma ish turlari haqida umumiy ma'lumot. Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish borasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: imlo qoidalarini ongli o'zlashtirish, ijodiylik, fikrni aniq, lo'nda, qisqa va tushunarli bayon etish.

O'quvchi yozma savodxonligini oshirish maqsadida taqvim-mavzu ish rejasida ko'rsatilgan muddatlarda insho, bayon hamda diktant kabi yozma ish turlarini muntazam o'tkazib borish belgilangan. Yozma ish turi o'quvchi bosqichma-bosqich o'zlashtirgan imlo qoidalariga mos ravishda tanlanishi, o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchi o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilmog'i, o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini qay darajada amalda qo'llay olishini aniqlashga yo'naltirilmog'i kerak. Taqvim-mavzu ish rejasiga asosan yozma ish turlarini o'z vaqtida o'tkazish mumkin, ammo uning natijasi qanday bo'lishiga ko'ra tadbirlar ishlab chiqilmog'i – bosh masala. Aslida, o'quvchining savodxonlik darajasi saboq berayotgan o'qituvchiga hali nazorat ishlari boshlanmasdan avval aniq bo'ladi. Chunki ko'pi bilan uch dars oralig'ida o'quvchi aylanma daftarlarini tekshirish sinchkov murabbiyga bu imkoniyatni beradi.

O'quvchilarning yozma savodxonligi DTS talablaridan past darajada bo'lsa, o'qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo'shimchalar kiritishi yoki o'quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo'shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. O'quvchi dasturda belgilangan DTS talablarini hamma vaqt ham risoladagiday uddalay olmasligi mumkin. Buning bosh sababi, o'quvchilarning quyi sinflarda yoki oldingi mavzularda o'rganishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliq yuzaga kelganidir. Bu bo'shliq barcha uchun bir xil – standart bo'lmaganidan bu masalaga har bir o'qituvchi individual – ijodiy yondashishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarini ham e'tibor bilan o'rganib chiqmog'i, har bir o'quvchi yo'l qo'ygan xatolarni belgilab olmog'i va ular asosida guruhlangan xatolar ro'yxatini tuzmog'i, umumiy xato va kamchiliklarni umumiy ko'rinishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

Aytaylik, undalma va kirish so'zlar mavzusi o'tilgan darsdan keyin undalma va kirish so'zlar ishtirok etgan matn tanlanishi va ushbu matn bo'yicha diktant olinishi mumkin. Avvalambor, dars o'tish jarayonida undalma va kirish so'zlar mavzusi puxta o'rgatilishi, undalmalarda undash faqat shaxslarga emas, balki narsa-hodisalarga nisbatan ham qaratilishi mumkinligini; kirish so'zlarning barcha ifodalagan modal ma'nolari, ularning sof va vazifadoshligini da rslik hamda qo'shimcha misollar orqali fahmlashga – ongli idrok etishga rag'batlantirish zarur. Bugun, shubhasiz, yomg'ir yog'adi. Bugun yomg'ir yog'ishi shubhasiz gaplarida kirish so'zning vazifadosh va mustaqil so'z sifatidagi ko'rinishlari keltirilgan. Ushbu gaplar tarkibidagi qaysi bir shubhasiz

soʻzi kirish soʻz, qaysi biri mustaqil soʻz ekanligiga oʻquvchining fahmi yetmas ekan, u bu soʻzlarning imlosida xatoliklarga yoʻl qoʻyishi muqarrar. Demak, oʻquvchining yozma savodxonligiga tamal toshi yozma ishlar yozish jarayonida emas, balki imlo qoidalariga oid mavzularni oʻrgatish jarayonida qoʻyiladi. Yozma ish bir necha bosqichni qamrab oladi. Shunga koʻra diktant, bayon, insho kabi yozma ishlardan har birining bir qancha turi mavjudki, ulardan maqsadli foydalanishgina koʻzlangan samarani beradi. Diktant nisbatan moʻtadil yozma ish turi sanaladi. Uni aʼlo bahoga yozish unchalik qiyinchilik tugʻdirmaydi. Yozma ishning bu turida oʻquvchining erkin fikrlashiga zarurat sezilmaydi, chunki tayyor matn aytib turiladi va oʻquvchi yozaveradi. Shu oʻrinda hatto diktovka (oʻqib yozdirish) talablarini barcha oʻqituvchilar ham bilmasligi haqida aytmogʻchimiz. Diktovka jarayonida yuqori sinf oʻquvchilariga boʻgʻinlab, quyi sinf oʻquvchilariga soʻz yoki jumla taʼkidlab oʻqilayotgan, notoʻgʻri talaffuz qilinayotgan, notoʻgʻri toʻxtam holatlariga duch kelyapmiz. Baʼzan oʻquvchining faqat oʻz oʻqituvchisi diktovkasiga koʻnikma hosil qilganini koʻramiz. Bilimlar bellashuvlarida notanish oʻqituvchining diktovkasi oʻquvchilarni esankiratib qoʻygan holatlar kuzatilmoqda.

Diktantning oʻziga xos sharti oʻz lugʻaviy maʼnosidagi diktovka – aytib turib yozdirish degan tushunchadan koʻra muhimroqdir. Diktant – bu eshitganinigina yozish emas, balki aytilayotgan soʻzning ongda, shuurda muhrlangan suratini nusxalash. Shuning uchun ham aytib turish – diktovka qanday boʻlishidan qatʼi nazar, oʻquvchining toʻgʻri yoza olishiga erishish bosh masaladir. Oʻquvchi aql, fahm kabi bir boʻgʻinli soʻzlarda qator kelgan undoshlar orasida qisqa i unlisi eshitilsa-da, yozilmasligini; zidlov, sabab va aniqlov bogʻlovchilaridan oldin vergul qoʻyilishini ongli idrok etmasa, bahosi “yaxshi” yoki “aʼlo” boʻlishidan umidvor boʻlmaslik kerak. Demak, diktant uchun ham faqat diktant yozayotgan paytni muhim deb belgilamaslik zarur.

Bayon diktantdan oʻz ijodiyligi bilan farqlanadi. Unda oʻquvchining ijodkorligi matnni tinglash jarayonida koʻz oldiga keltirgan, eslab qolgan manzara, holat, voqealar rivojini tasavvurida tiklagani holda individuallashtirishi – oʻz tilida oʻziga xos ifoda tanlashida namoyon boʻladi. Oʻquvchi bu oʻrinda matnni boyitishi, jonlantirishi, tasviriy ifodalardan oʻrinli foydalanishi yoki, aksincha, borini buzib, uslubiy xatoliklarga yoʻl qoʻyishi mumkin. Bunday paytlarda muayyan oʻquvchining har bir gapi, jumlasini, soʻzlarni bir-biriga bogʻlashi, umuman olganda, ifoda texnikasi haqida fikr yuritishga, yoʻl qoʻyilgan xatolikni bartaraf etib, qoʻlga kiritilgan muvaffaqiyatni ragʻbatlantirishga toʻgʻri keladi.

Insho bayonga nisbatan ham ijodiy yondashuv borasida yuqori maqomda turadi. Unda izlanuvchanlik, maʼlumotlar toʻplash, saralash, umumlashma xulosalar chiqarish, eng muhimi, goʻzal badiiy ifoda yetakchilik qiladi. Bu boradagi urinishlar juda mashaqqatli jarayon boʻlib, oʻquvchi va oʻqituvchidan ancha ter toʻkishni talab etadi

Yozma ishlarning barcha turlaridan keyin imlo va uslubiy savodxonlik taqvim-mavzu rejasi asosida tahlil darslari bilan mustahkamlanadi. Ushbu

darslarning samarasi beqiyosdir. Garchi ijodiy ish tugaganday taassurot tug'dirsa-da, tahlil darslarisiz ijodiy ish yakuniga yetmagan hisoblanadi. Tahlil darslari o'ziga xos saboq, keyingi ijodiy ish uchun namuna vazifasini o'tashda tengsiz mashg'ulot sanaladi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklar ichida eng ko'p uchragani tinish belgilariga oid xatolar sanaladi. Undalma, kirish so'z, bog'lovchilar, uyushiq bo'laklarning vergul, izohlanayotgan bo'laklarning vergul, qavs yoki tire bilan ajratilishi, ega va ot kesim orasida tirening qo'llanilishi, xullas, tinish belgilarining qo'llanilishiga oid bilimlarda bo'shliq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Garchi tinish belgilari xatoligi xatoliklar darajasida quyi pog'onani egallasa-da (baholash mezonlarida ba'zan 3-4 tinish belgisi bir imlo xatosiga tenglashtiriladi), ularga bepisand munosabatda bo'lish mumkin degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Ayrim hollarda tinish belgilari sintaktik munosabatni boshqargani bois uslubiy xatoga yo'l ochadi: Aziz akam keldi – Aziz, akam keldi.

Ikkinchi turdagi xatolik savodxonlikning asosiy mezoni bo'lgan imlo xatolaridir. Ushbu xatolar miqdori 7 va undan oshsa, ish "qoniqarsiz" baholanishi lozim. shoh – shox, she'r – sher ko'rinishidagi paronim (talaffuzdosh) juftliklardan birini boshqasi o'rnida qo'llash imlo xatoligi emas, balki so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolikdir.

Uslubiy xatolarni bartaraf etish uchun juda ko'p ter to'kish zarurati yo'q. Bor-yo'g'i o'quvchilaringizni kitobga oshno qilsangiz, kifoya.

Ta'lim tizimida diktantlarni xizmati benihoya kattadir. Diktantlarni maktablarda o'quvchilarga imlo va punktuatsiya o'qitishdagi katta xizmati shundaki, diktant yozish jarayonida yozuv orqali o'quvchilarni aqliy faoliyati rivojlanadi. O'quvchi o'qituvchi aytib turgan jummalarni yoki so'zlarni yozadimi, yoki fikrini erkin yozadimi, baribir u ongli ravishda og'zaki nutqni yozma shaklga ko'chiradi. Dastlab, so'zlovchini nutqini tinglovchi mazmun jihatdan idrok qiladi. So'zlovchidan nutqini yozuvga ko'chirish jarayoni boshlanganda esa, o'quvchi gapdagi so'zlarni tovush tarkibi va gaplarni ohangiga e'tibor beradi, tovush va harflarni o'zaro qiyoslaydi ohangni ma'lum tinish belgilari bilan ko'rsatishga harakat qiladi.

Ijodiy diktant. Ijodiy diktant o'quvchilar nutqini o'stirishda, orfografik ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga o'rgatilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ularning shu orfogrammalar ishtirok etgan gap tuzish talab etiladi. O'quvchilar tavsiya etilgan orfogrammalar yordamida tuzgan gaplarini o'qib beradilar. Orfogrammalar tagiga chizadilar va orfogrammani nima uchun shunday yozilayotganligini aytib beradilar. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan gaplarni eng yaxshilarini ta'kidlagani holda, boshqa o'quvchilariga ham bu gaplarni yozishni tavsiya etadi.

Saylanma diktant. Saylanma diktantlarda o'quvchi gapni to'liq yozmaydi, balki gap tarkibidagi ayrim orfogrammalarni yozadi. Bu esa qisqa vaqt ichida ma'lum qoida asosida yozilishi lozim bo'lgan bir qancha so'zlarni imlosini o'rganishga yordam beradi. Saylanma diktant o'quvchilarda onglilik va

mustaqillikni kuchaytiradi. Masalan, sifat soʻz turkumi oʻtib boʻlingandan soʻng oʻqituvchi gapni toʻla oʻqiydi, oʻquvchilar esa shu gapdan faqat sifat turkumiga oid soʻzlarni daftarlariga yozadilar, yaʼni saylab oladilar.

Saylanma diktantni baholashda oʻqituvchi uni imlosigagina eʼtibor bermay, toʻgʻri saylab olishiga (tanlab) ham ahamiyat berishi darkor. Diktant tugagach, oʻquvchilar nechta soʻz yozganliklarini tekshiradilar.

Lugʻat diktant. Lugʻat diktant koʻp vaqt olmasligi, ixchamligi bilan lugʻatni boshqa turlaridan farq qiladi. Shuni uchun har bir mavzuni oʻtgandan soʻng yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalanish mumkin. Deyarli har mavzuni (boʻlimni) oʻtib boʻlgandan soʻng lugʻat diktant olish mumkin. “Diktantlar toʻplami”da asosan 5, 6, 7-sinflar uchun lugʻat diktantlar berilgan. Lugʻat diktant uchun darsni 7-10 minutini ajratish kifoya. Lugʻat diktant oʻquvchiga maʼlum soʻzlarni qanday yozilishinigina emas, balki shu soʻzni oʻzini, uni maʼnosini ham oʻrgatadi. Demak, oʻquvchilar nutqini oʻstirishda bunday diktant katta ahamiyatga ega.

Nazorat diktant. Nazorat diktant oʻrganilgan qoidalarni oʻquvchilar qanchalik oʻzlashtirganini, bu qoidalarning qanchalik amalda tadbiq qila olishlarini nazorat qilish uchun oʻtkaziladi. Bunday diktant har bir katta mavzuni oʻtib boʻlgandan keyin har bir katta mavzuni oʻtib boʻlgandan keyin va chorak oxirida olinadi. Shuning uchun ham nazorat diktant uchun oʻquvchilar maxsus tayyorgarlik koʻrishlari, oʻtilgan mavzuni takrorlab kelishlari talab qilinadi. Ayni paytda oʻqituvchi ham oʻquvchilarni yoshi, tarbiyasi, talabiga javob beradigan va mavzuga muvofiq keladigan matnni tanlab yozdirish lozim.

Taʼkidiy diktant. Bu diktant oʻquvchilar yoʻl qoʻyishi mumkin boʻlgan xatolarni oldini olish maqsadida oʻtkaziladi. Buning uchun tanlangan matn grammatik-orfografik tomonidan tahlil qilinadi, oʻrganilgan qoidalar eslatiladi, ayrim soʻzlarning yozilishi taʼkidlanadi, soʻngra matn aytib turib yoziladi. Taʼkidiy diktantning samaraliligi oʻquvchilarning aktivligiga bogʻliq, oʻquvchilarni aktivlashtirish uchun matn tahlil qilinayotganda ularning ayrim soʻzlarining yozilishini oʻqituvchidan soʻrashga, oʻrganilgan qoidaga mos soʻzni oʻzlari tanlab, uni tahlil qilishga ayrim soʻzlarni lugʻatdan topib imlosini tekshirishga oʻrgatish zarur.

Saylanma diktant. Saylanma diktant ham taʼkidiy diktant kabi oʻtkaziladi. Buning taʼkidiy diktantdan farqi shundan iboratki, tanlangan matn tahlil qilinib, oʻrganilgan qoidalar takrorlab eslatilgach, oʻqituvchi diktovka qilgan gapdan oʻquvchilar oʻrgangan qoidalarga mos boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasinigina tanlab olib yozadilar. Masalan, Saylanma diktant qaratqich kelishigidagi otning gapda boshqa otga bogʻlanishini mustahkamlash maqsadida oʻtkazilsa, “maktabimizning shuhrati yoyilgan” gapi diktovka qilingach, oʻquvchilar qoidaga mos “maktabimizning shuhrati” soʻz birikmasinigina yozadilar va xokazo. Saylanma diktantda vaqt tejaladi, kerakli soʻz yoki soʻz birikmalarigina yoziladi. Matnga oʻrganilgan mavzuni puxtalashga oʻquvchilarning faol munosabati talab etiladi.

Bayon va uning turlari. Bayon o‘tkazish metodikasi. O‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil yozishga, o‘qilgan matnni hikoya qilishga o‘rgatishni iloji boricha ertaroq boshlagan ma’qul. Buning uchun o‘quvchilar matnni og‘zaki hikoya qilayotganda qo‘llangan alohida so‘zlarni yozishdan gapni yozishga, so‘ng matnni qismlarini yozishga va ikkinchi sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o‘rgatiladi. Bayon o‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir. Adabiyot darslarida matn ustida ishlash, o‘qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og‘zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Bayon yozishning turlari xilma-xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish sur‘ati sekin, shunga ko‘ra bayon uchun kichik hajmdagi kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi.

Bayon matni asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi bir matn tanlansa unga yana bir qancha lavhalarning tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari qo‘shiladi; keyinroq shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi.

Bayonni tahlil qilish, tuzatish va baholash. O‘qituvchi o‘quvchilar yozgan bayonlarni o‘qib, o‘rganib, baholaydi, sinfda tahlil qiladi. O‘qituvchi bu ishlarni puxta uyushtirish bilan bayonni muvaffaqiyatli yozilishiga erishadi.

Ilg‘or o‘qituvchilar yozma ish – bayonni tanlangan matnni o‘quvchi tomonidan qanchalik o‘zlashtirilgani va bayon etilganiga rejani maqsadga muvofiqligi va reja asosida izchillikda, savodli, grammatika qoidalariga mos ravishda yozilishiga e’tibor beradilar.

V-IX sinflarda o‘quvchilar yozgan bayonni tekshirishda aniqlangan xatolar belgilar bilan ko‘rsatib qo‘yiladi: orfografik xato harfni tagiga bir to‘g‘ri chiziq (-), ortiqcha yozilgan harf tagiga ikki to‘g‘ri (=) chiziq, so‘z xato yozilgan yoki jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo‘lsa, bir uzun to‘g‘ri (____) chiziq, uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa tagiga (\approx) to‘lqinli chiziq chiziladi. Bir yoki bir necha jumlada uslubiy xatolar bo‘lsa, daftarni hoshiyasiga qo‘sh (||) tik chiziq ishorasi qo‘yiladi; jumlarlar orasida aloqa bo‘lmay fikr tushunarsiz bo‘lsa, daftarni hoshiyasiga bir tik (|) chiziq ishorasi va savol alomati (?) qo‘yiladi. Yangi fikr yangi yo‘ldan boshlanmagan bo‘lsa, jumladagi birinchi so‘z oldidan yangi yo‘ldan boshlash ishorasi (Z) qo‘yiladi.

Bu ishoralarni o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham xotirada saqlashlari lozim. Chunki o‘quvchilar bu ishoralar yordamida o‘z xatolarini bilib oladilar va tuzatadilar. Yozma ishlarni, jumladan, bayonni tekshirishda kim qayerda, qanday xatolarga yo‘l qo‘yganligini aniqlash, xatolarni xillarga bo‘lib ularni tuzatish yo‘llarini o‘quvchilarga ko‘rsatish maktab tajribasida sinalgan usul hisoblanadi. Tahlil jarayonida eng yaxshi yozilgan ishlarning ayrim o‘rinlarni namuna sifatida o‘qib eshittirish ham pedagogik va psixologik jihatdan katta

ahamiyatga ega bo'lgan usullardandir. Yozma ishi namuna qilib ko'rsatilgan o'quvchi ma'naviy tomonning mukofotlanganligini chuqur his qiladi, boshqa o'quvchilarda esa yozma ishga jiddiy munosabatda bo'lish mas'uliyati ortadi.

O'quvchilar yozma ishiga, jumladan, yozgan bayoniga qo'yilgan baho orqali ular o'z xatolarini tushunadilar, kelajakda shunday kamchilikka yo'l qo'ymaslikka harakat qiladilar.

O'qituvchi yozma ishlarni tekshirganda oldin ularni ijobiy tomonini umumiy baholaydi, chunki yozma ishga umumiy baho berish o'quvchida ko'pchilik oldida javobgarlik tuyg'usini tarbiyalaydi.

Tekshiruv – sinov bayoni. O'quvchilarni nutq malakalarini aniqlash, sinash maqsadida o'quv yilini har bir choragida bir-ikki marta tekshiruv-sinov bayonlari o'tkazilib turiladi. Buni uchun matn, albatta, o'quvchilarga tanish bo'lmagan, darsda tahlil qilinmagan asarlarning olinadi yoki "Bayonlar to'plami"dan olinadi.

Bunday bayonni o'tkazish uchun matn o'qituvchi tomonidan bir-ikki marta ifodali o'qib beriladi. Matn mazmuni yuzasidan o'quvchilarda savollar bo'lmasa, berilgan reja asosida bayon yozishga kirishiladi. Bayon yozib bo'lingach, mustaqil o'qib chiqish uchun 3-5 minutgacha imkoniyat beriladi. Shundan so'ng ish yig'ib olinadi. Tekshiruv – sinov bayoni o'qituvchi tomonidan adolatli tekshirilib baholanadi. Agar xatolari har tomonlama o'rganilmay, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilsa, baho yo oshirib yoki aksincha nihoyatda kamaytirilib qo'yilishiga sabab bo'ladi. Xullas, har bir o'quvchi olgan bahosini asosli ekanligiga iqror bo'lishi zarur.

Bayon yozish tartibi. O'quvchilarga bayon yozishni o'rgatishda o'qituvchidan uni muntazam suratda o'tkazib borish va bu sohada ma'lum bir tartibga amal qilish, ya'ni o'quvchilarning xususiyati va bo'lim saviyasiga mos bo'lishiga e'tibor berib, soddadan murakkabga erkin, to'liq bayon etishdan matnga yaqinlashtirib bayon yozishga, matnga yaqinlashtirib bayon yozishdan qisqartirib bayon yozishga, qisqartirib bayon yozishdan ijodiy bayon, ijodiy bayondan insho yozishga o'tiladi. Bunda og'zaki mashqlarni yozma ishdan oldin o'tkazib borishga ham e'tibor beriladi.

Bayonda so'zlar hajmi. Uzoq yillik pedagogik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, Bayonlar to'plami" qo'llanmasida bayondagi so'zlar hajmi aniq ko'rsatilmaydi. Sababi, bayon o'tkazishda so'zlar hajmini aniq ko'rsatib o'qituvchi va o'quvchilarni erkin harakatini bo'g'ib qo'yish mumkin. Shu sababli, bunday ma'lum chegara qo'yish maqsadga muvofiq emas, deb o'ylaymiz. Chunki bu diktant emas, balki uslub (stil) va fikrlashni o'stirishga qaratilgan o'ziga xos yozma ishdir. Shuningdek, joylarda mahalliy sharoitni o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, sinfdagi o'quvchilarni yoshi, yozma nutqi saviyasi va ayniqsa vaqt hamda yozib ulgura olish iqtidoriga qarab mazkur sinfga matnni o'qituvchining o'zi erkin tanlash huquqiga ega ekanligi e'tiborga olinadi.

Insho. Insho turlari, uni yozdirish qonun-qoidasi. O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishda inshoning ahamiyati beqiyosdir. Insho til va

adabiyot darslarida qoʻllaniluvchi muhim yozma ish turlaridan sanaladi. Insho yozuvchi oʻzining shaxsiy fikr va taassurotlarini inshoning mavzusi va materiali talab qilgan, iqtidori imkon bergan tartibda yozma ravishda bayon qiladi.

Insho yozishga oʻrgatish-uzoq davom etuvchi murakkab jarayon. Bu jarayonning faqat eng muhim oʻrinlarigagina toʻxtalib oʻtishni lozim topdik. Insho uchun 4 soat beriladi. Hajmi – 5-7 bet (qoralamasi bilan). Insholar oʻrta maktablarda, litsey, kollej va boshqa oʻquv yurtlarida didaktik maqsadlariga koʻra ikki turli boʻladi: 1) taʼlimiy insholar; 2) sinov insholari.

Taʼlimiy insholar sinfda yoki uyda oʻquvchi tomonidan yozilib, nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, ijodiy fikr yuritishga, uni toʻgʻri bayon qilishga qaratilganidir.

Sinov insholari oʻquvchining insho yozish koʻnikma va malakalarini sinash uchun maʼlum mavzular oʻtib boʻlingach, chorak yoki yil oxirida, imtihon va olimpiadalarda olinadi.

Insholar mavzu va mazmuniga koʻra esa uch turli boʻladi: 1) adabiy mavzudagi insho 2) erkin mavzudagi insho 3) ilmiy mavzudagi insho

Adabiy insholar adabiyot darslarida oʻtilgan maʼlumotlarga oʻquvchining ijodiy munosabati (nuqtayi nazari) qoʻshib ifodalangan insholarni oʻz ichiga oladi.

Erkin mavzudagi insho adabiyot fani dasturida mavjud boʻlmagan mavzuda yoziladi. Unda oʻquvchining maʼlum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalari aks etadi.

Ilmiy inshoda biror fanga tegishli mavzu ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Unda ilmiy va ilmiy-ommabop manbalardan olingan materiallardan keng foydalaniladi. Ilmiy inshoda tasviriy vositalar deyarli qoʻllanmaydi.

Insho yozish – murakkab aqliy mehnat jarayoni. U oʻquvchidan oʻz fikrlarini dalillar vositasida mantiqan izchil, obrazli, grammatik va uslubiy jihatdan toʻgʻri bayon etishni talab qiladi. Oʻquvchini inshoga tayyorlash uchun til va adabiyot fanioʻqituvchisi tomonidan uzoq yillar maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda mashgʻulotlar tizimini tashkil etish talab qilinadi.

Ogʻzaki va yozma nutq oʻstirish usullarining barchasi kompleks qoʻllanilgandagina adabiyotdan yoziladigan inshoning yuksak saviyada boʻlishiga erishish mumkin.

Inshoga tayyorlanish va insho yozish jarayoni. Imtihon inshosiga tayyorlanish borasida insho yozishning muhim *bash* bosqichini alohida taʼkidlab oʻtish joizdir. Bu bosqichlar quhyidagilardan iborat:

1. Insho mavzusini tanlash.
2. Mavzuga doir materialni xotiraga jamlash.
3. Jamlangan material asosida puxta reja tuzish.
4. Rejaga muvofiq izchil ravishda insho yozish.
5. Yozilayotgan inshoni ham mantiqiy-uslubiy jihatdan, ham grammatik jihatdan nazorat qilib borish.

Insho mavzusini tanlash. Bu bosqich inshoning muvaffaqiyatini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Odatda imtihondagi insho variantlarida uchta

yoki to'rtta mavzu beriladi: bitta yoki ikkita adabiy, bitta adabiy-ijodiy, bitta yoki ikkita erkin (ijodiy-erkin) mavzu. Puxta o'ylangan, har tomonlama fikrlab ko'rilgan mavzular insho yozishda muvaffaqiyat garovidir. Insho mavzusini tanlashda biz insho yozuvchilarga quyidagilarga amal qilishni tavsiya qilamiz:

1. Mavzu bo'yicha materialni qanchalik bilishini hisobga olish.

2. Mavzular orasidan o'zini ko'proq qiziqtirganini tanlash.

3. Shunga o'xshash mavzularda insho yozish tajribasiga tayanish. Har yilgi insho mavzulari yangicha va favqulodda bir tarzda tavsiya etilishi va e'lon qilinishini nazarda tutadigan bo'lsak, har xil mavzularda insho yozib mashq qilib borishning ahamiyati yana ham ko'rtib ko'rinadi. Turli mavzular-dagi insholarni yoza olish uchun esa adabiyotdan nazariy materialni puxta o'rga-nish, qo'shimcha adabiyotlarni o'qib borish va ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalar bilan qiziqib, ular haqidagi o'z nuqtayi nazari va qarashlariga ega bo'lish zarur.

Mavzuga doir materialni xotiraga jamlash. Bu bosqichda mavzu doirasidagi xotirada saqlangan barcha fikrlar va dalillar yodga olinadi va tartiblashtiriladi. Yodga olingan materiallardan mavzuni yoritish uchun eng ahamiyatli va zarur bo'lganlari saralab chiqiladi.

Reja tuzish. Xotiraga jamlangan va tartiblashtirilgan material asosida puxta reja tuzish inshoning mantiqiy va g'oyaviy saviyasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Insho mavzusining o'zi haqidagina mulohaza yuritib, fikrlarni ixcham va lo'nda holda qisqa bayon qilish rejalashtirilganda sodda reja tuziladi. Insho yozuvchi mavzuning ichki g'oyaviy yo'nalishidan kelib chiqibgina fikrlar izhor qiladi va oz sonli dalillarga tayanadi. Odatda, sodda reja 5-8 sinf o'quvchilarining insholariga xos bo'ladi.

Murakkab reja mavzu yuzasidan atroflicha bilimga ega bo'lgan, mavzuning bir necha qirralarini ko'ra bilgan, keng ko'lamda yorita oladigan kishi tomonidan tuziladi. "... Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!" mavzusi yuzasidan sodda va murakkab rejani ko'rib chiqaylik.

Sodda reja:

1. O'zbekiston – mustaqil davlat.

2. Shu kunlarni orzu qilgandi Cho'lpon.

3. Yashna, yuksal, ona diyorim!

Murakkab reja:

I. Kirish. Naqadar shirin so'z-hurlik, erkinlik!

II. Asosiy qism:

1. Bahorni kuylamoq-erkni kuylamoq.

2. Cho'lpon ijodida xotin-qizlar ozodligi mavzusi.

3. Cho'lpon-isonkor shoir.

III. Xulosa: Cho'lponning yangroq sozi jaranglayversin!

Insho rejasi bandlari mavzuni ochish uchun xizmat qilmog'i zarur.

Kirish. Kirish insho mavzusini yoritishni boshlash oldidagi debocha hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy mavzuga o'tish uchun ko'prik

vazifasini o‘taydi. Kirish insho yozuvchining bilimi va ixtiyoriga qarab turlicha bo‘lishi mumkin:

- a) tarixiy;
- b) biografik;
- v) ommabop;
- g) chog‘ishtirma;
- d) favqulodda;
- s) lirik chekinishli va h. k.

Muallif mavzuni yoritishga qay biri qulay kompozitsion uyg‘unlik va g‘oyaviy mutanosiblik tug‘diradi deb topsa, o‘shanday kirish qilishi mumkin. Ba‘zan insho yozuvchi aralash kirishdan yoki ma‘lum tartibda bir necha xil kirishdan foydalanishi mumkin. Bu holda kirish qismining bandlari uchtagacha bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi mavzuga tatbiqan misol keltiradigan bo‘lsak.

Kirish.

1. O‘zbek adabiyoti asrimiz boshida.
2. She‘riyat osmonida yorqin yulduz.
3. Naqadar shirin so‘z-hurlik, erkinlik.

Kirish qismining 1-bandi tarixiy kirish, 2-bandi biografik kirish, 3-bandi chog‘ishtirma kirishga misol bo‘la oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Metod, metodika va metodologiya tushunchalarini ta‘riflang.
2. Ta‘lim shakli va vositalari
3. An‘anaviy ta‘lim metodlariga nimalar kiradi?
4. Zamonaviy ta‘lim metodlari haqida ma‘lumot bering.
5. Hamkorlik metodlarining turlari va samaralilik omillari haqida ma‘lumot bering.
6. Ta‘limning noan‘anaviy shakllarini izohlang.
7. Verbal metodlarga nimalar kiradi?
8. Ko‘rgazmali metodlarning qanday turlari mavjud?
9. Didaktika so‘zi va didaktik o‘yinlar nimani anglatadi?
10. Qanday darsni zamonaviy dars deb ayta olamiz?
11. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar haqida ma‘lumot bering?
12. Sizningcha, zamonaviy o‘qituvchi qaysi jihatlari bilan boshqalardan ajralib turadi?
13. Ona tili va adabiyot o‘qituvchisiga qo‘yilgan davlat talablari nimalardan iborat?
14. Siz o‘z faoliyatingizni qanday baholaysiz?
15. Zamonaviy o‘qituvchi bo‘lishingiz uchun yana qanday xususiyatlarni o‘zingizda mujassam etishingiz kerak?
16. Ona tili darsliklarida mavzularning berilishi, qoidalar, mashq va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Ularni takomillashtirish bo‘yicha qanday takliflar bera olasiz?
17. Hozirgi kunda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun qanday metodik qo‘llanma va tavsiyalarga ehtiyoj katta?

Tayanch soʻz va iboralar:

Taʼlim va tarbiya, dastur, Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun, malaka, taʼlim kampusi, taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, taʼlim tashkilotlari attestatsiyasi, davlat akkreditatsiyasi, davlat taʼlim muassasasi, davlat taʼlim standartlari, davlat taʼlim talablari, mutaxassislik, dual taʼlim, oilada taʼlim olish va mustaqil taʼlim olish, katta yoshdagilarni oʻqitish va ularga taʼlim berish, inklyuziv taʼlim, eksternat tartibidagi taʼlim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash, yangi alifbo, amaliy maqsad, taʼlimiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, maʼnaviy, gʻoyaviy – estetik tarbiya berish, rivojlantiruvchi maqsad, yoʻnaltiruvchi maqsad, koʻnikma, qayta xotirlash faoliyati, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy faoliyat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoqubbekova M. Insho – bilim va savodxonlik mezoni. – Andijon, 1992.
2. Ishmuxamedov R. J., Yuldashev M. Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
3. Ismatov S. Oʻrta maktabning yuqori sinflarida insho. – T., 1973. 23.
4. Abduraimova M. Ona tili taʼlimida ilgʻor pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
5. Asqarova Oʻ., M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008.
6. Baratov Sh. Oʻquvchi shaxsini oʻrganish usullari. -T.: Oʻqituvchi. 1995.
7. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
8. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2006.
9. Bobokalonov R, Neʼmatova G. Ona tili oʻqitishning yangi texnologiyasi haqida. – T.: 1998.
10. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
11. Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – T.: Turon zamin ziyo, 2017.
12. Mavlonova R. “Pedagogika” T., “Oʻqituvchi” 2004.
13. Milliy dastur. T., 2022-2026-yillar.
14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston Strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2022.
15. Muslimov N., va boshqalar. Kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
16. Niyozmetova R. Uzluksiz taʼlim tizimida oʻzbek adabiyotini oʻrganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
17. Toʻxtaxoʻjayeva M. “Pedagogika” T., “Oʻqituvchi” 2010.
18. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak oʻqituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qoʻllanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

19. Yoʻldoshev J. F., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent 2008.
20. Tolipov Oʻ., Noʻmonova N. Taʼlim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar// Xalq taʼlimi. – Toshkent, 2002. – N 3.23-29b.
21. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-taʼlim –tarbiya sifat va samaradorlik omili. – Toshkent – 2010.
22. Tolipov Oʻ., Noʻmonova N. Zamonaviy didaktik oʻyinlarni taʼlim jarayonidagi oʻrni// Xalq taʼlimi. – Toshkent, 2004. 4.
23. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Taʼlim nazaryasi). OOʻY uchun qoʻllanma. –Toshkent. Sharq, 2006.

Elektron taʼlim resurslari

24. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz) – Ijtimoiy axborot taʼlim portali
25. www.edu.uz– Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi sayti
26. www.natib.uz– Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti
27. www.uzedu.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi
28. <https://onlinedu.uz/> – A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot insituti "Uzluksiz kasbiy taʼlim" platformasi

OʻZBEK TILIDAN IZCHIL KURSNI OʻRGANISH METODIKASI: FONETIKA, LEKSIKOLOGIYA

Koʻriladigan masalalar:

1. Oʻzbek tili kursining “Muqaddima” va “Izchil kurs”ga ajratish sabablari. Uni oʻqitishning maqsad va vazifalari.
2. Fonetika boʻlimini oʻqitish metodikasi hamda grafika, orfoepiya va orfografiya boʻlimlari bilan uzviy boʻgʻliqligi.
3. Leksikologiya boʻlimini oʻqitish metodikasi: leksik tahlil metodikasi. Lugʻat va uning turlarini oʻqitishning oʻziga xosligi.

17 §. Oʻzbek tilining “Izchil kurs”in oʻqitishning maqsad va vazifalari

1. Fonetika boʻlimini oʻqitish metodikasi, fonetikaning grafika, orfoepiya va orfografiya boʻlimlari bilan uzviy boʻgʻliqligi

Fonetika (grekcha pohne – tovush) nutq tovushlari, ularning hosil boʻlishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvning oʻzaro munosabati, boʻgʻin va boʻgʻin koʻchirish, soʻz urgʻusi xususiyatlari haqidagi fan. Unda nutq tovushlari – soʻzlarning, qoʻshimchalarning eng kichik boʻlagi tovush va uning talaffuzi oʻrganiladi.

5-sinfda bu boʻlim takrorlash bilan boshlanadi. Bunda berilgan soʻzlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarning oʻziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq aʼzolari belgilanadi. Berilgan soʻzlarga tovushdosh (tosh, tish, tush, toʻsh kabi), shakldosh (tosh –

suvda erimaydigan qattiq tog‘ jismi, ot; sakkiz chaqrimga teng masofa, ot: bir toshdan ortiq yo‘l bosdi kabi); fe‘l – toshmoq, qrg‘oqdan chiqib ketmoq; toshbag‘ir – ko‘ngilchan, ko‘ngli bo‘sh kabi zid ma’noli so‘zlar topib, ma’nolarini sharhlaydilar va izohlaydilar.

“Alfavit”ni yod olish o‘quvchilarda berilgan so‘zlarni alifbo tartibida joylashtirish, turli lug‘atlardan so‘zlarni tez topish ko‘nikmasini mustahkamlaydi, lug‘at zahirasi oshiradi. Unli va undosh tovushlar ustida ishlashda o‘quvchilar u – o‘, i – u, a – o, k – b, s – z, t – d, k – g, q – g‘, x – h kabi tovush juftlarining talaffuzi va imlosini bilib olib, shu tovushlar ishtirok etgan so‘z ma’nolarini tushuntiradilar, qiyoslash orqali ma’no farqlarini izohlaydilar.

Chunonchi, birinchi bo‘g‘inda u, o‘, ikkinchi bo‘g‘inda u, i yoziladigan, qisqa i, u tovushlari tushib qoladigan (to‘lqin, tutun, burun, tizim), jarangli tovushlarning b, d, x, h, ng, h kabilarning ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzish, o‘quvchi ongiga to‘g‘ri talaffuz hamda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini singdiradi.

Fonetika grekcha “*phone*” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “*tovush*” demakdir. *Fonologiya* atamasi tarjima qilinganda “*tovush haqidagi ta’limot*” degan ma’noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta’limot). Bu bo‘limda tovushlarning so‘z va morfemalar ma’nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo‘limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta’bir joiz bo‘lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o‘rganiladi.

Fonetik tahlil

Bu tahlilni quyidagi jadval asosida amalga oshirish mumkin.

<i>Fonetik tahlil namunasi:</i>
<ol style="list-style-type: none">1. So‘zda nechta tovush va nechta harf bor?2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, ular tavsiflanadi.3. Tovush o‘zgarishlari aniqlanadi.4. So‘z bo‘g‘inlarga ajratilib, bo‘g‘in turlari aniqlanadi.5. So‘zning urg‘usi aniqlanadi.6. So‘z qaysi yozuv qoidasi bo‘yicha yozilgan?

“Men shaharga keldim” – gapini fonetik tahlili:

Bu tahlilda, avvalambor, so‘zda nechta tovush va nechta harf borligini aniqlab olishimiz kerak. “Men shaharga keldim” gapida 16 ta tovush va 17 ta harf(belgi) bor, yani sh harf birikmasida ikkita harf (belgi) mavjud. Endi shu 16 ta tovushni unli va undoshlarga ajratib chiqamiz. Demak, bu gapda unli tovushlar 6 ta, undosh tovushlar 10 tani tashkil qiladi. Unli va undoshga ajratishning o‘zi bilan cheklanmaslik lozim. Shu sababli har bir tovushning o‘z tahlili mavjud.

“M” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ovozdor(sonor), jarangli tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, sirg‘aluvchi, burun tovushi; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab undoshi (lab-lab) hisoblanadi. Xuddi shunday qolgan tovuhlarni ham tahlil qilish lozim.

“E” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra - old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra o‘rta keng unli hisoblanadi.

“N” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ovozdor(sonor); jarangli tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi-sirg‘aluvchi, burun tovushi; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til oldi) hisoblanadi.

“Sh” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangsiz tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til oldi) hisoblanadi.

“A” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra quyi keng unli hisoblanadi.

“H” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangsiz tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra bo‘g‘iz undoshi hisoblanadi.

“A” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra quyi keng unli hisoblanadi.

“R” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ovozdor(sonor), jarangli tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi-sirg‘aluvchi, titroq tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til oldi) hisoblanadi.

“G” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangli; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sof portlovchi tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til orqa) hisoblanadi.

“A” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra quyi keng unli hisoblanadi.

“K” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangsiz; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sof portlovchi tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til orqa) hisoblanadi.

“E” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra o‘rta keng unli hisoblanadi.

“L”– undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ovozdor(sonor), jarangli tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi-sirg‘aluvchi, yon tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til oldi) hisoblanadi.

“D” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangli; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sof portlovchi tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi (til oldi) hisoblanadi.

“I” – unli tovush, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablanmagan; tilning gorizantal harakatiga ko‘ra old qator; tilning vertikal harakatiga ko‘ra yuqori tor unli hisoblanadi.

“M” – undosh tovush, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ovozdor(sonor), jarangli tovush; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi-sirg‘aluvchi, burun tovushi; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab undoshi (lab-lab) hisoblanadi. Xuddi shunday qolgan tovuhlarni ham tahlil qilib olamiz.

Undan so‘ng tovush o‘zgarishlari aniqlanadi. “Men shaharga keldim” gapida tovush o‘zgarishlari bo‘lmagan. Ammo *meni, shahrim, bilagi, unga* so‘zlarida turli tovush o‘zgarishlarini kuzatish mumkin. *Meni* so‘zida: *men+ni* (*olmosh+tushum kelishigi qo‘shimchasi*) asosdagi bitta “n” tushib qolishi, *shahrim* so‘zida: *shahar+im* (*ot+egalik qo‘shimchasi*) asosdagi ikkinchi “a” ning tushib qolishi –tovush tushishini;

bilagi so‘zida: *Bilak+i* (*ot+egalik qo‘shimchasi*) asosdagi “k” tovushining “g” tovushiga almashinishi – tovush alshashinishini; *unga* so‘zida: *u+ga* (*olmosh+jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi*) asosdagi bitta “n” orttirilib qolishi – tovush orttirilishi hodisalarini yuzaga keltirmoqda. Shu asnoda bunday o‘zgarishlar bo‘lib turishini ham hisobga olish kerak. Bulardan tahqari quyidagi o‘zgarishlar ham bor:

So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta’siri natijasida ro‘y beradigan tovush o‘zgarishi (fonetik o‘zgarish) - **kombinator o‘zgarish** deyiladi. Bunga **assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatib oladi. Masalan, *xat-ni* – *xatti* (o‘zakdagi *t* tovushi affiks tarkibidagi *n* ni aynan o‘ziga o‘xshash tovush – *t* ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ish+ga* – *ishka* (bunda o‘zakdagi jarangsiz undosh *sh* affiks tarkibidagi jarangli undosh *g* ni o‘ziga qisman o‘xshatadi, ya’ni jarangsiz *k* ga aylantiradi (yozilishi *ishga*). Shunga ko‘ra assimilatsiya ikki xil bo‘ladi: **a) to‘liq assimilatsiya** - so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o‘zi kabi tovushga aylantirishidir: *to‘k+gan* =*to‘kkan*, *yet+di*=*yetti*, *chiq+gan* = *chiqqan*, *tuz+siz*=*tussiz*, *o‘ris+cha*=*o‘richcha* (yozilishi: *yetdi*, *sizni*, *chiqqan*, *tuzsiz*, *o‘rischa*). Bunda tovushlar o‘zaro moslashadi.

2) to‘liqsiz assimilatsiya – so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o‘ziga qisman o‘xshatib olishidir. Masalan: *o‘ch+gan*=*o‘chkan*, *shosh+di*=*shoshti*, *tush+ga*=*tushka* ... (bularda jarangsiz *ch*, *sh* undoshlari affiks tarkibidagi jarangli *g* ni jarangsiz *k* ga, *d* ni esa *t* ga aylantirgan; yozilishi: *o‘chgan*, *shoshdi*, *tushga*). To‘liqsiz assimilatsiyada ba’zan tovushlar o‘rniga ko‘ra ham moslashadi: *shanba* > *shamba*. Bunda *b* lab tovushining ta’sirida *n* til tovushi lab-lab *m* tovushiga aylanadi. Demak, to‘liqsiz assimilatsiyada tovushlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra qisman moslashish holatiga o‘tmaydi. Bunda yonmayon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra va hosil bo‘lish

oʻrniga koʻra moslashadi. Oldin kelgan tovush oʻzidan keyin kelgan tovushni (masalan, *oʻt+di=oʻtti*), shuningdek, keyin kelgan tovush oʻzidan oldin kelgan tovushni (*oʻn bir - oʻmbir*) oʻziga oʻxshatishi mumkin. Shunga koʻra assimilyatsiya yana ikki turga boʻlinadi: **1) progressiv assimilyatsiyada** oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *ot+da = otta* (yozilishi *otda*), *bilak+ga - bilakka* (yozilishi: *bilakka*). **2) regressiv assimilyatsiyada** keyingi tovush oʻzidan oldingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *tanbur - tambur*, *yigit+cha = yigichcha*, *non+voy = novvoy*, (yozilishi: *tanbur*, *yigitcha*, *novvoy*).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman oʻxshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda oʻzgarib, nooʻxshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarur - zaril* (*zarar* soʻzi tarkibidagi ikkita bir xil *r* undoshining biri talaffuzda *l* ga aylangan). Yana qiyoslang: *koridor>kalidor*, *devor>devol*, *nodon>lodon*, *biror>biron* (yozilishi: *zarur*, *koridor*, *devor*, *biror* yoki *biror*, *nodon*).

3. Metateza soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda oʻrin almashuvidir. Masalan: *daryo - dayro* (bunda *r* va *y* undoshlarining oʻzaro oʻrin almashuvi yuz bergan); *ahvol - avhol* (hv-vh), *aylanay - aynalay* (ln-nl), *tuproq-turpoq* (pr-rp); *yogʻmir-yomgʻir* (gʻm- mgʻ); yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *aylanay*, *tuproq*, *yomgʻir*.

Yuqoridagi gapni tahlil qilar ekanmiz, soʻzlar boʻgʻinlarga ajratilib, boʻgʻin turlari aniqlanadi. Bizga maʼlumki, unli bilan tugagan boʻgʻin - ochiq boʻgʻin, undosh bilan tugagan boʻgʻin yopiq boʻgʻin sanaladi. Unli tovushlar bilan boshlangan boʻgʻin - bekitilmagan, undosh tovushlar bilan boshlangan boʻgʻin bekitilgan boʻgʻin sanaladi. Shunga koʻra **“Men shaharga keldim”** gapidagi har bir soʻzni boʻgʻinlarga boʻlib, har bir boʻgʻinning turi topiladi: **“men”** soʻzi bir boʻgʻindan iborat, boʻgʻinning turiga koʻra yopiq boʻgʻin, bekitilgan boʻgʻin hisoblanadi. **“Shaharga”** soʻzi esa uch boʻgʻindan iborat boʻlib (sha-har-ga) birinchi va uchinchi boʻgʻinlar (sha-, -ga)ochiq boʻgʻin, ikkinchi boʻgʻin (-har-) yopiq boʻgʻin, har uchasi (**sha-har-ga**) ham bekitilgan boʻgʻinlar hisoblanadi.

Tahlilning keyingi bosqichida soʻzlarning urgʻulari aniqlanadi. Urgular ikki turli boʻladi: soʻz (leksik urgʻu) urgʻusi, gap (logik, mantiqiy urgʻu) urgʻusi. **Soʻz urgʻusi** soʻz tarkibidagi bironta unli tovushga tushsa(yuklamalar bundan mustasno), **gap urgʻusi** gap tarkibidagi bironta soʻzga tushadi. Bu qoidamiz oʻzbek tilida oson yechim topgan: oʻzbek tilidagi deyarli barcha soʻzlarda soʻz urgʻusi oxirgi boʻgʻindagi unli tovushga tushadi, gap urgʻusi esa kesimdan oldin kelgan soʻzga tushadi. **“Men shaharga keldim”** gapidagi soʻz urgʻulari **“men”** dagi “e” tovushiga, **“shaharga”** soʻzidagi “ga” boʻgʻinining “a” tovushiga, **“keldim”** soʻzida esa “i” unlisiga tushadi.

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, **soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilishi bilan urgʻu ham koʻchib (siljib) boradi.**

Fonetik tahlilning keyingi bosqichida soʻzlar qaysi tamoyil(yozuv qoidasi)ga asosan yozilganligi tahlilga olinadi. Aslini oldanda imloning vazifasi, maktabda imlo qoidalari alohida oʻrganilmaganligi uchun yozuv tamoyillarini

fonetik jihatdan tahlilga kiritib turamiz. Shu o'rinda tamoyillar haqida ham to'xtalib o'tsak.

2. Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differentsiatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). *Bu tamoyil bo'yicha so'zlar, so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o'shanday yoziladi.* Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) *son* so'ziga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan so'z *sona* emas, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Yosh, ot* so'zlariga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan *yasha, ota* so'zlari *yasha, ata* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. 2) *o'yin* so'ziga **-a** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan so'z *o'yna* tarzida (**i** tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi; 3) *sariq, ulug'* so'zlariga fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan so'z *sarg'ay, ulg'ay* tarzida aytiladi va shunday yoziladi; 4) *o'qi, tani, tashi* kabi fe'l formalariga **-v** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'z *tashuv, o'quv, tanuv* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 5) *tara, bo'ya* so'zlariga **o** yasovchi **-q** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *taroq, bo'yoq* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 6) **q** va **k** tovushi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **q** tovushi **g'**, **k** tovushi **g** tovushiga almashadi va shunday yoziladi: *taroq+i= tarog'i, kurak+i=kuragi, istak+i=istagi, o'rtoq+i=o'rtog'i.*

I z o h: q va **k** undoshi bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **q** va **k** tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: *ishtiroki, ishtiyoqi, zavqi, shavqi, choki, cheki.*

7) *og'iz, qorin, o'rin, singil, ko'ngil, burun, shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi **i**, **u**, **a** unlilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *og'iz+im=og'zim, qorin+im=qornim, o'rin+im=o'rnim, singil+im=singlim, ko'ngil+im=ko'nglim, burun+im=burnim, shahar+im=shahrim* (bu so'z *shaharim* tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) adabiy tilda jo'nalish kelishigining **-ga** qo'shimchasi shakli qabul qilingan. Ba'zan bu shakl **-ka**, **-qa** tarzida eshitiladi. Masalan: *bilakka, go'dakka, qishloqqa, tog'ga* kabi. Ko'rinib turibdiki, so'z **q** yoki **k** undoshi bilan tugaganda jo'nalish kelishigi **-qa**, **-ka** shaklini olyapti. Og'zaki talaffuzda so'z qanday tovushlardan tashkil topgan bo'lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti.

9) **q** va **k** undoshi bilan tugagan fe'l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi **-gach** qo'shimchasining **-qach** va **-kach** variantlari qo'shib, *chiqqach, ekkach* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) rus tilidan o'zlashgan *куок, duck* so'zlari o'zbek tilida *kioska, diska* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) o‘zlashma *рама, пара, минута, секунда, конфета* kabi so‘zlarning oxiridagi *a* unlisi o‘zbek tili og‘zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (*rom, par, sekund, minut, konfet* kabi).

12) o‘zlashma *shyotka, podnos* so‘zlari esa *cho‘tka, patnis* tarzida aytiladi va yoziladi.

13) *u, bu, shu, o‘sha* olmoshlariga *–da, –dan, –ga, –gacha, –cha* qo‘shimchalari qo‘shilganda *i* tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, undan, ungacha* va hokazo.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o‘rtasida umumiylikni vujudga keltiradi.

Demak, fonetik tamoyilga ko‘ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo‘llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko‘ra *so‘zlarning tarkibiy qismlari: o‘zak-negiz va qo‘shimchalar og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat’i nazar, ya’ni og‘zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi.* Bu tamoyil so‘z o‘zagini, unga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham beradi. Bu tamoyilga ko‘ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O‘zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya’ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh harflar imlosi hamda asos va qo‘shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan: 1) *uzum, uzuk, tugun, turmush* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida *u* kelsa, keyingi bo‘g‘inida *u* unlisi *i* tarzida aytilsa ham, *u* yoziladi. 2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (*b, d, v, g, j(jim), j(juri), g‘, z*) so‘z oxirida jarangsiz (*p, t, f, k, ch, sh, s*) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: *maktab, ozod*; 3) *shanba, sunbul, manba, vatanparvar* kabi so‘zlar o‘rtasida kelgan *n* undoshi o‘zidan keyin kelgan *b, n, m* undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og‘zaki talaffuzda *shamba, sumbul, mamba* kabi *m* tarzida aytilsa ham, *n* shaklida yoziladi. 4) *do‘st, go‘sht, to‘rt, Toshkent* kabi so‘zlarda so‘z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi; 5) *pastqam* so‘zi o‘rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (*st*) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi; 6) *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi so‘z oxirida kelganda, og‘zaki nutqda *–la* tarzida aytilsa ham, yozuvda *–lar* shaklida yoziladi. 7) *uch, to‘rt* sonlariga *–ta, –ala* qo‘shimchalari qo‘shilganda, *ushta, uchchala, to‘rttala* tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: *uchta, uchala, to‘rtala* kabi.

Shuningdek, qo‘shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya’ni kelishik qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *maktabta, ishtan* tarzida aytilsa ham, *maktabda, ishdan*; fe’llardagi *–di* shaxs-son hamda yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi *–ti* tarzida (*aytipti, aytti*) aytilsa ham, *aytibdi, aytdi* kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining asosiy va yetakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta’minlaydi.

Demak, morfologik tamoyilga ko'ra so'zning tovush tarkibi og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'i nazar o'zining morfologik shaklini o'zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an'anaviy tamoyil (tarixiy-an'anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). *Bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoki o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi.* Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. *Manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot* kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita **a** yoziladi.

2. *Mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama* kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inida **a** og'zaki nutqda qisqa **i** tarzida aytilsa ham, an'anaga ko'ra **a** yoziladi.

3. *Tadbir, tadbiq* so'zlarining birinchi bo'g'ini oxiridagi **d** va **t** undoshlari bir xil **t** tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **d** va **t** undosh harflari saqlanadi.

4. *Dorboz, torozibon* kabi so'zlardagi fors-tojik tilidan o'zlashgan *-boz, -bon* qo'shimchalari og'zaki nutqda *-voz, -von* tarzida aytilsa ham, uning an'anaviy shakli yozuvda saqlanadi.

5. An'anaviy tamoyil *taqozo, hokazo* kabi so'zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi **o** va **a** unilari ba'zan **a**, ba'zan **o** unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan *o (taqozo), a (hokazo)* yozib kelingani uchun hozir ham shunday yoziladi.

6. *Ocherk, tonna* kabi so'zlarining urg'uli bo'g'inida **o** unlisi o'zbek tilidagi **o'** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi.

7. *Direktor, traktor, ekspeditor* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi **o** unlisi og'zaki nutqda qisqa **i** unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi.

8. *Motor, otryad, limonad, konsert, konspekt* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan **o** unlisi talaffuzda **a** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi **o** unlisi bilan yoziladi.

9. *Zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr* so'zlari og'zaki nutqda *zachot, sujet, rejissor, sentabr* tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi.

10. *Rayon, mayor, Nyu-York* so'zlaridagi *yo* harfiy birikmasi og'zaki nutqda *yo'* tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o'sha tildagi an'ana saqlanadi.

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi *-r (-ar)* ning *-ur* shakli ishlatilgan. Bu shakl ba'zan hozirgi she'riyatda ham saqlanadi.

Ba'zan tirnoqlar bezagi uchun

Sahardan shomgacha qilursiz toqat,

Ammo eringizni kutgali nechun

Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)

Mazkur she'rdagi maqsad ma'nosini ifodalovchi *-gani* qo'shimchasi *-gali* tarzida qo'llangan.

Eski o'zbek tilida chiqish kelishigi *-din* ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *-dan* o'rnida qo'llaniladi: *Sendin o'zгани desam...*

So'roq ma'nosini ifodalash uchun *-mi* yuklamasi ba'zan *-mu* tarzida, ya'ni qadimgi shaklda qo'llanadi. Masalan: Qoshi yosunmi deyin, ko'zi qarosinmu deyin.

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differentsiatsiya tamoyili. *Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi.* Masalan:

1. Urg'u vositasida farqlash: *atlás* - mato, material. *Atlas* - geografik atlas, xarita. *Akadémik* - ot, *akademik* - sifat (masalan, *akademik litsey*).

2. Unlining cho'ziq-qisqaligi orqali farqlash (bunday so'zlarda unlining cho'ziqligini tutuq belgisi ta'minlaydi, demak bunday so'zlarning shakli va ma'nosi tutuq belgisiga ko'ra farqlanadi): *tana* – *ta'na*, *surat* – *sur'at*, *qala* – *qal'a* kabi.

3. Boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so'z ma'nosini farqlash: *xol* (yuzdagi xol) – *hol* (ahvol, holat).

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg'aluvchi *j* tovushi bilan qorishiq portlovchi *j* tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan berilishi (*jo'ja-gijda* kabi), sayoz til orqa *-ng* tovushini ifodalovchi harflar birikmasi *ng* hamda *n* va *g* tovushlarini ifodalovchi *n* va *g* harflari yonma-yon kelganda ham *n* va *g* talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: *ko'ngil* – bitta tovush, *senga* - ikkita tovush.

“**Men shaharga keldim**” gapidagi har bir so'z morfologik yozuv tamoyilida yozilgan, yani qanday eshitilsa, shunday yoziladi.

Ko'rinib turibdiki bu tahlil yozma holatda ko'p vaqt oladi, ammo samarasi ta'limni mustahkamlashda qo'l keladi.

Yuqorida keltirgan gapimizni shu asnoda fonetik tahlil qilib olish mumkin. Bu bilan o'quvchi yoshlarni teran fikrlashga, aqliy qobiliyatini rivoj topishiga, bilimlarini oshirishga erishish mumkin.

Amaliyotda to'liq beriladi (ilovada berildi). Yuqoridagi ishlar bajarilgach, mazkur so'z morfologik tahlil qilinadi, so'ngra so'zning lug'aviy ma'nosini aniqlash maqsadida uning ma'nodoshlari va uyadoshlari topiladi, ular ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilinadi. So'zning bunday umumiy tahlili talabaning ona tilidan egallangan bilimlarini takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, qolaversa, bilim ko'nikma va malakalarning amaliy tatbiq darajasini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Lekin grammatik tahlilning o'zi dts da ko'rsatilgan barcha talablarni amalga oshirish uchun kifoya qilmaydi.

Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo‘limlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish, uni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu jarayonda ona tili ta‘limining bo‘limlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi, tilni tizimiy o‘rganishning amaliyotga ijobiy ta‘siri samarasi seziladi.

Fonetikani o‘rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug‘atni boyituvchi xususiyatlariga e‘tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me‘yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to‘liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o‘rganish, tilning boshqa bo‘limlarini ham yaxshi o‘zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

O‘zbek alifbosini o‘rganish ham shu bobga aloqador. Buning ahamiyati to‘la anglansagina, kutilgan samaraga erishish mumkin.

Bugungi kunda yer yuzi aholisi (BMTning internetga bergan ma‘lumotiga ko‘ra 2021-yil) **7 873 000 000** (7.9 milliard)dan oshib ketdi. Mana shu aholi **7000** dan ortiq tilda gaplashadi. Shulardan biri **o‘zbek tilidir**. Dunyo ahli 7000 dan ortiq tilda gaplashishsa ham, ularning yozuvi bor-yo‘g‘i **220** xildir. Shulardan taxminan **3 000 000 000** (3 milliard)dan ortiqrog‘i, ya‘ni 30% dan ziyodrog‘i **Lotin yozuvidan** foydalanishadi. Jumladan, o‘zbek xalqi ham bundan mustasno emas.

Dunyo tillari 20 ga yaqin til oilalariga ajratiladi. Til oilalari bobo til nomi bilan ataladi. Til oilalari o‘z navbatida til turkumlariga bo‘linadi.

O‘zbek tili Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Turkiy tillar 30 ga yaqindir. O‘zbek tili agglyutinativ tillar jumlasiga mansub. Ya‘ni har bir grammatik ma‘no alohida qo‘shimcha yordamida ifodalanadi va bu qo‘shimchalar so‘zning oxiriga qo‘shiladi(A.Nurmonov, A. Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil. 14-bet).

1989-yil 21-oktabr o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi haqida Qonun qabul qilindi. Bu mustaqillik tomon tashlangan birinchi qadam edi. Bu Qonun 1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlisning 4-sessiyasida yangidan tahrir qilindi. O‘zbek tiliga bunday maqomning berilishi bilan ona tilida ham yangicha bir o‘zgarish bo‘lishi aniq edi. Shu o‘zgarish haqidagi dastlabki qaror 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24 avgustdagi 339-sonli qarori asosida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi.

18 §. Leksikologiya bo‘limini o‘qitish metodikasi: leksik tahlil metodikasi.

Lug‘at va uning turlarini o‘qitishning o‘ziga xosligi

Leksikologiyani o‘rganish metodikasi. Leksikologiya (yunoncha lexis – so‘z, logos – fan, ta’limot) so‘z haqidagi fan bo‘lib (uni o‘zbek tilida so‘zshunoslik deb ham atashadi), muayyan tilda ishlatiladigan barcha so‘zlar shu tilning lug‘at boyligini tashkil qiladi.

Tilshunoslikning bu bo‘limi so‘z va uning ma’nolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shu sababli, leksikologiya o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega.

Leksikologiyani o‘rganish jarayonida so‘zning grammatik hamda lug‘aviy, o‘z va ko‘chma ma’nolari, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’no ko‘chish usullari, ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma’nosi farq qiluvchi – paronim so‘zlar, umumxalq ko‘p ishlatadigan va kam ishlatadigan so‘zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo‘lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so‘zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi.

Leksikologiya haqida umumiy ma’lumot. Leksikologiya (grekcha – lexis – “lug‘atga (so‘zga) oid”, logos – “ta’limot”, “fikir”) o‘zbek tili kursining lug‘at tarkibi (leksikasi)ni o‘rganadigan bo‘limidir. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi **leksika(so‘z)** deyiladi. Bu so‘zlar shu tilning lug‘at boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lug‘at tarkibini ikki tomonlama: 1) **ichki** va 2) **tashqi** tomondan tekshiradi. Tilning lug‘at tarkibini ichki tomondan o‘rganadigan sohasi **semasiologiya** (grekcha semasio – “belgi”, “tamg‘a” va logos – “ta’limot”) deb yuritiladi. Unda so‘z va iboralarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati o‘rganiladi. Har qanday so‘z tilda paydo bo‘lishi bilan o‘zining shakli va ma’nosiga ega bo‘ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So‘zdagi ma’no turli ta’sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so‘z hamda turg‘un iboralarning ma’no xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **etimologiya** (grekcha etymon – “haqiqat”, logos – “ta’minot”) deb yuritiladi. U tilning lug‘at tarkibidagi so‘z va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama so‘zlarning va boshqa tillardan kirgan so‘zlarning ma’noli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya so‘zning ikki tomonini, ya’ni ichki – ma’no tomonini hamda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi.

Leksikologiya tashqi tomondan lug‘at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug‘at tarkibida sodir bo‘layotgan turli o‘zgarishlarni, so‘zlarning qo‘llanish darajasini, ba’zi so‘zlarning eskirib iste’moldan chiqib ketishini (*sekretar, oblast* kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi so‘zlar hisobiga boyishini, ba’zi so‘zlar ma’nosida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni (ma’no ko‘chish hodisasini) o‘rganadi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **leksikografiya** deb yuritiladi. Leksikografiyaning vazifasi tildagi so‘zlarni yozma ravishda to‘plashdir.

Leksikografiya soʻz va iboralarni maʼlum bir sohalar boʻyicha toʻplab, muayyan tartibga keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lugʻat kitoblari shaklida nashr etadi.

Leksikologiya tilning fonetika va grammatika boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Fonetika nutq tovushlarini oʻrganadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan soʻzni, grammatika oʻz qonun-qoidalari asosida soʻzlarni oʻzaro bogʻlaydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush boʻlmasa, soʻz boʻlmaydi, soʻz boʻlmasa grammatikaning ham boʻlishi mumkin emas.

Maʼlumki, soʻzlovchi tilning lugʻat tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan oʻzaro bogʻliq ekanini bildiradi.

Lugʻat tarkibi shu tilda soʻzlashuvchi xalqlarning moddiy va maʼnaviy madaniyat tarixi bilan bogʻliq. Shuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

Tilshunoslikning leksikologiya boʻlimi yuzasidan qilinadigan tahlillarni quyidagi jadval asosida amalga oshirish mumkin:

Leksik tahlil namunasi
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Soʻzning lugʻaviy maʼnosi topiladi;</i>2. <i>Soʻzning bir maʼnoli yoki koʻp maʼnoli ekanligi aniqlanadi;</i>3. <i>Maʼno koʻchgan boʻlsa, koʻchish usuli aniqlanadi;</i>4. <i>Soʻzning shakldoshlik (omonimlik), maʼnodoshlik (sinonimlik), zid maʼnoliligi (antonimlik), bir-biriga yaqin soʻzlar (paronimlik) xususiyati aniqlanadi;</i>5. <i>Umumxalq ishlatadigan soʻzmi yoki umumxalq ishlatmaydigan soʻzmi?</i>6. <i>Ibora mavjud boʻlsa, uning maʼnosi izohlanadi.</i>

Soʻz til birligi sifatida maʼno anglatish xususiyatiga ega. Har bir soʻzning oʻz maʼnosi bor va bundan tashqari qoʻhimcha maʼno ham anglatishi mumkin. Soʻzlar bir-biri bilan munosabatga kirishadi va yangi maʼnolar kasb etadi. Baʼzi soʻzlarning maʼnolari boshqalari bilan munosabatga kirishishi bilan aniqlanadi.

Inson borliqdagi narsalar va ongidagi tushunchalarni maʼlum bir soʻz bilan ifodalaydi. Shu tariqa har bir tushunchaning nomi kelib chiqadi. Soʻzlar haddan ziyod koʻpayib ketmasligi uchun bir soʻzga bir necha maʼno yuklanadi, yoki aksincha, bir soʻzning ham maʼnodoshlari koʻpayib ketishi ham mumkin. Bu tilshunoslikda soʻzlarning shakl va maʼno munosabatini shakllantirib beradi.

Yuqorida keltirilgani kabi leksikologiyada ham oʻziga xos tahlillash turlari mavjud. Biz sizga buni bir gap misolida tahlil qilib koʻrsatamiz: **“Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini koʻtarib jingalak sochga qaradi-da, koʻzini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi”** gapini olaylik.

Yuqoridagi gapni leksik tahlil qilish uchun dastlab undagi soʻzlar miqdorini aniqlab olamiz. Soʻngra soʻzlarning lugʻaviy maʼnolarini va tuzilishiga koʻra turlarini (aslida tuzilishiga koʻra turi tilshunoslikning grammatika boʻlimi tarkibidagi morfologiya qismida oʻrganilishi lozim) aniqlaymiz.

“Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini koʻtarib jingalak sochga qaradi-da, koʻzini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi” gapida 15 ta

soʻz mavjud. Shundan (3 ta soʻzdan iborat ibora ham soʻz sifatida– yoqa ushlab qoldi) 13 tasi sodda soʻz, 1 tasi juft (qarama-qarshi) soʻz va 1 tasi takroriy soʻz hisoblanadi.

“**Yaxshi-yomon**” – **Yaxshi-1**. Ijobiy sifatga ega boʻlgan, birorta talabga toʻla javob beradigan, kishiga yoqadigan, maʼqul boʻladigan

. **Yomon**- Sifatsiz, sifati past.

“**Farq**” – Biror predmetni, voqea-hodisani uning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra boshqalaridan ajrata bilmoq, ular orasidagi tafovutni seza olmoq.

“**Bor**” – Joʻnalish kelishigi shaklidagi ayrim mavhum otlar bilan ishlatiladi va maʼnosiga koʻra bosh kelishik shaklidagi ayni shunday otlar bilan kelgan “qilmoq” soʻziga toʻgʻri keladi (**asl maʼnosi**: soʻzlovchining turgan joyidan uzoqlashmoq, nari ketmoq; biror joy(manzil)dan ikkinchi joy(manzil) tomon harakat qilmoq, yoʻl olmoq; naridagi biror manzilga yetmoq). Bu soʻzning yuqorigi manbada 17 ta maʼnosi izohlangan.

“**Anvar**” – Eng nurli, nur sochuvchi, yorugʻ, porloq. **2**. Erkaklar ismi.

“**Bosh**” – Tananing boʻyindan yuqorigi, oldingi (odamda hayvonlarda) qismi. Ushbu soʻzning yuqoridagi manbada 20 ta maʼnosi keltirilgan. Biz gap tarkibidagi maʼnosini keltirdik.

“**Koʻtarib**” – Yuqori, baland holatda tutmoq, yuqoriga chiqarmoq (**asl maʼnosi**: yerdan yoki yotgan joyidan uzib, ajratib olmoq).

“**Jingalak**” – Tabiiy yoki sunʼiy ravishda halqa yoki yarim halqa shaklida buralgan, qoʻngʻiroq (soch, jun haqida).

“**Soch**” – Odamning bosh terisida oʻsadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri.

“**Qara**” – Koʻrish uchun koʻzni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yoʻnaltirmoq, koʻz tashlamoq, nazar solmoq; boqmoq.

“**Koʻz**” – Tirik mavjudotning koʻrish aʼzosi.

“**Katta-katta**” – **Katta**. Hajmi, oʻlchami meʼyoridan yoki nisbatan ortiq; ulkan¹. Lugʻatda 8 ta maʼnosi keltirilgan.

“**Ochib**” – Yozmoq, yoymoq, kermaq (taxlangan, buklangan, yigʻilgan, yumilgan narsalar haqida). **Asl maʼnosi**: yoʻlni toʻsib turgan narsani bir tomonga surib, koʻtarib qoʻyib, kirish yoki chiqishga imkon tugʻdirmoq.

“**Yoqa**” – Kiyimning boʻyin oʻrni uchun ochilgan qismi.

“**Ushla**” – Qoʻl, panja, barmoq(lar) orasiga olmoq, shunday holda tutmoq. Lugʻatda bu soʻzning 9 ta maʼnosi izohlangan.

“**Qolmoq**” – Boshqa joyga ketmay, bormay, jilmay, qoʻzgʻalmay, oʻz joyida boʻlmoq; joyini tark etmaslik.

(Yuqoridagi 3 ta soʻz **yoqa ushlab qoldi** ibora sifatida kelmoqda. Iboralarni butun holda tahlil qilish ham mumkin. Biroq maʼlumotlarni aniqlatish maqsadida ibora tarkibidagi har bir soʻzlarni tahlil qilib koʻrdik.)

Oʻzbek leksikasidagi soʻzlar bir maʼnoli yoki koʻp maʼnoli boʻlishi mumkin. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir maʼnoni ifoda

¹ “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, Toshkent 2006 – yil, II tom, 333-bet

etuvchi o‘zlar **bir ma’noli so‘zlar** deyiladi. Masalan, *kompas, marmar, morfologiya, g‘oya, mimika, qobiliyat, fonema* va b.

So‘zlar ba‘zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma’noni, gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda boshqa bir ma’no anglatishi mumkin. Masalan, *pasaymoq* so‘zi gapdan tashqarida olinganda yerga tomon yaqinlashmoq ma’nosini bildiradi. Gap tarkibida esa “*bilimi pasaydi*”, “*ko‘rish sezgisi pasaydi*” kabi boshqa ma’nolarni bildiradi.

Bu so‘zlar birdan ortiq leksik ma’no ifodalayotgani uchun ko‘p ma’noli so‘z sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma’no, nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda yana boshqa ma’no ifodalovchi so‘zlar **ko‘p ma’noli so‘zlar** deyiladi.

So‘zlarni bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanligini aniqlab olamiz. “*Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko‘tarib jingalak sochga qaradi-da, ko‘zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi*” gapida 15 ta so‘zlarni bir-bir ko‘rib chiqishimiz lozim.

“**Yaxshi-yomon**” – bir ma’noli so‘z;

“**Farq**” – bir ma’noli so‘z;

“**Bor**” – bir ma’noli so‘z;

“**Anvar**” – bir ma’noli so‘z;

“**Bosh**” – ko‘p ma’noli so‘z: 1. ot-kalla ma’nosida, 2. ko‘chma ma’noda-aql-hush(boshi bilan ish qilmoq), 3. boshliq rahbar(yaxshi yigit-davraning boshi), 4. Lavozim mansab-bosh vrach, 5. Katta ma’nosi- bosh harf, 6. Bir bosh uzum-hosil birligi va boshqalar. Bosh so‘zining izohli lug‘atda 20 ta ma’nosi keltirilgan.

“**Ko‘tarib**” – bir ma’noli so‘z; gap tarkiboga kirganida ma’no ko‘chirish xususiyatiga ega: *qarz ko‘tarmoq*.

“**Jingalak**” – bir ma’noli so‘z;

“**Soch**” – ko‘p ma’noli so‘z: 1- urug‘ soch-harakat ma’nosida; 2-. Dardini sochmoq ma’nosida.

“**Qara**” – bir ma’noli so‘z;

“**Ko‘z**” – ko‘p ma’noli so‘z: 1-ko‘rish a’zosi, 2-nazar, nigoh tashlash ma’nosi, 3- ko‘rish qobiliyati, 4-ko‘chma ma’noda derazaning ko‘zi, uzukning ko‘zi, ishning ko‘zi kabilar.

“**Katta-katta**” – ko‘p ma’noli so‘z; 1. Sifat-katta bola, 2. Yoshi jihatdan ulug‘-katta odam, 3. Xizmatdagi martabasi-katta ilmiy xodim va boshqalar.

“**Ochib**” – ko‘p ma’noli so‘z; 1- sandiqni ochmoq, 2-qalbini ochmoq, 3-jinoyatni ochgan, 4-chiqarmoq, jo‘ja ochmoq va boshqalar.

“**Yoqa**” – ko‘p ma’noli so‘z; 1-Kiyimning bo‘yin o‘rni uchun ochilgan qismi, ko‘ylakning yoqasi, 2-sohil, qirg‘oq, suv yoqasi.

“**Ushla**” – bir ma’noli so‘z;

“**Qol**” – bir ma’noli so‘z;(ma’no ko‘chish xususiyati kuchli)

Soʻz maʼnosining koʻchishi olti xil boʻlib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik; 6) tag maʼno yoʻli bilan koʻchish.

Metafora (grekcha metaphora – “koʻchirma”) narsa va hodisalar orasidagi oʻxshashlik asosida ulardan birining ifodasi boʻlgan soʻzni ikkinchisini ifodalash uchun qoʻllashdir. Metaforada shakliy oʻxshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli ot, sifat va feʼl turkumlarida metafora yoʻli bilan koʻchish hodisasi mavjud. Masalan, tish, yengil, pasaydi soʻzlarining maʼnosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh maʼno); 2) arraning tishi (yasama maʼno). Yengil: 1) yengil eshik (bosh maʼno); 2) *yengil taʼzim* (yasama maʼno). Pasaydi: 1) samolyot pasaydi (bosh maʼno); 2) bilimi pasaydi (yasama maʼno).

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar oʻrtasidagi aloqadorlik asosida maʼno koʻchish hodisasi. Bu aloqadorlik oʻrin va vaqt jihatdan boʻladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud boʻladi. Quyidagi gaplardagi soʻzlarning maʼno munosabatini kuzating: Navoiyni oʻqimoq – Navoiy yozgan biror asarni oʻqimoq, Navoiyni emas. Bir piyola ichmoq – suv ichmoq, piyolani emas.

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismi nomini aytish bilan oʻzini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan maʼno koʻchish hodisasi. Masalan: Besh qoʻl barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda oʻzimizdan qoladigan tuyogʻimiz – shu.

Kinoya – soʻzlarning aks maʼnoda qoʻllash hodisasi. Bunday koʻchishlar yozuvda qoʻshirnoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa «doʻstlar»ning kamroq boʻlgani maʼqul.*

Vazifadoshlik asosida maʼno koʻchishi – narsalarning bajaradigan vazifasining oʻxshashligi asosida maʼno koʻchish hodisasi. Maʼnoning bunday koʻchishi metaforadagi kabi oʻxshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga taʼsir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida maʼno koʻchishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, oʻq, siyoh, qalam kabi soʻzlarning maʼnolaridagi koʻchish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan oʻxshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitli yozuv quroli paydo boʻlgandan soʻng, uni karandash qalam deb, keyin esa toʻgʻ ridan toʻgʻ ri qalam deb atay berganlar.

Oʻq - yoy oʻqi; oʻq - miltiq oʻqi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan oʻxshashdir).

Siyoh soʻzi tojik tilida «qora» degan maʼnoni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda boʻlgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qoʻllanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, koʻk, yashil) ham vazifasining oʻxshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl maʼnosi qizil qora), koʻk siyoh (asl maʼnosi koʻk qora).

Tag ma'no – Ifodalanayotgan gapning ko'chma ma'nosi. Odatda bunga latifalar ko'proq misol bo'la oladi. Chunki ulardan anglashilgan ma'no oxirigi so'zni eshitmasdan turib anglashilmaydi. Afandining xotini bir afandini mot qilmoqchi bo'libdi. Ko'chada ketayotganida yonidan eshak chiqib qolibdi. Shunda xotini afandiga qarab: dadasi, qarang qarindoshingiz, so'rashib qo'yimaysizmi, debdi. Shunda afandi: to'g'ri aytasan, bu qarindoshlarimizdan faqat xotin tomondan-da debdi. Ko'rinib turibdiki, voqea tugamasdan unga yashiringan ma'noni bilib bo'lmaydi. Ma'no anglashimiz uchun oxirigacha eshitib olib, tagida yshiringan "sening o'zing eshaklarning qarindoshisan" mazmunini bilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, tahlilga tortgan gapimizda ma'no ko'chishlarining qaysilari borligini aniqlab olamiz.

“Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko'tarib jingalak sochga qaradi-da, ko'zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi” ushbu gapda ma'no ko'chishining sinekdoxa turi mavjud: “jingalak soch” birikmasi sochga nisbatan emas, balki odamga nisbatan qo'llanmoqda. Qism orqali butunni ifodalamoqda.

Leksik tahlilning keyingi bosqichida so'zning shakl va ma'no munosabati inobatga olinadi. Dastlab shakldosh(omonim) so'zlarni topamiz. **“Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko'tarib jingalak sochga qaradi-da, ko'zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi”** gapida shakldosh so'zlar 3 tani tashkil etadi. Bular: borgan so'zining asosi - bor, sochga so'zining asosi - soch, ochib so'zining asosi- och. Shakldosh so'zlarni ko'p ma'noli so'zlardan ajrata bilish lozim. Ko'p ma'noli so'z shakldoshga o'xshaydi, ammo ular tarkibidagi so'zlar o'rtasida ichki bog'lanish mavjud. Masalan: ko'z – uzukning ko'zi, taxtaning ko'zi, odamning ko'zi, elakning ko'zi birikmalarida ko'z so'zi turli ma'nolarda kelmoqda. Biroq ular orasida bog'liqlik bor. Ko'zning ko'rinishi asosiy tanadan ko'rinib turadigan teshikka o'xshash narsa. Bu taxtada ham, odamda ham, uzukda ham, elakda ham shu funksiyani bajarganligi bois **ko'z** deb yuritiladi. Bir so'z ko'p ma'noda kelganligi uchun ko'p ma'noli so'z deyiladi.

Shakldosh so'zlar bir-biri bilan umuman aloqasi bo'lmagan turli so'zlar bo'ladi. Masalan, borgan so'zining asosi – bor so'zi 4 ta mustaqil so'zga ma'no beradi:

1. Bor– harakat. Masalan: **Bor**ib aytib kel.
2. Bor– ot, yozuv quroli. Masalan: **Bor**ni olib xattaxtaga yoz.
3. Bor– tasdiq so'z. Masalan: Kitoblaringiz bormi? Ha, **bor**.
4. Bor – ot. Masalan: **Bor** vodorod bilan reaksiyaga kirishmaydigan element.

Sochga so'zining asosi – soch morfemasi esa 3 ta mustaqil ma'no anglatadi:

1. Soch– harakat. Masalan: Dehqonlar yaxshi niyatda yerga urug' **soch**adilar.

2. Soch – ot. Masalan: Kalda **soch** bo‘lmaganligi uchun taroqning ham keragi bo‘lmaydi.

3. Soch– ot. Masalan: qushlarning ichida **sochning** sayrashi nimagadir menga yoqmaydi.

Ochib so‘zining asosi- och morfemasi esa 3 ta mustaqil ma’noga ega:

1. Och– harakat. Masalan: Eshik sekin **ochilib**, mayin shabboda kira boshladi.

2. Och– sifat. Masalan: Gunohing shuki, qornim **ochligida** yo‘liqding.

3. Och – sifat. Masalan: matongizni to‘qroq rangi bormi yoki faqat **och** rangdagilari qolganmi?

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, bu ma’nolar bir-biriga aloqasi yo‘q bo‘lgan alohida tushunchalarni ifodalamoqda. Boshqacha aytganda, umuman aloqasi yo‘q so‘zlarning bir shaklga kelib qolgan variantlari hisoblanadi.

Endi gapimizdagi so‘zlarning ma’nodoshlarini topamiz:

“**Yaxshi**” – ajoyib, (yoqimli), o‘rtacha...

“**Yomon**” – xunuk, rasvo, qoniqarsiz...

“**Farq**” – tafovut, (oraliq)...

“**Bor**” – ket, ..

“**Anvar**” – -

“**Bosh**” – 1. Kalla... ; 2. Ko‘chma ma’noda-aql, hush(boshi bilan ish qilmoq); 3. Rahbar(yaxshi yigit-davraning bos hi); 4. Lavozim mansab-katta(bosh) vrach, 5. Katta ma’nosi-katta (bosh) harf, 6. Bir tup (bosh) uzum-hosil birligi va boshqalar.

“**Ko‘tarib**” – yerdan uzmoq, olmoq...

“**Jingalak**” – yumaloq, aylana(aylangan)...

“**Soch**” – 1- sep, tarqat...; 2-. Dardini aytmoq(sochmoq)...

“**Qara**” – tikil, ko‘rmoq, nazar tashla...

“**Ko‘z**” – O‘z ma’nosida sinonimi yo‘q. Nazar, nigoh, (ko‘z tashlash ma’nosi)...

“**Katta**” – ulkan, bahaybat, ulug‘...

“**Ochib**” – o‘z ma’nosida sinonimi yo‘q

“**Yoqa**” – chekka, yon (sohil chekkasida)...

“**Ushla**” – Juda yaqin keladigan sinonimi yo‘q. Tushunish uchun:(ma, ol), qismoq ma’nolari berilmoqda.

“**Qol**” – Juda yaqin keladigan sinonimi yo‘q. Ketma, shu yerda bo‘l...

Gap tarkibida zid ma’noli so‘zlar bo‘lsa ular ham topiladi: “**Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko‘tarib jingalak sochga qaradida, ko‘zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi**”

Yaxshi-yomon gap tarkibida bitta qarama-qarshi so‘z bor. Iloji bo‘lsa qolgan so‘zlarning ham qarama-qarshilari topiladi:

“**Bor**” – yo‘q

“**Bosh**” – oxir

“**Ko‘tarib**” – tushurib

“**Soch**” –termoq

“**Katta**” – kichik

“**Ochib**” – yopib

“**Yoqa**” – chekka, yon (sohil chekkasida)...

“**Ushla**” – qo‘yvor

Gapda paronimlar ham topiladi. Bizning gapimizda paronim so‘zlar ishtirok etmagan. Shundoq bo‘lsa ham ba‘zi so‘zlarning paronimlarini topish mumkin: yaxshi-baxshi, yomon-tomon, bosh-tosh, ko‘tar-ko‘kar, soch-qoch, yoqa-yog‘a, qoldi-toldi...

Tahlilning keyingi bosqichida umumxalq ishlatadigan so‘zlar, eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar bo‘lsa ular ham topiladi:

“**Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko‘tarib jingalak sochga qaradi-da, ko‘zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi**” gapida eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar, shevaga xos so‘zlar ishtirok etmagan.

Tahlilning keyingi bosqichida iboralar topiladi va ma‘nosi izohlanadi.

Tahlilga tortgan gapimizda 1 dona ibora bor: “yoqasini ushlab qolmoq”, ya‘ni hayratlanmoq so‘ziga teng.

Shunday qilib, biz leksik tahlilni kengroq tartibda amalga oshirdik. Dars jarayonlarida bu ish ancha osonlashadi va og‘zaki nutqda vaqtini tejaydi.

Talabalar nutqning go‘zalligi, izchilligi, ta‘sirchanligi asosan ularning lug‘at boyligi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejarigacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar o‘rganadigan so‘zlar lug‘ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qator xususiyatlar e‘tiborga olinadi. Xususan:

– so‘zlarning amaliy ahamiyati, ya‘ni butun ta‘lim jarayoni uchun ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar;

– so‘zlarning amaliyotda qo‘llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo‘llanishi;

– so‘z ma‘nosining to‘la tushunilishi, o‘rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

So‘zlarning shakl va ma‘no munosabatlariga ko‘ra turlari. Tilimizda ayrim so‘zlar o‘zlariga xos xususiyatlariga ko‘ra ma‘noviy, shakliy, ma‘no jihatdan o‘xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko‘ra ular shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli va paronim so‘zlar kabi guruhlarga bo‘linadi.

So‘z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko‘pqrrali. Shunga erishish lozimki, o‘quvchi yangi va notanish so‘zga e‘tiborsiz bo‘lmasin. Uning ma‘nosini anglashga, zarur paytlarda o‘z nutqda qo‘llashga harakat qiladigan bo‘lsin.

Ma‘nodosh so‘zlar (sinonimlar) ustida ishlash usullari. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sinonimiya hodisalari va uning nutqiy amaliyotini o‘rganish uchun maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta‘lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud. Ularning orasida eng keng tarqalganlaridan biri sinonim so‘zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o‘quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo‘lishi mumkin.

O'quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so'zlarni o'z lug'at boyliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlatiladigan so'zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi.

Bu xildagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun: berilgan so'zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so'zlarni ajratib yozish; sinonim so'zlar asosida saylanma diktant o'tkazish; har bir sinonim so'zning ma'no noziklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin.

Eng oxirgi turkumdagi vazifalar talabalarning yangi so'zlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlarida eng ko'p darajada yordam beradi. Bu jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo'lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni topish asosiy o'rin tutadi. Masalan, jahl, achchiq, g'azab, qahr, zarda so'zlarini ko'raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma'no nojo'ya xatti harakat yoki hodisaga nisbatan qo'zg'algan kuchli darajadagi his tuyg'u va uning ifodasidir.

Mazkur so'zning ma'nolarini aniqlashda "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalanish mumkin:

Achchiq – qahr, jahl; zarda.

Zarda – ko'chma. Jahl, g'azab, zug'um.

Qahr – qattiq achchiqlanish holati; g'azab.

G'azab – kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl.

Keyingi bosqichda shu qatordan barcha so'zlar uchun umumiy bo'lganlarini (jahl, achchiq), ulardan belgining darajasi nisbatan kuchli va yuqori bo'lganlarini (g'azab, qahr) ajratish mumkin bo'ladi.

Ushbu qatordagi so'zlarni ma'noning kuchayib borishi yoki pasayib borishi yo'nalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi samara beradi. Bunda ham o'quvchilar so'z ma'nolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur so'zlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida o'quvchilar so'zlarning faol yoki passiv darajadagi iste'molini ("barvasta" oddiy nutqda juda kam ishlatiladi, "gavdali" esa juda faol qo'llanadi), ularning muayyan yo'nalishdagi chegaralanishini ("norg'ul" asosan yosh, yigit kishilargagina nisbatan qo'llanadi), ayrim hollarda ularning emotsional bo'yoqqa ega bo'lishini ("barzangi" asosan salbiy ma'no tashiydi) anglab yetishadi.

Bu sinonimlarni nutq jarayonida qo'llash orqali ham o'quvchilarning sinonim so'zlarga bog'liq bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir so'zning o'rniga boshqasini qo'llab bo'lmasligini, bordi yu qo'llanganda ham u yerdagi ma'noning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, ko'rishadi. Sinonimlar ustidagi ishlar o'quvchilar nutq boyligini oshiradi, ularning bitta ma'noni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikrning nisbatan aniq, lo'nda va tiniq ifodalashga

o'rgatadi. Shuning uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga ko'proq murojaaaat etish, o'quvchilarning bevosita izohli lug'atlar ustida ishlashlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashning shakl va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini talabalarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, nazorat testlari tuzish va ularni guruh oldida himoya qilish o'ta foydali o'quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Bunday ijodiy-amaliy ishlar, og'zaki nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

Shakldosh so'zlarni chuqur o'rganish talabalar so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini yuksaltirishda nozik qochirimlardan foydalanish, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Paronim so'zlar ustida ishlash. Tovushlar soni va turi jihatdan teng bo'lmasa-da, talaffuzda o'xshash bo'lgan paronimlar shakldoshlarga ko'p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakliy, ma'noviy hamda qo'llanishi doirasida quyidagi ma'no guruhlariga ajratish, o'rganish yaxshi natija beradi:

– bir ikki ba'zan undan ortiq tovushga ko'ra qisman farqlanuvchi shakliy umumiylikning mavjudligi: tahlil – tahrir, matbuot – matlubot, taqlid – taxlit kabi.

– paronim juftliklar o'rtasidagi tovush almashtirish va ma'no munosabatining turli xilligi: arosat – asorat, arg'uvon-armug'on kabi;

– leksik ma'nolarida umumiy semantik qrralar mavjudligi: tanglay – manglay, kift – kaft, jiyron – jayron kabi;

– leksik ma'nolari nisbatan yaqinligi, o'xshashligi: mahrum – marhum, mahram kabi;

– ma'lum tomonlari bilan ma'nodosh munosabatda bo'lishlik: bekinmoq-biqnmoq, nihon – pinhon, kurtak – murtak kabi.

– zidlanishdagi ma'lum umumiylik hollari: e'tiroz-e'tirof, bema'ni – bama'ni, import – eksport kabi.

Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi bunday xatoning oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakliy, ma'noviy bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharhlash, ularni so'z birikmasi va gap ichida qo'llash kabi amaliy ishlardan foydalanishi nihoyatda zarur.

Namuna: matbuotda (gazeta, jurnal) e'lon qilindi. Matlubot – iste'mol hamkorligi, keng iste'mol mollari; asorat – qoldiq, shamollash asorati, yomon asorat, arosat – ikkilanmoq, ikki yo'l orasida (arosatda) qolmoq; bog'cha – kichik bog'; bog'cha – maktabgacha tarbiya maskani; o'qituvchi mehnatiga tahsin aytmoq – alisher hirot va mashhadda tahsil ko'rdi.

Xullas, talabaning nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so'zlarning har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va

gap tuzish, soʻz oʻyinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli soʻzlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lugʻatlardan foydalanib, soʻz maʼnolarini sharhlash, xilma-xil iboralar, matal va hikmatli soʻzlardan foydalanib matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarishi keyingi pedagoglik faoliyatida oʻta foydalidir.

Kam ishlatiladigan soʻzlar. Kam ishlatiladigan soʻzlar ustida ishlashda berilgan soʻzlarni fanlarga oid, kasb-hunarga oid, shevaga oid, tarixiy soʻzlar kabi guruhlariga ajratish, guruhlarni mustaqil davom ettirish, shunday soʻzlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy eʼtiborni kam ishlatiladigan soʻzlar maʼnosi va ularning nutqda qoʻllanishiga qaratilishi darkor. Atamalar (terminologiya) shunday soʻzlar jumlasiga kiradi.

Har bir fan uning oʻzigagina xos boʻlgan, muayyan atamalar tizimiga ega. Shunday ekan, ularni bilish, tushunish, keng va tor maʼnolarini farqlay olish, toʻgʻri ishlatish bilan birga fan, kasb-kor uchun xos boʻlgan atamalar sirasini oʻzlashtirishlariga erishish mashgʻulotlarning asosiy vazifalaridan biri boʻlishi kerak.

Atamalarni oʻrganishda talabalarga tanish va yaqin boʻlgan kasb-hunarga oid soʻzlar lugʻatini tuzish, ularni izohlash va shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish va matnlar yaratishga oid topshiriqlarni bajarish samarali natija beradi.

Olinma soʻzlar ustida ishlash. Boshqa tillardan kirib, oʻzbek tiliga oʻzlashib qolgan soʻzlar – olinma soʻzlar hisoblanadi. Ularni ogʻzaki va yozma nutqda bemaʼlol ishlatish uchun ular anglatgan maʼno talabalar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy atamalar borasida olinma soʻzlar muhim mavqega ega. Aniq fanlarga xos “kvadrat”, “kub”, tilshunoslikdagi “morfologiya”, “sintaksis”, “leksikologiya”, kundalik turmushda ishlatiladigan AKT, kompyuter, disket, kasseta kabi atamalarni almashtirish oʻzbek xalqni jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.

Tilimizda maktab, maorif, mashq, tolib (talaba) kabi arabcha; barg, daraxt, shirin kabi forscha – tojikcha; lagʻmon, shiypon kabi xitoycha soʻzlar mavjud; rus tili va u orqali boshqa xorij tillaridan kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (nemischa), palto, triko (frantsuzcha), klub, futbol, biznes, kompyuter (inglizcha), tomat, limon (ispancha) kabi atamalar ham oʻzbek tilida keng isteʼmol qilinadigan va oʻzlashgan soʻzlar qatoriga kiritiladi.

Bunday soʻzlarning maʼnosini sharhlash, imlosi va maʼnosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli sohalar boʻyicha olinma soʻzlarning roʻyxatini olish, ularning lugʻaviy maʼnolari ustida ishlash, olinma soʻzlardan soʻz birikmalari va gaplar tuzish kabi amaliy ishlar izchillik va oʻzaro uygʻunlikda olib borilsagina, bunday soʻzlar talabalar soʻz boyligini oshirish, ularning nutqiy koʻnikma va malakalarini shakllantirish, matn yaratish mahoratining oshishiga xizmat qiladi.

Nutqmizda kvadrat, kub, grammatika, leksika, stol, stul, shkaf, palto, kostyum, tufli, botinka, traktor, kombayn, rektor, universitet, professor,

kompyuter, multimedia, kodoskop kabi ko'pgina so'z va atamalar borki, ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj ham, zurrat ham yo'q.

Ibora va tasviriy ifodalar ustida ishlash. Talaba lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qiladi. Ma'nosi va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqmizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir.

O'quvchilar badiiy asarni o'qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar, mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

Tasviriy ifodalar – (po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mexanik – haydovchi o'rnida); zangori ekran, oynai jahon (televizor); qanotli do'stlar (qushlar); oq oltin (paxta)) dan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi.

Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma'nolarini sharhlash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ravon, aniq, ta'sirchan uslub tuyg'usi tilning barcha sohalarini o'rganish jarayonida, til birliklarida (tovush, so'z, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), so'zlarning ma'no va shakl munosabatlari asosidagi bog'lanishlarni taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish, barcha ona tili o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun o'zbek tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi o'quvchi so'z boyligini oshirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini uslubiyat bilan bog'liq holda o'rganish hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbek tili kursining "Muqaddima"si nimaga bag'ishlangan?
2. "Izchil kurs"ga ajratish sabablari nimada?
3. O'zbek tili kursini o'qitishning maqsad va vazifalarini izohlang.
4. Fonetika bo'limini o'qitish metodikasi haqida ma'lumot bering.
5. Grafika, orfoepiya va orfografiya bo'limlari bilan uzviy bo'g'liqligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Leksikologiya bo'limini o'qitish metodikasi bo'yicha qanday metodlarni bilib oldingiz?
7. Leksik tahlil metodikasini qanday tushunasiz?
8. Lug'at va uning turlarini o'qitishning o'ziga xosligi nimada?
9. "Lotin alifbasiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunda ko'tarilgan asosiy masala nima?
10. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining rivojlanishi va hozirgi holati qanday?
11. O'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Tayanch soʻz va iboralar:

“Muqaddima” va “Izchil kurs”, ta’limning tarbiyaviyligi prinsipi, ilmiylik va tushunarlik prinsiplari, tizimlilik, izchillik prinsipi, mustaqillik va faollik prinsipi, koʻrsatmalilik prinsipi, fonetikani oʻrganish metodikasi, tillarning geneologik tasnifi, fonologiya, assimilatsiyada, dissimilatsiya, metateza, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, shakliy an’anaviy tamoyil, differentsiatsiya tamoyili, grafik tamoyil, leksikologiyani oʻrganish metodikasi, leksika(soʻz), etimologiya, leksikografiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, vazifadoshlik, tag ma’no, soʻzlarning shakl va ma’no munosabatlariga koʻra turlari, zid ma’noli soʻzlar ustida ishlash, shakldosh soʻzlar ustida ishlash, paronim soʻzlar ustida ishlash, kam ishlatiladigan soʻzlar, olinma soʻzlar ustida ishlash, ibora va tasviriy ifodalar ustida ishlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdialiyev A. Oʻzbek tili ergash gapli qoʻshma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar.-Toshkent: Fan, 1992.
2. Boymirzayeva S. Payt munosabatini ifodalovchi qoʻshma gaplar sinonimiyasi // Til va adabiyot ta’limi. 2002. 5-son.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi.-Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.
4. Neʼmatov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. Oʻzbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent: Universitet, 1999.
5. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992.
6. “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qonun.
7. “Qalqon” jurnali, 2004-yil, 7-son.
8. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
9. Nazarova S. “Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi” – T.; Oʻqituvchi, 1992.
10. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida oʻzbek adabiyotini oʻrganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
11. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari
12. Rafiyev A. “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi va imlosi”. Oʻquv qoʻllanma, – T.; 2003.
13. Rahmatullaev Sh. va boshq. “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”. – T.: Oʻqituvchi, 1995.
14. Uralov A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.; 2021.
15. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak oʻqituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qoʻllanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
16. Ziyodova T.U. “Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish”. Oʻquv-metodik qoʻllanma. – T.; 2002.
17. Ziyodova T.U. “Oʻqituvchi kitobi”. Ona tili oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma. – T.; 2002.

Elektron ta'lim resurslari

18. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali
19. www.natib.uz– Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti
20. www.uzedu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

MORFOLOGIYA, MORFEMIKA VA SO‘Z YASALISHI BO‘LIMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Ko‘riladigan masalalar:

1. Morfologiya bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. So‘zning morfem tarkibi va morfemalarning turlari ustida ishlash usullari.
2. So‘z yasalishi bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari.
3. So‘z yasalishining tuzilishi va yasalish usullari ustida ishlash metodikasi.

19 §. Morfologiya bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. So‘zning morfem tarkibi va morfemalarning turlari ustida ishlash usullari

Morfologiya (yunoncha morphe – “shakl”, logos – “ta’limot”) so‘z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta’limotdir. Morfologiyada so‘zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma’nolar hosil qilishi bilan bog‘liq qonun-qoidalar o‘rganiladi. Morfologiyada so‘zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o‘rganiladi. So‘z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o‘rganiladi.

Grammatik tahlil. Grammatika – tilning grammatik qurilishini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi. Grammatika so‘zlarning gapda o‘zgarishi va ularning o‘zaro birikib, so‘z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to‘plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so‘z turkumlari va ularga xos bo‘lgan shakllar haqida bahs yuritilsa, sintaksisda so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanib, gap, so‘z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi.

Ko‘rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so‘zni o‘rganadi. Ammo leksikologiya leksik so‘zni – leksemani o‘rgansa, grammatika grammatik so‘zni – (so‘zning shaklini) so‘z shaklini tekshiradi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib grammatik tahlilni ikkiga bo‘lib tahlil qilamiz:

1. Morfologik tahlil
2. Sintaktik tahlil

Morfologik tahlil. Morfologik tahlil uchun “Afsuski, to‘rt g‘ildirakli ot-aravaning taqir-tuquri go‘yo ko‘chani boshiga ko‘tarib borsa-da, Anvar va Salim qamchi bilan qora otni sekin cho‘-cho‘lab haydab, hech nimani bilmagandek qah-qah urib ketardi, chu jonivor!” gapini olishni lozim topdik. Sababi bir gapning tarkibida hamma so‘z turkumlari ishtirok etsa, qolgan

gaplarni shu orqali tahlil qilish ancha oson kechadi. Gapni morfologik tahlil qilishimiz uchun gapdagi soʻzlar miqdorini aniqlab olamiz, qaysi soʻz turkumligini aniqlaymiz, yasama yoki tub soʻzlarni topamiz va oxirida har bir soʻz turkumini alohida tahlil qilib chiqamiz.

Gapda **26** ta soʻz bor boʻlib, shundan **juft soʻzlar 2 ta, takroriy soʻzlar 2 ta, qoʻshma soʻzlar 2 ta va sodda soʻzlar 20 tani** tashkil etadi. Gap tarkibida umumiy miqdorda quyidagi soʻz turkumlari mavjud:

8 tasi otlar: **ot-aravaning, koʻchani, boshiga, Anvar, Salim, qamchi, otni, jonivor;**

2 tasi sifat: **gʻildirakli, qora;**

1 tasi son: **toʻrt;**

1 tasi olmosh: **hech nimani;**

1 tasi ravish: **sekin;**

6 tasi feʼl: **koʻtarib, borsa, haydab, bilmagandek, urib ketardi, choʻ-choʻlab;**

1 tasi bogʻlovchi: **va;**

1 tasi koʻmakchi: **bilan;**

1 tasi yuklama: **goʻyo, (-da qoʻshimcha yuklamasi ham bor);**

1 tasi modal soʻz: **afsuski;**

2 tasi taqlid soʻz: **taqir-tuquri, qah-qah;**

1 tasi undov soʻz: **chu.**

Tahlilning keyingi bosqichida soʻz turkumlari boʻyicha alohida-alohida qilib tahlil qilish lozim. Gap tarkibidagi ot soʻz turkumlarini ajratib olib tahlil qilamiz. Ot soʻz turkumini tahlil qilish uchun quyidagi jadvaldan foydalanish:

OT TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Soʻrogʻi aniqlanadi;</i>2. <i>Maʼno turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turlari);</i>3. <i>Birlik yoki koʻpligi (soni);</i>4. <i>Kelishigi;</i>5. <i>Egalik qoʻshimchasi boʻlsa, uning shaxs-soni aniqlanadi;</i>6. <i>Kichraytirish, erkalash, hurmatlash maʼnolari boʻlsa, aniqlanadi;</i>7. <i>Tuzilish turi;</i>8. <i>Tub yoki yasamaligi;</i>9. <i>Gapdagi sintaktik vazifasi;</i>

“ot-aravaning” – soʻrogʻi – nimaning?

Maʼno turi – turdosh ot;

birlik yoki koʻpligi – birlik;

kelishigi – -ning qaratqich kelishigida;

egalik qoʻshimchasi bormi? – yoʻq, boʻlsa shaxs-soni – yoʻq;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qoʻchimchalari bormi – yoʻq;

tuzilish turi – juft ot;

tub yoki yasamaligi – tub;

gapdagi sintaktik vazifasi – aniqlovchi.

“ko‘chani” – so‘rog‘i – nimani?

Ma‘no turi – turdosh ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – -ni tushum kelishigida;

egalik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – yo‘q;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamali – tub so‘z;

gapdagi sintaktik vazifasi – to‘ldiruvchi.

“boshiga” – so‘rog‘i – nimasiga?

Ma‘no turi – turdosh ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – -ga jo‘nalish kelishigida;

egalik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – -i III shaxs birlikda;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamali – tub so‘z;

gapdagi sintaktik vazifasi – kesim.

“Anvar” – so‘rog‘i – kim?

Ma‘no turi – atoqli ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – bosh kelishikda;

egalik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – yo‘q;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari borligi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamali – tub;

gapdagi sintaktik vazifasi – ega.

“Salim” – so‘rog‘i – kim?

Ma‘no turi – atoqli ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – bosh kelishikda;

egalik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – yo‘q;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamali – tub;

gapdagi sintaktik vazifasi – ega.

“qamchi” – so‘rog‘i – nima?

Ma‘no turi – turdosh ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – bosh kelishikda;

egalik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – yo‘q;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamaligi – tub;
gapdagi sintaktik vazifasi—to‘ldiruvchi.

“**otni**” – so‘rog‘i – nimani?

Ma‘no turi – turdosh ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – -ni tushum kelishigida;

egallik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – yo‘q;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamaligi – tub;

gapdagi sintaktik vazifasi—to‘ldiruvchi.

“**jonivor**” – so‘rog‘i – nima?

Ma‘no turi – turdosh ot;

birlik yoki ko‘pligi – birlikda;

kelishigi – bosh kelishikda;

egallik qo‘shimchasi bormi? Bo‘lsa shaxs-soni – -i III shaxs birlikda;

kichraytirish, erkalash, hurmatlash qo‘chimchalari bormi – yo‘q;

tuzulish turi – sodda;

tub yoki yasamaligi – yasama ot, jon so‘ziga –i egallik qo‘shimcha –
vor(bor) yasovchi (kammahsul)qo‘shimchasi qo‘shilgan;
gapdagi sintaktik vazifasi – undalma.

Sifat so‘z turkumini tahlil qilishda quyidagi jadvalga asoslanamiz:

SIFAT TAHLILI NAMUNASI
1. So‘rog‘i;
2. Darajasi;
3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?
4. Otlashgan yoki otlashmaganligi;
5. Tuzilish turi;
6. Tub yoki yasamaligi;
7. Asliy yoki nisbiy sifat ekanligi;
8. Gapdagi sintaktik vazifasi.

“**g‘ildirakli**” - so‘rog‘i- qanday?

darajasi – oddiy darajada;

ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi – yo‘q;

otlashganmi yoki otlashmaganmi – otlashmagan;

tuzilish turi – sodda;

tub yoki yasamaligi – yasama(g‘ildir+a+k+li *izoh*: tovushga taqlid so‘zdan –a fe‘l yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan, keyin ot yasovchi –k qo‘shimchasi qo‘shilgan g‘ildirak otiga –li sifat yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilib yangi sifat so‘z turkumi hosil bo‘lmoqda);

asliy yoki nisbiyligi – nisbiy sifat

gapdagi sintaktik vazifasi – aniqlovchi.

“qora” – so‘rog‘i – qanday?

Darajasi – oddiy darajada;

ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi – yo‘q;

otlashganmi yoki otlashmaganmi – otlashmagan;

tuzilish turi – sodda;

tub yoki yasamaligi – tub;

asliy yoki nisbiyligi – asliy sifat

gapdagi sintaktik vazifasi – aniqlovchi.

Sonlarni tahlil qilishda olimlar quyidagi jadvalni tavsiya qilishadi:

SON TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>So‘rog‘i;</i>2. <i>Butun yoki kasrligi;</i>3. <i>Ma‘no turi;</i>4. <i>Hisob so‘zi bor-yo‘qligi;</i>5. <i>Otlashgan yoki otlashmaganligi;</i>6. <i>Tuzilish turi;</i>7. <i>Gapdagi sintaktik vazifasi.</i>

“to‘rt” – so‘rog‘i – necha?

Butun yoki kasrligi – butun son;

ma‘no turi(miqdor yoki tartib) – miqdor sonning sanoq turiga mansub;

hisob so‘zi bor-yo‘qligi – yo‘q;

otlashgan yoki otlashmaganligi – otlashmagan;

tuzilish turi – sodda,

gapdagi sintaktik vazifasi – aniqlovchi.

Olmosh yuzasidan tahlil qilinajak so‘zlarni esa quyidagi jadvalga asoslanib tahlil etishimiz mumkin:

OLMOSH TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>So‘rog‘i;</i>2. <i>Qaysi turkum o‘rnida kelganligi;</i>3. <i>Ma‘no guruhi aniqlanadi;</i>4. <i>Tuzilishiga ko‘ra turi;</i>5. <i>Gapdagi sintaktik vazifasi aniqlanadi.</i>

“hech nimani” - so‘rog‘i – nimani?

Qaysi turkum o‘rnida kelganligi – ot so‘z turkumi o‘rnida kelgan;

ma‘no guruhi aniqlanadi – bo‘lishsizlik olmoshi;

tuzilishiga ko‘ra turi – qo‘shma olmosh;

gapdagi sintaktik vazifasi – o‘zidan keyingi sifatdosh bilan birgalikda hol vazifasini bajarmoqda.

Ravish soʻz turkumini tahlil qilishni quyidagi jadvalga asosan olib borish maqsadga muvofiq boʻladi:

RAVISH TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Soʻrogʻi;</i>2. <i>Maʼno turi;</i>3. <i>Darajasi²;</i>4. <i>Otlashgan yoki otlashmaganligi;</i>5. <i>Tuzilish turi;</i>6. <i>Tub yoki yasamaligi;</i>7. <i>Gapdagi sintaktik vazifasi.</i>

“**sekin**”- soʻrogʻi – qanday?

Maʼno turi – holat ravishi;

darajasi – bosh daraja;

otlashgan yoki otlashmaganligi – otlashmagan;

tuzilish turi – sodda ravish;

tub yoki yasamaligi – tub ravish;

gapdagi sintaktik vazifasi – hol boʻlib kelgan.

Feʼllarni tahlil qilish uchun feʼl haqidagi maʼlumotlarni yaxshi bilish talab etiladi. Bu soʻz turkumi boshqa soʻz turkumlariga qaraganda anchagina murakkabdir. Harakatni ifodalovchi soʻzlar qadimdan rivojlangan, shu sababli ular haqidagi bilimlar fanda talaygina. Baʼzi adabiyotlarda berilgan maʼlumotni ikkinchisida inkor etilish holatlarini ham uchratamiz. Shu sababli maktab darsligi asosida yozilgan qoʻllanmalarga³ tayangan holda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

FEʼL TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Soʻrogʻi;</i>2. <i>Boʻlishli yoki boʻlishsizligi;</i>3. <i>Oʻtimli yoki oʻtimsizligi;</i>4. <i>Nisbati;</i>5. <i>Shaxs-soni;</i>6. <i>Zamon turi;</i>7. <i>Mayl turi;</i>8. <i>Toʻliq yoki toʻliqsizligi;</i>9. <i>Etakchi, koʻmakchi feʼllar aniqlanadi;</i>10. <i>Vazifa (xoslangan) shakllari;</i>

² Madrim Hamrayev va boshq. “Ona tili” Oliy taʼlim talabalariga darslik sifatidagi qʻllanmasining 154- betida ravishlarning darajalari haqida fikrlar keltirilgan. Toshkent-2007, Baxtiyor Mingliyev va boshq. “Oʻzbek tili” universal qoʻllanmasining 209- betida esa “Ravish daraja shakliga ega emas” deb yozib qoʻyilgan. Biz ushbu fikrlardan kelib chiqib ravishning darajalarini ham berib oʻtdik: Ravishlar ham belgi (harakatning belgisi) sifatida darajalarga ega: Bosh daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

³ Madrim Hamrayev “Ona tili” Toshkent-2013 87-bet.

11. *Tuzilish turi;*
 12. *Tub yoki yasamaligi;*
 13. *Gapdagi sintaktik vazifasi.*

“ko‘tarib” – so‘rog‘i – nima qilib?
 Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishli fe’l;
 o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timli;
 nisbati – aniq nisbat;
 shaxs-soni – shaxs-son qo‘shimchasi yo‘q;
 zamon turi – kelasi zamon, qo‘shimchasiz kelgan;
 mayl turi – buyruq-istak mayli;
 to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
 yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – yo‘q;
 vazifadosh (xoslangan) shakllari – -ib ravishdosh shakli;
 tuzilish turi – sodda;
 tub yoki yasamaligi – sodda fe’l;
 gapdagi sintaktik vazifasi – kesim.

“borsa” – so‘rog‘i – nima qilsa?
 Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishli;
 o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timsiz fe’l;
 nisbati – aniq nisbat’
 shaxs-soni – III shaxs birlik;
 zamon turi – kelasi zamon;
 mayl turi – shart maylida;
 to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
 yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – yo‘q;
 vazifadosh (xoslangan) shakllari – sof fe’l;
 tuzilish turi – sodda;
 tub yoki yasamaligi – tub;
 gapdagi sintaktik vazifasi – kesim.

“haydab” so‘rog‘i – nima qilib?
 Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishli;
 o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timli fe’l;
 nisbati – aniq nisbatda;
 shaxs-soni – III shaxs birlik sonda;
 zamon turi – kelasi zamon;
 mayl turi – xabar mayli;
 to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
 yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – yo‘q;
 vazifa (xoslangan) shakllari – -b ravishdosh shakli;
 tuzilish turi – sodda;
 tub yoki yasamaligi – tub;
 gapdagi sintaktik vazifasi – hol vazifasida.

“bilmagandek” so‘rog‘i – nima qilgandek?

Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishsiz fe’l;
o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timli;
nisbati – aniq nisbat;
shaxs-soni – III shaxs birlik;
zamon turi – o‘tgan zamon;
mayl turi – xabar mayli;
to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – yo‘q;
vazifadosh (xoslangan) shakllari – sifatdosh shakli;
tuzilish turi – sodda;
tub yoki yasamaligi – tub;
gapdagi sintaktik vazifasi – hol fazifasida kelmoqda.

“urib ketardi” so‘rog‘i – nima qilardi?

Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishli;
o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timli fe’l;
nisbati – aniq nisbatda(-ar o‘tgan zamon davom fe’li qo‘shimchasi, buni birgalik nisbat qo‘shimchasidan farqlash lozim);
shaxs-soni – III shaxs birlikda;
zamon turi – -ar (o‘tgan zamon davom) shaklida;
mayl turi – xabar maylida;
to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – urib-yetakchi fe’l, ketardi – ko‘makchi fe’l hisoblanadi;
vazifadosh (xoslangan) shakllari – ravishdosh fe’l;
tuzilish turi – ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi(qo‘shma fe’l);
tub yoki yasamaligi – tub;
gapdagi sintaktik vazifasi – kesim.

“cho‘cho‘lab” so‘rog‘i – nima qilib?

Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi – bo‘lishli;
o‘timli yoki o‘timsizligi – o‘timli;
nisbati – aniq nisbatda;
shaxs-soni – III shaxs birlik;
zamon turi – o‘tgan zamonda;
mayl turi – xabar mayli;
to‘liq yoki to‘liqsizligi – to‘liq fe’l;
yetakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi – yo‘q;
vazifadosh (xoslangan) shakllari – ravishdosh fe’l;
tuzilish turi – sodda;
tub yoki yasamaligi – yasama(taqlid so‘zdan yasalgan ravishdosh fe’l(**cho‘-cho‘+la+b**);
gapdagi sintaktik vazifasi – hol.

Bog‘lovchilarni ham quyidagi jadval aosida tahlil qilish mumkin:

BOG‘LOVCHI TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Qo‘llanish turi;</i> 2. <i>Vazifasiga ko‘ra turi;</i> 3. <i>Kelib chiqishiga ko‘ra turi;</i> 4. <i>Nimani (qanday so‘zlarni) bog‘lagan?</i>

“**Va**”. Yuqoridagi gapimizda bitta – **va** bog‘lovchisi bor bo‘lib qo‘llanishiga ko‘ra yakka yoki takroriy turi – yakka; vazifasiga ko‘ra turi – teng bog‘lovchilarning biriktiruv bog‘lovchilariga mansub; kelib chiqish vazifasiga ko‘ra – sof bog‘lovchi; nimani bog‘lagan – uyushgan otlarni

Ko‘makchilarni tahlil qilishda ham o‘z savollarini topib olish mumkin.

KO‘MAKCHI TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Turi aniqlanadi(sof yoki vazifadosh);</i> 2. <i>Qaysi kelishikdagi so‘zga bog‘langanligi;</i> 3. <i>Grammatik ma‘nosi;</i> 4. <i>Qaysi so‘zni qaysi so‘zga bog‘layapti?</i>

Bilan” – dastlab turi sof yoki vazifa doshligi aniqlanadi – sof ko‘makchi; qaysi kelishikdagi so‘zga bog‘langanligi – bosh kelishikdagi; grammatik ma‘nosi – vosita ma‘nosida; qaysi so‘zni qaysi so‘zga bog‘layapti – otni fe‘lga bog‘lamoqda.

Yuklamalarni tahlil qilish juda oson , faqat tahlil qilishni bilsak bo‘ldi. Bunda quyidagi jadvalga tayansa bo‘ladi:

YUKLAMA TAHLILI NAMUNASI
<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Tuzilishiga ko‘ra turi(so‘z yuklamalari yoki qo‘shimcha ko‘rinishidagi)</i> 2. <i>Ma‘nosiga ko‘ra turi;</i> 3. <i>Sofmi vazifadoshmi?</i>

“**go‘yo**” – tuzilishiga ko‘ra turi so‘z yuklamalari yoki qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalari – so‘z yuklamasi; ma‘nosiga ko‘ra turi – o‘xshatish qiyoslash yuklamasi; sofmi yoki vazifadoshligi – sof.

So‘z turkumlari ma‘no va vazifasiga ko‘ra:1-mustaqil so‘zlar, 2-yordamchi so‘zlar, 3-undov so‘zlar, 4-taqlid so‘zlar, 5-modal so‘zlar⁴ga bo‘linadi. Shu manbaga asoslanadigan bo‘lsak modal so‘zlarni so‘z turkumi

⁴ N.Mahmudov ba boshq. Ona tili 6-sinf darsligi 29-bet, Toshkent- 2013

sifatida baholab, gap tarkibidan ajratib quyidagi jadval asosida tahlilga tortish mumkin:

MODAL SO‘Z TURKUMI TAHLILI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Ma’no turi;</i>2. <i>Sof yoki vazifadosh;</i>3. <i>Qaysi turkumdan kelib chiqqan?</i>3. <i>Gapda bajargan vazifasi.</i>

“**Afsuski**” – modalini ma’no turi – achinish turiga mansub;
sof yoki vazifadosh – sof;
qaysi turkumdan kelib chiqqan – yo‘q;
gapda bajargan vazifasi – kirish so‘z.

Taqlid so‘z turkumini tahlil qilishimiz uchun u haqidagi ma’lumotlarni bilishimiz lozim. Shu boisdan taqlid so‘z turkumini quyidagi jadvalga asoslanib tahlil qilish o‘rinlidir:

TAQLID SO‘Z TURKUMI TAHLILI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Ma’no turi;</i>2. <i>Tuzilish turi;</i>3. <i>Otlashgan-otlashmaganligi;</i>4. <i>Gapda bajargan vazifasi.</i>

“**taqir-tuquri**” – ma’no turi – tovushga taqlid;
tuzilish turi – juft;
otlashgan-otlashmaganligi – otlashgan;
gapda bajargan vazifasi – ega.

“**qah-qah**” – ma’no turi – tovushga taqlid;
tuzilish turi – takroriy;
otlashgan-otlashmaganligi – otlashmagan;
gapda bajargan vazifasi – boshqa so‘zlarga bog‘lanib kesim bo‘lib kelgan.

Undov so‘z turkumi ham quyidagi jadvalga bo‘y sunadi:

UNDOV SO‘Z TURKUMI TAHLILI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Ma’no turi;</i>2. <i>Tuzilish turi;</i>3. <i>Otlashgan-otlashmaganligi;</i>4. <i>Gapda bajargan vazifasi.</i>

“**chu**” ma’no turi – buyruq-xitob undovining hayvonlar va boshqa jonivorlarni biror ishga undash turi;
tuzilish turi –sodda;
otlashgan-otlashmaganligi – otlashmagan;
gapda bajargan vazifasi – kesim.

20 §. Soʻz yasalishi boʻlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari

Oʻzbek tilida soʻz yasalishi-derivatsiya masalasi. Ilm-fan ravnaqi shiddat bilan rivoj topayotgan davrda oʻzbek tilidagi jarayonlarni oʻrganish, ularni tadqiq qilish borasida ham toʻxtalish boʻlayotgani yoʻq. Ayni damda derivatsiya hodisasi va undagi soʻz yasalishi masalasiga toʻxtalib oʻtsak. Derivatsiya nazariyasi Praga tilshunoslik maktabining (Yevropada 1348-yilda Praga universiteti tashkil qilingan) yirik namoyandalaridan biri, Polyak tilshunosi Yeji Kurilovich tomonidan ilmiy asoslab berildi. U XX asr boshlaridayoq oʻzining asarlarida bu termini qoʻllab, soʻz yasalishi bilan bogʻliq holda derivatsiya tushunchasini fanga olib kiradi va uning ikki turi: leksik derivatsiya hamda sintaktik derivatsiya turlarini belgiladi. Uning 1936-yilda fransuz tilida chop etilgan “Leksik derivatsiya va sintaktik derivatsiya»nomli maqolasida derivatsiyaning yangi turi “sintaktik derivatsiya” tushunchasi birinchi bor qoʻllanildi.

Leksik derivatsiya soʻz yasalishini taqozo etadi va derivatsion munosabatdagi til belgilari bunda statik xarakterda boʻladi. Sintaktik derivatsiya esa soʻz birikmalari, gap va matnga taalluqli boʻlib, u morfologik unsurlarning dinamik xarakterdagi aloqasini koʻrsatadi. Lekin, shunday boʻlishiga qaramay, derivatsiyaning bu ikki turi oʻrtasida maʼlum darajada bogʻlanish ham mavjuddir. Masalan, nutqda sifatdash shaklini yasovchi-gan affiksi bir paytning oʻzida ham leksik derivatsiyani, ham sintaktik derivatsiyani sodir etuvchi asosiy morfologik vosita boʻla oladi. Bunga ravishdosh yasovchi -i(b) affiksi ham misol boʻlishi mumkin.

Shuni unutmash kerakki, har doim yasalgan soʻz hamda yasovchi soʻz oʻzaro yasalmalik munosabati bilan bogʻlangan boʻladi va bu bogʻlanish har doim sezilib turadi. Yasalgan soʻz asosdan uzoqlashib, uzilib ketmaydi: bularning oʻzaro aloqasi soʻz yasash munosabati hisoblanadi. Leksema va morfemalar orasidagi maʼnoviy aloqa sezilmas holga kelib qolishi ham mumkin. Bu holatda orada soʻz yasash munosabati boʻlmaydi, yasama soʻz taraqqiyot natijasida tub soʻzga aylanadi hamda soddalanish hodisasi yuz beradi. Soʻz yasalish strukturasi deganda, shu ikki element orasidagi formal va semantik (shakl va mazmun) munosabatlarning birgaligini, yigʻindisini tushunamiz.

Derivatsion morfemalar har doim soʻzlarga qoʻshilib, yangi soʻz hosil qiladi. Yangi soʻz yangi lugʻaviy va grammatik maʼnolarga ega boʻladi. Masalan, *paxta* leksemasi-*chi* affiksini olib, *paxtachi* soʻzi vujudga keladi. Yangi lugʻaviy maʼno yangi grammatik maʼnoni ham vujudga keltirdi: narsa-buyum oti shaxs otiga aylandi. Shu bilan birgalikda, yangi soʻzning valentlik imkoniyatlari ham asos soʻznikidan keskin farqlanadigan holga keladi. Bu jarayonda hosila oʻzining yangi imkoniyatlariga ega boʻladi. Yasalish jarayoni, umuman olganda, yangi tushuncha anglatishi bilan bir qatorda ong ostida ikki maʼnoni anglatib turadi: yasalish asosi va hosilani. Bu birliklar bir vaqtning oʻzida yasalish asosiga bogʻlanib (tortilib) turadi. Hosil boʻlgan tushuncha yangi birliklar bilan aloqaga kirishishga hozirlik koʻradi. Til tizimidagi bunday hodisalar morfemikaning boyish manbai boʻlib xizmat qiladi.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda morfemalarning uch guruhi ajratilib, o'rganilgan: 1) so'z yasovchilar – leksik ma'noni o'zgartirib, yangi so'z hosil qiladigan; 2) forma (shakl) yasovchilar – yangi so'z hosil qilmaydi, ma'noni keskin o'zgartirmaydi, muayyanlashtiradigan; 3) so'z o'zgartiruvchilar – so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi, sintaktik vazifa bajaradigan morfemalar.

Istiqloldan so'ng morfema, xususan, grammatik shakl yasovchi morfemalar turkiy tillarning agglyutinativ tabiatidan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqildi va quyidagicha tasnif etila boshlandi: 1) so'z yasovchi affiksalar; 2) shakl yasovchi qo'shimchalar.

Derivatsiya masalalarining XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy grammatika nashr etilguncha bo'lgan davrida so'z yasalishi nazariyasi taraqqiyotida yangi bosqich – struktur-semantik bosqich shakllandi, uning asosiy lisoniy ko'rinishi, tuzilishi haqida ilmiy asoslangan g'oyaga asos solindi. Bu o'rinda A.G'ulomov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, F.Abdullayev kabi fanimiz zahmatkashlarining xizmatlari beqiyos.

XX asrning oxirgi choragigacha o'zbek tilshunosligida derivatsiya morfologik bosqichdan struktur-semantik bosqichgacha bo'lgan yo'lni vorisiylik, tarixiy qadriyatlar va avvalgi ilmiy an'analarni saqlash, ko'paytirish, ravnaq toptirish, o'rganish hamda yaratish yo'lidan borilganligi yangi yutuqlarni olib keldi.

O'tgan asrning 60-yillarida so'z yasalishi o'zbek tilshunosligining o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mustaqil sohasi deb tan olindi. Bu sohaning asosiy birligi sifatida "yasama so'z" tushunchasi kirib keldi. Til tizimida morfemika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis qatorida derivatsiyaning ham o'rinlashishi tilshunoslik nazariyasining eng muhim yutuqlaridan biri bo'lib qoldi. Ana shunday jarayondan morfologiyaning asosiy birligi so'z turkumlari bo'lsa, so'z yasalishining asosiy birligi yasama so'z yoki yasalma bugungi kun jihatidan til tizimidagi muhim birlik sifatida o'rin oldi.

Shuni aytish kerakki, yasama so'z tilshunosligimizdagi nafaqat so'z yasalishining markaziy, balki til tizimining o'ziga xos maxsus birligi nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. So'z yasalishida birlamchi jihat yasama so'z tushunchasi bo'lib, boshqa barcha kichik birliklar (asos, affiks) hamda yirik birliklar-so'z yasash qatorlari, so'z yasash uyasi, andozasi kabi tushunchalar ana shu bosh tushunchaga tayanilgan holda o'rganiladi. Yasama so'zning bu xil maqom va mavqeda talqin etilishi so'z yasalishi nazariyasining taraqqiyot bosqichlari bilan bevosita bog'liq ekanligini unutmaslik lozim. XX asrning 50-yillaridan boshlab so'z yasalish nazariyasi morfologik, struktur-semantik, sintaktik-transformatsion, nominativ-onomasiologik, funksional-semantik kabi bosqichlarni bosib o'tdi. Shu asnoda o'zbek tilshunosligida derivatsiya masalasi morfologik, struktur-semantik, qisman funksional semantik bosqichlarga ega bo'ldi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida so'z yasalishining ikki ma'nosi bor:

1. Tildagi leksemalar yordamida yangi so'z, ya'ni leksik birlik yasash;

2. Tilshunoslikning soʻz yasalişini oʻrganuvchi boʻlimi.

Tilshunoslikdagi ilmiy qarashlar natijasida soʻz yasalişini morfologiyadan ham, leksekologiyadan ham ajralib, tilshunoslikning yangi bir boʻlimini vujudga keltirdi. Bu jarayon derivatsiyaning ravnaqiga oʻziga xos hissa qoʻshdi. Derivatsiya jarayoni til tizimidagi leksikologiyaning oʻsishida muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bu esa leksikani boyitish bilan bir qatorda ayrim leksemalarning tarixiy ildizlarini ham tekshirib koʻrishi mumkin. Derivatsiyaning rivoj topishi sintaksisni ham yangi maʼlumot, terminlar, bogʻlanishlar hosil qilish yoʻli bilan boyitadi. Soʻz yasalişini har jihatdan tilshunoslik fanining maʼlum bir boʻlimi sifatida soʻzlarning yasalişini yangi soʻz hosil qilishning qonun-qoidalarini, qoliplarni, vositalarni, shu bilan bogʻliq holda, soʻzlarning tuzilişini oʻrganadi.

Demak, bu sohaning obyektlari leksema va morfema hisoblanib, bu sohaning rivoji uchun boshqa birliklar yordamchi element sirasiga kiradi. Umuman olganda, soʻzni leksikologiya boʻlimi ham, grammatika boʻlimining morfologiya qismi ham tekshiradi, biroq bu ikki xil tekshirish bir-biridan turlicha farqlanib, ajralib turadi. Shuningdek, soʻzning yasaliş tomonidan tekshirilishi til ilmida oʻziga xos yangiliklarni koʻrsatib beradi. Tilshunoslikning soʻz yasalişini boʻlimi yangi soʻzlarning qanday hosil qilinishi, mavjud yasalmalarning qanday paydo boʻlganligini sinchiklab oʻrganadi. Natijada hosil boʻlgan hosilani-yasama soʻzni leksikologiyaga uzatadi. Leksikologiya bu leksemani qabul qilib olgach, toʻliq amaliyotda qoʻllash uchun grammatikaga kiritib yuboradi. Bu jarayon uzluksiz davom etib turadi. Aytaylik, *-chi* morfemasi dastlab sifat yasovchi morfema sifatida paydo boʻlib (*gulchi qiz, surnaychi yigit, temirchi usta*), keyinchalik ot yasovchilikka oʻtganligi grammatikaning ham roli mavjud ekanligini koʻrsatadi. Bugungi kunga kelib bu koʻchish (otlashish jarayoni) toʻlaligicha ot yasovchilik maqomini egallab oldi. Ogʻzaki nutq mahsuli boʻlgan leksemalarga ham bu morfemaning qoʻllanilishi tabiiy ravishda soʻz yasalişini sathini boyityapti. Jarayon ravnaq topib yangi leksemalar tarkibida ham qoʻllanilib, navbatdagi yoʻlga hozirlik koʻrmoqda. Bu boyitish jarayoni shunchaki soʻz yasalişini sathinigina emas, nutq uslublari ham tegishli miqdorda taʼsir koʻrsatmoqda: *paynetchi, damazchi, chillachi, dasturchi...* Taraqqiyot shuni koʻrsatmoqdaki, bugungi kunda *paynetchi yigit, damazchi qoʻshni, chillachi konditsioner, dasturchi yigit* birikmalaridagi yasalgan soʻzlar sifatlashmoqda (aslida esa oʻz oʻrnini-sifatlik xususiyatini talab qilayotganini kuzatish mumkin).

Demak, har qanday yangi soʻz hayotning talabi bilan vujudga keladi. Bunday talab jamiyatning maʼlum bir sohasi bilan aloqador holda insonlar ongining taraqqiyotiga bogʻliq boʻladi. Shunday ekan jamiyatda roʻy bergan biror yangilikni, chunonchi, yangi buyum yoki narsani atash uchun yangi soʻz yaratish yoki boshqa tildan shu yangilikning nomini ham olishdan ham vujudga keladi: *paynetchi, dasturchi, kompetensiyaviy*. Yana tildagi biror elementning faollashishi yoki sustlashishi, yoʻqolishi, kengayishi yo torayishi, tilda shu soʻzning bor boʻlishiga qaramay, boshqa tildan shu maʼnoni bildiruvchi soʻzning

ham olinishi o'zbek tili derivatsiyasini boyitib turadi. Derivatsiya nafaqat leksikamizda yangi birliklar yasaydi, balki mavjud leksemalarni ham rivojlantiradi, qolaversa, boshqa tildan kirib kelgan so'zlarni ham qabul qilishi (leksikologiyaning talabi bilan) yoki shu so'z orqali yangi so'zni hosil qilishi ham mumkin: *bloger, blogerbop, bloggerlik*.

Derivatsiya jarayonida leksemaning ishtirok etishi shart. Hosila tarkibi bir nechta morfemadan iborat bo'lgan taqdirda ham yasash uchun asos bo'lmasa, bunday birlik yasalma hisoblanmaydi. Demak, so'z yasash uchun, albatta, uning asosi bo'lishi lozim. Affiksoidlarning birikuvidan so'z hosil bo'lishi kuzatiladi, bunda ularning biri asos-leksema vazifasini bajarib turadi: *oy+bek, bek+nor, oy+xon, bek+jon...*

So'z yasash usullarining nazariy asoslari. So'z yasashining har xil usullari orqali yangi so'zlar yaratish tilshunoslikning boshqa sohalar bilan ham bog'liq jarayondir. Chunki, so'z yasashidagi usullar fonetik jihatdan fonetikaga, grammatik jihatdan grammatikaga, leksik jihatdan leksikologiya kabi bo'limlarga uzviy bog'liq bo'ladi. Bunda yangi so'zning qanday modellar asosida yasalganligi, qanday tiplarda yasalganligi, yasash vositalarining ishtiroki, yasash texnikasi, yasalgan so'zning tuzilishi, albatta, inobatga olinadi. Tegishli adabiyotlarda hozirgi o'zbek adabiy tilida (shuningdek, boshqa turkiy tillarda) so'z yasashining ikkitadan yettitagacha usuli mavjudligi qayd etilgan. So'z yasashining ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan hamda lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

- 1). Affiksatsiya usuli.
- 2). Kompozitsiya usuli.
- 3). Konversiya usuli.
- 4). Semantik (yoki leksik-semantik) usul.
- 5). Fonetik usul.
- 6). Leksikalizatsiya (leksik-grammatik) usuli.
- 7). Abbreviatsiya usuli.
- 8). Reduplikatsiya usuli.

Bunday so'z yasash usullari o'z o'rnida yana ichki tarkib va tuzilishga ega. Aytaylik, fonetik usul tarkibiga ur'gu bilan farqlanuvchi yasashni, affiksatsiya usuli tarkibiga sodda va murakkab affikslar bilan hosil bo'lish turlarini, abbreviatsiya usuliga birinchi harflar, birinchi bo'g'inlar yoki aralash turlarni, fonetik usulga so'z boshida va so'z oxirida yasash turlarini kiritish mumkin. Gap ularning miqdorida emas. Biz tushinishimiz lozim bo'lgani, so'z yasash usullari va ularning tilshunoslikdagi o'rnini, mavjud birliklarni anglash, ularni bilishga qaratilgan. Binobarin, bunday til qonuniyatlari asosida derivatsiya jarayoni rivojlanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu usullar orasida affiksatsiya va kompozitsiya usullari yetakchi hisoblanadi. (Affiksatsiya usuli haqida oldinroq to'xtalgan edik.) Kompozitsiya usuli orqali hozirgi tilda ham yangi so'zlar hosil qilinmoqda: *tez+yurar* (tezyurar poyezd), *erta+pishar* (ertapishar qovun).

XX asr tilshunosligi erishgan yutuqlar va ilmiy-tarixiy meros asosida professor A.G‘ulomov 50-yillarda turkiy tillar hamda o‘zbek tili materiallari asosida so‘z yasalishi bo‘yicha yaxlit, ilmiy mantiqiy asoslangan konsepsiyani yaratgan. Jumladan, sodda yasama so‘zlar qatori qo‘shma so‘zlarning til lug‘at tarkibida katta miqdor va salmoqqa egaligini ko‘rsatib bergan. 1953-yilda e‘lon qilingan “O‘zbek tili morfologiyasiga kirish” asarida “So‘z yasalishi” alohida bo‘lim sifatida berilgan bo‘lib, unda so‘z yasash bilan bog‘liq juda ko‘plab materiallarga oydinlik kiritilgan. Ayni damda yuqoridagi tadqiqot bugungi kun uchun ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas. Shu bilan bir qatorda so‘zlarni qo‘shish orqali so‘z yasash jarayoniga ham to‘xtalib, qo‘shma so‘zga dastlab ta‘rif berilgan: “Qo‘shma so‘zlar bir necha o‘zakning birikib, bir butunlik tashkil qilishidan tug‘iladi. Qo‘shma so‘zning tarkibidagi elementlarning semantik va grammatik jihatdan birikishi natijasidan butun kompleks bir so‘z holiga kelgan bo‘ladi”. Olim qo‘shma so‘zlar, xususan qo‘shma otlarning tug‘ilish manbayi haqida fikr yuritib, ular aniqlovchi va aniqlanmish holatidagi so‘z birikmasidan kelib chiqishini ko‘rsatgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham amal qilmoqda. So‘z birikmasi ma‘lum holga kelganda qo‘shma so‘zga aylanishi kuzatiladi. Bu holat ham qo‘shma so‘z yasalishi uchun asos vazifasini o‘tagan. Umuman olganda, leksemalarning birikuvchi yangi ma‘no beradi hamda maxsuslanish bo‘ladi. O‘sha leksemalarning yakka holdagi ma‘nolaridan tashqari yana bir yangi ma‘nosi kelib chiqadi. Chunonchi, *oq* (sifat) va *qovun* (ot) so‘zlarining qo‘shilishidan (*oq+qovun = oqqovun*), *oq* (sifat) va *urug‘* (ot) so‘zlarining qo‘shilishidan (*oq+urug‘ = oqurug‘*) yangi bir so‘z hosil bo‘ladi. Ya‘ni qovunning bir turi ma‘nosini yasash mumkin. Yoki bo‘lmasa, *qora* (sifat) hamda *qurt* (ot) so‘zlarining qo‘shilishidan (*qora+qurt = qoraqurt*: qurtning bir turi) yangi qo‘shma so‘z yasalishi yuz bergan. Bu hodisalar so‘z yasalishi uchun bir ko‘rinish bo‘lib, ularning unumdorligi katta: *gulxonim*, *o‘ramasomsa*, *o‘ramakabob*, *qushtili*, *ho‘kiztili*, *tomorqa*, *oqqush*, *ko‘ksulton*, *qizilishton* kabi. Bunday birliklar aslida so‘z birikmasidan hosil bo‘lishi aniqlanadi. Masalan, *oq qovun*, *oq urug‘*, *qora qurt*, *gulli xonim*, *o‘ralgan somsa*, *o‘ramagan kabob*, *oq qush*, *ko‘k sulton*, *qizil ishton* – bitishuv; *qushning tili*, *ho‘kizning tili* – moslashuv ko‘rinishidan hosil bo‘lgan.

Bunda tarkibning urg‘u tushishiga qarab ham aniqlab olish kerakki, so‘z birikmasida ikki urg‘u mavjud bo‘lsa, qo‘shma so‘zda esa bir urg‘u mavjud bo‘ladi. Qo‘shma so‘zlar tarkibida fonetik jarayonlar kuzatilishi mumkin. Binobarin, fonetik jarayon kuzatilganda ham ayrim so‘zlar tarkibi ma‘no jihatidan ikki so‘z ekanligi sezilib turadi: *og‘ayni* (*og‘a+ini*), *sakson* (*sakkiz+o‘n*) kabi.

Qo‘shma so‘zlardan yasalgan birliklar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishda, tarkibdagi leksemalarda tutashturuvchi birliklar (egalik, kelishik, shaxs-son, zamon shakllari) bo‘lmaydi: *oshqozon*, *ko‘ksulton*, *sabzixata*, *o‘qilon* singari. Ikkinchi turida esa u yoki bu qismida tutashturuvchi – grammatik shakllar mavjud bo‘ladi: *mingboshi*, *hokiztili*, *ishboshi*, *iskabtopar* kabi.

Soʻz yasashida konversiya usulining ham oʻrni katta. A.Gʻulomovning konversiya (transpozitsiya) haqidagi fikrlari 1975-yilda nashr etilgan ikki jildlik “Oʻzbek tili grammatikasi”ning birinchi jildida oʻzining toʻliq ifodasini topgan. Bunga koʻra, konversiya bir leksik-grammatik kategoriyadagi soʻzning boshqa kategoriyaga oʻtishi soʻz yasashining, yangi soʻz hosil qilishining bir koʻrinishidir. Bu morfologik-sintaktik yoʻl bilan soʻz yasashdir. Bunda soʻzning turkumi oʻzgaradi, bu oʻzgarish odatda, kontekstda-sintaktik holatning gap va soʻz birikmalarining kuchi bilan yuzaga keladi. Bunday konversiya maʼlum bir aniq hodisaning nomi deya qaraladi: soʻzning oʻz shaklini oʻzgartirmagan holda boshqa turkum vazifasida qoʻllanishi holatini ifodalaydi. Professor A. Gʻulomov konversiyaning oʻn banddan iborat umumiy xususiyatlarini koʻrsatib oʻtgan va til ilmida uning ilmiy asoslarini yechib bergan. Uning fikricha, konversiyada yasalma mohiyatning soʻz turkumini oʻzgartirish xarakterida boʻlishi, bu qoidaning tashqi yasash tusida ekanligini alohida koʻrsatadi: Lekin bu koʻchish bir hodisaning avvalgi holatini tamoman qoldirib, boshqa holatga oʻtishi-aylanish xarakterda emas, balki avvalgi holati turgan holda yangi holatga ham ega boʻlishidir: bir soʻz ikki soʻzga aylanadi. Demak, bu aslida koʻchish emas, balki bir tomondan qaraganimizda “kengayish”dir. Shu oʻrinda olim konversiya atamasining maʼno qamroviga ham munosabat bildiradi: Koʻchish, oʻtish, oʻzgarish kabi terminlarining hech qaysisi bu hodisani toʻla aks ettirmaydi. Anglamladiki, bunday yasashning nisbati keng maʼnoda qoʻllash konversiya termini bilan atalish shartli xarakterga egadir.

Boshqa xil hosilalarda boʻlgani kabi motivatsiya munosabati – yasashga asos boʻlgan qism bilan yasalma orasida bogʻlanish boʻladi. Masalan, ot oʻrnida qoʻllangan *oʻqigan* soʻzi (*oʻqigan bola*) shu maʼno bilan bogʻlanagan feʼlning sifatdosh shakli bilan aloqada. Agar maʼnoviy grammatik aloqa susaysa, yasash holati ham sezilmaydi. Ayni holatda u soddalashning bir koʻrinishi hisoblanadi. Shu asnodan, *ilgʻor, chopar, qopqon, sichqon; qopagʻon, bilagʻon* leksemalari misolida ana shunday leksik-grammatik aloqaning uzilishi sabablarini kuzatamiz. Boshqa tomondan, konversiya ikki baʼzan uch soʻzni nazarda tutadi. Bunda soʻzning koʻchish (yasash) holati transpozitsion holatda boʻladi. Ayni holatdan kelib chiqadigan boʻlsak, yasalgan soʻz (transpozitsiyaga uchragan soʻz) nutq momentining oʻzida yasashga oʻtadi. *Yaxshiga yondosh, yomondan qoch. Kimga? – yaxshiga, kimdan? – yomondan. Ozgʻin sal iljaydi, semiz xoholab qornini ushlab kuldi. Kim? – ozgʻin, kim? – semiz.* Misoldan koʻrinyaptiki, nutq vaziyatining oʻzida funksional transpozitsiya yoʻli bilan sifat soʻz turkumi otga oʻtyapti (otlashish). *Issiqda yurmagin* gapida ham *issiq* – sifatining otlashuvi orqali yangi maʼno hosil boʻlayotganligini kuzatish qiyin emas.

Oʻzbek tilida ayrim shakllar, xususan, turlanish shaklidan baʼzi soʻzlar leksikalizatsiya natijasida boshqa soʻz turkumlariga oʻtadi. Leksikalizatsiya natijasida ravish soʻz turkumiga oʻtish koʻproq kuzatiladi. Bu diaxron hodisa boʻlib, ayni vaqtda buni kuzatish mushkul. Leksik-grammatik usul bilan

yasalgan ravishlar bugungi kunda ajralmas holatga kelib, unga birikkan kelishik shakllari yasalma tarkibida oʻrnashib qolgan: *birdan, birga, chindan*.

Bunday derivatsion hodisalar, soʻz yasalishlar, ularning turlari, til qoliplari va ularning nutqiy hosilalarini farqlash chuqur va puxta ilmiy izlanishlar olib borilishi lozimligini koʻrsatadi. Garchi bu borada adabiyotlarda ayrim nazariy fikrlar keltirilganligi bugungi kungacha boʻlgan tilshunoslik nazariyasini boyitib turgan boʻlsa-da, ular xususida jiddiy tadqiqotlarni olib borish bugungi kun uchun juda dolzarb.

Soʻz turkumlari, ularning grammatik kategoriyalarini oʻqitish. Grammatika til haqidagi fanning bir qismi, u morfologiya va sintaksisdan iborat. Grammatika oʻqitish orqali oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati oʻsib boradi, nutq madaniyati shakllanadi. Oʻquvchilar grammatikani oʻrganish orqali adabiy til meyorlari bilan tanishib boradilar. Grammatik bilimlar oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Grammatika oʻqitishda quyidagilarga alohida eʼtibor qaratish zarur:

1. Oʻquvchilarning adabiy til meyorlarini puxta egallab borishlariga
2. Oʻquvchilarning nutq madaniyatini oʻstirib borishga
3. Oʻquvchilar savodxonligini oshirib borishga
4. Oʻquvchilarda soʻzlarni qismlarga toʻgʻri ajrata olish, soʻzning tuzilishini tushuna olish, toʻgʻri gap tuza olish, matn yarata olish malakalarini shakllantirishga
5. Oʻquvchilarda ijodiy tafakkurni oʻstirib borishga

Maktabda morfologiyani oʻqitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki, keyingi bosqichda oʻrganilgan “Sintaksis” boʻlimini bevosita morfologiya bilan bogʻlangan. Chunonchi kelishik, egalik va shaxs-son qoʻshimchalari garchand morfologiya obyektini sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida soʻz va soʻz brikmasi orasidagi sintaktik aloqani taʼminlovchi vosita sanaladi. Qoʻshma gap sintaksisini oʻrganishning bevosita yordamchi soʻzlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Maktabda morfologiyani oʻqitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur boʻlimni oʻrganishda oʻz amaliy ifodasini topadi. Oʻquvchi mustaqil va yordamchi soʻz turkumlarini oʻrganishda soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarga yana murojaat qilinadi va soʻz boyligini oshirish, soʻzdan toʻgʻri hamda oʻrinli foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi. Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu boʻlimni oʻrganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinspl orfografiyaning yetakchi prinspl sanaladi.

Shunday qilib maktab morfologik kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni koʻzda tutadi:

-o'quvchilarning so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishga o'rgatish; so'z zahirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;

-so'zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;

-imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

-gap qurish va matn yaratish malakasi ustida ishlash;

DTS da ko'zda tutilgan talablar har bir mavzuni o'rganish jarayonida izchillik bilan amalga oshiriladi.

So'z tarkibiga oid bilimlar 6-sinfda "Morfologiya" bo'limi tarkibida o'rganiladi. Dastlab o'quvchilarga "So'z tarkibi" haqida ma'lumot beriladi. So'z tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat. Asos haqida, qo'shimcha haqida nazariy tushunchalar beriladi, qo'shimchalar ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1. **So'z yasovchi qo'shimchalar.** Bular asosga qo'shib yangi ma'no hosil qiladi.

2. **Shakl yasovchi qo'shimchalar.** Bular asosga qo'shib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklaydi yoki so'zni boshqa so'zga bog'lash vazifasini bajaradi. Shuning uchun shakl yasovchi qo'shimchalar o'z navbatida ikki turga bo'lib o'rgatiladi: a) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar b) sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.

So'z tarkibiga oid bilimlarning mustahkam bo'lishida quyidagi ishlarni amalga oshirish muhimdir:

1. So'z tarkibi yuzasidan tahlil. Namuna: gulzorlarda so'zining tahlili. gul-asos, zor-so'z yasovchi qo'shimcha, lar-lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha, da-sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.

Bunday tahlil so'z tarkibiga oid har bir mashg'ulotda o'tkazilishi lozim. Tahlilni morfologiya o'qitishda ham davom ettirish kerak.

2. So'z tarkibiga oid bilimlarni fonetika bilan, imlo bilan bog'liq holda o'rgatish. Masalan, asosga qo'shimcha qo'shilganda turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi, ya'ni tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi kabi hodisalar. Bu hodisalarga tahlil jarayonida e'tibor berib boriladi. Shu orqali fonetika va so'z tarkibi o'rtasidagi bog'lanish yuzaga keladi. Shu o'rinda so'zning qanday yozilishiga ham e'tibor berib ketilsa, imlo bilan bog'lanish hosil bo'ladi.

So'z tarkibi o'rganib bo'lingach, so'z turkumlari haqida ma'lumot berish boshlanadi. O'quvchilar so'z turkumlariga oid bilimlar bilan 5-sinfda ham tanishganlar. 6-7-sinflarda esa so'z turkumlari izchil kurs sifatida o'rgatiladi. O'quvchilar dastlab so'z turkumi haqida nazariy bilim bilan tanishadilar. So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari hisoblanadi degan qoida beriladi. So'zlar 5 ta guruhga bo'lib o'rgatiladi. Dastlab o'quvchilarga 1-guruh so'zlar, ya'ni mustaqil so'zlar turkumi o'rgatiladi. Mustaqil so'z turkumlari fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish tartibida o'rgatiladi. Mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

1. Soʻz turkumlarining soʻrogʻi, gapdagi vazifasi, bir soʻz turkumining boshqasidan farqi oʻrnatilishi kerak.

2. Har bir mashgʻulotda morfologik tahlil oʻtkazib borilishi lozim. Morfologik tahlil quyidan yuqoriga qarab murakkablashib boradi. Soʻz turkumiga oid nazariy tushuncha berila borilgani sari morfologik tahlil ham kehgaya boradi. Koʻplab metodistlar, oʻqituvchilar soʻz turkumi oxirida shu turkum boʻyicha tahlil oʻtkazishni tavsiya qiladilar. Masalan, feʼl turkumi oʻrganib boʻlingach, feʼl soʻz turkumi yuzasidan tahlil oʻtkaziladi. Bizningcha, tahlilni har bir mashgʻulotda yuqoridagi kabi quyidan yuqoriga qarab murakkablashtirib borish kerak. Masalan, 6-sinfda harakat va holat feʼllari oʻrganilgach, oʻquvchilar berilgan gapdan feʼlni topib, soʻrogʻini aytadilar, uning harakat yoki holat ekanligini aniqlaydilar.

Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar mavzusi oʻrnatilgach esa yuqoridagi tartibda tahlil oʻtkaziladi va oʻquvchi feʼlning soʻrogʻini harakat va holat feʼli ekanligini, oʻtimli yoki oʻtimsiz ekanligini aniqlaydilar. Tahlil shu tarzda kengayib, murakkablashib boradi.

3. Morfologik tahlilni sintaktik tahlil bilan qoʻshib olib borish yaxshi samara beradi. Bunday yoʻl tutish morfologiya va sintaksis oʻrtasidagi bogʻliqlikni taminlaydi. Bu esa oʻquvchilarga morfologiya oʻrganish jarayonida sintaktik bilimlarni unutmaslik, sintaksisga oid bilimlarni oʻrganishga tayyorlanib borish imkoniyatini beradi.

4. Soʻz turkumlarining maʼnoviy guruhlarini oʻrnatish, ularni bir-biridan ajrata olishga oʻrnatib borish talab etiladi. Bu orqali oʻquvchilar umumiylikdan xususiylikni farqlashga oʻrganib boradilar.

5. Soʻz tarkibi yuzasidan oʻtkaziladigan tahlilni soʻz turkumlariga mos ravishda oʻtkazib borishning ahamiyati katta. Buni feʼl soʻz turkumi yuzasidan oʻtkaziladigan tahlil misolidan tushunishga oʻrganib koʻramiz.

Bunday tahlil ham soddadan murakkabga qarab kengayib boradi. Feʼl nisbatlarini oʻrganish jarayonida oʻquvchilar berilgan gap tarkibidagi feʼl turkumiga oid soʻzni aniqlaydilar va uni tarkibiy qismlarga boʻladilar: Masalan Ilm zehnimizni oʻstiradi. Oʻquvchi feʼlni shunday tarkibiy qismga boʻladi: oʻs-asos, tir-orttirma nisbat shaklini hosil qiluvchi Qoʻshimcha, -a kelasi zamon feʼli qoʻshimchasi, -di shax-son qoʻshimchasi, III shaxs, birlik.

Bunday tahlil doimiy ravishda oʻtkazilib borilsa, oʻquvchi feʼl turkumiga xos morfologik xususiyatlarni yaxshi oʻzlashtiradi, ongli tarzda idrok qiladi.

Mustaqil soʻz turkumlarini ongli tarzda oʻrganishda mavzulararo, turkumlararo hamda sathlararo bogʻlanishni yoʻlga qoʻyishning ahamiyati katta. Ayniqsa, sathlararo bogʻlanish oʻquvchilarga tilni tizim sifatida idrok qilishga, oʻrganilgan til hodisalarini yodda tutib turishga yordam beradi.

Mustaqil soʻz turkumlarini tilning sintaksis, punktuatsiya, orfografiya, leksikologiya kabi boʻlimlari bilan bogʻliq holda oʻrganish imkoniyati mavjud. Mustaqil soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida ularning gapdagi sintaktik vazifasi haqida ham maʼlumot beriladi. Masalan, ot soʻz turkumi barcha gap boʻlaklari vazifasini bajarsa, sifat aniqlovchi, hol, kesim vazifalarida keladi. Feʼl

turkumi esa kesim vazifasiga xoslangandir. Bunday ma'lumotlar berib borish morfologiya sathini sintaksis sathi bilan bog'lash imkoniyatini beradi. So'z turkumlarini o'rganishda imloviy bilimlar ham berib boriladi. Masalan, juft otlar, takroroy otlar, qo'shma otlar, qisqartma otlar o'rgatilganda ularning yozilishi haqida ham ma'lumot beriladi. Shunga doir mashqlar ishlanadi. Qolgan so'z turkumlarini o'rgatishda ham shunday ma'lumotlar beriladi. Bu esa so'z turkumlarini orfografiya bilan bog'liqligini ta'minlaydi.

So'z turkumlarini tilning fonetika, leksikologiya sathlari bilan ham yuqoridagi kabi bog'liqlikda olib borish mumkin. Bunday bog'lanish nazariy ma'lumotlarni berish, amaliy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida, test savollari bilan ishlashda yo'lga qo'yilishi mumkin.

So'z turkumlarini o'qitishning samarali usul va metodlari. O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul*, *guldor*, *gulladi* so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: **nima?** – *gul*, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi – *gullar*, bu ot; *guldor* so'zi **qanday?** so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu – sifat; *gulladi* so'zi **nima qildi?** so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning holatini bildiriyapti, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi – *gullamadi*, bu – fe'l.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'lning gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarni shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

Otni o'rganish metodikasi. "Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri

yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) "ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Kelishikning grammatik ma'nosi.
2. So'roqlari.
3. Qo'shimchasi.
4. Gapdagi vazifasi.

Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'quv dastur va darsliklarda so'z turkumlarining berilish tartibi. Ona tili darsligi til ta'limining maqsad, vazifa va mazmuni asosida yaratiladi, maktabda o'rganiladigan barcha sinflar uchun darsliklar bir-biriga bog'liq holda tuziladi va ta'limning uzviyligiga amal qiladi. Darslik davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilmog'i lozim.

Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylanadi. Shu bois "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv-adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilayapdi. Osiyo taraqqiyot bankining kredit moblag'lari hisobidan "Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish" loyihasi doirasida yangi

avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo'lingan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Kirish.
2. Takrorlash.
3. Sintaksis va punktuasiya.
4. Morfologiya.
5. Fonetika. Grafika.
6. Leksikologiya.
7. O'quv yili oxirida takrorlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili ta'limining uzviylikini quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Ona tili ta'limi bosqichlari (1–4 va 5–11-sinflar orasidagi hamda til bo'limlari mavzularning joylashtirilishi, bunda, albatta, soddadan murakkabga va nazariya va amaliyot uyg'unligi hisobga olinishi zarur) o'rtasidagi (vertikal) uzviylik. Bu jarayonda muayyan ona tili ta'lim mazmunining avvalgisi bilan uzviy bog'langan holda, uni keyingi ta'lim bosqichlarida davom ettirish ta'minlanadi.

2. Ona tili ta'limining boshqa o'quv fanlari orasidagi (gorizontal) uzviylik. Bunda ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan boshqa fanlar bilan uzviy bog'lash ta'minlanadi.

Ona tili ta'limidagi asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy fikrlarini ifodalashga o'rgatishdir. Bu boshlang'ich sinflardan boshlanib umumiy o'rta ta'lim maktablarida davom ettirilishi, rivojlantirilishi, takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilariga birinchi qadamlardan boshlab mazmunli fikrning aniq, tushunarli va to'g'ri tuzilgan bo'lishi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ana shunday sharoit ularning nutqiy ko'nikmalarini maktabning keyingi sinflarida yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Umumiy o'rta ta'limning ona tili predmetida uzviylik va uzluksizlik tilning alohida sathlarini o'rganish tarzida ta'minlangan. Unga ko'ra 5-sinfda sintaksis, morfologiya haqidagi dastlabki ma'lumot beriladi. Bunda kesim, ixcham gap, sodda yoyiq gap, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, gap qoliplari, so'z birikmasi, uyushiq bo'laklar, undalma, qo'shma gap, ko'chirma gap; mustaqil va yordamchi so'zlar, bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilish ko'zda tutilgan. Leksikologiya sohasida esa uyadosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, takror so'zlar haqidagi tushunchalarni o'rgatish rejalashtirilgan. Ona tilining izchil kursida esa bu sinfda fonetika va leksikologiyani o'rganish asosiy ish mazmunini tashkil etadi.

5-7-sinflarda morfologiya, 8-sinfda sintaksis (sodda gap), 9-sinfda qo'shma gap o'rganiladi.

Ko‘rinadiki, umumiy o‘rta ta‘lim maktabidagi ona tili ta‘limi sathlararo uzviylikka tayanadi.

Maktabda ona tili o‘qitish fonetika, grafika, leksika, so‘z yasash, morfologiya, sintaksis va punktuasiyani o‘zida birlashtirgan ekan, bu sistemalilik va izchillik prinsipiga to‘la mos tushadi. O‘quvchilarga fonetika va grafika haqida ma‘lumot bermasdan leksika haqida bilim berib bo‘lmaydi. Tilning leksik boyligi bilan tanishish so‘z yasash, so‘z qurilishi, so‘z turkumlari haqida asosli bilim berishga imkon yaratadi. Shuning uchun leksika bo‘limi morfologiyadan oldin o‘rganiladi.

Morfologiyada o‘quvchilar har bir so‘z turkumini o‘rganish davomida so‘z yasash usullari bilan kengroq tanishib boradilar.

Ot haqida puxta bilim olgan o‘quvchi sifat, son, olmosh kabi mavzular bo‘yicha beriladigan bilimlarni ortiqcha qiyinchiliksiz o‘zlashtirib oladi.

Gap bo‘laklari haqida ma‘lumot olmay turib, undalma va kirish so‘zni o‘zlashtirib bo‘lmaydi.

21 §. So‘z yasalishining tuzilishi va yasalish usullari ustida ishlash metodikasi

Morfologiya so‘z shakllarini va ma‘lum belgilar asosida so‘zlarning guruhlarga bulinishi, ya‘ni so‘z turkumlarini o‘rgatadi. Ot, sifat, fe‘l kabi so‘z turkumlarini boshlang‘ich sinflarda ham, 5-sinflarda ham o‘rgatish ko‘zda tutilgan. Boshqa so‘z turkumlarini esa bir o‘quv yilida o‘rgatish mo‘ljallangan. Hozirgi o‘zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko‘pchiligi morfologik prinsipga asoslangandir. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘zbek tili morfologiyasini puxta bilishi kerak.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda so‘z tarkibi, so‘zning o‘zagi, qo‘shimchalarning turlari kabi tushunchalar bilan birga ot, sifat, fe‘l kabi morfologik kategoriyalar haqida dastlabki ma‘lumotlarni olganlar. 5-sinfda bu ma‘lumotlar eslanadi, mustahkamlanadi hamda morfologik sistemani o‘tish boshlanadi. 5-sinfda har bir so‘z turkumini alohida-alohida o‘tishdan oldin so‘z turkumlari haqida ma‘lumot beriladi. Birinchi mashg‘ulotni quyidagi usulda o‘tish mumkin:

O‘quvchilar "Ot" mavzusini qancha puxta o‘zlashtirishsa, keyingi mavzularni ham anglash imkoniga ega bo‘ladilar. Chunki ot grammatik mohiyatiga ko‘ra boshqa so‘z turkumlari bilan bog‘langan bo‘ladi. O‘quvchilar predmet tushunchasini ko‘z bilan ko‘rish va qo‘l bilan ushlab mumkin bo‘lgan narsalar, deb biladilar. Shuning uchun 5-sinfda predmet tushunchasini o‘quvchilarga endi keng izohlash lozim.

Predmet so‘zi keng ma‘noda qo‘llanib, borliqdagi hamma narsalardan tashqari tasavvur qilingan ayrim mavhum tushunchalarni ham bildiradi. Masalan: yaxshilik, tinchlik... Bundan keyin otlarning morfologik belgilar/son, egalik, kelishik bilan turlanish o‘rganiladi. "Ot" haqidagi ma‘lumotlar fonetika, orfografiya, orfoepiya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi.

Masalan: toqqa, boqqa, o‘rtog‘im, qishlog‘im...

Otning ma'no tomonidan izohini bergan quyidagi jihatlarga e'tiborni tortiladi:

1. Bir narsa-buyum yoki bar turdagi narsa-buyumlarni ifodalanishiga ko'ra-atoqli, turdosh

2. Ifodalagan tushunchaning xarakteriga ko'ra-konkret-abstrakt

3. Yakkalik, jamlikni ifodalashiga ko'ra-yakka ot, tuda ot

4. Sanalish-sanalmasligiga ko'ra-sanaladigan ot, sanalmay-digan ot.

I. *Turdosh va atoqli otlar*

Bu mavzuni o'tish jarayonida o'qituvchi kishilarning aniq nomlaridan tashqari, taxalluslar va jonivorlarga atab qo'yilgan nomlar ham atoqli ot sanalishini alohida izohlaydi.

Turdosh ot bir turdagi predmetlarni boshqa turdan ajratsa (kitob, ruchka, suv), atoqli ot shu turning ichidan bittasini nomlaydi (Qoplon, Arslon).

Ayniqsa, turdosh otning atoqli otga ko'chishini maxsus mashqlar yordamida mustahkamlash kerak.

to'lqin-To'lqin, uchqun-Uchqun, g'ayrat-G'ayrat.

Shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzdiriladi. Qaysi o'rinda turdosh, qaysi o'rinda atoqli bo'lib kelayotganligi izohlanadi.

Atoqli otlar haqida bilim berilganda, ayrim otlarning qo'shtirnoq ichiga olinishini alohida ta'kidlanadi va bunga bag'ishlangan maxsus mashqlar o'tkaziladi.

II. *Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi*

Otlardagi son kategoriyasi uning morfologik belgilaridan biridir. O'quvchilar diqqati doim birlikda qo'llaniladigan otlarga jalb qilinadi.

M.: temir, suv, xaloyiq

O'quvchilar e'tibori juft predmetlarni bildiruvchi otlarga ham tortiladi: qo'l, ko'z, oyok, etik

O'qituvchi ko'plik qo'shimchasI lar ustida to'xtalganda uning ma'nolari xilma-xilligini aytib o'tadi. Masalan: xalqlar, armiyalar, sutlar, otamlar, bizlar

III. *Otlarning egalik qo'shimchalari*

Bu mavzu tushuntirilayotganida egalik qo'shimchalarining xususiyatlariga, ularning yozilishiga alohida e'tibor qilish talab etiladi.

Bu o'rinda o'quvchilarga III shaxs ko'plik qo'shimchasining bir xil qo'llanishi alohida izohlanishi kerak. Egalik qo'shimchalarining yozilishini o'tishdan oldin fonetikadan o'tilgan jarangli va jarangsiz undoshlar eslanadi.

o'rtoq]im-o'rtog'im singil]im-singlim kabilar izohlanadi.

IV. *Otlarning turlanishi*

Shu mavzu yuzasidan o'quvchilarning boshlang'ichda olgan bilimlari takrorlanadi. Kelishiklar orqali otning gapdagi vazifasi aniqlanadi...

Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llashni alohida mashqlar vositasida izohlash lozim.

-ning ot]otni bog'laydi kitobning beti

-ni ot]fe'lni bog'laydi kitobni o'qidik
Sizni opangiz chaqiryaptilar-o'z opangiz
Sizning opangiz chaqiryaptilar-boshqa bir odamni

Demak, -ning va-ni qo'shimchalarini noo'rin qo'llash fikriy aniqlikka putur yetkazadi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishiga ham e'tibor berish talab etiladi. Bunda nuqtalar o'rniga zarur kelishik qo'shimchasini qo'yib ko'chirish kabi mashq turlaridan unumli foydalanishga alohida e'tibor beriladi.

So'z yasash – derivatsiyon nazariyalar va yasash qoliplari. So'z yasash qolipi ikki tomonli – shakl va mazmun tomonlaridan iborat bo'lib, ular lisoniy birlik hisoblanadi. Masalan, ot so'z turkumi+boz = ot anglatgan narsa / predmetni bildirgan mazmunga aloqador bo'lgan shaxs (kishi) oti vujudga keladi. Ot so'z turkumi+boz so'z yasash qolipini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning ikki tomoni mavjud: shakl va mazmun. Bunday so'z yasash qolipida shakl tomon (Ot so'z turkumi+boz...) mazmun tomoni esa (ot anglatgan narsa(predmet)ni bildirgan mazmunga aloqador bo'lgan shaxs oti) so'z yasash qolipining shakl tomoni so'z yasash asosi hamda so'z yasash vositasidan iborat, uning mazmun tomonini esa leksik-grammatik xususiyatlar majmuasi sifatida olingan hosila tashkil etadi. Formulaga keltiradigan bo'lsak: ot (so'z yasash asosi) = X(iks), derivatsion morfema (vosita) = -y (igrik), yasash qolipi = Z(zet), leksik-grammatik xususiyatlar majmuasi = M(em) mavjud deb qaralsa, $X+y=Z$. Bunda Z(zet)ning shakli qolip (so'z yasash qolipi), mazmuni leksik-grammatik xususiyatlar majmuasidir. Bunda $Z = M$, $2Z = M$, $Z = 2M$, $3Z = M$, $Z = 3M$, $4Z = M$, $Z = 4M$ ko'rinish tusini ham olish mumkin. Mazmun va shakl teng kelishi yoki bir necha shakl bir mazmunni, bir shakl bir necha mazmunni ifodalashi ham kuzatiladi.

O'zbek tilida umumlashgan ma'nolarning ifodalanish usullariga ko'ra namuna sifatida so'z yasash qoliplarining bir necha ko'rinishlarini sanab o'tish mumkin; tabiiyki, ularning tur va xillari juda ko'p va ko'rsatilgan namunalarning o'zi ham o'nlab ko'rinishlarni o'z ichiga oladi.

Affiksial so'z yasash qolipi:

-suffiksial: [ot + **-chi** = so'z yasash asosi anglatgan narsa/hodisa... bilan aloqador ish-harakatni bajaruvchi shaxs/predmetni atovchi ot].

-prefiksial: [be + ot = so'z yasash asosi atab kelgan narsa/hodisa, belgiga ega bo'lmaslik ma'noli sifat].

Yordamchi/ko'makchi so'zli so'z yasash qolipi – [ot + **bo'l-** = o'timsiz fe'l].

Takror usulli so'z yasash qolipi – [numerativ + to'liq takror = daraja = miqdor ravishi].

Qo'shma so'z beruvchi so'z yasash qolipi – [shaxs nomi + o'timli/o'timsiz fe'lning aniq/orttirma/o'zlik nisbat asosi + **-di** = so'z yasash asosi bilan aloqador marosim nomi ma'noli ot].

Tarkibli (qo'shma) so'z beruvchi qolip – [o'nlikni atovchi sanoq son + birlikni atovchi sanoq son = o'n birdan to'qson to'qqizgacha sanoq son].

Soʻz yasash qolipi xuddi gap yasash qolipiga oʻxshaydi; unda kesim gapning markazi boʻlsa, bunda yasalmaning markasi asosdir. Shuni unutmazlik kerakki, har doim yasalgan soʻz hamda yasovchi soʻz oʻzaro yasalmalik munosabati bilan bogʻlangan boʻladi. Tarkibda bunday bogʻlanish har doim sezilib turadi. Yasalgan soʻz asosdan uzoqlashib, uzilib ketmaydi: bularning oʻzaro aloqasi soʻz yasash munosabati hisoblanadi. Leksema va morfemalar orasidagi maʼnoviy aloqa sezilmas holga kelib qolishi ham mumkin. Bu holatda orada soʻz yasash munosabati boʻlmaydi, yasama soʻz taraqqiyot natijasida tub soʻzga aylanadi hamda soddalanish hodisasi yuz beradi. Soʻz yasash sistemasi deganda, shu ikki element orasidagi formal va semantik (shakl va mazmun) munosabatlarning birgaligini, yigʻindisini tushunamiz.

Soʻz yasash qolipida ikki asosiy unsur mavjud. Bu unsurlar leksema(asos) hamda yasovchi birlik (leksema, morfema)dan iborat. Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil leksema, yasovchi vosita qismi esa leksema ham, morfema ham boʻlishi mumkin. Masalan, qoʻshma, juft soʻz yasash qoliplarida asos ham, vosita ham leksemadir.

Har bir qoʻlip oʻzining yasash belgilari jihatidan farqlanadi. Shuning uchun qoliplarning soʻz yasash darajasi bir xil boʻlmaydi. Qoliplar dastlab bugungi kunda hosila berish-bermasligiga koʻra farqlanadi. Bugungi kunda hosila berish-bermasligiga koʻra soʻz yasash qoliplari unumli va unumsiz qoliplarga boʻlinadi. Qoliplarning baʼzilari til tarixida soʻz yasagan, ular hosilalarining barchasi tarixiy soʻz yasashga oid boʻladi. Bunday qoliplar *unumsiz soʻz yasash qoliplari* hisoblanadi. Chunonchi, *shigʻovul, qorovul, yasovul* hosilalarini bergan qoliplar jonli qoliplar emas. Unumsiz (tarixiy) soʻz yasash qoliplari hozirda hosila bermaydigan, soʻz yasash uchun xizmat qilmaydigan qoliplardir. Chunonchi, *bosqin, uchqun, keskin, toʻlqin* soʻzlari (feʼl + gin = ot) qolipi asosida hosil qilingan. Ammo ushbu qolipdan chiqqan hosilalar turlicha boʻlib, ulardan tushunilgan maʼnolarni qolipning tenglik belgisidan oʻng tomondagi mazmuniy tomonidan keltirib chiqarish mumkin emas. Chunki bu hosilalar tarixiy taraqqiyot natijasida yasalgan yasama soʻzlar boʻlib, davrlar oʻtishi bilan ularning maʼnoviy tabiatida ham, grammatik jihatlarida ham evolyutsiya jarayoni kechgan. Va bugungi kun uchun asos – leksema sifatiga kelib qolgan. Chunki qolip bugungi kunda amal qilmaydigan holga kelgan, ularning hosilalari esa qolipdan behad uzoqlashib, maʼnolarning ixtisoslashishi va bir-biridan uzoqlashishi yuz berganligini kuzatish mumkin. Natijada aslida bir qolipdan chiqqan yasalmalar mustaqil leksemalarga aylanib, bir-birinikiga yaqin va bogʻliq boʻlmagan turli-tuman maʼnolarni anglatib qolgan.

Bugungi kunda ham hosila berib turgan qoliplar *unumli soʻz yasash* qoliplari deyiladi. Unumli soʻz yasash qoliplari hosila berish darajasiga qarab oʻz oʻrnida ikkiga boʻlinadi: *mahsuldor unumli soʻz yasash qoliplari* va *kammahsul unumli soʻz yasash qoliplari*. *-gar, -kash, -mon* vositali qoliplar unumli kammahsul qoliplarga misol boʻlsa, *-chi, -li, -la* vositali qoliplar mahsuldor unumli soʻz yasash qoliplariga misol boʻladi.

Barcha til birliklari kabi yasama soʻzlar ham lisoniy va nutqiy sathlarga daxldor boʻladi. Boshqacha aytganda, yasama soʻzlar nutqiy ham, lisoniy ham boʻlishi mumkin. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi soʻzlarni tahlilga tortaylik: *paxtakor, ishchi, kitobchi, domladosh, aqlli, daftarchi, sharsimon, uysimon*. Soʻzlarni ikki guruhga ajratamiz: a) *paxtakor, ishchi, aqlli, sharsimon*; b) *kitobchi, domladosh, daftarchi, uysimon*. Har ikkala guruh soʻzlari ham yasama soʻzlar hisoblanadi. Lekin ulardan birinchisi qoʻllash uchun qulayligi, oʻzbek tilida soʻzlovchi va tinglovchilarning unga odatlanganligi, shuningdek, keng isteʼmolliligi bilan xarakterlansa, ikkinchi guruh soʻzlari unchalik qulay emasligi, kam isteʼmolliligi, favquloddaligi bilan birinchi guruh soʻzlaridan qisman boʻlsa-da ajralib turadi.

Umuman olganda, yasama soʻzlarning baʼzilari nutq bosqichidagina mavjud boʻlsa, ayrimlari oʻzlarini chiqargan qoliplardan uzoqlashib, bir butun holda lisoniy bosqichga koʻtarilib ketgan. Yasalmalarning lison va nutqqa munosabati jihatidan soʻz yasash qoliplari ham farqlanadi. Ularni unumsiz va unumli soʻz yasash qoliplari sifatida farqlaymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, soʻz yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplardan iborat ekanligini kuzatish mumkin. Soʻz yasashida har bir birlikning oʻz oʻrni bor. Birlamchi asos yoki asoslar, keyin morfemalar muhim ahamiyatga ega. Hosila esa ularning birikuvidan hosil boʻladi. Hosila (derivat)derivatsiyaning natijasini taqozo etadi. Bu natija soʻz yasash qoliplarini yuzaga chiqaradi.

Shunga koʻra derivatsion qolipning uch koʻrinishi ajratiladi:

1. Soʻz yasalishi qolipi;
2. Soʻz birikmasi qolipi;
3. Gap qolipi.

Derivatsiyaning imkoniyatlari juda ham keng boʻlib, u soʻz yasashdan tashqari soʻz birikmasi hatto gaplarning ham yasalishini oʻrganadi. Soʻz yasash tizimida esa soʻz yasalishiga nisbatan ancha keng tushuncha boʻlib, soʻz yasalishini ham, ichki imkoniyat asosida yangi leksema paydo boʻlishini ham oʻrganadi. Shu asosga koʻra ham turli qoliplar shakllanadi. Soʻz yasalishi – sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Maʼlumki, oʻzbek tilshunosligida yangi soʻz yasalishining bir necha usullari ajratilib, ulardan faqat ikkitasi: affiksatsiya (morfologik usul) va kompozitsiya (sintaktik usul) asosiy usullar sifatida eʼtirof etiladi. Fanimizda feʼl, ot, sifat va ravishda ushbu usullar bilan yangi soʻz yasalishi maʼlum. (Ayrim manbalarda sonlarning ham tarixan yasalishi koʻrsatilgan: sakkiz+oʻn = sakson.)

Soʻz yasash deganda nimani tushunish kerak? ***Soʻz yasash bu turli vositalar, har xil qoliplar orqali yangi soʻz yaratish.*** Bu yaratish sinxron va diaxron boʻlishi ham mumkin. Derivatsiya jarayoni tilning leksikasi bilan, morfologik, fonetik, sintaktik tarkibi va maʼnoviy koʻrinishi bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Shu sababli ham oʻzbek tilida soʻz hosil qilishning – leksema yaratishning juda koʻplab usullari oʻrganilgan.

Tegishli adabiyotlarda hozirgi o'zbek adabiy tilida (shuningdek, boshqa turkiy tillarda) so'z yasashining ikkitadan yettitagacha (ayrim adabiyotlarda o'ntagacha) turi mavjudligi qayd etilgan. So'z yasashining ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan hamda lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan quyidagi usullarni ko'rsatish mumkin:

1). **Affiksatsiya usuli** – affiks yordamida yasash: *ish+chi (ishchi)*, *gul+don (guldon)*, *son+a (sana)*.

2). **Kompozitsiya usuli**: so'z qo'shish yo'li bilan yasash: *foto+jurnal (fotojurnal)*, *ot+boqar (otboqar)*, *muz+yorar (muzyorar)*, *beshik+tervatar (beshiktervatar)*, *bu+kun (bugun)*.

3). **Konversiya usuli** – boshqa turkumga ko'chish yo'li bilan yasash: *chopar (chopadigan ma'nosidan chopuvchi ma'nosiga)*, *ilg'or (ilg'aydigan, biladigan ma'nosidan ilg'ab oluvchi, oldinda ketuvchi ma'nosiga)*, *qaynatma (fe'ldan otga, otdan sifatga)*, *g'isht bino (otdan sifatga)*, *bu ishning lekini bor (bog'lovchidan otga –transpozitsiya)*, *yangi (eski emas) – yangi (hozirgina)*, *turdi (Turdi)*, *rayhon (Rayhon)*, *gavhar (Gavhar)*.

4). **Semantik (yoki leksik-semantik) usul** – so'zlarni ma'no yaxlitlanishidan: *hol+bu+ki (holbuki)*, *o'z+bil+ar+mon (o'zbilarmon)*.

5). **Fonetik usul** – har xil fonetik o'zgarishlar yordami bilan yasash: *ko'r-ko'z*, *bo'r-bo'z*, *kun-tun*, *aka-uka*, *qis-siq*, *yoz-yoy*, *yoq(tomon)-yov(dushman)*, *yoq(yoqishga)-yon(yonishga)*.

6). **Leksikalizatsiya (leksik-grammatik) usuli** – leksema tarkibigagi grammatik vosita qotib qoladi va yasash obyektiga aylanadi: *to'sat+dan (to'satdan)*, *tez+da (tezda)*, *bir+dan (birdan)*, *kecha+si (kechasi)*, *kel+ish+gan (kelishgan)*.

7). **Abbreviatsiya usuli** – so'zlarni qisqartirish orqali yasash: *BMT(Birlashgan Millatlar Tashkiloti)*, *GulDU (Guliston davlat universiteti)*, *MCHJ (Mas'uliyati cheklangan jamiyat)*.

8). **Reduplikatsiya usuli** – bir leksemaning aynan takrorlash yo'li bilan yasash: *pat-pat (traktor)*, *bib-bib (mashina)*, *xola-xola*, *poyezd-poyezd*, *tosh-tosh (o'yinning turi)*, *man-man (o'zini ko'rsatadigan belgi)*, *ba-ba (qo'y)*, *miyov-miyov (mushuk)*, *tu-tu (parranda yoki qush)*.

Derivatsiyaning bunday usullari tilshunoslikda keng tarqalgan. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, yangi leksema tildagi mavjud materiallardan hosil qilinadi degan ma'noni bildirish bilan tengdir. Masalan, *qaynatma* (qayna+t+ma) so'zi *qaynat* va *-ma* birliklaridan derivatsiyaning ma'lum bir qolipi asosida kelib chiqqan. Demak, bu hosilaning yangi so'zligi nisbiy hisoblanadi. So'z yangi hosil qilinsa-da, undagi elementlar mavjud birliklardan olingan: *qayna* – buyruq fe'li, *-t* orttirma nisbat morfemasi, *-ma* – ayni damda, fe'l yasovchi morfema. Ya'ni uning materiali eski, ma'nosi yangidir. Demak, so'z yasashida material hamisha mavjud birliklardan olinadi, ya'ni ma'lum birlik batamom yangi tushunchani anglatsa ham yangi birliklar asosida yasalmaydi. Bu esa yasash subyekti sinxron, yasash obyektini diaxron ekanligini ko'rsatadi.

Ayrim adabiyotlarda grammatik usul bilan soʻz yasash oʻzbek tilida uch xil koʻrinishga ega ekanligi qayd etilgan. Bular: a) kompozitsiya, b) affiksatsiya, v) transpozitsiya usullari. Keltirilgan maʼlumot derivatsiyaning eng faol usullari hisoblanib, ularni amaliyotda keng qoʻllaymiz. Quyida ular xususida ozroq fikrlashamiz.

Soʻz yasalishining affiksatsiya usulida soʻz yasash asosiga soʻz yasovchi vosita - affikslar qoʻshilishi orqali yangi soʻz hosil qilinadi. Masalan, *gulchi, shifokor, gulchi, fikrla, suvli* kabilar. Bu jarayon nutq momentida sodir boʻladi. Yasalish tarzida ongda mavjud leksik birlik – leksema hamda morfem birlik – morfema nutq momentiga koʻchadi. Biz ularni ikkisini birlashtirib bir butunlik holatida namoyon etamiz: ongdagi tabiat mahsuli boʻlmish gul goʻzallik timsoli sifatida mavjud va oʻsha mavjudlikka odatda shaxs oti yasovchi morfema sifatida ongda shakllangan -chi morfemasi avtomatik tarzda birlashadi. Yoki aksincha boʻlishi ham mumkin: *gulchi* soʻzi ongda tabiat inʼomi boʻlgan *gul* hamda shaxs oti yasovchi sifatida gavdalanadigan -chi morfemasidan iborat. Mavjud birlikning ikkinchi mavjud birlikka yasash asosida birikishi morfemikada derivatsion hodisadir.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan soʻzlarni affiksli hamda suffiksli tarzida ham boʻlish mumkin. Bunda yasalish asosi oʻzgarimas boʻlib, unga birikadigan morfemalar asosning qayerida kelishi orqali belgilanadi. Asosdan oldin kelgan suffiksli yasalmalar hisoblanadi: *ser+gʻayrat, be+maʼni, be+xato, no+oʻrin*. Bunday yasalish aslida tojik tilidan oʻzlashgan birliklarda koʻp uchraydi, chunki bu suffikslar tojik tilidan oʻzlashgan. Asosdan keyin kelgan affiks orqali yasalmalar: *ek+in, qishloq+i, loy+qa, vahima+chi*. Affiksatsiya usulini affikslarning sodda va murakkablik darajasiga qarab ham farqlash mumkin: *suv+chi; odam+garchilik*.

Soʻz yasalishining kompozitsiya usulida birdan ortiq mustaqil maʼnoli leksema qoʻshilishidan yangi soʻz hosil boʻladi. Bu usul bilan qoʻshma soʻzlar hosil qilinadi. Qoʻshma soʻzlarning kelib chiqishi, ularning hosil boʻlish usullari, orasidagi farqlar ham shu usul tarkibida aniqlanadi. Masalan: *koʻr+sichqon, oy+bolta, tuya+qush, sotib olmoq, kelib ketmoq, kirib chiqmoq* kabi. Soʻz hosil qilishda bu usullarning amalda qoʻllanishi turlicha boʻlib, bugungi kunda ular ham farqlanadi.

Kompozitsiya usulida soʻz hosil qilishning oʻz turlari bor:

1. Tarkibda soʻz turkumlarining ishtirokiga koʻra: mustaqil soʻz+mustaqil soʻz (*ot+quloq, suv+ilon*); mustaqil soʻz+yordamchi soʻz (*koʻmakchi feʼl: oʻqib chiqdi, aytib qoʻydi*)... *ot+ot, ot+sifat, sifat+ot, ot+feʼl, son+feʼl*...

2. Tarkibda leksemalarning maʼno saqlashiga koʻra. Mustaqil soʻzlar birikuvida tarkibning oʻzgarishi bilan bogʻliq yana bir qancha turlarga boʻlish mumkin:

- a) tarkibda leksemalar maʼnosi saqlangan: *tuya+qush (tuyaqush)*;
- b) tarkibda bir leksema maʼnosi saqlangan (ikkinchisi saqlanmagan: *sariq+yogʻ (saryogʻ)*);
- c) tarkibda leksemalar maʼnosini saqlamagan *qora+yogʻ och (qayragʻ och)*.

3. Tarkibda leksemalar miqdori jihatiga ko‘ra ham turlarga ajratish mumkin: tarkibdagi leksemalar miqdoriga ko‘ra ikki tarkibli (ot+quloq); uch tarkibli (o‘qib turgan edi, gul+toji+xo‘roz)...

4. Kompozitsiya usulining yozilishiga ko‘ra: ajratib yoziladigan (aytib qo‘y); qo‘shib yoziladigan (oy+bolta) yasalmalar sifatida ham o‘rganish mumkin.

5. Tarkibi morfemali yoki morfemasizlikka ko‘ra turi: tarkibida morfemasi mavjud (iska+b+top+ar); tarkidada morfema yo‘q (Oq+oltin, ko‘k+sulton)...

So‘z yasalishining transpozitsion usul bilan so‘z yasalganda asosan konversiya (ko‘chish) nazarda tutiladi. Ya‘ni bir turkumdagi so‘z nutqda ikkinchi turkum so‘zi ishlatiladigan sintaktik qurshov va vazifada ishlatiladi. Transpozitsion usulda turkumlararo ko‘chish yuz beradi.

Bu usulning ham o‘z o‘rnida ichki bo‘linishi mavjud:

1. Ko‘chish holatiga ko‘ra turi:

A). Konversion ko‘chish. Diaxron ko‘chish deb ham nomlash mumkin. Bunda so‘z turkumi batamom ko‘chishi kuzatiladi. Ya‘ni so‘z turkumi ortiga qaytmasdan shu turkumda o‘rnashib qoladi. Masalan, fe‘l so‘z turkumiga mansub qaynat+ma so‘zi qaynatish jarayoni bilan yasalgan taom nomiga ko‘chgan: qaynatma (shu taom nomi ostida taomga belgi mazmunini yuklaganda sifatga ko‘chadi: qaynatma sho‘rva);

B). Transpozitsion ko‘chish. Sinxron ko‘chish deb ham nomlash mumkin. Bu turda ko‘chish holati vaqtinchalik – o‘sha vaziyatdagina amal qiladi. So‘z turkumi o‘zining yangi ma‘nosini yasaydi va vazifasini bajarib bo‘lgach yana ortga – asl holiga qaytadi. Masalan, ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan *temir* leksemasi nutq vaziyatida sifat so‘z turkumiga ko‘chadi: *temir eshik*. Mazmundan anglashilyaptiki, mazkur holat ko‘chish yo‘li bilan so‘z yasalishi hisoblanadi. Bu holat aynan qolip sifatida olinmasa-da, yasalish usuli sifatida keng iste‘molda bo‘ladi. Bunday turkumlar doirasida ko‘chishning ham o‘z ichida yana turlarga bo‘lish mumkin.

2. Turkumlar doirasiga ko‘ra transpozitsiya. Turkumlardan bir-biriga o‘tish holati bilan belgilanadi. Bir turkum so‘z ikkinchi turkum vazifasini bajarish orqali yangi ma‘no ifodalaydi. Ma‘no ifodalash orqali yangi so‘z ma‘nosini yasaydi. Transpozitsiyaning bunday usuli ichki yana turlarga ajraladi. Bularni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

A. Substantivatsiya turi. Substantivatsiya boshqa so‘z turkumlarining ot o‘tnida kelishi, ya‘ni otlashish jarayoni. *Qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar. O‘g‘ri qarisa mulla bo‘ladi.*

B. Adyektivatsiya turi. Adyektivatsiya bu sifatlashish holatidir. Ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan, metalning nomini bildiruvchi *po‘lat* so‘zi matn tarkibida o‘z ma‘nosini yo‘qotib sifat beradigan ma‘noga ko‘chadi. Misollar: *po‘lat tasha, tilla uzuk, kelishgan yigit, mehnatsevar qiz.*

C. Pronominalizatsiya turi. Boshqa soʻz turkumlarining olmoshga koʻchishi pronominalizatsiya deb yuritiladi. Chunonchi, *kamina*, *faqir* soʻzlari shu yoʻl bilan koʻchgan.

D. Konyuksionalizatsiya turi. Boshqa turkumga oid soʻzlarning bogʻlovchiga koʻchishi konyuksionalizatsiya deyiladi. Bordi-yu, kelmasa-chi? Shart bogʻlovchisi vazifasini bajaryapti.

E. Adverbializatsiya turi. Boshqa turkumga oid soʻzning ravishga koʻchishi adverbializatsiya deb yuritiladi. Adverbializatsiya usuliga misollar bugungi kunda koʻp uchraydi: kunda, yaqinda, birdan, toʻsatdan...

F. Verbalizatsiya turi. Verbalizatsiya bu boshqa turkum soʻzlarining feʻlga oʻtishi, yaʼni feʻllashuvi. Koʻkka qarab intilishi, rangining koʻkligi (aslida yashil), koʻkatligi (osimlik ekanligi) inobatga olinib koʻkarish maʼnosidagi *koʻk* leksemasida ham shu holatni kuzatish mumkin. Bunga *koʻr* leksemasini ham misol qilib olish mumkin. (Leksikalizatsiya jarayonlari haqida keyinroq batafsil maʼlumot beramiz.)

Soʻz yasalishining semantik usul bilan soʻz yasashda tilning lugʻat fondida mavjud boʻlgan leksemaning maʼnosi oʻzgarishi natijasida yangi maʼno hosil boʻladi. Bu usul baʼzi adabiyotlarda leksik-semantik usul deb ham yuritiladi. Masalan, tosh (biror narsaning sirti, tashqi tomoni, “sirt” maʼnosida) – ot soʻz turkumi; ichdan tashqariga toshib chiqish - feʻl soʻz turkumi; tosh - oʻlchov birligi – ot soʻz turkumi; tosh - fizik jism - ot soʻz turkumi. Yoki ish – ot soʻz turkumi (mehnat turining nomi); ish - jazo – ot soʻz turkumi. Leksik-semantik usul bilan soʻzlarni maʼno yaxlitlanishi ham mumkin: *holbuki*, *oʻzbilarmon* kabi. Bunda tarkibda yangi maʼno hosil boʻladi, yaʼni leksema oʻz maʼnosini boshqa yasalmaga beradi va yangi maʼno shakllanadi.

Soʻz yasalishining fonetik usul bilan soʻz yasalganda leksema tarkibidagi baʼzi tovushlar oʻzgarishi va urgʻuning oʻrni koʻchishi natijasida tugʻiladigan yangi maʼnolar – yasalmalar nazarda tutiladi. Buday yasalish ham ancha tarixiy hisoblanib bugungi kun uchun diaxron holatdir. Fonetik usulni har xil fonetik oʻzgarishlar yordami bilan yasash deb tushunish lozim.

Bu usulni ham ikki turga boʻlib tahlil qilish mumkin:

Birinchi, leksemada konkret tovush oʻzgaradi va uning oʻrniga yangi maʼno ijodalaydigan leksemaga yaqin boʻlgan tovush kirib keladi. Shu jihatdan bu soʻzlar maʼnoviy bir-biriga bogʻliq boʻladi. Chunonchi, koʻr – koʻz, boʻr – boʻz, buva – buvi, hozir – xozir...

Ikkinchi, leksema tarkibida shakl jihatidan oʻzgarish kuzatilmaydi. Maʼlum bir birlik ikkinchi birlikning maʼnosini ifodalab keladi, shuning uchun bu birliklar shakl tomonidan omonimlik xususiyatini namoyon etadi. Ammo ikki soʻzning farqlanishi jarayoni urgʻu bilan belgilanadi. Yaʼni yangi yasalma urgʻu bilan farqlanadi. Chunonchi: olma – olma, yangi – yangi...

Fonetik usulda leksemaning qaysi qismida oʻzgarish boʻlishiga qarab ham turlash mumkin, bunda farq kontrast distributsiya (til elementlarining bir xil pozitsiyada biri oʻrnida ikkinchisining kela olishi va bunda boshqa-boshqa

ma'noli birliklarni farqlab turishi) bilan farqlanadi. Shu jihatga ko'ra ular old o'zgarish, yon o'zgarish hamda ort o'zgarish tipiga ajratib tahlil qilinadi.

Fonetik usulining old o'zgarishlari, ya'ni leksema tarkibida old tomondan o'zgarish sodir bo'lish orqali yangi ma'no ifodalanadi. Masalan, *kun-tun, aka-uka...*

Fonetik usulning yon o'zgarishlari ancha tarixiy hisoblanadi, tashqi tonondan old tovush orqaga, orqa tovush oldinga o'tib qoladi. Bunda tovushlarni almashinishi emas, balki joy almashuvi sodir bo'ladi: *qis-siq*.

Fonetik usulining ort o'zgarishlari holati ancha keng tarqalgan. Fonetik o'zgarishning bu turida orqa tomondagi tovush boshqa bir tovush bilan almashadi hamda yangi so'z hosil qilinadi: *ko'r-ko'z, bo'r-bo'z, yoz-yoy, yoq (tomon)-yov (dushman), yoq (yoqishga)-yon (yonishga)* kabi.

Nazorat uchun savollar:

1. So'z yasash qolipining qanday tomonlari bor?
2. Yasash qolipi deganda nimani tushunasiz?
3. Gap yasash qolipida kesim gapning markazi bo'lsa, so'z yasash qolipida-chi?
4. So'z yasash qolipida ikki asosiy unsur mavjud, bular qaysi unsurlar?
5. Derivatsiyaning imkoniyatlari qanday?
6. Kompozitsiya usulida so'z hosil qilishning qanday turlari bor?
7. Ko'chish va transpozitsiya usullarini qiyoslab ko'ring.
8. Semantik usul bilan so'z yasashda qaysi jihat inobatga olinadi?
9. Fonetik usul bilan so'z yasalishini tushuntirib bering.
10. Hozirgi kun adabiy jarayonida faol ishtirok etayotgan adabiy tanqidchilardan kimlarni bilasiz?
11. Hozirgi zamon she'riyatidagi shakliy-uslubiy izlanishlar haqida ma'lumot bering.
12. So'nggi yillarda roman janrida qanday asarlar yaratildi?
13. Jahon adabiyotidan o'zbek adabiyotiga qilingan tarjimalar va undagi muammolar haqida ma'lumot bering.
14. Moderenizm qanday adabiy oqim va uning o'zbek adabiyotidagi ko'rinishlari haqida nimalar deya olasiz?

Tayanch so'z va iboralar:

So'z yasash qolipi, so'z birikmasi qolipi, gap qolipi, yasash qolipi, suffiksial, prefiksial, asos, yasalmalik, leksema, morfema, so'z yasalish sistemasi, formal va semantik munosabat, lisoniy va nutqiy sath, unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar, hosila (derivat), sinxron va diaxron, konversion ko'chish, diaxron ko'chish, transpozitsion ko'chish, sinxron ko'chish, substantivatsiya, adyektivatsiya, pronominalizatsiya, konyuksionalizatsiya, adverbializatsiya, verbalizatsiya, fonetik o'zgarish, derivatsiya, leksik derivatsiya, sintaktik derivatsiya, yasalgan so'z, yasalmalik munosabati, soddalanish, yasalish strukturasi, formal va semantik munosabatlar, lug'aviy ma'no, tillarning agglyutinativ tabiati, struktur-semantik, lisoniy

ko‘rinish, morfemika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, leksik birlik yasash, affiksatsiya usuli, kompozitsiya usuli, konversiya usuli, semantik (yoki leksik-semantik) usul, fonetik usul, leksikalizatsiya (leksik-grammatik) usuli, abbreviatsiya usuli, reduplikatsiya usuli, urg‘u.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahridinova B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (majmua) – T.; 2016.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2010.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.; 1985.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – T.; 2006.
5. Sayfullayeva R. va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.; 2010.
6. Berdialiyev A. O‘zbek tili ergash gapli qo‘shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. – T.: Fan, 1992.
7. Ne‘matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – T.: Universitet, 1999.
8. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.; 1988.
9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992.
10. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun.
11. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. – T.; 2005.
12. Mahmudov N., Nurmonov A. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” – T.: O‘qituvchi, 1995.
13. Shamsiyeva M. So‘z turkumlarini sintaksis asosida o‘rganish. Ilmiy-metodik to‘plam. – T.; 1993.
14. Uralov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.; 2021.

Elektron ta’lim resurslari

15. www.ziyo.uz – Ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi materiallar sayti
16. www.ziynet.uz – Ijtimoiy axborot ta’lim portali
17. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti
18. www.natib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti
19. www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

SINTAKSIS HAMDA PUNKTUATSIYA BO‘LIMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Ko‘riladigan masalalar:

1. So‘zlarning grammatik va lug‘aviy ma‘nolari, ma‘no guruhlari, so‘z tarkibi ustida ishlash usullari.

2. Sintaksis bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Sintaksis bo‘limini o‘qitishning uzviyligi va metodikasi.

3. Punktualsiya o‘qitishning o‘ziga xos usullari. Tinish belgilarning qo‘llanilishini grammatik qoidalari bilan bog‘lab o‘rganish metodikasi.

22 §. So‘zlarning grammatik va lug‘aviy ma‘nolari, ma‘no guruhlari, so‘z tarkibi ustida ishlash usullari

Pedagogik ta‘limda eng zamonaviy texnologiya hisoblangan OVKT – *ongli verbal kognitiv ta‘lim* asosida tashkil qilingan ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni mukammal egallash, til imkoniyatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi. Nutq madaniyati oddiy salom-alikdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qayerda, qanday so‘zlashgacha bo‘lgan sharqona odob va muloqot sirlarini o‘rgatadi. Mazkur xususiyat o‘quvchilarga fonetik hodisalar va til qonuniyatlarini o‘rgatish jarayonida singdirib boriladi.

Adabiy til me‘yorlari, grammatik bilim ko‘nikma va malakalar tizimi, ularni amaliyotda qo‘llash asosida egallanadi. Bu esa mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, izchil, aniq, tushunarli ifodalash imkonini beradi.

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi, u morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya bo‘limida so‘z tarkibi va so‘z turkumlari, sintaksis bo‘limida so‘z birikmasi va gap turlari o‘rganiladi.

Grammatika atamasi grekcha “**grammatike**” so‘zidan olinib, “o‘qish va yozish haqidagi bilim” degan ma‘noni bildiradi. Grammatik bilimlar o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Morfologiyani o‘rganish metodikasi. Talaba (o‘quvchi)lar “morfologiya” bo‘limini o‘rganish jarayonida tilning adabiy me‘yorlari, so‘zning shu me‘yorlar doirasida o‘zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari), so‘zni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish prinsiplari bilan tanishadilar.

So‘z turkumlari mavzusini o‘rganishda so‘zning tarkibi, yasalish jarayoni bilan tanishuv orqali o‘quvchilar so‘zning lug‘aviy va grammatik xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o‘zaro qiyoslash, ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash malakalarini egallaydilar, lug‘at xazinasini boyitadilar. Hozirgi o‘zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko‘pchiligi morfologik prinsiplarga asoslanganini hisobga olgan holda morfologik hodisalarni o‘rganishda imlo masalasiga alohida ahamiyat berish lozimligini o‘quvchilar ongiga yetkazish lozim bo‘ladi.

Morfologiyani o'rganish o'quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so'zning turli shakllarini o'rganish va yangi so'z hosil qilish, ularni o'zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so'zni gap tarkibida hamda bog'lanishli nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ularda muayyan nutqiy madaniyat shakllanadi, qiroat san'ati ko'nikmalari taraqqiy etadi.

O'zbek tilida so'z turkumlarini o'rganish boshlang'ich sinflarda o'rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, egallangan BKMklardan (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar) foydalanib, mustaqil ijodiy fikr ifodalash mahorati shakllantirilishi lozim. O'tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. *O'zbek tilida so'z turkumlari qanday guruhlariga ajratiladi?*
2. *Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?*
3. *Fe'l shakllarini tasnif qiling.*
4. *Yordamchi so'z turkumlariga ta'rif bering.*
5. *Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlaridan qanday farqlanadi?*
6. *So'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar e'tiborga olinadi?*

Bu savollarga javob izlash jarayonida o'quvchilar so'zlarning talaffuz va ma'no jihatidan o'zgarishi, so'z yasalishidagi morfologik va sintaktik usullar, so'z tarkibi, ma'lum belgi va xususiyatlari bilan farqlanuvchi so'z turkumlari, so'zning turlanishi va tuslanishi, grammatik shakl va grammatik ma'nolari ustida ishlaydilar, so'z turkumlari hamda ularning har biriga xos yasalish usullari bilan tanishadilar, egallangan BKMklar asosida gap qurish va matn yaratish ko'nikmalarini egallaydilar.

Morfologiyani o'rganishda uyadoshlik hodisasi va uning ahamiyati. So'zning grammatik shakllari tizimi paradigma deyiladi. Paradigma morfologiya bo'limida o'rganiladi. Morfologiyada turkumlanish hodisasi, uyadosh so'zlarni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisani morfologiyada uyadoshlik paradigmaticasi deb atash mumkin.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita yordamida o'zgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish so'zning paradigmatic o'zgarishi bo'lib, u leksik ma'no hamda kategorial grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi. So'zning grammatik shakllari tizimi morfologik paradigmatica (turlanish, tuslanish tartibi, o'zgarishlar yig'indisi) sanaladi.

Grammatik ma'no quyidagicha ifodalanadi:

- o'zak (negiz) ga grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: kitob-im, kitob-ni, o'qdi-ng, yaxshi-roq;
- yordamchi so'zlar bilan: siz uchun, radio orqali, keldi yu gapirmadi;
- so'zlarni takrorlash bilan: burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

So'zlar leksik-semantik ma'nosi, grammatik belgilariga ko'ra guruhlariga bo'linadi. Ular so'z turkumlaridir.

O‘qituvchi o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqida o‘rganilgan bilimlarni takrorlash va tekshirish uchun lug‘at diktanti yozdirishi, berilgan matn ustida ishlash, so‘z turkumlarini ajratish, guruhlash, ular bilan sblar hosil qilish, gap tuzish – MYABT-4 moduli asosida matn yaratish kabi o‘quv topshiriqlarini berishlari mumkin.

Lug‘at ustida ishlash. Ona tili o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga ona tilidagi so‘zning ma’no va mohiyatini o‘rgatishdan, so‘zni his etishga yo‘llashdan iborat. Bunda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish va uni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash malakasining hosil qilinishi alohida o‘rin tutadi. Buning uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor beriladi. Lug‘at ustida ishlash ona tili darslaridagi oddiy mashg‘ulot emas. Mazkur jarayonda:

- bolalarning aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko‘zda tutiladi;
- dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;
- o‘quvchilarning aqliy, axloqiy-ma’naviy, badiiy-estetik tarbiyasi amalga oshiriladi;
- ularning ona tili zamiriga yashiringan sir-u sinoatlar, fayz-u go‘zalliklarni ilg‘ab olishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham lug‘at ustidagi ish oddiy va tasodifiy mashg‘ulotlar bo‘lib qolmasligi, balki muntazam va qat’iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, uzluksiz tizim tarzida amalga oshishi kerak.

Lug‘at ustida ishlaganda har bir so‘zning amaliy jihatlariga, amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. Har bir so‘zning o‘quvchi shaxsining dunyoni bilish va o‘zlashtirishdagi, uning nutqiy faoliyatidagi muayyan bir xizmatlari bo‘lishini ta’minlash shart. Masalan, “elig” degan so‘zning qadimda turkiy xalqlar tilida mamlakat hukmdori ma’nosida qo‘llangani, uning oddiy so‘zlashuv tilida ham, o‘z davridagi adabiy tilda ham faol iste’molda bo‘lganligini bilish, o‘quvchiga faqat ona tili darslari uchun emas, balki tarix, adabiyot fanlaridagi tegishli atama va tushunchalar mohiyatini o‘zlashtirishlari uchun ham amaliy jihatdan kerak bo‘ladi.

So‘zlarni tanlashda ularning qo‘llanish darajasi ham e’tiborda turishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kam qo‘llanadigan, o‘quvchining amaliy faoliyatida deyarli qo‘llanmaydigan so‘z emas, balki uning amaliyotida tez-tez uchrab turadigan so‘zlarga ko‘proq murojaat qilish, o‘quvchi nutqiy faoliyatining silliqlashishiga, boyishiga, bu jarayonning tasodifiy kamchiliklardan xoli bo‘lishiga kafolat bo‘ladi.

Albatta, bu jarayonda talabalarning “yuk ko‘tarish qobiliyatlari” hech qachon nazardan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun faqat ona tili ta’limidagi uzviylik va uzluksizlik kifoya qilmaydi, balki imkoniyat doirasida boshqa fanlar bilan aloqadorlik nazarda tutilgani ham ishning yutug‘iga poydevor bo‘la oladi.

Har bir matn, tushuncha, atama ustida ishlashdan tashqari, o‘quvchilarga turli tuman lug‘atlardan foydalanishni o‘rgatish ham tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilishiga erishish muhim. O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan

soʻzlarning umumiy miqdori va hajmi belgilangan boʻlishi, buning uchun lugʻat minimumdan tortib, tegishli soʻzlarning alfavitli tizimi ishlab chiqilishi ish muvaffaqiyatini taʼminlaydigan dastlabki omillardir. Oʻquvchilar uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida sinonimlar lugʻati, antonimlar lugʻati, oʻzbek tilining izohli lugʻati bilan tanishtirilib borilishi kerak. Tilshunoslikning, ona tilining turli boʻlimlarini oʻrganishda bu ishning oʻziga xos imkoniyatlaridan foydalanish oʻrinli boʻladi. Bu jarayondagi eng muhim bosqich esa soʻz maʼnolarini oʻzlashtirish bilan aloqador.

Soʻz maʼnolari ustidagi ish murakkab va qiyindir. Bolalarda yangi, ayniqsa, maʼnosi xiraroq soʻzlarga alohida va jiddiy eʼtibor qaratish hissini tarbiyalashga erishish oson kechmaydi. Ammo muntazam va barqaror mashqlar tizimi bu vazifani bajarishni osonlashtiradi. Shunga koʻra har doim matn ustida ishlaganda yangi soʻzlarga va soʻzlarning yangi maʼnolarda qoʻllanganiga eʼtiborni tortish, oʻquvchilarning bu sohadagi koʻnikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qoʻllanadigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. *Yangi soʻzning maʼnosini izohli lugʻat vositasida oydinlashtirish.*
2. *Berilgan soʻzning maʼnodoshlarini topish.*
3. *Matndagi soʻzning maʼnosiga zid boʻlgan boshqa soʻzlarni keltirish.*
4. *Soʻz yasalishiga oid tahlilni amalga oshirish.*
5. *Soʻzning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shugʻullanish, yaʼni soʻzning etimologiyasini aniqlash.*
6. *Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini, ular orasidagi bogʻlanishlarni aniqlash.*
7. *Soʻz maʼnosini izohlash va imkoniyatga qarab, boshqa tillarga tarjima qilish.*

Soʻz turkumlarini oʻrganish. Soʻzlarning muayyan til doirasidagi umumiy grammatik maʼnolari hamda oʻziga xos xususiyatlariga koʻra maʼlum guruhlariga ajratilishi soʻz turkumlari deb yuritiladi.

Mustaqil soʻz turkumlarini oʻrganish. Mustaqil soʻz turkumlari lugʻaviy maʼnoga ega boʻlib, gapda maʼlum sintaktik vazifa bajaradigan oʻziga xos soʻroqlarga javob boʻladigan soʻzlardir. Ularga ot, sifat, son, feʼl, ravish, olmosh va taqlid soʻzlar kiritiladi.

Ot soʻz turkumini oʻrganish.

Ot soʻz turkumiga mansub soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish, toʻgʻri yozish, lugʻaviy maʼnolarini bilish hamda nutqda toʻgʻri va oʻz oʻrnida qoʻllay olishni oʻrgatish – mazkur mavzuning asosiy maqsadi boʻlishi lozim.

Otlarning lugʻaviy maʼnolari, ularda uyadoshlik paradigmaticasi (guruhlash, turkumlash, qatorni davom ettirish) ustida ishlash “Umumiy oʻrta taʼlim davlat taʼlim standartlari” talablariga koʻra talabaning kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otlarda uyadoshlik hodisalarini oʻrganish – talaba soʻz boyligini oshirishning asosiy shartidir. Chunonchi, shaxs, kasb-kor, oʻsimlik, hayvon, idish-tovoq, taom, olam,

parranda... v. h. Nomlarini guruhlarga ajratish, uyadoshlarini topib yozish mashqlari shular jumlasiga kiradi.

Berilgan daraxt va o'simliklar nomlari: chinor, terak, tol; olma, olcha, bodom, kashnich, shivit, rayhon; ra'no, nargiz, gunafsha kabilarni guruhlarga ajratish va uyalarni davom ettirish kabi topshiriqlar talabalarning tabiiyot fanidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, atamalarni qayta esga olishga, nutqda to'g'ri va o'z o'rnida qo'llashga o'rgatadi.

Diktant (bayon, insho, matn) tarkibidagi so'zlar doimiy ravishda yuqoridagidek og'zaki sharhlansa, talabaniing

- ijodiy tafakkur doirasi kengayadi;
- nutqiy mahorat, fikr ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi;
- nutqda so'z tanlash malakasi shakllanadi;
- to'g'ri, benuqson matn yaratish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Ona tili mashg'ulotlarini ana shunday rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, mustahkamlash mashqlari va matn tahlillari vositasida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, ta'lim mazmunini takomillashtiradi, o'quv-biluv faoliyatini jadallashtiradi. Nazariyani amaliyot zaminida o'rganish, mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatni o'stirishga yordam beradi.

Amaliyot orqali nazariyani egallashning eng ishonchli vositalaridan biri til hodisalarini kuzatish, analiz va sintez qilish, anglash, farqlash va tahlil qilishdir. (tahlilga tayanib, umumiy xulosalar chiqarish, ona tili mashg'ulotlarida so'zga ehtiyoj hosil qiluvchi o'quv topshiriqlari orqali tovushdoshlar, ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlar, shakldoshlar ustida ishlash; ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish; gap qurish va matn yaratish shular jumlasidandir).

Aniq va mavhum otlarni o'rganish. Talabalar nutqni otlar bilan boyitishda so'zlarni aniq va mavhumlarga ajratish, istagan matndan ushlab, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan otlarning aniqligi yoki aksincha, mavhumligi asosida ikki guruhga bo'lish, ularni tub va yasamalarga ajratish kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajarish so'z boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Guruhlarni mustaqil davom ettirish, aniq otlardan mavhum otlar hosil qilish (bola – bolalik, sho'x – sho'xlik, loy – loygarchilik) kabi amaliy ishlarni bajarish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. So'z boyligini oshirish esa nutqiy malakani shakllantirish bilan qo'shib, o'zaro aloqadorlikda olib borilmog'i maqsadga muvofiqdir.

Atoqli va turdosh otlar. Atoqli va turdosh otlar mavzusi o'rganilganda, ular ifodalab keladigan shaxs nomlari, kasb-hunar, o'rin-joy, qurol-vosita, qarindoshlik otlari kabi ma'no guruhlari ustida ish olib borishga to'g'ri keladi.

Bu guruhlar (uyalar)ning, chunonchi, kasb-hunar otlarini, tarbiyachilik, shifokorlik, dehqonchilik, hunarmandchilik va shu kabilarning uyadoshlari ustida to'xtalish ham juda foydali.

O'quvchilarga berilgan matnlardan shaxs otlarini ajratish, tub va yasamalarini aniqlash, ularga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, qo'shimchalar (-chi, -u, -vchi, -dosh, -kor, -gar, -shunos kabi) yordamida shaxs

otlari yasash, juft shaxs otlari (metodist – o‘qituvchi, terapevt – shifokor, muhandis – texnolog kabi) tuzish, ularning imlosini o‘rganish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar ustida ishlash yaxshi samara beradi.

Kasb-hunar, o‘rin-joy, qurol-vosita otlari ustida ishlashda ham yuqoridagi usullardan foydalansa bo‘ladi.

Atoqli otlar ustida ishlashda qo‘yidagi ma‘no guruhlari ustida to‘xtalish maqsadga muvofiq:

– shaxs nomi, familiyasi, otasining ismi, taxallusi, laqabini ifodalovchi otlar: shohida, shahzod, xo‘jayev, yashin, sakson ota;

– geografik nomlar: O‘zbekiston, Samarqand, Pomir, Sirdaryo, Orol, Yangiyer, Balxash;

– tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari: Vazirlar Mahkamasi, “Bahor” ansambli, Navoiy teatri, “Adabiyot” muzeyi, “Kamolot” jamg‘armasi;

– sayyora va yulduzlar nomi: Yer, Quyosh, Mars, Mushtariy, Zuhra, Hulkar, Yupiter, Venera;

– tarixiy hodisalar, gazeta, jurnal, asar, ilmiy muassasalar: Mustaqil lik kuni, “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, O‘zbekiston Milliy universiteti;

-hayvonlarga maxsus qo‘yilgan nomlar: G‘irko‘k, Boychibor, Qoplon, Mosh, Govmish, Targ‘il;

-“belgi nomi+turdosh ot” qolipli joy nomlari: Yangiyo‘l, Yangiobod, Oqtepa;

-“belgi nomi+atoqli ot” qolipli geografik nomlar: Markaziy Osiyo, Janubiy Koreya, Shimoliy Qozog‘iston;

Qisqartma so‘zlar orasida ham atoqli otlar ko‘p uchraydi. Ularning to‘liq nomlari bilan (yoki aksincha), almashtirish (BAR – Birlashgan Arab Respublikasi, O‘zMU – O‘zbekiston Milliy Universiteti), qisqartma so‘zlar lug‘ati tuzish, ularni sharhlash, nutqiy mahoratning shakllanishida, talabalarning muomala-muloqot madaniyatini egallashlarida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida ijodiy-amaliy ishlar (MYABT-4 ustida ishlash) ni imlo bilan bog‘lab olib borish masalalariga ko‘proq ahamiyat berish foydali.

Turdosh otlar va ularning imlosi

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Ular bir turdagi predmetlarni boshqa turdan ajratish uchun xizmat qiladi: talaba, kaptar, daraxt, o‘simlik...

Turdosh otlar ifodalagan ma‘nosiga ko‘ra shaxs, narsa-buyum, kasb-hunar, o‘rin-joy, qurol-vosita otlari kabilarni bildiradi. Bu guruhlar yana bir necha uyadoshlarga bo‘linadi. Masalan: shaxs otlarining o‘qituvchi, shifokor, muxandis, hunarmand, dehqon, bog‘bon, cho‘pon kabi umumiste‘mol so‘zlarining uyadoshlari; shifokor – terapevt, kardiolog, urolog, endokrinolog, genekolog, venerolog... v. h. kabi uyadoshlari mavjud.

Ona tili mashg‘ulotlarida turdosh otning ma‘no guruhlari ustida ishlashda mazkur uyalarning har biri ustida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Berilgan matn bo'yicha talabalar nutqni shaxs otlari bilan boyitish yuzasidan topshiriqlar berish:

- shaxs otlarini ajratish, tub va yasamaligiga ko'ra guruhlash;
- ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab, guruhlarni kengaytirish;

- chi, -uvchi (-vchi), -dosh, -xon, -kor, -gar, -shunos kabi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish;

Juft shaxs otlari (metodist – olim, metodist – o'qituvchi, muxandis – texnolog) ishtirokida esa so'z birikmalari va gaplar hosil qilish kabi amaliy-ijodiy topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Otning boshqa ma'no guruhlari ustida ishlashda ham shunday ish usullaridan foydalanish mumkin.

Otlarda son. Otlarning morfologik belgilaridan biri birlik va ko'plikda qo'llanishi sanaladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlarga suyanib, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- otlarning morfologik belgilarini sanang.
- faqat birlikda qo'llanadigan otlar qaysilar?
- ko'plikdagi otlar qaysi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi?..

O'quvchilar savollarga to'liq javob beradilar, keyin berilgan nazmiy matndagi otlarni aniqlaydilar:

Go'zal dunyo, baxmal bog'lar, ulug' shaharlar,
Zo'r gigantlar, shu kengliklar, shu oliy bino,
Sho'x to'lqinli, tiniq suvli, katta daryolar,
Ulug' vatan – bari mening qanot ostimda. (G'. G'ulom)

O'quvchilar matndagi dunyo, bog'lar, shaharlar, gigantlar, kengliklar, vatan, qanot kabi so'zlarning birlik va ko'plikda kelganligini, dunyo, vatan, qanot kabi so'zlar ko'plik qo'shimchasi olganda, anglatadigan xilma-xil ma'nolarni sharhlaydilar. Bunda bolalarning -lar shakl yasovchi qo'shimchali otlarning ma'nolari haqidagi bilimlarini kengaytirish ko'zda tutiladi:

- hurmat (onamlar, buvimlar, bobomlar...);
- noaniqlik, kuchaytirish, takror, taxmin (yoz oylari, kuz kunlari...);
- kinoya, piching (endi xursandmilar, durustlar-ku...);
- narsa – buyum navi (sutlar, tuzlar, yog'lar...);
- jamlik (mirzacho'llar, sanamlar...);
- ta'kid (quvonchlari cheksiz, yuzlari qzidi...); kabi so'z ma'nolarini ifodalash singari uslubiy xususiyatlari bilan ham ajralib turishlarini bilib oladilar.

Ko'plik qo'shimchasi – lar bilan kelgan so'zlarni qiyoslash orqali ko'plik yoki hurmat, kuchaytirish yoki ta'kidlash kabi ma'nolar anglatishini turli tipdagi mashqlar vositasida, so'z birikmasi, gap, MYABT-4 tizimi bilan ishlash, matn yaratish va undan, ta'kid, jamlik ma'nolari berilgan so'zlarni ajratish hamda sharhlash o'quvchi bilimini mustahkamlaydi, og'zaki nutq malakasini shakllantiradi.

Otlarda egalik qo'shimchasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi jarayonida otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, narsa – buyumning uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishi, yozilishi, qo'shimcha qo'shilganda, otlarning o'zak – negizida tovush o'zgarishi (tilak – tilagi, qrg'oq – qrg'og'i...), ikkinchi bo'g'indagi a, i yoki u tushib qolishi (shahar – shahrim, qorin-qorni, burun – burni...) Hodisalari haqidagi bilimlar mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Obro', mavqe kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari (obro'yim, mavqeying...) Qo'shilgach, javoblar umumlashtiriladi va xulosalanadi; egalik qo'shimchalari narsa buyumlarni uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildiradi: ular oxiri unli bilan tugagan so'zlarga -m, -ng, -si; ko'plikda -miz, -ngiz, -lari shaklida; undosh bilan tugagan so'zlarga -im, -ing, -i, ko'plikda – imiz, -ingiz, -lari shaklida; tole, obro', manba kabi so'zlarda esa oxiri unli bilan tugagan bo'lsa-da, -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari tarzida qo'shib yozilishi amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi.

Egalik qo'shimchasini olgan ot, qaratqch kelishigidagi ot yoki otlashgan so'z, olmoshga qarashli ekani anglashiladi: asarning mazmuni, yaxshining sharofati, bizning quvonchimiz...

Amaliy mashg'ulot davomida k va q bilan tugagan tuk, tok, xalq kabi bir bo'g'inli, shuningdek, ishtirok, ittifoq kabi ko'p bo'g'inli otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, oxirgi undosh aslicha yozilishi, tovush o'zgarimasligi holatlari ham eslatib o'tiladi.

Kelishik qo'shimchalari. Mazkur mavzuni o'rganishda ta'limning quyi bosqchlarida o'rganilgan kelishik qo'shimchalari va ularning imlosi haqidagi ma'lumotlarni xotiraga olish va qo'shimcha topshiriqli ijodiy diktant o'tkazish maqsadga muvofiqdir:

Ijodiy ish. Gulchehra, kitob, A. Qodiriy, roman; Zulkumor, ko'rdi; kutubxona, bordi; o'qituvchi, so'radi... So'zlarini kelishik qo'shimchalari yordamida o'zaro bog'lab so'z birikmalari hosil qiling.

Qaratqch kelishigi qo'shimchasi -ning gapda asosan aniqlovchi vazifasidagi otlarga qo'shib kelishi, qolgan kelishik qo'shimchalari esa (-ni, -ga, -da, -dan) ko'proq to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi otlarga qo'shib ishlatilishi alohida ta'kidlab o'tiladi.

Kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtirish (ukamga oldim – ukam uchun oldim) holatlari nutq uchun muhim til me'yorlaridan ekanligini eslatib o'tish ham juda muhim.

Berilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari (ma'nodosh ko'makchili birikmalar ham) hosil qilish, ergash va bosh so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimcha (ko'makchi) larni aniqlash, mazkur birikmalarni qatnashtirib, gap qurish yoki matn yaratish darsni dts talablariga mos tashkil qilish borasida qo'yilgan ilk qadamdir.

Kelishik qo'shimchalarining ishlatilishi va talaffuziga oid bilimlarni mustahkamlash o'quvchi kommunikativ savodxonligini, nutqiy madaniyatini ta'minlaydi, so'zni to'g'ri va o'z o'rnida ishlatish yuzasidan ko'nikma va

malakalar hosil qiladi. Morfologiyani o'rganishda so'z tarkibi, o'zak (negiz), so'zlarning yasalishi, so'z turkumlari haqida olingan ma'lumotlar mustahkamlanadi, ularni tizimli va izchil o'rganish boshlanadi.

Hozirgi o'zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko'pchiligi morfologik prinsipga asoslangan. Shuning uchun o'quvchi morfologik hodisalarni o'rganishda ularning imlosi, lug'aviy ma'no guruhlari hamda yasalishiga alohida ahamiyat berishi zarur. So'zlarning grammatik xususiyatlariga ko'ra ma'noli qsm'larga bo'linishi talabalarning so'z tarkibini o'rganishi va imlo qoidalarini to'la egallashiga yordam beradi. Otning morfologik tuzilishini yaxshi bilmagan talaba so'z turkumlari mohiyatini ham angalay olmaydi; orfografiyadagi morfologik prinsip bo'yicha yoziladigan so'zlarning imlosini ham puxta egallay olmaydi.

Yordamchi so'z turkumlari. So'z turkumlari umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqliddan iborat, lug'aviy ma'noga ega, muayyan so'roqlarga javob bo'ladigan, morfologik jihatdan o'zgaradigan, gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaradigan mustaqil so'zlar.

2. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar – mustaqil so'z, so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplar orasidagi munosabatlarni tiklaydigan, so'z va uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishdek grammatik ma'no ifodalaydigan, ba'zan o'ziga kelishik qo'shimchalari oladigan (ot ko'makchi), ammo yakka holda ma'no anglatmaydigan, so'roqlarga javob bo'la olmaydigan hamda gap bo'lagi bo'la olmaydigan yordamchi so'zlar.

3. Modal, undov, taqlid singari lug'aviy ma'no bildirmaydigan, ammo, ba'zan gap bo'lagi vazifasida kela oladigan alohida guruh so'zlari.

Yordamchi so'z turkumlarini o'rganishda qo'yidagi bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi so'zning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- yordamchi so'zlarning bir-biridan va mustaqil so'zlardan farqni ajrata bilish;
- ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri, uslubiy jihatdan o'rinli qo'llay bilish.

Ko'makchi. Mustaqil so'z turkumlaridan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar ko'makchilardir.

Bog'lovchi. Bog'lovchilar quyidagi grammatik xususiyatlari bilan ko'makchilardan farq qiladi:

– ko'makchi gap tuzishda faol ishtirok etadi, u gapdan tushib qolsa, fikr anglashilmaydi. Bog'lovchi tushirib qoldirilsa ham, gap ohangida o'zgarish bo'lsa ham, fikr anglashilaveradi;

– ko'makchi ot, olmosh, otlashgan so'zlardan keyin ishlatiladi, bog'lovchi esa barcha mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravishlardan keyin kelaveradi;

– ko'makchilar o'zi bog'langan so'zning bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqsh kelishiklarining birida bo'lishini, ot ko'makchilar esa barcha kelishik qo'shimchalari bilan kelishini ham ko'rish mumkin. Bog'lovchilar kelishik

qo‘shimchalari olmaydi, o‘zi bog‘layotgan so‘zlarni qaysi kelishikda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zaro bog‘layveradi.

Gapning uyushiq bo‘laklari va qo‘shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchi deb ataladi. Bog‘lovchilar yakka va takrorlangan holda qo‘llaniladi. Va, ammo, chunki kabi yakka, yo-yo, goh-goh, ba‘zan-ba‘zan singari takror qo‘llanadigan bog‘lovchilar ustida ishlash; gapning uyushiq bo‘laklari hamda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashda teng bog‘lovchilar (biriktiruv, zidlov, ayiruv) va ergashtiruv bog‘lovchilar (chunki, shuning uchun) ishtirok etgan gaplar hosil qilib, bog‘lanish yo‘llarini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Yuklama. Yuklamalar mustaqil so‘z va gaplarga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha ma’no beradigan yordamchi so‘zlardir. Ular tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. So‘z yuklamalar (faqat, ham, axir, hatto...)
2. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar-ku, -a, -oq, -ya, -mi, -gina...

Yuklamalarning ma’no turlari. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida yuklamalar anglatayotgan ma’nosiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi:

1. So‘roq va taajjub yuklamalari:-mi, -chi, -a, (-ya), nahot, nahotki...

Tezroq o‘qsang-chi. Juda go‘zal ekan-a? Nahotki, shunday degan bo‘lsa-ya...

2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari:-da, -u (-yu), -oq (-yoq), -ku, axir, hatto, hoziroq... Senga gap tegmasa deymanda. Bu ona-ku, bu zo‘r inson-ku! (u.) U yoshligidanoq kitobga mehr qo‘ydi. Axir sizlar do‘stsiz-ku (o. yo.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari:-gina (kina, -qna), faqat, ham...

Faqat sengina tadbirga qatnasha olmading. Bir onasigina qzidan ko‘z uzolmasdi. Sen ham qalbingdagini ochib gapirgin-da.

4. Aniqlov, gumon, inkor yuklamalari: xuddi, -dir, -naq, na... Na... Xuddi otasining o‘zginasi. Omon kimdir, bormi vatani... (h. o.) naq mo‘ljalgga urdi. Na ufq o‘ramay yoqut, zar, na bulut silkitmay oltin par (u.)

Yuklamalarning imlosini o‘rganishda talabalar yuqorida berilgan misollar hamda “Imlo lug‘ati”dan kelib chiqib, yuklamalarning ajratib, qo‘shib yoki chiziqcha orqali yozilishini aniqlaydilar.

Yuqorida berilgan yuklamalarning ma’nosi, gapdagi vazifalarini aniqlash, ularni nutqda qiyinchiliksiz qo‘llash ko‘nikmalarini egallash uchun o‘quvchilarga MYABT-4 moduli asosida so‘z birikmalari, gaplar tuzish va matn yaratish kabi ijodiy ishlar topshiriladi.

Yordamchi so‘zlarni o‘rganish avvalgi bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, o‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Yordamchi so‘z turkumlari qanday guruhlariga ajratiladi?
2. Yordamchi so‘z turkumlariga ta’rif bering.
3. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘z turkumlaridan qanday farqlanadi?

4. Yordamchi so‘z turkumlariga kiruvchi so‘z guruhlarining farqli va o‘xshash tomonlarini ayting.

Yuqoridagi savollarga javob izlash jarayonida o'quvchilar ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda anglatgan ma'nolari ustida ishlaydilar, ularning har biriga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, gap qurish va matn yaratish ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Yordamchi so'zlar mavzusini o'rganishda egallangan, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, ularni amaliyotga tatbiq qilish borasidagi bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun izohli yoki saylanma diktantlar o'tkazish, shu jarayonda biriktiruv, ayiruv, zidlov bog'lovchilarining vazifasi va ma'nosini izohlash, yuklamalar, ularning ma'no turlari, imlosini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari ustida ishlash nihoyatda foydali bo'lib, bunda yordamchi so'zlardan og'zaki nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Alohida so'z turkumlari. So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini, his-hayajon, haydash-chaqrishni, tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar alohida so'z turkumlaridir. Ular modal, undov, taqlid so'zlar deyiladi. Mazkur so'z turkumlari alohida lug'aviy ma'no bildirmaydi, ammo ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.

Modal so'zlar. Modallik har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri. Ayrim ot, ravish, fe'l mayllari orqali xohish, istak, buyruq, zaruriyat; yuklamalar orqali ta'kid, gumon, taxmin, faraz kabi modal ma'nolar ifodalanadi.

Modal so'zlar lotincha "modus" – usul, o'lchov ma'nolarini bildirib, gapda anglatilgan fikrga, voqea-hodisalarga mualliflarning munosabatini, fikrning aniqligi yu noaniqligini, aytilayotgan xabarning so'zlovchi tomonidan qanday baholanishini bildiradi.

Modal so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, shu sababdan ular gap bo'lagi olmaydi; so'zlovchi tomonidan aytilayotgan fikrga bildirilgan munosabatni ko'rsatadi:

Haqqatan ham, yuraging gursillab urayotgani sezilib turardi. Zokir ota, shubhasiz, qo'li gul odam. Ishimiz ma'qul bo'ldi, shekilli, boshliq mayin kulimsirab qo'ydi. Ajabo, shu gapni shohida aytdimi?! Demak, rasm sizga yoqdi?!

Matn ustida ishlash. Berilgan gaplarni o'qing. Har bir gapdagi modal so'zlarni aniqlang. Ot, sifat, fe'l, yordamchi so'zlardan o'tgan modal so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ishonch: albatta, shubhasiz, so'zsiz tabiiy, to'g'ri, haqqatdan, rostdan.
2. Gumon: ehtimol, shekilli, menimcha, aftidan, ajabmas, har holda, balki.
3. Xulosa: xullasi kalom, demak, nihoyat .
4. Afsus: attang, essiz, afsuski, nahotki.
5. Faraz: o'ylashimcha, sezishimcha, fikrimcha.
6. Zaruriyat: kerak, lozim, shart, zarur, darkor ...

Bulardan tashqari bor, yo'q, binobarin, zero, birinchidan, avvalam bor kabi modal so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lib, ular asosan so'zlashuv, ilmiy-badiiy nutqda ishlatiladi. Modal so'zlarning ko'pi mustaqil so'zlardan o'sib

chiqqanligi ko‘rinib turadi: aftidan, haqqatan, ehtimol – ot so‘z turkumidan; so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy – sifatdan; birinchidan, ikkilamchi – sondan; balki, holbuki – yordamchi so‘zdan o‘tganligi sezilib turibdi. Modal so‘zlar ham boshqa so‘z guruhlari kabi morfologik, sintaktik va semantik belgilarga ega. Ularning o‘zgarmasligi morfologik belgisi sanalsa, kirish so‘z vazifasida kelishi sintaktik vazifasidir. Modal so‘zlarning semantik belgisi aniqlik, taxmin kabi modal ma’nolarni anglatishidir.

Modal so‘zlar quyidagicha sintaktik vazifalarni bajaradi:

– dialoglarda aytilgan fikrga munosabatni bildiradi:

– yaxshi she’r yozish og‘ir ish, shundaymi?

– albatta;

– kirish so‘z vazifasida keladi: Talaba jim o‘tirar, aftidan, imtihonga tayyor emasdi.

Kirish so‘z vazifasida kelgan modal so‘zlar og‘zaki nutqda ohang bilan, yozuvda alohida tinish belgilari bilan ajratiladi: taklifim dugonamga ma’qul bo‘ldi, shekilli, jilmayib tasdiqladi.

Kirish so‘z vazifasida qo‘llanadigan modal so‘zlar qanday so‘z turkumiga oid bo‘lsa, o‘sha so‘z turkumiga xos ma’no va grammatik belgilarni saqlaydi.

Modal so‘zlar, ularning individual nutqni shakllantirishdagi ahamiyati yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash maqsadida badiiy adabiyotlardan modal so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ajratib yozish, ularning ma’no turlari va sintaktik vazifalarini aniqlash, tinish belgilarining qo‘yilishi haqidagi o‘quv topshiriqlarini bajarish, modallarning kontekstdagi ma’nosini izohlash va sharhlash talab etiladi.

Amaliy ish sifatida ot, sifat, fe’l, ravish, son kabi so‘z turkumlaridan o‘tgan modal so‘zlar ishtirokida gap tuzish, matn yaratish, hamda tinish belgilarining qo‘yilishini izohlash mashqlari talabalarning o‘z fikrlarini to‘g‘ri, ravon, tushunarli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishida muhim o‘rin tutadi.

Undov so‘zlar. Nutqmizda tuyg‘u, his-hayajon, ma’qullash, maqtash, haydash-chaqirishni bevosita ifodalaydigan, mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar undovlardir. Undovlar ma’lum bir ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg‘uni ifodalay olmaydi. Ohangning turlicha bo‘lishiga ko‘ra undovlar turli his-tuyg‘ularni bildiradi.

Undovlar yakka hamda juft holda va takrorlanib qo‘llanadi: a, ah, eh, ohho, oh-voh, balli, dod-voy, bay-bay, hay-hay...

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi. Ma’nosiga ko‘ra undovlar ikki turli bo‘ladi.

1. His-hayajon undovlari: o, oh, voy, ura, xayr, obbo, hayf, a, ah, i, iye...

M: O, quyosh parchasi, berib xushxabar,

Hayot rubobini yangratuvchisan (A. Umariy)

Eh! Shahrimiz naqadar go‘zal. Obbo, juda oshirib yubording. Bay-bay, tiling juda achchiq. Be, shunga ham xafa bo‘ldingmi?..

Undovlar mavzusi yuzasidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, umumlashtirish, takrorlash uchun talabalar quyidagi savollarga javob berishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. His-hayajon undovlari qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

2. His-hayajon undovlari gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanadimi?

3. Mustaqil so‘zlardan undovlarga ko‘chgan so‘zlarga misollar keltiring.

Marhamat, yuqoriga o‘ting. Rahmat, sizdan minnatdormiz. Bu gaplardagi marhamat, rahmat so‘zlari ot emas, undov bo‘lib, gapdan vergul bilan ajraladi. Agar his-hayajon kuchli bo‘lsa, undov belgisi qo‘yiladi.

2. Haydash-chaqrish undovlari ham o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqni boyitishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Mazkur undovlar kishilarning diqqatini tortish, qushlar, hayvonlar va boshqa jonivorlarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladi: hoy, allo, ey, ma, jim, marsh; kisht, chuh, chu, tu-tu, cho‘k, tek, beh-beh, mah-mah. M: otliqlar gaplashmas, har zamon-har zamon otga bir qamchi bosib, chu deb qo‘yilardi. Atrofdan beh-beh, tu-tu degan tovushlar eshtilardi.

Bunday undovlar nutqda ko‘proq deb, degan so‘zlari bilan qo‘llanadi va gapda aniqlovchi, hol vazifasida keladi. Undov so‘zlarni to‘g‘ri va ifodali o‘qishda tinish belgilarining roli katta. Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda ham undov so‘zlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Undov so‘zlarning uslubiy roli, undov so‘zli gap ohangi, gapni qiroat bilan o‘qishga o‘rganish bo‘yicha quyidagi amaliy ishlarni bajarish foydali:

– undov so‘zlar ishtirokida gap tuzish va undagi undov so‘zlarni izohlash;

– undov so‘zlarning boshqa so‘z turkumiga ko‘chishi (bemorlarning oh-vohlari), mustaqil so‘zlarning undov so‘z o‘rnida ishlatilishi – (kel, bir gaplashaylik) ga misollar tanlash, matnni ifodali o‘qish, undov so‘zli gaplardagi tinish belgilarini izohlash dars samaradorligini oshiradi.

Taqlid so‘zlarni o‘rganish. Alohida so‘z turkumlariga kiruvchi taqlid so‘zlar tovushga va holatga taqlidni bildirib, ma’no jihatidan ikki turga bo‘linadi:

1. Tovushga taqlid: gumbur-gumbur, duk-duk, qy-chuv, qult-qult, uv, vov, va-a, me-e, qah-qah, pit-pildiq, taraq-turuq...

Ko‘chadan gumbur-gumbur ovoz eshitildi. Ba’zan bedazordan bedanalarning pit-pildig‘i quloqqa chalinadi.

2. Holatga taqlid: yaraq-yurq, g‘uj-g‘uj, mo‘lt-mo‘lt, lak-lak, g‘ivir-g‘ivir, g‘ir-g‘ir, milt-milt, hang-mang... v. h:

Egatlardagi g‘o‘zalarda g‘uj-g‘uj hosil. Shohida qo‘rqqanidan dir-dir titrardi. Uzoqdan milt-milt chiroqlar ko‘rindi. Shabada g‘ir-g‘ir esmoqda.

24 §. Sintaksis bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Sintaksis bo‘limini o‘qitishning uzviyligi va metodikasi

Grammatika – morfologiya va sintaksis bo‘limlaridan tashkil topadi. Til fanining katta bir qismi bo‘lgan sintaksis – so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning

o‘zaro aloqasini, so‘z birikmasi va gaplarni tashkil etgan bo‘laklarning xususiyatlarini o‘rganadi. Sintaksis shu jihatdan morfologiyadan farqlanadi.

Morfologiya so‘zlarning grammatik xususiyatlarini; tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini tekshiradi. Bu shakliy tekshirish albatta lug‘aviy ma’no asosida bo‘ladi. *Sintaksis* ana shu so‘z shakllar dinamikasini, o‘zaro bog‘lanishini ularning gapdagi vazifasini, ma’lum fikrni ifodalashdagi o‘rnini o‘rganadi.

Puntuatsiya – ishora belgilari (tinish belgilari) haqidagi fan. U matndagi gaplarning urg‘usini topishga, so‘zlarni gap mazmuniga mos ohangda, to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Shu bois, puntuatsion qoidalar sintaksisga bog‘lab o‘rganiladi.

Puntuatsiya (lotincha *punctum* – nuqta) ning ma’nosi nuqtalar ilmi demakdir, ushbu atama uch ma’noda qo‘llanadi: a) tinish belgilari tizimi va qo‘llanish qonun-qoidalarini o‘rganuvchi bo‘lim; b) puntuatsion qonun-qoidalar – me’yorlar yig‘indisi, to‘plami; v) tinish belgilari.

Sintaktik tahlil. Grammatika bo‘limining sintaksis qismi asosan ikki qismdan iborat: so‘z birikmasi va gap. So‘z birikmasi va sodda gaplar maktab darsligining 8-sinfida o‘rganiladi. Qo‘shma gaplar haqidagi asosiy bilim 9-sinf darsligida keltirilgan. Lekin bulardan tashqari kollej yoki litsey darsliklarida bu mavzular o‘ta murakkablashgan. Ba’zi bir fikrlarda chalkashmovchiliklari (tushunarsiz yoki ikki xillik holatlar) ham mavjud. Shunday bo‘lsa-da, maktab darsliklariga asoslangan holda qo‘shimcha adabiyotlarga tayanib, sintaktik tahlilni ikki qismga bo‘lib tahlil etishni lozim degan xulosaga keldik. Binobarin, tahlil qilish metodikasi – tahlil necha qismdan iborat bo‘lishi bilan emas, balki fanni nechog‘lik bilish, undagi tushunchalardan xabardor bo‘lish bilan belgilanadi. Biz sintaktik tahlil uchun dastlab so‘z birikmasi tahlilini oldik. So‘z birikmasi tahlilini qilishda quyidagi jadvalga asoslanishni tavsiya etamiz:

SO‘Z BIRIKMASI TAHLILI
<ol style="list-style-type: none">1. <i>Gapdagi so‘z birikmalari aniqlanadi;</i>2. <i>Bosh(hokim) va ergash(tobe) so‘zlar aniqlanadi;</i>3. <i>Bosh va ergash so‘zlarning bog‘lanish usuli (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);</i>4. <i>Hokim va tobe so‘zlarni bog‘lovchi vosita (kelishik qo‘shimchasi, ko‘makchi yoki ohang) aniqlanadi;</i>5. <i>So‘z birikmasining bosh so‘z turkumi bo‘yicha turi aniqlanadi;</i>6. <i>So‘z birikmasidagi ergash so‘zning vazifasi bo‘yicha turi aniqlanadi;</i>7. <i>So‘z birikmasining tuzilish turi aniqlanadi.</i>

So‘z birikmalari tobe qismning sintaktik vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) aniqlovchili birikma; 2) to‘ldiruvchili birikma; 3) holli birikma.

1. Aniqlovchili birikma. Bunday birikmalarning tobe qismi aniqlovchining barcha turlari vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra ularni: 1)

sifatlovchili birikma; 2) qaratuvchili birikma; 3) izohlovchili birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *yozma ish, ilmiy maqola, beshta kitob, allaqanday ovozlari* – sifatlovchili birikma; *iqtisodiyotning taraqqiyoti, maktab hovlisi* - qaratuvchili birikma; *o'qituvchi Salimova, professor Qodirov* - izohlovchili birikma.

Aniqlovchili birikma bitishuv va moslashuv yo'li bilan tuziladi.

2. To'ldiruvchili birikma. Tobe qismi to'ldiruvchi vazifasini bajaradigan so'z birikmasi to'ldiruvchili birikma deb yuritiladi. Bunda qismlar o'zaro boshqaruv yo'li bilan birikadi. Masalan: *yoshlarga nasihat qilmoq, odamlarni qadrlamoq, talabalar uchun darslik, ilm-fan haqida so'zlamok.*

3. Holli birikma. Bu xil so'z birikmalarining tobe qismi hol vazifasini bajaradi. Holli birikmaning tobe va hokim qismlari o'zaro bitishuv yoki boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi: *yangicha fikrlamoq, birga ishlamoq, maktabdan qaytmoq, erta boshlamoq.*

So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: 1) oddiy so'z birikmalari; 2) murakkab so'z birikmalari.

Tahlilga tortish uchun **“Yoshlikda zahmat chekib ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan”**(Koshifiy), **“Ilm asosiga qurilmagan ulug'likning oxiri xorlikdir”**(Yusuf Xos Hojib) gaplarini olamiz. Ushbu gaplardan so'z birikmalarining sonini aniqlab olamiz. 1-gapda 6 ta so'z birikmasi mavjud bo'lib ular quyidagicha tahlil qilinadi:

“Yoshlikda o'rgansang”(yoshlikda o'rganmoq) bosh va ergash so'zlar aniqlanadi: bosh so'z – o'rgansang, ergash so'z – yoshlikda, bosh so'z va ergash so'zlarning bog'lanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe so'zlarni bog'lovchi vosita – (-da) o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi, so'z birikmasining bosh so'z turkumi bo'yicha turi – fe'lli so'z birikmasi, so'z birikmasidagi ergash so'zning vazifasi – holli birikma, tuzilishiga ko'ra turi – oddiy so'z birikmasi.

“Ilm o'rgansang”(ilmni o'rganmoq) bosh va ergash so'zlar aniqlanadi: bosh so'z – o'rganmoq, ergash so'z – ilm, bosh so'z va ergash so'zlarning bog'lanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe so'zlarni bog'lovchi vosita – (-ni) tushum kelishigi qo'shimchasi belgisiz(yashirin) holatda, so'z birikmasining bosh so'z turkumi bo'yicha turi – fe'lli so'z birikmasi, so'z birikmasidagi ergash so'zning vazifasi – to'ldiruvchili birikma, tuzilishiga ko'ra turi – oddiy so'z birikmasi.

“Zahmat chekib o'rganmoq” bosh va ergash so'zlar aniqlanadi: bosh so'z – o'rganmoq, ergash so'z – zahmat chekib, bosh so'z va ergash so'zlarning bog'lanish usuli – bitishuv, hokim va tobe so'zlarni bog'lovchi vosita – yo'q, so'z birikmasining bosh so'z turkumi bo'yicha turi – fe'lli so'z birikmasi, so'z birikmasidagi ergash so'zning vazifasi –holli birikma, tuzilishiga ko'ra turi – murakkab so'z birikmasi.

“Kasb-hunar egallamoq” bosh va ergash so'zlar aniqlanadi: bosh so'z – egallamoq, ergash so'z – kasb-hunar(juft so'z), bosh so'z va ergash so'zlarning bog'lanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe so'zlarni bog'lovchi vosita – (-ni) tushum kelishigi qo'shimchasi yashirin(bekutilgan) holatda, so'z birikmasining bosh so'z turkumi bo'yicha turi – fe'lli so'z birikmasi, so'z birikmasidagi ergash

soʻzning vazifasi – toʻldiruvchili birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

“Qariganda topmoq” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – topmoq, ergash soʻz – qariganda, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – (-da) oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – feʼlli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – holli birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

“Rohat topmoq” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – topmoq, ergash soʻz – rohat, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – (-ni) tushum kelishigi qoʻshimchasi yashirin holatda, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – feʼlli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – toʻldiruvchili birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

“Ilm asosiga qurilmagan ulugʻlikning oxiri xorlikdir” gapida 4 ta soʻz birikmasi boʻlib, ular quyidagicha tahlil qilinadi:

“Ilm asosi” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – asosi, ergash soʻz – ilm, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – moslashuv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – (-ning) qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yashirin holatda, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – otli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – aniqlovchili birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

“Asosiga qurilmagan” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – qurilmagan, ergash soʻz – asosiga, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – boshqaruv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – (-ga) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – feʼlli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – holli birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

“Ilm asosiga qurilmagan ulugʻlik” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – ulugʻlik, ergash soʻz – ilm asosiga qurilmagan, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – bitishuv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – ohang, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – otli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – aniqlovchili birikma, tuzilishiga koʻra turi – murakkab soʻz birikmasi.

“Ulugʻlikning oxiri” bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi: bosh soʻz – oxiri, ergash soʻz – ulugʻlikning, bosh soʻz va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli – moslashuv, hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita – (-ning) qaratqich kelishigi qoʻshimchasi, soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi – otli soʻz birikmasi, soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi – aniqlovchili birikma, tuzilishiga koʻra turi – oddiy soʻz birikmasi.

Agar gap tarkibida soʻz birikmasi zanjiri boʻlsa, ular ham aniqlanib bogʻlanish usullari topiladi.

Sintaktik tahlilning ikkinchi qismi gap tahliliga tayanadi. Bu tahlil oʻquvchidan kuchli bilim talab qiladi. Shu sababli har bir oʻquvchi maktab

darsligidan tashqari boshqa adabiyotlar bilan ham tanishishlari lozim. Har bir o‘rganilgan bilim insonning shaxsiy mulki hisoblanadi. Bu mulk bilan xohlagan safariga chiqish mumkin. Gap tahlilini boshlar ekanmiz, maktab darsligidan tashqari qo‘shimcha adabiyotlarga ham tayanamiz. Misollarni esa maktab darsligidan olishga qaror qildik. Gap tahlilini olib borish, ko‘proq ma’lumotlar berish, kengroq tahlil qilish, tushunarli va keng qamrovli bo‘lishi uchun turli gaplardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Shu boisdan bir nechta gaplarni ko‘rib chiqamiz. Tahlilga quyidagi gaplarni tortishimiz mumkin:

1. *“Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqij o‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi” (I.Karimov);*

2. *“Bir oycha fizika, matematika fanlarini o‘qidi, ammo xayoli boshqa yoqda bo‘lganligi uchun kallasiga hech vaqo kirmadi” (O‘.Hoshimov);*

3. *“Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera biladi” (A. Qahhor);*

4. *“Ilmsiz iliksiz so‘ngak kabi bo‘shdir, iliksiz so‘ngakka qo‘l urilmaydi” (A.Yugnakiy);*

5. *“Urush. Hamma yerda qon hidi anqiydi” (N.Erkaboyeva);*

6. *“Tushunish kerak-da” (O‘.Umarbekov);*

7. *“Rahmat!” (N.Erkaboyeva);*

8. *“Dadam qo‘li ochiq odam edilar” (N.Erkaboyeva);*

9. *“Bahaybat samolyot yerga ohista qo‘ndi” (N.Erkaboyeva);*

10. *“Agar inson o‘z hirslaridan ustun tura olsa, u o‘zidagi bor nuqsonlarini yo‘q qila oladi va ular yaxshi sifatlarga aylana oladi” (N.Erkaboyeva).*

Tahlil qilishda esa quyidagi jadvaldan foydalanishni tavsiya etamiz:

GAP TAHLILI
<ol style="list-style-type: none"> 1. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni aniqlanadi; 2. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi aniqlanadi; 3. His-hayajonlilikka ko‘ra turi aniqlanadi; 4. Tuzilishiga ko‘ra turi aniqlanadi; 5. Sodda gapning qaysi turi ekanligi aniqlanadi; 6. Qo‘shma gapning qaysi turi: ergashgan, bog‘langan, bog‘lovchisiz ekanligi aniqlanadi; 7. Bog‘lovchi vositalar aniqlanadi; 8. Murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, uning turi topiladi; 9. Gap bo‘laklari topiladi; 10. Kesimning turi topiladi; 11. To‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo‘lsa, ularning turlari topiladi; 12. Undalma va kirish so‘z bo‘lsa aniqlanadi.

Sintaktik tahlilda morfologiyaga tegishli jihatlar deyarli tahlil qilinmaydi. Shu sababdan tahlilimiz biroz osonlashadi. Agar morfologik jihatlari ham tahlil qilinadigan bo‘lsa, gap tahlili bir necha marta ortiq vaqt talab qiladi. Shuni hisobga olib faqat sintaktik (Gap sintaksisi) tahlil qilamiz:

“**Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqı jo‘sh urgan odamgına buyuk ishlarga qodir bo‘ladi**” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni: mustaqil so‘zlar – 16 ta, yordamchi so‘zlar – yo‘q, gap bo‘laklarining ifodalanishiga ko‘ra turi – to‘liq gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi – darak gap, his-hayajonlilikka ko‘ra turi – his hayajonsiz gap, tuzilishiga ko‘ra turi – qo‘shma gap, (agar sodda gap bo‘lsa)sodda gapning qaysi turi – sodda gap emas, (agar qo‘shma gap bo‘lsa)qo‘shma gapning qaysi turi: to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, bog‘lovchi vositalar – -ki yuklamasi yordamida bog‘langan, murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, uning turi – murakkab qo‘shma gap emas, gap bo‘laklari –qo‘shma gapning birinchi gapida 1 ta ega, 1 ta kesim, 1 ta aniqlovchi, 1 ta to‘ldiruvchi; ikkinchi gapida ham 1 ta ega, 1 ta kesim, 2 ta aniqlovchi, 1 ta to‘ldiruvchi va 1 ta hol mavjud, kesimning turi – gapda bitta fe‘l kesim(ko‘rsatadi), bitta ot kesim(sodir bo‘ladi) bor. 2 ta to‘ldiruvchi bor: 1-vositasiz (shuni), 2-vositali(ishlarga). 3 ta aniqlovchi bor: birinchisi qaratqishli, belgisiz(tarix), ikkinchisi sifatlovchi, murakkab(milliy g‘urur, Vatan ishqı jo‘sh urgan) va uchinchisi sifatlovchi aniqlovchi(buyuk). Hol esa bitta – o‘rin holi (tomirida), undalma va kirish so‘z – yo‘q. Chizmasi quyidagicha: **Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqı jo‘sh urgan odamgına buyuk ishlarga qodir bo‘ladi**

Bir oycha fizika, matematika fanlarini o‘qidi, ammo xayoli boshqa yoqda bo‘lganligi uchun kallasiga hech vaqo kirmadi” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni: mustaqil so‘zlar – 14 ta, yordamchi so‘zlar – 2 ta, gap bo‘laklarining ifodalanishiga ko‘ra turi – to‘liq gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi – darak gap, his-hayajonlilikka ko‘ra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga ko‘ra turi – qo‘shma gap, (agar sodda gap bo‘lsa)sodda gapning qaysi turi – sodda gap emas, (agar qo‘shma gap bo‘lsa)qo‘shma gapning qaysi turi: bog‘langan qo‘shma gap, bog‘lovchi vositalar – ammo – teng bog‘lovchilarining zidlov turi, murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, uning turi – murakkab qo‘shma gap emas, gap bo‘laklari – 9 ta gap bo‘lagi bor, kesimning turi – 2 ta fe‘l kesim(o‘qidi, kirmadi) ikkalasi ham sodda, to‘ldiruvchi 2 ta – (fanlarni) vositasiz, (kallasiga)vositali, aniqlovchi – yo‘q, hol bo‘lsa, ularning turlari – 2 ta hol bor, 1-(bir oycha) miqdor holi, tuzilishiga ko‘ra sodda, 2-(xayoli boshqa yoqda bo‘lganligi uchun) sabab holi, tuzilishiga ko‘ra murakkab hol, undalma va kirish so‘z – yo‘q. Chizmasi quyidagicha: **Bir oycha fizika, matematika fanlarini o‘qidi, ammo xayoli boshqa yoqda bo‘lganligi uchun kallasiga hech vaqo kirmadi**

“**Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera biladi**” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni: mustaqil so‘zlar – 13 ta, yordamchi so‘zlar – yo‘q, gap bo‘laklarining ifodalanishiga ko‘ra turi – to‘liq gap; gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi – darak gap; his-hayajonlilikka ko‘ra turi – his-hayajonsiz gap; tuzilishiga ko‘ra turi – qo‘shma gap; (agar sodda gap bo‘lsa)sodda gapning qaysi turi – ikkita sodda gapdan iborat. Qo‘shma gapning qaysi turi: kesim ergash gapli qo‘shma gap; bog‘lovchi vositalar – -ki yuklamasi yordamida bog‘langan,

murakkab qo'shma gap bo'lsa, uning turi – murakkab qo'shma gap emas. Gap bo'laklari – 8 ta gap bo'lagi bor va ular: kesimning turi – 1-kesim ot kesim (shundaki) olmosh bilan ifodalangan, tuzilishiga ko'ra sodda, 2-kesim(qamab bera oladi) fe'l kesim, tuzilishiga ko'ra murakkab kesim; 1 ta to'ldiruvchi bor (bahorni), vositasiz. Aniqlovchilar uchta: (1-yozuvchining, 2-butun, 3-atigi chigitdek keladigan) birinchisi qaratqichli aniqlovchi bo'lsa, qolgan har ikkisi ham sifatlovchi aniqlovchilar, 1-2-sodda, 3-murakkab aniqlovchi. 1 ta hol (g'o'ra ichiga), uning turi – o'rin holi, murakkab hol, qayerga so'rog'iga javob bo'lmoqda; undalma va kirish so'zlar – yo'q. Chizmasi quyidagicha: **Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga** (to'ldiruvchi vazifasida kelayotganga ham o'xshaydi) **qamab bera biladi** .

“**Ilmsiz iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka qo'l urilmaydi**” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlar soni: mustaqil so'zlar – 8 ta, yordamchi so'zlar – 1 ta, gap bo'laklarining ifodalanishiga ko'ra turi – to'liq gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi – darak gap, his-hayajonlilikka ko'ra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga ko'ra turi – qo'shma gap, (agar sodda gap bo'lsa)sodda gapning qaysi turi – sodda gap emas, (agar qo'shma gap bo'lsa)qo'shma gapning qaysi turi: bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'lovchi vositalar – vergul bilan ajratilgan, bog'lovchi vositalar yo'q, murakkab qo'shma gap bo'lsa, uning turi – murakkab qo'shma gap emas, gap bo'laklari – 6 ta gap bo'lagi bor, kesimning turi – bitta ot kesim(bo'shdir), bitta fe'l kesim(qo'l urilmaydi), tuzilishiga ko'ra birinchisi sodda, ikkinchisi murakkab kesim hisoblanadi. To'ldiruvchi – bitta vositali to'ldiruvchi(songakka), 2 ta aniqlovchi (1-iliksiz so'ngak kabi, 2-iliksiz) bo'lib, ikkalasi ham sifatlovchi aniqlovchilar, tuzilishiga ko'ra 1-murakkab, 2- sodda. Hol bo'lsa, ularning turlari – hol yo'q, undalma va kirish so'z – yo'q. Chizmasi quyidagicha: **Ilmsiz iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka qo'l urilmaydi.**

“**Urush. Hamma yerda qon hidi anqiydi**” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlar soni: mustaqil so'zlar – 1+5 jami oltita, yordamchi so'zlar – yo'q, gap bo'laklarining ifodalanishiga ko'ra turi – atov gap to'liqsiz, izoh berilgan gap ega to'liq gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi – darak gap, his-hayajonlilikka ko'ra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga ko'ra turi – sodda gap, (agar sodda gap bo'lsa)sodda gapning qaysi turi – egasiz gapning atov turiga mansub, atov gap qismi sodda yig'iq gap, qolgan qismi sodda yoyiq gap, (agar qo'shma gap bo'lsa)qo'shma gapning qaysi turi: qo'shma gap emas, bog'lovchi vositalar – yo'q, murakkab qo'shma gap bo'lsa, uning turi – murakkab qo'shma gap emas, gap bo'laklari – 1+4 jami 5 ta gap bo'lagi bor, kesimning turi – atov gapning o'zi ot kesim bilan ifodalangan(urush), ikkinchi qismida sodda fe'l kesim, to'ldiruvchi – yo'q, aniqlovchi – bitta qaratqichli sodda aniqlovchi(qon) belgisiz holatda kelgan. Hol bo'lsa, ularning turlari – 1 ta murakkab o'rin holi(hamma yerda) mavjud, undalma va kirish so'z – yo'q. Chizmasi quyidagicha: **Urush. Hamma yerda qon hidi anqiydi.**

“Tushunish kerak-da” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi soʻzlar soni: mustaqil soʻzlar – 2 ta, yordamchi soʻzlar – yoʻq, gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra turi – toʻliqsiz gap, gapning ifoda maqsadiga koʻra turi – buyruq gap, his-hayajonlilikka koʻra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga koʻra turi – sodda gap, (agar sodda gap boʻlsa)sodda gapning qaysi turi – egasiz gaplarning shaxsi nomaʼlum gap turiga mansub, ikkinchi darajali boʻlaklarning ishtirok etishiga koʻra sodda yigʻiq gap, (agar qoʻshma gap boʻlsa)qoʻshma gapning qaysi turi: qoʻshma gap emas, bogʻlovchi vositalar – yoʻq, murakkab qoʻshma gap boʻlsa, uning turi – murakkab qoʻshma gap emas, gap boʻlaklari – bitta, kesimning turi – murakkab feʼl kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol boʻlsa, ularning turlari – yoʻq, undalma va kirish soʻz – qatnashmagan. Chizmasi quyidagicha: **Tushunish kerak-da.**

“Rahmat!” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi soʻzlar soni: mustaqil soʻzlar – yoʻq, yordamchi soʻzlar – yoʻq, bitta modal soʻz bor. Gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra turi – toʻliqsiz gap, Gapning ifoda maqsadiga koʻra turi – darak gap, his-hayajonlilikka koʻra turi – his-hayajonli (undov) gap, tuzilishiga koʻra turi – sodda gap, (agar sodda gap boʻlsa)sodda gapning qaysi turi – egasiz gaplarning soʻz gap turiga mansub, ikkinchi darajali boʻlaklarning ishtirok etishiga koʻra sodda yigʻiq gap, (agar qoʻshma gap boʻlsa)qoʻshma gapning qaysi turi: qoʻshma gap emas, bogʻlovchi vositalar – yoʻq, murakkab qoʻshma gap boʻlsa, uning turi – murakkab qoʻshma gap emas, gap boʻlaklari – bitta gap boʻlagi bor. Kesimning turi – sodda ot kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol boʻlsa, ularning turlari – ular yoʻq, undalma va kirish soʻz – yoʻq. Chizmasi quyidagicha: **Rahmat!**

“Dadam qoʻli ochiq odam edilar” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi soʻzlar soni: mustaqil soʻzlar – 4 ta mustaqil soʻz va 1 ta toʻliqsiz feʼl bor, yordamchi soʻzlar – yoʻq, gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra turi – toʻliq gap, gapning ifoda maqsadiga koʻra turi – darak gap, his-hayajonlilikka koʻra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga koʻra turi – sodda gap, (agar sodda gap boʻlsa)sodda gapning qaysi turi: eganing ishtirokiga koʻra egali gap, ikkinchi darajali boʻlaklarning ishtirok etishiga koʻra sodda yigʻiq gap, (agar qoʻshma gap boʻlsa)qoʻshma gapning qaysi turi: qoʻshma gap emas, bogʻlovchi vositalar – yoʻq, murakkab qoʻshma gap boʻlsa, uning turi – murakkab qoʻshma gap emas, gap boʻlaklari – 2 ta gap boʻlagidan iborat, kesimning turi – murakkab – iborali ot kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol boʻlsa, ularning turlari – ikkinchi darajali boʻlaklar ishtirok etmagan, undalma va kirish soʻz – mavjud emas. Chizmasi quyidagicha: **Dadam qoʻli ochiq odam edilar.**

“Agar inson oʻz hirslaridan ustun tura olsa, u oʻzidagi bor nuqsonlarini yoʻq qila oladi va ular yaxshi sifatlarga aylana oladi” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi soʻzlar soni: mustaqil soʻzlar – 18 ta, yordamchi soʻzlar – 2 ta, gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra turi – toʻliq gap, gapning ifoda maqsadiga koʻra turi – darak gap, his-hayajonlilikka koʻra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga koʻra turi – qoʻshma gap, (agar sodda gap boʻlsa)sodda gapning qaysi turi – sodda gap emas, (agar qoʻshma gap

bo'lsa)qo'shma gapning qaysi turi: murakkab qo'shma gap, bog'lovchi vositalar – **agar** shart bog'lovchisi, **-sa** shart mayli qo'shimchasi, **va** teng bog'lovchisi yordamida bog'langan, murakkab qo'shma gap bo'lsa, uning turi – aralash turdagi murakkab qo'shma gap, gap bo'laklari – 13 ta gap bo'lagi bor, kesimning turi – ikkita murakkab fe'l kesim mavjud, to'ldiruvchi – 3 ta to'ldiruvchi bor, 1- vositali(hirslaridan), 2-vositali(nuqsonlarini), 3- vositali(sifatlarga), tuzilishiga ko'ra hammasi sodda to'ldiruvchilar, aniqlovchi – 4 ta aniqlovchi bor: 1-qaratqichli (o'z), 2-sifatlovchi (o'zidagi), 3- sifatlovchi (bor), 4-sifatlovchi (yaxshi) aniqlovchilar. Hol bo'lsa, ularning turlari – yo'q, undalma va kirish so'z – yo'q. Chizmasi quyidagicha: **Agar inson o'z hirslaridan ustun tura olsa, u o'zidagi bor nuqsonlarini yo'q qila oladi va ular yaxshi sifatlarga aylana oladi.**

Sintaktik tahlil qilishda boshqacha usullar ham bor, ularni ham bir ko'rib chiqsak bo'ladi. Masalan: dotsent Madrim Hamrayev sintaktik tahlilning sodda gaplar tahliligi urg'u berib, 3 bosqichda tahlil qilish lozimligini ko'rsatadi:

1-bosqichda sodda gaplarning bog'lanishi bo'yicha tahlil qilish;


2- gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha tahlil;

3- gap qurilishi bo'yicha tahlil.


Bunday tahlillarni ko'plab keltirish mumkin. Biz ko'proq maktab o'quvchisi bilishi lozim bo'lgan bilimlarga suyardik. Shu sababli tushunarli bo'lishi uchun soddaroq, qulayroq va osonroq yo'ldan bordik.

Gap tahlilini ko'rib chiqar ekanmiz, tahlillardan ma'lum bo'ladiki, tahlil qilish asnosida ba'zi bilimlarni qaytarishga, takrorlashga, kitoblarni qayta o'qib chiqishga, qoidalarni ko'rib chiqishga, eng muhimi, izlanishga to'g'ri keldi. Tilshunoslikdagi ba'zi bir muammolarni ham ko'rib o'tdik. Masalan, gapning turi nechta degan savolga javob topmadik. Sodda gaplarning egani ishtirokiga ko'ra turlari mukammal berilmagan yoki qoliplashtirilmagan. Shu boisda biz ularni ilova qilib berishni lozim topdik. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, tahlil qilishni yana ham murakkablashtirish mumkin, biroq o'quvchini qiynashni istamadik. Maktab darsliklari bilan cheklanishga to'g'ri keldi. Ba'zi ma'lumotlarda kollej va litsey darsligiga asoslandik. O'ylaymizki qo'llanmamizni keyingi nashrlarida mavjud muammolarni hal qilishga va'da beramiz. Siz beradigan fikrlar albatta inobatga olinadi, aziz Kitobxon.

Gap turkumi atamasini o'zimiz nomladik. Sababi, gap turlari so'ralganda qaysi tur haqida aytilmoqchiligi noaniq bo'lib qolmasligi lozim. Shu bois "Gaplarning nechta turi bor?"- degan savolga javoban bir turkum nomi bilan atalishini nazarda tutdik. Bizningcha, shu nom bilan atalishi maqsadga muvofiq. (Bu albatta nisbiy).



Egasi yashiringan, egasi umumlashgan, egasiz gaplar haqida so'z ketganda nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar ham yanglish xulosa chiqarib qo'ymoqda. Shu sababli eganing ishtirok etishiga ko'ra sodda gaplarni quyidagicha ko'rinishda tushunish lozim:



Murakkab kesim tarkibida bog'lamaning qo'llanishi va uning tushirilishiga doir mustaqil ijodiy-amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ham sintaksis va punktuatsiyaga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga nutqiy malakani shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limi – o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, erkin va ijodiy fikrlash darajasini yuksaltirishni bosh maqsad qilib qo'ygan ekan, bu murakkab ishni gap sinonimiyasi ustida ishlaymay turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli sodda va qo'shma gaplarning ma'nodosh

qatorini tuzish, uning tarkibidagi bog'lovchi vositalarni muqobillari bilan almashtirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish juda foydali.

Gap bo'laklari mavzusini o'rganishda ega va kesim munosabatlari ustida alohida to'xtalish maqsadga muvofiq.

Bunday ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning ega va kesim haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, kengayadi, fikrlash faoliyati rivojlanadi, nutq shakllanadi.

Qo'shma gaplarni o'rganishda gap sinonimiyasi ustida ishlash uning mazmunini to'liq tushunishga, nutqni ravon, rang-barang hamda jozibador qilishga yordam beradi. Badiiy matnlarni lisoniy tahlil qilish, undagi qo'shma gaplarning qanday yo'l bilan tuzilganini sharhlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishi bilan birga nutqiy mahoratning risoladagidek shakllanishiga yordam beradi.

23 §. Punktatsiya o'qitishning o'ziga xos usullari. Tinish belgilarning qo'llanilishini grammatik qoidalari bilan bog'lab o'rganish metodikasi

Tinish belgilari haqida. (Tinish belgisi atama sifatida "tinmoq" fe'lidan olingan):

Loyqa suvning tinishi;

Harakatdagi odamning tinishi;

Yog'ayotgan yomg'irning tinishi;

Tinmay ququlayotgan jo'janing tinishi.

Demak, **tinish** so'zining izohi-to'xtamoq, to'xtab turmoq, to'xtab olmoq ekan...

Gap va so'zlar orasida (ba'zida sonlar orasida) kelib, bir to'xtab olishga yoki to'xtab turishga, ularning ma'nosini izohlashga, ohangini ifodalashga xizmat qiladigan belgilar tinish belgilari hisoblanadi.

Tinish belgilarini o'rganuvchi bo'lim punktatsiya deb nomlanadi. Punktatsiya yunoncha "punktum" – "nuqta" so'zidan olingan.

Tinish belgilarining soni 10 ta.

Biz kuzatuvlarimizda ko'proq duch kelayotgan, yoki Bilimlar bellashuvida, Fan olimpiadalarida muammoga aylanib qolgan mavzudan keyingi belgi qanday qo'yilishi yoki qo'yilmasligi haqida dastlab fikr bildirmoqchimiz.

Ko'pgina olimlarning fikricha, odatda mavzular bosh harflar bilan yoziladi (masalan: SOKIN KUZ). Shu nuqtayi nazardan qaralganda, tinish belgisi bosma yozuvlarda qo'yilmasligi lozim. Sababi, xat boshidan boshlangan jumla ham bosh harflarda yoziladi. Bunda haqiqatan ham tinish belgisiga ehtiyoj yo'q. Yozuvda esa tinish belgisi qo'yilishi lozim. Sabab shuki, yozuvda sarlavhaning faqatgina birinchi harfigina bosh harf bilan boshlanadi. Biz yozuvda xat boshidan va bosh harflardan boshlashimiz uchun tinish belgisini qo'yishimiz lozim. Bu esa xat boshidan boshlanishi uchun asos vazifasini o'tashi kerak. Shuning uchun sarlavhalar bosma harflarda yozilganida tinish belgisi qo'yilmaydi. Yozuvda esa qo'yilishi kerak.

Shu o‘rinda Nizomiddin Mahmudov va boshqalar “Davlat tilida ish yuritish” Akademik litseylar uchun darsligining (Toshkent–2008) 104-betida shunday qoida berilgan: **Unutmangki, hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo‘yilmaydi.** Bu fikr yuqoridagi fikrni keskin inkor etadi. Sabab shundaki, N. Mahmudov bugungi kunda amaldagi darsliklarimizning muallifi, shu nuqtayi nazardan bu fikrni inobatga olish lozim.

Madrim Hamroyev “Ona tili” Abituriyentlar uchun qo‘llanma (Toshkent–2013)sining 143-betida “**Sarlavhalardan keyin (darak gap bo‘lsa) nuqta qo‘yilmaydi**” degan qoida berilgan.

Bu qoidalardan shunday xulosa qilish mumkinki, matn sarlavhalarida so‘roq belgisi, undov belgisi va ko‘p nuqta qo‘yiladi.

Bu qarashlardan shunday qoida yaratiladi: **Hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin so‘roq belgisi va ko‘p nuqta qo‘yiladi, nuqta esa qo‘yilmaydi.**

Tinish belgilarining ishlatilishi

Nuqta

XIX asrning ikkinchi yarmidan ishlatilgan nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘llaniladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: ***Bahor fasli kirib keldi. Darslarni o‘z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uning kuchi yetsa.***

2. Xabar mazmunidagi atov gaplardan keyin qo‘yiladi. ***Ilk bahor. Daraxtlar ilk kurtak yoza boshlagan palla.***

3. Iltimos, yalinish, istak, maslahat, nasihat va ogohlantirish kabi mazmundagi buyruq gaplar oxiriga qo‘yiladi. ***Farzandlarimiz har doimo sog‘lom bo‘lsin.*** (Istak mazmunidagibuyruq gap)

4. Xabar mazmunidagi kiritma gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

5. Xabar mazmunidagi kiritma gap oxirida kelsa, nuqta qavsdan keyin qo‘yiladi. Masalan: ***Yaxshi yozilgan (Qo‘l qo‘yib berdi).***

6. Birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng: ***"Men hozir jo‘nayman, dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo‘lga chiqing"***.

7. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: ***A.Navoiy (Alisher Navoiy)***

8. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo‘llangan raqam yoki harflardan keyin: ***27.09.2009.*** kabi.

9. Drama asarlarida personaj nomidan keyin nuqta qo‘yiladi. Agar personaj nomidan keyin kiritma kelsa, nuqta faqat yopiluvchi qavsdan keyin qo‘yiladi. Masalan: ***Ulug‘bek (jiddiy ohangda). Ozod etilsin.***

10. Sanash ohangi bilan yoziladigan raqamlardan keyin:

1. ***Arslon***

2. ***Sher...*** kabi

11. Nuqtali raqamlar bilan sanab ko'rsatilgan gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi (nuqtali vergul emas).

12. Muallif familiyasi (taxallusi) va undan keyin keladigan joy nomi, sana ma'lumotlari orasiga qo'yiladi. Masalan: *Erkin Vohidov. Farg'ona viloyati*

Izoh: Gazetalarda muallif familiyasi va undan keyin keladigan izohlovchi orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *O.Sultonov, "Sirdaryo haqiqati" muxbiri*

13. Muallif gapi ko'chirma gap ichida kelganda, oldingi qism mustaqil gapga teng bo'lsa, muallif gapidan so'ng nuqta qo'yiladi. *"Yaxshi inson abadiy yashaydi, – deb yozadi I.Suyunov. – Hayotning ustunligi ham shunda"*.

Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o'z o'rnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi: *Ketdi. (A.Q.) Shuningdek, sarlavhalardan keyin (darak gap bo'lsa) nuqta qo'yilmaydi.*

Manbalardan keyin kelgan fikr bosh harf bilan yoziladi. Agar kiritmalar gap orasida kelsa, qavs ichida beriladi, ammo manbalar va muallif gap oxirida kelsa, nuqta yopiluvchi qavsdan keyin qo'yiladi: *Kuch adolatda (A.Temur). Hozir men "O'tkan kunlar"ni (ilgari ikki marta o'qib chiqqanman) o'qiyapman.*

Ikki nuqta

XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida ishlatila boshlangan ikki nuqta belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng: *Yig'ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqishdi.*

Izoh: Ba'zan umumlashtiruvchi so'z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo'yilaveradi: *Qilinishi kerak: traktorlar ta'mirdan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin.*

2. Quyidagi ma'nolarni ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda:

A) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa: *U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

B) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatsa: *Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

C) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

D) Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: *U baland ovozda so'radi: - Kim bor?*

3. Qaror qiladi, buyuraman, reja, savol, javob kabi izohi talab etiladigan jumla va so'zlardan keyin: *Savol: Nechanchi yilda tug'ilgansiz?*

Ko'p nuqta

1876-yildan muntazam qoʻllangan bu belgi oʻzbekcha matnlarda XIX asrning ikkinchi yarmidan qoʻllanila boshlangan.

Koʻp nuqta quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligini ifodalaganda.
2. Soʻzlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini koʻrsatish uchun.
3. Baʼzan koʻp nuqta soʻzlovchining oʻylashi, mulohaza qilishini koʻrsatadi.
4. Baʼzan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini koʻrsatish uchun ham koʻp nuqta qoʻyiladi.
5. Biror harf, soʻz, gap yoki jumlaning tushirilganligini koʻrsatish uchun.

Vergul

XV asrlarda Yevropada kashf etilgan bu belgi oʻzbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Vergul quyidagi oʻrinlarda qoʻyiladi:

1. Uyushiq boʻlaklar orasiga:
 - A) bogʻlovchisiz birikkan uyushiq boʻlaklar orasiga: Andijon, Namangan, Qoʻqon, Margʻilon - oʻzbekning chamani, bogʻ-u boʻstoni.
 - B) takrorlanuvchi bogʻlovchilar bilan birikkan uyushiq boʻlaklar orasiga: U goh yigʻlaydi, goh kuladi.
 - C) zidlov bogʻlovchilari yordamida birikkan uyushiq boʻlaklar orasiga(zidlov bogʻlovchilaridan oldin): Men koʻrdim, biroq aytmadi.
2. Undalmalarni ajratish uchun: Ertaga, azizim, togʻga joʻnaymiz.
3. Kirish soʻzlarni va tuzilishiga koʻra murakkab boʻlmagan kirish gaplarni ajratish uchun: Xullas, ertaga shu yerda yigʻiladigan boʻldilar. Men sizga aytсам, odamning yomoni boʻlmaydi.
4. Ha va yoʻq soʻzlarini gap boʻlaklaridan ajratish uchun: Ha, bu gapingiz toʻgʻri. Yoʻq, ertaga kela olmayman.
5. Gapning ajratilgan boʻlaklarini ayirib koʻrsatish uchun: "Biz, yoshlar, ota bobolarimiz qoldirgan bebaho merosni koʻz qorachigʻiday asrashimiz kerak".
6. Bogʻlovchisiz bogʻlangan qoʻshma gaplarda: Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.
7. Va, ham, hamda, yoki (yolgʻiz kelgan bogʻlovchilaridan) boshqa bogʻlovchilar bilan bogʻlangan qoʻshma gaplarda: Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush oʻtirar edi.
8. Ergash gaplarni ajratish uchun: Hamma yigʻilgach, majlis boshlandi.
9. Gapda takrorlangan soʻzlar orasiga: Xoʻp, xoʻp dedim-ku.
10. Muallif gapini koʻchirma gapdan ajratish uchun:
 - Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, - dedi ota, - kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Izoh: va, hamda bog'lovchilari takror qo'llanganda ham ulardan oldin va keyin hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi: Dilshod va Ozoda, Akrom va Oygul birga ketishdi.

Nuqtali vergul

XIX asrning ikkinchi yarmi(1885-yil)dan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. O'z ichida verguli bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug'i, hayot quvonchi

Hammasining asli manbai

Sen, Vatanim - tinchlik tayanchi.

2. O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.

1. Matnning qavsli raqam bilan sanalgan qismlari oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi: Hozircha qiladigan ishlarimiz quyidagicha: a) o'qib tahlil qilish; b) o'tilganlarni takrorlash.

So'roq belgisi

XIX asrning ikkinchi yarmi(1885-yil)dan boshlab ishlatila boshlangan bo'lib, XX asrdan keng qo'llanilgan.

1. So'roq belgisi so'roq gaplardan keyin qo'yiladi: ***Siz qachon kelasiz?***

2. So'roq gaplar bittadan ortiq bo'lib kelishi mumkin: Bunday paytlarda so'roq belgisi quyidagicha qo'yiladi:

A) so'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmuniga ko'ra mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi: ***Sog'liklar yaxshimi? Uydagilar omonmi?***

B) agar so'roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi: - ***Tag'in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi?***

3. So'z yoki ibora noaniq bo'lsa, unda gumon ifodalansa, so'roq belgisi qo'yiladi: ***Bu ishlarning hammasini yarim soat (?) ichida bir o'zi bajararmikan?***

4. Muallif gapidan oldin kelgan ko'chirma gapdan so'ng so'roq belgisi qo'yilsa, muallif gapi kichik harflarda yoziladi. ***Ertaga kelasizmi? – so'radi Salim.***

5. So'roq gap tipidagi sarlavhalardan keyin so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan: ***ADABIYOT NADUR?***

6. Ohang vositasida ifodalangan so'roq gaplar oxiriga qo'yiladi. ***Xo'sh, xizmat?***

7. G'aliz, noaniq, noo'rin ishlatilgan jumalardan so'ng.

Izoh: Ba'zan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan biri so'roq gap shaklida, ikkinchisi esa uning izohi sifatida kelishi mumkin, bunday holatda ular orasiga vergul yoki tire qo'yilishi mumkin: *U ertaga keladimi, kelmaydimi, bu menga qorong'i.*

Undov belgisi

XX asrdan boshlab o'zbek tilida ishlatila boshlangan (aslida rus tilshunosligidan kirib kelgan).

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: Oh, asal naqadar shirin!

2. Buyurish, tilak, orzu – xayol ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng ham undov belgisi qo'yiladi: Hoziroq bularni ko'zimdanda yo'qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!

3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda ha va yo'q so'zlaridan so'ng ham ko'p hollarda undov belgisi qo'yiladi: Yo'q! Siz meni hech qachon bunchalikka boradi deb o'ylamang! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!

4. Buyruq va undov gap xilidagi sarlavhalardan so'ng ham undov belgisi qo'yiladi. *VATAN UCHUN OLG'A!*

Qavs

XIX asrning ikkinchi yarmi(1873-yil)dan boshlab ishlatila boshlangan.

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki iboralar qavsqa olinadi: Karimjon (sinfimizning a'lochisi) oliy o'quv yurtiga kiribdi.

2. Adashib yozilib ketilgan jumlar ham keraksiz deb topilsa qavsqa olinadi.

3. Gapga tegishli bo'lgan manbalar ham qavs ichida berilishi mumkin: Do'st achitib gapiradi.(Maqol)

Izoh: Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko'chiriladi: Chavandoz bu gaplarni Ertoyevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoyev xafa bo'ladi, aytmasa bir joydan chatog'i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo'ladimi? (O.Y.)

4. Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi. Aziz Kamol (xayol og'ushida). Vatanimizga qarshi ko'tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho'qqisiga chiqdi.

5. Misol yoki ko'chirmaning manbayi: ...Eshik qars etib yopildi.(O.Y.)

6. Kirish so'z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi: To'satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (O'shandan beri undan dom-darak yo'q!)... tushdi.(O.Y.)

Qo'shtirnoq

XIX asrning ikkinchi yarmi(1880-yil)dan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan bo'lib, uning fanga kiritilishi rus tilshunosi A.Barsov nomi bilan bog'lanadi.

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun: "Ertaga kelaman", – dedi.

2. Ko'chma ma'nodagi, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: "Qizil lavlagi" sotadigan yigit haqida gapirdi.

Izoh: Qo'shtirnoqqa olinishi kerak bo'lgan so'zlarda turlovchi (kelishik) qo'shimchalar mavjud bo'lsa, bu qo'shimchalar qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi: Bularni ko'rgan Aziz o'zi haydab kelayotgan «GAZ-69»ning yurishini tezlatib, yo'lga chiqdi-da, «Jiguli» tomonga burildi.

Tire

XVII asrda rus yozuvchisi N.Karamzin tomonidan fanga kiritilgan tire belgisi 1870-yillardan boshlab o'zbekcha matnlarda uchraydi.

Tirening ishlatilishi quyidagicha:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O'qish - hayotni uqish.

2. Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o'tirishgan ekan.

3. Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasiga: Men – Esonova Gavhar, 1986-yilda Gulistonda tug'ilganman.

4. Kirish gap bilan gap bo'laklari orasiga: Tunov kungi ovchi – men uni o'rmonda uchratib qoldim - menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi.

5. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: Bugun kelasizmi? -so'radi qizi.

6. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda: - Meni sog'indingizmi? – Ha, albatta.

7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: Kecha tog'amlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.

Ko'p nuqta, undov va so'roq belgilarning birikkan holda kelishi

1. So'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo'lgan so'roq gaplardan keyin undov va so'roq belgisi birikkan holda (!?) qo'yiladi: Go'zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?

2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov belgisi birikkan holda qo'yiladi: - Ah! – Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo'lib qoldi.

– Direktorimiz-a ?! (H. G'.)

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (!..) qo'llanadi: - Nafisa!.. Nafisaoy!.. - dedi Aziz o'pkasi yumshab, ko'zlariga qaynoq yosh keldi. (H. G'.)

4. Mazmunan tugallanmagan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (?..) ishlatiladi: - Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?..

Tinish belgilarining bosma va yozma shakllari

Nuqta, ikki nuqta, ko‘p nuqta, vergul, nuqtali vergul, qavs, tire, so‘roq va undov belgilarining yozma va bosma shakllari bir xil.

Tinish belgisining muammolarga uchrayotgan xillaridan biri bu qo‘shirnoqdir. Qo‘shirnoq quyidagicha yoziladi:

Times New Roman shriftida yozilgan paytda –

“lotincha bosma”

“кирилча босма”

«русчада босма»

Courier New shriftida yozilgan paytda –

“lotincha bosma”

“кирилча босма”

«русчада босма»

Arial Black shriftida yozilgan paytda –

“lotincha bosma”

“кирилча босма”

«русчада босма»

Forte shriftida yozilgan paytda –

“lotincha bosma”

“кирилча босма”

«русчада босма»

Bosma harflarda yozilganda kompyuter imkoniyatini hisobga olib yoziladi. Demak, qaysi shriftida yozilishiga, qaysi alifboda yozilishiga qarab qo‘shirnoqlarning ishlatilishi har xil bo‘ladi. Qo‘l yozmada esa qo‘shirnoq belgisi so‘zning pastgi qismidan ikkita vergul(,) qo‘yish orqali ochilib, yopilishida so‘zning yuqorigi qismiga ikkita teskari vergul(“) qo‘yiladi. (Xalq og‘zaki tilida to‘qson to‘qqiz bilan ochilib, oltmish olti bilan yopiladi.) Masalan: „lotincha va kirilchada yozma“.

Shuni alohida aytib ketish joizki, **uch nuqta, tutuq belgisi va chiziqchalar** tinish belgisi hisoblanmaydi.

Chunki tutuq belgisi va chiziqcha fonetik belgilar hisoblanadi.

Chiziqcha tiredan tashqi ko‘rinishi bilan ham farq qilib turadi. Chiziqcha kichkina bo‘lib, so‘zlarni bo‘g‘inlashda, ko‘chirishda, yuklamalarni ajratib

yozishda, juft va taktoriy soʻzlar orasida, qarama-qarshi soʻzlar orasida, yil va sanalardan keyin qoʻyiladi va ishlatiladi. Uning koʻrinishi quyidagicha: (-)

Tirening koʻrinishi kattaroq (uzunroq) boʻlib quyidagicha ifodalanadi (-)

Uch nuqta esa koʻp nuqta belgisining laqabidir, aslida bu belgining nomlanishi koʻp nuqta deb yuritiladi.

Bu dalilni keltirilishimizning sababi shundaki, oliy taʼlim uchun tayyorlangan testlarda “Tinish belgilarini toping” kabi savollar borki, unda uch nuqta belgisi ham kiritilgan. Biroq u javob xato berilgan. Buni bilmagan abuturiyentlar bu javobni belgilab qoʻyishadi. Natijada xatoliklar kelib chiqaveradi. Dars jarayonlarida uch nuqta deb emas, balki koʻp nuqta deb oʻrgatilishi lozim.

Oʻquvchilarning yozma ishlarida punktuatsion xatolarning quyidagi xillari uchraydi: 1) kerakli tinish belgisini qoʻymaslik; 2) tinish belgisini ortiqcha qoʻllash; 3) tinish belgilarini qorishtirish: birining oʻriga boshqasini qoʻllash; 4) belgilardan birini tushirib qoldirish.

Agar oʻquvchi gapda tinish belgilarini nima uchun va qaerga qoʻyish kerakligini bilmasa, uni qoʻymagani maʼqul: zarur tinish belgisini qoʻymay, biror *tinish belgisini tavakkal*, ammo nooʻrin ishlataverish xavfliroq, bu ham oʻquvchining, ham oʻqituvchining ishini murakkablashtiradi. Agar oʻquvchi gapda biror tinish belgisini qoʻymagan boʻlsa, demak, u shu tinish belgisining ishlatilishi bilan aloqador boʻlgan punktuatsion qoidani bilmaydi yoki uni yaxshi oʻzlashtirmagan boʻladi. Agar oʻquvchi tinish belgisini ortiqcha qoʻysa, u tinish belgisini asossiz qoʻyaverishiga odatlanib qoʻlgan boʻladi. Oʻquvchilarning punktuatsion xatolarini tahlil qilishga bagʻishlangan ish turlari juda foydalidir. Unda oʻquvchilarning punktuatsion xatolari koʻrsatilibgina qolmay, uning sabablari ham tushuntiriladi, qoida va taʼriflar eslanadi, amaliy-ijodiy mashqlar bajartiriladi. Shundagina oʻquvchilar tinish belgilarini qoʻllashga ongli ravishda yondashadilar.

Darsni koʻrgazmali oʻquv qurollaridan foydalanib oʻtish punktuatsiyani oʻzlashtirishni yengillashtiradi. Punktuatsiya darslarini koʻrgazmali qurollarning eng koʻp qoʻllanadigan turi – jadval va sxemalar yordamida oʻtish mustahkamlash darslari uchun ham juda muhimdir. Masalan, oʻquvchilarga biror punktuatsiya qoidasiga mos keladigan sxema chizib koʻrsatiladi va bu sxema qaysi punktuatsiya qoidasiga tegishli ekanligi soʻralib, unga mos misollar topish vazifa qilib topshiriladi.

Puntuatsiya oʻqitishda onglilikni taʼminlash uchun oʻqituvchi mavzularni punktuatsiyaga bogʻlashi juda zarur. Oʻquvchi har bir gapning mazmuniga toʻla tushungan boʻlishi bilan birgalikda, undagi tinish belgining nima uchun ishlatilganligi, uning sintaktik vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilib turish kerak boʻladi. Masalan, “Bogʻimizda olma, anor, nok, uzum – hamma mevalar pishdi” gapida nima sababdan vergullar va tire ishlatilishini oʻquvchi shunday tahlil qiladi: – Bu gapda uyushiq boʻlaklar (olma, anor, nok,

uzum) va ulardan soʻng umumlashtiruvchi boʻlak (hamma mevalar) mavjud boʻlganligi sababli vergullar va tire qoʻyilyapti.

Darsda yana quyidagi sintaktik-punktuation tahlil oʻtkazish mumkin. Oʻquvchi biror matnni aytib beradi, oʻquvchilar tinish belgilarini mustaqil qoʻyadilar. Matn yozib boʻlingach, oʻquvchilar tinish belgilarining qoʻyilishi sababini izohlaydilar.

Koʻpincha oʻquvchilar gapni sintagmalarga ajratishda va gapdagi sintagmalar orasida vergulning qoʻyilgan yoki qoʻyilmagan oʻrinlarida yanglishadilar. Gapdagi sintagmalar har doim ham vergul bilan ajratilavermaydi: Mening kichik ukam / Qoʻqon davlat pedagogika inistitutida / bilimlarni chuqur egallamoqda. Bu gapda uchta sintagma boʻlib, uni oʻqishda uch marta pauza boʻladi, lekin bu pauzalr hech qanday tinish belgisi bilan ajratilmaydi.

Punktuation mashqlaridan yana biri oʻquvchilarning oʻzi, punktuation qoidasiga mos keladigan misollar totib, tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntirishdir.

Masalan, 8-sinfda gap boʻlaklari sanalmaydigan kiritma, undalma kabi mavzular oʻtib boʻlingach, oʻqituvchi bu mavzuga oid misollar topishni oʻquvchilarga topshiradi hamda tinish belgilarining ishlatilish oʻrinlari izohlanadi. Ish turlaridan yana biri tinish belgilari tushirib qoldirilgan matnning tinish belgilarini qoʻyib koʻchirish va ishlatilgan tinish belgilarini izohlashdir. Matn tinish belgilarining turli xillarini oʻz ichiga olgan boʻlish kerak. Mashqning bu turi punktuation oʻrgatishda keng tarqalgan usul boʻlib, dastavval, oʻquvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini yaxshilaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Soʻzlarning grammatik va lugʻaviy maʼnolari haqida nimalarni bilasiz?
2. Soʻzning maʼno guruhleri, soʻz tarkibi ustida ishlash usullari haqida fikrlaringizni bildiring.
3. Sintaksis boʻlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Sintaksis boʻlimini oʻqitishning uzviyligi deganda nimani tushindingiz?
5. Grammatika oʻqitish metodikasi bormi?
6. Grammatikaning qismlarini qanday usullarda oʻqitish toʻgʻri deb oʻylaysiz?
7. Punktuation oʻqitishning oʻziga xos usullari haqisa fikr bildiring.
8. Tinish belgilarning qoʻllanilishi va ular bilan bogʻliq xatoliklarga yoʻl qoʻyilishining asosiy sabablari nimada?
9. Tinish belgilarining grammatik qoidalari bilan bogʻlab oʻrganish metodikasi bormi?
10. Lotin alifbasiga asoslangan oʻzbek alifbosining imlosi va eski imlo oʻrtasidafi farq nimalardan iborat?

Tayanch soʻz va iboralar:

OVKT – ongli verbal kognitiv taʼlim, grammatika, morfologiyani oʻrganish metodikasi, BKMK, MYABT-4 moduli, lugʻat ustida ishlash, lugʻat diktanti, mustaqil soʻz turkumlarini oʻrganish, morfologik tahlil, mustaqil ish, atoqli va turdosh otlar, otlarda son, koʻplik, otlarda egalik qoʻshimchasi, kelishik qoʻshimchalari, yordamchi soʻz turkumlari, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, yuklamalarning maʼno turlari, alohida soʻz turkumlari, modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlarni oʻrganish, morfologiya, punktuatsiya, sintaktik tahlil, aniqlovchili birikma, toʻldiruvchili birikma, holli birikma, tinish belgilari, nuqta, ikki nuqta, koʻp nuqta, vergul, nuqtali vergul, soʻroq belgisi, undov belgisi, qavs, qoʻshtirnoq, tire.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qonun.
2. Azizxoʻjayeva N. Oʻqituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
3. Berdialiyev A. Oʻzbek tili ergash gapli qoʻshma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. – T.: Fan, 1992.
4. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
5. Mahmudov N. Jamiyatda til sezgisi va soʻz sevgisi barqarorlash mogʻi zarur. // Til va adabiyot taʼlimi. 2017-yil 10-son.
6. Mahmudov N. va boshqalar “Davlat tilida ish yuritish” akademik litsey uchun darslik –Toshkent; 2008.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. “Ona tili” 5-11-sinflar. – T.: “Maʼnaviyat”, 2015-2021.
8. Mengliyev B. Ona tili taʼlimi: davr talabi va ijtimoiy zarurat // Maʼrifat. 2017-yil 22-fevral soni.
9. Milliy dastur. – T., 2022-2026-yillar.
10. Neʼmatov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. Oʻzbek tili struktural sintaksisi asoslari. – T.: Universitet, 1999.
11. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.; 1988.
12. Rafiyev A. “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi va imlosi”. Oʻquv qoʻllanma, – T.; 2003.
13. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi adabiy oʻzbek tili” Darslik. – T.; 2006.
14. Uralov A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2021.
15. Ziyodova T.U. “Oʻqituvchi kitobi”. Ona tili oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma. – T.; 2002.

Elektron taʼlim resurslari

16. www.ziyonet.uz – Ijtimoiy axborot taʼlim portal.
17. www.edunet.uz – Maktablar, oʻquvchi va oʻqituvchilar sayti.

NUTQ USLUBLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Ko‘riladigan masalalar:

1. *So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos jihatlari. Adabiy so‘zlashuv uslubining o‘qituvchi o‘quvchi muloqotida qat’iy amal qilishi.*

2. *Publistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari ustida ishlash metodikasi.*

24 §. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos jihatlari. Adabiy so‘zlashuv uslubining o‘qituvchi o‘quvchi muloqotida qat’iy amal qilishi (Dars ishlanmasi asosida)

Dars shiori: “Fan nima bo‘lganini tushuntiradi, adabiyot qanday bo‘lganini tasvirlaydi”.

Dars maqsadi:

1. Ta’limiy: o‘quvchilarga adabiy til uslublari va ularni bir-biridan farqlovchi xususiyatlarini tushuntirish, mavzuni o‘rganish jarayonida fanlararo bog‘lanishni tashkil etish;

2. Tarbiyaviy: o‘quvchilarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiqlik, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash;

3. Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish, mustaqil fikr yuritish, mantiqiy mushohada qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish.

Dars turi: amaliy-ijodiy mashg‘ulot. Fanlararo integratsiya (binar uslubi). Qiyoslash.

Dars uslubi: noan’anaviy dars; “Tarmoqlar” (klaster texnologiyasini qo‘llash). Kichik guruhlarda ishlash. Venn diagrammasi.

Darsning ko‘rgazmaliligi: J.Asranovning “Ona” asari, R.Mirzayevning “O‘zbek sanami” asari, “Bog‘ot sharbat” mahsulotlaridan namunalar, anketa savollari.

Darsning vaqtga nisbatan tarkibiy, taxminiy tuzilishi (rejasi):

1. Tashkiliy qism, 2 daqiqa.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash, Venn diagrammasi bilan ishlash, 10 daqiqa.

3. Kichik guruhlarda ishlash (tarmoqlar), 20 daqiqa.

4. Dars shiorini sharhlash: Aqliy hujum, 3 daqiqa.

5. O‘quvchilar bilimini baholash, 3 daqiqa.

6. Darsni xulosalash, 5 daqiqa.

7. Uyga vazifa, 2 daqiqa.

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu eslatilib, uyga berilgan topshiriq (Adabiy nutq uslublari haqidagi ma’lumotlarni to‘plab kelish) tahlil qilinadi. Ularning ma’lumotlaridan foydalangan holda uslublarning bir-biridan farqlanuvchi jihatlari Venn diagrammasida tasvirlanadi: Ilmiy-badiiy, so‘zlashuv-badiiy, rasmiy-ommabop.

Darsning keyingi qismi “Tarmoqlar texnologiyasi” asosida tashkil etiladi.

“Suratlar tili” rukni ostida o‘quvchilar e’tiboriga tasviriy san’atning noyob namunalaridan havola etiladi. Bu yerda dars rasm fani bilan bog‘lab olib boriladi.

Sinf jamoasi 5 guruhga bo‘linib, har bir guruhga alohida mavzudagi rasmlar, shu mavzuda matn yaratish bo‘yicha topshiriqlar beriladi:

1-guruh. J. Asranovning “Ona” asaridagi kekxa ayolning ko‘z qarashlari, nigohidan kelib chiqib, uning xayolidan kechayotgan o‘y-fikrlarni suratdagi timsol tilidan hikoya qilib, matn yaratish;

2-guruh. R. Mirzayevning “O‘zbek sanami” asaridagi yosh onaning o‘z farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini his qilgan holda uning tilidan onalik mehriiga yo‘g‘rilgan his-tuyg‘ularni bayon qilish va matn yaratish;

3-guruh. Bu guruhga ijodiy ish bilan band bo‘lgan sinfdoshlarning ismi va familiyalari, nechanchi sinfda va qanday o‘qishlari, katta bo‘lganda kim bo‘lmoqchi ekanliklari, dars paytida o‘zlarini tutishlari, ko‘z qarashlari, shug‘ullanayotgan ishlaridan ko‘ngillari to‘lgan-to‘lmaganligini tasvirlab, ijodiy matn yaratish topshiriladi. O‘zgarlar his-tuyg‘usini tushunish – komil insonning asosiy xislati ekanligi ta’kidlanadi. Bu yerda ona tili fanining adabiyot bilan bog‘lanishi aks etadi.

4-guruhga uy parrandalaridan xo‘rozning rasmi berilib, biologiya faniga oid matn yaratish (xo‘rozning parrandalarning qaysi turiga kirishi, yashash joyi, qanday boqilishi, necha kilogrammgacha tosh bosishi, o‘rtacha necha yil yashashi... v. h.) Topshiriladi.

5-guruhga esa tabiat ko‘rinishlari tasvirlangan rasm berilib, uni ijodiy tasvirlash asosida, kichik matn yaratish topshiriladi. Bu topshiriqda, ona tili fanining biologiya, tabiatshunoslik fanlari bilan aloqasi ko‘rinadi, yuzaga chiqariladi.

Sinf o‘quvchilariga oldindan anketalar tarqatilib, to‘ldirib olinadi:

Anketa

1. Ism va familiyasi, tug‘ilgan yili.

2. O‘qish va yashash joyi.

3. Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbi.

4. Shu kasbdan ko‘zlagan maqsadi va erishmoqchi bo‘lgan yutuqlari.

Anketa 6-guruh o‘quvchilariga tarqatiladi. Ularga “Bog‘ot sharbat” mahsulotlaridan namunalar berilib, shu mahsulotlar haqida reklama matnlari yaratish topshiriladi.

7-guruh o‘quvchilariga 6-guruhdagi o‘rtoqlarining anketa javoblariga asoslanib, o‘rtog‘ining kelajakdagi ilmiy-ijodiy ish faoliyati, ishlab chiqarish korxonasi, yoki tayyor mahsuloti haqida tavsifiy – biografik reklama matni yozish topshiriladi.

Guruhlarning bajargan ishlari, ilmiy-o‘quv faoliyati birin-ketin namoyish qilinadi. Taqdimot tugagach, guruh bilan savol-javoblar vaqtida yutuq va kamchiliklar talabalar tomonidan tahlil qilinib, ularning oldini olish usullari haqida umumiy tavsiyalar beriladi.

O‘qituvchi tomonidan dars shiori, undan ko‘zlangan maqsad sharhlanib, guruh a‘zolari erishgan natijalar – egallangan BKM (bilim, ko‘nikma, malaka va kompetansiya)larni amaliy qo‘llash darajalari qayd qilinib, ishlar baholanadi.

Dars xulosalanadi:

Mana siz ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarida biri bo‘lgan nutq uslublari bilan tanishdingiz. Ijtimoiy hayotda o‘rni va ahamiyati beqiyos bo‘lgan mazkur uslublardan o‘rinli, nutq sharoitiga mos ravishda foydalanish uchun ularning biri-biridan farqli va o‘xshash jihatlarini puxta bilishingiz zarur. Ana shundagina betakror tilimizning ifoda qudratlaridan, bebaho gavharlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lasiz.

Uyga vazifa: Maktab hayoti haqida gazeta maqolasi tayyorlab kelish.

Til o‘qitish metodikasida qiroat san’ati. O‘zbek adabiy tilida og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan, supersegment vositalardan biri intonatsiya – qiroatdir.

Qiroat – so‘z va gapning vazni, xilqati, libosi. U og‘zaki nutqqa xos go‘zal bir hodisa bo‘lib, inson ruhiyatiga, holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi alohida bir tizimni tashkil qiladi.

Nutqning ravonligi, ohangi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg‘u, vazmin va tantanavor ovoz, nafis va jozibador talaffuz qiroat san’atining ajralmas, muhim qismidir.

Mazkur masalada “Devonu lug‘otit turk” asari muallifi Mahmud Qoshg‘ariy mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, “Ikkinchi Muallim” Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviylar ulkan ilmiy meros qoldirganlar.

Mashhur metodist *M.A.Ribnikova* til o‘qitishning maqsadini nutq o‘stirishda deb hisoblagan. Bu olimaning o‘sha davr til o‘qitish metodikasi oldidagi xizmati shundaki, u alohida nutq o‘stirish tizimini yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Bu tizimda og‘zaki va yozma nutqning juda ko‘p qirralari: talaffuz madaniyati, leksika va frazeologiya ustida ishlash, bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Nutq tovushlarini o‘rganish va faqat imlo savodxonligini oshirish, balki qiroat san’atini, chiroyli talaffuz va ifodali o‘qish, anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak.

Olima bog‘lanishli nutqni rivojlantirish ishini bayonning turli ko‘rinishlarini (matnga yaqin) o‘rgatishdan boshlash lozimligi, ular tilning ifoda vositalari bilan o‘quvchi lug‘atini boyitishga xizmat qilishi; qisqa bayonlar – bosh maqsadni qisqa ifodalashga, mukammal bayonlar insho yozishga tayyorlashga zaruriy vosita ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Nutq jarayonida qiroat, asosan, *ikki vazifani* bajaradi:

1. Gap urg‘usi tushayotgan, ta’kidlanayotgan so‘zni ajratish;
2. Eshituvchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Agar berilayotgan ma’lumot qiroat me’yorlariga moslab o‘qilmasa, gapdagi tinish belgilari, ayniqsa, nutqiy pauza o‘rnida keluvchi vergulga rioya qilinmasa, gapning ma’nosi butunlay o‘zgarib ketishi mumkin:

M. Odam bo'l, otang kabi omi bo'lma. – mazmuni: otangga o'xshama, savod o'rgan...

Odam bo'l otang kabi, omi bo'lma. – otangga o'xshash savodli bo'l,

Bu – dono, akasiga o'xshamaydi. – ukasi bilimdon...

Bu – dono akasiga o'xshamaydi. – akasi bilimdon... v. h.

Ajratilgan gap bo'laklari – undalma, kirish so'zlar og'zaki nutqda ohang bilan aytiladi, yozma nutqda esa kerakli tinish belgilari bilan ajratib yoziladi.

O'quvchida qiroat san'atini shakllantirish uchun turli sharqona rivoyatlar, hadis va qur'on oyatlarini o'qish, nazmiy asarlarni yod aytish yuzasidan ko'rik tanlovlar, guruhlararo musobaqalar o'tkazish yaxshi natija beradi. A.Navoiy. A.Oripov she'rlarini ifodali o'qishni o'rgatish ham juda foydali.

Ona tili darslarida maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlardan foydalanish. Maqollar turmushdagi turli hodisalarga bog'lab, to'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur mazmunli gaplar – **maqollardir.** Ular ijtimoiy hayotning shart-sharoiti bilan bog'liq bo'lib, mazkur sharoitda yashagan kishilarning fikrlari va qarashlarini ifoda qiladi.

Maqollarni o'rganishda quyidagi amaliy ishlarni bajarish mumkin:

– o'qib o'tilgan asar mazmuniga aloqador maqollar qiyoslanadi: “Suv keltirgan xor-zor, ko'za sindirgan aziz”, “Mehnatning tagi rohat”.

– maqollarni muayyan mavzular bo'yicha guruhlash: “Vatan – vatanparvarlik”, “Do'stlik va dushmanlik”, “To'g'rilik”, “Odob va axloq”, “Til va nutq”;

– rasmlar albomini tuzib, uning mazmuniga mos maqollar yozish;

– adabiyot darsida o'rganilgan asarga bog'liq holda maqollar tanlash.

Keltirilgan har bir maqolning qanday fikr ifodalashi, ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida suhbat uyushtiriladi. O'quvchilar ularni sharhlash jarayonida inson nutqga ko'rk beruvchi, nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri maqollar ekanligiga ishonch hosil qiladilar va ularni nutqlarida qo'llashga intiladilar. Jumladan, “Aytilgan so'z – otilgan o'q” maqolini sharxlash va mazkur maqolning muqobillarini topish so'raladi. Namuna: Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt; Og'izdan chiqqan so'z qaytmas; So'z aytganda – o'ylab ayt, oqbatin bilib ayt; So'zga quloq os, o'ylab qadam bos...

Uyga vazifa sifatida o'rganilgan maqollardan ma'qulini tanlab, shu mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

Topishmoqlar. Yosh avlodning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil faoliyatga o'rgatishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega. Topishmoqda narsa – buyumlarning bir necha belgilari aks etadi, shunga qarab topishmoq javobi topiladi. Buning uchun narsa – buyumlarni qiyoslash, chuqur va atroflicha mushohada yuritilishi zarur. Topishmoqlar ham maqollar singari berilgan mavzularga bog'lab o'rganiladi. Bunda o'quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajarishlari maqsadga muvofiq.

1. Topishmoq javobini qanday belgilarga qarab topilganligini so'zlab bering.

2. Berilgan topishmoqqa o'xshash topishmoqlar ayting:

1) Pak-pakana bo‘yi bor, Yetti qavat to‘ni bor. (piyoz)

2) To‘nlari qavat-qavat,

Bir donasi bir savat.

Dasturxonga kelganda,

Ham dimlama, ham salat. (karam)

3. Yuqorida berilgan topishmoqlarni o‘xshash va farqli tomonlarini ajrating, ma’nosini sharhlang.

O‘quvchi nima uchun birinchi topishmoqning javobi piyoz, ikkinchisidiki karam ekanligini dalillarga tayanib, aniq va to‘liq isbotlab berishga urinishi ayni vaqtda nutqiy ko‘nikmalarining takomillashuvi, o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalarining tarkib topishiga, ijodiy-mantiqiy tafakkur ko‘lamining kengayishi, fikrni to‘g‘ri va ravon ifodalash malakasining shakllanishiga ham olib keladi. Quyida berilgan o‘yin – topshiriqlar ham o‘quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi bilan, muammolarning yechimini topishga yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Tilga oid topishmoq – maqollar hamda “hazil savollar”dan o‘rinli foydalanish ham o‘qituvchining pedagogik mahoratidan, ilmiy iqtidoridan dalolat beradi:

“Harflar saltanati” (hazil savol-topishmoqlar).

1. Alfavitni bildiruvchi qanday so‘z 6 harfdan iborat. (alifbo).

2. Qanday so‘zning boshi bor? Bebosh, oqbosh, ishboshi, onaboshi, mingboshi, yurtboshi, boshliq, boshlov, boshla, boshqa, to‘yboshi, so‘zboshi...

3. Nima ikki so‘z bilan aytilib, bir belgi bilan ifodalanadi? (tutuq belgisi – ‘).

4. Aytilmay yoziladi, yozmasa buziladi (t harfi) (to‘rt, musht, go‘sht).

5. Talaffuzda tutmaymiz, imloda unutmaymiz. (t harfi) (to‘rt, musht, go‘sht).

A – harflar boshpanasi (alifbo).

B – padarimiz padari (bobo).

V – hech to‘xtamaydigan narsa (vaqt).

G – sovg‘a uchun yaralgan, rang – tusiga qaralgan (gul).

D – Boshga tushganda tashvish,

Kimligi bilinarmish (do‘st).

Y – Topdim, tushdim-da ketdim, Tugatdim – uyga yetdim (yo‘l).

O – Qoq solsang bo‘lur choy,

Cho‘miltirar har kun soy (olma bilan oy)... v. h.

Hikmatli so‘zlar. Hikmatli so‘zlar ham ixchamligi, chuqur ma’noligi jihatidan maqollarga o‘xshaydi. Biror badiiy asar yoki matnni o‘qish davomida undagi hikmatli so‘zlarni ajratish, ma’nosini sharhlash bilan shug‘ullaniladi. Ular o‘quvchi so‘z boyligini oshirishda ham uning nutqiy ko‘nikmalarini faollashtirishda ham yaxshi natija beradi.

Xalq donishmandligining bebaho mulki bo‘lmish hikmatli so‘zlarni o‘rganish, ularning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini, g‘oyaviy mazmunini talaba ongiga singdirish orqali olib borish hikmatlar mazmuniga yashiringan

mantiq, ahloq, odob, komil inson falsafasini yanada go‘zalroq, nafisroq his qilishga olib keladi.

O‘quvchida so‘z san‘atidan zavqlanish, go‘zal qiroatdan rohatlanish tuyg‘usi uyg‘onadi, ijod va badiiyatga mehr, ishtiyoq hosil bo‘ladi.

Ona tili mashg‘ulotlarida aksariyat maqol, topishmoq, hikmatli so‘zlarga maxsus soatlar ajratilmaydi. Ammo mavzu talabiga mos hikmatlar topib aytish, unga ma‘nodosh hikmatli so‘z va maqollar topishni o‘quvchilardan talab qilish ajoyib va kutilmagan natijalarga olib kelishi, o‘quvchilar orasida alohida intellektual qobiliyatga ega bo‘lganlari ko‘zga tashlanib qolishi, o‘qituvchi o‘zining shogirdlari ichidan alohida iste‘dod egasini kashf qilishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning ijodiy ishlarini baholash uchun konferentsiya darslar o‘tkazilib, maqol, topishmoq va hikmatli so‘zlarning eng yaxshilari bir joyga to‘planib, umumlashtiriladi, sinfning (maktabning) qizil kitobiga yozib qo‘yiladi. Bunday topishmoq, maqol va hikmatli so‘zlar albatta talabalar tomonidan yod olinadi. Namuna:

So‘z haqida hikmatlar

Agar biz so‘z boyligini masalliqqa qiyos qilsak, nutq – dasturxonga tortilgan taom erur. Masalliq mo‘l bo‘lsa, osh mazali bo‘lganidek, lug‘at xazinasi bisyor odamning tili biyron, nutq ravon, suhbatu jonon bo‘ladir. Zero, alar ila hamsuhbat bo‘lmoqlik rohati jon erur.

Chala pishgan oshning hazmi taomi qiyin kechgani kabi, g‘aliz so‘zli kishining suhbatini tinglamaklik ham azobi jondir.

- Taomni yemakka, so‘zni demakka shoshmang.

- Ezmalikdan hazar qil, so‘zingni muxtasar qil.

- Ko‘p so‘zlasang so‘zning qadri oz bo‘lur.

Xo‘b so‘zlasang izzat – obro‘ boz bo‘lur.

- So‘zi nochorning o‘zi nochor,

So‘zi muxtasarning o‘zi mo‘tabardir.

- G‘iybat qilma, g‘urbatga qolasan.

- Ozroq yegil, oz uxlagil, oz so‘zla,

Ozroq degil, oz bo‘lsa-da, soz so‘zla.

- Shirin kalom shirin taomdan qimmatliroqdir.

- Husn zohiriy go‘zallik bo‘lsa,

Yetuk va ravon nutq botiniy go‘zallikdir.

- Ustoz ziyosidan bahramand bo‘lgan inson, quyoshga intilgan maysadek, yorug‘likka, ilmga, mangulikka intiladi.

- Kishi bordur, ham botiniy, ham zohiriy go‘zaldir,

Kishi bordur, har bir so‘zi yuz ochmagan g‘azaldir.

Nozik ersa boz ustina tabiati, suhbatu,

Tavof aylang, ushbu inson ma‘naviy barkamoldir.

- Go‘zal nutq sohibi bo‘lmoqlik:

Birni yuz turda anglamog‘-u

Yuzni birga jamlay olmoqlikdir.

- Tafakkur atalmish nurafshon qasrning

Qulfi – ilm, kaliti – so‘zdir.

- Tasavvuf ilmidin ogoh bo‘lmoqlik,
Tafakkur javhariga sayqal bermoqlikdir.

Yuqorida berilgan hikmatli so‘zlardan mm ustida ishlash, sharhlash va qiroat san’atini o‘rganish, og‘zaki monologik va dialogik nutqni rivojlantirishda, milliy ma’naviyat, so‘z ustalari bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar o‘tkazishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

25 §. Publistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari ustida ishlash metodikasi

Jamiyat, unda faoliyat ko‘rsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish va taraqqiyotda bo‘lgani kabi ularning tili ham uzluksiz boyib borishi tabiiy bir holdir. Juda ko‘p asrlardan buyon o‘z xalqi va millatining aloqa vositasi bo‘lib kelayotgan o‘zbek tilining imkoniyatlari uning barcha ko‘rinishlarida yana ham kengaydi, zamonlar silsilasida, badiiy ijod jarayonida sayqal topdi. U endi o‘zbek xalqi uchun o‘zaro aloqa qilish, muloqotda bo‘lish va bir-birlariga xabar uzatish vositasigina emas, balki yuksak badiiy-estetik tuyg‘ularni ham ifodalaydigan va xuddi shunday ta’sir ko‘rsata va zavq bera oladigan nodir boylikka aylandi.

Ana shu nodir boylikni, boshqacha qilib aytganda, ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini butun nozikliklari bilan tahlil qilish va uni yana o‘zining ijodkori bo‘lgan xalqqa qaytarish o‘zbek tili *stilistikasi fanining bosh vazifasi* bo‘lib qoldi.

Ushbu muhim vazifani hal etishga kirishishdan avval mazkur fanning mundarijasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Milliy til stilistikasining mundarijasi birmuncha keng bo‘lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi, – degan edi soha tadqiqotchilaridan biri I.Rasulov. – Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og‘zaki formalarini, adabiy va so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yoki og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi, degan masala bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to‘g‘ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo‘llarini belgilash vazifalari yuklatiladi”.

Mazkur kuzatishda qarab chiqiladigan o‘zbek tili *funksional stilistikasi (FS)* masalalari ham milliy til stilistikasining ana shu mundarijasi tarkibida qaraladi. O‘zbek tilining FSga oid mulohazalarni bayon etishdan avval funksional stilistika yoki funksional uslub tushunchalarining mohiyati va ularning tasnifi haqida mulohaza yuritishimizga to‘g‘ri keladi.

Funksional uslub tushunchasi. Stilistika alohida fan sifatida shakllangandan buyon funksional uslubshunoslik ham zamonaviy stilistikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida soha tadqiqotchilarining e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Kishilar o‘z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan –

fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish stilistikada yangi sohani – funksional stilistikani vujudga keltirdi.

M.N.Kojinaning ta'rificha, "funksional stilistika – bu tilning turli muloqot doiralarida amal qilish qonuniyatlarini, inson faoliyatining u yoki bu sohalariga muvofiq kelish darajasini, shuningdek, funksional uslublar va boshqa funksional uslubiy ko'rinishlarda til vositalarining tanlanish me'yori va muvofiqligi jamlanadigan nutqiy tizimni o'rganadigan tilshunoslik ilmidir".

Anglashiladiki, tilda alohida uslublarning vujudga kelishi bevosita nutqiy jarayon bilan bog'liq va undan tashqarida *funksional uslublar (FU)* to'g'risida gapirish mantiqsizlikdan boshqa narsa emas. Tilning ekspressiv imkoniyatlari va uning qo'llanishidagi chegaralanish va xoslanishlar ham faqatgina nutqiy jarayon tufayli namoyon bo'ladi. Shuning uchun masalaga til uslublari va nutq uslublari tushunchalari nuqtayi nazaridan yondashish, savolni Fular til hodisasimi yoki nutq hodisasimi, Fularni ularning qaysi birining tarkibida qarash lozim, tarzida qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. O'zbek tilining ijtimoiy vazifasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan funksional uslubshunoslik til va nutq dialektikasining bevosita mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lib, o'zbek tili materialining o'zbek muloqot shaklining turli ko'rinishlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Insonlar hayoti va u mashg'ul bo'ladigan sohalarning turli-tumanligi ularning yoshi, jinsi, bilim darajasi, kasbi, jamiyatda tutgan mavqei va boshqa omillarga bog'liq ravishda tildan foydalanishning o'ziga xos manerasini, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Tildan foydalanishdagi uslublar rang-barangligining boisi ham ana shunda. Shuning uchun ham tildan foydalanishda har bir kishining jinsi, yoshi yoki kasbidan, u yashayotgan ijtimoiy muhitdan kelib chiqadigan o'z uslubi bo'lishi mumkin. Hayot jabhasi, insoniyatning faoliyat doirasi va ko'lami g'oyatda keng. Har bir ijtimoiy sohada tilni ehtiyojdan kelib chiqib iste'mol qiladi. Bu ham tabiiy ravishda tildan foydalanishning o'ziga xos tarzini, uslubini keltirib chiqaradi. Demak, tilni iste'mol qilish kompleksida har bir individning, kasb egalarining, ijtimoiy guruhlarning, hatto muloqot jarayonining o'z uslubi bo'lishi tabiiy. Funksional uslub tushunchasi nutqiy faoliyatning ana shu jihatlari o'zida mujassam qiladi.

Adabiy tilning barcha sathlarida, aytaylik, fonetik, leksik-frazeologik, grammatik sathlarida me'yorlarning mavjudligi ularning amalda bo'lishidagi o'z uslubiy me'yorlarini keltirib chiqaradi. O'zbek tili Fularining yashash shart-sharoitlari ko'lami g'oyatda keng. Bu uslublar o'zbek xalqi ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, faqatgina adabiy til doirasiga kirgan

elementlar ularning faoliyatini ta'minlaydimi, degan savol tug'iladi. Yo'q, albatta. Fular o'zbek umumxalq tilining manbalaridan oziqlanadi. Har bir FU o'zi xizmat qilayotgan ijtimoiy soha talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, bu manbalarga murojaat qiladi.

Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotida Fularni o'rganish sotsiolingvistik jihatdan g'oyatda dolzarb masalaga aylandi. Buning asosiy sabablaridan biri mustaqillik sharoitida o'zbek lug'at tarkibida bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, tilning turli muomala jarayonida aloqa imkoniyatlarining kengayganligi va tobora takomillashib borayotganligi bo'lib hisoblanadi. Ona tilimizning xalqaro nufuzi ortib borayotganligi, nafaqat mamlakatimiz doirasida, balki ayrim undan tashqarida ham bo'layotgan anjumanlarda xalqaro muloqot vositasi sifatida qo'llanilayotgani buning yaqqol dalilidir.

Funksional uslublar tasnifi. Yuqorida qayd etganimizdek, agar har bir individ, kasb egasi yoki ijtimoiy guruhlarining tildan foydalanishdagi o'ziga xos jihatlarini inobatga oladigan bo'lsak, muayyan bir tildan foydalanishda ham son-sanoqsiz uslublarni o'rganishga to'g'ri kelar edi. Amalda esa buning imkoni bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, ularni muayyan guruhlarga ajratgan holda o'rganish, tasniflash zarurati paydo bo'ladi.

Tilshunoslikning stilistika sohasi bilan shug'ullangan deyarli barcha taniqli olimlar Fularga o'z munosabatlarini bildirishgan, ularning tasnifini berishga harakat qilishgan. Bu tasniflarning birining ikkinchisiga aynan o'xshaydiganlari kam. Tadqiqotchilarning biri ajratganlarini ikkinchisi birgalikda olib qaraydi, yoki aksincha, birgalikda olib qaralgan holatlar ajratiladi. Shunday qilib, Fular soni o'ntagacha ko'rsatiladi: badiiy-belletristik, ijtimoiy-publitsistik (matbuot), ilmiy bayon, texnik-ishlab chiqarish, rasmiy-hujjat (idoraviy), epistolyar, neytral, notiqlik, maishiy nutq, diniy kabi.

Tasniflar borasida o'z mulohazalarini bildirgan ayrim mualliflar (M.Balaqayev, V.Bondaletov, X.R.Kurbatov) Fularni bunday tasnif qilgunga qadar, avvalo ikkiga – yozma (kitobiy) va og'zaki (so'zlashuv) uslublariga bo'lib qarash lozim deb hisoblaydilar.

Turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham Fularni tasnif qilishning hozirgacha yagona prinsipi ishlab chiqilgan bo'lmasa-da, ushbu masala bilan olimlarimiz shug'ullanishgan. Turmush sharoitiga, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy taraqqiyot darajasiga ko'ra, tilning qanchalik rivojlanganligi va undan foydalanish madaniyatiga qarab turli tillarda Fular miqdori turlicha ekanligi haqida fikrlar bildirilgan.

Masalan, A. Sulaymonovning "Til stillari haqida" nomli maqolasi o'zbek tilshunosligida ana shu masalaga oydinlik kiritish yo'lidagi dastlabki urinishlardan biridir. Muallifning "Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko'proq qo'llanishini aniqlashdan iboratdir", degan gaplaridan tushunish mumkinki, u til yoki nutq uslublarini yozma va og'zaki – so'zlashuv uslublariga ajratgan.

Akad. G'. Abdurahmonov ham mazkur masalaga e'tiborini qaratgan. U

“Stilistik normalar haqida” maqolasida quyidagilarni yozgan edi: “Ma’lumki, nutq ikki xil (yozma va og‘zaki) nutqdan iborat.

Yozma nutq: 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publitsistik nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir (Bu nutq turlari ayrim adabiyotlarda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi).

Og‘zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi.

Nutq stili bo‘lsa quyidagi qatlamlardan iborat bo‘ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik stil va satirik stil, 5) rasmiy stil.

Nutqda (xoh yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin) bu stil qatlamlari aralashib keladi, nutq janriga ko‘ra biror stilistik qatlam yetakchi, asos bo‘ladi”.

I. Qo‘chqortoyev “O‘zbek adabiy tilining stilistik ixtisoslashuvi, uning funksional uslublari ilmda ham qat’iy chegaralab berilgan emas. Shuning uchun bu masala yuzasidan hozircha aniq, izchil bir fikr aytish qiyin, albatta. Lekin o‘zbek adbiy tili doirasida badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni bir-biridan farqlaydigan belgilar ma’lum darajada aniq sezilib turadi”, deyish bilan bu masalaga ancha ehtiyotkorlik bilan yondashganligi sezilib turadi.

B.O‘rinboyev ham “Funksional uslubiyat va uning mohiyati” asarida ushbu masalaga to‘xtalgan: “Hozirgi o‘zbek tilidagi uslublarni quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Til uslublari.
2. Kitobiy uslub;
3. So‘zlashuv uslubi.
4. Nutq uslublari.
5. Asosiy kommunikativ uslub.

Bu uslubga o‘z navbatida:

- a) so‘zlashuv nutqi uslubi;
- b) ilmiy nutq uslubi;
- v) gazeta – publitsistik uslubi;
- g) rasmiy – ish nutqi uslubi kiradi”.

FUlar tasnifi masalasiga oid fikrlar S. Muhamedov tomonidan ham aytilgan. U “O‘zbek tili funksional stillarini belgilash to‘g‘risida” nomli maqolasida o‘zbek tilidagi uslublarni sonini 3 ta deb ko‘rsatgan: rasmiy ish funksional uslubi, ilmiy funksional uslub, publitsistik uslub.

A.Shomaqsudov quyidagilarni qayd etgan: “Funksional stillar nutq ko‘rinishlarining asosiy funksiyalariga (aloqa-aralashuv; ta’sir etish vositasi bo‘lishiga) muvofiq qismlarga bo‘linishidir. Shunga ko‘ra adabiy tilning quyidagi funksional stillari ajratiladi: 1) so‘zlashuv stili; 2) rasmiy stil; 3) ilmiy stil; 4) publitsistik stil; 5) badiiy stil”.

Ko‘rinadiki, o‘zbek olimlarining masalaga qarashida har xilliklar, munozarali jihatlar mavjud. Biz bu qarashlarga “O‘zbek tilining badiiy uslubi” nomli monografiyamizda o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirganmiz.

Bu gal munozaralarni chetlab o‘tib, Fular tasnifida nimaga asoslanib ish

ko‘rishimiz lozim, degan savolni o‘rtaga qo‘yamiz. Masala shunday qo‘yilganda unga yondashishning ikki yo‘li e‘tiborni ko‘proq o‘ziga tortadi: 1) tilning vazifasiga asoslanish; 2) u qo‘llanadigan doirani, muhitni e‘tiborga olish. Bunday paytda til bajaradigan ijtimoiy vazifadan kelib chiqib ish ko‘rish maqsadga muvofiqligi e‘tiborga olinsa, V.V.Vinogradovning quyidagi tasnifi nima uchun shuhrat qozonganligining sababini tushunish qiyin bo‘lmaydi: “Tilning aloqa, xabar va ta’sir kabi muhim ijtimoiy vazifalari ajratilganda til qurilishi umumiy planida quyidagi uslublar chegaralangan bo‘lishi mumkin edi: kundalik-maishiy uslub (aloqa vazifasi) kundalik-xizmatga doir, rasmiy-hujjat va ilmiy (xabar vazifasi), publitsistik va badiiy-belletristik (ta’sir vazifasi)”.

FUlarni tasniflashda V.V.Vinogradov fikrini alohida bir prinsip sifatida e‘tirof etish to‘g‘ri bo‘ladi. Lekin ba’zi tadqiqotchilar Fular tasnifida faqat til bajarayotgan vazifani hisobga olishning o‘zi yetarli emas deb hisoblaydilar, bunda ular nutqning mavzusi, so‘zlovchining va tinglovchining (yozuvchining yoki o‘quvchining) shaxsi va ular o‘rtasidagi munosabat, muloqot paytidagi nutqiy vaziyat kabilarning ham ahamiyatli ekanligini qayd etadilar. “Hozirgi zamon stilistikasida, - deb yozadi V.G.Kuznetsov, – funksional uslublarni ijtimoiy ongning ma’lum sohalarini bilan o‘zaro munosabati hamda ijtimoiy munosabatlarga aloqadorligiga bog‘liq holda ajratish prinsipi keng tarqaldi. Moddiy borliqni, real voqelikni aks ettira borib, ijtimoiy ong – jamiyat hayotining ma’naviy tomoni – ma’lum huquqiy, yuridik, siyosiy, ilmiy, estetik, etik va boshqa qarashlarni, tasavvur va nazariyalarni o‘ziga qo‘shib oladi. Ijtimoiy ong doirasi uslubga nisbatan birlamchi bo‘lib, uning shakllanishi, amal qilishi va rivojlanishini belgilaydi. Ijtimoiy ongning har bir sohasi ma’lum til vositalarini tanlash va (ma’lum matnga) berkitishda o‘z ifoda usuliga ega. Shunday qilib, funksional uslublarni aniqlash zamirida ekstralingvistik omil bo‘lishi kerak”.

V.G.Kuznetsovning fikrini Fularni tasniflashning asosiy prinsipi sifatida qabul qilib bo‘ladimi? Yo‘q, albatta. Chunki til hodisalariga oid har qanday tasnifda lingvistik omillar yetakchi bo‘lishi aniq. Ammo bu fikrni inkor qilish ham mumkin emas. Chunki Fular tasnifi bevosita nutqiy jarayon bilan bog‘liq ekan, bunda ana shu jarayonda ishtirok etadigan ekstralingvistik omillarni aslo chetga surib qo‘yib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham olimning nuqtayi nazarini qo‘shimcha, V.V.Vinogradov prinsipini to‘ldiruvchi, ayni paytda, zarur prinsip sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, har ikki omil – lingvistik va ekstralingvistik omillar birgalikda, yaxlitlikda olingandagina Fular tasnifiga bo‘lgan qarash atroflicha va mukammal bo‘lishi, ularning qamrov doirasi birmuncha aniq ifodalanishi mumkin, deb o‘ylaymiz.

O‘zbek tilidagi Fularga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo‘lsa, uslublar dastlab og‘zaki va yozma shakllarga, ularni yana o‘z navbatida ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy, diniy va so‘zlashuv kabi ko‘rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Hozircha ulardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so‘zlashuv uslublari va ularning me‘yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o‘ziga xosliklari

o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan. Ammo diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostilistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala hozircha o'rganilgan emas.

Har bir FU doirasidagi og'zaki yoki yozma ko'rinishlar, har bir uslub qamroviga kiradigan tarmoqlar va janrlar ham o'z navbatida alohida uslubiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularni ana shu beshta FU fonida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyat taraqqiy etagani sari bu uslublar nafaqat sifat jihatdan takomillashib boradi, balki ularning miqdori ortishi ham ehtimoldan xoli emas. Biz ham nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda o'zbek tilida yuqoridagi beshta uslub mavjudligini e'tirof etamiz va kuzatishlarimizni shu tasnifga tanyagan holda olib boramiz.

Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv stili ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv stili va oddiy so'zlashuv stili.

Adabiy so'zlashuv stili tilning adabiy normalariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Uning tili sodda: jargon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv stili o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy stil hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv stili kundalik aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi: maktablarda va o'quv yurtlarida o'qitish ishlari shu stilda olib boriladi, undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv stili umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv stili uchun esa betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashida yaqqol ko'rinadi. Oddiy so'zlashuv stili tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

So'zlashuv stilining bu ikki turi o'zining bir qator grammatik, leksik-frazeologik va fonetik xususiyatlariga ega.

So'zlashuv stilining fonetik xususiyatlari. So'zlashuv stilida, bir tomondan, umumadabiy tilga xos, ikkinchi tomondan, og'zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Nutqning xarakter va xususiyatlariga ko'ra talaffuz normalarini ikki tipga ajratish mumkin. Birinchi tip talaffuz normasi lektorlar, aktyorlar, dktorlar, notiqlar nutqi uchun xarakterli bo'lib, adabiy til normalariga rioya qilishni talab etadi, unda har bir so'z aniq, dona-dona talaffuz qilinishi shart.

Talaffuzning ikkinchi tip normasi esa, asosan, so'zlashuvda, og'zaki nutqda uchraydi. So'zlashuv stilida umumiste'moldagi adabiy-neytral so'zlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi. So'zlashuv stiliga mansub so'zlar ko'pincha amaldagi adabiy-normativ shakllardan farqlanuvchi yoki unga qarama-qarshi keluvchi fonetik belgilarga ega. Buning quyidagi ko'rinishlari mavjud.

Soʻz tarkibidagi tovushlarning oʻrin almashinishi: qiygʻir, nalat, shapra, oʻrpimoq soʻzlari talaffuzga koʻra jonli soʻzlashuvga xos boʻlib, ularning adabiy talaffuz formasi qirgʻiy, laʼnat, sharpa, oʻpirmoqdir.

Soʻz tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: quflamoq (qulflamoq), tashamoq (tashlamoq), koʻkartmoq (koʻkartirmoq), barikaram (bargikaram).

Biror tovushning orttirilishi: chechmoq (yechmoq), qamchin (qamchi), korchallon (korchalon), yangitdan (yangidan).

4. Tovush almashinishi: boʻqoq (buqoq), moʻnchoq (munchoq), koʻmirchak (kemirchak), koʻynak (koʻylak), tannov (tarnov), qamich (qamish), nusqa (nusxa), qalmoq (qarmoq), qimillamoq (qimirlamoq), tiqillatmoq (tiqirlatmoq), boylamoq (bogʻlamoq), maxtamoq (maqtamoq) va boshqalar.

5. Affikslar qoʻshilishi natijasida oʻzak-negizlarda hosil boʻladigan qisqartmalar: opti (olipti), kepti (kelibdi), opkepti (olib kelibdi).

Talaffuzning bu usuliga xos koʻrinishlaridan badiiy adabiyotda ogʻzaki nutqni aks ettiruvchi oʻrinlarda, asar qahramonlari nutqida foydalaniladi.

Soʻzlashuv stilining leksik-frazeologik xususiyatlari. Soʻzlashuv stilida ishlatiladigan lugʻatning asosiy qismini aktiv leksik qatlam tashkil qiladi. Shuningdek, adabiy-neytral lugʻatning katta bir qismi kundalik hayotdagi narsa va hodisalarni ifodalashga oid boʻlib, ular ham asosan, soʻzlashuv stilida ishlatiladi. Masalan: non, osh, tuz, yer, osmon, quyosh, yulduz, kishi, bola, er, xotin, oʻrtoq, oyoq, qoʻl, koʻz, ota, ona, kitab, qalam, xalq, olmoq, kelmoq, uxlamoq, sen, biz, u, bu va boshqalar. Soʻzlashuv stilidan kishilar faqat kundalik turmush muomalasidagina emas, balki xilma-xil sharoitlarda – uyda, koʻchada va ish joylarida ham foydalanadilar. Shuning uchun soʻzlashuv stilida kundalik turmushga oid lugʻatdan tashqari, siyosat, sanʼat, madaniyat, sport va soʻzlovchining kasb-hunariga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika koʻplab ishlatiladi.

Soʻzlashuv stilining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika “maxsuslik” xususiyatiga ega boʻlmay, balki har qanday nutq stilida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatdan stilistik neytral hisoblanadi. Soʻzlashuv stilini asosan soʻzlashuv boʻyogʻiga ega boʻlgan leksika xarakterlaydi. Stilistik boʻyoqli soʻzlashuv. elementlariga oddiy soʻzlashuv hamda sodda tilga oid leksika kiradi. Oddiy soʻzlashuv leksikasiga, yuqorida aytib oʻtilganidek, adabiy til normalariga mos keluvchi soʻzlashuv stilining oddiy soʻzlashuv turida koʻproq ishlatiladigan soʻzlar kiradi. Sodda tilga esa adabiy normaga u yoki bu darajada mos kelmaydigan leksika kiradi. Soʻzlashuv stili salbiy va ijobiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv leksikaga juda boy. Masalan, bola, farzand, jujuq, churvaqa soʻzlari oʻzaro maʼlum semantik munosabatda boʻlib, asosan bir maʼnoni anglatadi. Bulardan bola soʻzi betaraf, u barcha nutq stillarida keng qoʻllanadi. Farzand soʻzi koʻproq kitobiy stilga xos. Jujuq esa jonli soʻzlashuvga xos boʻlib, unda erkalash-suyish ottenkasi bor. Churvaqa soʻzida esa stilistik boʻyoq juda aniq seziladi va bu soʻzda umuman mensimay qarash maʼnosi mavjud.

Soʻzlashuv stilida tasviriy soʻzlardan yasalgan feʼllar ham koʻp ishlatiladi.

Masalan: akillamoq, bobillamoq, valdiramoq, do'ng'illamoq, ming'illamoq, po'killamoq, po'ng'illamoq, to'ng'illamoq, ting'illamoq kabi. Kamsitish, mensimaslik, umuman betakalluf muomalada ishlatiladigan bunday birliklar tovush va obraz bilan bog'liq bo'lgan harakatni ifodalaydi hamda shu harakatning bevosita atamasi bo'ladi. So'zlashuv stilida keng tarqalgan hodisalardan yana biri ot turkumidagi so'zlarni qisqartirib ishlatishdir. Masalan, quyidagi qisqartmalar jonli tilimizda keng ishlatiladi: mil-mil (millnon-million), kilo (kilogramm), gidro (gidrostansiya), foto (fotografiya), metro (metropoliten), avtomat (avtomat, telefon), lineyka ("pioner lineykasi" ma'nosida), taksi (taksomotor, ya'ni kirakash avtomobil), marshrutka (marshrutli taksi – belgilangan marshrutga qadar boradigan avtomobil).

Ma'lumki, so'zning ichki formasi, hodisalarga nom berishga asos bo'lgan muhim belgisi ma'lum darajada ayon bo'lib turadi. So'zda ichki formaning ayon bo'lib turishi undagi baho ma'nosi va ekspressivlikni ham kuchaytirishi mumkin. So'zlashuv stilidagi ko'pgina yasama so'zlarda mana shu ichki formaga ega bo'lish saqlangan. Masalan, kekkaymajon singari otlarning hosil bo'lishida kekkaymoq fe'lining, yapasqi sifatining yasalishida yapaloq so'zining belgilari nazarga olingan.

Oddiy so'zlashuv nutqida umumiste'moldagi ko'pgina adabiy-neytral so'zlar ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. Oddiy so'zlashuv nutqiga xos ma'no kasb etgan bunday so'zlar adabiy tildagi ma'no xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressiv bo'yoqqa ega ekanliklari bilan ajralib turadi.

Adabiy tilda iskovich iz va hidni iskab topadigan it, kuchuk ma'nosini bildirsa, so'zlashuv nutqida esa ko'chma ma'noda nafrat, jirkanch ottenkalariga ega bo'lgan "izquvar, ayg'oqchi, shpion" ma'nosini anglatadi: Qambar cho'loqdek iskovich yetti iqlimda bormikin? (O.)

Fe'llarning ko'pchiligi polisemantikdir. Chunonchi, tuzlamoq so'zi adabiy tildagi (ruscha "солит, засоливат") ma'nosidan tashqari, so'zlashuv tilida "pand bermoq, aldamoq, qo'lga tushirmoq" ma'nosida ham qo'llanadi. Adabiy tilda qulamoq fe'li to'g'ri va ko'chgan ma'noda asosan "yiqilmoq", "qulab tushmoq", "buzilib ketmoq" ma'nolarida ishlatiladi. So'zlashuv tilida esa "o'lmoq, jon bermoq" ma'nolarida ham qo'llanadi: Chol qulamay turibdi. Qulagan kun... merosimni da'vo qilaman. (O.) Qiyoslang: imtihondan yiqildi yoki quladi.

Shuningdek, cho'zmoq fe'li adabiy tildagi ma'nolaridan tashqari, so'zlashuv tilida "qaytarmoq, qaytarib bermoq" ma'nolariga ham ega. Masalan: "Pulni cho'z, jannatning kalitini qo'lingga tutqazaman". (O.)

Oddiy so'zlashuv stiliga xos ottenkaga ega bo'lish xususiyatini biron kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan so'zlarda ham va boshqa tillardan o'zlashtirilgan ba'zi so'zlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, andavalamoq fe'li ish quroli andava vositasida "suvamoq" ma'nosidan tashqari, so'zlashuv nutqida ko'chma ma'noda "biron kamchilikni bekitmoq", "bo'yab ketmoq", "xaspo'shlamoq" ma'nolarini ham ifoda qiladi.

So'zlashuv stilidagi emotsional-ekspressiv leksika o'z ma'nosiga ko'ra

nutq stillarining barchasida ishlatiladigan adabiy-neytral leksika bilan o'zaro munosabatda, bog'lanishda bo'ladi. Bir predmet va hodisa ko'pincha o'zaro ma'nodosh so'zlar, leksik sinonimik vositalar yordamida ifodalanadi. So'zlashuv stilida narsa va hodisani uning turli xil qo'shimcha semantik va emotsional-ekspressiv ottenkalari bilan ifodalovchi leksik vositalar juda keng qo'llanadi. Qo'shimcha emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo'lgan sinonim so'zlarni ko'plab ishlatish asosan oddiy so'zlashuv stili uchun xos xususiyatdir. Masalan, xunuk so'z ma'nosi bilan birlashuvchi badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, taviya, taraqqos sinonimik qatorda so'nggi ikki so'z, asosan oddiy so'zlashuv stiliga xos. Soqov so'zi atrofida uyushgan tilsiz, gung, gungalak so'zlaridan so'nggisi so'zlashuv tiliga mansub. Bechora, sho'rlik, boyaqish so'zlari ham nutqda ishlatilishi jihatidan o'zaro farq qiladi. Bulardan boyaqish so'zi ko'yaroq so'zlashuv stiliga xos. "Biror ish-harakatni o'rniga qo'yimoq", "qoyil qilib bajarmoq" ma'nosi bilan birlashgan boplamoq, do'ndirmoq, o'rinlatmoq fe'llari, asosan, oddiy so'zlashuv stilida ishlatilishi bilan farqlanadi. Ko'rtirmoq, o'xshatmoq fe'llari esa o'zlarining ko'chgan ma'nolarida oddiy so'zlashuv stiliga xos ma'no kasb etadi.

Sinonimik munosabat so'zlardagina emas, frazeologik birikmalarda ham mavjud. Lekin frazeologik sinonimlar nutq ko'rinishlariga xoslanganligi jihatdan u qadar ko'p va rang-barang emas, ular asosan so'zlashuv nutqiga va qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xos.

So'zlashuv stilining grammatik xususiyatlari. So'zlashuv stilining ishlatilish sharoitlari, intonatsiya va imo-ishora singari vositalardan foydalanish hamda fikr va bayonning asosan kundalik turmush xarakteriga ega bo'lishi, odatda, gap tuzishning juda murakkab grammatik konstruksiyalarini talab qilmaydi. Suhbatda (necha kishi ishtirok etishidan qat'i nazar) so'zlovchi va tinglovchining voqelikka munosabati ma'lum sharoitda nutq vaziyatidan, situatsiyadan bilinib turadi. Situatsiya suhbatdoshlarning nutqiga aniqlik kiritadi, uni to'ldiradi, fikrning to'la reallashuviga ko'maklashadi. Suhbatdoshlar xoh sodda, xoh murakkab fikrni ifoda etsinlar, ular hamma vaqt suhbat situatsiyasiga suyanadilar. So'zlovchi o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, nimanidir intonatsiya orqali tushuntirishi yoki nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Shunday qilib, suhbat sharoitida namoyon bo'luvchi situatsiya so'zlashuv nutqi uchun xarakterli xususiyatdir. Bunda paralingvistik vositalar (imo-ishora, ko'z, qo'l, bosh harakatlari kabilar) ham alohida rol o'ynaydi.

Suhbat situatsiyasida dialog muhim rol o'ynaydi. Agar dialoglar savol-javob xarakterida bo'lsa, javob to'liqsiz gap formasida bo'ladi. Bunday gaplarda yashiringan muayyan bo'lak suhbatdoshlar nutqidagi oldingi va so'nggi jumlar mazmunidan anglashilib turadi. Umuman, fikrni ixcham ifodalash maqsadida juda zarur bo'lmagan gap bo'lagini takrorlamalik – "tushirib qoldirish" jonli so'zlashuv tili uchun xarakterlidir.

So'zlashuv stilining o'ziga xos xususiyatlari fe'lning ba'zi formalarning ishlatilishida ham ko'rinadi. O'zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlarda

fe'ning -i(b) edi formasi og'zaki nutqda -uvdi, -ovdi tarzida talaffuz etiladi, deb ko'rsatiladi. Talaffuzdagi bu holat to'liqsiz fe'ning bu formasini og'zaki nutqqa xos qilib qo'yadi. Misollar: Egardan irgitib yuborishlari-ga sal-pal qoluvdi. Shahardan kelishimda yo'lni qisqartirish uchun qir orqali yurib... shu yo'ldan keluvdim.

Rasmiy uslubning lingvistik xususiyatlari. Ushbu uslubga xos bo'lgan yoki xos bo'lmagan stilistik xususiyatlar rasmiy tilda shakllangan matnlarning leksik-grammatik xususiyatlarida yana ham yaqqol namoyon bo'ladi. Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari. RUga oid matnlar leksikasi va turg'un birikmalari o'zbek tilidagi boshqa FULarga tegishli matnlar tilidan sezilarli darajada farqlanadi. Shuning uchun ham, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan alohida so'z va turg'un birikmalarga duch kelamiz: ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv kabi. Yangi sharoitda yangicha mazmun kasb etgan O'zbekiston Ruspublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Oliy majlis senati, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyat organi, qishloq fuqarolar yig'ini, saylovoldi tashviqoti, O'zbekiston ekologik harkati, qonun ijrosi, konstitutsiyaviy tuzum, davlat tuzilishi, siyosiy institutlar, milliy xolding kompaniyasi singari turg'un birikmalar ham mustaqillik davri o'zbek tili taraqqiyotining mahsulidir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ularni ana shu o'zbekcha variantlar bilan almashtirib qo'llash haqida fikrlar bo'lgan. Bunday so'zlar tilimizda anchagina. Boshqa FULarda ularni o'zaro almashtirib qo'llash mumkindir. Ammo rasmiy matnlarda uslub nuqtayi nazaridan bunday qilish to'g'ri emas. Konstitutsiya matnidagi birgina suveren-mustaqil variantlarining qo'llanishini solishtirib ko'raylik. Ular 10/6 nisbatda ishlatilgan: O'zbekiston - suveren demokratik respublika. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi. Misollardagi suveren, suverenitet so'zlarini bimalol mustaqil, mustaqillik elementlari bilan almashtirsa bo'ladi. Ammo matn ikki jihatdan zarar ko'radi. Birinchidan, hujjatning xalqaro standartlar darajasidagi maqomiga, ikkinchidan rasmiylik ottenkasiga putur yetadi. Matnda mustaqil so'zi qo'llangan holatlarga e'tibor beraylik: Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar. Gaplardagi mustaqil so'zining o'rnini almashtiramiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini suveren hal qiladi. Sudyalar suverendirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan

suveren holda, fakat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar. Gaplarda suveren so'zining qo'llanishida sun'iylik, uslubiy g'alizlik paydo bo'lganligini payqash qiyin emas. Xulosa shunday bo'ladiki, mustaqil so'zi tilimizda ommalashgan, uni barcha o'zbekcha matnlarda uchratishimiz mumkin, ma'nosida kenglik, qo'llanishida erkinlik mavjud. Suveren so'zi esa jiddiy ma'noga ega bo'lib, rasmiy ohang beradi va RU doirasida chegaralanib, faqat davlat so'ziga bog'langanligi ma'lum bo'ladi.

Mana shu ma'noda yuzaki qaraganda go'yo bir tushunchani anglatadigan bu elementlarning biri o'rnida ikkinchisini bema'lol qo'llash mumkin emas, uslub bunga yo'l qo'ymadi.

Shuning uchun ham mustaqillik davrida yangicha mazmunda muomalaga qaytgan yoki kirib kelgan prezident, parlament, palata, senat, senator, mahkama, vazirlik, vazir, hokimiyat, hokim, fuqaro, harakat, suverenitet so'zlarning qo'llanishiga tilning amalda bo'lish qonuniyatlariga, uslub talablariga ko'ra yondashish to'g'ri bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. So'zlashuv uslubining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. Adabiy so'zlashuv uslubining o'qituvchi o'quvchi muloqotida qat'iy amal qilishini izohlang.
3. Publistik, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari ustida ishlash metodikasini qanday tushundingiz?
4. Darsning ko'rgazmaliligi nimalardan iborat bo'lishi kerak?
5. Darsning vaqtga nisbatan tarkibiy, taxminiy tuzilishi (rejasi) sizningcha qanday taqsimlanishi lozim?
6. Qiroat nima?
7. Til o'qitish metodikasida qiroat san'ati deganda nimani tushunasiz?
8. Ona tili darslarida maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlardan foydalanish nima uchun muhim sanaladi?
9. So'z haqida hikmatlardan ayting.
10. Stilistikaning bosh vazifasi nimadan iborat?
11. Funktsional uslub tushunchasini izohlang.
12. So'zlashuv stilining grammatik xususiyatlarini sanab bering.
13. Rasmiy uslubning lingvistik xususiyatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Tayanch so'z va iboralar:

Dars shiori, dars maqsadi, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, dars turi, dars uslubi, venn diagrammasi, darsning ko'rgazmaliligi, guruhlarning bajargan ishlari, dars xulosasi, uyga vazifa, til o'qitish metodikasida qiroat san'ati, qiroat, nutqning ravonligi, ohangi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u, vazmin va tantanavor ovoz, nafis va jozibadorlik, ona tili darslarida maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlardan foydalanish, topishmoqlardan foydalanish, hikmatli so'zlar, publistik uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslub va badiiy uslub, stilistikasi fanining bosh vazifasi, funktsional stilistikasi (FS), funktsional uslub tushunchas, funktsional uslublar

(FU), soʻzlashuv stilining grammatik xususiyatlari, rasmiy uslubning lingvistik xususiyatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. – T: Oʻqituvchi, 1995.
2. Neʼmatov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. Oʻzbek tili struktural sintaksisi asoslari. – T.: Universitet, 1999.
3. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.; 1988.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992.
5. Qodirov P. Til va el. – T.: Gʻafur Gʻulom, 2005.
6. Rahmatullaev Sh. “Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi” – T.: Universitet, 1999.
7. Uralov A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.; 2021.
8. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak oʻqituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qoʻllanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
9. Ziyodova T.U. “Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish”. Oʻquv-metodik qoʻllanma. – T.; 2002.
10. Oʻrinboyev B. Funktsional uslubiyat va uning mohiyati. – T: Fan, 1992.

Elektron taʼlim resurslari

11. www.ziyo.uz – Maʼnaviy-maʼrifiy mavzudagi materiallar sayti
12. www.edunet.uz– maktablar, oʻquvchi va oʻqituvchilar sayti
13. www.natib.uz– Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti
14. <http://library.navoiyuni.uz/files/sultonsaidova%20s.%20o%27zbek%20tili%20stilistikasi.pdf>
15. <https://fayllar.org/adabiy-til-sozlashuv-tili.html?page=3>
16. <https://uz.warbletoncouncil.org/lenguaje-coloquial-585>
17. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-70992-1.html?page=5>
18. <http://www.myshared.ru/slide/1437747/>

OʻQUVCHILARNING OGʻZAKI, YOZMA VA BOGʻLANISHLI NUTQINI OʻSTIRISHNING OʻZIGA XOS HUSUSIYATLARI. ONA TILI DARSLARI BOʻYICHA NAZORAT SHAKLLARI VA UNI TAHLIL ETISH YOʻLLARI

Koʻriladigan masalalar:

1. Ona tilida toʻgʻri yozish, oʻqish, eshitish va gapirish koʻnikmalarini shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv.
2. DTSda oʻquvchilarning gapirish va eshitish koʻnikmasiga qoʻyilgan talablar.

3. Samarali yozishga o'rgatish jarayonlari. O'quvchilarda intervyu, bahs, muvaffaqiyatli munozara, gapirish va taqdimot qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari.

4. Og'zaki va yozma nazoratda elektron vositalardan foydalanish yo'llari.

26 §. Ona tilida to'g'ri yozish, o'qish, eshitish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirish ona tili ta'limining muhim vazifasi sifatida

Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallamoqchi bo'lgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Interfaol metod ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirini faollashtiriladi.

Kompetensiya – jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati muayyan amlakatdagi yoki hududdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan, Shvetsariya va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash" nomli loyihasida ham tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Keyingi yillarda til ta'limiga kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv kabi yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Xususan, jahonning etakchi mamlakatlarida amal qilib kelayotgan va samarali natijalar berayotgan kompetensiyaviy yondashuvni til ta'limiga tatbiq etish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda 1875-sonli "Chet tillarni o'qitishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risi"dagi maxsus qabul qilingan Qarori va chet tillarini o'qitish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi, chet tili o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi ishlab chiqilgani, ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy adabiyotlar va zamonaviy vositalar bilan ta'minlanishi ta'lim sohasida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu qaror mamlakatimizda nafaqat chet tillarni, balki umuman til ta'limini, shu jumladan, respublikamizning davlat tili bo'lmish o'zbek tilini o'qitishni ham yanada takomillashtirish (ona tili fanidan DTS talablarini ham xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish va ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o'quv dasturlari mazmunini

uzluksizlik va uzviylik asosida qayta ko‘rib chiqish) borasida katta ishlar amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda ta‘lim sohasida “kompetensiya”, “kompetensiyaviy yondashuv”, “kompetentlilik” tushunchalari faol qo‘llana boshlandi.

Tilshunoslikda ushbu atama ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo‘llangan bo‘lib, tilni ishlatish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida, ta‘lim sohasida uni qo‘llash esa uning izdoshlari tomonidan kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan bo‘lib, kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv ta‘limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan.

“Kompetensiya – (lot. *sompetere* – layoqatli, munosib bo‘lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”

“Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo‘lgan soha; 2. *yur.* huquq (vazifa, ish) doirasi”.

“Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; etarli ma‘lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e‘tiborli, mo‘tabar; 3) kompetensiyaga, ya‘ni huquqqa ega bo‘lgan, vakolatli;

Demak, ta‘lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kompetentlilik bevosita kasbga loyqlik, o‘z sohasi bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma, malakalaridan kasbi doirasida mustaqil ravishda amaliy foydalana olish va ijodiy munosabatini namoyon qila olish qobiliyatidir.

Darhaqiqat, ko‘p narsani bilsa-da, lekin ularni amaliy qo‘llay olmaydigan o‘quvchining jamiyatga ham, o‘ziga ham foydasi tegmaydi. Nemis olimi Hilbert Meyer aytganidek, “kompetentli o‘quvchi “quruq bilim” sohibi bo‘lib qolmasdan, balki o‘z bilimlaridan yuzaga kelgan vaziyatlarda etarlicha foydalana oladi, xotirasida tez tiklanadigan bilimlar mazmuniga ega bo‘ladi”.

Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo‘linadi.

Tayanch kompetensiyalar insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘la olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. SHu bois ularning turi nihoyatda ko‘p bo‘lib, ular har bir mamlakatda ta‘lim oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tanlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy munosabatlarda eng avvalo, ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalarini egallashni hamda mediamadaniyatga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z hatt/harakatini adekvat baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatini nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lishni, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatini nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma va diagrammalarni o‘qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko‘nikmalarini nazarda tutadi. Shuningdek, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, har bir fanning o‘ziga, sohaga, yo‘nalishga tegishli fanga oid kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Jumladan, o‘zbek tilini o‘rganishda o‘quvchi o‘quvchilar nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

Fanga oid kompetensiyalar. Ona tili ta’limida o‘quvchi o‘quvchilar nutqiy, lingvistik kompetensiyalardan iborat fanga oid kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

1. **Nutqiy kompetensiya** til ta’limining quyidagi 4 amali bo‘yicha: tinglab tushunish bo‘yicha (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); gapirish bo‘yicha (monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish); o‘qish bo‘yicha: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va

elektron xatlarni) o‘qish; yozish bo‘yicha (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishni bilish).

2. **Lingvistik kompetensiya:** kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo‘naltirilgan lug‘at boyligini oshirib borish, o‘zbek tilining so‘z yasalishi vositalarini bilish lug‘at boyligini oshirib borishdan iborat bo‘lib, bularning barchasi o‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

Davlat ta‘lim standartlari talablarini bajarish, avvalo, har bir ta‘lim bosqichi bo‘yicha belgilangan kompetensiyalar darajalarini hamda ta‘lim oluvchilarda ushbu layoqatlarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmunini bilishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda fan o‘qituvchilaridan o‘quvchilar muayyan ta‘lim bosqichini tugatayotganda, qanday malakalarga ega bo‘lishi kerakligi, o‘quvchida ushbu malakalar qanday bilimlar asosida shakllantirilib zarurligini yaxshi bilish va o‘quvchilarda ushbu malakalarni qo‘llashga oid layoqatni, ya‘ni kompetensiyani tarkib toptirish talab qilinadi.

Buning uchun ta‘lim jarayonini tubdan o‘zgartirish, ta‘limning o‘quv-uslubiy ta‘minotini takomillashtirish, dars jarayoniga o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini olib kirish orqali davlat ta‘lim standartlarida har bir ta‘lim bosqichi uchun belgilangan darajalarni shakllantirishga erishish kerak bo‘ladi. Bu borada birinchi qilingan ishlardan biri – o‘zbek tilidan o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish va uzluksizlik, uzviylik tamoyillari asosida takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Pedagog va filolog olimlar, metodistlar, ilg‘or amaliyotchi o‘qituvchilar hamkorligidagi 2-yillik mashaqqatli mehnat natijasida biz bugungi kunda majburiy ta‘lim tizimi uchun to‘liq uzviylashtirilgan, DTSda talablarida belgilangan kompetensiyalar darajalariga javob beradigan o‘quv dasturi ishlab chiqildi hamda shu asosda 4-, 6-, 7-sinf darsliklari ham qayta ishlandi. Yangi o‘quv yilidan boshlab, bularning barchasi ta‘lim jarayoniga kiritiladi. Yangi dastur, yangi darslik ta‘lim jarayoniga yangicha yondashuvni ham talab etadi.

Tinglab tushunish kompetensiyasi bo‘yicha:

a) mutaxassisligi sohasidagi barcha ma‘ruzalarni bevosita va masofali ta‘lim orqali tinglab tushunish;

b) ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi keng ko‘lamli ommaviy eshittirish va ko‘rsatuvlar, o‘zbek tilida berilgan hujjatli va badiiy filmlar mazmuni va g‘oyasini tushunish;

c) guruhda muhokama qilinayotgan turli mavzularga oid bahs-munozaralar mazmunini, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi yashirin munosabatlarni tushunish, kichik detallarning muhim jihatlarini ham anglay olish;

d) tezkor ogʻzaki soʻzlashuv nutqidagi idiomatik va ogʻzaki nutq iboralarni farqlay olish, tildagi oʻzgarishlar, lisoniy xususiyatlarni ijtimoiy muhitga mos tarzda tushunish.

Gapirish kompetensiyasi boʻyicha:

- sohaga oid ilmiy-amaliy konferensiyalar, bahs-munozaralar, davra suhbatlarida erkin muloqot olib borish, muhokamalarda faol qatnasha olish;
- dialoqlarda nutqqa qoʻshilish, nutqni boʻlish va toʻldirishlarni vaziyatga mos qoʻllay olish;
- keng koʻlamli barcha mavzularda fikr almashinish, bahslash olish;
- sohaviy mavzularda maʼruza va taqdimot qila olish;
- ixtisosligiga oid ilmiy maʼruzalar, maqolalar va ilmiy asarlarni tanqidiy tahlil qila olish, oʻz xulosalarini bera olish;
- ilmiy nuqtayi nazardan fikrni dalillar bilan asoslay olish va maqsadli rivojlantira olish;
- keng ijtimoiy-siyosiy mavzularda oʻz fikrini batafsil bayon eta olish, taqdimotlar qila olish.

Yozish kompetensiyasi boʻyicha:

- ilmiy, publitsistik uslublarda maqolalar yoza olish;
- oʻz mutaxassislik sohasiga oid ilmiy-uslubiy asarlar, maqolalar, maʼruzalarga taqrizlar yoza olish;
- barcha turdagi maʼmuriy ish qogʻozlari, mutaxassisligiga oid ichki hujjatlarni yoza olish;
- grant, loyihalar, BMI va dissertatsiyalar uchun asosnomalar va bajarilgan ishlar boʻyicha hisobotlar yoza olish;
- oʻz mutaxassislik sohasiga oid va sohasidan tashqari turli ijtimoiy mavzulardagi oʻquv-uslubiy adabiyotlarga annotatsiyalar yozish.

Lingvistik kompetensiya

Grafika va orfografiya:

I. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosining barcha harflari, tovush va harflar mutanosibli; harflarni oʻqish va yozishning asosiy qoidalarini; bosh va kichik harflarni husnixat meʼyorida yozishni; boʻgʻinlarga boʻlish, boʻgʻinlab oʻqish, boʻgʻin koʻchirish qoidalarini bilish va amalda qoʻllash.

Fonetika:

II. Tovushlarni farqlay olish va toʻgʻri talaffuz qilish; soʻzlarning urgʻularini toʻgʻri qoʻyish, qisqa “i” tovushining qisqa aytilish oʻrinlarini oʻzlashtirish; spetsifik nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilish qoidalarini bilish; kommunikativ gap turlari (darak, soʻroq, buyruq gaplar) ga mos ohangdan toʻgʻri foydalana olish va amalda qoʻllash.

Leksika:

1. Mavzuga oid faol soʻzlar: narsa-buyum otlari, rang bildiruvchi sifatlar, sanoq sonlar, kishilik, koʻrsatish va soʻroq olmoshlarini oʻzlashtirish va amalda qoʻllash.

Grammatika:

III. Atoqli va turdosh otlar; kishilik, ko'rsatish, so'roq olmoshlari; rang, shakl va sanoqni bildiruvchi so'zlar, hajm, payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar; ot kesimli sodda gaplar, inkor, tasdiq va buyruqni ifodalovchi vositalar haqida dastlabki amaliy tushunchaga ega bo'lish, ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llash.

2. Til ta'limi tamoyillari va o'zbek tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv

Til nafaqat insonni, balki kishilik jamiyatini ham barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo'lgan va hozirgi kunda ham turli mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan buyuk ne'mat, qudratli kuchdir. SHuning uchun tillarni o'rganish, til ta'limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta e'tibor qaratib kelingan, til o'qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan.

Yondashuv, prinsip, metod tushunchalari amaliyotda ko'pincha metod va usullar tushunchalari bilan almashtirib qo'llanadi, ya'ni o'qitishning prinsipial yo'nalishini belgilash uchun ham, dars berish metodi ma'nosida ham ishlatiladi. Til ta'limida o'qitishning prinsipial yo'nalishi tamoyil yoki yondashuv, metod esa usul, uslub tarzida talqin qilinadi. Metodist-olim R. Yo'ldoshev fikricha, metod ta'lim maqsadiga eng qisqa yo'l va qisqa vaqt ichida erishtiradigan usul yoki usullar majmuasidan iborat bo'lib, bir usuldan tashkil topganida ular tenglashadi, biroq metod usuldan keng tushunchaligicha qolaveradi.

Yondashuv metodlar tizimi bilan ish ko'radi, demak, metod yondashuvdan kichik tushuncha sanaladi. Ushbu tushunchalarni farqlashda I. L. Bim tomonidan berilgan ta'rifni ma'qullaydi: "Metod – til o'qitishning muayyan tarixiy davrda ta'lim maqsadi va ijtimoiy shart-sharoitlariga muvofiqlashgan biror ustuvor g'oya asosida birlashgan holda shu g'oyani ro'yobga chiqarish uchun qaysi yo'nalishdan va qaysi usullar bilan borish kerakligini ko'rsatuvchi prinsiplarni joriy etishning umumlashgan modelidir". 2 Bu o'rinda, bizningcha, metod va metodika terminlarining aralashtirib yuborilgan. "O'zbek tilining izohli lug'atida" ushbu tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

"Metod (yunoncha methodis – tadqiqot usuli, yo'li)

1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

2. Usul, uslub sifatida;

"Metodika (yunoncha methodika)-biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi, o'qitish usullari haqidagi ta'limot" Metodik so'zi esa metod va metodikaga xos, usuliy ma'nolarini bildiradi.

Metodologiya esa tadqiqot manbaini qanday tushunish, uni o'rganishga qanday yondashish, qaysi usullarni qo'llash, tadqiqot ob'ekti yuzasidan umumiy nazariy, amaliy, mantiqiy yoki tavsifiy bilimlar hosil qilish haqidagi ta'limotdir.

Ta'lim metodi yoki usuli o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari bo'lib, u o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini anglatadi.

O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday kechishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o‘qituvchisi har bir mashg‘ulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni o‘tishdan qaysi metodlardan foydalanish samarali bo‘ladi degan savol turadi.

Darsda ko‘zda tutilgan ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o‘zi etarli emas. O‘qituvchi, shuningdek, o‘z tajribasi, o‘zgalar tajribasiga suyangan holda dars o‘tish metodlari ustida ham jiddiy bosh qotirishi kerak.

Demak, o‘quv faoliyati mazmunining to‘laqonli yoritilishida ta’lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Ular o‘quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim va ko‘nikma va malakalarini ko‘rsatib berish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. O‘z navbatida o‘quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko‘lami hamda ularning faolligi samarali, ilg‘or, noan‘anaviy ta’lim shakli, metodi va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun turtki bo‘ladi. Bunda, albatta, o‘qituvchining o‘rminihoyatda katta, chunki, u DTS, o‘quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo‘llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o‘ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishdan kelib chiqib, ta’lim metodlari va dars shakllarini o‘zi tanlaydi. Bunda o‘qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay olishi hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati muhim o‘rin tutadi.

Demak, metodlar o‘zining ob‘ektiv va sub‘ektiv jihatlariga bo‘lib, uning ob‘ektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyil va ta’riflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o‘quv faoliyatining shakllariga xos bo‘lgan umumiy jihatlar aks etsa, sub‘ektiv jihatlariga pedagog shaxsi va ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari konkret shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Aytilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim metodi – o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

So‘nggi o‘n yil davomida nutqimizda “pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “o‘qitish texnologiyasi” kabi tushunchalar keng qo‘llanmoqda. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi “ta’lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmunini anglatadi. Bunda ta’lim jarayoni avvaldan loyihalashtirilgan yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab

chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish ifodalanadi.

Hamkorlikda ishlashda, avvalambor, ishtirokchilarning joylashuviga alohida e'tibor qaratish lozim. Ishtirokchilarga "Yuzma-yuz o'tirish imkoni"ni berish maqsadga muvofiq. Juft bo'lib yoki guruh bo'lib ishlaganda o'quvchilar yuzma-yuz, ya'ni bir-birlariga qarab o'tirishlari kerak. Shu holatda o'zaro fikrlashib, bahslashib, qarorlar qabul qilishlari osonlashadi, bir-birini eshitish, tinglash malakalari shakllanadi). Psixolog olim V. Karimova ishtirokchilarda mas'uliyat hissini uyg'otish, erkin muloqot olib borish va fikrlarini erkin bayon qilishga imkon beradigan o'quvchilarning quyidagicha joylashuvlarini tavsiya etadi. Bu holat "Men o'yindaman" deb nomlanadi, doira shaklidagi stol atrofida joylashgan ishtirokchilar muammo yuzasidan erkin fikr almashadilar va munozaraga kirishadilar hamda teng munosabat o'rnatiladi. Bunday holat o'yin tarzida amalga oshadigan munozara uchun ham juda qulay. Bunday holatda "boshlovchi" yoki o'qituvchiga barcha o'quvchilar bilan muloqot qilishga va barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga imkon beradi.

"Men munozaradaman" deb ataluvchi holat to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi bahs munozara uchun qulay. Unda ishtirokchilar o'z fikrini erkin atash imkoniyatiga ega. Odatda bunday bahslar sinf xonasida o'quvchilarning bunday joylashuvi bahs-munozara o'tkazishda, "Mehmon-spiker" metodidan foydalanishda hamda "O'qib ko'r-chi", "Davom ettir", "Sirli so'z", "O'yin-topishmoq", "Pantamimo" o'yinlarini o'tkazish jarayonida barcha o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

"Men hamkorlikdaman" deb nomlangan holat ko'p sonli guruhlarda qo'llash uchun qulay. Munozara ishtirokchilari to'rt-besh kishidan bo'lib, alohida stollar atrofida o'tiradilar va har bir guruh o'z qarorini chiqaradi. Bu holat o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, alohida topshiriq beriladigan o'yinlar ("So'z o'yini", "Jonli hikoya", "Krossvord", "Rebus" yoki "Klaster", "Sindiklat") metodlarini qo'llash uchun qulay hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi, o'quv axborotlarining uzatilishi, qabul qilinishi, anglab olinishi, yodda saqlanishi, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishiga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

-verbal (o'quv axborotlarni so'z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari yoki og'zaki metodlar – hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar);

-o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar – tasviriy, namoyish qilish va boshqalar);

Biroq, ayrim tadqiqot ishlarida ta'kidlanganidek, o'tgan yillarda faqat fanga oid kompetensiyalar shakllantirilishiga e'tibor qaratildi. YA'ni, ta'lim jarayonida muayyan sohaga, fanga oid bilimlarni barcha ikir-chikirlarigacha

atroflicha yoritib berilishiga harakat qilindi. Jumladan, tillarni o‘qitishda o‘quvchi talabalarda asosan til haqida bilimlar shakllantirildi, biroq shu tilda muloqot yuritish, ular egallagan bilimlarni jamiyatda amaliy qo‘llashga etarli e‘tibor berilmadi.

27 §. DTSda o‘quvchilarning gapirish va eshitish ko‘nikmasiga qo‘yilgan talablar

Mustaqillik yillarida ta‘lim sohasi tubdan yangilanib, o‘qitishning ilg‘or usul va metodlarini amalda qo‘llash bo‘yicha ulkan tajriba to‘plandi. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv-laboratoriya anjomlari, zamonaviy o‘quv-metodik baza tatbiq etilmoqda. Bugun zamon shiddatli tarzda rivojlanyapti. Demak, umumiy o‘rta fanlarini o‘qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta‘limda eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash davr talabi. Umumiy o‘rta fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bo‘yicha davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomilashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadida qabul qilingan mazkur qaror ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida qabul qilingan qarorda umumiy o‘rta ta‘limning yangi davlat ta‘lim standartlari ilova tarzda berilgan. **Yangi DTSning maqsadi** – umumiy o‘rta ta‘lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma‘naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Amaldagi davlat ta‘lim standartlarining mazmuni:

- ✓ bilim, ko‘nikma va malakalar majmui;
- ✓ tayanch o‘quv reja;
- ✓ o‘quv dasturlari;
- ✓ baholash mezonidan iborat edi.

Yangi, ya‘ni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standarti tarkibidan:

- ✓ o‘quv fanining maqsad va vazifalari;
- ✓ umumiy o‘rta fanlarini o‘rganishning mazmuni;
- ✓ tayanch va fanga oid kompetensiyalar;
- ✓ umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablari;
- ✓ tayanch o‘quv reja;
- ✓ o‘quv dasturlari joy oldi.

Ta‘kidlash joizki, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nik va malakalarini amalda qo‘llash layoqatini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihasi

uch yil davomida respublikamizning 70 ta ta'lim muassasalarida va Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi 6 ta ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta maktabida tajriba-sinovdan o'tkazilib, takomillashtirildi.

Xususan, yangi DTSga fanga oid kompetensiyalar bilan birga kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, miliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kabi tayanch kompetensiyalar elementlari ham kiritildi.

Kommunikativ kompetensiya bolaning ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo'lishini nazarda tutadi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasiga ega bola esa medimanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi, saralashi, qayta ishlashi va ulardan samarali foydalanishi, media-madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Bunday o'zgarishlar har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga muhim asos bo'ladi. Bu kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentli mutaxassis-kadrlarni tayyorlash ishlarini yanada jadallashtiradi.

➤ **Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSda** o'quvchilarga umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumiy o'rta fanlari bo'yicha malaka talablari qo'yilgan. Endilikda o'quvchilar yoshi, o'zlashtirish qobiliyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar belgilanadi. Ya'ni, majburiy minimal ta'lim mazmuni har bir ta'lim bosqichi uchun uzviylik, uzluksizlik asosida taqsimlandi.

➤ Jumladan, **umumiy o'rta tizimida fanlarni o'rganish bosqichlari** shunday tartibda belgilandi:

➤ umumiy o'rta maktablarining boshlang'ich ta'limi, ya'ni 4-sinf bitiruvchilari A1 daraja;

➤ umumiy o'rta fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari A1+ daraja;

➤ umumiy o'rta maktablarining 9-sinf bitiruvchilari A2 daraja;

➤ umumiy o'rta fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari A2+ daraja;

➤ umumiy umumiy o'rta fanlariga ixtisoslashtirilmagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari B1 daraja;

➤ umumiy o'rta maktablarining 9-10-sinflari hamda umumta'lim fanlariga ixtisoslashtirilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari V1+ darajada bilimga ega bo'lishi zarur.

Ona tili bo'yicha davlat ta'lim standarti talablarini olaylik.

A1 malaka darajasiga ega boshlang'ich sinf o'quvchisi:

- sodda matnlarni tinglab tushunishi;
- matnni tushunib o'qishi;

- og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qilishi;
- **65-70 so‘zdan** iborat diktant yoza olishi;
- xabar, tasvir asosida **5-6 gapdan** iborat matn tuzishi;
- imlo va tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llashi talab etiladi.

A2 darajasiga ega 9-sinf o‘quvchilariga esa talablar ancha ortadi:

• So‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qilish;

• **140-160 so‘zdan iborat diktant yozish;**

• **20-25 gapdan iborat ijodiy** matn (bayon, insho) va bayonga reja tuzish, epigraf tanlash;

• matnda badiiy tasvir vositalridan o‘rinli foydalanish;

• rasmiy ish qog‘ozlarini (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, e’lon) yozish kabi mezonlar shular jumlasidandir. Boshqa fanlardan ham shu kabi aniq talablar belgilab berildi.

Yana bir jihat, oldingidan farqli o‘laroq, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartida barcha fanlarni o‘qitishning kuchaytirilgan darajasi uchun alohida talablar ishlab chiqildi.

Ayni paytda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standarti, o‘quvchi va o‘quvchilar talabiga to‘liq javob bera oladigan **zamonaviy darsliklar** yaratish ustida mutaxassislar guruhi tomonidan qizg‘in ish olib borilmoqda.

1991-yildan buyon maktab adabiy dasturlari jiddiy takomil yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘lda, ayniqsa, 1997-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (bu dastur hozir amalda yo‘q) alohida bosqich bo‘ldi.

Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari badiiy asarlarni tanlash tamoyillarini ham belgilab beradi. Taniqli metodist M. V. Cherkezova ko‘rsatganiday, “Milliy maktablarda asarlarni va ularni o‘rgatish metodikasini tanlash uchun ilmiy adabiyotshunoslik mezonlari, adabiy fakt va hodisalarga nisbatan tarixiy-genetik, tarixiy-funksional va qiyosiy-tipologik yondashuvlar birligi asos bo‘lib xizmat qiladi”.

Dastur eng muhim davlat hujjati bo‘lib, uni bajarish majburiydir. O‘qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to‘la va samarali tarzda amalga oshirishdan iborat. Shunga ko‘ra ham o‘qituvchi uni to‘la bilishi, uning barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma’lumotga ega bo‘lishi shart.

Dastur o‘qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manbadir. Unda amaliy harakatga ko‘rsatma ham, eng muhim ma’lumotnoma ham mujassamlashgan. Hozirgacha dasturlar umumta’lim maktablarining barcha bo‘g‘inlarini (I-IX yoki I - XI sinflar) qamrab olardi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun ta’lim tizimiga bir qator yangiliklarni olib kirdi. Unga ko‘ra endi umumiy o‘rta ta’lim I – IX sinflarni qamraydi. Bundan keyin esa o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshlanadi. Demak, dasturlar ham shundan kelib chiqqan holda boshqa-boshqa bo‘ladi.

Umuman dasturda adabiyot kursi to'raligicha tavsiflab borildi. Har bir sinfdan adabiyot kursining mazmuni va ish tartibi, har bir mavzuniig mohiyati muayyanlashtiriladi. Unda o'zlashtirilishi lozim bo'lish ilmiynazariy, adabiy tushunchalar, asarni o'rganish, nutq o'stirish, sinfdan tashqari o'qitish, asarlar yuzasidan suhbat uchun ajratiladigan soatlar miqdori, adabiyotdan o'tkazilishi ko'zda tutilgan og'zaki va yozma ish turlari, predmetlararo aloqa, sinfdan tashqari o'qishdagi asarlar ro'yxati berilgan.

Davlat dasturini bajarish asosida o'qituvchi o'quvchilardagi adabiyot va san'atga bo'lgan muhabbat, ijodkorlik, ijodiy faollik, yuksak axloqiy an'analarni takomillashtirish va o'stirishga asosan e'tibor bermog'i lozim.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida yaratilgan takomillashtirilgan o'quv dasturlari, jumladan, Ona tili o'quv dasturi xususida to'xtaladigan bo'lsak, ona tili fani 5-9-sinflarda 646 soat hajmda, haftasiga 19 soat, shundan 5-sinfda 6 soat, 6-sinfda 5 soat, 7-sinfda 3 soat, 8-sinfda 3 soat, 9-sinfda 2 soat o'qitilmoqda.

Ona tili fanini chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-9-sinflarida esa 986 soat, haftasiga 29 soat, shundan 5-sinfda 8 soat, 6-sinfda 7 soat, 7-sinfda 5 soat, 8-sinfda 5 soat, 9-sinfda 4 soatdan o'qitilmoqda. Shu o'rinda "Nutq madaniyati" yondosh o'quv dasturi ham har bir sinf uchun alohida berilmoqda.

O'quv dasturida "Uqtirish xati" keltirilgan bo'lib, unda Ona tili fanini o'qitishning ahamiyati va unga zamonaviy yondashuvlar, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv dasturi mazmunida aks etgan grammatik mavzularni yoritishda o'quv rejada keltirilgan "Hayot xavfsizligi asoslari", "Tejamkorlik saboqlari" va "Iqtisodiy bilim asoslari" kurslarining mazmunini singdirib o'qitish hamda ona tili o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari kiritildi.

Ona tili fani Davlat ta'lim standartida umumiy ko'rinishda berilgan tayanch kompetensiyalar A2 va A2+ darajaga ajratib berildi. Har bir sinfning boshida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan shu sinfga xos tayanch kompetensiya elementlari berildi.

Har bir sinfdan o'rganiladigan bo'lim va mavzular nomlari hamda ularga ajratilgan soatlar ko'rsatildi. Bunda har bir bo'lim mazmuni va fanga oid kompetensiyalar elementlari ochib berildi.

Ona tili fanining xususiyatidan kelib chiqib o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar elementlarining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida nazorat ishi hamda o'quvchilar bilimini mustahkamlash, takrorlash soatlari ajratildi.

A2 va A2+ (9-sinf) yakunida o'quvchilarda shakllangan tayanch hamda fanga oid kompetensiyalar elementlari keltirildi.

O'quv dasturining oxirida o'quv dasturini tuzuvchi ishchi va ekspert guruhlari tarkibi berildi.

Amaldagi o'quv dasturi va o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturining qiyosiy

tahliliga ko‘ra 5-, 9-sinf dasturlarida umumiy 31, 2 % o‘zgarish bo‘ldi. Bunda 5-, 6-, 7-9-sinflarda takrorlash va mustahkamlash darslari hisobidan 4 soatdan “Matn” yo‘nalishiga aloqador yangi mavzular va “Leksikologiya” bo‘limiga 37 soat hajmda, 8-sinfda esa 2 soatga mo‘ljallangan yangi mavzular kiritildi.

Shuningdek, 5-sinf o‘quv dasturida “Morfologiya” bo‘limiga amaldagi dasturda ajratilgan 40 soat 17 soatga, “Sintaksis” bo‘limiga ajratilgan 35 soat 17 soatga, “Fonetika” bo‘limi 46 soatdan 33 soatga qisqartirildi.

Maktab ona tili darsliklarida ona tili ta‘limining maqsadi voqealangan va unda berilgan materiallar xususiylikdan umumiylikka qarab boradi. Tilshunoslik bo‘limlari o‘zaro aloqadorlikda, soddadan murakkabga qarab berilgan.

Ona tili va adabiyot fanidan umumiy o‘rta ta‘limining davlat ta‘lim standartlari. Davlat ta‘lim standarti ta‘lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta‘lim mazmunining o‘zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta‘limning barqaror darajasini ta‘minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta‘lim standarti o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar, nizomlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta‘lim standartlari, shu jumladan, ona tili davlat ta‘lim standarti ham ta‘lim jarayoni oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab beriladi. Ona tili ta‘limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr maxsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya‘ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta‘limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori ta‘limtarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘limning barcha bosqichlarida ona tilini o‘qitishning asosiy **maqsadi** o‘rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir.

Ona tili kommunikativ kompetensiyasi – ona tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyati.

Kompetensiyalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Lingvistik kompetensiya-til sathlari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va

matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish) egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya-soʻzlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda vositalarini tanlash imkonini yaratadi.

Pragmatik kompetensiya-kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo boʻlganda takroran soʻrash, uzr soʻrash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan oʻrinli foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Oʻquvchining mustaqil fikrlashi, oʻzgalar fikrini anglashi, nutq va muloqot madaniyati rivojlanishi uchun ona tili taʼlimi standart talablariga javob berishi, ona tilini kommunikativ va lingvistik kompetensiyasi boʻyicha etarli darajada egallashlari koʻzda tutiladi.

Shu maqsadda ushbu oʻquv fanining asosiy mazmunida quyidagi talablar koʻzda tutiladi:

1. Ona tilidan muloqot malakasini egallash (kommunikativ kompetensiya).

2. Til materiali va vositalarini nutqda qoʻllay bilish uchun etarli bilimlarni oʻzlashtirish (grammatik kompetensiya).

Ushbu mazmun asosan kommunikativ kompetensiyani egallash orqali ona tilini oʻrgatishning umumtaʼlimiy maqsadini koʻzda tutadi.

1. Kommunikativ kompetensiya.

Ona tili fanidan Davlat taʼlimi standarti shu til boʻyicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy uch turi: oʻqish, gapirish va yozish amallari boʻyicha har bir sinfda taqozo etiladigan bilim va koʻnikmalar meʼyorini belgilab beradi. Bunda oʻquvchining notanish matnni ifodali oʻqiy olishi, oʻzgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni ogʻzaki qayta bayon qila olish darajasi, fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olishi, tilning ifoda vositalaridan oʻrinli va unumli foydalana bilishi, imloviy savodxonligi kabi kompetensiyalarni egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

2. Grammatik kompetensiya.

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy koʻnikma va malakalar belgilanadi. Bunda oʻrganilayotgan oʻzbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi boʻyicha nutqning ogʻzaki va yozma shakllaridan keng va toʻgʻri foydalanish uchun zarur boʻlgan ilmiy-amaliy maʼlumotlar berish, oʻzbek tilida toʻgʻri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini oʻzlashtirish, muayyan bir xabarni yoki maʼlumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur boʻlgan ish qogʻozlarni yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni oʻrganib, ular haqidagi fikr mulohazasini shaxsiy munosabatini ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri bayon eta olish imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish talab etiladi.

Ona tili taʼlimi mazmuni yuqoridagi ikki tarkibiy qismni oʻz ichiga oladi va 1-4-, 5-9-sinflar hamda akademik litsey va kasb-hunar kolleji DTS larining

har birida o'zining ifodasini topadi. Ona tili uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim maktabgacha ta'limdan keyingi bosqich sanaladi.

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari, muhimi, umumdidaktik hamda o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy **vazifalar** belgilanadi, xususan maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida, muloqot va munosabatning hamma turlarida ona tilidan erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur.

Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining majburiy ta'lim bitiruvchilarga qo'yiladigan majburiy minimal talablar"

➤ **Bilishi kerak bo'lgan:**

Grammatik bilimlar: Fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bog'lanishli nutq, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar, ularning muhim belgilari, tushunchalar bilan bog'liq grammatik atamalarni bilish.

Nutqiy kompetensiya. O'qish – harflarni to'g'ri talaffuzi, so'zlarni to'g'ri o'qilishi, gap ohangi, gapdagi tinish belgilarining talaffuzi, sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish, so'z urg'ulari, murakkab tipdagi ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuzi, mumtoz adabiyot namunalarini, so'z, ibora va atamalarni to'g'ri talaffuzi, ma'nosini anglash.

Fikrni og'zaki bayon qilish – og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi, monologik nutq, dialogik nutq mantiqiy jihatning aniq bo'lishi, matn mazmunining mos bo'lishi.

Fikrni yozma shaklda bayon qilish – matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish, husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish, so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash, tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish, matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va ma'nodoshlarini qo'llay olish, matnda xatboshilarining yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash, uyadosh so'zlardan foydalana olish, diktant, bayon, insho, maqola, ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, tushuntirish xati, tilxat, ariza, ma'lumotnoma, hisobot, ishonch xati, axborot) ni yozish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf tanlash, xatboshini to'g'ri belgilash, til birliklarini fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik, tahlil qilish.

28 §. Samarali yozishga o'rgatish jarayonlari. O'quvchilarda intervyu, bahs, muvaffaqiyatli munozara, gapirish va taqdimot qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari

"Jonli muloqot" metodi. O'quv-tarbiyaviy jarayonda mazkur usulni qo'llashdan maqsad:

1) o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish;

- 2) hamkorlikda faol ishlashni shakllantirish;
- 3) ma'lum vaziyatlarni boshqarishni o'rgatish;
- 4) o'quvchilarning badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- 5) o'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetensiyalarni shakllantirish.

Ya'ni:

jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun o'zbek tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

o'z fikrini aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z nuqtayi nazarini himoya qila bilish, uni ishontira olish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish shakllanadi.

Nutqiy kompetensiya:

tinglab tushunish: suhbatdosh nutqini, eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan nutqdagi asosiy axborotni tushunish.

gapirish: jonli muloqotda o'zini tanishtirish, murojaat etish, ma'lumot olish va berish, o'z g'alar fikrini qisqacha sharhlash, muhokamada ishtirok etish, muhokamada o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish shakllanadi.

Usulni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- a) o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- b) kompyuter yuqori tezlikdagi internetga ulanib (kamida 1 mb/s), "Imo" va "Viber" dasturlari ishga tushiriladi.
- c) turli kasb egalari (yozuvchi, san'atkor, shifokor...) bilan "Vebkamera" yordamida aloqa o'rnatiladi; (o'qituvchi ular bilan oldindan kelishib olgan bo'ladi, hamda dars ishlanmaning bir nushasini ularga ham berib qo'yadi)
- d) dars jarayonida o'quvchilar monitorda ular bilan jonli efrida muloqotga kirishadilar.

Kutilayotgan natija: ushbu usul o'quvchilarning nazariy bilimlarini kengaytirib, amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qiladi va ijtimoiy faollikni shakllantiradi.



Yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirib, teran va sog'lom fikr yuritishga o'rgatadi.

"Muammoli vaziyat" metodi

Mazkur metod-ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi

Muammoli vaziyat tavsifi beriladi Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sababini aniqlaydilar



Guruhlar muammoli vaziyatning Guruhlar muammoli oqibatlarini to'g'risida fikr yuritadilar vaziyatni yechimini topish yo'llarini ishlab chiqadilar

“*Bahs-munozara*” metodi biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan metoddir.

Bahs-munozara vaqtida tinglovchilar ta'limdagi ba'zimuammo va kamchiliklar bo'yicha fikr almashadilar.

Mazkur metoddan dars paytida foydalanilganda tinglovchilarning pedagogik kompetensiyalari shakllanadi.

“BAHS-MUNOZARA” metodining tuzilmasi



“*Intervyu*” mashg‘uloti. Maqsad: tinglovchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Guruh tinglovchilaridan biri gazeta yoki televidenie muxbiri sifatida tanlanadi.

Muxbirlar 1-guruh 2-guruhdan, 2-guruh 3-guruhdan, 3-guruh 1-guruhdan (tinglovchilardan) intervyu oladilar.

Savol-javoblar takrorlanmasligi kerak.

Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Malaka oshirish kurslarida darslar qanday o‘tyapdi?

2. Siz zamonaviy o‘qituvchi deganda nimani tushunasiz?


3. Siz dam olish kuningizni qanday o‘tishini xohlaysiz?

Asosiysi, tinglovchi o‘z fikrini asoslab berishi kerak. Asoslanmagan fikr inobatga olinmaydi.

Mashg‘ulot tugagach o‘qituvchi tomonidan yakunlanib, guruh tinglovchilari baholanadi.



“*Tasavvur olami*” – metodi tinglovchilarning o‘z fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini ta‘lim va tarbiya jarayonida bemalol qo‘llash bo‘yicha pedagogik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.



Mazkur metoddan unumli foydalana olgan tinglovchi dars jarayonini rejalashtirishda qiynalmaydi. Chunki bugungi kun yoshlarining o‘zlashtirish sifat ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi, o‘qituvchini dars jarayonida zamonaviy AKTdan unumli foydalanishiga bog‘liq.

“*Tasavvur olami*” – metodini amalga oshirishda “Power Director” programmasidan foydalanish mumkin. O‘qituvchi mavzusidan kelib chiqqan

holda turli rolik, lavha va tasvirlarni nafaqat kompyuter yordamida balki mobil telefonida ham qisqa vaqtda tayyorlay olishi mumkin.

Mazkur metod nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilarni ham ijodkorlikka yo'naltiradi.

“Rezyume” texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri aloxida nuqtalardan muhokama etiladi.

Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab takdoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni mag'kullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarini tarqatadi;

har bir guruh ag'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar.

Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

kichik guruh ag'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

“Labirint” texnologiyasi. Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli xolat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirish, shu boradagi

malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi mashg'ulot boshlanishi oldidan o'quvchilar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi (doira shaklidagi joyning o'rtasiga savat (yoki tuvak) dagi guldastani qo'yish maqsadga muvofiq. Joyni bunday jihozlanishi mashg'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulotni ochiq havoda, ya'ni tabiat qo'ynida o'tkazilsa, u holda o'quvchilar yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan o'quvchilarni shu davradan joy egallashlarini so'raydi. So'ngra o'quvchilarning faoliyati rang-barang va hamisha har turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi.

Misol tariqasida o'qituvchi, o'quvchilar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo'lini so'raydi (yoki o'qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi va o'quvchilardan uchta to'g'ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni xohishlariga ko'ra, uch kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi va ularga har bir kichik guruh ag'zolari o'z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eshlashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab, ularning yechimini (vaziyat, muammoning yechimi uch variantdan test yoki aniq bir javobdan iborat bo'lishi mumkin) ham topib qo'yish topshirigini beradi.

FSMU texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi tinglovchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

-o'qituvchi har bir tinglovchi (yoki o'quvchi) ga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qogoz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

F-fikringizni bayon eting;

S-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
M-ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
U-fikringizni umumlashtiring.

“*Skarabey*” texnologiyasi. “Skarabey” interfaol texnologiya bo‘lib, u tinglovchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiqiy fikrlash, xotiralarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘z bilimlarining sifati va saviyasini xoliso‘zbek baholashga, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlashga zamin yaratadi. U ayni paytda turli g‘oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

Pazl yoki boshqotirmalar. Sodda o‘yinlar turkumiga kirib, kichik yoshdagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan. Ular orasida foydali va rivojlantiruvchi o‘yinlar ham kam emas. Bunday o‘yinlar yorqin ranglarda ishlangan multfi lm qahra monlari ishtirokida alifbo saboqlarini, hisob-kitob, rasm chizish, chet tillarini o‘rganishga yo‘nal tirilgan va tavsiya etiladigan o‘yinlardir.

Sport o‘yinlari singari poygalar ham ma’lum darajada insonlarga foyda keltirishi mumkin. Ular yordamida yo‘l harakati qoidalarini o‘rganish mumkin bo‘lsa-da, sport o‘yinlari kabi badanni chiniqtirish, sog‘lom va baquvvat o‘shishga yordam bermaydi. Unga faqat g‘alaba qozonish maqsadida qaraladi.

«***Pazl***» o‘yinlar. Bu o‘yinlar kichik yoshdagi o‘quvchilarga mos bo‘lib, rang-barang bo‘yoqlar yordamida yaratilgan, asosan, ko‘z xotirasini rivojlantiruvchi o‘yin hisob lanadi. O‘yin sharti bo‘yicha mevalar o‘rnini almashtirish nati jasida 3 ta qatorda bir xil mevali katakcha hosil bo‘lishi kerak. Albatta, o‘yin tezligi ham hisobga olinadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchi bolalar zeh nini oshirishga, chaqqon bo‘lishga yordam berishi mumkin.

Mantiqiy o‘yinlar. Biror masala yoki jumboqni yechishda o‘yinchidan topqirlikni, izlanuvchanlikni talab qiladigan o‘yinlardir. O‘z qobiliyatini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar uchun «Magik Square» (sehrli kvadrat) o‘yinida 5 ta murakkab mantiqiy masalani yechish tavsiya etiladi. Bunday o‘yinlarni On-Line muhitida o‘ynash mumkin.

Boshqotirmalar. «Dupligon» kabi o‘yinlar «test-o‘yin» deb nomlanadi.

Bir soniyada aks ettirilgan tasvirni xotirada saqlab qolish va uni qayta tasvirlab berish vazifalari orqali o‘yinchining qobiliyati aniqlanadi.

Kompyuter o‘yinlari.

Kompyuter o‘yinlari zararli emas, aksincha...

Ko‘pincha bolalarimizning kompyuter va telefonlarda o‘yin o‘ynashidan xavotirga tushamiz. Bu zararli, sog‘lig‘i uchun ziyon-ku, deb o‘ylaymiz. Bo‘lmagan gap! Kompyuter o‘yinlari mutlaqo zararsiz – agar me’yorini bilsak, haddan ziyod berilib ketmasak, elektron o‘yinlarni hatto kattalar va bolalar uchun eng foydali mashg‘ulotlar ro‘yxatiga kiritsa ham bo‘ladi. Negaligini darslarda o‘rganib tushunib olasiz degan umiddamiz.

Quizlet-mashq qilish va o'rganayotgan narsangizni o'zlashtirishning eng oson usuli. O'zingizning fleshkartalaringizni va o'quv to'plamlaringizni yarating yoki boshqa o'quvchilar tomonidan yaratilgan millionlardan birini tanlang: bu sizga bog'liq. Quizlet bilan har oy 50 milliondan ortiq o'quvchi o'qiydi, chunki bu tillar, tarix, so'z boyligi va fanlarni o'rganishni sodda va samarali qiladigan etakchi ta'lim va flesh-kartalar dasturi.

Quizlet learning dasturi xavfsiz o'rganishingizga yordam beradi. Quizlet learning dasturidan istalgan mavzu, jumladan lug'at, biologiya, kimyo, ijtimoiy tadqiqotlar, AP, GRE va boshqalar uchun foydalaning. Lug'atni yodlash, talaffuzni o'rganish va o'zingizni 18 dan ortiq xorijiy tillarda, shu jumladan ispan, frantsuz, nemis va xitoy tillarida sinab ko'rishga imkon beradigan o'quv rejimlari yordamida o'zbek tillarini yanada samarali o'rganish uchun qulay.

29 §. Og'zaki va yozma nazoratda elektron vositalardan foydalanish yo'llari

Elektron darsliklar hayotimizga juda tez kirib keldi. Ularning sonini aniq aytishning hozirgi kunda imkoni yuq. Shu bilan birga odatdagi kitoblar qatori ularning ta'lim jarayonida tutgan mavkei ancha yuqori darajaga chikishiga qator omillar ta'sir etmokka. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilar, umuman kompyuterdan foydalanuvchilar orasida elektron darslik (E-book) haqiqiyo'urnini oldi va bu sohada o'ziga xos evalyusion uzgarishlarni olib kelmoqda.

Elektron darslik o'zi nima? U odatdagi kitoblardan nimasi bilan farq qiladi? Kishilar orasida uning ommaviy tarzda tez tarqalishiga sabablar nima bo'ldi? 2004 – 2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umimilliy dasturi maktablarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron darsliklar yaratish va uni ta'lim jarayoniga tadbik etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yymoqda. Shunday ekan, elektron darsliklar yaratishdan maqsad, ularga qo'yilgan talablar nimalardan iborat? Uning qanday turlari va variantlari mavjud kabi savollarga ilmiy asoslangan javob topish talab etiladi.

Elektron darslik (qo'llanma) o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'qituvchi mexnatini yengillashtirish, o'quvchi – talabalarni bilim darajasini oshirish, o'quv jarayonida kom'pyuter texnikasidan foydalanish uchun keng yul ochib beradi. Shularni e'tiborga olgan holda umumta'lim maktablarining fizika, matematika, informatika, iqtisodiy bilim asoslari, biologiya, ona tili va adabiyot, o'zbek tili (Rus guruhlari uchun) fanlardan elektron darsliklar yaratishga kirishildi. Bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, tahlil natijalarini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis (testolog), Dizayner yoki web – usta, kodlovchi (dasturlovchi) qatnashishi nazarda tutilgan. Xo'sh, elektron darslik yaratuvchilar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha qanday mezonlarga amal qiladilar? Ularga qo'yiladigan umimiy talablar nimalardan iborat?

Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

Elektron darslikning mazmuni;

Elektron darslik yaratishda mualliflar guruhi e'tiborini qaratadigan jihatlar quyidagilardan iborat:

elektron darslik yaratishga fanning o'quv dasturini asos qilib olish;

elektron darslikka kiritiladigan materiallarni malakali o'qituvchi professorlarning amaliy tajribalari, fan ehtiyorlaridan kelib chiqqan holda muhokama qilish;

o'quvchi talabaga bilim ko'nikmalarini shakillantirishga ko'mak beruvchi tushinchalarga o'z o'rnida foydalanish;

o'quvchi talabalarga Fan mavzusiga aloqador uangi bilimlarni tushinishga yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizma va jadvallarni elektron darslikka kiritish; erishilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashqlar va nazorat savollarini keltirish;

elektron darsliklarni yaratishga ilgor xorijiy tajribalardan foydalanish;

elektron darslikning tili, mazmuni o'quvchilarning maxsus olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish;

o'qituvchi professorlarning elektron darslikdan samarali foydalanish uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish va h. k.

Yaratilgan elektron darsliklarning ilmiylik va taqdimot sifati o'quv rejaga moslik, mavzu bayoni, til darajasi, manba tuzilishi, taqdimot va Dizayn, illyustrasiya kabi muammolarga ta'sirchanligi kabi mezonlarga javob berishi lozim.

Elektron darslik muallif yoki mualliflar guruhi tomonidan ma'lum bir dasturlash tilida yoki html-gipermatnli tili yordamida yaratiladi. Elektron darslik foydalanish uchun ikki variantda – on-line va off-line da yaratilishi mumkin. Elektron darslikdan on-line variantda foydalanishda komp'yuter texnologiyasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim. Off-line variyantda tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Odatda, bu variantda elektron darslik CD diskka yoziladi va o'quvchiga beriladi. Elektron darslik Internetda ma'lum bir saytda joylashtirilishi ham mumkin. Foydalanuvchi bunday holatda kelgusida foydalanishi uchun undan nusxa olib ishlatilishi mumkin.

Elektron darslik o'quv dasturiga va o'quv metodik nashr talablariga mos kelishi lozim. Elektron darslik tomomila yangi, ya'ni birinchi bor chop qilinishi yoxud oldin nashr qilingan o'quv metodik qo'llanmaning elektron versiyasidan olingan bo'lishi mumkin. Unda: kurs yoki fan mazmunini ochib berish uchun yetarlicha material va hajmga, o'quv-metodik maqsadlarga erishishni quvvatlovchi illyustrativ materiyallarga ega bulishi; darslikning barcha kisimlariga-manba va resurslarga erkin murojaat mavjudligi; darslik til/ uzbek tili (boshqa tillarga o'tish imkoni mavjudligi).

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar elektron darslik yaratishga qo'yiladigan asosiy talablar bo'lib, ular bevosita ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron darslik maxsus dasturlash kodlari hamda grafik, animasion, ovoz va Videotasvir elementlari yordamida yaratilgan odatdagi kitobning elektron kurinishidir. Uning odatdagi kitoblardan farqi, qulaylik va

noqulaychilik taraflari mavjud bulib, IKT rivojlanishi bilan mavjud salbiy jihatlar miqdori kamayib bormoqda.

Elektron darslikni qullashning ijobiy taraflari quyidagilardan iborat:-uni yaratish qulayligi/ cheklanmagan miqdorda va tezlikda kupaytrish imkoniyati;-uni doimiy taxrir qilib turish imkoniyati mavjudligi;-juda kam xarajatlar bilan yaratish mumkinligi;-grafik, ovoz, animasiya, Video tasvirlardan foydalanish mumkinligi;-materiallar bilan tanishish qulayligi, zarur ma'limotni tezda axtarib topish mumkinligi, Elektron darslik zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalar yordamida o'quvslubini, mustaqil ta'limolishning samarali usullarini qo'llash orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallangan darslikdir, ya'ni oddiy darslikning raqamli ifodasidir. Elektron darsliklar zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslanib jamlanganligi va umumlashtirilganligi, ko'rgazmalarga boyligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olganligi, bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga egaligi, asosiy tushuncha va xulosalarning, ta'rif, qoida-qonuniyatlarning matnlarini jozibali shakllar va har xil ranglarda berilishi oddiy o'quv darsliklardan ajralib turadi.

Elektron darsliklar ta'limolishning uangi shakli bo'lgan masofadan o'qitishning asosi hisoblanadi. U o'quv fani, uning biron yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga mos holda bayon etilgan mahsulotdir. Elektron darslik axborot kommunikasion texnologiya (AKT) asosida yuqori ilmiy – uslubiy darajada yaratilgan fanlardan Davlat O'quv Standartiga to'liq mos keladigan elektron o'quv mahsulot hisoblanadi. Elektron qo'llanma darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi yoki uni to'ldiruvchi mahsulot bo'lib, qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir. Elektron dars ishlanmasi darslikning har bir darsiga mo'ljallangan mavzuning maqsadi, mazmuni va mohiyatini yoritib beruvchi, AKTning imkoniyatlaridan to'liq foydalanib yozilgan matndir. Elektron darslik kitobning o'rnini bosa olmaydi va bosishi ham shart emas. Biror badiiy asarning kinosini yaratish uangi janr bo'lgani singari, elektron darslik ham darslikning boshqa janri hisoblanadi.

Elektron darslik o'quv jarayonida oddiy darslikdan ko'ra inson miyasining qabul qilish yo'llarini, ya'ni tovush, emotsional xotiralarni jalb qilib, asosiy tushuncha, qoidalarni, misollarni tushunish va yodga olish jarayonlarini maksimal yengillashtirish uchun xizmat qiladigan AKTning imkoniyatidan to'liq foydalanishi kerak. Elektron darsliklar quyidagi toifalarga bo'linadi: 1-toifa. O'quv materiallari asosan verbal matn sifatida berilib, ular giperilova va glossariyga hamda ikki o'lchovli grafiklar, diagrammalar, rasmlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi. 2-toifa. O'quv materiallari qisman giperilovali va glossariyga hamda 2D grafikli matn shaklida va 3-o'lchovli grafikdan iborat bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi. 3-toifa. O'quv materiallari matn, 2D grafiklar, Video va audio animasiyalar va 3D effektlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi. 4-toifa. Elektron darslik virtual muhitda, zamonaviy tarmoq

texnologiyalarni qo'llab, o'qituvchi bilan komp'yuter tarmog'i (Internet) orqali bog'langan holda masofaviy mashg'ulotlar olib borish darajasida yaratilgan bo'ladi.

Hamma toifalarga tegishli umumiy talablar:

-modullar (paragraf va mavzular) ning matni 4-5 monitor ekranidan oshmasligi kerak;

-gipperilovalar 3 bosqichdan oshmasligi ma'qul, chunki asosiy mavzudan chiqib ketishi mumkin;

-mahsulot tizimi komp'yuter texnologiyasi talabiga mos kelishi kerak. Elektron darsliklarda matn qismi chegaralangan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lgani uchun elektron darsliklar yaratishning prinsip va yondashuvlarga amal qilish kerak.

Modullash prinsipi darslik materiallarini minimal hajmdagi modullardan iborat bo'limlarga bo'lish.

To'lalilik prinsipi har bir modulda quyidagi komponentlar mavjud bo'lishi kerak: Nazariy qismi; Nazariy savollar; Misollar; Mustaqil yechish uchun masala va misollar; Modul bo'yicha javoblari berilgan savollar; Nazorat ishlari; Yordamchi ma'lumotlar; Izohlar. Ochiqlik prinsipi har bir modulda matnni yangi tushuncha va usullarni o'zlashtirishni engillashtiruvchi vizual kadrlar bo'lishi kerak.

Tarmoqlanish prinsipi har bir modul gipermatn ilovalar orqali bo'shqa modullar bilan bo'g'langan bo'lib, materiallarni o'zlashtirish ketma-ketligini nazarda tutadi.

Boshqarish prinsipi kadrlar almashinishini o'quvchilarning o'zi boshqarishi. Murakkabroq misol va masalalarni ochib, o'zini tekshirish mumkin bo'lishi. Moslashuv prinsipi elektron darslik o'quv jarayonining ma'lum paytdagi o'quvchi ehtiyojini qondirishi. To'plash prinsipi yagona elektron majmuada va kutubxonalarda joylashtirish, ularni uangi bo'lim hamda mavzular bilan kengaytirish shaklida bajarilgan bo'lishi lozim. Komp'yuter yordami prinsipi Elektron darsliklardan foydalanilayotdan vaqtda komp'yuter yordami olish mumkinligi, ya'ni murakkab matematik hisoblar, o'z bilimini tekshirish, lugatlardan foydalanish va boshqalar. Keltirilgan prinsiplardan shunday hulosaga kelamizki, elektron darslik mustaqil o'qish va bilim olishga mo'ljallangan.


Elektron darsliklar. O'qilayotgan materiallarni boshqa usullar (qabul etish yo'llari oshirish bilan) qo'llash orqali o'zlashtirishni yengillashtiradi; - o'quvchining talablari, tayyorgarligi va intellektual darajasiga moslashadi; - murakkab hisob-kitoblarda vaqtning tejilishi hisobiga fann chuqurroq o'zlashtirishga sharoit tug'diradi;-ishning har bir bochqichida o'zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratadi;-bajarilgan ishni Faylga yoki chop qilishga imkoniyat beradi; -kerakli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallarni takror-takror beradi. Elektron darsliklar – turli masalalarni yechishda komp'yuter yordamini ishlatish hisobiga vaqtni tejashi mumkin; -o'quvchilarga mashg'ulotlarni komp'yuterlarda mustaqil ishlar shaklida o'tishi mumkin;-

murakkab hisobli nazorat ishlari komp'yuter yordamida tekshiriladi. Avtomatlashtirilgan ishchi joyi (AIJ) bu har qanday muassasa, tashkilot yoki ishlab chiqarish korxonasi oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajarishda ishtirok etadigan, axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini bajaruvchi hisoblash texnikasi vositalari bilan ta'minlangan har bir bo'limning ishchi joyidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3-bosqichida barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini komp'yuterlashtirish va axborotlashtirish, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ko'zda tutilgan edi.

Unda "Zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuterlash va komp'yuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonlarini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi" deb yozilgan. Shu maqsadda maktablarda ham ko'p bo'limlarning AIJ yaratish mumkin. Misol uchun o'quv bo'limi ishlari, buxgalteriya, kutubxona ishlarining avtomatlashtirilgan ishchi joyi yaratish 80 mumkin. Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan katta e'tibor maktablarni to'liq komp'yuterlash (bu ham AIJ) va kutubxona ishlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. **Elektron darslikni o'rnatish tartibi.** Elektron darslikni komp'yuterga o'rnatish uchun dastavval elektron darslik yozilgan kompakt diskni komp'yuter CD diskovodiga o'rnatish va o'rnatish dasturi ishga tushishini kutib turing. Elektron darslikni o'rnatish jarayoni CD diskda Videorolik shaklida batafsil yoritilgan, mazkur rolik yordamida elektron darslikni o'rnatish jarayoni bilan bevosita tanishish mumkin. O'rnatish dasturi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, dastlab quyidagi oyna hosil bo'ladi.

Oynada elektron darslikni o'rnatishdan avval bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ketmaketligi ko'rsatilgan. O'rnatish jarayonini davom ettirish uchun oynaning pastki qismidagi "Davom" tugmasini bosing va keyingi bosqichga o'ting. Bu bosqichda elektron darslikning kim uchun o'rnatilayotganligini aniqlab olish zarur. Agar elektron darslikni o'qituvchilar uchun mo'ljallab o'rnatilayotgan bo'lsa "O'qituvchi uchun" aks holda "O'quvchilar uchun" bandi belgilanadi va keyingi bosqichga "Davom" tugmasi yordamida o'tiladi.

Multimedia texnologiyalari. Mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimediya (Multimediya-ko'p muhitlilik) – bu komp'yuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishiga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h. k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio va video lentalar va h. k.)



Мультимедиа

axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir. Multimediya-komp'yuterda axborotning turli xil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar,

animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar hamda videofilmlar bilan ishlashdir.

Multimediya – bu zamonaviy komp'yuterli axborot texnologiyalari bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplikatsiyani) yaxlit komp'yuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Multimediya amaliyotdagi ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit bo'lib, komp'yuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda etkazishdir.

Birinchiidan, foydalanuvchiga albatta interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va komp'yuter o'rtasida buyruqlar va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot.

Ikkinchiidan, turli video va audio effektlar ishlatiladigan muhit. U tomoshabinga o'zicha u yoki bu ilovani tanlash imkonini beruvchi videofilmni eslatadi. Multimediya mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, komp'yuterda ishlangan mahsulotdir.

Mul'timedia maxsulotlaridan foydalanishning tashkiliy pedagogik hamda metodik asoslari. Multimediya texnologiyasi axborotni bir vaqtning o'zida insonga tushunarli, ko'p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror komp'yuterga ko'rsatilgan shaklda ko'chirib o'tkaza oladi hamda ularning xohlagan kombinatsiyasini yarata oladi. Undan tashqari Multimediya texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek, statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin. Multimediya tizimlarining jadallik bilan rivojlanishiga shaxsiy komp'yuterlarning imkoniyatlarini kengayganligi va texnik, dasturiy vositalarining rivojlanishi sabab bo'ldi.

Oxirgi yillarda komp'yuterning tezligi va xotira qurilmalarning sig'imi keskin oshdi, shuningdek grafik imkoniyatlari kengayib, tashqi xotira qurilmalarining texnik ko'rsatgichlari yaxshilandi. Multimediya texnologiyalarining rivojlanishiga videotexnika yo'nalishi, lazer disklar, shuningdek yozish texnikasining hamda tovush va tasvirni hosil qilish texnologiyalarining rivojlanishi katta hissa qo'shdi. Axborotlarni xotirada ixcham (zich) joylash va saqlash maqsadida tez va samarali o'zgartirish usullarini yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Multimediya vositalari bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan turli tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda komp'yuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Ovoz yozish va ovoz tahrirlash vositalari. Ovozli fayllarni kompakt diskka yozish, Multimediya taqdimotlarini tayyorlash, videokonferensiyalarni o'tkazish, o'yinlar o'ynash, audio CD larni eshitish uchun ovoz platasi yoki

audioadapter (audio – bu “ovoz”, adapter esa – manbadagi ma’lumotni komp’yuterga o’tkazuvchi texnik qurilma) deb nomlanuvchi karta zarur bo’ladi. Ushbu tovushni qayta ishlovchi tovush platasi, tovush chiqarish vositasi, akustik tizimlar yoki yakka tinglagichlar hamda audio ma’lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladigan mikrofon, ovozli kompakt-disk proigratellari, ovoz kolonkalari va b. qurilmalarga ulanadi. Tovush platasiga, shuningdek magnitofon, elektr musiqa asboblari kabi audio komplektlar ham ulanishi mumkin.

Video yozish va video tahrirlash vositalari. Video bilan to’laqonli ishlash uchun video ma’lumotni komp’yuterga mos shaklga va asliga qaytaruvchi moslama videokarta zarur. Unga videokamera, videomagnitofon va televizor kabi moslamalar ulanishi mumkin. Aksariat hollarda video elementlarni monitorida ifodalay olish etarli bo’ladi. Shunday masalani hal etish uchun har qanday zamonaviy komp’yuterda mavjud bo’lgan video adapter va monitor etarlidir.

“Virtual borliq” vositalari. Virtual borliqqa kirishning eng oddiy yo’li komp’yuter ekrani hisoblanadi va bu borliqda sichqoncha, klaviatura, djoystik yordamida ishlash mumkin. Bulardan tashqari virtual borliqni yaxshiroq his etish uchun boshqa qurilmalarni ham ishlatish mumkin. Ular: *Turli oynali ko’zoynak*-bu qurilma tasvirni o’ch o’lchamda (hajmli) ko’rishga yordam beradi. Bir muncha murakkabroq ishlaydigan ko’zoynak ham mavjud bo’lib, uning ishlash prinsipi quyidagicha: ekran orqali ko’zoynakning bitta ko’ziga tasvir yuboriladi, ikkinchisi esa qorong’u bo’lib turadi. So’ngra tasvir keyingi ko’zga o’tadi, shu tarzda tasvir ketma-ket ko’rsatiladi va ko’zoynak ekranida o’ch o’lchamli tasvir illyuziyasi hosil bo’ladi.

Virtual borliq shlemi (Head Mounted Display) – o’ylab topilgan virtual borliqni to’liq his etish uchun mo’ljallangan qurilma. Tasvir hajmini ko’rsatish uchun shlem ichida ikkita uncha katta bo’lmagan ekran joylashgan bo’lib, tasvir ham ikkiga bo’linadi va ikkala ko’z uchun alohida tasvir yaratiladi. Ushbu shlem 360 gradus sohadagi barcha tasvirlarni vizual ko’rish imkonini beradi, hattoki bosh burilgan vaqtda mos ravishda tasvir joylashuvi ham o’zgaradi.

Axborotli qo’lqop – virtuallik oshirish maqsadida ishlatiluvchi qo’lqop bo’lib, u yordamida virtual borliqdagi predmetlarni ushlash, surish va harakatga keltirish mumkin.

VR-kostyum-virtual borliqning eng to’liq to’plamli qurilmasi hisoblanadi. Tananing barcha nuqtalaridagi harakatni kuzatib boruvchi ko’pgina magnitli sensorlardan iborat kombinson. Multimediya tizimining dasturiy muhitini ham ikkiga bo’lish mumkin: amaliy va ixtisoslashtirilgan. Amaliy dasturlar foydalanilayotgan yoki loyihalashtirilgan amaliy dasturlar. Ixtisoslashtirilgan dasturlarga Multimediya ilovalarini yaratuvchi dasturiy vositalar kiradi. Bu toifadagi dasturlarga grafik muharrir, videotasvir muharriri, tovushli axborotni xosil qilish va muharrirlash vositalari kiradi. Komp’yuter grafikasi – bu hisoblash tizimlarining dasturiy va apparat vositalari yordamida tasvirlarni hosil qilish va qayta ishlash vositalarini hamda uslublarini o’rganuvchi,

informatikaning sohasidir. Komp'yuter grafikasi tasvirlarni monitor ekranida yoki nusxa sifatida tashqi tashuvchilar (magnit tashuvchilar, qog'oz, kinoplyonka) da namoyish etishning turli ko'rinishlarini va shakllarini qamrab oladi. Komp'yuter grafikasi komp'yuterlar, televizorlar va kinotexnologiyalar asosida yuzaga keladi. Komp'yuter grafikasi 3 xil bo'ladi: rastrli (nuqtali), vektorli fraktal.

Jahon miqyosida nazar soladigan bo'lsak komp'yuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo'llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multfilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan Multimediyali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to'la yoritib bera olmasligi ta'lim sohasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini e'tirof etadi. Lekin elektron darsliklar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo'nalishi bo'lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo'lgan narsalarga qiziqishni oshiradi.

To'g'ri bu sohada ko'p ishlar amalga oshirilgan. Darslarning Multimediya imkoniyatlaridan foydalanib o'tilishi o'qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmlari ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan fil'mlar, animatsiyalar bir tomondan o'qituvchi uchun yangilik bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.

Multimediya texnologiyalarining afzalliklari va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

-turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud (bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli film va roliklarni hamda tovushli axborotlarni);

-sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalashtirish imkoni mavjud;

-grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini hisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;

-tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko'rsatilayotgan axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni kerakli qismini ma'lumot olish hamda tushuntirish uchun kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

-statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish imkoniyati;

-“stop-kadr” (kadrni to'xtatish) ish tartibidan foydalanib videoyozuv lavhasidan foydalanish imkoniyati;

-global Internet tarmog'iga ulanish hamda uning resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjud;

-grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin. YUqorida sanab o'tilgan afzallik va xususiyatlardan tashqari yana ko'pgina imkoniyatlar ham mavjud, jumladan, tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko'rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo'yishlardir.

Multimediya tizimlarini paydo bo'lishi axborot texnologiyalarini rivojlanishiga va ilm-fanda, talimda, savdoda (biznesda) tibbiyotda keng ko'lamda tadbiq etilishiga turtki bo'ldi. Axborot texnologiyalarining Multimediya vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;
- o'zini o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;

- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;

- o'quvchi – ta'lim oluvchilarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, Multimediya vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi. Multimediya-tez rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi.

Video va audio axborotlarni komp'yuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va komp'yuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barobar oshirilishi talab etiladi;-“inson-komp'yuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi;-Multimediya vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayarlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmokda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, Multimediya vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli

bo'lishi bilan birga vaqtdan ham yutish mumkin. Multimediya vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75% ortadi. Bunga Multimediya vositalari asosida o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda yana bir bor ishonch xosil qilindi.

Multimedia vositalarini komp'yuterga o'rnatish. Multimediya vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish kuyidagi afzalliklarga ega:

-berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi;

-ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

-ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

-olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimediya vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni komp'yuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchilar axborot texnologiyalarini Multimediya vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Sifatli Multimediya ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli-tuman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud.

Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha Pedagogik dasturiy vositalar – komp'yuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud.

Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlariga ajratildi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish

mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turl/ tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali amaliy), diqqati (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga shaxsiy komp'yuterlar va ularning tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi. Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operasion tizimlari, telekommunikasiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi. Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiasiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik. Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o'quvchilarning psixofiziologik hususiyatlarini hisobga olish. Pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart.

Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi o'quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O'z navbatida ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatiniing pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o'quvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi. Fiziologik-gigienik sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar komp'yuterda ishlashda bilim oluvchilarning aqliy ish qobiliyati o'zlashtiriladigan ma'lumotlar hajmiga teskari proporsional ravishda o'zgarib borishini e'tirof etadi.

Pedagogik dasturiy vositalarning psixofiziologik jihatdan samaradorligi birinchidan: o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi, tarbiyalanganlik va intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko'rsatkichlari, motivasion barqarorlik darajalari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik texnologiyalari va ta'lim vositalaridan rasional foydalanish ko'rsatkichlari, o'qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivasiyasi, ish qobiliyati bilan belgilanadi.

O'rgatuvchi ko'rgazmali dasturiy vositalar mualliflik dasturiy ta'minotlari yordamida yaratiladi. Ta'lim jarayonida bunday dasturlardan foydalanish yuqori natijalarga olib kelmoqda, sababi auditoriyada uzatiladigan bilimlarga oid axborotlarni qabul qilish va vazifalarni bajarishda o'quvchi bir vaqtning o'zida eshitib, ko'rib, o'zlashtiradi. Mualliflik dasturiy ta'minoti – komp'yuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Mualliflik dasturiy ta'minotlar yordamida elektron darsliklar yaratish juda qulay.

Elektron darsliklar, komp'yuter texnologiyalaridan foydalangan holda eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish hamda yodda saqlashni maksimal darajada yengillashtiradi. Quyida mualliflik dasturiy ta'minotlarining imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Mualliflik dasturlariga misol qilib, Articulate Storyline, Adobe Captivate, CourseLab, iSpringPro, Lectora kabi dasturlarni keltirishimiz mumkin. Articulate Storyline kurslar yaratish uchun mo'ljallangan eng mashhur dasturlardan biri bo'lib, u moslashuvchan, foydalanishda qulay va turli maqsadli kurslar yaratish uchun ishlab chiqilgan. Articulate Storyline – uch utilitli (Presenter, Quizmaker, Engage) paket, o'rgatuvchi kurslarni, taqdimotlar, testlar va kontentning boshqa shakllarini iPadda ko'rish va masofali ta'lim tizimlariga integrallanishi mumkin bo'lgan Flash va HTML5 formatlarda yaratish imkoniyatini beradi. Dastur murakkab

interfaol senariylarni amalga oshirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Endi o'quv kursining murakkab interfaol senariysini yaratish uchun dastur tuzishni yoki flashni qo'llashni bilish shart emas – Storyline buning uchun barcha vositalarni taklif etadi. Ushbu dasturning xususiyati oson o'zlashtirilishida, shuningdek, yaratilayotgan loyihalarning yorqin vizual uslubida: Articulate mahsulotlarida ishlangan roliklar boshqa e-learning muharrirlaridan ko'ra yanada zamonaviyroq va dinamikroq ko'rinadi.

Dastur Microsoft Office 2007ga o'xshash interfeysga ega, ishlab chiquvchilar, foydalanuvchilar, o'rganichlari oson bo'lishi maqsadida tashqi ko'rinishini PowerPointga maksimal o'xshashligini ta'minlangan. Yuqorida buyruqlar to'plamidan iborat klassik Ribbon-panel joylashgan. Barcha turdagi multimediyali kontentlar: Video, flash, ovoz, veb-ob'yektlarni qo'yishni qo'llab-quvvatlaydi. Barcha ko'p tarqalgan Video (flv, avi, wmv, mov, mpeg, dv, 3g) va ovoz (mp3, wma, wav, m4a, aac, aiff, ogg) formatlari importlanadi, bundan tashqari, Internetdagi rolikning HTML-kodini yoki veb-kameradan Video-yozish, ovozni esa mikrofondan yozib qo'yish mumkin.

SWF roliklari ham muammosiz qabul qilinadi, bu esa boshqa multimediya muharrirlarining loyihalari bilan integrasiyalash bo'yicha cheksiz imkoniyatlarni ochadi. Vebsahifalar slaydlarda freymalar ko'rinishida aks etadi. Ulardan foydalanish mumkin va bu ham roliklarni loyihalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Adobe Captivate Microsoft Windows va dasturiy ta'minotni namoyish etish, Videodarslarni yozish, dastur simulyasiyasini yaratish, o'quv taqdimotlarni yaratish va. swf formatda turli testlarni yaratish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan Mac OS X ning 5 versiyalari uchun elektron ta'limda qo'llaniladigan elektron kurslarni yaratish va tahrirlash dasturi. Adobe Captivatedagi generasiyalangan. swf ni. aviga Videoxosting saytlarga konvertasiya qilish imkoniyati mavjud.

Dastur simulyasiyalarini yaratish uchun Captivateda chap va o'ng sichqoncha tugmasini bosish va klavishalarni bosish mumkin. Shuningdek, Adobe Captivateni skrinkastlarni, podkastlarni yaratish va Microsoft PowerPoint taqdimotlarini Adobe Flash formatiga konvertasiya qilish uchun qo'llash mumkin. Captivate yordamida dasturlarning interfaol namoyishlari, simulyasiyalar, yordamchi ma'lumotlar, skrinkastlar, o'yinlar va darslar yaratish va tahrirlash mumkin. Captivateda yaratilgan skrinkastlar ekrandan qilingan yozuvlarga nisbatan ancha kam joy egallaydi. Foydalanuvchilar Captivateda taqdimotlarga effektlar, faol nuqtalar, matnli sohalar, Video va hokazolarni qo'shib tahrirlashlari mumkin. Mualliflar mazmunini va u yoki bu elementni paydo bo'lish vaqtlarini tahrirlashlari mumkin.

“Videolug‘at diktanti”, “Videomatn”, “Videoinsho” dasturlaridan foydalanish. Ta'lim jarayonida nazorat ishlarining “oddiydan murakkabga” tamoyiliga asosan olib borilmasligi, o'quvchilar yozma va og'zaki nutqlarining shakllanishida ayrim muammolarni keltirib chiqaryapti. Aslida o'zbek tili fanidan zamon talablari asosida innovatsion nazorat ish turlaridan unumli foydalanib, quyidagicha tizimlilikni asos qilib olish mumkin edi:

- 1) 5-6-sinflar uchun bayonlar (matnli lavhali bayon...)
- 2) 7-8-sinflar uchun matn yaratish (mikromatn-makromatn-videomatn...)
- 3) 9-10-sinflar uchun insho (rivoya insho-tasviriy insho-muhokama insho...)

4) 11-sinflar uchun videoinsho (insho-videoinsho...)

Biz o'quvchilarda og'zaki va yozma savodxonlik darajasi tushib ketyapdi, deymiz, qayg'uramiz. Biroq, uning yechimini topishga harakat qilmaymiz!

O'zbek tili fani bo'yicha tizimlilik asosida nazorat ish turlarini belgilab chiqish kerak. Zero, nazorat ishlarining tizimiyligi lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning omilidir.

Innovatsion nazorat turlari: "Videolug'at diktanti", "Videomatn", "Videoinsho".

"Videolug'at" diktanti o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. O'quvchilarining dars jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olishlik layoqatlarini shakllantirish.

Shuningdek, diktantni olganimizda ularda tayanch va fanga doir kompetensiyalari shakllanadi.

"Videolug'at" diktantini o'tkazish jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Yangi so'zlar ishtirok etgan tasvirlar tayyorlanadi.
2. O'quvchilar yoshini va bilimini inobatga olgan holda diktantning vaqti belgilab olinadi.
3. Kadrlar oralig'idagi vaqt bir xil taqsimlanib, "Power direktor" dasturi yordamida rolik tayyorlanadi.
4. Tayyorlangan rolik o'quvchilarga havola etiladi.
5. O'qituvchi har bir tasvirning nomini kamera ortidan o'qib turadi
6. O'quvchi ko'rgan va eshitgan narsa-buyumlarning nomini daftarlariga yozadilar.
7. O'quvchi diktantni yozib bo'lgach, ekranda berilgan javoblar yordamida o'z xatolarini tekshiradi.

(Ushbu metodni o'qituvchi sinfning bilim darajasi va qiziqishlariga qarab o'zgartirishi mumkin)

Masalan, 2-sinfda "Mevalar" mavzusini o'tishda mazkur usuldan quyidagicha foydalanish mumkin:

Videorolikda turli mevalarning tasviri ekran orqali ko'rsatiladi. O'quvchi ko'rgan hayvonning nomini daftariga yozadi va berilgan javoblar yordamida yozgan diktantini o'zi tekshirib xatolarini topadi.

So'ngra o'qituvchi yordamida so'zni rus va o'rganayotgan boshqa xorijiy tilga tarjima qiladi. Bu usul orqali o'qituvchi darsni boshqa fanlar bilan bog'laydi.



OLMA-YABLOKO-APELE

Insho yozish tajribasi. Keling, o‘quvchilar bilimida aniqlanayotgan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida yozma ishlarning muhim va sinalgan tur/ insho yozish tajribasini amalda kengroq tadbiq etish bo‘yicha fikrlashamiz.

Insho so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, “paydo qilish”, “yaratmoq”, “ijod”, “yuzaga keltirish”, “yozuv”, “sochma asar”, “xat” singari ma’nolarni bildiradi.

Insho, bu – o‘quvchilarning tabiiy monologik nutqining yanada mukammal bo‘lishiga, nutqiy faoliyati tajribasining boyitilishiga qaratilgan mashq turi hisoblanadi. Bu mashqni yirik hajmli, bog‘lanishli murakkab matn deb olishimiz mumkin.

Matn – mazmun, uslub va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan va aniq ketma-ketlikda joylashgan gaplar qatoridan tuzilgan tugallangan asar. Matndagi gaplar zanjir kabi bir biri bilan bog‘lanib kelishi yoki muqobil bo‘lishi mumkin. Matn qurilishi yozma nutqning turiga bog‘liq bo‘ladi.

Tasviriy insholarda narsa va hodisalar, shaxslarga xos belgilar, ularning boshqalardan farqlari ko‘rsatiladi taqqoslanadi. Shuningdek, unda oddiy tasvir elementlaridan ham unumli foydalaniladi. Shaxslar va manzaralar ko‘z oldiga keltirib, ularning timsollari gavdalantiriladi.

Tasviriy insholar o‘quvchining fikrini o‘stiradi ulardagi kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va tafakkur olamini kengaytiradi.

Narsani tasvirlashning rasmiy va badiiy turlari bor. Rasmiy tasvirda belgilangan, aniq tartib bo‘yicha asosiy mavjud sifatlarini ko‘rsatish talab etiladi. Bunday tasvirda shaxsiy hissiyot va tasavvurlar bo‘lmasligi kerak. Badiiy tasvirda esa timsolli tasavvur beriladi. Unda o‘quvchining idrok qilishi, mustaqil fikrlari va qalbida gavdalangan kechinmalari tasvirlanadi.

O‘quvchilar uchun insholarning eng sevimli turlaridan biri jonivorni tasvirlashdir. Jonivorni tasvirlashda bayon va rivoya unsurlari ham uchrashi tabiiy. Chunki, jonivorni tasvirlash jarayonida uning qiliqlarini, u bilan bog‘liq qiziq sarguzashtlarni hikoya qiladi. Bunday insholarda jonivorning hayotida ro‘y bergan biror voqeani emas, balki ularning tashqi ko‘rinishi yoki xarakteriga xos eng muhim jihatlarni ko‘rsata bilish lozim.

Muhokama insho uchun hayotda sodir bo‘lgan ba’zibahslar va munozaralar mazmun vazifasini o‘taydi. Muhokama inshoda o‘quvchidan o‘z mustaqil fikrini asoslab berishi, mantiqqa jiddiy e’tibor berishi, va muhokamada faol ishtirok etishi talab qilinadi. Masalan: “Vatanim uchun nima qila oldim?!”,

“Internet-yovuz kuchmi?”, “Muhabbat qanday tuyg‘u?” kabi mavzular bahs uyushtirish mumkin.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakat oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun yoshlarimiz mavzuni anglab mohiyatiga etishdan ko‘ra, savollarni yod olish afzal bilishdi. Natijada yoshlarimizning og‘zaki va yozma nutqining shakllanishida jiddiy muammolar vujudga keldi. Ularning yozma savodxonligi va nutqiy ko‘nikmalari susayib, oddiy bitta jumlaning ham talab me’yorlarida to‘g‘ri gapirish va yozishni bilmay qoldilar.

O‘quvchini o‘zi yaxshi bilgan, ko‘p o‘ylagan narsasi haqida insho yozishga o‘rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo‘q. Bu esa bolani haqiqiy ko‘chirmakashlikka etaklaydigan yo‘ldir. O‘quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta-uyg‘oq qalbni tarbiyalash, vatanga, ota-o‘zbek va yaqinlariga nisbatan muhabbatni shakllantirish hamda tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, insonlarga va jonzodlarga nisbatan mehru oqibatini hamda kuchli qiziqishini uyg‘otish darkor. Bolani o‘zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko‘rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan mag‘qul.

Insho – tafakkur mahsuli. O‘quvchilarning yozma ishlarini tashkil etishdan oldin, ularning inshoni yoza olish kompetentligini aniqlash lozim. Buning uchun dars jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining to‘g‘ri shakllanganligini aniqlash kerak. Chunki insho yozish vaqtida o‘quvchi oldindan egallagan bilimni hayotda qo‘llay olish (amaliy va nazariy holatlarda) layoqatini ko‘rsatadi. O‘quvchi insho yozganida uning kompetensiyasi (layoqati) shakllanganlik darajasi aniqlanadi va baholanadi. Xatolar ustida ishlanganda qo‘shimcha ma’lumotlar berib ularning bo‘shliqlari to‘ldirilib boriladi. Shu tariqa o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, sog‘lom ma’naviy tushunchalari shakllantiriladi.

Bugungi kun o‘quvchisi nanotexnologiyalar asrida yashamoqda. Shuning uchun biz odatlanib qolgan insho yozdirish usuli endi o‘quvchi uchun biroz zerikarli tuyuladi. Natijada u tezkor va ommabop axborot manbai – internetdan tayyor matnning ko‘chirib qo‘ya qoladi.

“Videomatn” va “Videoinsho”. Biz taklif etayotgan “Videoinsho” va “Videomatn” nazorat turlari o‘quvchining ehtiyojiga asosan, do‘sti bo‘lmish “Internet” bilan hamkorlikda ishlashini ta’minlaydi. Mazkur nazorat turlari 2011-yildan beri turli bosqich o‘quvchilari orasida sinovdan o‘tkazib ko‘rildi va o‘quvchilar o‘rtasida katta qiziqishga sabab bo‘ldi.

Bu nazorat turini qo‘llashdan asosiy maqsad – o‘quvchining zamonaviy texnologik vositalar yordamida o‘z ijodkorligini mustaqil ravishda namoyon etishga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini hamda tayanch, fanga doir kompetensiyalarini shakllantirish.

“Videoinsho” va “Videomatn” tasviriy inshoning bir turi deb hisoblash mumkin. “Videoinsho” va “Videomatn”ning boshqa insholardan farqi shundaki, insho yozish jarayonida muallifning yozma nutqi bilan birgalikda og‘zaki nutqi

ham shakllanadi. Bunda insho muallifi o'zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyoqarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan lavhalar hamda unga ohangdosh tarzda jaranglovchi musiqadan foydalanadi.

Insho o'quvchining shaxsiy nutqiy va lingvistik malakasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ikki yo'nalishdagi ishni: nutqiy faoliyatni takomillashtirish hamda nutqiy ko'nikmalarning har birini shakllantirishni o'zida mujassamlashtirgan ijodiy ishlarning bir ko'rinishi sanaladi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

1. Mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
2. O'quvchining yoshiga, dunyoqarashiga mos mavzular tanlay olish
3. Videoinsho hajmini hisobga olish.
4. Mavzuni to'laqonli yoritish uchun bir emas, bir necha manbalar (ommaviy axborot vositalari, badiiy kitoblar, internet va h. k.) ga murojaat qilishni o'rgatish.

5. Mavzuni bugungi kun bilan bog'lay olish ko'nikmasini shakllantirish.

6. Videoinsho yaratish jarayonida mavzuga, ovozga mos musiqa, lavha tanlay olish malakalarini shakllantirish.

7. Savodxonlik me'yorlariga qat'iy amal qilishni nazorat qilish.

“Videoinsho”ni yaratishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- 1) insho yoziladi;
- 2) o'qituvchi tomonidan tekshirilgan insho muallif tomonidan o'qib, ovozi kompyuter yoki telefon diktofoniga yoziladi;
- 3) insho mazmuniga mos kuy tanlanadi;
- 4) insho mazmuniga xos video lavhalar tayyorlanadi;
- 5) “Ulead Video Studio”, “Corel VideoStudio”, “CyberLink PowerDirector”, “Movavi Video Suite”, “Adobe Premiere Pro”, “Pinnacle Studio” dasturlari yordamida ularni (ovoz, matn, rasm, kuy va video lavhalar) birlashtirib videoinsho hosil qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirishning o'ziga xos hususiyatlarini bilasizmi?

2. Ona tili darslari bo'yicha nazorat shakllari va uni tahlil etish uchun nimalar qilish lozim?

3. Ona tilida to'g'ri yozish, o'qish, eshitish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirish kompetensiyaviy yondashuvlar haqida fikr bildiring.

4. DTSda o'quvchilarning gapirish va eshitish ko'nikmasiga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?

5. Samarali yozishga o'rgatish jarayonlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. O'quvchilarda intervyu, bahs, muvaffaqiyatli munozara, gapirish va taqdimot qilish ko'nikmalarini shakllantirishni qanday o'rgatish mumkin deb o'ylaysiz?

7. Og‘zaki va yozma nazoratda elektron vositalardan qanday foydalanish mumkin?

8. Sharada she‘riy jumbog‘ini yechishda nilarga e‘tibor qaratiladi?

9. Vidioinsho yaratish jarayonida diqqatni nimalarga qaratish kerak?

Tayanch so‘z va iboralar:

Kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetentlilik, tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar, nutqiy kompetensiya, tinglab tushunish kompetensiyasi, gapirish kompetensiyasi, yozish kompetensiyasi, lingvistik kompetensiya, grafika va orfografiya, metod, metodika, metodologiya, “O‘qib ko‘r-chi”, “Davom ettir”, “Sirli so‘z”, “O‘yin-topishmoq”, “Pantamimo” o‘yinlari, “So‘z o‘yini”, “Jonli hikoya”, “Krossvord”, “Rebus”, “Klaster”, “Sindikot” metodlari, yangi DTS, o‘qish, fikrni og‘zaki bayon qilish, fikrni yozma shaklda bayon qilish, “Jonli muloqot” metodi, “Muammoli vaziyat” metodi, “Bahs-munozara”, “Intervyu” mashg‘uloti, “Tasavvur olami”, “Rezyume” texnologiyasi, “Labirint” texnologiyasi, FSMU texnologiyasi, “Skarabey” texnologiyasi, “Sharada” she‘riy jumbog‘i, “Pazl” o‘yinlar, boshqotirmalar, elektron darslik, multimedia texnologiyalari, “virtual borliq” vositalari, virtual borliq shlemi, axborotli qo‘lqop, VR-kostyum, “videolug‘at diktanti”, “videomatn”. “videoinsho”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.

2. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

3. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.

4. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil.

5. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

6. To‘xtaxo‘jayeva M. “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2010.

7. Uralov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent -2021.

8. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPURizografi, 2014.

9. Ziyodova T.U. “Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish”. O‘quv-metodik qo‘llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.

10. Supiyeva Buxolidaning fikr va g‘oyalari

Elektron ta’lim resurslari

11. www. ziyo.uz – Ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi materiallar sayti

12. www. ziyonet. uz – Ijtimoiy axborot ta’lim portali

13. www.edunet.uz– maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti
14. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o‘rta dasturlarini rivojlantirish markazi
15. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali
16. www.natib.uz– Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti

DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI. ONA TILI O‘QUV XONASINI JIHOZLASH VA DARS METODLARI

Ko‘riladigan masalalar:

1. *Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlari.*
2. *Ona tili o‘quv xonasini jihozlash uchun zaruriy shart sharoitlar va ularga qo‘yiladigan talablar. Dars metodlari.*

30 §. Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlari

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish borasida o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: imlo qoidalarini ongli o‘zlashtirish, ijodiylik, fikrni aniq, lo‘nda, qisqa va tushunarli bayon etish. O‘quvchi yozma savodxonligini oshirish maqsadida taqvim-mavzu ish rejasida ko‘rsatilgan muddatlarda insho, bayon hamda diktant kabi yozma ish turlarini muntazam o‘tkazib borish belgilangan. Yozma ish turi o‘quvchi bosqichma-bosqich o‘zlashtirgan imlo qoidalariga mos ravishda tanlanishi, o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchi o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilmog‘i, o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlarini qay darajada amalda qo‘llay olishini aniqlashga yo‘naltirilmog‘i kerak. Taqvim-mavzu ish rejasiga asosan yozma ish turlarini o‘z vaqtida o‘tkazish mumkin, ammo uning natijasi qanday bo‘lishiga ko‘ra tadbirlar ishlab chiqilmog‘i – bosh masala. Aslida, o‘quvchining savodxonlik darajasi saboq berayotgan o‘qituvchiga hali nazorat ishlari boshlanmasdan avval aniq bo‘ladi. Chunki ko‘pi bilan uch dars oralig‘ida o‘quvchi aylanma daftarlarini tekshirish sinchkov murabbiyga bu imkoniyatni beradi. Shu o‘rinda nafaqat til sohasidagi, balki uyga yozma vazifa beriladigan matematika darslarida ham aylanma daftarlarning muntazam tekshirilishi har bir o‘quvchi bilan individual ishlashning debochasi va bajarmaslik mumkin bo‘lmagan zaruriy tashhis ekanini aytib o‘tmoq joiz. Agar ushbu ishni nimagadir qiyoslash joiz bo‘lsa, o‘qituvchilik faoliyatining asosi, yuklamasining teng yarmi sifatida baholash o‘rinlidir. Aylanma daftarlarni tekshirish kundalik odatiy mashg‘ulot sifatida bir stavka dars egasidan har kunda kamida ikki, nazorat o‘tkazilgan kundan keyin nazorat turiga qarab uch-to‘rt, ba‘zan besh-olti soat vaqt talab etadi. Aylanma daftarlar tekshuruvi o‘quvchi savodxonligini aniqlashdan tashqari, savod

o'rgatish borasida ham bemisli ahamiyatga ega. To'g'ri tekshirilgan so'z, jumla yoki gap imlo me'yorlari borasidagi amaliy muloqot tarzida o'quvchi esida oson qoladi va keyingi amaliyotda mayoq vazifasini o'taydi.

Sinfda va uyda bajarilgan matn yaratishga oid topshiriqlarni har bir o'quvchi kesimida nuqta, verguligacha e'tibor bilan tekshirish o'qituvchiga muayyan o'quvchining yutuqlari va bo'shliqlarini aniqlash, keyingi darslarda ularga munosabat bildirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning yozma savodxonligi DTS talablaridan past darajada bo'lsa, o'qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo'shimchalar kiritishi yoki o'quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo'shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. Faqat bu darslar internetda "To'garak ish rejasini" deya taqdim etilayotgan ona tilidan taqvim-mavzu ish rejasining chala nusxasi shaklida emas, balki o'quvchilar real bilim, malaka, ko'nikmalarining tashhisiga asoslangan, maqsadli belgilangan mavzularga oid saboqlar bo'lmog'i kerak. Aytaylik, savodxonlik asosida qisqa lug'at, noto'g'ri diktant ("Ma'rifat" gazetasi, 2013-yil 12-oktabr) lar, o'quvchilar uchun matn yaratishga oid uyga berilgan vazifalar yoki ijodiy yozma ishlarida yo'l qo'ygan uslubiy xatoliklarni bartaraf etish, punktuatsion va imlo qoidalarini bandlar bo'yicha mavzulashtirib o'rgatish (albatta, mashg'ulotni ko'p bilim yuklamasi bilan "boyitmaslik", shundog'am o'z tengqurlaridan ortda qolayotgan o'quvchini kompleks bilimlar bilan zada qilmasdan, unga zaruriy, esda qoladigan, ortda qolayotgan o'quvchi ko'taradigan bilimlarni singdirish va saboqdan keyinroq amaliyotda qo'llashi mumkin bo'lgan ko'nikma va malakani shakllantirish) ga qaratilmog'i lozim. O'quvchi dasturda belgilangan DTS talablarini hamma vaqt ham risoladagiday uddalay olmasligi mumkin. Buning bosh sababi, o'quvchilarning quyi sinflarda yoki oldingi mavzularda o'rganishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliq yuzaga kelganidir. Bu bo'shliq barcha uchun bir xil – standart bo'lmaganidan bu masalaga har bir o'qituvchi individual – ijodiy yondashishiga to'g'ri keladi. Odatda, yuqori sinf o'qituvchilarning boshlang'ichdan qabul qilib olgan o'quvchilari karra jadvalini bilmasligi yoki o'qish tezligi minimum talabga javob bermasligi haqidagi shikoyatlarini ko'p eshitamiz. Bu sifatsiz saboq "meva"larini tengqurlari darajasiga yetkazish deyarli imkonsiz, chunki yuqori sinf o'qituvchisining bunday o'quvchi bilan karra jadvali yoki o'qish tezligi borasida shug'ullanishdan ham ko'ra muhimroq muammolari yetarli bo'ladi. Shu bois ham bugungi maktab bitiruvchilarning anchaginasini savodi "g'ovlaganlar" safida bosh egib turadi. Bejiz qozoq xalqining ulug' ijodkori Abay: "Ishning omadi – o'z vaqti", demagan.

O'qituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarini ham e'tibor bilan o'rganib chiqmog'i, har bir o'quvchi yo'l qo'ygan xatolarni belgilab olmog'i va ular asosida guruhlangan xatolar ro'yxatini tuzmog'i, umumiy xato va kamchiliklarni frontal ko'rishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

Aytaylik, undalma va kirish so'zlar mavzusi o'tilgan darsdan keyin undalma va kirish so'zlar ishtirok etgan matn tanlanishi va ushbu matn bo'yicha

diktant olinishi mumkin. Avvalambor, dars o'tish jarayonida undalma va kirish so'zlar mavzusi puxta o'rgatilishi, undalmalarda undash faqat shaxslarga emas, balki narsa-hodisalarga nisbatan ham qaratilishi mumkinligini; kirish so'zlarning barcha ifodalagan modal ma'nolari, ularning sof va vazifadoshligini darslik hamda qo'shimcha misollar orqali fahmlashga – ongli idrok etishga rag'batlantirish zarur. Bugun, shubhasiz, yomg'ir yog'adi. Bugun yomg'ir yog'ishi shubhasiz gaplarida kirish so'zning vazifadosh va mustaqil so'z sifatidagi ko'rinishlari keltirilgan. Ushbu gaplar tarkibidagi qaysi bir shubhasiz so'zi kirish so'z, qaysi biri mustaqil so'z ekanligiga o'quvchining fahmi yetmas ekan, u bu so'zlarning imlosida xatoliklarga yo'l qo'yishi muqarrar. Demak, o'quvchining yozma savodxonligiga tamal toshi yozma ishlar yozish jarayonida emas, balki imlo qoidalariga oid mavzularni o'rgatish jarayonida qo'yiladi. Yozma ish bir necha bosqichni qamrab oladi. Shunga ko'ra diktant, bayon, insho kabi yozma ishlardan har birining bir qancha turi mavjudki, ulardan maqsadli foydalanishgina ko'zlangan samarani beradi. Diktant nisbatan mo'tadil yozma ish turi sanaladi. Uni a'lo bahoga yozish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Yozma ishning bu turida o'quvchining erkin fikrlashiga zarurat sezilmaydi, chunki tayyor matn aytib turiladi va o'quvchi yozaveradi. Shu o'rinda hatto diktovka (o'qib yozdirish) talablarini barcha o'qituvchilar ham bilmasligi haqida aytmoqchimiz. Diktovka jarayonida yuqori sinf o'quvchilariga bo'g'inlab, quyi sinf o'quvchilariga so'z yoki jumla ta'kidlab o'qilayotgan, noto'g'ri talaffuz qilinayotgan, noto'g'ri to'xtam holatlariga duch kelyapmiz. Ba'zan o'quvchining faqat o'z o'qituvchisi diktovkasiga ko'nikma hosil qilganini ko'ramiz. Bilimlar bellashuvlarida notanish o'qituvchining diktovkasi o'quvchilarni esankiratib qo'ygan holatlar kuzatilmoqda. Diktantning o'ziga xos sharti o'z lug'aviy ma'nosidagi diktovka – aytib turib yozdirish degan tushunchadan ko'ra muhimroqdir. Diktant – bu eshitganinigina yozish emas, balki aytilayotgan so'zning ongda, shuurda muhrlangan suratini nusxalash. Shuning uchun ham aytib turish – diktovka qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchining to'g'ri yoza olishiga erishish bosh masaladir. O'quvchi aql, fahm kabi bir bo'g'inli so'zlarda qator kelgan undoshlar orasida qisqa i unlisi eshitilsa-da, yozilmasligini; zidlov, sabab va aniqlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yilishini ongli idrok etmasa, bahosi “yaxshi” yoki “a'lo” bo'lishidan umidvor bo'lmaslik kerak. Demak, diktant uchun ham faqat diktant yozayotgan paytni muhim deb belgilamaslik zarur.

Shu o'rinda o'quvchi savodxonligini oshirishda eng muhim manba sanalgan diktant va bayonlar to'plamlari, yuqori tashkilotlardan nazorat yo'rig'ida kelayotgan yo'riqnomalar savodxonligi xususida ikki og'iz gapirish o'rinlidir. Amaldagi diktant va bayonlar to'plamlaridan ehtiyot bo'lib foydalanish lozim, chunki biror matn yo'qki, uni imloviy, punktuatsion yoki uslubiy tuzatishlardan birisiz foydalanib bo'lsa. Bu xulosalarimizga atayin misollar keltirmaymiz, chunki bu xatoliklarni na mualliflar, na nashriyot bo'yniga oladi. Bundan tashqari, ulardan foydalanayotgan salgina savodi bor mutaxassis, bu iddaoga isbot qidirish zaruratini sezmaydi. Qissadan hissa shuki,

RTM yangi (2022-2023) o‘quv yiligacha sinflar va mavzular kesimida ko‘p (kamida uch) variantlilik asosidagi mavzuviy materiallardan iborat mukammal diktant va bayonlar to‘plamlari nashri xususida amaliy ish qilmog‘i lozim. Ammo bu masala shu darajada imkonsizki, hech kimning mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga yuragi betlamaydi, chunki: birinchidan, imlo qoidalari mavjud, ammo unga har kimning munosabati har xil; ikkinchidan, lotin yozuviga asoslangan tinish belgilari qoidalari xalq muhokamasidan o‘tgan holda ishlab chiqilmagan. Demak, mukammal diktant va bayonlar to‘plamlarini yaratishdan oldin imlo hamda tinish belgilariga oid qoidalarda bir to‘xtamga kelib olish zarur. Bu masala hal qilinmas ekan, ona tili ta’limi haqidagi hamma gaplar safsata, “quloqqa nimadir ilish”dan boshqa narsa emas. Masala dolzarbligi anglanib, yechim topilganida esa bu qoidalarga asosan bajarilishi zarur ishlarning strategik ko‘lami muammosi yuzaga keladi. Buni o‘ylab aqlingiz shoshadi, kelajak avlod foydalanishi shart bo‘lgan Besutun tog‘idan kam bo‘lmagan nashr manbalari tartiboti, takror foydalanish mumkin bo‘lgan kino va multiplikatsion filmlarning qayta dublyaji... Aytaversak, dard ko‘p. Bundan tashqari, ta’lim samaradorligini tezkor oshirish maqsadida diktantning - elektron variantlarini qo‘llash amaliyoti kechiqmoqda. Aslida, hali hech kim bu masalada bosh qotirib ko‘rgani ham yo‘q, kimningdir shu boradagi loyihalari bo‘lsa, biz undan xabar topgan bo‘lar edik. Ushbu maqola guvohligida, ya’ni bu haqda birinchi bo‘lib so‘z ochayotganimiz bois loyihaga da’vogarlik qilmoqchi ham emasmiz. Bu loyiha kim tomonidan amalga oshirilishi bosh masala emas, muhimi, to‘g‘ri yo‘lga qadam qo‘yishdir. Ammo biz elektron darslik yaratishda “kuchli”, “zo‘r”, malakali dasturchilar yordamiga muhtojmiz, ona tilidan elektron darslik deb taqdim etilayotgan loyihalarning talabga javob bermaganligi bois mukammal, nafaqat maktab o‘quvchilari foydalanadigan, balki jahon xalqlari vakillarining o‘zbek tilini o‘rganishlari imkonini beradigan universal elektron darslik yaratish loyihasi uchun dasturchi xizmatiga muhtojligimizni bildiramiz. Kimda bu masalada hamkorlik qilish istagi paydo bo‘lsa, “Ma’rifat” gazetasi tahririyatiga murojaat etishi mumkin. Mabodo, bu ishni ham kimdir bizdan avval uddalasa, aslo ranjimagan, qaytaga xursand bo‘lgan bo‘lar edik. Har bir muassasa faoliyati asosini ifodalovchi yo‘riqlar, tamoyillar, vazifalar haqidagi muhim ma’lumotlar, shiorlar, e’lonlardagi xatoliklar uchun kimdir javobgar. Maktablarda bu ish mas‘uliyati ona tili o‘qituvchilari zimmasiga yuklatilgan, ammo qadamimiz yetgan maktablarning birontasida quvonarli holatning guvohi bo‘lmadik.

Yuqori tashkilotlardan keladigan yo‘riqnomalarning ayrimlari quyi bo‘g‘indan talab etilayotgan savodxonlik sifatiga ega emasligi kishini o‘ylantiradi.

O‘quvchi savodxonlikning ma’lum bosqichini o‘tagandan keyin diktantga nisbatan murakkabroq bo‘lgan bayon yozishga o‘rgatiladi. Bayon diktantdan o‘z ijodiyliги bilan farqlanadi. Unda o‘quvchining ijodkorligi matnni tinglash jarayonida ko‘z oldiga keltirgan, eslab qolgan manzara, holat, voqealar rivojini tasavvurida tiklagani holda individuallashtirishi – o‘z tilida o‘ziga xos ifoda

tanlashida namoyon bo'ladi. Ona tili ta'limining samaradorligi ta'lim prinsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq.

Metod (yunoncha) – muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari majmui.

Metod tushunchasining falsafiy ma'nosi hodisalarni kuzatish va ularni ilmiy jihatdan tasnif qilish bo'lsa, uning didaktika o'rganadigan tomoni talabani bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo'llash demakdir.

Til materiallarini o'zlashtirishda ona tili metodikasining eng muhim talablaridan biri til sathlarining alohida-alohida emas, balki o'zaro uyg'unlikda, yaxlitlikda o'rganilishidir. Buning uchun leksikologiya (so'zshunoslik) har bir til sathining tarkibiy qismiga aylanishi, ya'ni fonetika, morfologiya, so'z tarkibi hatto sintaksisni o'rganishda ham so'z boyligini oshiruvchi o'quv-topshiriqlaridan foydalanishning bag'oyat maxsuldorligi, dts talablarida qayd etilgan kommunikativ savodxonlikning, nutqiy salohiyatning shakllanuviga olib kelishi, zamonaviy til o'qitish metodikasida tan olingan interfaol metodlardan kam emasligi barchaga ma'lum.

Shu bilan birga ona tilidan talaba lug'atining boyib borishida yana bir ulkan xazina – uzluksiz ta'lim muassasalarida o'rganiladigan boshqa o'quv fanlarining ham ulkan hissasi borki, buni ba'zan oliy toifali, ilg'or ona tili o'qituvchilarimiz ham to'liq anglab yetishlari mushkul. chunki ular dastur va darslik talabini bajarish, nazorat va tashkiliy ishlar bilan nihoyatda band bo'lib, boshqa fanlar bilan qiziqshga vaqt topa olmasligi hammamizga ma'lum. Vaholanki, lug'at zaxirasini boyitish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matnlar yaratishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish – ulkan muvaffaqiyatlar xazinasiniga, bitmas-tuganmas terminologik manbalarga egalik qilish demak.

Til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish – kommunikativ savodxonlik garovi.

Ona tili materiallarini o'zaro bog'lab o'rganish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga til hodisalari mohiyatini chuqurroq o'rganishga, nutqda so'zni me'yorida va o'rnida ishlatish ko'nikmalarini mustahkamlashga ijobiy ta'sir etadi.

Ona tili o'qitishda oldingi o'rganilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil qoida, ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi.

Ona tilining izchil kursida fonetika, leksikologiya, morfologiya o'zaro bog'liq holda bir yaxlitlikni tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilganlarga suyangan holda so'zning umumiy tahlilini o'tkazish, o'quvchini so'z ustida ishlash bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari

darajasini aniqlashga, mustaqil, ijodiy fikrlashga, ixcham, lo'nda va aniq xulosa chiqarishga, har bir tovush va so'zdan unumli foydalanishga o'rgatadi.

31 §. Ona tili o'quv xonasini jihozlash uchun zaruriy shart sharoitlar va ularga qo'yiladigan talablar. Dars metodlari

Pedagogik jarayonga tayyorlanish mashg'ulotni to'g'ri rejalashtirishni talab qiladi. Buning uchun vaqtni, o'quvchilarning kuchini va tayyorligini hisobga olish lozim va ularga asoslanib, butun dastur materiallarini taqsimlash kerak. Ikkinchi tomondan, pedagogik jarayonni tashkil qilish uchun reja bajarila oladigan qilib, ya'ni real ravishda tuzilishi lozim, buning uchun moddiy bir bazaga suyanish lozim, ya'ni o'quvchilar maxsus jihozlangan bino ham kitoblar, o'quv qo'llanmalari va boshqa narsalar bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, sinfdagi darsni va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni amalga oshirmoq uchun rejalashtirish va jihozlash muhim rol o'ynaydi.

Dars mashg'ulot rejasi to'rt asosiy shaklga egadir: 1) yillik kalendar reja; 2) chorak bo'yicha reja; 3) tematik reja 4) ayrim dars rejasi.

O'quv yili boshlanmasdan oldin yillik kalendar reja tuziladi. Butun bir yillik ishni to'g'ri rejalashtirish va uni to'g'ri tashkil qilish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

1) To'rt chorak bo'yicha adabiy materialni to'g'ri taqsimlash.

2) Shu adabiy materiallarga doir bo'lgan asosiy adabiy-nazariy masalalarni taqsimlash.

3) Muayyan bir asarni o'rganishga bog'lab nutq o'stirish turlari. Har qaysi chorak bo'yicha sinf va uy insholarining soni.

4) Choraklar bo'yicha sinfdan tashqari qilinadigan ishlar mazmuni.

5) O'qituvchining ilmiy-metodik va jamoat ishlari. Bunda har bir chorak bo'yicha va yil oxirida takrorlashga sarf bo'ladigan vaqtni ham hisobga olish kerak.

Yillik rejaga asoslanib yarim yillik yoki chorak rejasi tuziladi. 5–8-sinflar uchun chorak rejasi, 9–11-sinflar uchun yarim yillik reja tuzish maqbuldir.

Chorak rejada qilinadigan ishlarning mazmuni aniq, hamma tafsilotlari bilan ko'rsatiladi. Unda yozma ishlarning mavzusi, uni o'tkazish va tahlil qilish uchun ajratilgan soatlar; adabiyot nazariyasidan beriladigan bilim va uni sistemalashtirish, o'quvchilarning dokladlari uchun ajratilgan muddatlar; sinfdan tashqari ishlarning mazmuni: zskursiya, muzey va teatrlarga borish, to'garakda ko'riladigan ishlar mazmuni to'liq ko'rsatiladi. Choraklik rejada o'qituvchining qanday ilmiy-metodik va jamoat ishi olib borayotgani ham ko'rsatib o'tiladi.

Yirik asar yoki yozuvchining ijodini o'rganish oldidan tematik reja tuziladi, tematik reja materiallari har bir dars bo'yicha taqsimlanadi. Unda ish usullari, ko'rgazmali qurollar, adabiyotlar (sahifalari bilan) aniq ko'rsatiladi. Tematik reja asosida kundalik dars rejasi tuziladi. Dars rejai quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: a) uy vazifasini so'rash, b) yangi materialni bayon qilish, v) bilimni mustahkamlash, g) uyga vazifa topshirish.

O'quv qurollari. Adabiyot darslarini rejalashtirish o'quv qurollari masalasi bilan uzviy bog'lanadi.

Rejalashtirish bilan jihozlashning bir-biriga bog'liqligi. Pedagogik jarayonning hamma tomonlarini o'z ichiga olgan, eng yaxshi metod va usullarga asoslangan ajoyib bir reja tuzish mumkin. Lekin bu reja real bo'lmasa, maktab sharoitini hisobga olmay tuzilgan bo'lsa, bu rejaning unchalik ahamiyati bo'lmaydi.

Faraz qilaylik, kutubxonada hamma o'quvchilarga yetarli kitob yo'q, kitob o'quvchilarning uylarida ham yo'q. Asarni yolg'iz sinfda o'qishga to'g'ri keladi. Endi bir asar 3–4 soatda emas, 8–9 soatda o'tiladi. Sinfdan tashqari o'qish rejasi esa o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Ana shu axvolda tuzilgan reja ham real xarakterga ega bo'lmaydi. O'qituvchi real harakterga ega bo'lgan reja tuzishi uchun qanday asarlarning adabiyotga kirganligini, qanday asarlarning ayrim nashr qilinganini, adabiyotning, ayrim nashr qilingan asarlarning sonini, o'quvchilarni zarur bo'lgan materiallar bilan ta'minlash imkoniyati bor-yo'qligini hisobga olishi lozim. Mana shu masalalar hal qilingandan so'ng, real harakterga ega bo'lgan reja tuzish mumkin.

O'quv qurollarining turlari. O'quvchilar uchun o'quv qurollari to'rt asosiy guruhga bo'linadi:

1) Adabiy-badiiy matnlar. 2) Darsliklar. 3) Adabiy-tanqidiy va tarixiy-adabiy materiallar. 4) Ko'rgazmali qurollar.

Adabiy-badiiy matnlar. O'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi umuman, maktab sharoitiga moslab yozilgan asarlar va to'plamlar uch xil bo'lishi mumkin: 1) Bolalar uchun alohida nashr etilgan asarlar. 2) To'plamlar. 3) Adabiyotlar.

Ayrim asarlardan olingan parchalar o'qish-o'qitish ishlarini yuksaltirish, yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, o'quvchilarning ma'lumotini oshirish, ularni kutubxonlikka o'rgatish uchun yordam beradi. Bunday o'quv qurollarida tushunilmagan so'zlarning lug'ati va boshqa izohlar beriladi, ba'zan esa yozuvchining ijodiga ham xarakteristika beriladi. Adabiy asarlarni bu xilda ayrim nashr qilish, shubhasiz, o'quvchilarga katta yordam beradi.

Agar maktab kutubxonasida adabiyot dasturiga kirgan asarlar ko'plab topilsa va ular o'quvchilarning qo'lida bo'lsa, bu asarlarni o'quvchilar mustaqil ravishda o'qiy boshlasalar, o'qish-o'qitish ishlari ancha muvaffaqiyatli o'tadi.

O'quvchilar uchun alohida nashr qilingan adabiy asarlardan tashqari, ayrim to'plamlar ham zarur. O'zbek shoirlarining so'nggi yillarda nashr qilinayotgan kichik to'plamlari o'quvchilar uchun ham munosibdir.

Adabiy materiallarning uchinchi xili bo'lgan maktab adabiyotlarida adabiy asarlar to'liq ravishda beriladi yoki o'quvchilarning yoshiga moslab turib shu asardan parchalar, yoki shu asar qisqartirilgan shaklda beriladi. Adabiyot asarni tahlil etish uchun eng qulay qo'llanmadir. Adabiyotdagi bir asarni o'rgangan vaqtda ikkinchi bir asar bilan (o'qib o'tilgan asar bilan) taqqoslash mumkin, bu sohada adabiyot anchagina qulayliklar tug'diradi. Adabiy matnlar

bilan bir qatorda o'quvchilarga mustahkam va muntazam bilim berishda darsliklar ham muhim ahamiyatga egadir.

Tanqidiy va tarixiy-adabiy materiallar ko'llanmaning ikkinchi turidir. Maktabda tanqidiy materiallarni o'rganishda o'quvchilarga butun bir maqolani berib qo'ymay, balki maqolani ayrim bo'limlarga bo'lib berish yoki qisqartirib berish lozim. Ayni zamonda bu xildagi maqolalarni to'g'ridan-to'g'ri toshpiraverish ham yaramaydi. Avval boshlab shu maqola ustida o'quvchilarga tushuncha berish va o'quvchilarga maqolaning maqsadini va uning g'oyaviy yo'nalishini tushuntirish kerak.

Maktab kutubxonasida o'zbek mumtoz va o'zbek yozuvchilarining ijodiga bag'ishlangan monografiyalar va maqolalar to'plamlari o'quvchilar uchun etarli darajada bo'lishi kerak.

Adabiyotdan rasmlar (kartinalar), diapozitivlar va boshqalar ko'rgazmali qurollarning uchinchi xilidir. Bunday rasmlar turmush lavhalarini, yozuvchining ijodiy yo'lini yorqin aks ettirishi kerak. Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan devoriy gazetalar ham asosiy rol o'ynaydi. Masalan, Navoiy, Pushkin, Gogollarning hayoti va ijodiga bag'ishlab chiqarilgan devoriy gazetalar shu xildagi ko'rgazmali qurollardandir.

Maktablarda magnitofon va diapozitivlarning bo'lishi zarur. O'qituvchi o'z ma'ruzalarida bu xildagi materiallardan foydalansa, dars jonli va qiziqarli o'tadi.

Maktab o'quvchilar uchun ko'llanmalarga ega bo'lishi bilan birga, u erda o'qituvchilar uchun ham asosiy qo'llanmalar bo'lishi lozim. O'qituvchi hamma vaqt o'z ma'lumotini oshirib borishi, yangi yangi bilimlarga ega bo'lishi lozim va u zamonamizning ilg'or metodik nazariyalari bilan, ilg'or metodik tajribalar bilan doimiy qurollangan bo'lishi lozim. Shuning uchun maktab o'qituvchilarni qo'llanmalar bilan ta'min etib turishi kerak. O'qituvchi o'z bilimini oshirish va uni takomillashtirish uchun adabiyot tarixi kursi, adabiyotshunoslik va adabiyot tarixi masalalari yuzasidan asosiy monografiyalar, tanqidiy maqolalar; metodik asarlar ustida ish olib borishi va shular bilan birga adabiyotga oid gazeta va jurnallar, metodik va pedagogik jurnallarni doimo mutolaa qilib borishi kerak.

Shaxsiy layoqatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas'uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik qobiliyati, o'quvchilar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o'qituvchi va muhandis-pedagoglar rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari lozim. Chunki Ixtisoslik fan o'qituvchilari va muhandis-pedagoglar faqat o'quv ishlab chiqarish faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchining o'rniga ko'ra ta'lim metodlarining turlari. Passiv metodlar. Ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchi bo'lib qoladi. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi mavzu boyicha ma'ruza qiladi, tushuntiradi, ta'lim vositalari orqali ma'lumotlarni taqdimot va namoyish qiladi. O'quvchi bu

sharoitda faqatgina tinglovchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday metodlarga ma'ruza, namoyish, taqdimot, illyustratsiya va boshqalar kiradi.

Aktiv metodlar. Bu metodlardan foydalanganda ta'lim jarayonining markazida o'quvchi bo'ladi. Bunda *o'qituvchi passiv, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'lib qoladi.* O'qituvchi guruhni boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi, o'quvchilar esa berilgan topshiriqlarni mustaqil fikrlab, muammolarni bartaraf eta oladigan darajada faoliyat yuritadilar. Bunday metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, rolli o'yinlar va boshqalar kiradi.

Bilim manbalariga ko'ra ta'lim metodlarining turlari. Og'zaki metodlar. Agar o'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.) jumlasiga kiradi.

Og'zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol, oynaydi.

Bayon darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog'liq bo'lmagan holda tuziladi. Masalan, tilkuv mashinasining tuzilishini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanish mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi, balki u tushunchani o'zlashtirishda yordam beradi, xolos.

Og'zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichlari o'quvchilarning yangi bilimlarini eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda o'quvchilar o'qituvchi mulohazalarini takrorlaydilar, taqlid qiladilar. O'quvchi o'qituvchining tushuntirish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatli o'zlashtiradi.

Og'zaki metodlardan asosan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina, ular ta'limda yaxshi samara beradi.

Ko'rgazmali metodlar deganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish darajasini btlgilaydi. Bunda, masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari ko'rsatilishi yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi mumkin. Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa qoshimcha tuzatishlar kiritishi mumkin, xolos.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tassavurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni tartibga solish va boyitishga, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ta'limning ko'rgazmali metodlari o'quvchilarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Amaliy metodlar. Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialni egallash ko'rinishlari ta'limining amaliy metodlari jumlasiga kiradi.

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialini egallash ko'rinishlari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ko'nikmani egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bo'g'liq.

An'anaviy ta'lim metodlari. Ta'lim metodlari – o'quvchi va o'qituvchining muayyan maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan metodlar yigindisini ifodalaydi.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir modeli bo'lib qo'lmoqda. Ma'lumki an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, an'anaviy darsni "Markazda o'qituvchi turgan o'qitish modeli" deb ham atashadi. An'anaviy darsning Asosiy maqsadi - dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va faktlarini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga etkazish va tushuntirishdan iborat. Dars – oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatilishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uuga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan fudalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aulanib qo'ladilar. Odatda, an'anaviy dars berishni - passiv dars berish metodi sifatida qaraladi. Lekin darsda o'quvchilarning faol yoki passivligi darsni qandau o'tishga va uni rejalashtirishga bogliq. An'anaviy darsning samaradorligini oshirish va darsda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun yangi materialni mauda-mauda bo'laklarga bo'lib o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning bu materialni qandau o'zlashtirib borayotganliklarini nazorat qilib borish va bu maqsadda maqsadida turli xil mashq va topshiriqlarni bajaritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun dars jarayoni o'qilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil ragbatlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash metodlaridan fudalanish, ta'lim vositalaridan jouda va vaqtida fudalanish talab etiladi

Ma'ruza metodi. *Ma'ruza* – katta hajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etish. Bu metod butunlay “so‘zlash” orqali amalga oshiriladigan o‘qitish metodi qisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o‘quvchining ishtiroki uchun qech qanday imkoniyat qoldirmaydi.

Ma'ruzani tushunarligini oshiruvchi jihatlar:

- *Fikrni sodda tilda bayon etish*
- *Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'g'ri tuzilganligi*
- *Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash*
- *Raqbatlantirish (stimullar)*
- *Notiqlik, ravon tilda gapirish va talaffus*

Fikrni sodda tilda bayon etish. O‘z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o‘qituvchining eng muqim fazilatlaridan biridir. O‘z fikrini murakkab tilda ifodalash - ziyolilik va professionalizm belgisi qisoblanmaydi. O‘z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

Sodda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi:

- Aytilgan fikrni ko‘rgazmali qilib yetkazish
- Fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash
- Oddiy so‘zlarni ishlatish
- Atamalar ma'nosini tushuntirib ketish
- Chet tili kirib kelgan so‘zlarni iloji boricha ishlatilmaslik, ishlatilgan taqdirda tushuntirish berish
- Sodda tuzilishga ega bo‘lgan gaplarni ishlatish
- Faol fe'llarni ishlatish

Ma'ruza tuzilmasining mantiqan to'g'ri tuzilganligi. Ma'ruzaning ushbu belgisi ma'ruzaning tashqi tuzilishi va ichki tartibini to'g'ri tuzilganligini bildiradi. Ma'ruzaning tashqi tuzilishi - uni o'qishda qilinadigan quyidagi qattiqarokatlarini bildiradi:

- Ma'ruza mavzusi bilan tanishtirish
- Mavzuni asoslash
- Mantiqiy tuzilma asosida ma'ruzani olib borish
- Ma'ruzani yakunlash

Ma'ruzaning ichki tartibi uni o'qishda rioya qilinadigan mantiqiy ketma-ketlikni bildiradi:

- Ma'lumotlar mantiqiy to'g'ri ketma-ketlikda berilishi
- Ma'ruzaning aloqida qismlari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish
- Mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish
- Bir fikrdan boshqa fikrga sakrab o'tishiga yo'l qoymaslik
- Muqim va uncha muqim bo'lmagan narsalarni farqlash
- “Fikrlar kalavasi” aniq bilinib turishi

Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash. Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vaqt ketmasdan, lo'nda, aniq va to'g'ri ifodalanishi tushuniladi:

- butunlay o‘quv maqsadga qaratilgan
- asosiy mazmunga qaratilgan
- to‘qri (bexato) ifodalardan iborat
- muqim va kerakli izoqlar bilan cheklangan

Raqbatlantirish. Raqbatlantirish (stimullar) deb ma’ruza tarkibidagi shunday qo‘shimchalar tushuniladiki, ular ma’ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e’tibori va qiziqishini ta’minlaydi. Raqbatlantirishga quyidagilar yordamida erishiladi:

➤ Ma’ruza mazmunlarini turli qiziqarli faktlar, masalan urf-odat, qikoya yoki misollar yordamida aniqlashtirish

- Taassurotli gapirish
- Aytilayotgan fikrlarni ko‘rgazmali tarzda etkazish (vizuallashtirish)
- Shaxsiy fikrni bildirish
- O‘quvchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish

Ma’ruzaning tuzilishi (strukturasi). Ma’ruza odatda uch qismdan: kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo‘ladi.

Ma’ruzaning tuzilishi.

“Ma’ruza” metodining bosqichlari quyidagi qismlardan iborat:

1. Kirish qismi:

- Qutlash
- Mavzu
- Maqsad
- Tashkiliu savollar
- Motivastiya, qiziqishni uugotish

2. Asosiy qism:

- Asosiy fikr 1
- Asosiy fikr 2
- Asosiy fikr 3 va hokazo.

3. Yakuniy qism

- Natija va xulosa
- Umumlashtirish

O‘quvchilar bilan o‘qituvchining birgalikdagi ushbu faoliyatini tashkil etishning samarali shartlari quuidagilardan iborat:

- ma’ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ma’ruza rejasini eshittirish;
- rejaning har bir punktini yoritishdan so‘ng qisqacha umumiu xulosa qilish;
- ma’ruzaning bir qismidan boshqa qismiga (bo‘limiga) o‘tishda mantiqiu bogliqlikni ta’minlash;
- muammoli bayon qilish;
- yozib olish zarur bo‘lgan joularni ajratish (yozdirish);

- ma'ruzalarni uning alohida holatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi seminar-mashgulotlari va amaliy mashgulotlar bilan qo'shib olib borish.

“Ma’ruza metodi”dan foidalanganda ma’lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar ratsional ravishda taqdim etiladi.

“Ma’ruza” metodining afzalliklari:

- ✓ aniq ilmiy bilimlarga tayanadi;
- ✓ vaqtdan unumli foidalaniladi;
- ✓ o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini to'liq nazorat qilish imkoniyati paudo bo'ladi.

“Ma’ruza” metodining kamchiliklari:

- o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qo'ladilar;
- o'qituvchi bilan o'quvchilar bevosita muloqotga kirisha olmaudilar;
- katta miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar uchun qiuin kechadi;
- uzoq vaqt davomida diqqat bilan tinglab o'tirish o'quvchilarni tez toliqtiradi;
- eslab qo'lish darajasi barcha o'quvchilarda turlicha bo'lganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qo'lishi mumkin.

“Savol-javob” metodi – o'quvchilarga mavzu yuzasidan savollarga javob berishni nazarda tutadigan metod.

Shubhasiz, savollar turli maqsadlarni ko'zlab beriladi, lekin bu maqsadlar alohida ko'rinishlarga ega bo'ladi va ular quyidagi maqsadlarda beriladi:

- tekshirish uchun – o'quvchilarning bilimini imtihon qilish orqali;
- o'rgatish uchun– javobni o'quvchining o'zi mushohada etishiga majbur qilish orqali;
- faoliyat yuritishga erishish uchun– o'quvchini aqlan tetik tutish orqali;
- turlicha bo'lgan fikr-mulohazalarni aniqlab olish uchun;
- o'xshashlik jihatlarni aniqlab olish uchun;
- kishining Ixtisoslik tajribasiga yaqinlashish uchun;
- tortinchoq o'rganuvchilarni jarayonga jalb etish uchun;
- o'quvchilarni dars jarayoniga jalb etish uchun.

Savol berish qoidalari:

1. Savollarni aniq va tushunarli ifodalash.
2. So'roq so'zlarni o'z o'rnida ishlatish.
3. Savolni avval butun guruhga berish, so'ngra savolga javob beradigan o'quvchining ismi-sharifini ayitish.

Qanday savollarni bermaslik lozim?

➤ **Zanjirband savollar** - o'qituvchi ketma-ket bir necha savollar berib, o'quvchilarga na oylashga, na javob berishga vaqt beradi. Ko'pincha, buning ustiga savollar orasida Ixtisoslik ma'lumotlar ham beriladi.

➤ **Suggestiv savollar** - o'qituvchi o'quvchilar uning fikriga qo'shilishlarini talab qiluvchi chaqiriqini savol shaklida ifodalaydi. Bunday savollar yashirin tarzda o'z fikr-mulohazasini bildirishdir. O'qituvchi o'quvchiga huddi tayyor javob berib qoyganday bo'ladi. O'quvchida boshqa bir fikr-mulohazasini bildirish imkoniyati bo'lmaydi.

➤ **Al'ternativ savollar** - ya'ni o'quvchi faqat "Ha" yoki "Yo'q" deb yoki bo'lmasa, bitta yoki ikkala javobni berishi mumkin bo'lgan savollar. Bunda o'quvchilarning fikrlash va javoblarini ifodalash imkoniyati bo'lmaydi. Ba'zan javoblar tasodigan to'g'ri kelib qolishi ham mumkin.

➤ **Stereopotip savollar** -savolning mazmunida ". . . nima?" degan ma'no bo'lmasligi kerak. Savol aniq va tushunarli berilishi lozim.

➤ **Qopqon yoki qalbaki savollar** - biror o'quvchini uyaltirish uchun, yashiringan tanbeh yoki kesatib gapirishlar tariqasida berilgan savollar.

"Savol-javob" metodining afzalliklari:

- ✓ vaqtdan unumli foudalaniladi;
- ✓ mavzuni takrorlashga yordam beradi;
- ✓ o'qituvchi guruhni to'liq nazorat qila oladi.

"Savol-javob" metodining kamchiliklari:

- o'quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati cheklangan;
- noto'g'ri savollar berish xavfi tug'iladi;
- o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga sub'ektiv (xolis bo'lmagan) baho berilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Hozirgi vaqtda kasb-hunar kollejlarda o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qo'lgan holda, unga turli-tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kotarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni o'qilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil ragbatlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, muammoli vaziyat, Yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli oyinlar metodlarini qo'llash, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash metodlaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtda foydalanish talab etiladi.

Bu metodlarni **interfaol** yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaudi. O'quvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foudali jihatlari quuidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchini yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini o'quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o'quvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o'qishni soglom muhitda saqlab qo'linishi;

- o'qituvchining engillik yaratib beruvchi shaxsga aulanishi.

O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun etarli darajada o'quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo'ladi.

Bu metodlar asosan o'qituvchining turli faoliyat shakllari orqali amalga oshiriladi.

Kichik guruhlarda ishlash – o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metod.

Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholau oladi.

„Kichik guruhlarda ishlash“ metodini qo'llash bosqichlari:

1. Faoliyat uo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlarga 3-5 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. O'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan uo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o'quvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlara baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

• kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli kuchli o'quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

- barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlara o'zaro salbiu raqobatlar paudo bo'lib qo'lishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo paudo bo'lishi mumkin.

Davra suhbat - o'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodi.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joulashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan «ko'z aloqasi»ni

oʻrnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida oʻqituvchi mavzuni boshlab beradi va oʻquvchilardan ushbu mavzu boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraadi va aylana boʻylab har bir oʻquvchi oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan oʻquvchini barcha diqqat bilan tinglaadi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng muhokama qilinadi. Bu esa oʻquvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joulashtirilib, har bir oʻquvchiga konvert qogoz beriladi. Har bir oʻquvchi konvert ustiga maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz savolini beradi va yonidagi oʻquvchiga uzatadi. Konvertni olgan oʻquvchi oʻz javobini qogozga yozib, konvert ichiga solib qoyadi va yonidagi oʻquvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar uigib olinib, tahlil qilinadi.

“Davra suhbat” metodining bosqichlari

1. Mashgʻulot mavzusi eʼlon qilinadi.
2. Oʻqituvchi oʻquvchilarni mashgʻulotni oʻtkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Aylana stol boylab konvertlarning harakatlanishini sxema orqali koʻrsatib beriladi.
4. Har bir oʻquvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha oʻquvchi boʻlsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoyiladi. Oʻquvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga oʻz ismi-sharifini yozadi.
5. Oʻquvchi konvert ustiga mavzu boyicha oʻz savolini yozadi va yonidagi oʻquvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan oʻquvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qoyadi hamda yonidagi oʻquvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli boylab aylanib, yana savol yozgan oʻquvchining oʻziga qaytib keladi. Bu oʻquvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yigʻib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali oʻquvchilar berilgan mavzu boʻyicha oʻzlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.

“Davra suhbat” metodining afzalliklari:

- ✓ oʻtilgan materialni yaxshi esda qoʻlishiga yordam beradi;
- ✓ barcha oʻquvchilar oʻzaro muloqotda boʻladilar;
- ✓ har bir oʻquvchi oʻzining ishtirok etish masʼuliyatini his etadi;
- ✓ oʻz fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

“Davra suhbat” metodining kamchiliklari:

- koʻp vaqt talab etiladi;
- oʻqituvchining oʻzi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega boʻlishi talab etiladi;

– o‘quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Ishbop o‘yin – berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitastiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitastiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iu belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarimas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgiladilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo‘yicha maqsadga erishish butun guruh a‘zolari erishgan natijalarga bog‘liqdir. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari

1. O‘qituvchi mavzu tanlaudi, maqsad va natijalarni aniqlauid. Qatnashchilar uchun uo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. O‘quvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. O‘quvchilarga vazifalarni taqsimlauid, maslahatlar beradi.

4. O‘quvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. O‘qituvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

5. O‘yin yakunida o‘qituvchi muhokama qilishni yo‘lga soladi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar autiladi.

6. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Ishbop o‘yin o‘quvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi.

“Ishbop o‘yin” metodining afzalliklari:

✓ o‘quvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

✓ o‘quvchining boshlangich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

✓ o‘quvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namouish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

“Ishbop o‘yin” metodining kamchiliklari:

– o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

– vaqt ko‘p sarflanadi;

– tanlangan mavzu o‘quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;

– o‘quvchining xis-hayajoni to‘gri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

Rolli o‘yin – o‘quvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metod.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘uilgan. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

Rolli o‘yin metodining bosqichlari

1. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgiladi hamda rolli o‘yin ssenariusini ishlab chiqadi.

2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib rollarni taqsimlaudi.

4. O‘quvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa o‘quvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O‘yin yakunida o‘quvchilardan ular ijro etgan rolni yana qandau ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan o‘quvchilar o‘z yakuniu mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Rolli o‘yinmetodida o‘qituvchi o‘quvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘unashda har bir o‘quvchining individual karakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarda motivastiyani shakllantirishga yordam beradi.

Rolli o‘yinmetodining afzallik tomonlari

• o‘quv jarayonida o‘quvchilarda motivastiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;

• o‘quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;

• nazariu bilimlarni amaliyotda qo‘llau olishni o‘rgatadi;

• o‘quvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

Rolli o‘yinmetodining kamchilik tomonlari

• ko‘p vaqt talab etiladi;

• o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

• o‘quvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;

• barcha o‘quvchilarga rollar taqsimlanmau qo‘lishi mumkin.

uuida Rolli o‘yinrejasining namunasini keltiramiz.

“Kasalxonada” rolli o‘yining rejasi

“Yurak ishemiya kasalligi”

Maqsad: O‘quvchilarda yurak ishemiya kasalligi haqida bilimlarini shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

• yurak ishemiya kasalligining belgilarini aniqlau oladilar;

• yurak ishemiya kasalligida birinchi yordam ko‘rsatishni biladilar;

•yurak ishemiya kasalligini davolash uchun zarur bo'lgan muolajalarni biladilar.

O'yinning qisqacha mazmuni: Bemor kasalxona qabulxonasiga kirib keladi. U yuragi bezovta qilayotgani haqida shikoyat qiladi. Hamshira bemorga birinchi yordam ko'rsatadi. Birinchi yordam ko'rsatishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qoyadi.

Ishtirokchilar (rollar): Bemor, hamshira, ikkita kichik hamshira, vrach, EKG hamshirasi, laborant, ekspertlar guruhi.

Ishtirokchilarning vazifalari:

Ikkita kichik hamshira: Bemorni olib keladi. Bemorni olib chiqib ketishga yordamlashadi.

Bemor: Kasalxonaga kirib keladi. Yuragi bezovta qilayotganini autadi. Birinchi yordam ko'rsatilganda bemor hushidan ketadi.

Hamshira: Bemorni qabul qiladi. Qon bosimini o'lchab, bemorning qon bosimi tushib ketganini o'ziga autadi va vahima qilib yuboradi. Vrachni chaqiradi.

Vrach: Bemorning shikoyatini loqayd holda tinglaudi. Hamshiraga birinchi yordam ko'rsatilishini autadi. EKG hamshirasini chaqiradi. Tahlil uchun laborantni chaqiradi. Hamshiraga bemorning tashhisini autadi va reanimastiya bo'limiga yuborilishini autadi. Vrach shoshilmasdan, bemalol mas'uliyatsizlik bilan harakat qiladi.

EKG hamshirasi: Vrach chaqirgandan so'ng, bemorni EKG nazoratidan o'tkazadi. Javob varaqasini vrachga beradi.

Laborant: Vrach chaqirgandan so'ng, tahlil uchun bemordan qon oladi.

Ekspertlar guruhi: O'yin jarayonini kuzatadi va tahlil qiladi. O'yin tugagandan so'ng, yo'l qo'uilgan kamchiliklarni autib beradilar.

O'qituvchi: Ekspertlar guruhini tinglab, yakuniy xulosaga kelinadi.

Muammoli vaziyat – *o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topishga asoslangan metod.*

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'uilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, o'quvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining uo'qo'lishiga olib keladi.

“Muammoli vaziyat” metodi qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va o'qibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari

1. O'qituvchi mavzuni, muammoli vaziyatni tanlaudi, maqsad va vazifalarni aniqlaui. O'qituvchi o'quvchilarga muammoni bayon qiladi.

1. O'qituvchi o'quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

3. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar.

4. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

6. Guruh o'qituvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- o'quvchilar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;
- o'quvchilarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- o'quvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'uilgan muammo o'quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

“Charxpalak” metodi – o'quvchilarga o'tilgan mavzu boyicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metod.

“Charxpalak” metodi uchun savollarni o'qituvchining o'zi yoki o'quvchilar ishlab chiqishlari mumkin. Savollar o'tilgan mavzu boyicha berilib, qisqa va aniq javobni talab etadigan bo'lishi kerak.

“Charxpalak” metodi qo'llanilganda o'quvchilar berilgan savollarga tezda fikr yuritib, tayinlangan “o'qituvchilar”ga javoblarini beradilar. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchilar o'tilgan mavzu boyicha bilimlarini sinab ko'rishni va bir-birlarining bilimlarini baholashni o'rganadilar.

“Charxpalak” metodidan foydalanganda huddi “Davra suhbat” metodida foydalanilgandek aylana stol (“charxpalak”) atrofida o'tkaziladi. Ushbu metodni guruhni ikkita kichik guruhga ajratgan holda ham o'tkazish mumkin. Har bir guruhga bittadan “nazoratchi”ni birlashtirib qo'yish lozim. “Nazoratchi”lar o'quvchilarning javoblarini va baholashning haqqoniyligini nazorat qilib turadilar.

Guruh o'quvchilarini ikki guruhga ajratish kerak bo'ladi. Birinchi guruhdagilar “o'quvchilar”, ikkinchi guruhdagilar esa “o'qituvchilar” etib tayinlanadilar. “O'quvchilar” aylana stolning tashqarisida (“charxpalarning chelakchalari”), “o'qituvchilar” esa aylana stolning ishkarisida (“charxpalakning o'qlari”) joylashadilar. Keyingi bosqichda “o'qituvchilar” “o'quvchi”, “o'quvchilar” esa “o'qituvchi” bo'lib joylarini almashadilar.

“Charxpalak” metodining bosqichlari

1. O'qituvchi metodni o'tkazish uchun tanlab olgan mavzuni e'lon qiladi hamda o'quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

2. Shundan so'ng o'quvchilarni ikki guruhga- “o'qituvchi” va “o'quvchilar”ga ajratadi. Guruhlar aylana stolga joylashadi.

3. O'qituvchi o'zi ishlab chiqqan savollarni "o'qituvchilar"ga tarqatadi yoki "o'qituvchilar" o'zlari berilgan mavzu bo'yicha savollarni ishlab chiqadilar.

4. "O'qituvchi" ro'parasida o'tirgan "o'quvchi"ga savol beradi. "O'quvchi" javob bergandan so'ng uni baholaydi.

5. Berilgan vaqt tugagandan so'ng, "o'quvchilar" soat yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini almashtiradilar, bunda "o'quvchi" keyingi "o'qituvchi"ning ro'parasiga o'tadi. "O'qituvchilar" joylarini o'zgartirmaydilar.

6. "O'quvchi" keyingi "o'qituvchi"ning savoliga javob beradi va "o'qituvchi" tomonidan baholanadi.

7. "O'quvchi" "charxpalak"dagi barcha "o'qituvchilar"ning savollariga javob bergandan so'ng, baholar jamlanadi.

8. Bu bosqichda "o'qituvchilar" "o'quvchi", "o'quvchilar" esa "o'qituvchi" bo'lib joylarini almashadilar va yuqoridagi bosqichlar takrorlanadi. Metod so'ngida o'quvchilarning baholari e'lon qilinadi.

"Charxpalak" metodining afzalliklari:

- o'quvchilarda bir-birini baholash ko'nikmasi shakllanadi;
- o'quvchilar tez fikrlashni o'rganadilar;
- o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'rish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- barsha o'quvchilarning ishtiroki ta'minlanadi.

"Charxpalak" metodining kamchiliklari:

– o'quvchilarda yuqori motivastiya talab etiladi;
– noto'g'ri savollar berish xavfi tug'iladi;
– o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga sub'ektiv (xolis bo'lmagan) baho berilishi mumkin.

– ko'p vaqt talab etiladi.

Nazorat uchun savollar:

Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi deganda nimalarni tushundingiz?

1. Ona tili o'quv xonasini jihozlash bo'yicha qanday tavsiyalaringsiz bor?

2. Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari haqisa fikr bildiring.

3. Ona tili o'quv xonasini jihozlash uchun zaruriy shart sharoitlar nimalardan iborat?

4. Mavzuli reja, bir soatlik darsning reja-ko'chirmasini tuzishni o'rgandingizmi?

5. Darsni tahlil qiluvchi o'qituvchining qanday metodik usullarga e'tibor berishini aniqlang.

6. O'qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

7. O'qituvchi vazifalaridan tashqari yana nimalarni bilishi zarur?

8. O'qituvchining metodik ishlari qanday turlari mavjud?

9. Zammonaviy o'qitish usullarig nimalar kiradi?

Tayanch so'z va iboralar:

Taqvim-mavzu ish reja, to‘g‘arak ish rejasi, metod – usullari majmui, o‘quv qurollari, o‘quv qurollarining turlari, adabiy-badiiy matnlar, passiv metodlar, aktiv metodlar, og‘zaki metodlar, ko‘rgazmali metodlar, amaliy metodlar, an’anaviy ta’lim metodlari, ta’lim metodlari, an’anaviy dars, ma’ruza metodi, ma’ruza, fikrni sodda tilda bayon etish, raqbatlantirish, “Savol-javob” metodi, savol berish qoidalari: zanjirband savollar, suggestiv savollar, al’ternativ savollar, sterepotip savollar, qopqon yoki qalbaki savollar, interfaol, kichik guruhlarda ishlash, Davra suhbat, Ishbop o‘yin, Rolli o‘yin, “Kasalxonada” rolli o‘yini, “Yurak ishemiyasi kasalligi”, muammoli vaziyat, “Charxpalak” metodi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. O‘sarov O‘. T., tahriri ostida “Qasbiy ta’lim” yo‘nalishlari bo‘yicha diplom loyixasini bajarish uchun metodik tavsiyalar. – Samarqand. 2010.
3. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o‘qitish va ishlab chiqarish ta’limi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
5. Abduquddusov O. O‘rta maxsus, kasb – hunar ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo‘llanma. – T.; 2002.
6. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. – T.; 2005.
7. Azizxo‘jayeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
8. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi. 1995.
9. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.
10. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
11. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – T.: Muharrir, 2011.
12. Mavlonova R. “Pedagogika” –T.: O‘qituvchi. 2004.
13. Milliy dastur. – T., 2022-2026-yillar.
14. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
15. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022.

Elektron ta’lim resurslari

16. www.ziyo.uz – Ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi materiallar sayti
17. www.ziynet.uz – Ijtimoiy axborot ta’lim portali

18. www.bimm.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz

19. www.edunet.uz – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti

20. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o‘rta dasturlarini rivojlantirish markazi

21. www.natib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining rasmiy sayti

ILOVALAR

1. AMALIY VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARI UCHUN MATERIALLAR

1-mashq. Berilgan topshiriqlar yuzasidan amaliyot bajaring.

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni o‘qing. Bosh so‘zi qaysi ma’noda ekanligini aniqlang va sharhlang.

1. Oybekning boshi og‘ridi. 2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 4. Fermerga o‘n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Qaysi gap o‘z ma’nosida, qaysi gapda ko‘chma ma’no ishlatilganini ayting.

Navoiy asarlarini o‘qiyman – Navoiyni o‘qiyman.

Abdulla Oripov she’rlaridan yod oldim – Abdulla Oripovni yod oldim.

Samovardagi suv qaynadi – Samovarda o‘tirdik, choyxo‘rlik qildik.

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o‘quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni o‘stiradi, Mustaqil va ijodiy izlanishga o‘rgatadi.

2-mashq. Matn yaratish faoliyati ustida ishleng.

1. Berilgan so‘zga tovushdoshlar: don-din, dil, bil... ma’nodoshlar: odam-inson, shaxs... zid ma’noli so‘zlar: bor-yo‘q, qur-buz, tur-o‘tir... shakldoshlarga ma’nodoshlar: o‘t-maysa, ko‘kat, pichan, xashak, o‘t-olov, otash, alanga... uyadosh so‘zlar: tol, terak, qayin... o‘zakdoshlar: bil, bil-im, bil-imdon... qo‘shimchadoshlar: besh-lik, qum-lik, yosh-lik, tez-lik, ozod-lik... muqobillar: muhr, gerb tang‘a ... qofiyadoshlar: ochdi, sochdi, qochdi... ters (qalb) so‘zlar: mosh-shom, zum-muz, qish-shiq, kon-nok... iboralar: kayfi uchdi, tobi qochti... tasviriy ifodalar: oq-oltin. 2. Berilgan: «ot+ot»: tosh uy... «sifat+ot»: tiniq suv, buyuk zot, «ot+fe’l»: gul ochildi, tog‘ oshdi. «son+ot»: uchinchi o‘g‘il, besh qiz. «ot+sifatdosh»: duo qilgan... «ot+fe’l+-ar»: quloq tishlatar... «olmosh+ot», mening orzuim kabi qolipli birikmalar tuzish. So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar yordamida so‘z birikmalar hosil qilish: Bizning ko‘cha, tog‘dagi o‘ylar, kuzgi

hosil, ishdan qaytish v.b. 3. Tuzilgan soʻz birikmalaridan: Sodda va qoʻshma gaplar hosil qilishi; sheʼr qatorlar tuzish; koʻchirma va oʻzlashtirma gaplar tuzish; uslubiyat mashqlari; ixcham gaplarni kengaytirish, qoʻshma gaplarni ixchamlash, sheʼr qatorlarini oddiy gap (nasr) larga, oddiy gaplarni sheʼr qatorlariga aylantirib koʻrish; Gapda soʻzlarning oʻrnini va oʻzini almashtirib koʻrish: Uyushiq boʻlakli va ajaratilgan boʻlakli gaplar tuzish; Bir gapni turli maʼnoda (xabar, soʻroq, buyruq, undov) talaffuz qilish; Gapni tahlil va qiroat qilish... 4. Tuzilgan gaplar (va sheʼr qatorlar) dan foydalanib, kichik nasriy matnlar, rifoya va badiiy-ramziy insholar, dialog, monologlar yozish; qiziqishi iqtidori bor oʻquvchilar sheʼriy toʻrtliklar va sakkizlaiklar yozish mumkin. Uslubiyat mashqlari: Yaratilgan matn qurilishi (xat boshi, MSB) murakkab sintaktik butunlik, rivoya, mukammalik darajasi (kirish, asosiy qism va xulosalarning mavjudligi), tili uslubini aniqlash... Yaratilgan matnni tahrir va tahlil qilish; oqqa koʻchirish.

3-mashq. Matn yaratish (evristik yondoshuv).

I. “Fonetika” mavzusini oʻrganish.

1-topshiriq. Berilgan tovushdosh soʻz ishtirokida matn yarating: Soz.

1-ish. Unlilarni oʻzgartirib yangi (paronim) soʻzlar yasang: Soz, -soʻz, -siz, -suz, -sez...

2-ish. Yangi soʻzlardan SB (soʻz birikmalari) hosil qiling: Mening sozim, soʻzim; Sizning maktubingiz, soʻzlaringiz, tekis suzishingiz, sozingiz; “Oqimga qarshi suzmoq”, brass usulida suzmoq, daryodan suzib oʻtmoq, suvda suzish mahorati, suzish boʻyicha sport musobaqalari, suzish boʻyicha jahon chempioni...

3-ish. SBlardan sodda va qoʻshma gaplar, sheʼrlar tuzing. M: Sizning Brass usulida suzish mahoratingizga hamma tan berdi. Kelgusi yili Toshkent shahridagi JAR sport majmuasida suzish boʻyicha jahon chempionatini oʻtkazish rejalashtirildi. Karimjon, oqimga qarshi suzishni bas qiling!

Tong haqida qoʻshiq kuylar mening sozim,
Bulbullarning xonishiga joʻr ovozim,
Ozod elim, ming tasanno gʻayratingga,
Oltin togʻlar qudratingga qilar taʼzim...

4-ish. Tuzilgan gaplardan foydalanib, ijodiy matn yarating.

2-topshiriq. Berilgan soʻzga bir tovush qoʻshib, kamaytirib yoki oʻzgartirib yangi soʻzlar hosil qiling. Ularning maʼnosini sharhlang: Tosh...

1-ish. Tosh, tish, tush, tesh, toʻsh;

Tosh, toshi, toshir, tushir, tushim, tushum, tuzum, tuxum...

Tish soʻzi tosh soʻzidan i unlisini o unlisi oʻrnida ishlatish orqali yasalgan. Tuxum soʻzi tuzum soʻzidan z undoshini almashtirish usulida yasalgan...

2-ish. Yasalgan soʻzlar ishtirokida soʻz birikmalari (SB) hosil qiling. SBlargacha maʼnodoshlar tanlang.

Tilla tish, qiziqarli tush, yogʻochni tesh, zirakning toshi, sutni toshirmang, sovgʻalarni tushir, tushimning davomi, katta tushum. v.h.

Ma'nodoshlar: Yoqut tosh – yoqut ko'z; tilla tish-oltin tish, toza tish, qziqarli tush – hayratlanarli tush, qo'rqinchli tush...

3-ish. So'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Bu yoqut toshli uzuk menga otamdan meros qolgan. Singlim tilla tish qo'ydirish uchun tish doktoriga qatnay boshladi. Tongga yaqin ko'rgan qziqarli tushimni onamga so'zlab berdim. Mix ishlatilmasdan yog'ochni o'yib (teshib) yasalgan mebel eng sifatli hisoblanadi. Bu zirakning toshi asl gavhardan.

4-ish. Tuzilgan gaplardan foydalanib, kichik matn yarating.

Singlim Salima tish qo'ydirish uchun doktorga qatnay boshladi. Bir kuni qaragam, u nimanidir avaylab, qog'ozga o'rab sumkasiga soldi. Uning nimaligi bilan qziqdim. Bilsam, singlim bobomizdan qolgan yoqut toshli uzukni tish doktoriga olib ketayotgan ekan. "Oyimning xabarlarini bor. Undan tilla tish yasattirmoqchiman!", – dedi u norizo ohangda.

Singlimga, bu uzuk bizga bobomdan meros bo'lib qolganligi, bobomizga ham otasidan meros bo'lib o'tganligini gapirib berdim. Yoqut toshli uzuk saqlab qolindi. Bundan butun oilamiz, ayniqsa, onam xursand bo'ldilar.

3-topshiriq. Berilgan qo'sh unlili so'zlar ishtirokida matn yarating:

taajjub, matbaa, muazzam, shior, shoir, murojaat...

4-topshiriq. Berilgan qo'sh undoshli so'zlar ishtirokida matn yarating:

Muammolar, gullar, qo'llar, bitta, haqq, boqqa...

5-topshiriq. Berilgan tovushga bir tovush qo'shib yangi so'zlar hosil qiling.

MM asosida kichik matn yarating. O-ot, -ol...

6-topshiriq. Qo'sh undoshli so'zlar hosil qiling. MM-matn yarating: Hakka...

II. "So'z tarkibi" bo'limini o'rganish.

1. Berilgan qo'shimchadosh so'zlar ishtirokida matn yarating:

Ishchi, boshchi, sutchi, taroqchi, o'tinchi (modulning 2-, 3-, 4-ishlari).

2. Berilgan qo'shimcha yordamida qo'shimchadosh so'zlar hosil qiling.

7-topshiriq. Ular ishtirokida matn yarating. -lar

3. Berilgan o'zak yordamida o'zakdosh so'zlar hosil qiling, ularni kelishik qo'shimchalari bilan turlang: qishloq...

1-ish. Hamqishloq, qishloqdosh, qishloqlik, Gul-qishloq-lik-lar-imizning...

4. Berilgan qo'shimchalar yordamida (-lik, -chilik, -gi) so'zlar hosil qiling, MM asosida matn yarating:

III. Leksikologiyani o'rganish.

1. Berilgan so'zga uyadoshlar tanlang. Ular ishtirokida matn yarating: Tabib...

2. Berilgan so'zlarga ma'nodoshlar tanlang, ular ishtirokida matn yarating: Daraxt...

3. Berilgan so'zga qarama-qarshi (zid) ma'noli so'zlar tanlang. Ular ishtirokida matn yarating: To'g'ri egri, qyshiq, noto'g'ri...

4. Berilgan shakldosh so'zning barcha ma'nolarini sharhlab, tasnifiy matn yarating: Ot...

5. Tarixiy soʻzlarni roʻyxat qiling. Ular ishtirokida matn tuzing: Kofe, partiya, majlis, muzey...
6. Adabiyotga taalluqli soʻzlarni toping. Ulardan foydalanib, matn yarating: Sheʼr, shoir, bahsli...
7. Huquqqa oid ilmiy atamalarni roʻyxat qiling. Mazkur soʻzlar ishtirokida matn yarating: Sud, qaror, musodara...
8. Savdo-sotiq va ishlab chiqarishga oid soʻzlarni toʻplang. Ular yordamida matn tuzing: mol, savdo, tadbirkor...
9. Harbiy atamalar ishtirokida matn yarating: Mudofaa, harbiy, sulh, askar...
10. Nashr ishlariga oid soʻzlarni roʻyxat qiling. Ular vositasida matn yarating: Nashriyot, muharrir, muallif...
11. Taʼlim va tarbiyaga oid soʻzlarni yozib chiqing. Ular yordamida matn tuzing: Taʼlim, savod, intizom, oʻquvchi...
12. Kasb tushunchalariga oid soʻzlarni tanlang. Ular ishtirokida matn yarating: Qassob, etikdoʻz, temirchi...
13. Inson va bashariyatga oid soʻzlar yozing, ulardan foydalanib, matn yarating: Odam, sherik, nasab, millat...
14. Qon-qarindoshlik soʻzlarini roʻyxat qiling. Ular yordamida matn yarating: Bobo, amma, togʻa, xola...
15. Bayram, toʻy va aza marosimlariga oid soʻzlar toping. Ular ishtirokida matn yarating: Tavallud, toʻy, nikoh, marhum...
16. Inson va hayvon tana aʼzolariga mansub soʻzlarni tanlang. Tana aʼzolarini oʻrganadigan fan yoʻnalishida matn yarating.
17. Turli kasalliklar va ular bilan bogʻliq tushunchalarni jamlang. Ular ishtirokida tibbiyotga oid matn yarating. Kasal, shifo, jarroh, ...
18. Yashash joylari, va turar joylarga aloqalar soʻz va atamalarni toʻplang hamda ular yordamida matn yarating: Vatan, bino, ayvon, mahalla...
19. Tabiat hodisalarini nomlovchi soʻz va tushunchalar (soʻz va tushunchalar (soʻz birikmalari) ni toping. Ular ishtirokida kichik (geografik) matn yarating. Boʻron, havo, nur, zilzila...
20. Zamon va vaqt tushunchasini nomlovchi soʻzlarni guruhlang. Ular yordamida tarixiy matn yarating: Adabiy, ayyom, mavsum, muhlat, yil, fursat...
21. Dunyoning geografik tomonlari va oʻrin-joylarni atovchi soʻzlarni guruhlang. Ular ishtirokida matn yarating: Gʻarb, Sharq, taraf...
22. Astronomiyaga oid soʻzlarni jamlang va kichik ilmiy matn yarating: qitʼa, planeta, koinot, fazo...
23. Qush va hayvon nomlarni atovchi soʻzlarni guruhlang. Ular ishtirokida matn tuzing: Tovus, hasharot, saman, bulbul...
24. Oʻsimlik va daraxt nomlarini atovchi soʻzlarni yozing. Ulardan foydalanib matn yarating: zaytun, limon, xina...
25. Oziq-ovqat va ichimliklarni nomlovchi soʻzlarni roʻyxat qiling: Ular ishtirokida matn yarating: taom, shakar, holva, qand, murabbo, palov, limonad...

26. Kiyim-kechak va ziynat buyumlarini atovchi soʻzlarni guruhlang. Ular ishtirokida matn yarating. Marvarid, uzuk, zirak, libos...

27. Aniq vazifalar bajarish uchun inson tomonidan yasalgan buyumlar nomlarini roʻyxat qiling. Bu soʻzlardan foydalanib matn yarating:

Qulf, soat, sandiq, sham, hovuz, xanjar, pichoq, qaychi...

28. Tovush va nutq tushunchalari bilan bogʻliq soʻzlarni toping. Shu soʻzlar ishtirokida matn yarating: Tovush, ibora, gap, nutq, suhbat...

29. Yozma hujjatlar va ularga bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarni jamlang va matn yarating: Maktub, ariza, imzo, eʼlon, hujjat...

30. Tabiiy qazilma boyliklarini nomlovchi soʻzlar roʻyxatini tuzing. MM asosida matn yarating: oltin, neft, gaz...

31. Modal va kirish soʻzlarni roʻyxat qiling. MMDan foydalanib matn yarating: tabiiy, mayli, shubhasiz, albatta, koshki, darvoqe, ehtimol...

IV. Sintaksis boʻlimini oʻrganish;

1. Berilgan soʻz birikmalari ishtirokida kichik MM matn yarating: qzil olma, katta bogʻ, mevali daraxt...

2. "Bizning oila" mavzusida matn tuzing. Unda quyidagi soʻz birikmalari ishtirok etsin: Katta oila, dasturxon atrofida, suhbat qurmoq, yordam bermoq...

3. Berilgan iboralar qatnashgan kichik matn yarating: Tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq, xamirdan qil sugʻurganday...

4. Berilgan gaplarni davom ettiring:

Oʻlkamizga bahor kirib keldi yu...

Men har kuni ertalab jismoniy tarbiya bilan shugʻullanaman...

5. Berilgan matn asosida yangi matn yarating:

Men yoshligimdan adabiyot faniga qiziqaman, chunki bu fan menga olam-olam zavq bagʻishlaydi. Unda ajdodlarimiz orzusi, xohish irodasi, qadim tarixning zalvorli, shonli sahifalari, qadriyatlarimiz jilosi voqe boʻladi, jonlanadi.

4-mashq. Incho yozish uchun talab darajasidagi reja tushishni shakllantirish.

Sodda reja:

1. Oʻzbekiston – mustaqil davlat.

2. Shu kunlarni orzu qilgandi Choʻlpon.

3. Yashna, yuksal, ona diyorim!

Murakkab reja:

I. Kirish. Naqadar shirin soʻz-hurlik, erkinlik!

II. Asosiy qism:

1. Bahorni kuylamoq-erkni kuylamoq.

2. Choʻlpon ijodida xotin-qizlar ozodligi mavzusi.

3. Choʻlpon-isyonkor shoir.

III. Xulosa: Choʻlponning yangroq sozi jaranglayversin!

5-mashq. Matn ustida ishlash.

1-topshiriq. Matnni diqqat bilan oʻqing va sarlavha toping.

Shokir 3 ta apelsin sotib oldi. Birinchisini kesdi. Aynigan chiqdi. Tashlab yubordi. Ikkinchisini ham kesdi. U ham chirigan ekan, tashladi.

Chiroqni o‘chirib uchinchisini kesdi va yedi. (Noilojlik.)

2-topshiriq. “Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”, – degan gapni uyushiq bo‘lakli gapga aylantiring. So‘ngra mazmunini sharhlang.

3-topshiriq. *Ishbop o‘yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o‘yinlar faqat bilishga oid bo‘lmay, dunyoqarashni kengaytirish hamda hissiy ta’sir etishi bilan ham xarakterlidir. Masalan, “Nima uchun?”, “T-chizma”, “FSMU”, “4 K”, “Ikki qismlik kundalik” kabi innovatsion metodlardan foydalanganda o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.*

Matndagi uyushiq bo‘laklarni ma’nosiga ko‘ra guruhlab, bir nechta uyushiq bo‘lakli gaplarga aylantiring.

4-topshiriq. Ularni ko‘chirma gapga aylantiring.

5-topshiriq. Gap shakllarini o‘zgartirib, o‘zlashtirma gaplar hosil qiling.v.h.

6-mashq. Bog‘lanishli birikma hosil qilish.

Masalan fonetika bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga qaratilgan mustaqil ishlardan namunalar:

1-topshiriq. il, ... ul, ... ol so‘zlari oldiga bir undosh qo‘shib, yangi so‘zlar yasang.

Bil, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

Bul, gul, kul, pul, tul, shul, qul...

Bol, lol, mol, tol, fol, pol, hol, qol xol....

2-topshiriq. Hosil bo‘lgan so‘zlarning ma’nodosh va uyadoshlarini toping va ular ma’nosining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini sharhlang.

Namuna: bil –o‘rgan, izlan, top..; bul– shul, o‘shal; bol– asal, hol– holat, ahvol, kayfiyat... v. h.

3-topshiriq. Talaba (o‘quvchi)lar o‘zlari topgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiladilar, gap tuzadilar, matn yaratadilar.

7-mashq. Fonetik tahlil.

Bu tahlilni quyidagi jadval asosida amalga oshirish mumkin.

FONETIK TAHLIL NAMUNASI:
1. So‘zda nechta tovush va nechta harf bor?
2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, ular tavsiflanadi.
3. Tovush o‘zgarishlari aniqlanadi.
4. So‘z bo‘g‘inlarga ajratilib, bo‘g‘in turlari aniqlanadi.
5. So‘zning urg‘usi aniqlanadi.
6. So‘z qaysi yozuv qoidasi bo‘yicha yozilgan?

1-topshiriq. “O‘qish uqish demakdir” – gapini fonetik tahlil qiling.

2-topshiriq. Yoningizdagi sherigingizning tahlilini tekshirib ko‘ring.

8-mashq. Fonetikani o‘rganishda kommunikativ savodxonlikni oshirish usullari.

Fonetika bo‘limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo‘lishida ishtirok etuvchi nutq a‘zolarining xizmati, hosil bo‘lgan o‘rni va usuli, talaffuz va imlo, bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish, so‘z urg‘usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsa-da, uning so‘z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go‘zal va ta‘sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e‘tiborni qaratish zarur. Masalan: “unlilar imlosi” o‘rganilayotganda: o – a, o – i, i – u, u – o‘, i – e, o – e, tovushlari ishtirok etgan so‘zlardagi tovush va harf orasidagi munosabatlar izohlanadi: bar – bir – ber – bor – bur – bo‘r: oq – uq – o‘q – yuq; qor – qor – qur – qo‘r; tar – tor – tir – ter – tur – so‘z juftlarida ma‘no farqlash vazifasidagi **o‘yin – topshiriqlardan foydalanish** mumkin:

1-topshiriq. Tovushdosh so‘zlar qatorini tuzing, ma‘nosi murakkab so‘zlarni izohlang.

Qir – adir, tepalik, lalmi yer; qur – bunyod qilmoq, uyni qurmoq; qo‘r – olov, o‘tinning cho‘g‘idan hosil bo‘lgan qoldiq. Ko‘chma ma‘no: mol-dunyo, qo‘r-qut...

2-topshiriq. Tovushdoshlar so‘z turkumlariga ajrating.

Uq-fe‘l, o‘q-ot, oq-sifat, qor-ot, tar-(yangi meva) sifat, tur-fe‘l v.h.

3-topshiriq. Tovushdoshlar ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzing.

Til – dil kaliti, uyga kir, o‘yga botdi, o‘tni o‘r, markazga ur kabi; qr-adirlarni oppoq qor qopladi. Tur, to‘rga o‘t. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo (maqol). v. h.

4-topshiriq. Jarangli undoshlar aksariyat so‘z oxirida kelganda, talaffuzda jarangsizlanadi hamda boshqa ma‘nodagi so‘zlarni yuzaga keltirishini izohlang.

Bob – bo‘lim, qism ma‘nosida;

Bop – yarashiqli, loyiq ma‘nosida;

Sud – hukum, mahkama, lavozim;

Sut – mahsulot, sigir suti kabi so‘zlarni qiyoslash va o‘zaro farqlash, ular ma‘nosini sharhlash topshiriqlari, o‘quvchilarda imlo savodxonligini mustahkamlash bilan bir qatorda so‘z boyligini nutqiy mahoratni ham oshiradi, shakllantiradi.

5-topshiriq. Mana shu so‘zlar ishtirokida ixcham, ijodiy matn yarating.

Talaffuzda bir-biriga o‘xshash so‘zlarni farqlashda, ularga ma‘nodoshlar, uyadoshlar, zid ma‘noli so‘zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish ham samarali usullardan hisoblanadi.

Masalan, shaxs va bahs so‘zlarining o‘zaro farqni tushuntiring, izohlashda ma‘nodosh, uyadosh va zid ma‘noli so‘zlardan foydalaning. Namuna: shaxs – ma‘nodoshlar: shaxs – inson, odam, banda, kishi...

Uyadoshlar: kishi, erkak, ayol, ota, o'g'il, aka, uka; bahs, konferentsiya, majlis, yig'ilish...

Zid ma'nolilar: erkak – ayol, o'g'il-qz, aka-singil; bahs-himoya, o'rtoqlashuv, adabiy uchrashuv, qo'llab quvvatlamok...

6-topshiriq. Talaba (o'quvchi)lar topshiriq asosida so'zdagi nuqtalar o'rniga i va u harflaridan birini qo'yib ko'chiradilar. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini namunadagidek og'zaki sharhlashlari va so'z ma'nolarini farqni tushuntirishlari mumkin:

Namuna: urish – fe'l so'z turkumi, harakatni bildiradi. Musht urish, mushtlashish;

Urush – ot so'z turkumi, jang, uyushgan qurolli olishuv. M: Ikkinchi jahon urushi 1941-yilda boshlandi;

Yumish – fe'l, ko'z yumish, ko'rmaslikka olish; ko'zi yumildi; 1. Uxladi (o'z ma'no). 2. Ko'chma ma'no: ko'z yumdi – chin dunyoga ketdi, o'ldi... M: bu dunyodan ko'z yumdi.

Yumush – ot so'z turkumi, ish, mehnat: og'ir yumushni bajardi...

Unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin.

9-mashq. O'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar ma'nosini sharhlang. So'zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so'zlar hosil qiling. Il, el, choy.

Il-in, is, it, ip, ish...; el, ep, em, esh, et, en, er, es, ez...;

Choy-soy, toy, boy, moy, joy, loy, voy...;

2-topshiriq. A unlisi bilan boshlanuvchi bir bo'g'inli so'zlar qatori tuzing. Adl, avj, azm, aql, ark... Ma'nolarini sharhlang.

3-topshiriq. U-o' tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: uz-o'z, uy-o'y, un-o'n, o'q-uq... Ma'nolarini sharhlang.

10-mashq. Fonetikani o'rganishda mavzulararo va fanlararo aloqadan foydalanish usullari.

1-topshiriq. "Qochoq" so'zidagi ch undoshini boshqa undoshlar bilan almashtirib ko'ring. Hosil qilingan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini farqlash, qiyoslash (leksikologiya) ustida ishlang. Ular yordamida so'z birikmalari hosil qiling (sintaksis).

Namuna: qochoq, qovoq, qozoq, qoloq...

Lug'aviy ma'noning o'zgarishida tovush o'zgarishining ahamiyatini sharhlash namunasi:

Qovoq qochoq so'zidan ch undoshini v undoshiga almashtirish natijasida yasalgan bo'lib, undagi harflar va bo'g'inlar soni bir xilligi, so'z boshi va oxirida bir xil tovush bilan tugaganligiga qaramay, bir tovushning o'zgarishi natijasida so'z butunlay yangi ma'noga ega bo'ldi. Qovoq – o'simlik turkumiga kirsa, qochoq so'zi ongli mavjudotlar, ya'ni insonlar guruhiga kiritiladi. Ma'no

o'zgarishining asl sababi har ikki undoshning so'z tarkibida ikki xil talaffuz qilinishidadir.

2-topshiriq. "Qovoq" so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Qovoq – (oshqovoq) qovunga o'xshash palak yozib o'suvchi bir yillik o'simlik, u poliz ekinlari turkumiga kiradi, yumaloq, anjirsimon, uzunchoq ko'rinishda bo'lib, iste'mol qilinadigan va dekorativ (chiroyli, tabiiy naqshinkor) turlari uchraydi. Turli vitaminlarga boy, shifobaxsh xususiyatlarga ega. Undan turli milliy, xamirli taomlar tayyorlanadi.

3-topshiriq. "Qovoq" so'zi yordamida SB lar hosil qiling: shirin qovoq, katta oshqovoq, oshqovoqning foydasi, oshqovoq manti, dumbali oshqovoq xonim, tomoshaqovoqning naqshinkor bezaklari, qovoqning ta'mi.

4-topshiriq. Hosil qilingan SB lardan badiiy bo'yoqdor gaplar tuzing.

Tadbirkor fermer Isomiddin Ziyotovning dalasida yetishtirilgan katta – katta shirin oshqovoqlarning ta'mi og'zingizda qoladi. Dumbali, oshqovoq mantilar, mazali oshqovoq xonim, achchiqqina qovoq somsalar shaharliklar dasturxonida eng sevib tanovul qilinadigan milliy taomlardan hisoblanadi.

5-topshiriq. O'zbek tilida so'z oxiridagi qanday tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin?

2. Qaysi tovushlar so'z oxirida jarangsizlanadi?

3. Qaysi tovushlar talaffuzda so'z oxirida tushib qoladi?

4. Talaffuz qilinmasa-da, imloda yoziladigan harflar ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiring. (pas (t), sus (t), juf (t))...

5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (toshkentimiz jamoli, mol go'shti kabi)

Yuqoridagidek topshiriqlarni bajarishda talabalar til materiallarini kuzatadilar, so'zlarni qiyoslaydilar, o'xshash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon nafaqat imlo savodxonligining shakllanishi, balki, tovush va harflarni farqlash, so'z ma'nosining o'zgarishida to'g'ri talaffuzning o'rniva ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo'ladi, talaba so'z boyligining oshishiga, so'zlarni nutqiy vaziyatga qarab to'g'ri tanlash, o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga ham o'rgatadi.

11-mashq. So'zning umumiy (grammatik) tahlili.

1-topshiriq. "Viloyat" so'zini grammatik tahlil qiling.

2-topshiriq. Fonetik tahlil.

[v] – undosh, jarangli, sirg'aluvchi, lab-lab;

[i] – unli, lablanmagan, old qator, tor;

[l] – undosh, jarangli, yon tovush, til oldi;

[o] – unli, lablangan, orqa qator, keng;

[y] – undosh, jarangli, til o'rta, sirg'aluvchi;

[a] – unli, lablanmagan, old qator, keng;

[t] – undosh, jarangsiz, portlovchi, til oldi;

2. 1. So'z olti harf, yetti tovushdan iborat.

2. 2. Vi-lo-yat – 2 ta ochiq, 1ta yopiq bo‘g‘in, 3 ta unli, 4 ta undosh tovushdan tarkib topgan.

3-topshiriq. Morfemik tahlil: viloyat – o‘zak, tub so‘z.

4-topshiriq. Morfologik tahlil: viloyat – ot, turdosh, sodda, aniq, bosh kelishikda, birlikda, iii shaxsda.

5-topshiriq. Leksik tahlil: viloyat – mamlakatdagi yirik ma‘muriy-hududiy bo‘linma, muzofot, oblast: Xorazm viloyati, Sirdaryo viloyati.

6-topshiriq. Yuqoridagi so‘zga ma‘nodosh va uyadoshlar topish.

Ma‘nodoshlar: viloyat, muzofot, hudud, oblast...v. h.

Uyadoshlar: viloyat – davlat, mamlakat, o‘lka, elat, yurt, hudud, tuman, mavze, daha, mahalla, depara, ko‘cha, hovli...

7-topshiriq. Topilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi yoki gap hosil qilish: Sirdaryo viloyati qadimgi Mirzacho‘l hududida joylashgan...

Bizning mahalla katta anhor yoqasida joylashgan.

Berilgan topshiriqning birinchi ishi fonetik tahlilga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘zdagi tovush tasnifi, ochiq va yopiq bo‘g‘inlar, harf va tovushlar soni aniqlanadi, bo‘g‘inlarga ajratiladi va sanaladi.

12-mashq. Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi yuzasidan qilinadigan tahlillar.

Leksik tahlil namunasi

1. So‘zning lug‘aviy ma‘nosi topiladi;
2. So‘zning bir ma‘noli yoki ko‘p ma‘noli ekanligi aniqlanadi;
3. Ma‘no ko‘chgan bo‘lsa, ko‘chish usuli aniqlanadi;
4. So‘zning shakldoshlik (omonimlik), ma‘nodoshlik (sinonimlik), zid ma‘noliligi (antonimlik), bir-biriga yaqin so‘zlar (paronimlik) xususiyati aniqlanadi;
5. Umumxalq ishlatadigan so‘zmi yoki umumxalq ishlatmaydigan so‘zmi?
6. Ibora mavjud bo‘lsa, uning ma‘nosi izohlanadi.

1-topshiriq. Yaxshi-yomonning farqiga borgan Anvar boshini ko‘tarib jingalak sochga qaradi-da, ko‘zini katta-katta ochib yoqa ushlab qoldi. Gapni jadval asosida leksik tahlil qiling.

2-topshiriq. So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosini o‘rganish yuzasidan tahlilni izohlang.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing. O‘z va ko‘chma ma‘noda kelgan so‘zlarni ajrating.

Me‘mornikida bir yorqin havo ochiq.

Yulduzlar

Yulduz o‘syapti.

U yulduz – badia yorqin nur sochadi.

(Mirmuhsin)

Hovlimizda bir gul bor, har o‘zbekning hovlisini

Uning ismi – zulkumor gilam kabi gul bezar.

(A. Suyun)

4-topshiriq. Berilgan gaplardagi gul, yulduz soʻzlarining maʼnolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul soʻzlari qiz, farzand maʼnosini beradigan koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. 2-ustundagi mazkur soʻzlar esa oʻz maʼnosida qoʻllangan.

Demak, bir xil shakldagi soʻzlar ikkinchi tur maʼnoda ham qoʻllaniladi va mazkur holatni soʻzning koʻchma maʼnosi deb yuritiladi.

5-topshiriq. Gapdagi gul va yulduz soʻzlarining uyadoshlarini toping.

Namuna: gul – atirgul, chinnigul, gulsafsar, boʻtakoʻz; gul-qiz, farzand, ona, ayol, singil; yulduz-sayyora, yer, oy, quyosh, mars, yupiter, nep-tun, yulduz-qiz, goʻzal qiz, tarbiyali, aqlli, ilmi qiz... v. h.

Bu kabi oʻyin-topshiriqlar oʻquvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, soʻz boyligini oshirish va boyitishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

13-mashq. Oʻz va koʻchma maʼnoli soʻzlar orasidagi maʼnoviy munosabatlar, maʼno guruhlari (uyadosh, maʼnodosh, zid maʼnoli soʻzlar kabi) ning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi ustida ishlash, til sathlarini bogʻlab oʻrganish orqali lugʻat xazinasini oshirish va boyitish.

1-topshiriq. Ona tili mashgʻulotlarida berilgan mashqlardagi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari ustida ishleng.

Bogʻlarga namozgar salqni tushdi,

Gullar nam bargini qayirdi asta.

Oftob ham suv ichar togʻlardan pastda,

Loladek qip-qizil oʻt-shafaq oʻchdi. (U. Nosir)

2-topshiriq. Ushbu satrlarda yasama goʻzallik yoʻq, tun bilan kunning oʻzaro almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyib, koʻrib, kun botishi bilan salqin tushishini nozik badiiy boʻyoqlarda, koʻchma maʼnoda tasvirlanadi: “Oftob ham suv ichar togʻlardan pastda”, “Loladek qip-qizil oʻt-shafaq oʻchdi” kabi.

Matn ustida ishlash mashqlaridan soʻng, oʻquvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3-topshiriq. Hayvon, qush va oʻsimlik nomlari roʻyxatini tuzing. Har bir soʻzni oʻz maʼnosida va koʻchma maʼnoda qoʻllab, soʻz birikmasi va gaplar hosil qiling.

Namuna:

1-ish. Burgut, arslon, qaldirgʻoch, sher, lochin, ohu, kiyik... v. h.

2-ish. Burgutning qanoti, arslon naʼrasi, qaldirgʻochlar qoʻshigʻi, hurkak kiyik, sherning yuragi... v. h.

3-ish. Bizning shirin uyqumizni arslonlarning naʼrasi buzdi.

Burgutning qanotlari parvoz paytida salkam ikki metr ga boradi.

Arslon tongda koʻzini ochdi. uni qaldirgʻochlar galasining vijir-vijiri bezovta qilgan edi.

4-topshiriq. Hosil qilingan soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllab, gap tuzing.

1-ish. *Arslon, kiyik, sher, qaldirg'och, Bobur, lochindek bola, shoira, ohudek qiz, qarchig'ay, gul, burgut, to'ti.*

Mustaqil ish. Gaplarni kengaytiring. Namuna: Bobur – qarchig'aydek yigit. Shoira – ohu ko'zli, kiyikdek chaqqon qiz. Arslon va sherlar o'rmon va tog'larda yashaydilar. Lochinning ko'zlari nihoyatda o'tkir bo'ladi.

O'quvchilar hayvon va qush nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar.

Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or nomlari kabi uyadosh so'zlardan lug'atlar tuzish; ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda, qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, bolaning ijobiy tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi – nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriydir.

14-mashq. Ma'nodosh so'zlar – tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Og'zaki hamda yozma nutqni ma'nodosh so'zlar bilan boyitishda so'zlarni quyidagi leksik ma'no guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Istamoq, kengashmoq, so'ramoq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, fikrlashmoq, orzu qilmoq, sog'inmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, ahdlashmoq, salom-alik qilmoq kabi ma'nodosh so'zlarni leksik ma'no guruhlariga ajrating:

- istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, sog'inmoq;
- maslahatlashmoq, kengashmoq, fikrlashmoq, ahdlashmoq;
- salomlashmoq, so'rashmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilmoq...

2-topshiriq. Ma'nodosh so'zlarni ma'lum bir belgining oshib yoki kamayib borishi (so'zning ma'no darajalari) bo'yicha tartib bilan joylashtiring:

- hujra, xona, kulba, uy, koshona, saroy, qasr, qal'a;
- tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib, a'lo...

Yoshlarni mustaqil fikrlashga, leksik ma'no belgilarini farqlashga yo'naltiradigan bunday topshiriqlarni bajarish gapda so'zning o'rnini aniqlashni osonlashtiradi, undan sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

3-topshiriq. Berilgan so'zlarga leksik ma'nosi yaqin so'zlardan qator hosil qiling: gulzor, gumon, sezgi... Ularni ma'no darajalanishiga qarab joylashtiring: gulzor, gulbog', guliston, gulshan, chaman, chamanzor, bog'u-bo'ston... Har bir so'zga namunadagidek qatorlar hosil qilingach, so'zlarning oshib borayotgan ma'no ko'lamini quyidagicha tasnif qilinadi:

– “gulzor” so‘zining ma’no darajasi gulbog‘ so‘zining ma’nosidan (ko‘lami) torroq, chunki “gulzor” deganda, gul ekilgan joy ma’nosi anglashilsa, gulbog‘ deganda, gul va manzarali butalar ekilgan joy tushuniladi. “gulbog‘” so‘zida ma’no kengayishi hodisasi ko‘rinadi;

– “guliston” so‘zining ma’no ko‘lami gulzor va gulbog‘dan ko‘ra kengroq, ya’ni unda gullar vatani (diyori, mamlakati) ma’nosi bor. Lekin mazkur so‘z umumiste’ moldagi so‘z bo‘lib, “guliston”da “chaman” so‘zida anglashiladigan badiiy ko‘tarinkilik, bo‘yoqdorlik ko‘rinmaydi.

Shuning uchun guliston so‘zi gulshan, chaman so‘zlaridan pastroqda turadi.

4-topshiriq. Gapdagi ma’lum bir so‘zni uning ma’nodoshi bilan almashtiring. Namuna: O‘zbekistonimiz (respublikamiz, yurtimiz, o‘lkamiz, diyorumiz, mamlakatimiz...) kun sayin chiroyli (ko‘rkam, obod, go‘zal, suluv...) bo‘lib bormoqda.

5-topshiriq. Berilgan gap yoki matndagi ajratilgan so‘zlarga ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli so‘zlar topib, ularni o‘zgartiring.

Kulgi-yu tabassum **hamrohing** bo‘lsin,

Sen kulsang, **qalbing** ham qo‘shilib kulsin,

Yaratgan riyodan uzoqroq qilsin,

Tabassum botiniy nurdan dalolat. (T. Z.)

Namuna: hamrohing, qalbing, riyodan, botiniy nur...

1. Ma’nodoshlar – hamrohing, yaqining, sheriging, yo‘ldoshing, mahraming...

Uyadoshlar: hamrohing – sheriging, qo‘shning, hamdarding, homiying, tanishing, ulfating...

Zid ma’no: hamrohing – raqbing, dushmaning, yoving...

2. Ma’nodoshlar: qalbing, ko‘ngling, yuraging...v. h.

Matn ustida ishlash: matndan ma’nodosh so‘zlarni ajrating, guruhlang, ularga zid ma’noli so‘zlar tanlang. Topgan so‘zlaringizdan foydalanib, SB lar hosil qiling. Kulgi-yu tabassum ollohning insonga bergan betakror marhamatidir-ki, bu xislat na hayvonot dunyosida, na parranda-yu darrandalarda uchraydi. Inson qyofasidagi shodmonlik belgisi faqat insongagina xos.

Kulgi-yu tabassum bebaho gavhardir, inson qalbining yuzdagi in’ikosidir, u yurak sog‘inchlarini izhor etib turadi”... (Mirmuhsin).

6-topshiriq. Kulgu – yig‘i marhamat – malomat, la’nat

Tabassum – jahl xislat – fe’l, badfe’l

Xursandlik – xafalik fazilat – xulq-atvor

Shodlik – g‘am ne’mat – falokat, balo-qazo

O‘quvchilarning bu sohadagi bilim va malakalarini yanada kengaytirish uchun quyidagi o‘quv – topshiriqlardan foydalanish mumkin:

– matndagi yangi yoki sizga tanish bo‘lmagan so‘zni belgilang, uning ma’nosini izohlang;

– matnda ajratilgan o‘z va ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning uyadosh va ma’nodoshlarini toping;

– ma’nodosh soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan ma’noni belgilang.

– ma’nodosh soʻzlarning ma’no nozikliklarini aniqlang.

– ulardan foydalanib, matn yarating. Ma’nodosh (sinonim) soʻzlar qatorini tuzing.

Bunda darslikdagi muayyan mashqda berilgan soʻzga oʻquvchilar ma’nodosh (sinonim) soʻz izlashadi. Bunday mashqlar uchun oʻquv materialini sifatida adabiyot darsligiga murojaat etish mumkin.

Ma’nodosh soʻzlarni oʻrganish yuzasidan bajariladigan ijodiy – nazorat ishlarining yana bir turi saylanma diktant tarzida oʻtkazilishi mumkin. Bunda matn oʻqiladi, undan faqat (sinonim) ma’nodosh soʻzlarga koʻchirib yoziladi, agar oʻqituvchi lozim topsa, eshitib yozilgan ma’nodoshlarga shakldoshlar, zid ma’noli soʻzlar, uyadoshlar tanlash, ular vositasida sb lar hosil qilishga qaratilgan qoʻshimcha mustaqil ishlardan biri topshirilishi mumkin.

15-mashq. Zid ma’noli soʻzlar ustida ishlash.

Oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishda zid ma’noli soʻzlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma-xil.

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarga zid ma’noli soʻzlar tanlash: katta-..., xursand-..., tez-..., xunuk-..., oq-..., olmoq-..., kelmoq-... kabi.

Zid ma’noli soʻzlarning ma’nosini sharhlash;

Kecha-kunduz, oq-qora, yosh-qari, katta-kichik kabi juftliklar ma’nosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar bilan shugʻullanish, oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishga samarali yordam beradi.

Nutqni zid ma’noli soʻzlar bilan boyitishda xalq maqollarining oʻziga xos oʻrni, vazifasi bor. Oʻquvchilar “Oʻzbek xalq maqollari”, “Aql, aqldan quvvat oladi”, “Soʻz koʻrki – maqol” kitoblaridan zid ma’noli soʻzlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va ma’nosini sharhlaydilar.

Masalan: “Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat”, “doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib”, “yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon boʻlsa, kutma omonlik”, “Yomonga bosh boʻlguncha, yaxshiga yoʻldosh boʻl”, “Yomondan qoch, yaxshiga quloq och” kabi maqollar ma’nosini sharhlash, ma’lum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardan biridir.

2-topshiriq. Berilgan ma’nodoshlarga zid munosabatda boʻladigan qator hosil qilish ham soʻz boyligini oshirish, gap tuzish malakasini mustahkamlashda, nutqda gap ma’nodoshligi hodisalaridan foydalanishda yaxshi samara beradi. Shunda kelib chiqib, quyidagi misollarni davom ettiring.

Namuna: Bu ertakni barcha oʻqishi kerak. Bu ertakni katta – kichik oʻqishi kerak. Turmush gʻavgʻolaridan xabardor. Turmushning issiq-sovugʻini bilgan kabi.

Zid ma’noli soʻzlar koʻproq sifat va ravish soʻz turkumlaridan hosil boʻladi. Ular: – soʻz birikmasi tarkibida: baland bino – past bino; oq marmar-qora marmar kabi;

Butun bir birikmada: baland bo‘yli, semiz, keksa ayol – past bo‘yli, oriq, yosh ayol; qalin muqovali (jildli) katta kitob – yupqa muqovali (jildli) kichik kitob kabi;

Ba‘zi birikmada zid ma’noga ega bo‘lgan so‘z boshqa birikmada aynan shu ma’noni bildirmasligi ham mumkin. Solishtiring: qalin daftar – yupqa daftar, ammo qalin soch – yupqa soch emas, siyrak soch; issiq havo – salqn havo, ammo issiq suv – salqn ichimlik emas, sovuq yo muzdek ichimlik kabi; – so‘z zid ma’noli juftiga ega bo‘lmaganda, yasovchi qo‘shimchani qo‘shish bilan zid ma’noli tushunchalarni ifodalash usulidan foydalanish orqali so‘z boyligini oshirish mumkin: ma’noli ma’nosiz, bema’ni bama’ni kabi.

Zid ma’noli so‘zlarning ma’nosi, tuzilishini bilish – narsa va hodisalar orasidagi farqni to‘g‘ri ajrata olish imkonini beradi. So‘zning shakl va ma’nolarini belgilashda ayni bir so‘zning ma’nodoshlari va zid ma’nolilarini kontekstda qiyoslash ham talabada ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta yordam beradi. Sovuq va issiq so‘zlari ham o‘ziga xos shakldoshlari va zid ma’nolilariga ega: issiq havo – sovuq havo, qaynoq suv – muzdek suv, qaynoq hayot – sokin hayot, tinch mamlakat – notinch mamlakat, xush xabar – noxush xabar...

Komilu, kamtar, sabrni ahli ziyodin o‘rgangan,
Aql ila axloqni kaykovus bobodin o‘rgangan.
Rag‘bati bisyor, tasavvufdan kelib so‘z aytadur,
Ilm ila andishani ustoz omondin o‘rgangan.
Mas’ul ul aytqon so‘zig‘a, do‘stu, ayolu ahlig‘a,
Jismu jon, dunyo tavakkal ota-ona mahrig‘a.
Otani e’zoz etib, tuzdi devon farzandi xush,
Ne ajab, qo‘l ursa ul ilmu lison tahririg‘a.
Nazmiy matn ustida ishlash uchun topshiriqlar:

3-topshiriq. Berilgan nazmiy matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping. Ular bilan so‘z birikmalari hosil qiling.

4-topshiriq. Matndagi zid ma’noli so‘zlarning ma’nosini sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni o‘z ma’nosida qo‘llab, gaplar tuzing. Kichik matn yarating.

Ko‘rinadiki, zid ma’noli so‘zlarni so‘zlovchi nutqga kontrast – ekspressiv bo‘yoq beruvchi vosita sifatida o‘rganish o‘zbek tili o‘qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

16-mashq. Shakldosh so‘zlar ustida ishlash.

Har bir til lug‘atida tovush (harf) lar tarkibi va yozilishi jihatdan bir xil ammo ma’nosi har xil so‘zlar shakldoshlar mavjud. Ular ma’nolariga ko‘ra turli buyum, voqea – hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko‘pincha, tovush tarkibiga ko‘ra shakldoshlar bilan ko‘p ma’noli so‘zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi.

Ayrim so‘zlar o‘zlarining asl ma’nolaridan boshqa ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Chunonchi, inson organizmidagi a‘zo nomlari: bosh, ko‘z, qosh, yuz,

burun, og‘iz, til, qo‘l, oyoq, quloq v.h. O‘zining asosiy leksik ma‘nosidan tashqari ko‘chma ma‘nolarda ham ishlatiladi, ularda ichki ma‘no “ip”lari saqlanadi.

Masalan: bosh – organizmning bosh qismi – boshqaruvchi ma‘nosini anglatadi va xuddi shu ma‘no boshliq, boshqarma bosh maqola, so‘z boshi, yo‘l boshi, suv boshi, ish boshi, bir bosh uzum kabi so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarda saqlanadi.

Natijada, lug‘atimiz tarkibida shakli bir, ma‘nosi turlicha so‘zlar paydo bo‘ladi. Shakldoshlik va ko‘p ma‘nolilik orasida farq ham mavjud: – shakldoshlarda so‘z ma‘nolari bir-biriga o‘xshamaydi.

Ko‘k – o‘simlik, rang, osmon, motam libosi;

Olma – daraxt, meva, buyruq fe‘li kabi.

Keldi bahor, pishdi tut (meva),

Tut yesang, shunday ish tut (qil),

Chug‘urchiq kelishin kut,

Bekorga sinmasin tut (daraxt).

Ushbu tuyuqda tut – meva, ish tut – ish qil – buyruq fe‘li, tut – mevali daraxt turi ma‘nolarida ishlatilgan va mazkur so‘zlar nutqni ravon, qiziqarli, ta‘sirli bo‘lishiga xizmat qilgan.

– ko‘p ma‘noli so‘zlarda so‘z ma‘nolari bir-biriga yaqin va aloqador bo‘ladi: ko‘z – ko‘rish a‘zosi, uzukning ko‘zi, derazaning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, ishning ko‘zi kabi;

– shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: yuragiga o‘t tushdi – yuragi yondi.

Nutqda bir o‘rinda so‘z, ikkinchisida so‘z birikmasini qo‘llash bilan so‘z o‘yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

1. Sotuvchi do‘konda qirq ishni o‘ylar,

Savdoda bo‘y – endan qirqishni o‘ylar.

“Qing‘irlik qilmagin!” – degan kishining

Darhol qadamini qirqishni o‘ylar (gazetadan).

2. Deydilarki, kungaboqar umr bo‘yi kunga boqar.

Yuqoridagi birinchi to‘rtlik – tuyuqda, qirq ish – “son ot”, miqdor; qirqish – fe‘l, kesish, qisqartirish; qadamini qirqish – haydash ma‘nolarida ishlatilgan.

Ikkinchi matnda kungaboqar – ot, o‘simlik, hamda ot+fe‘l+ar birikmasi – kunga boqar – shakldoshlardir.

Shakldoshlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan xalq og‘zaki ijodida, badiiy adabiyotda poetik janr – tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. U mumtoz adabiyotda tajnis san‘ati deb ataladi.

Ko‘z yoshim tuproq ila gar qotila, (aralashsa, qorishsa)

Kelmagaymen javridin haqqo, tila, (tilga)

G‘amzasi o‘ltirdi yu, ul bexabar,

Men agar o‘lsam, ne kam ul qotila. (qotilga) (Lutfiy)

1-topshiriq. Yuqoridagi matnlardan shakldoshlarni topib, izohlang.

2-topshiriq. Shakldosh qatnashgan she'riy parcha topib, shakldoshlikni yuzaga chiqarayotgan qismlarni izohlang.

17-mashq. Atamalarning qaysi fanga mansubligiga ko'ra guruhlarga ajratish, so'z va atamalar orasidagi munosabatni aniqlash.

Til – anatomiya atamasi; til – muloqot vositasi, ona tili faniga oid atama; izg'irindek dilni tilgan (sifatdosh) o'ylar... kabi); uyadosh va shakldosh atamalar yordamida matn tuzish kabi topshiriqlarni bajarish – Talaba (o'quvchi) lug'at zaxirasini atamalar bilan boyitishga yordam beradi.

1-topshiriq. Ma'lum bir fan sohasida tor, xususiy ma'noga ega bo'lib, ko'pchilik boshqa ma'noda keng qo'llaydigan so'zlar toping. Tor va keng qo'llanish ma'nolari doirasida gaplar tuzing.

Namuna: quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi – yer. Osmon uzoq, yer qattiq (m.), sen yerni boqsang – yer seni boqadi. Dehqon rizqni yerdan topadi.

2-topshiriq. “Geografiya”, “matematika”, “tabiatshunoslik” darsliklarining ma'lum bir betini sinchiklab o'qing. Ularda xususiy, tor ma'noda qo'llanilgan va keng qo'llanishda boshqa ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

18-mashq. Iboralar ustida ishlash.

O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhlash ma'no darajalarini oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Tadbirkor o'z ishini biladi. 1. Tadbirkor ishning ko'zini biladi.
2. Onamning jahli chiqdi. 2. Onamning sabr kosasi to'ldi.
3. U ishni yaxshi bajardi. 3. U ishni xamirdan qil sug'urganday bajardi.
4. Masalani yechishda Shahlo juda qiynaldi 4. Masalani yechishda Shahloning. ona suti og'ziga keldi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga ona tili mashg'ulotlarida iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil ibora yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o'rgatish ham so'z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida iboralar ustida ishlash yuzasidan bajariladigan mashqlardan namunalar beramiz.

1-topshiriq. Iboralar mazmunini sharhlang, ularni avval ma'nodoshlari, so'ngra oddiy so'zlar bilan almashtiring.

1. Gapi bir joydan chiqdi, og'iz-burun o'pishdi – kelishdi.
2. Dimog'i chog' bo'ldi, vaqti chog', chehrasi ochildi, og'zi qulog'iga yetdi, boshi osmonga yetdi... – xursand bo'ldi.
– yeng shimarib, ishga tushdi boshi bilan sho'ng'idi, g'ayrat qildi – astoydil ishga tushdi.
– oq-qorani tanidi do'st-dushmani ajratdi – hayot tajribasiga ega bo'ldi.
– terisiga sig'madi og'zining tanobi qochdi, boshi ko'kka yetdi – suyundi.

– tili qchidi – gapirgisi keldi.

2-topshiriq. Iboralarni zid ma'nodagi muqobillari bilan almashtiring.

– dimog'i chog' – kayfiyati buzuq.

– yeng shimarib – qo'l uchida, naridan-beri.

– terisiga sig'madi – tarvuzi qo'ltig'idan tushdi.

– tili qchidi – tovushi o'chdi, dami chiqmadi...

Shu bilan birga, talabalar tomonidan to'plangan iboralarni guruh ishtirokida eshitish, to'g'rilash, tahlil qilish, to'ldirish mashqlari o'tkazilishi ularda til sezgirligi, so'z tanlash mahoratini, matn yaratish madaniyatini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Matn ustida ishlash uchun topshiriqlar.

3-topshiriq. Gap juftlarida ajratilgan qsmalar orasida qanday ma'no munosabatlari borligini aniqlang.

4-topshiriq. Berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yuvosh, qo'rqdi, chaqqon, toza, ko'p gapirdi, gapirildi, quvondi.

Namuna: yuvosh – qo'y og'zidan cho'p olmagan, qo'rqdi – kapalagi uchdi kabi.

Iboralar o'rtasida o'zaro shakldoshlik va ma'nodoshlik ham bo'lishi mumkin: boshga ko'tarmoq (e'zozlamoq), boshga ko'tarmoq (shovqon-suron solmoq) – shakldosh iboralar:

Tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan quruq chiqadi – ma'nodosh iboralar.

19-mashq. Leksik tahlil orqali lug'at boyligini oshirish.

Leksikologiyani o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so'zning botiniy, lug'aviy ma'nosini tavsiflash shu jarayonda to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

1-topshiriq. Viloyat so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Viloyat – mamlakatning muayyan bir millat vakillari istiqomat qiladigan qismi, bo'lagi, yashash joyi; Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati...

2. Ma'nodoshlari: hudud, vodi, depara, manzil...

3. Bugun Respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida havo issiq bo'ladi.

2-topshiriq. Leksik tahlil jarayonida so'zning lug'aviy ma'nolari haqida o'z mustaqil fikringizni yuriting.

Baqbaqa, tanbal, omoch so'zlariga ma'nodosh so'zlarni izlang, iloji bo'lsa, boshqa tildagi tarjimasini toping. Shu so'z ishtirok etgan gaplar tuzing va matn yarating.

20-mashq. Otlarning yasalishi va ot yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash.

1-topshiriq. O'qituvchi yasovchi qo'shimchalar turi ma'nolar berishga

o'quvchilar e'tiborini tortish uchun misollar keltiriladi. Masalan:

- chi – ishchi (shaxs)
- oq – o'roq (narsa-qurol)
- bon – bog'bon (shaxs)
- kor – paxtakor

1. Shaxs bildiruvchi otlar – o'qituvchi...
2. Narsa-buyum bildiruvchi otlar – kitob, daftar...
3. O'rin-joy bildiruvchi otlar – paxtazor, o'tloq...
4. Mavhum otlar – yaxshilik, borliq...

2-topshiriq. Unumli yasovchi qo'shimchalar qatori va unumsiz yasovchi qo'shimchalar qatoriga ham misollar toping: -indi – qirindi. 1) uy (uymoq)+im – uyum tara; tara+q – taroq; un+im – unum bo'ya+q – bo'yoq, uch+iq – uchuq...

O'quvchilar ot yasovchi qo'shimchalarni bilib olganlaridan so'ng tub va yasama otlarni ongli farqlaydigan bo'ladilar.

21-mashq. Lug'at diktant ustida ishlash.

Uy, to'y, tosh, chaqmoq, momaqaldiroq, daraxt, majlis, odob, azob, do'stlik, kitob, ishchi, go'zal, kichik, shirin, bilimli, oq, o'q, yoz, chop, kel, o'yla, ishladi, uxladi, suhbatlashdi, so'zladi.

Diktant yozib bo'lingach, o'quvchilar har bir so'zning lug'aviy ma'nosini sharhlashlari va uning qaysi so'z turkumlariga qarashli ekanligini aytishlari lozim bo'ladi.

1-topshiriq. So'zlarning lug'aviy ma'nosini sharhlang, qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini aniqlang.

1. Uy – odamlar yashashi uchun mo'ljallangan deraza, eshik, tomi bor bino; uy – nima? So'rog'iga javob bo'ladi, ot – so'z turkumiga kiradi.

2. To'y – bazm, nikoh to'yi, beshik to'yi, xatna to'yi, oltin to'y kabi tantanali marosim; to'y – nima? So'rog'iga javob bo'ladi, ot so'z turkumiga kiradi.

3. Ishchi – biror foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxs; kim? So'rog'iga javob bo'ladi, ot.

4. Go'zal – belgi xususiyatni anglatadi, ma'nodoshlari: chiroyli, ko'rkam, jozibali; qanday? So'rog'iga javob bo'ladi, sifat.

5. O'qdi, ishladi – tugallangan harakat ma'nosini bildiradi: qziqb o'qdi, tinmasdan ishladi, fe'l.

2-topshiriq. Mazkur so'zlar bilan so'z birikmalari hosil qiling, gaplar tuzing. Kim? nima? qanday? nima qildi? nima qiladi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing. Ularning qanday so'z turkumiga qarashli ekanligini aytib bering.

3-topshiriq. Gaplardan ot, sifat, fe'l turkumlariga oid so'zlarni ajratib guruhlang.

Shu tariqa lug'at diktanti tarkibidagi so'zlar og'zaki sharhlansa o'quvchilarda:

- mantiqiy tafakkur doirasi kengayadi va rivojlanadi;
- fikr ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi va rivojlanadi;
- nutqda so‘z qo‘llash malakasi shakllanadi;
- so‘z turkumlari yuzasidan egallangan bilimlar aniqlanadi, umumlashtiriladi, mustahkamlanadi.

22-mashq. Ta’limiy diktant.

Ot so‘z turkumi haqida o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bog‘lab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi ma’rifiy matnlardan foydalansa bo‘ladi.

Istiqlol

Mustaqilligimizni qo‘lga kiritganimizga ham o‘ttiz ikki yil bo‘ldi. Qisqa muddatda O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu yo‘l mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘laroq, samaraliroq foydalanishni, xalqimizning milliy qadriyatlarini, qadimiy an‘analari, boy ma’naviyatini tiklash bilan qo‘shib olib borishni ko‘zda tutadi.

Milliy an‘analarimiz, qadriyatlarimiz qayta jonlandi. Ma’naviyatimiz tiklandi. Tarix va kelajagimizga o‘z ko‘zimiz bilan boqib, o‘z aqlimiz bilan baho bera boshladik.

Darhaqqat, istiqlol – moddiy-ma’naviy sohadagi bugungi yuksalishimizning, dunyo bilan erkin, tengma-teng munosabatlarimizning tamal toshidir.

Matnni tahlil qilishda ta’limning oldingi bosqichlarida o‘rganilgan ot so‘z turkumi haqidagi ma’lumotlarga tayaniladi. Bunda quyidagi amaliy topshiriqlarni bajarish mumkin:

1-topshiriq. Matnda uchragan otlarning lug‘aviy ma’nosini sharhlang. Qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting.

2-topshiriq. Ajratilgan so‘zlarga, ma’nodosh va uyadosh so‘zlar tanlang.

3-topshiriq. Kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga qarashli ekanligini ayting. Ular bilan ot+ot, sifat+ot, son+ot qolipli so‘z birikmalarini tuzing.

4-topshiriq. Hosil qilingan so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yarating.

23-mashq. Morfologik tahlil namunasi ustida ishlash.

1-topshiriq. “Diyorimizni” so‘zini morfologik tahlil qiling.

1. Diyorimizni – ot, turdosh ot, aniq, sodda, tub, I shaxs ko‘plikda, tushum kelishigida.

2-topshiriq. Birinchi topshiriqda berilgan so‘zning lug‘aviy ma’nosini sharhlash: so‘z ma’nodoshlari (diyor – yurt, vatan, o‘lka, viloyat, manzil); uyadoshlari (diyor, viloyat, jumhuriyat, shahar, tuman, mahalla, ko‘cha, guzar, manzil, qishloq, ovul) hamda zid ma’noli (ona diyor – xorij; ona yurt – begona yurt... v. h.) So‘zlar topilib, ular ishtirokida gaplar tuziladi:

Ona diyorimizga tashrif buyurayotgan xorijiy mehmonlarning keti uzilmayapti.

3-topshiriq. MYABT – 4 moduli asosida matn yarating.

1-ish. Ma'nodosh so'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shib, yasama otlar hosil qilish: yurt + dosh, vatan + parvar, o'lka + shunos, manzil + goh, sho'r + qshloq, shahar + lik, mahalla + dosh, yurt + chilik, el + chilik...

2-ish. Tuzilgan yasama so'zlardan so'z birikmalari hosil qiling: bizning mahalla, tug'ilgan manzilim, ona yurt sarhadlari, vatanim chegarasi, mamlakat ichkarisi, ona diyor ko'rinishi...

3-ish. Tuzilgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar qurish:

1. Bu yil paxta terimiga shaharlik yurtdoshlarimiz ham faol qatnashishdi.
2. Mustaqil Respublikamiz taraqqiyotini ijodiy barkamol farzandlar belgilaydi.

3. Yaylovlari ipak, barqut ona yurtim sarhadlari...

4-ish. Qurilgan gaplardan eng ma'qulini tanlab, shu mavzuda matn yarating. Matnda ishtirok etgan otlarni ajratib, ma'no farqlariga ko'ra guruhlang.

Namuna: mening jahonda tengi yo'q ona diyorim, bag'rikeng, mehmonnavoz, ko'ngli oq, yurtdoshlarim... (matni davom ettiring va xulosa qiling).

Topshiriqlarni bajarish natijasida egallangan bilimlar nazorat qilinadi; so'zning shakli, qurilishi, ko'rinishi tavsiflanadi. Leksik tahlil esa talaba nutq boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqda so'z tanlash, uni o'rinli qo'llash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan ona tili mashg'ulotlarida "so'zning umumiy tahlili" nomli jadvaldan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda barcha tahlil turlari o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

24-mashq. Yordamchi so'zlar ustida ishlash.

Ko'makchilar qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir savolga javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi. O'rganilgan bilimlarga asoslanish, ularni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Ko'makchilar mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi?

2. Ko'makchi gapda qanday vazifani bajaradi?

Savollarga javob olingach, quyidagi gaplar yozdiriladi:

1. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan. 2. Ona o'rgatgan til ham hamisha biz uchun ona kabi ardoqlidir. 3. Hayot-quyosh bilan, inson – xulq bilan go'zal. 4. Jasorat – iste'dod singari, maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi.

1-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan ko'makchilar qanday sintaktik munosabatlarni ifodalayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Ularning mustaqil so'zlardan farqni ayting:

Matn tarkibidagi ko'makchilar parvoz uchun, baxt uchun, biz uchun; quyosh bilan, xulq bilan; iste'dod singari, maqsad sari kabi o'zi bog'lanib

kelgan soʻzdan keyin kelib, gapda soʻzlar orasidagi birgalik, maqsad, sabab, oʻxshatish, yoʻnalganlik, davomiylik kabi turli tuman sintaktik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Sof koʻmakchilar vazifa jihatidan kelishik qoʻshimchalariga yaqin turadi; xatni pochta orqali joʻnatdi – pochta joʻnatdi; kitobni sen uchun oldim – senga oldim... Sof koʻmakchilarning qisqargan shakllari (-la, -chun) chiziqcha orqali yoziladi: mehnat-la yaralur shoh asarlar ham... Mehringni oʻqishga berganing-chun xursandman.

Aslida boshqa soʻz turkumlari (ot, feʼl, ravish) dan boʻlgan, lekin koʻpincha koʻmakchi vazifasida qoʻllanadigan soʻzlar (old, orqa, yon, oʻrta, ost, ust, ora...) Ham mavjud:

Qiyoslang:

1. Usti ochiq mashina. 1. Shahar ustidan samolyot uchib oʻtdi.
2. Keyin keladi. 2. Darsdan keyin keladi.
3. Muzeida oldin boʻlgan. 3. Mendan oldin soʻzladi.
4. Orqada qoldi. 4. Hammadan orqada qoldi.

Misollarni qiyoslashdan maqsad usti, keyin, oldin, orqada kabi soʻzlar qayer? qachon? qayerda? soʻroqlariga javob boʻlishi, gapda hol vazifasida kelganligini aniqlashdir.

Soʻngra shahar ustidan, darsdan keyin, mendan oldin, hammadan orqada koʻmakchili birikmalar oʻzidan oldin kelgan soʻz bilan birgalikda qayerdan? qachon? soʻroqlariga javob boʻlib, gapda oʻrin va payt holi vazifasini bajarayotgani aytiladi.

Koʻmakchilar haqida oʻrganilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash maqsadida quyidagi yozma nazorat ishi, matn ustida ishlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

25-mashq. Koʻmakchilar ustida ishlash.

1. Toshkent mustaqillikdan keyin tanib boʻlmaydigan darajada oʻzgarib, koʻrkamlashib ketdi. 2. Xalqmizning tinchligi uchun, baxt-saodati uchun gʻayrat bilan bilim olamiz. 3. Oybek hayajonini bosish maqsadida oʻzini mahkam tutib turar, bosiqlik bilan soʻzlardi. 4. Sayohatchilar qirgʻoq boʻylab sekin borardilar.

A) matndagi koʻmakchili birikmalarni ajrating;

B) ular ishtirokida gap tuzing. Koʻmakchili birikma maʼnosini tushuntiring.

1-topshiriq. Ilgari, burun, oldin, avval; beri, buyon kabi koʻmakchilar ishtirokida avval soʻz birikmasi, soʻngra ular ishtirokida gap tuzing. Koʻmakchili birikma maʼnosini sharhlang.

2-topshiriq. Sari, kabi, burun, keyin, haqida, ostida koʻmakchilarining maʼnodoshlarini toping. Ulardan soʻz birikmalari hosil qiling. Mazkur birikmalarni qatnashtirib, gaplar quring, soʻngra matn yarating. Yaratilgan matndan koʻmakchili birikmalarni ajratib, ularning lugʻaviy maʼnosini sharhlash oʻquvchi nutqiy maxoratini shakllantiradi. Ogʻzaki sharh jarayonida oʻquvchilarning mustaqil fikr ifodalash koʻnikmasi rivojlanadi, oʻz nutqda koʻmakchi soʻzlarni qoʻllash malakasi shakllanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi ishlardan foydalanish mumkin:

-bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (bilan, uchun, sari, tufayli, chamasi v. h.);

-jo'nalish kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (qadar, qarshi, qarab, yarasha, muvofiq v. h.)

-chiqsh kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (boshqa, tortib, boshlab, beri, nari v. h.) Ro'yxatini tuzish, ularni ma'nodoshlari bilan almashtirish, kelishik qo'shimchalarini ko'makchi bilan yoki aksincha, ko'makchini kelishik qo'shimchalari bilan almashtirishni o'ylab ko'ring.

"Ko'makchi"lar mavzusini o'rganishda MYABT-4 (matn yaratishning bosqichli tizimi) MM dan foydalanish:

1. Sof ko'makchilarni ro'yxat qilish.

2. Ko'makchili so'z birikmalari hosil qilish.

3. Mazkur birikmalardan gaplar tuzish.

4. Gaplardan birini tanlab, shu mavzuda ko'makchili birikmalar ishtirok etgan kichik matn yaratish.

Ko'makchilarning o'z vazifasi jihatidan kelishik qo'shimchalariga o'xshashligi, ko'pincha, ularning o'rnini almashtirib ishlatish mumkinligi haqida (-ga, uchun) umumiy xulosaga kelinadi. Ammo ularni har doim o'zaro muqobil deb bo'lmaydi.

3-topshiriq. Berilgan gaplarga e'tibor qiling.

1. Vatan mustaqil ligi va yo'qotishlarga qarshi olib borilgan kurashlar haqida aqlu farosat bilan o'ylash ham kerak.

2. Shundagina mustaqil likning mohiyatini teran hamda to'g'ri anglash mumkin.

O'quvchilardan biri birinchi gapni o'qib, uchun, haqida, bilan ko'makchi ekani, bu holatda kelishik qo'shimchasi bilan almashtirib bo'lmasligi, o'zicha ma'no bildirmasligi, o'zidan oldin kelgan mustaqil lik, yo'qotish aqlu farosat so'zlari bilan birgalikda nima uchun? nima haqida? nima bilan? so'roqlariga javob bo'lib, o'ylash kerak fe'liga bog'lanishda vosita vazifasini bajarishini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

So'ngra ikkinchi talaba har ikki gapni o'qib, va, hamda bog'lovchilari ikki bir xil grammatik ma'noli so'zlarni o'zaro bog'layotganini, uyushiq bo'laklar hosil qilayotganini aytadi. Shu asosda bog'lovchilar ham yolg'iz holda gap bo'lagi bo'la olmasligi va o'zicha so'roqqa javob bermasligi bilan ko'makchilarga o'xshashligi aniqlanadi.

26-mashq. Bog'lovchi so'zlar haqida amaliy mashq.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Bog'lovchilarni topib, ularning bajarayotgan vazifasini tushuntiring. Ajratilgan bog'lovchilar yordamida sblar, gaplar tuzing, ijodiy matn yarating.

Namuna: gul ekish uchun yer yumshoq hamda yaxshi ishlangan bo'lishi, lekin tuproq kukundek mayda bo'lmagani ma'qul. Shunday qilinsa, yomg'ir yoqqanda, yer qatqaloq bo'lib qolmaydi...

2-topshiriq. Ko‘chatlar o‘tqazilgach, goh suv quyib, goh atrofini yumshatib, yaxshi parvarish qilganimiz uchun, ular tezda yuqoriga bo‘y cho‘zib, baquvvat hamda sershox bo‘lib ketishdi... (matnni davom ettiring).

3-topshiriq. Matndagi bog‘lovchilarni muqobillari bilan almashtirib aytish (va, ham, hamda, bilan), ular ishtirokida gaplar tuzish:

Zulxumor bilan Gulchehra

Zulxumor va Gulchehra mevalarni terishdi.

Zulxumor hamda Gulchehra

– biriktiruv bog‘lovchilari (va, ham, bilan) gap bo‘laklarini va gaplarni bog‘laydi: ishda g‘ayrat va chidam kishiga yo‘ldosh bo‘lsin;

– zidlov (lekin, biroq, ammo) bog‘lovchilari keyingi gapga qarama-qarshi ma‘noda beriladi: yomg‘ir tingan, ammo ko‘cha shamol va sovuq edi.

– ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, goh, dam, ba‘zan) voqea-hodisalarning biri yo galma – gal bo‘lishi izohlab beriladi: goh bo‘ron ko‘tariladi, goh kuchli jala quyadi.

27-mashq. Yuklamalar ustida ishlash.

Yuklamaning gap yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha ma‘no berishi haqida talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida qiyoslash usulidan foydalanish yaxshi samara beradi:

1. Siz biznikiga kelasiz. 1. Siz biznikiga kelasizmi?

2. Tog‘larda, yoz oylarida yomg‘ir 2. Tog‘larda hatto yoz oylarida ham yomg‘ir yog‘adi.

3. Sen kelishing bilan biz yo‘lga tushamiz. 3. Sen kelishing bilanoq biz yo‘lga tushamiz.

1-topshiriq. Ikkala ustundagi sodda darak va so‘roq gaplarni qiyoslab o‘qing. Ularning mazmun jihatidan turini aniqlang. So‘z yuklamalar va qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalarni ajratib ko‘rsating.

2-topshiriq. -mi yuklamasi gapga qanday qo‘shimcha ma‘no berayotganini ayting. O‘quvchilar birinchi darak gapga -mi yuklamasi qo‘shilib, qo‘shimcha so‘roq ma‘nosini hosil qilayotganligi, ikkinchi gapdagi hatto yuklamasi kuchaytiruv ma‘nosini berishi, uchinchi gapdagi -oq yuklamasi ta‘kidlash kabi qo‘shimcha ma‘no kiritayotganligi haqida tushuncha hosil qiladilar.

28-mashq. Taqlid so‘zlar ustida ishlash.

Egallangan bilimlarni takrorlash mustahkamlash, umumlashtirish maqsadida quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin:

1-topshiriq. Taqlidiy so‘zlarning undovlardan farq va o‘xshash tomonlarini aniqlang.

2-topshiriq. Taqlidiy so‘zlaridan ot, fe‘l va boshqa turkum so‘zlari yasang (qarsak, qo‘ng‘iroq, taqa, qah-qah (ot); pichirla, chiqlla, jarangla, gurkira, yarqra (fe‘l); shildirama, yaltiroq, mildiroq (sifat)...

3-topshiriq. Taqlidiy so‘zlardan “taqlidiy so‘z + fe‘l” qolipli so‘z birikmalari hosil qiling.

Namuna: g‘ovur-g‘uvur eshitildi, dag‘-dag‘ titradi, piq-piq yig‘ladi, mo‘lt-mo‘lt qaradi, milt-milt oqdi.

4-topshiriq. Mazkur so‘z qoliplari ishtirokida gap tuzing va matn yarating. Juft va takror holda qo‘llangan taqlid so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yishni unutmang.

5-topshiriq. Matndan taqlid so‘zlarni ajratib, guruhlang.

29-mashq. Gapni tahlil qilish metodikasi.

Tahlil qilishda esa quyidagi jadvaldan foydalanishni tavsiya etamiz:

Gap tahlili
<ol style="list-style-type: none">1. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni aniqlanadi;2. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi aniqlanadi;3. His-hayajonlilikka ko‘ra turi aniqlanadi;4. Tuzilishiga ko‘ra turi aniqlanadi;5. Sodda gapning qaysi turi ekanligi aniqlanadi;6. Qo‘shma gapning qaysi turi: ergashgan, bog‘langan, bog‘lovchisiz ekanligi aniqlanadi;7. Bog‘lovchi vositalar aniqlanadi;8. Murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, uning turi topiladi;9. Gap bo‘laklari topiladi;10. Kesimning turi topiladi;11. To‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo‘lsa, ularning turlari topiladi;12. Undalma va kirish so‘z bo‘lsa aniqlanadi.

1-topshiriq. Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman. Gapini sintaktik tahlil qiling.

Sintaktik tahlilda morfologiyaga tegishli jihatlar deyarli tahlil qilinmaydi. Shu sababdan tahlilimiz biroz osonlashadi. Agar morfologik jihatlari ham tahlil qilinadigan bo‘lsa, gap tahlili bir necha marta ortiq vaqt talab qiladi. Shuni hisobga olib faqat sintaktik(Gap sintaksisi) tahlil qilamiz:

“Bahaybat samolyot yerga ohista qo‘ndi” gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so‘zlar soni: mustaqil so‘zlar – 5 ta, yordamchi so‘zlar – yo‘q, gap bo‘laklarining ifodalanishiga ko‘ra turi – to‘liq gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi – darak gap, his-hayajonlilikka ko‘ra turi – his-hayajonsiz gap, tuzilishiga ko‘ra turi – sodda gap, (agar sodda gap bo‘lsa)sodda gapning qaysi turi – egali gap, ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirok etishiga ko‘ra sodda yoyiq gap, (agar qo‘shma gap bo‘lsa)qo‘shma gapning qaysi turi: qo‘shma gap emas, bog‘lovchi vositalar – yo‘q, murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, uning turi – murakkab qo‘shma gap emas, gap bo‘laklari – 5 ta gap bo‘lagi bor, kesimning turi – fe‘l kesim(qo‘ndi), to‘ldiruvchi – yo‘q, aniqlovchi – bitta sifatlovchi aniqlovchi (bahaybat) bor. Hol –bitta o‘rin holi(yerga), bitta vaziyat(ravish) holi(ohista)bor. Undalma va kirish so‘z – yo‘q. Chizmasi quyidagicha:
Bahaybat samolyot yerga oxista qo‘ndi.

2-topshiriq. Siz tahlil qilgan gapda yuqorigi tahlildan qaysi jihatlarni inobatga olmabsiz? Nima uchunligini izohlang. Bifarq qoldirilgan qismlarga qo‘shimcha tushuntirish bering.

30-mashq. Tahlil tafakkurni kengaytiradi.

O‘quvchilarning so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nalari haqidagi tasavvurlarini boyitish uchun ayrim ijodiy o‘quv – topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalaridan otli, sifatli, ravishli, ravishdoshli birikmalarni ajrating.

2-topshiriq. Yuqoridagi so‘z birikmalari ishtirok etgan gaplar tuzing. So‘z birikmalarining gapdan farqga diqqat qiling.

3-topshiriq. SB (so‘z birikma)larni kelishikli birikmalar, ko‘makchili birikmalar qo‘shimchasiz birikmalarga ajratish. Quyida so‘z birikmalari mavzusini takrorlash, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, talabada og‘zaki nutq mahoratini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan namunalari berildi:

Savol va topshiriqlar.

– so‘z birikmalari (SB) ning nutqdagi o‘rniva bajaradigan vazifasini tushuntiring.

– SB bilan so‘zning o‘xshash tomonlarini ayting.

– SB bilan so‘z o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

– SB nimalardan tashkil topadi?

– SB laridagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’riflang.

– SB larda grammatik aloqa nima orqali ifodalanadi?

– SB larda mazmuniy aloqa qayerda ko‘rinadi?..

O‘qituvchining qat’iy, atroflicha o‘ylab va o‘quvchi bilim saviyasiga moslab tuzgan savollar tizimi, o‘quvchining faol va ongli faoliyat yuritishiga, javobni mustaqil, ilmiy uslubda tashkil qilishiga sabab bo‘ladi.

Gapda so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lashga xizmat qiladigan vositalar ustida ishlash uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin:

1. Badiiy asar o‘qish (bilan) hordiq chiqaramiz. 2. Topshiriq o‘z vaqti (da) bajarildi. 3. Shahnoza shahar (ning) qurilishi (ni), u (ning) havosi (ni) maqtadi.

Tahlil uchun topshiriq

1. So‘zlarning bir-biri bilan qanday bog‘langanini aniqlang.

A) birinchi gapdagi yordamchi so‘z bilan – ko‘makchisi;

B) ikkinchi gap chiqsh kelishigi qo‘shimchasi yordamida bog‘langan;

V) uchinchi gap esa qaratqch va tushum kelishigi qo‘shimchalari vositasida bog‘langanligi aytiladi.

Bu xildagi mashqlar o‘quvchini gap tuzishda kelishik, egalik qo‘shimchalari va yordamchi so‘zlarning rolini anglab olishga, so‘z birikmalari mohiyatini to‘g‘ri tushunishga, sbni so‘z qo‘shilmalari va gaplardan ajratishga o‘rgatadi.

Birinchi sentabr. Mustaqillik bayramiga yig'ilgan xalq, qiziqish va hayajon bilan tadbir boshlanishini kutmoqda. Mana, nihoyat, bayram namoyishi boshlandi: turli viloyat vakillari o'z san'atlari bilan bayram qatnashchilarini xushnud qildilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

4-topshiriq. Gapnlarni ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turini ayting. Ularning o'qilish ohangiga diqqat qiling.

5-topshiriq. Yoyiq darak gaplardagi ega va kesim guruhlari orasida sintagma (qisqa to'xtalish) ning o'rnida tinish belgisi qo'yilmasligi sababini ayting.

Murakkab ot-kesim: murakkab ot-kesimning qanday so'z bilan ifodalanishi, uning tarkibida bog'lamaning qo'llanishi; shuningdek, bunday ifodadagi bog'lama tushirilganda, ega va kesim orasida tirening ishlatilishiga urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Bu borada qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni amalga oshirish mumkin:

1. Sabr tagi – sariq oltin. 2. Muzaffar va'dasiga vafo qildi. 3. dildora eshikni ochib kirdi. 4. Poyonsiz dalalar oq libos kiydi. 5. Samimiy aytilgan so'z yurakka borib yetadi.

Ushbu gaplardan kesimlar aniqlanib, ularning sodda va murakkabligi (ochib kirdi, vafo qildi, sariq oltin), shuningdek, ibora orqali (oq libos kiydi, yurakka borib yetadi) ifodalanishi haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga kesim ot bilan ifodalanganda, bog'lama yo kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, yozuvda egadan so'ng tire (–) qo'yilishi, kishilik olmoshi bilan ifodalangan egani alohida ta'kidlab ko'rsatish, kerak bo'lsa, egadan keyin tire (–) qo'yilishi (sen – yetim emassan!) ta'kidlanadi.

31-mashq. Tobe va hokim munosabatni tahlil etish metodikasi.

Darsni mustahkamlash uchun beriladigan ijodiy-amaliy ishlar bilan bir qatorda o'quvchilarga bayon yoki o'qilgan kitobga taqriz, ilmiy-ijodiy matnlar yaratishni tavsiya qilish yaxshi natija beradi. Aniqlovchi haqida avvaldan o'rganilgan bilimlarni xotirlash, takrorlash va mustahkamlash maqsadida quyidagi so'roqlarga javob olinadi:

- aniqlovchi deb nimaga aytamiz?
- aniqlovchi necha turga bo'linadi?
- aniqlovchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

“Aniqlovchi” mavzusini o'rganishda quyidagi amaliy-ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1-topshiriq. So'z birikmalarida tobe va hokim so'zni aniqlash (“halol ish”: halol – tobe so'z, ish – hokim so'z), hokim so'zdan tobe so'zga so'roq berish orqali aniqlovchili birikmalar hosil qilish, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanayotganini aniqlash.

2-topshiriq. Gapdan qaratqichli va ifodalovchili birikmalarni ajratib, izohlang.

3-topshiriq. Sifatlovchi aniqlovchining sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, ot (narsa-buyum materialini bildiruvchi ot) bilan ifodalanishi yuzasidan amaliy-ijodiy mashg'ulotlarni tashkil qiling va bajarang.

4-topshiriq. Aniqlovchining belgili va belgisiz kelishi holatlarini izohlang.

5-topshiriq. Aniqlovchining so'z birikmasi, kengaytirilgan birikmalar bilan ifodalanishiga, ular tarkibidagi nisbiy so'zlar va tinish belgilarining ishlatilishiga e'tiborni qarating.

6-topshiriq. Aniqlovchi vazifasida kelgan gaplarni kengaytirilgan birikmalar bilan almashtiring v. h.

Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap. Mavzuni o'rganishda o'quvchilarga badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, izohlash, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar yordamida matn tuzish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish havola qilinadi: Namuna.

Qissadan hissa

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir.

Birinchisi – ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan bo'ladilar.

Ikkinchisi – baxtiyor tabiatli, saodatmand kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar.

Uchinchisi – beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqiqiy bo'ladi, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi. Xursandchilikda birga bo'lgandek, qayg'u-kulfat chog'larida ham hamisha yoningda bo'ladi. Ularga doimo suyanish, orqa qilish mumkin.

(Abdulbarakot Qodiriy)

Ko'm-ko'k osmonni qora bulutlar qoplaydi, beozorgina tog' shamoli borgan sari zo'rayadi, qurigan ravoch barglari bir-biriga uriladi. Talabalar baxshi kuylayotgan qadimiy afsonalarni zavq bilan tinglaydilar hamda unga Avesto tarixiga doir savollar beradilar. Shohida dugonasining gaplarini sabr-qanoat bilan eshitdi, ammo yupatuvchi bir so'z demadi.

7-topshiriq. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma otlarni topib izohlang.

Mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida qo'shma gaplar tuzish so'raladi:

1. Bahor keldi. Qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladi.
2. Gulchehra chet tillarini o'rganishni yaxshi ko'radi. U rus va ingliz tillarida yaxshi gapiradi.

Namuna: Bahor keldi, shuning uchun qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladilar...

Mavzuni o'rganishda bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtirish, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplardagi ma'noviy munosabatni aniqlash, ulardan o'rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar, sodda gaplarning mazmuni jihatidan birining boshqasiga ergashishidan tuziladi:

“Siz tilagingizga yetasiz, chunki orzuingiz yuksak, qalbingiz toza” gapida ikki sodda gap biri ikkinchisining mazmunini izohlaydi. Bu gapning mazmunini yanada tiniqlashtirish uchun uning sinonimini misol tariqasida keltirish mumkin: Orzuingiz yuksak, qalbingiz toza bo'lgani uchun ham siz tilagingizga yetasiz.

32-mashq. Matn ustida ishlab, tinish belgilarini tog'ri qo'yish ko'nikmasini shakllantirish.

Punktuatsiya o'qitishda turli xildagi diktantlar o'quvchilarning xatosiz yozish malakasini takomillashtirishda katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchining o'qib turish (diktovkasi) orqali o'quvchilar tinish belgilarning qo'yilishi pauza, logik urg'u kabilarga ham bog'liq ekanligini uqib oladilar.

1-topshiriq. Ta'kidiy diktantni o'tkazishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga punktuatsion xato qilishlari mumkin o'rinlarini eslatib, ayrim punktuatsiya qoidalarini ta'kidlaydi va undan so'ng matn o'qib beriladi.

Nazorat diktantida esa bir necha tinish belgilarini o'z ichiga olgan matn tanlab olib, uni aytib turish bilan yozdiriladi. Bunday diktant oraqali o'qituvchi o'quvchilarning umumiy punktuatsion savodxonligini sinab ko'radi.

2-topshiriq. Punktuatsiya bilan bog'liq ish turlaridan yana biri stilistik mashqdir. Bunday mashq nutq o'stirish bilan ham bog'lab olib boriladi.

O'quvchi bir sintaktik konstruksiyani boshqasi bilan almashtiradi: 1. Uyushiq bo'lakli gaplarga umumashtiruvchi so'z qo'yib, tinish belgilarini to'g'ri ishlatish. Bahorda hamma qushlar: laylaklar, chittaklar, bulbullar uchib keladi. Laylaklar, chittaklar, bulbullar – hamma qushlar bahorda uchib keladi.

33-mashq. “Sharada” she'riy jumbog'i.

Og'zaki boshqotirmalar orasida she'riy topishmoqlar yoki sharadalar alohida o'rin egallaydi. Sharadalar oddiy topishmoqlardan ma'lum ma'noda farqlanadi.

Sharada (fransuzcha – suhbat) muayyan bir so'z bo'g'inlarga ajratiladi va ularga jumboqli tavsif beriladi.

Sharadani yechishda so'zning har bir bo'g'iniga, kerak bo'lsa, har bir harfiga diqqatini qaratish kerak bo'ladi. Shu turdagi she'riy jumboqlarda alohida bir bo'g'in fonetik jihatidan to'g'ri bo'lmasligi ham mumkin.

Sharada – she'riy jumboqlar insonni tahlil etishga, mushohada yuritishga o'rgatadi.

Ajoyib, g'aroyib, nafis parranda,
Erkagi chiroyli bo'ladi juda.

Teskari o‘qilsa oxirgi bo‘g‘in,
Usiz hayot qayda, nabotot qayda?

(Tovus)

Sarg‘ayib, to‘kilib, sochilib tugar,
Boshdagi harf ketsa, erta tong, sahar.
Teskari o‘qilsa oxirgi bo‘g‘in,
Ma‘nosi karashma, istig‘no bo‘lar.

(Hazon)

Birinchi bo‘g‘inim aniq ojizlik,
Ikkinchi bo‘g‘in u – yetishmovchilik.
Bo‘lmasdan o‘qisak ushbu sifatni,
Ma‘nosi bo‘ladi chiroy, go‘zallik.

(Ko‘rkam)

Mazali mevaman, ajoyib ne‘mat,
Ikkinchi bo‘g‘inida qisqa bir fursat.
Teskari o‘qilsa oxirgi bo‘g‘in –
Qotgan suv va yana sovuq harorat.

(uzum)

1-topshiriq. Sharada she‘riy jumbog‘iga misollar yozing.

Ilk bo‘g‘inim - yuklama,
Kasbi qo‘shma gap tuzish.
Ikkinchi bo‘g‘in aksi
Kiyim bilan bog‘liq ish.

(kiyik)

O‘zim taomda mumtoz,
So‘nggi bo‘g‘inim – ustoz.
Ilk ikki bo‘g‘in – xoma,
O‘tkir bo‘lsa, juda soz!

(qalampir)

2-topshiriq. Yozgan misollaringizni boshqalarga o‘qib bering. Ular jumboqni topishda qaysi detalga alohida urg‘u berayotganligini ayting.

TESTLAR

1. Ilm-ma'rifat nima orqali taraqqiyotga erishadi?
 - A) ta'lim*
 - B) maqsad
 - C) reja
 - D) amaliyot

2. Yurtimizda 2022-yilga kelib nechta umum ta'lim maktablari mavjud?
 - A) 10280ta
 - B) 10281ta
 - C) 10289ta*
 - D) 1289ta

3. Shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan ma'lumat to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi...
 - A) mutahhasislik
 - B) malaka*
 - C) tarbiya
 - D) ta'lim

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi 5850-sonli farmoni nima haqida?
 - A) Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish. Inson kapitalini rivojlantirish.
 - B) Mamlakatimizda o'zbek tilining yanada rivojlantirish.
 - C) O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.*
 - D) Til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida.

5. "Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir". Jumla qaysi allomaga tegishli?
 - A) Al-Farobiy
 - B) Al-Xorazmiy*
 - S) Beruniy
 - D) Yusuf Xos Hojib

6. 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiradigan nechta lingvistik lug'ati yaratildi?
 - A) 20ta
 - B) 18ta
 - C) 22ta
 - D) 15ta*

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrda 1-sonli qarorining 2-bandiga muvofiq mazkur Qonunning 9-10-moddalari nechinchi yildan e'tiboran kuchga kirgan?

- A) 2021-yildan
- B) 2018-yildan
- S) 2005-yildan*
- D) 2004-yildan

8. Ta'lim jarayonida yetakchi usul qaysi?

- A) Kashfiyot*
- B) Raqobatchilik
- C) Ta'lim
- D) Amaliyot

9. Bugungi kunda ona tili ta'limining yangi pedagogik texnologiyasini o'qituvchilar orasida ommalab turish kerak bo'lgan ongli verbal kognitiv ta'lim usul bu ...

- A) OKVT deb nomlanadi
- B) OVKT deb nomlanadi *
- C) OTVK deb nomlanadi
- D) OVTK deb nomlanadi

10. "Sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin"...kabi fikrlar kimga tegishli?

- A) Abu Ali Ibn Sino*
- B) Abu Nasr Farobiy.
- C) Arastu
- D) Al-Xorazmiy

11. Sharqda ikkinchi muallim deb tan olingan olim kim?

- A) Beruniy
- B) Abu Nasr Farobiy*
- C) Zamaxshariy
- D) Marg'iloniy

13. Shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bu – ?

- A) Ijodkorlik
- B) Intilish
- C) Kreativlik*
- D) Psixologiya

14. Binar so'zining ma'nosi nima?

- A) qo'sh, ikki*

- B) aloqa, aralashuv
- C) maqsad, yondashuv
- D) axborot, ma'lumot

15. Pedagogik treningni tashkil etish quyidagi nechta bosqichdan iborat?

- A) 3
- B) 2
- C) 5
- D) 4*

16. "Comptence" so'zining ma'nosi nima?

- A) Mahorat*
- B) Yugurmoq
- C) Samaradorlik
- D) Xususiyat

17. Standart qanday ma'noni anglatadi?

A) Muayyan hodisani etaloni namunasi, moduli me'yorlarini qoidalari talablarini belgilovchi me'yoriy hujjat.

B) Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash, ta'lim yo'nalishlari

C) Tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar*

D) Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi

18. Davlat ta'lim muassasi bu-?

A) Davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.

B) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa. *

C) Ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.

D) Shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligining ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi.

19. 2022 yilga kelib umumta'lim maktabida nechta o'quvchi ta'lim tarbiya olishmoqda?

- A) 7.5 million
- B) 3.5 million
- C) 6.3 million*
- D) 6.2million

20. Og'zaki nutq malakasini foydalanishi mohiyati?
- A) Turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matn yoza olish
 - B) Mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish *
 - C) Matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qish
 - D) Monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish
21. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari?
- A) Dars inson tafakkuri, mahsuli – bilimni yoshlarga singdirishning asosiy shakllari*
 - B) Fonetik va grammatik asosiy shakllari
 - C) Nutqiy faoliyat shakli, kompetensiyalar
 - D) O'zaki va yozma nutq shakli
22. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi?
- A) telekommunikatsiya hamda og'zaki va yozma matnlarga to'g'ri baho bera olishi
 - B) Badiiy kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish
 - C) Telefon, komputer, internetdan foydalanish va o'z faoliyatida qo'llay olish*
 - D) Badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy madaniy hodisalar
23. Tayanch kompetensiyalarni qachon qanday shakllantirish mumkin?
- A) Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi orqali*
 - B) Tinglab tushunish kompetensiyasini o'stirish orqali
 - C) Gapirish va o'qishni shakllantirish orqali
 - D) Matn yaratish va uni tadbiq etish orqali
24. Lingvistik kompetensiyalarga nimalar kiradi?
- A) Talaffuz va imlo
 - B) Punktatsion, grammatik
 - C) Fonetik, leksik va grammatik*
 - D) Ish qog'ozlari, leksik
25. Ona tili darsligi o'qitishning asosiy vositasi?
- A) Og'zaki bayon, pedagogic mahorat
 - B) Pedagogik mahorat
 - C) Ta'lim, metod, og'zaki bayon, ko'rgazma*
 - D) Suhbat, ta'lim, ko'rgazmalik
26. Nechinchi yildan boshlab o'zbek tili va adabiyoti fanlari bo'yicha bilimni baholash bo'yicha umummmilliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi belgilanadi, davlat tilini bilish darajasi to'g'risidagi guvohnomalar beriladi?
- A) 2020-yil 7-aprel

- B) 2021-yil 1-aprel*
- C) 2022-yil 3-iyul
- D) 2019 -yil 4 fevral

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarning umumiy cheklangan soni nechta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan?

- A) 6
- B) 7
- C) 8
- D) 9*

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli farmoni to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A) "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"
- B) "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish, til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*
- C) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish"
- D) "Til siyosati va lotin yozuviga o'tish muddatini belgilash"

29. Bixevioristik yondashuv bu-?

- A) Xatti harakatlarda onglilik- ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi
- B) Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur
- C) Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi *
- D) Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish

30. Kognitiv yondashuv bu-?

- A) Xatti harakatlarda onglilik- ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi*
- B) Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur
- C) Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi
- D) Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish

31. So'z va tasavvurlar asosida mantiqiy fikrlash qobiliyati bolalarning necha yoshlarida ko'proq rivojlanadi?

- A) 10-11, 13-14

- B) 12-13, 15-16
- C) 11-12, 15-16*
- D) 9-10, 12-13

32. Tarbiya bu?

A) Aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni kamol toptirishiga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.*

B) Ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

C) Yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini, ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyani axborot, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan o'quv jarayoni ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuqori samaradorligini ta'milaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

D) Ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlari va ularni vakillari.

33. "Muallim shogirdlariga bergan darslarini amal ila chog'ishtirib o'rgatmaklari lozimdur, ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmli, odobli bo'ladilar" ushbu parcha qaysi asarda keltirilgan?

- A) "Turkiy guliston yoki axloq"*
- B) "Padarkush"
- C) "Qobusnoma"
- D) "Muallimi soniy"

34. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, uni "guhari sharif"deb kim ta'riflaydi.

- A) Z.M.Bobur
- B) Nodira
- C) A.Navoiy*
- D) Ogahiy

35. "Lison ul-arab" (Arab tili) nomli kitobning muallifini belgilang.

- A) M. Qoshg'ariy
- B) Ibn Sino*
- C) Ogahiy
- D) Atoiy

36. Bizning davrimizga kelib insoniyat 200 xil yozuvga ega. Ulardan eng ko'p va keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, bu yozuvdan yer yuzi aholisining necha foizidan ziyodi foydalanadi?

- A) 20%
- B) 30%*
- C) 40%
- D) 25%

37. "Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir" deb fikr bildirgan buyuk mutafakkirimiz kim?

- A) A. Navoiy
- B) Z.M. Bobur
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Al Xorazmiy*

38. Mahorat so'zining ma'nosini belgilang

- A) mohirlik
- B) ustalik
- C) epchillik
- D) barcha javoblar to'g'ri*

39. Pedagogik mahorat bu-?

A) O'qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi bo'lib, muayyan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidan iborat.*

B) Pedagog shaxsning insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi.

C) Pedagogning ta'lim oluvchilarga mehribonligi.

D) Har bir ta'lim oluvchiga insonparvarlik nuqtayi nazridan yondoshishi zarurati.

40. Didaktik usul bu-?

A) Barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik

B) Qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati.

C) Bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tushuntira olish*

D) Ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq.

41. Harbiy atamalar joylashgan qatorni belgilang.

A) Partiya, majlis, muzey

B) Intizom, sulh, askar*

C) Ayyom, serjant, fursat

D) Kasal, askar, tank

42. Huquqqa oid ilmiy atamalar berilgan qatorni belgilang

- A) Sud, qaror, leytenant
- B) Mudofaa, askar, buyruq
- C) Sud, qaror, musodara*
- D) Ta'lim, savod, intizom

43. Bilim bu-?

- A) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.
- B) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish
- C) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish
- D) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.*

44. Malaka bu-?

- A) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.
- B) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish*
- C) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish
- D) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.

45. Kompetensiya bu-?

- A) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish*
- B) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.
- C) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.
- D) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish

46. "Matn" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) "Qism"
- B) "Tekst"*
- C) "Nutq"
- D) "Ilmiy asar"

47. "Metod" so'zining ma'nosi?

- A) "Yo'l"*
- B) "Yo'nalish"
- C) "Usul"
- D) "Yondashuv"

48. Ma'ruza metodiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni belgilang.

- A) O'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir.
- B) O'rta ta'lim maktablaring yuqori sinflarida, texnikum va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir

o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi.*

C) Yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metod.

D) U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda "izlanish suhbat" deb yuritiladi.

49. Ko'rgazmali metodiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang.

A) Bu didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'rish, o'qish va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi*

B) Bu ta'limning turli guruhlari, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir.

C) Ilg'or o'qituvchilar tajribasida ushbu metod ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusiga kirgan jarayon.

D) Ta'limning ushbu metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

50. Refleksiya so'zining ma'nosi?

A) O'zgarishsiz

B) Aks ettirish*

C) Takrorlamoq

D) Muloqot qilmoq

51. Stereotipizatsiya so'zining ma'nosi?

A) Pedagogik mahorat

B) Aks ettirish

C) Didaktik asos

D) O'zgarishsiz *

52. Rolli o'yin darsi qanday o'tiladi?

A) O'quv fani ayrim bo'yicha bilimni har bir o'quvchi qanchalik ko'p biloishini namoyish etish darsi

B) Dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishni ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi

C) Dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlab va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi*

D) Dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarni o'zlashtirishlarni tashkil etish darsi

53. Teatrlashgan darsga to'g'ri ta'rif berilgan javobni belgilang

A) Tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari asosida o'tiladigan dars

B) Dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur aniq ma'lumotlar berilishi darsi*

C) Dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarni o'zlashtirishlarni tashkil etish darsi

D) Dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishni ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi

54. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga necha yoshlilar jalb qilinadi?

A) 5 yoshdan 9 yoshgacha

B) 6 yoshdan 9 yoshgacha

C) 7 yoshdan 11 yoshgacha

D) 6 yoshdan 11 yoshgacha *

55. Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar necha yoshlilar jalb qilingan?

A) 6 yoshdan 17 yoshgacha*

B) 7 yoshdan 12 yoshgacha

C) 7 yoshdan 14 yoshgacha

D) 5yoshdan 15 yoshgacha

56. Differsiyalash bu?

A) O'quvchilar o'zlari yashaydigan muhit va bu muhitda yashaydigan kishilar bilim olishning eng samarali asoslari hisoblanadi.

B) Yuqori sa'viyani talab qiluvchi fikrlash turlari ya'ni jamlash, tahlil qilish tuzatishlar kiritish bu muammoni bartaraf etish metodologiyasi orqali rivojlantiriladi

C) Bu termin o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan stradegiyalarni izohlaydi hamda o'qitish maqsadiga ko'ra farqlarni ko'rsatib beradi*

D) O'rganilgan bilim va ko'nikmalarniamalda qo'llash karrikulaning asosiy maqsadlaridan biridir.

57. Ijodiy dikantga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A) Ushbu diktantda o'quvchi gapni to'liq yozmaydi, balki gap tarkibidagi ayrim orfogrammalarni yozadi.

B) Ushbu diktant o'quvchilar nutqini o'stirishda, orfografik ko'nikmalarini shakllantirishda kata ahamiyatga ega.*

C) Ushbu diktant ko'p olmasligi, ixchamligi bilan lug'atni boshqa turlaridan farq qiladi.

D) Bu dikant o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarini oldini olish maqsadida o'tkaziladi

58. "Fonetika" so'zining ma'nosi?

A) Imlo

B) Lug'at

- C) Tovush*
- D) Nutq

59. “Fonologiya” so’zining ma’nosi?

- A) Tovush haqida ta’limot *
- B) Imlo qoidalarini o’rganadi
- C) Lug’at haqida tushuncha
- D) Nutq haqida ma’lumot berish

60. Assimilatsiya bu?

- A) Bunda ikkita aynan yoki qisman o’xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o’zgarib, noo’xshash tovushga aylanib qoladi.
- B) So’z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o’rin almashuvidir
- C) Bunda tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o’ziga aynan yoki qisman o’xshatib oladi*
- D) Barcha javoblar to’g’ri

61. “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etish to’g’rida”gi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1993-yil 2-sentabrda *
- B) 1995-yil 21-dekabrda
- C) 1995-yil 24-avgustda
- D) 1995-yil 6-mayda

62. Shakldosh so’z yozilgan qatorni belgilang.

- A) Taqlit
- B) Ko’k*
- C) Jayron
- D) Katta

63. Affikatsiya usuli bilan yasalgan so’zni belgilang

- A) ish+chi (ishchi)*
- B) ot+boqar (otboqar)
- C) hol+bu+ki (holbuki)
- D) BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)

64. “Modal” so’zining ma’nosi nima?

- A) usul, o’lchov*
- B) vosita, bog’lovchi
- C) yordamchi so’zlar
- D) bog’lovchi, qo’shimcha

65. Xalq yaratgan g’oyat ixcham, chuqur mazmunli gaplar..... Nuqtalar o’rniga kerakli so’zni qo’ying.

- A) Iboralar
- B) Maqol*
- C) Hadis
- D) Topishmoq

66. Yosh avlodning fikrlash qobiliyatlarini o'zlashtirish, mustaqil faoliyatga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.

- A) Iboralar
- B) Maqol
- C) Hikmatli so'zlar
- D) Topishmoq*

67. Nechinchi yilda "2022 – 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur"ni tasdiqlash haqidagi PF – 134-son Farmonida tizimni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan?

- A) 2022-yil 7-iyun
- B) 2022-yil 17-dekabr
- C) 2022-yil 11-may*
- D) 2022- yil 7-avgust

68. O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni "Xalq so'zi" gazetasining nechinchi sonida e'lon qilingan?

- A) 1993-yil 12-oktabrdagi 198(693)-sonida *
- B) 1994-yil 24-avgustdagi 106(256)-sonida
- C) 1993-yil 25-maydagi 195(452)-sonida
- D) 1995-yil 17-sentabrdagi 167(675)-sonida

69. "Devonu lug'atit turk" asarining muallifi kim?

- A) Al Xorazmiy
- B) Ibn Sino
- C) Mahmud Qoshg'ariy*
- D) Abu Rayhon Beruniy

70. An'anaviy ta'limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi keltirilgan qatorni belgilang.

- A) Savodxonlik;
- B) To'g'ri va chiroyli yozish;
- C) Yozma nutqni rivojlantirish;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.*

71. Nechinchi yildan boshlab umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, innovatsion

metodlar asosida dars berish sifatli ta'lim olish uchun barcha zarur sharoitlar yaratishga eng ustivor vazifa sifatida qarala boshladi?

- A)2016*
- B)2017
- C)2022
- D)2023

72. Qachondan an'anaviy o'qitish usullari yoniga yangi –Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shila boshlaydi?

- A) XVI-XIX asrlarda
- B) 1960-80-yillarda
- C) XXasr boshlarida*
- D) 1940-yillarda

73. O'zbek tili bayrami kuni deb qaysi sana belgilandi?

- A) 21-oktabr*
- B) 22-oktabr
- C)23-oktabr
- D) 20-oktabr

74. So'z bilan "O'likni tiriltirish va aksincha, tirikni o'ldirish mumkin" ushbu jumla qaysi allomaga tegishli?

- A) Al-Xorazmiy
- B) Al-Forobiy
- C) Alisher Navoiy*
- D) Yusuf Xos Hojib

75. Nutqning yana bir vazifasi uning..... ekanligidadir. Nuqtalar o'rniga qaysi so'zni qo'yishmumkin?

- A) Tafakkur
- B) so'z quroli
- C) yozma
- D) tafakkur quroli*

76. "Bilim ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim". Ushbu fikr qaysi tilshunosga tegishli?

- A) Beruniy
- B) Navoiy
- C) Al- Xorazmiy
- D) Al-Farobiy*

77. “Bilim ma’rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon ma’rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta’lim jarayoni o’qituvchi tomonidan to’g’ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma’lum maqsadlarga yo’naltirilishi lozim”. Ushbu Al-Farobiyning qaysi asarda berilgan?

- A) “Turkiy so’zlar devoni”
- B) “Lison ut-tayr”
- C) ”Ta’lim- tarbiya berishusullari” *
- D) “Orfografiya o’qitish metodikasi”

78. Kim tilni “guhari sharif” deb ta’riflaydi?

- A) Yusuf Xos Hojib
- B) Koshg’ariy
- C) Farobiy
- D) Navoiy*

79. Mahorat so’zining ma’nosi qaysi qatorda to’g’ri berilagan?

- A) Yunoncha “mohirlik”
- B) arabcha “mohirlik”*
- C) yunoncha “epchillik”
- D) turkiycha “ustalik”

80. Ta’lim beruvchi shaxs nechta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligi Sherbakov ta’kidlaydi?

- A) 6ta*
- B)7 ta
- C)8 ta
- D) 9ta

81. Ta’lim beruvchi shaxs 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini qaysi olim ta’kidlaydi?

- A) Ayitmetov
- B) Sherbakov*
- C) Sos
- D) Forobiy

82. Nechinchi yilda chet tillarni o’qitishni takomillashtirish to’g’risidagi farmonga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS ishlab chiqilgan?

- A) 2010
- B) 2011
- C) 2012*
- D) 2013

83. Ona tili darslarini tashkil etishda fikrlarni, sababini keltirib, misollar asosida umumlashtiriladigan metod qaysi?

- A) “BBB”
- B) “FSMU”
- C) “VENN diagrammasi”
- D) “Yelpig’ich”

84. Nutqning kompatensiya elementlarini ona tili darslarida shakllantirishda nutqiy kompatensiyaga nimalar kiradi?

- A) Tinglab tushunish, gapirish, o’qish. *
- B) Yoshish
- C) faqat tushinish
- D) faqat o’qish

85. “Ona tili ta’limi mazmuni” asari muallifi kim?

- A) Ayimbetov
- B) Sherbakov
- C) A. G’ulomov va H. Ne’matov*
- D) N.Mahmudov

86. Sinf ikki guruhga bo’linadi. 1-guruhga to’liqsiz fe’llarni shaxslar bo’yicha o’zgartirish, 2-guruhga esa uning boshqa so’zlar bilan biri kishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Topshiriq turi guruhlararo alishtiriladi. Berilgan vaqt davomida topshiriqni bo’ladi. Nuqtalar o’rniga qaysi so’zni qo’yish mumkin?

- A) Venn diagrammasi
- B) ertak o’yini*
- C) Binar o’yini
- D) 5 savolga 5 javob o’yini

87. Oltin uzuk, temir yo’l, yengil eshik, oltin bosh, temir intizom, yengil ta’lim. Ushbu so’zlar qaysi ma’noda kelayapti?

- A) o’z va ko’chma *
- B) ko’chma va o’z
- C) o’z ma’noda
- D) ko’chma ma’noda

89. “Metod” so’zi ma’nosi qaysi qatorda to’g’ri berilgan?

- A) Fransuzcha “metod”, “yo’l”
- B) arabcha “yo’l”
- C) yunoncha “metodos”- “yo’l”*
- D) inglizcha metodod-“yo’l”

90. Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy haraktlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'usi, mustaqil fikrklash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Ushbu fikr kimfa tegishli?

- A) K.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unov*
- B) Ayimbetov va Sherbekov
- C) Ayimbetov va Jo'rayev
- B) Turg'unov va Sherbekov

91. ... – bu o'qituvchi pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlar majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagog faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan darajadir. Nuqtalar o'rniga javobdagi qaysi so'zni qo'yish mumkin?

- A) Pedagogik mahorat
- B) Ta'lim tamoyillari
- C) texnologik yondshuv
- D) Pedagogik qobiliyat*

92. Releksiya nima?

- A) Lotincha “aks ettirish”*
- B) inglizcha “aks ettirish”
- C) grekcha “o'zgarishsiz”
- D) yunoncha “yo'l”

93. Stereotipizotsiya nima?

- A) yunoncha “aks ettirish”
- B) grekcha “o'zgarishsiz takrorlash”
- C) inglizcha “o'zgarishsiz takrorlanish”
- D) inlizcha “aks ettirish”

94. Kim tomonidan o'tkazilgan suhbatga ko'ra kishining tashqi qiyofasi va uning характери haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviylashib ketganligi tasdiqlandi?

- A) Ayimbetov
- B) Jo'rayev
- C) A.A.Badalov*
- D) Sherbakov

95. Didaktika nima?

- A) Yunoncha “didaktikos” – “o'zgaruvchi, ta'lim beruvchi”*
- B) Inglizcha “didaktikos” “o'zgaruvchi” “ta'lim beruvchi”
- C) Yunoncha “O'rganuvchi”

D) Fransuzcha “ta’lim beruvchi”

96. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada nechinchi asrda o’qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo’llanila boshlagan?

- A) XIV
- B) XV
- C) XVI
- D) XVII*

97. Aqliy hujum usulini birinchi marta kim qachon qo’llangan?

- A) Ayimbetov XXasrning 60-yillari
- B) Sherbakov 1939-yil
- C) 1939-yilda A.F.Osborn*
- D) Turg’unov XXasrning 60-yillari

98. AQSH bolalari necha yoshdan maktabga boradi?

- A) 6*
- B) 7
- C) 8
- D) 9

98. AQSH ta’limida 9-sinfgacha qaysi fanga asosiy e’tibor qaratiladi?

- A) ijtimoiy
- B) texnikaviy fanga
- C) matematika
- D) tabiiy fan*

99. Bu metodologiya har qanday korrikula uchun asosiy hisoblanadi. Bu metodologiya orqali o’rganish asosan tajriba va muloqot orqali amalga oshadi. Qaysi metodologiya haqida ma’lumot berilgan?

- A) Suhbat va munozara*
- B) faol o’rganish
- C) hamkorlikda o’rganish
- D) muammoni bartaraf etish

100. Mustaqil faoliyatga yetaklovchi ta’lim haqiqatga go’zallikka ezigulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchni tarbiyalaydi”. Ushbu fikr qaysi metodist- pedagogga tegishli?

- A) Sos
- B) Ayitmetov
- C) A. Disterverg*
- D) A. F. Osborn

101. O’zbek tili turkey tillar guruhining qaysi oilasiga mansub?

- A) Oltoy tillari*
- B) hind- yevropa tillar
- C) mo'g'il tillari
- D) tungus- monchjur tillari

102. So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'sir natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish)ga qaysi hodisa kiradi?

- A) kombinator o'zgarish
- B) so'z urg'usi
- C) assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza*
- D) fonetik tamoyil

103. Yunoncha morphe – “ haki”, logos – “ta'limot” so'z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir.

- A) Fonetika
- B) morfologiya*
- C) sintaksis
- D) leksikologiya

104. Praga Universiteti qachon tashkil etilgan?

- A) 1347
- B) 1348*
- C) 1349
- D) 1350

105. “Yoshlikda zahmat chekib ilm o'rgansang kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan”. Ushbu jumla muallifi kim?

- A) Yusuf Xos Hojib
- B) Koshifiy*
- C) Koshg'ariy
- D) Zamaxshariy

106. “Ilm asosiga qurilmagan ulug'likning oxiri xorlikdir” Ushbu hikmat muallifi kim?

- A) Yusuf Xos Hojib*
- B) Koshg'ariy
- C) Koshifiy
- D) Zamaxshariy

107. Ilmiy-ijodiy faoliyat bu?

A) Bunda talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozasiga ko'ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi.*

B) Bu faoliyatda talaba yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalariningo'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uning topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim.

C) O'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikdan berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir bu esa o'rganuvchini faollik darajasini chegaralaydi.

D) Egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatning amalga oshirish qobiliyati, malaka esa muayyan harakatlarini bajarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashuvidir.

108. Qayta xotirlash faoliyati nima?

A) O'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikdan berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir bu esa o'rganuvchini faollik darajasini chegaralaydi.*

B) Egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatning amalga oshirish qobiliyati, malaka esa muayyan harakatlarini bajarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashuvidir.

C) Bunda talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozasiga ko'ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi.*

D) Bu faoliyatda talaba yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalariningo'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uning topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim.

GLOSSARIY

Adverbializatsiya – boshqa turkumga oid soʻzning ravishga koʻchishi.

Adyektivatsiya – sifatlashish, boshqa soʻz turkumining sifatga oʻtishi.

Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega boʻlishlik.

Akkreditatsiyasi – davlat taʼlim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat taʼlim tashkilotlari faoliyatining davlat taʼlim standartlari va davlat taʼlim talablariga hamda oʻquv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan eʼtirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga maʼlumot toʻgʻrisidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon.

Aktiv metod – taʼlim jarayonining markazida oʻquvchi boʻlishi, oʻqituvchi passiv, oʻquvchi esa faol ishtirokchi boʻladi.

Alʼternativ savollar – “Ha” yoki “Yoʻq” deb javobni berishi mumkin boʻlgan savollar.

Anʼanaviy dars – muayyan muddatga moʻljallangan, taʼlim jarayoni koʻproq oʻqituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat taʼlim modeli.

Assimilatsiya – tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni oʻziga aynan yoki qisman oʻxshatib olishi. Toʻliqsiz assimilatsiya – soʻz tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni oʻziga qisman oʻxshatib olishi. Toʻliq assimilatsiya – soʻz tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan oʻzi kabi tovushga aylantirishi.

Axborotli qoʻlqop – virtuallikni oshirish maqsadida ishlatiluvchi qoʻlqop boʻlib, u yordamida virtual borliqdagi predmetlarni ushlab, surish va harakatga keltirish mumkin.

Bilim – oʻrganilgan maʼlumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

Binar – lotincha “qoʻsh”, “ikki” degan maʼnoda qoʻllaniladi.

Charxpalak metodi – oʻquvchilarga oʻtilgan mavzu boyicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metod.

Dars – oʻquvchi va oʻqituvchi hamkorligida, dastur va darsliklar asosida, izchil tartib va oldindan belgilangan yoʻsinda, doimiy oʻquvchilar jamoasi bilan oʻtkaziladigan, taʼlimning yetakchi shakli.

Davlat taʼlim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki boʻlgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat taʼlim standartlariga va davlat taʼlim talablariga muvofiq taʼlim beradigan muassasa.

Davlat taʼlim standartlari – davlat tomonidan taʼlimning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.

Davlat taʼlim talablari – taʼlimning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek taʼlim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qoʻyiladigan majburiy talablar.

Davra suhbat – o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodi.

Denotat – so‘z yoki so‘z aniqlovchisining predmetlik ma‘nosi.

Didaktik o‘yin – ta‘lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta‘limiy maqsadlarga erishishga yani o‘tilgan o‘quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan usul.

Didaktika – (yunoncha “didaktikos” – o‘rgatuvchi, ta‘lim beruvchi) pedagogikaning tarmog‘i.

Didaktiv qobiliyat – oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olish.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obektlarga bir davrning o‘zida o‘z munosabatini bildirish.

Dissimilatsiya – ikkita aynan yoki qisman o‘xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o‘zgarib, noo‘xshash tovushga aylanishi.

Faol ta‘lim – ta‘lim jarayonida ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta‘minlovchi tizimli pedagogik jarayon.

Fikrni og‘zaki bayon qilish – og‘zaki nutqning to‘g‘ri, ravon, aniq, tushunarli va ta‘sirchan bo‘lishi, monologik nutq, dialogik nutq mantiqiy jihatning aniq bo‘lishi, matn mazmunining mos bo‘lishi.

Foydalanish – vazifasi va amalda qo‘llanishiga ko‘ra ma‘lum bir o‘qigan narsamizdan biror maqsadda ishlatish.

Grammatika – grekcha “grammatike” so‘zidan olinib, “o‘qish va yozish haqidagi bilim” degan ma‘noni bildiradi hamda tilning grammatik qurilishini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi.

Insho – arabcha “paydo qilish”, “yaratmoq”, “ijod”, “yuzaga keltirish”, “yozuv”, “sochma asar”, “xat” singari ma‘nolarni bildiradi.

Integral (integratsiyalangan) **dars** – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta‘lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydigan dars.

Integratsiya – fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligi.

Ishbop o‘yin – berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi.

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorat.

Kichik guruhlarda ishlash – o‘qituvchi tomonidan berilgan ma‘lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metod.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Kinoya – so‘zlarning aks ma‘noda qo‘llash hodisasi.

Klassifikator – oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro‘yxati.

Ko‘nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish.

Ko‘rgazmali metodlar – ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko‘p darajada bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialini o‘zlashtirish shakllari.

Kommunikativ qobiliyat – muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri yondoshish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

Kompetensiya – inglizcha “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma‘noni bildirib, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati. 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; etarli ma‘lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 3) asosli, e‘tiborli, mo‘tabar; 4) huquqqa ega bo‘lgan, vakolatli.

Kompetentlik – kompetensiyalarni qo‘llay olishda inson ega bo‘lishi kerak bo‘lgan minimal tajribaga egalilik.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradigan dars.

Konsruktiv qobiliyat – o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati.

Konyuksionalizatsiya – boshqa turkumga oid so‘zlarning bog‘lovchiga ko‘chishi.

Kreativlik – (keng ma‘noda) shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma‘naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarish.

Kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishi.

Ma‘ruza – katta hajmdagi o‘quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etishdir.

Mahorat (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

Malaka – (keng ma’noda) shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi.

Malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.

Matn – (keng ma’noda) mazmun, uslub va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan va aniq ketma-ketlikda joylashgan gaplar qatoridan tuzilgan tugallangan asar.

Matn – arabcha “tekst” so‘zi bilan bir xil ma’no anglatadi.

Me’yor – til imkoniyatlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari majmui.

Metafora – (grekcha metaphora – “ko‘chirma”) narsa va hodisalar orasidagi o‘xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo‘lgan so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun qo‘llash.

Metateza – so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o‘rin almashuvi.

Metod – (yunoncha “metodos” – “yo‘l”) muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish (bilish) usullari majmui.

Metodik – metod va metodikaga xos, usuliy ma’nolarini bildiradi.

Metodika – (yunoncha) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi, o‘qitish usullari haqidagi ta’limot.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’no ko‘chish hodisasi.

Morfologiya – (yunoncha morphe – “shakl”, logos – “ta’limot”) so‘z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta’limot.

Muammoli vaziyat – o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topishga asoslangan metod.

Mulohaza yuritish – o‘quvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtda o‘zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanishi. Har bir o‘qish harakati mulohazani talab qiladi: o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni tashqi ma’lumotlar bilan bo‘glaydi va tahlil qiladi.

Multimediya 1 – komp’yuterda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarining chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to‘laqonli videokliplar hamda videofilmlar bilan ishlash.

Multimediya 2 – (Multimediya-ko‘p muhitlilik) komp’yuter texnologiyasining turli xil fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h. k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo‘lgan

(magnit va optik disklar, audio va video lentalar va h. k.) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq sohasidir.

Mustaqil ta‘lim – bu insonning o‘zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni.

Mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

Nodavlat ta‘lim tashkiloti – davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

Nutq – tafakkur mahsuli.

Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma‘noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq

O‘qish – harflarni to‘g‘ri talaffuzi, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qilishi, gap ohangi, gapdagi tinish belgilarining talaffuzi, sanash va ajratish ohanglaridan to‘g‘ri foydalanish, so‘z urg‘ulari, murakkab tipdagi ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuzi, mumtoz adabiyot namunalarini, so‘z, ibora va atamalarni to‘g‘ri talaffuzi, ma‘nosini anglash.

O‘yin – bolalar yashayotgan va o‘zgartirishlari kerak bo‘lgan dunyo sari yo‘l (Maksim Gorkiy).

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Ona tili o‘qitish mazmuni – fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to‘g‘ri, aniq ifodalash, ifodali o‘qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

Ongli verbal – kongnitiv ta‘lim (OVKT) tizimi.

Passiv metodlar – ta‘lim jarayonining markazida o‘qituvchi bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchi bo‘lib qoladi.

Pedagogik dasturiy vositalar – komp’yuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita.

Pedagogik mahorat – 1) kasbiy ko‘nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) Shaxsning kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; 3) san‘at darajasidagi mahorat; 4) pedagogik mohirlik, san‘at va bilimdonlikni ifodalovchi atama.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo‘lib, muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar yig‘indisidan iborat. Ta‘lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o‘qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste‘dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta‘lim, tushuncha, ko‘nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik qobiliyat – bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo‘lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo‘lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug‘ullana olish layoqatining shakllanganligini ko‘rsatuvchi muayyan daraja.

Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira oliSh qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlik.

Pronominalizatsiya – boshqa so‘z turkumlarining olmoshga ko‘chishi.

Punktuatsiya – ishora belgilari (tinish belgilari) haqidagi fan.

Qopqon yoki qalbaki savollar – biror o‘quvchini uyaltirish uchun, yashiringan tanbeh yoki kesatib gapirishlar tariqasida berilgan savollar.

Refleksiya – (lotincha aks ettirish) o‘z fikr va kechinmalarini tahlil qilish va mulohaza yuritish, ya’ni muloqotga kirishuvchining suhbatdosh uni qanday idrok etayotganligini anglash.

Rolli o‘yin – o‘quvchilar tomonidan hayotiu vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metod.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum ro‘llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Savol-javob metodi – o‘quvchilargan mavzu yuzasidan savollarga javob berishni nazarda tutadigan metod.

Sinekdoxa – narsa yoki shaxs qismi nomini aytish bilan o‘zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma’no ko‘chish hodisasi.

So‘z turkumlari – so‘zlarning muayyan til doirasidagi umumiy grammatik ma’nolari hamda o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ma’lum guruhlariga ajratilishi.

Standart 1 – muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

Standart 2 – konsensus asosida ishlab chiqilgan va faoliyatning har xil turlariga, ularning natijalariga tegishli bo‘lgan umumiy va takror foydalaniladigan qoidalar, umumiy prinsiplariga, tavsiflari belgilangan va ma’lum sohada eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo‘naltirilgan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan hujjat.

Stereotipizatsiya – grekcha o‘zgarishsiz, takrorlanish degan ma’noni bildiradi. Stereotipizatsiya mos ma’lum yoki taxminan ma’lum bo‘lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo‘li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash.

Substantivatsiya – boshqa so‘z turkumlarining ot o‘tnida kelishi, ya’ni otlashish jarayoni.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Suggestiv savollar - o'qituvchi o'quvchilar uning fikriga qo'shilishlarini talab qiluvchi chaqiriqini savol shaklida ifodalash.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

Ta'lim metodi – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyat.

Attestatsiyasi ta'lim tashkilotlari – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Tag ma'no – ifodalanayotgan gapning ko'chma ma'nosi.

Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Tashkilotchilik qobiliyati – o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Tekst – lotincha yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va boshqalarning bir parchasi, matn.

Tergovchi-bilimdon darsi – dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo'lib, o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratishi.

Texnologik yondashuv – bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayon.

Trening – inglizcha maxsus rejim, trenirovka degan ma'noni bildiradi. Zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishi.

Tushunish – “o'qib tushunish” atamasining ommaviy tasdiqlangan tushunchasi, bunda o'qish orqali o'quvchining avvaldan mavjud bilimi bilan matndan olingan ma'lumotni ma'lum darajada integratsiyasini talab etadi.

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi asosida ma'no ko'chish hodisasi.

Verbalizatsiya – boshqa turkum soʻzlarining feʼlga oʻtishi, yaʼni feʼllashuvi.

Videolugʻat diktanti – oʻquvchilarda tezkor fikrlash koʻnikmalarini shakllantirib, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradigan diktant shakli.

VR-kostyum – virtual borliqning eng toʻliq toʻplamli qurilmasi hisoblanadi. Tananing barcha nuqtalaridagi harakatni kuzatib boruvchi koʻpgina magnitli sensorlardan iborat kombinzon.

Yamarka darsi – dars mavzusini boʻlaklar boʻyicha oldindan oʻzlashtirish oʻquvchilarning oʻzaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali oʻtiladigan dars

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Davlat ta'lim standartlari" T., 2016-yil.
2. "Davlat tili haqida"gi Qonun, 1989, 1995.
3. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun.
4. "Milliy dastur". – T.; 2022-2026-yillar.
5. "O'zbek tilining imlo lug'ati" (E. Panasenko, E. Umarov. Toshkent-1998.
6. "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga sharhlar". – T.: O'zbekiston, 1999.
7. "Qalqon" jurnali, 2004-yil, 7-son
8. "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun. "Ma'rifat", 2020.
9. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002.4-son.
10. Abduqudusov O. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2002.
11. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005.
12. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 631 b. Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san'at. – T.: Fan, 2006.
13. Asqarova O., M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" – T., "Talqin" 2008.
14. Azizxo'jaeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
15. Bahriddinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili (majmua) – T., 2016.
16. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – T.: O'qituvchi. 1995.
17. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
18. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2006.
19. Berdialiyev A. O'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. – Toshkent: Fan, 1992.
20. Bobokalonov R, Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. – T.: 1998.
21. Boymirzayeva S. Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar sinonimiyasi // Til va adabiyot ta'limi. 2002. N5. – B. 38.
22. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta'lim –tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent – 2010.254-255 b.
23. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T., 1985.
24. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2010.
25. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.

26. Ishmuxamedov R. J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
27. Ismatov S. O'rta maktabning yuqori sinflarida insho. – T., 1973.
28. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (o'quv qo'llanma)–T.: Muharrir, 2011.
29. Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – T.: Turon zamin ziyo, 2017.
30. Mahmudov N. Jamiyatda til sezgisi va so'z sevgisi barqarorlash mog'i zarur. // "Til va adabiyot ta'limi" jurnalining 2017-yil 10-son.
31. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti, 2012. – 5-son.
32. Mahmudov N. va boshqalar "Davlat tilida ish yuritish" akademik litseylar uchun darslik –Toshkent; 2008.
33. Mahmudov N., Nurmonov A. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" – T.: O'qituvchi, 1995.
34. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. "Ona tili" 5-11-sinflar. – T.: "Ma'naviyat", 2015-2021.
35. Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedov A., Solixo'jayeva. "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi". – T.: Fan, 1992.
36. Mahmudov N., To'xlijev B. "O'zbek tilini o'rganamiz" rasmiy lug'ati.
37. Mavlonova R. "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004.
38. Mengliev B. Ona tili ta'limi: davr talabi va ijtimoiy zarurat. // "Ma'rifat" gazetasining 2017-yil 22-fevral soni.
39. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
40. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
41. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
42. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
43. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
44. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – T.: Universitet, 1999.
45. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
46. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. – T.; 2001.
47. NurmonovA. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.; 1988.
48. NurmonovA., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.– T.: Fan, 1992.
49. O'rinboyev B. FunkSIONAL uslubiYAT va uning mohiyati. – T: Fan, 1992.

50. O'sarov O'. T. Qasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha diplom loyixasini bajarish uchun metodik tavsiyalar. – Samarqand. 2010.
51. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2004.
52. Qodirov P. Til va el. – T.: G'afur G'ulom, 2005.
53. Rafiyev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. O'quv qo'llanma. – T.; 2003.
54. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi – T.: Universitet, 1999.
55. Rahmatullaev Sh. va boshq. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1995.
56. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – T., 2006.
57. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: 2010.
58. Shamsiyeva M. So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rganish. Ilmiy-metodik to'plam. – T.: 1993.
59. Supiyeva Buxolidaning fikr va g'oyalari
60. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
61. To'xtaxojayeva M. "Pedagogika" – T.: O'qituvchi 2010.
62. Tolipov O', No'monova N. Zamonaviy didaktik o'yinlarni ta'lim jarayonidagi o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. 4-son.
63. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.; 2021.
64. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'olajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
65. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
66. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.; 2008.
67. Yoqubbekova M. Insho – bilim va savodxonlik mezoni. – Andijon, 1992.
68. Ziyodova T.U. "Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish". O'quv-metodik qo'llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.
69. Ziyodova T.U. O'qituvchi kitobi. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2002.
70. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazaryasi).O.O'Y uchun qo'llanma. – T.: Sharq, 2006.-132 b.

Elektron adabiyotlar va internet saytlari

71. <http://library.navoiyuni.uz/files/sultonsaidova%20s.%20o'zbek%20tili%20stilistikasi.pdf>
72. <http://www.myshared.ru/slide/1437747/>
73. <https://fayllar.org/adabiy-til-sozlashuv-tili.html?page=3>
74. <https://lex.uz/docs/-5013007>

75. <https://onlinedu.uz/> – A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot insituti "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi
76. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-70992-1.html?page=5>
77. <https://uz.warbletoncouncil.org/lenguaje-coloquial-585>
78. www.bimm.uz– O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz
79. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti
80. www.edunet.uz – Maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.
81. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o‘rta dasturlarini rivojlantirish markazi
82. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali
83. www.natib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmii sayti
84. www.uzedu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
85. www.ziyo.uz – Ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi materiallar sayti
86. www.ziyonet.uz – Ijtimoiy axborot ta’lim portali

MUNDARIJA

Kirish.....	3-5
O‘zbek tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy me’yoriy asoslari. O‘zbek tili o‘qitish metodikasining umumiy masalalari.....	6-24
O‘zbek tili o‘qitishning umumdidaktik va o‘ziga xos tamoyillari. Fan o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kasbiy talablar.....	24-47
Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan DTS va o‘quv dasturlar mazmuni.....	47-67
Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish.....	67-82
Ona tili ta’limi vositalari va an’anaviy metodlari.....	83-102
O‘zbek tili o‘qitish metodlari. Ona tili ta’limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish. Ona tili darslarini rejalashtirish.....	102-144
O‘zbek tilidan izchil kursni o‘rganish metodikasi: fonetika, leksikologiya.....	144-167
Morfologiya, morfemika va so‘z yasalishi bo‘limlarini o‘qitish metodikasi.....	167-199
Sintaksis hamda punktuatsiya bo‘limlarini o‘qitish metodikasi.....	200-233
Nutq uslublari ustida ishlash metodikasi.....	234-251
O‘quvchilarning og‘zaki, yozma va bog‘lanishli nutqini o‘stirishning o‘ziga xos hususiyatlari. Ona tili darslari bo‘yicha nazorat shakllari va uni tahlil etish yo‘llari.....	251-290
Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi. Ona tili o‘quv xonasini jihozlash va dars metodlari.....	291-313
Ilovalar.....	313-369
Foydalanilgan adabiyotlar.....	370-373
Mundarija.....	374